

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QUROLLI KUCHLARI
KICHIK MUTAXASSISLAR TAYYORLASH MARKAZI**



**“HARBIY PSIXOLOGIYA:
ZAMONAVIY YONDASHUVLAR,
MUAMMOLAR VA TAKLIFLAR”**
mavzusidagi Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy
konferensiya ilmiy maqolalar to‘plami

Samarqand – 2024

“Harbiy psixologiya: zamonaviy yondashuvlar, muammolar va takliflar”.
Respublika ilmiy-amaliy konferensiya ilmiy maqolalar to‘plami. – Samarqand:
O‘R QK KMTM, 2024. – 424 bet.

Konferensiyaning ilmiy maqolalaridan iborat mazkur to‘plam harbiy ta’lim muassasalarida Harbiy psixologiya fanining zamonaviy usullari, uni takomillashtirish bo‘yicha takliflar hamda bu sohada hal qilinishi lozim bo‘lgan dolzarb masalalar, fan doktorlari, professor-o‘qituvchilar hamda ilmiy tadqiqot ishlarini boshlagan tadqiqotchilar, magistrantlar, iqtidorli talabalarning izlanish natijalari o‘rin olgan.

To‘plamdagi ilmiy maqolalar harbiy xizmat faoliyatida Harbiy psixologiyani rivojlantirish hamda sohaga oid ilmiy-tadqiqot faolligini oshirish masalalari bilan ilmiy izlanuvchilar e’tiboriga molikdir.

Tahrir hay’ati : Djabbarov A.A., psixol.f.f.d.(PhD), polkovnik;
Abdurahimova D.A., p.f.d.(DSc), professor;
Ravshanov L.U., psixol.f.d.(DSc), dotsent, podpolkovnik;
Butayeva U.A., psixol.f.f.d.(PhD), dotsent;
Sultonov U.B., psixol.f.f.d.(PhD), podpolkovnik;
Yakubov S.U., psixol.f.f.d.(PhD), podpolkovnik;
Musulmanov A.U., dotsent;
Mirabdullayeva Sh.A., dotsent;
Urazoliyev A.B., podpolkovnik;
Abdumannatova N.A., katta o‘qituvchi;
Ulug‘ov J.N., o‘qituvchi.

To‘plamdan o‘rin olgan maqolalarning saviyasi, sifati va ilmiy dalillarning haqqoniyligi hamda mazmuni uchun mualliflarning shaxsan o‘zlari mas’uldirlar.

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari kichik mutaxassislar tayyorlash markazi Ilmiy-uslubiy kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan.

*O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari
kichik mutaxassislar tayyorlash markazi, 2024-yil*

KIRISH

Ushbu konferensiya o'z nomlanishi bilan judayam dolzarbligini ifodalaydi. Chunki, intellektual jihatdan yetuk, strategik fikrlay oladigan, qo'l ostidagilarni samarali boshqaradigan hamda sog'lom axloqiy-psixologik vaziyatni baholashga qodir harbiy kadrlarni tayyorlash bugungi kunning asosiy talabi hisoblanadi. Harbiy xizmatchilarni axloqiy-psixologik tayyorlashda va ularni hozirgi zamonning professional harbiy mutaxassislari qilib shakllantirishda Harbiy psixologiyaning o'rni va roli kattadir.

Buning uchun, harbiy xizmatchilarda "Harbiy psixologiya" fani o'qitilishi joriy etilgan bo'lib, uning asosiy maqsadi harbiy xizmatchi va harbiy jamoada psixologik holatni ochib berish, jang va xizmat uchun zarur bo'lgan jangovar mahorat va sifatlarni, shuningdek, tinchlik sharoitida va jangovar vaziyatlarda harbiy xizmatchining faoliyati samaradorligini oshirishning psixologik yo'llarini shakllantirishdan iboratdir.

Harbiy xizmatchilarning shaxsiy-kasbiy fazilatlarini belgilovchi psixologik omillarini o'rganish borasida ilk ilmiy tadqiqotlar xorij psixolog olimlari izlanishlarida o'z aksini topgan bo'lsada, jahon harbiy san'atiga bebaho hissa qo'shgan, buyuk sarkarda va davlat arbobi Sohibqiron Amir Temur o'z "Temur tuzuklari"da davlatni boshqaruvi va xizmatini tashkil etishda rahbar va amaldorlarning ruhiy sifatlarini e'tirof etib, sarkardalarni saralash va lavozimlarga qo'yishda ularning nasl-nasabiga, aql-farosatiga, xalqparvarligiga, tinchliksevarlik, sabr-toqatlilik, adolatparvarlik, ko'tarinki ruhiy holatiga, ziyrakligiga, malakasi va odamlar bilan murosa qilish fazilatlariga alohida e'tibor bergan"ligi haqidagi ma'lumotlar mavjud. Bu esa, Amir Temur o'z faoliyatida hozirgi zamon psixologiyasining ijtimoiy-psixologiya, boshqaruv psixologiyasi, etnopsixologiya, operativ faoliyat psixologiyasi, harbiy psixologiya va kasb psixodiagnostikasi ta'limotlaridan oqilona foydalanganligini guvohi bo'lishimiz mumkin.

Qolaversa, "Dunyoning eng qudratli armiyalari" reytingini aniqlashda, davlatlar armiyasining psixologik mudofaa faoliyati va harbiy xizmatchilarning axloqiy-ruhiy tayyorgarligi muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi". Demak, harbiy xizmatchilarning axloqiy-ruhiy tayyorgarligi, psixologik xususiyatlari, jangovar holatini ta'minlovchi psixologik komponentlari va xizmat faoliyatining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari yuzasidan ilmiy tadqiqotlar olib borish zarurligini ta'minlaydi.

Bu esa, "Harbiy psixologiya: zamonaviy yondashuvlar, muammolar va takliflar" mavzusidagi Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiyamizning dolzarb ekanligini belgilaydi.

HARBIY XIZMATDA PSIXOLOGIYANING O‘RNI VA DOLZARBLIGI

*Muxamedova Dilbar Gufurdjanovna –
O‘zMU Psixologiya kafedrasi mudiri,
psixologiya fanlari doktori, professor*

Dunyoda urush va tinchlik kabi insoniyat oldida turgan global muammoni hal etish zarur bo‘lib turgan bugungi tahlikali zamonda Vatanimizning tinchligi, osoyishtaligini ta‘minlash O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilarining, qolaversa har bir fuqaroning muqaddas burchidir. “Dunyoning eng qudratli armiyalari” reytingini aniqlashda, davlatlar armiyasining psixologik mudofaa faoliyati va harbiy xizmatchilarning axloqiy-psixologik tayyorgarligi muhim yo‘nalishlardan biri hisoblanadi[1]. Bu esa, mudofaa va xavfsizlik sohasida amalga oshirilayotgan ishlar Vatan himoyasi, yurt tinchligi hamda davlatimiz istiqboli uchun jonkuyar, fidokor, vatanparvar, vijdonli hamda o‘z xizmat burchini sidqidildan bajaradigan xizmatchilarni yetishtirish vazifasini qo‘ymoqda. Ushbu maqsadlarni samarali amalga oshirishda harbiy xizmatchining ichki dunyosi, uning ruhiyatini har tomonlama o‘rganuvchi psixologiya fanining ahamiyati benihoya kattadir.

Barchamizga ma‘lumki, inson butun hayoti davomida asosan muayyan muammolarni yechish bilan ovora bo‘ladi. Ehtiyoj bor joyda o‘z-o‘zidan turli-tuman muammolar kelib chiqadi. Kattayu-kichik turli muammolar insonni butun umri davomida ta‘qib etadi. Oddiy qilib aytganda, hayot bu – muammolarni yechib borish jarayonidir. Tan olish kerakki, muammolarning katta bir qismi insonlarni bir-birlarini tushunmasliklari oqibatida vujudga keladi. Ota o‘g‘lini, komandir qo‘l ostidagi askarni, rahbar xodimni yoki aksincha, o‘g‘il otani, askar komandirni, xodim esa rahbarni tushunmasa o‘zaro xusumat, xafagarchilik, kek, hattoki o‘z joniga qasd qilish kabilar bilan birga ish samaradorligini pasayib ketishi kabi muammolar vujudga keladi. Harbiy soha xodimlari bir-birlarini yaxshi tushunishlari uchun ruhiyatning tarkibiy qismlarini bilishlari kerak bo‘ladi. Ya‘ni harbiy jamoada yoki boshqa bir guruhda insonlar bir-birlarini ijobiy tushunishlari uchun ular hayotiy hamda ilmiy psixologik bilimlar bilan ma‘lum ma‘noda qurollanishlari lozim. Shundagina paydo bo‘lishi mumkin bo‘lgan muammolarni miqdorini kamaytirish imkoni tug‘iladi.

Inson o‘zining ruhiy imkoniyatlarini to‘g‘ri baholay olgan taqdirdagina hayotda muvaffaqiyatga erishishi mumkin. O‘zining psixologik imkoniyatlariga to‘g‘ri baho bera olmaydigan hamda o‘zini yetarli darajada tushunmaydigan inson hayotda ketma-ket xatolarga yo‘l qo‘yadi. Barkamollik tomon intilayotgan inson psixologik jihatdan doimo o‘zining imkoniyatlari, yutuqlari va kamchiliklarini bilib yurishi kerak bo‘ladi.

Psixologiyaning eng ahamiyatli tomoni shundaki, psixologik bilimlarni tizimli ravishda o‘zlashtirgan inson o‘z-o‘zini anglay boshlaydi, yutuq va kamchiliklarini tahlil qiladi hamda zaruriy hollarda ularga muayyan o‘zgartirishlar kiritadi. Psixologik bilimlarni o‘zlashtirish komandirlarga qo‘l ostidagi harbiy xizmatchining ichki dunyosida nimalar kechayotganligini yaxshiroq tushunish,

“ko‘ngliga qo‘l solish” hamda uning psixik rivojlanishida ko‘rinib turgan kamchiliklarni tuzatish uchun nihoyatda zarurdir. Shuningdek, psixologik bilimlarni tizimli ravishda o‘zlashtirish samarali muomala va muloqot o‘rnatish yo‘lida insonlarning kayfiyati, fe‘l-atvori, ruhiy imkoniyatlari, didi, qiziqishlari, yutuq va kamchiliklari bilan hisoblashishda ko‘makchi vazifasini o‘tashi mumkin.

Psixologiyani o‘rganish harbiy xizmatchiga aqliy salohiyatni o‘stirish, xotirani kuchaytirish, diqqat kuchini oshirish, ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish hamda yangi bilim va ko‘nikmalarni tez va oson o‘zlashtirish imkonini beradi. Muayyan psixologik bilimlarga ega bo‘lgan inson o‘z fikr-mulohazalarini boshqalarga qaraganda nutqda to‘g‘ri ifodalay oladi hamda o‘zgalarning nutqini to‘g‘ri tushuna oladi o‘zining aql-idrokini, psixik jarayonlarini puxta bilib oladi hamda ularga e‘tiborini qaratadi; aqliy faoliyatni hamda psixik jarayonlarni kuchaytiruvchi yo‘llarni bilib oladi va o‘z ruhiyatini tizimli ravishda tarbiyalab, toblab, shakllantirib boradi.

Harbiy xizmatchi o‘z kasbining haqiqiy egasi bo‘lishi uchun o‘zini qurshab turgan atrof-muhit haqida bilim va tasavvurga ega bo‘lishi shartdir. Olam va odam, tabiat va jamiyat hamda fazo haqidagi bilimlar inson psixikasining muhim shakli bo‘lgan bilish jarayonlari yordamida to‘planadi va rivojlanadi. Harbiy xizmatchilar samarali faoliyat olib borishlari uchun ularning psixikasi, birinchi o‘rinda psixologik bilish jarayonlari har tomonlama kuchli bo‘lishi kerak. Psixikasi mustahkam va musaffo bo‘lgan odam har qanday qiyin, ekstremal holatlardan osonlikcha, bezarar chiqib keta oladi. Psixikasi kuchli bo‘lgan harbiy xizmatchi harbiy harakatlar davomida o‘zini dadil tutadi, Vatanni ishonchli himoya qila oladi. Shuning uchun ham, shaxsiy tarkibning axloqiy-psixologik tayyorgarligida “inson psixikasini kuchaytirish” muhim ahamiyatga ega bo‘lgan tadbirlar sirasiga kiradi.

XIX asr oxirlari va XX asr boshlarida Rossiyada harbiy psixologiya bilan samarali shug‘ullangan tadqiqotchilardan biri G.Ye.Shumkov o‘sha davrlarda askarlarning tarbiyasi hamda jangovar holatlarga tayyorgarligi ilmiy psixologik bilimlarga asoslangan qat’iy tizim asosida o‘tkazilishi shart deb hisoblagan[2].

Harbiy psixologiya – harbiy xizmatchi va harbiy jamoalarning ichki dunyosi hamda askarning psixik rivojlanish qonuniyatlarini o‘rganadigan psixologiyaning alohida tarmog‘i. Harbiy psixologiya fani quyidagi 5 yo‘nalish bo‘yicha o‘rganiladi:

1. Harbiy xizmatchi shaxsi psixologiyasi;
2. Armiyada guruh va shaxslararo munosabatlar psixologiyasi;
3. Tinchlik paytida harbiy faoliyat psixologiyasi;
4. Harbiy intizom psixologiyasi;
5. Jang va urush psixologiyasi.

Harbiy xizmatchi shaxsi psixologiyasi. Mazkur yo‘nalish harbiy xizmatchining psixikasi va xulq-atvorini harbiy ish samaradorligini oshirish hamda salbiy holatlarni oldini olish maqsadida o‘rganish uchun mo‘ljallangan. Askarni ruhiy-ma’naviy jihatdan baquvvat, bilimli hamda sohasining professionalini qilib tarbiyalash maqsadida komandirlar ularning psixik dunyosini o‘rganib olishlari kerak bo‘ladi. Bunday darajaga harbiy xizmatchining o‘zi ham o‘z-o‘zini kuzatish, o‘rganish va mustaqil tarbiya natijasida erishishi mumkin.

Armiyada guruh va shaxslararo munosabatlar psixologiyasi. Harbiy jamoa orasida jangovar o'rtoqlik hamda yelkadoshlikni shakllantirish, jamoada ro'y berishi mumkin bo'lgan ziddiyatlarni bartaraf qilish, jamoani psixologik jihatdan to'g'ri shakllantirish kabilar mazkur yo'nalishning bosh maqsadidir.

Tinchlik paytida harbiy faoliyat psixologiyasi. Ma'lumki, tinchlik paytida shaxsiy tarkib asosan o'quv, maishiy hamda har kungi xizmat faoliyati bilan shug'ullanadilar. Jangovar, jismoniy, saf, ma'naviy-ma'rifiy hamda mutaxassislik bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni oshirish harbiy xizmatchilarning tinchlik paytida bajarishi lozim bo'lgan asosiy vazifasidir. Ta'lim mobaynida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan psixologik muammolarni bartaraf etish, shuningdek ta'lim sifati va samaradorligini oshirishning psixologik qonuniyatlarini ishlab chiqish ushbu yo'nalishning tadqiqot doirasiga kiradi.

Harbiy intizom psixologiyasi. Harbiy intizomni psixologik jihatdan tahlil qilish, intizomni mustahkamlash maqsadida psixologik usullarni ishlab chiqish kabilar harbiy intizom psixologiyasida ko'rib chiqiladi.

Jang va urush psixologiyasi. Askarda real harbiy harakatlar jarayonida kechadigan ruhiy hodisalarni o'rganish, harbiy xizmatchilarga ruhiy barqarorlikni saqlay olishning psixologik usullarini o'rgatish, jang sharoitlarida boshqaruvning psixologik asoslarini ishlab chiqish kabilar jang va urush psixologiyasining vazifasidir. Harbiy psixologiyaning tadqiqot doirasi harbiy-professional faoliyatning turli sharoitlarida harbiy xizmatchi psixikasining namoyon bo'lishi xususiyatlari hamda harbiy jamoalarga xos psixologik jarayonlar, holatlar va xususiyatlarni tashkil etadi[3].

Harbiy psixologiya psixologiyaning alohida tarmog'i sifatida XX asr boshlarida shakllangan. Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, davlatchilik paydo bo'lib har bir mamlakat o'z armiyasiga ega bo'lganidan keyin davlat va armiya boshliqlari o'z armiyasini har tomonlama rivojlantirish masalasiga jiddiy e'tibor qaratganlar. Tabiiyki, o'tmishdagi Qurolli Kuchlar bilan zamonaviy armiya o'rtasida kattagina farq bor. O'z askarlarini jang maydoniga olib chiqqan sarkardalar jang oldidan askarlarini ruhlantirish maqsadida turli usullardan foydalanganlar. Buyuk qomusiy olim Arastuning buyuk shogirdi, mashhur lashkarboshi Iskandar Zulqarnayn har doim janglarga ta'sir etadigan ijtimoiy-psixologik omillarni hisobga olgan. U birinchilardan bo'lib jang davomida chekinishga tushgan qo'shinning bir qismi qo'shinning boshqa qismini ham vahimaga solib qo'yishini, ya'ni jangdagi vahima tarqalish xususiyatiga ega ekanligini tushunib yetgan va bunga qarshi chora qo'llashga harakat qilgan. Iskandar Zulqarnayn sarkardaning o'z askarlariga psixologik ta'sir o'tkaza olish orqali obro' orttirishi naqadar muhim ekanligini ham tushungan. Masalan, qo'shin suvsizlikdan azob chekayotgan bir paytda hukmdorga ko'zda qimmatli suvni taklif qilishganida, u askarlar oldida suvni to'kib tashlagan va shu tariqa oddiy jangchilar bilan yelkadosh ekanligini namoyon qilgan.

Sohibqiron Amir Temur ham shaxsiy tarkib orasidan mard, tadbirkor, aqlli askarlarni doimo tanlab olib ularga har tomonlama yordam ko'rsatgan va o'stirgan. Keyinchalik ijtimoiy-iqtisodiy hayotning rivojlanishi hamda yangi yerlarning ochilishi dunyoni bo'lib olish, mustamlakalarni ko'paytirishga bo'lgan intilishlarga asos bo'lib xizmat qildi. Birinchi jahon urushining (1914-1918) sababi ham aynan

dunyoni jug'rofiy jihatdan bo'lib olish maqsadida boshlandi. XX asr boshlarida armiyada shaxsiy tarkibda askarlarni tanlab olish, o'qitish va taqsimlash maqsadida ommaviy tadqiqotlar o'tkazilgan. Ikkinchi jahon urushi (1939-1945)dan keyin, AQSHda harbiy psixologiya bo'yicha olib borilayotgan tadqiqotlar kuchayib ketdi. Bunday tadqiqotlar faqatgina harbiy muassasalarni o'zidagina emas, balki turli psixologiya institutlari bilan shartnoma asosida ham o'tkazilar edi. Bugungi kunda AQSHda 100ga yaqin ilmiy-tadqiqot markazlari harbiy-siyosiy va psixologik tadqiqotlar bilan shug'ullanmoqda. AQSH Qurolli Kuchlarida minglab diplomli psixolog mutaxassislari faoliyat olib boradi, har yili yuzlab yangi mutaxassilar xizmatga olinadi. Inson omili AQSHda olib borilayotgan harbiy-psixologik tadqiqotlarda eng ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Mazkur yo'nalish ramkasida harbiy jamoalarda liderlik muammosi faol ravishda tadqiq etilmoqda (Stogdill, Xollander, Bass, Xevron, Mak-Grat, Fidler, Gutskou va boshqalar)[4].

Xulosa qilib aytganda bo'lajak ofitserlarga psixologik bilimlar tizimli ravishda o'rgatilmoqda. Harbiy qism va bo'linmalardagi malakali harbiy psixologlar tomonidan harbiy xizmat samaradorligini oshirish bo'yicha psixologik tayyorgarlikning tizimli ravishda olib borilishi bilan shaxsiy tarkibning yuqori darajadagi jangovar, axloqiy-psixologik va ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarligiga erishilmoqda. Demak, harbiy xizmatchilarni psixologik bilimlar bilan sifatli qurollantirish harbiy xizmat samaradorligini oshiruvchi asosiy omillardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. <http://www.globalfirepower.com>
2. Шумков Г.Е., Психика бойцов во время сражений. - СПб., 1995 - С.13.
3. Маклакова А.Г., Военная психология: учебник для вузов. Санкт-Петербург, 2005.
4. Абдурахманова Р.А., Военная психология. Методология, теория, практика. Москва, военный университет, 1996.

HARBIY XIZMATDA BOSHQARUVNING PSIXOLOGIK JARAYONLARI

*Saidov Aybek Azadovich –
O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi
Sharqiy harbiy okrug qo'shinlari qo'mondoni,
psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
general-mayor*

Boshqaruv – harbiy rahbarlarga xos ijtimoiy-psixologik xususiyat hisoblanib, u orqali jamoa yuksaladi. Shuningdek, yangicha dunyoqarash va yangicha xizmat tarzi amalga oshiriladi. Qolaversa, yetakchi rahbar va uning boshqaruv uslubi, rahbar shaxsiga xos xarakterologik xususiyatlar, novator rahbarga quyiladigan talablar, samarador boshqaruv tizimi, lider va tashabbuskor rahbar kabi masalalarga bag'ishlangan yangi mahalliy psixologik tadqiqotlar, rahbar kadrlar sohasini qayta isloh qilish, jamiyat boshqaruvini modernizatsiya qilish ishlarida ilg'or g'oyalar sifatida xizmat qilishi tabiiydir.

Xalqimiz tinchligini saqlash maqsadida yurtimizni bosqinchilardan munosib himoya qilgan yurt ozodligi yo‘lida dushmanga qarshi mardonavor kurashgan buyuk vatandoshlarimiz Shiroq, To‘maris, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik, Najmiddin Kubro, Amir Temur, Bobur kabi milliy qahramonlarimizning ko‘rsatgan jasoratini harbiy xizmatchilarimiz doimo o‘rnak sifatida ko‘rsatishdan biz doimo faxrlanamiz. Hozirgi kunda Qurolli Kuchlarimiz tashkiliy va tarkibiy jihatdan takomillashdi. Harbiy bo‘linmalarning harakatchanligi, jangovar qobiliyati, harbiylarning jismoniy va ma‘naviy tayyorgarligi oshdi. Qism va bo‘linmalar zamonaviy qurol-yarog‘ va jangovar texnika bilan ta‘minlandi. Ushbu bo‘linmalarni samarali boshqarish uchun harbiy sohada fidoiy, yetakchi, tashabbuskor, innovatsion g‘oyaga boy, ijtimoiy faol, yangicha boshqaruv amaliyotiga ega bo‘lgan, optimist, mustqil fikrga ega, o‘ziga ishongan, liderlik sifatleri shakllangan, bir so‘z bilan aytganda yuqori boshqaruv kompetentligiga ega harbiy kadrlarni shakllantirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Respublikamizda Qurolli Kuchlar tizimidagi rahbar kadrlarning boshqaruv kompetentligi va liderlik sifatlerini oshirish borasida keng ko‘lamli psixologik tadqiqotlar olib borilsa, rahbarlikka xos xususiyatlar aniqlansa, boshqaruv kompetentligiga va liderligiga ta‘sir etuvchi psixologik omillar tadqiq etilsa, u holda harbiy rahbarlar uchun shart sanalgan ko‘plab psixologik sifatlerinani aniqlanishi ehtimoldan holi emas.

Hozirga qadar boshqaruvda rahbar imkoniyatlari va muvaffaqiyatli rahbar maslalariga oid xarizmatik, transformatsion, o‘zgaruvchan yetakchilik, tuzatuvchan yetakchilik kabi yondoshuvlar mavjud bo‘lib, ularda innovatsion rahbar xulq-atvoriga xos ko‘plab ijtimoiy – psixologik xususiyatlar majmui tavsiflangan. Biroq, biz maqsadimizga mos ayrim tadqiqotlar mazmuniga e‘tibor qaratmoqchimiz.

Tadqiqotchi R.L.Daftning tadqiqotlarida keltirilishicha, ilg‘or rahbar bu – g‘ayri oddiy harakat qiluvchi, nosantdart fikrlovchi, yorqin ishlarga qodir, yangi madaniyatga tez moslasha oluvchi, ijodkorlikni qo‘llab – quvvatlovchi, boshqalarni muvaffaqiyat sari yetaklovchi shaxsdir[1]. Demak, zamonaviy rahbar uchun nostandar fikrlash, harakat qilish muhim sanalib, u muvaffaqiyatni ta‘minlovchi psixologik shart-sharoitlardan biri hisoblanadi.

Akademik V.Afanasev mazkur masala borasida “biz yaxshi muhandislarni, yaxshi o‘qituvchilarni, yaxshi tibbiyot xodimlarini, yaxshi davlat xizmatchilarini tayyorlaymiz ammo, davlat rahbarlarini, tibbiyot rahbarlarini, do‘kon rahbarlarini, ta‘lim rahbarlarini tayyorlamaymiz. Biroq, ularning olgan ta‘lim va tarbiya malakalari, soha bo‘yicha o‘zlashtirgan bilim va ko‘nikmalari, kasbiy kompetensiyalari, kasbiy mahorat va maxsus qobiliyatlari boshqaruv faoliyati samaradorligini ta‘minlovchi ijtimoiy-psixologik determenantalar hisoblanadi[2]. Mazkur ta‘rifdan shuni anglash mumkinki, rahbar kadrlar oldindan tayyorlanmaydi balki, inson psixikasining o‘ziga xos xususiyatlari, o‘z sohasi bo‘yicha olgan mukammal bilimlari shuningdek, yillar davomida kasbiy sohada faoliyat yuritish natijasida yuzaga keladigan jarayondir. Bundan tashqari, har bir davlatning ravnaqi va kelajagi rahbar xodimlarning samarali faoliyati bilan bog‘liq bo‘lib, har qanday tadqiqotlarda ularning faoliyati tanqidiy o‘rganilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

P.S.Gluxova o'zining tadqiqot natijalarida, namunali rahbar faoliyatining o'ziga xosliklari borasida shunday ta'rif beradi[3]: "innovatsion rahbar jamoadagi o'zgarishlarni to'liq qo'llab-quvvatlaydi, tashqi sodir bo'layotgan o'zgarishlar uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olib, ishni bajarishda o'z jasoratini namoyish etadi. Shuningdek, boshqalar tomonidan berilgan taklif va mulohazalarni qabul qiluvchi, ularni qayta ishlovchi shaxsdir. olishga tayyorligiga jasorat va ishonchni namoyish etadi. Demak, bunday rahbarlar qaysi soha bo'lmasin doim yangilikni istovchi, uni qo'llab-quvvatlovchi shaxslardir.

V.G.Gryazeva-Doshinskayaning aytishicha, lider, innovatsion rahbar faoliyati ijtimoiy-psixologiya uchun yangi tadqiqot g'oyasi sanalib, uni ilk bor tadqiq etgan olimlar sifatida Dj.Kadjemi, D.S.Dayl, E.Y.Lesser, T.L.Tomas, A.G.Vas, R.L.Daft, E.D.Sheyn hamda D.K.Xarres kabilarni tan olish mumkin[4]. Mualliflar asosan, innovatsion rahbarning jamiyat o'zgarishlariga bo'lgan munosabati va yangiliklarga moslasha olish qobiliyati masalalariga ko'proq e'tibor qaratishgan.

Mazkur mulohazalardan shu narsa ma'lum bo'ladiki, rahbar faoliyatining samaradorligi bu undagi intuitsiya qilish qobiliyati bilan ham chambarchas bog'liqdir. Intuitsiya bu – oldindan biror yangilik yoki yutuq imkoniyatlarini ko'ra olish qobiliyati sanaladi.

Yuqorida tahlil etilgan nazariyalardan kelib chiqib, bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan quyidagi vazifalarni qo'yilishi va samarali hal etilishi dolzarb hisoblanadi:

mavzuga oid adabiyotlarni tahlil etish, nazariy va ilmiy materiallarni umumlashtirish;

harbiy rahbarlarning boshqaruv kompetentligi va liderligini tadqiq etishda qo'llaniladigan metodikalarni tanlash va dastlabki empirik tadqiqotni o'tkazish; boshqaruv sharoitlarda kompetentlikni va liderlikni ta'minlovchi psixologik jihatlar va uni takomillashtirishni ijtimoiy-psixologiya nuqtai-nazardan asoslash;

boshqaruv fenomeni va uning psixologik tabiati va uning turlari hamda namoyon bo'lish shart-sharoitlarini tadqiq etish;

harbiy sohada rahbar boshqaruvi kompetentligi masalasi tahlilida "Harbiy faoliyat", "Harbiy rahbar", "Harbiy boshqaruv", "Harbiy boshqaruv kompetentligi", "Liderlik", "Maxsus qobiliyat", "Ijtimoiy-psixologik ta'sir" kabi tushunchalarning ham aloqadorlik rolini ilmiy jihatdan tekshirish;

boshqaruv kompetentligi muammosini tadqiq etishda, ijtimoiy-psixologik tarkiblar, sifatlar, shuningdek, psixologik shart-sharoitlar tabiatini ilmiy yoritib berish;

tadqiq etilgan mavzu bo'yicha umumiy nazariy va empirik xulosalar chiqarish va amaliy taklif-tavsiyalar ishlab chiqish.

Xulosa qilib aytganda, ilg'or boshqaruvga ega lider rahbarga xos qator psixologik sifatlar tashabbuskorlik, ijtimoiy faollik, o'z-o'zini rivojlantirish, altruizm, tolerantlik, kasbiy kompetensiya, psixologik kompetensiya, intellekt, sotsial intellekt, emotsional intellekt kabilar qayd etilib, ularni ijtimoiy – psixologik bilimlar orqali o'rganish, boshqaruvda rahbar kadrlarni psixologik jihatdan tayyorlash hamda ularning boshqaruv kompetentligini takomillashtirish kabi masalalarga, yangicha yechimlar olib kelishi ehtimodan holi emas.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Дафт Р.Л., Уроки лидерства / Р.Л. Дафт. – М.: Эксмо, 2006. – С. 480.
2. Афанасьев В.Г., Общество: системность, познание и управление. В.Г. Афанасьев. М.: Вт. изд.(II), ЭСКИМОС, 2009. – С. 77.
3. Глухов П.С., Управленческие ориентации и стили лидерства менеджеров организаций с разной степенью инновационного развития / П.С. Глухов // Вестник ЮУрГУ. – Серия «Психология». – 2010. – Вып. 9. – С. 74-78.
4. В.Г.Грязева-Добшинская, Инновационное лидерство: социально-психологическая программа для менеджеров / В.Г. Грязева-Добшинская // Социальная психология творчества – 2007: сборник научных трудов. – Челябинск: ЮУрГУ, 2007. – С. 200-207.

ИЧКИ ИШЛАР ТИЗИМИДА ЗАМОНАВИЙ МУТАХАССИСЛАРНИ ТАЙЁРЛАШДА ПСИХОЛОГИК БИЛИМЛАРНИНГ ЎРНИ ВА АҲАМИЯТИ

*Арзикулов Дилшод Нейматович -
Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси
“Хизмат психологияси ва касбий маданияти”
кафедраси профессори, психология фанлари доктори,
Россия Федерацияси Петровский номи
Фан ва санъат Академиясининг муҳбир аъзоси
<https://orcid.org/0009-0005-3082-2966>*

Халқ хўжалигининг турли соҳаларида меҳнат қилаётган ёшларнинг психологик тайёргарлиги ва касбий маданияти даражасини кўтариш ҳамда миллий ва умуминсоний кадриятларга содиқлик руҳида камол топтириш, уларни турли хил зарарли оқимларга кириб кетишининг олдини олиш мақсадида мустаҳкам илмий замин яратиш зарур десак муболаға бўлмайди.

Маълумки, мамлакатиз президенти Шавкат Мираманович Мирзиёев томонидан 2024 йилни юртимизда “Ёшлар ва бизнесни қўллаб-қувватлаш йили”, деб эълон қилиниши жамиятимизда жисмонан ва ҳар томонлама ривожланган баркамол авлодни миллий ва умуминсоний кадриятлар ҳамда Ватанга муҳаббат руҳида тарбиялаш, жамиятнинг муҳим бўғини бўлган соғлом ва мустаҳкам оилани шакллантириш учун зарур шарт-шароитларни яратиш, ёшлар ўртасида соғлом турмуш-тарзини қарор топтириш, уларни ичкиликбозлик ва гиёҳвандлик иллатларидан ва бошқа турли ҳалокатли таҳдидлар ҳамда биз учун ёт бўлган диний ва экстремистик таъсирлардан, тубан “оммавий маданият” хуружларидан ҳимоя қилишга доир чора-тадбирларни амалга оширишни тақозо этади.

Ўзбекистон Республикасининг 2016 йил 16 сентябрдаги “Ички ишлар органлари тўғрисида”ги Қонуни, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 10 апрелдаги “Ички ишлар органларининг фаолияти

самарадорлигини тубдан ошириш, жамоат тартибини, фуқаролар ҳуқуқлари, эркинликлари ва қонуний манфаатларини ишончли ҳимоя қилишни таъминлашда уларнинг масъулиятини кучайтириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5005-сон, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 16 августдаги ПҚ-3216-сонли “Ички ишлар органлари ходимларини тайёрлаш, қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ҳамда Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М. Мирзиёев томонидан 2019 йил 30 августдаги “Ёшларни илм-фан соҳасига жалб этиш ва уларнинг ташаббусларини қўллаб-қувватлаш тизимини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарорларида кўрсатиб ўтилган вазифаларни амалиётга жорий этиш мақсадида Ички ишлар вазирлиги Академеиясида ўқитиладиган мутахассислик ва ихтисослик фанлари қаторида психология соҳасига оид фанларни ўқитиш ҳам давр талабига мослаштирилган ҳолда амалиёт билан ўзвий боғланган ҳолда такомиллаштириб борилмоқда.

Жумладан, касбий психология фани ички ишлар органлари учун малакали мутахассислар тайёрлаш жараёнида касбий билим, кўникма ва малакаларни шакллантиришда муҳим роль ўйнайди. Ушбу фанининг ички ишлар органлари фаолиятидаги аҳамияти жиноятчиликка қарши курашишдаги психологик ва субъектив омиллар ролини ошириш, ҳамда уларнинг шахсий психологик имкониятларидан самарали фойдалана олиш қобилиятини ривожлантириш, бўлғуси ички ишлар органлари ходимларини мустақил касбий фаолиятга психологик жиҳатдан тайёрлашдан иборат.

Республикаимиз биринчи президенти Ислон Каримов «Инсон, унинг ҳуқуқ ва эркинликлари ҳамда манфаатлари – энг олий қадрият» номли асарида психология фанининг ўрни ва аҳамиятига қуйидагича таъриф беради: «Психология фани биз учун энг зарур соҳалардан бири, десак, тўғри бўлади. Психологияни ўрганиш ҳаётни, инсонни ўрганиш дегани. Керак бўлса, раҳбарлик қилмоқчи экансиз, етакчи бўлиб одамларга кўрсатма бермоқчи экансиз, олдин уларнинг психологиясини ҳар томонлама ўрганиш керак. Бунинг тагида жуда катта маъно бор». Мазкур фикрдан кўриниб турибдики, психологик билимларни мукамал ўрганмай туриб, шахснинг инсон руҳини чуқур англоши ва яхши мутахассис бўлиши мушкул.

Ҳар бир инсон мустақил шахс сифатида ўзига хос характер, қобилият, кайфият ва ички ҳиссий кечинмаларга эга. Шу боис, ҳар қандай индивид шахс сифатида шаклланиши учун, энг аввало, ўз Менини англаши, пировардида, унинг жисми эмас, балки руҳий олами ва тафаккури ўзгариши зарур.

Инсоният қадим замонлардан буён ўзининг кимлигини англашга интилган, руҳий дунёси ва унда ўзгалар руҳиятини билиш истаги пайдо бўлган, табиат ва жамият ҳодисаларини тушунишга эҳтиёж сезган, ўтмиш, ҳозирги замон, келажак ҳақида мулоҳаза юрита бошлаган ва шундан эътиборан психология фани юзага келиб, алоҳида фан сифатида ривожлана бошлаган.

Янги мустақил жамият кишилардан янгича фикрлашни, ўзини миллий жиҳатдан англаб етишни, истиқлол тафаккурига эга бўлишни тақозо этади.

Ўзбекистон Президенти Ислон Каримов таъбири билан айтганда, «ислохотлар ҳаётни, ҳаёт эса инсонлар тафаккурини ўзгартиради». Шу муносабат билан ҳозирги замон талабига мос келадиган, юксак эътиқодли, маънавий камол топган, мустақил фикрлай оладиган касбий фаолиятга оид муаммоларни осон ҳал этиш учун зарур кўникма ва малакага эга бўлган психологик билимлар билан қуролланган мутахассисларни тайёрлаш давр талабидир.

Касбий психология ўзига хос фан бўлиб, юриспруденция ва психологиянинг ўзига хос нозик қирраларини ичига олади, яъни бу фан муайян ҳуқуқ соҳаси билан психология фанининг ўзаро дифференциацияси “кесишуви” орқали юзага келади. Ҳуқуқ инсон ҳулқ-атворининг меъёрий хатти-ҳаракатлари билан боғлиқ жараёнларни ўрганса, психология муайян шахс, унинг жамиятдаги ҳулқ-атвори ҳамда ҳаёт ва меҳнат фаолиятининг ўзига хос томонларини ўрганади. Бундан кўриниб турибдики, ҳар икки фаннинг объекти ва субъекти инсон, яъни шахс ҳисобланади.

Ички ишлар органи ходимларига ўқитиладиган касбий психология юридик психология таркибида юзага келган бўлиб, аниқ фаолиятни яъни ички ишлар органлари ходимлари фаолиятидаги психологик жиҳатларнинг ўзига хос томонларини ўрганишга бағишланган тармоқ ҳисобланади. Шу билан бир қаторда касбий психология ҳуқуқ доирасидаги муносабатлар, шахснинг психик фаолиятини ҳуқуқий бошқариш механизмлари ва қонуниятларини ўрганувчи фандир. Хусусан, терговчининг гувоҳ, ҳолис, жабрланувчи ва гумон қилинувчилардан кўрсатмалар олиши ҳамда уларни сўроқ қилиши, профилактика ходимларининг турли тоифадаги фуқаролар ва ҳуқуқбузарликка мойил бўлган шахслар ҳамда муқаддам судланган шахслар билан муносабатга киришиши ва ниҳоят, тезкор вакилларнинг турли тоифадаги шахслар билан алоқа ўрнатиши, керакли маълумотларни олиши психологик билимлардан фойдаланиш кўникма ва малакалари орқали амалга ошади. Шу боис касбий психологияни ҳақли равишда ички ишлар органлари ходимлари фаолиятининг ривожланиш қонуниятлари, турли тоифадаги шахслар билан ўзаро муносабат жараёнларида психологик билимлардан фойдалана олиш қобилиятини шакллантириш йўлларини ўрганувчи соҳа деса бўлади.

ИИО ходимлари учун касбий психология фанининг методологик асосини касбий психологик билимлар мажмуаси, Ўзбекистон Республикаси Президентининг рисолалари, Шарқ мутафаккирларининг психология фани тўғрисидаги қарашлари ва назариялари ҳамда Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг қонун ва фармонлари, ИИВнинг буйруқ ва кўрсатмалари ташкил этади.

Ички ишлар тизимида таҳсил олаётган тингловчилар ўрганадиган касбий психология илмий-амалий фан бўлиб, психологиянинг қонуният ва принципларини ўрганиш, ички ишлар органлари ходимлари фаолияти самарадорлигини оширишга тавсиялар ишлаб чиқиш билан бир қаторда қуйидаги вазифаларни бажаради:

1. Ҳуқуқий нормаларнинг шахсга таъсир этиши, бунда шахс, гуруҳ ва жамоанинг психологик қонуниятларини ўрганиш.

2. Ички ишлар идоралари фаолиятининг самарадорлигини оширишга илмий тавсия ишлаб чиқиш, шахснинг ички ҳис – туйғуларини англаш, жиноятни келтириб чиқарувчи субъектив ва объектив сабабларини ўрганиш ва хоказо.

Ички ишлар ходимларининг касбий психология фанини ўрганишининг ўзига хос томонларидан бири ички ишлар органлари ходимларига жиноятни тўғри квалификация қилишга ёрдам бериш, психологик усулларни қўллаган ҳолда янгидан янги далилий ошёрлар орқали исботлаш жараёнига ёрдам беришдан иборат. Психология шахсни жиноят содир этилгунга қадар қандай ҳолатда бўлганлиги, жиноят содир этилганидан кейинги ҳолати, ва ниҳоят, дастлабки тергов ва у билан боғлиқ бошқа ҳолатларда шахс ўзини қандай тутаётганлигини аниқлашга ёрдам беради.

Касбий психологик билимлар орқали ички ишлар органлари ходимлари жиноятларнинг олдини олиш, очиш, гумон қилинувчи ва жиноят содир этган шахсларга, шунингдек маҳкумларга таъсир этишининг бир қанча психологик усуллардан фойдаланишни ўрганади.

Шахсга психологик таъсир этиш усули махсус ваколатли шахслар томонидан қўлланилади. Мазкур усулни қўллаш жиноят-процессуал қонун доирасида амалга оширилиб, ундан мақсад – жиноятларни очиш, олдини олиш, жиноятларнинг келиб чиқиш сабабларини аниқлаш, муқаддам жиноят содир этган шахсларни нормал ҳаётга қайтариш ва турмушга мослаштиришдан иборат. Мазкур усулларни қўллашда психологиянинг илмий методларига ҳамда криминологик ва педагогик билимларга таянилади.

Таъкидлаш жоизки, муайян даражада эмпирик материаллар тўплаш, уларни психологик нуқтаи назардан таҳлил қилиш, маълум илмий мезон асосида амалий маълумотларни тартибга келтириш, аниқ хулосаларга келиш фан олдида турган улкан вазифаларни муваффақият билан бажариш имкониятини яратади. Касбий психология ички ишлар органлари ходимларига хизмат жараёнида турли мушкул вазиятлардан осон, талафотсиз чиқиб кетиш йўлларини ўргатади.

Хулоса қилиб айтганда, ҳуқуқ билан психология ўзаро боғлиқ фанлар бўлиб, ички ишлар органлари ходимларини мустақил ҳаётга тайёрлаш ҳамда келгуси меҳнат фаолиятини муваффақиятли амалга оширишида улкан аҳамият касб этади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz - Toshkent: “O’zbekiston” NMIU, 2017. – 488 b.

2. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini taminlash yurt taraqqiyoti va halq faravonligining garovi. O’zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag’ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruza. 2016 yil 7 dekabr /Sh.M. Mirziyoyev. – Toshkent : “O’zbekiston” NMIU, 2017.- 48 b.

3. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlili, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – xar bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo’lishi kerak. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va

2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza, 2017 yil 14 yanvar. – Toshkent: “O'zbekiston”, 2017. – 104 b.

4. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutq / Sh.M. Mirziyoyev. – Toshkent: “O'zbekiston” NMIU, 2017. – 32 b.

5. Каримов И. А. Инсон, унинг ҳуқуқ ва эркинликлари ҳамда манфаатлари – энг олий қадрият. Т. 14. – Т., 2006. 121. б.

БЎЛАЖАК ОФИЦЕРЛАРНИ КАСБИЙ ФАОЛИЯТГА ТАЙЁРЛАШДА КРЕАТИВ ТАФАККУРНИНГ ПСИХОЛОГИК ЖИҲАТЛАРИ

*Абдурахимова Дилфузахон Алиевна –
Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучлари Академияси
Ҳарбий психология ва педагогика кафедраси профессори,
педагогика фанлари доктори (DSc), профессор*

Аннотация. Мақола бўлажак офицерларда мустақил фикрлаш, ижодкорлик қобилиятини шакллантиришнинг ижтимоий-психологик омилларига бағишланган бўлиб, унда таълим олувчилар фаолиятини фаоллаштирувчи, мустақил фикрлашга ундовчи интерфаол таълим методлари ҳамда таълим жараёнидаги бихевиористик, когнитив ёндашувлар орқали таълим олувчиларда мустақил фикрлаш, ижодий тафаккурни шакллантиришнинг ўзига хос жиҳатлари таҳлил этилган.

Таянч сўз ва тушунчалар: таълим-тарбия, мустақил фикрлаш, ижодий тафаккур, шахс, шахсни тарбиялаш, ижодкор шахс, таълим психологияси, бихевиористик ёндашув, когнитив ёнда-шув, ёш психологияси, ақлий-физиологик имконият.

Маълумки, бугунги кунда дунёнинг ривожланган ва ривожланаётган давлатларида таълим парадигмаси ўзгариб бормоқда. Осиё таълим моделига асосан ўқув жараёни назарий билимлар беришдан олинган билимларни амалиётда қўллаш кўникмаларини ривожлантиришга, ахборот технологиялари асосида талабаларда мустақил таълим олиш малакаларини шакллантиришга қаратилмоқда.

Бугунги кун жаҳон педагогикаси ва психологияси олдида турган муҳим масалалардан бири, нафақат билимли, балки ижодий тафаккур соҳиби бўлган, мустақил фикрловчи шахсни шакллантиришнинг йўл, усул ва воситаларини излаш асосий масалалардан ҳисобланади. Маълумки, мустақил фикрловчи, ақлан етук, руҳан тетик, жисмонан бақувват, маънан баркамол шахсни шакллантириш ғояси инсониятнинг пайдо бўлиши давридан бошланган бўлиб, у шу даврлар оралиғида босқичма-босқич ривожланиб келмоқда. Мустақил

фикрловчи, ижодкор шахсни тарбиялаш билан боғлиқ ибтидоий тушунчалар бугунги кунда ҳам қадимий реликтлар тарзида талқин этилмоқда.

Мустақил фикрловчи, ижодкор шахсни тарбиялаш масаласи тарихига назар ташлайдиган бўлсак, исломгача бўлган қадимий реликтларнинг мазмуни инсонни руҳан ва жисмонан ёвуз руҳлардан халос этиш, сақлаш, уларда яхшиликнинг доимо ғалабасига ишонч ҳиссини шакллантириш, қалб поклиги, жисм соғломлигига даъват этувчи дастлабки тасаввурлардан иборат бўлган. Манбалардан маълум бўлишича, исломгача бўлган халқларнинг соғлом маънавий ва интеллектуал ҳаёт учун характерли бўлган хусусиятлари табиат ва жамият ҳодисаларига муносабатда анимистик (ҳар нарсанинг жони, руҳи бор деган эътиқод), магия (сеҳргарлик, жонсиз нарсаларга ғайритабиий қудратга эга деб сажда қилиш), тотемизм (хайвонлар, ўсимлик, нарсаларга сиғинишнинг етакчилиги), мажусийликнинг расм-русумлари ва маросимларидан тарбия жараёнида аралаш фойдаланиш, қадимий ахлоқий-маънавий тасаввурлар замирида таянч нуқта ҳисобланган ишонч ва тарбияда муҳим аҳамиятга эга бўлган руҳий жараён, эзгу фикр, эзгу калом, эзгу амалнинг ёвуз фикр, ёвуз калом, ёвуз амал устидан ғалабаси учун кураш ғоясининг етакчилиги, ахлоқий-маънавий тафаккурни тарбиялашда асосий усул кўрғазмалилик, ишонтириш, намуна, тан жазоси ҳисобланган. Таълим-тарбия воситаси эса ғайритабиий кучга эга деб тасаввур қилинган нарса ва ҳодисалардан иборат бўлган.

Тарихга назар ташлайдиган бўлсак, юртимизда яшаб ижод этган мутафаккирларимиз томонидан ҳам ўз даврида таълим жараёнида мустақил фикрловчи, ижодкор шахсларни тарбиялашда ўқитишнинг қандай усул ва воситаларидан фойдаланиш лозимлиги борасида аҳамиятли фикр-мулоҳазалар ўртага ташланган. Жумладан, қомусий олим Абу Райҳон Беруний ўз асарларида бу борадаги масалаларга алоҳида тўхталиб, шахс тафаккурини ривожлантириш учун таълим беришда кўпроқ қайси томонларга эътибор бериш кераклигини баён қилади. Хусусан, олимнинг таъкидлашича, ўқитишда ёдлатиш эмас, балки тушуниш, мантикий фикрлаш, хулосалар чиқариш йўлига амал қилиш муҳимдир.

“Айни вақтда халқаро терроризм ва экстримизм хавфининг тобора ортиб бораётгани, дунёнинг айрим минтақаларида қуролли тўқнашувлар давом этаётгани, таҳликали вазият сақланиб қолаётгани Ўзбекистоннинг барқарор ривожланишига таҳдид солмасдан қўймайди, албатта. Буларнинг барчаси олдимизда пайдо бўлаётган таҳдид ва хатарларга муносиб зарба беришга доимо тайёр бўлишни талаб этади”,-деб таъкидлайди Ўзбекистон Республикаси Олий бош Қўмондони Ш.М. Мирзиёев ўзининг “Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир” номли маърузасида.

Дарҳақиқат бугунги таҳликали даврда курсантлар шахсий таркибини жанговар шайлигини ошириш, ахлоқий-руҳий, маънан етук, ватанпарвар ҳарбий хизматчи бўлиб етишишларида мустақил таълимнинг ролини ошириш зарурдир. Юқоридагилардан келиб чиқиб, бугунги кунда олий ҳарбий таълим жараёнида мустақил фикрловчи, ижодкор бўлажак офицерларни тарбиялашда

педагогик психологиянинг олдида турган қуйидаги долзарб муаммоларни белгилаш мумкин:

олий ҳарбий таълим масканларида бўлажак офицерларни ўқитиш, ҳарбий хизматчи шахси сифатида шакллантириш (ижтимоийлашув) жараёнини ҳозирги замон талабларига жавоб бера оладиган методлар (услуглар, шакллар), воситалар, усулларни янги мазмун билан бойитиш, монологик ўқитиш тизимидан диалогик, инновацион (янгиликка асосланган), ҳамкорлик (ўқитувчи билан талабалар фаолиятини уйғунлаштириш) сингари таълимнинг янги турларига ўтиш;

мутахассислар тайёрлаш бўйича ўқув режаси, дастури ва уларга асосланиб чоп қилинадиган дарсликлар, ўқув қўлланмалар, ишланмалар, маъруза матнларини қайтадан кўриб чиқиш, уларни хориж тажрибалари билан бойитган ҳолда Ўзбекистон республикаси миллий армиясининг хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда такомиллаштириш, янада пухталаштириш, мутахассисликка бевосита алоқаси бўлмаган ўқув фанларини (материалларини) вариатив ёндашув асосида ишглаб чиқиш ва таълимда инсон омилини ҳисобга олиш;

таълим-тарбия жараёнида бўлажак офицерларда саноген фикрлашни шакллантириш, уларни ижодий изланишга ўргатиш, танқидий тафаккурни таркиб топтиришга эришиш;

олий ҳарбий таълим муассасаларида истеъдодли курсантлар фаолиятини ташкил қилиш, уларда истеъдод топшириқлари ранг-баранглигини таъминлаш ва уларни ечишни уддалаш лаёқатини шакллантириш, ижодий унсурларнинг мавжудлиги ва узлуксизлигини англаб етиш, башорат қилиш лаёқатини ривожлантириш, курсантларни ностандарт топшириқларни бажаришга йўналтириш, ижодий изланишни хоҳиш, лаёқат, майл ва мотивидан келиб чиққан ҳолда ташкил қилишни йўлга қўйиш;

таълим жараёнида муаммоли вазиятларни юзага келтириш (масалан, мустақил фикрлашнинг асосий омилларига тавсиф бера оласизми?). Ушбу вазиятни янада яққоллаштириш учун “Фикрловчи инсоннинг психологик портретини ҳамда жисмоний тузилишини кўз ўнгингизга келтиринг, уни тасаввур қилинг” деган йўлланма беришнинг ўзи кифоя. Шунингдек, мураккаб топишмоқ шаклидаги тестларни курсантлар ихтиёрига бериш. Масалан, бир йигит билан қиз ҳордиқ чиқариб ўтирган эди, йўловчилардан бири қизга “бу ким?”, деб савол билан мурожаат қилди ва у шундай жавобни эшитади: “Бу йигитнинг онаси менинг онамнинг қайнонаси бўлади”. Муаммо ўз ечимини кутади, қиз ким билан ўтирган экан?

таълимни фаол услублар негизида қуриш лозим, токи бунда ўқитувчи билан курсант ҳамкорлиги устувор ўрин эгалласин. Тест, баҳс, ишбилармонлик ўйинлари, мураккаблаштирилган педагогик муаммо, эвристика, тренинг, психодрама, бошқотирма, фикрлар жанги каби фаол, мустақилликка етакловчи ўқитиш методлари ва шакллари таълимнинг негизига айланишини таъминлаш.

Таъкидлаш жоизки, мустақил фикрловчи, ижодкор шахсни тарбиялаш бўйича бугунги кунда таълим-тарбия тизимидаги ўрни келганда, айрим

анъанавий дарс шаклини сақлаб қолган ҳолда, унга турли-туман таълим олувчилар фаолиятини фаоллаштирувчи, курсантларни мустақил фикрлашга ундовчи интерфаол таълим методлари билан бойитиш мақсадга мувофиқдир. Зеро, дарс жараёнини оқилона ташкил этиш, таълим берувчи томонидан таълим олувчиларнинг қизиқишини орттириб, таълим жараёнидаги фаоллиги муттасил рағбатлантирилиб турилиши, ўқув материални кичик-кичик бўлақларга бўлиб, уларнинг мазмунини очишда турли хил инновацион таълим технологияларидан фойдаланиш ва таълим олувчиларни амалий машқларни мустақил бажаришга ундаш мустақил фикрловчи, ижодкор офицерларни тарбиялаш гаровидир. Бугунги кунда рақобатчиликка асосланган бозор иқтисодиёти тезкор, тадбиркор, шароитга кўра иш тута биладиган, мақсадга эришиш йўли, усули ва воситаларини зудлик ва оқиллик билан янгилай оладиган фаол шахсларга муҳтожлик сезмоқда. Шунинг учун Ғарб давлатларида таълим ва тарбия тизимига бихевиористик ёндашувдан когнитив ёндашувга қараб силжиш кузатилмоқда. Инсон фаолиятини баҳолашда когнитивизм ўтган асрнинг 60-йилларигача бўлган педагогика ва психологияда ҳукмрон бўлган бихевиористик ёндашувдан қуйидагича фарқланади: а) бихевиористик ёндашувда инсон хатти-ҳаракатлари ташқи муҳит таъсири билан белгиланадиган, кўп ҳолларда онгсиз реакциялар мажмуаси сифатида тушунилади; б) когнитив ёндашувда бу хатти-ҳаракатларда онглилик, таълим асосида ҳосил қилинган малака ва кўникмалар устунлиги тан олинади.

Булардан кўриниб турибдики, бихевиористик ёндашувда инсон таълим-тарбияси сусти, когнитив ёндашувда эса улар фаолдир. Бозор иқтисодиётида яшаш шартини эса инсоний фаолликни талаб қилади. Шунинг учун ҳам АҚШ ва бошқа Ғарб давлатларида ўтган асрнинг 60-йилларидаёқ когнитивизм зудлик билан педагогика, педагогик психология ва дидактика тизимларига кириб кела бошлади. Ўша даврда анча оммалашган таълимнинг вербал (яъни, таълим-тарбия жараёнидаги коммуникатив мулоқотда таълим олувчининг фаоллиги ва ўзлигини намоён қилишга йўналтириш) усуллари билан бирлашиб, педагогик психологияда онгли, вербал, когнитив таълим йўналишлари шаклланди. Мазкур йўналишда таълимни ташкиллаштириш, таълим усуллари тўғри танлаш ва қўллаш, таълим сифатини ошириш, таълим жараёнида мустақил фикрловчи, ижодкор шахсни тарбиялашда қуйидагилар таълим марказига кўтарилди:

когнитивлик – шахсни фикр юритиш жараёнига етаклайдиган, билиш фаолиятини ноаниқ, номаълум янги унсурли масала моҳиятига киришга ундайдиган ва уларни ҳал қилишга йўналтирадиган ҳамда билим ва маълумотларнинг шахс онги, мустақил фикр юритиши, ижодкорлик қобилиятининг ўсишига ва ақлий жиҳатдан тараққий этишига олиб келадиган таълимий фаолиятдир;

диалогли таълим – ўқув мавзуси ёки муаммони гуруҳ шароитида ўқитувчи билан биргаликда ва ҳамкорликда муҳокама қилиш орқали таълим олувчиларни нафақат фаоллаштириш, балки ижодий муҳит яратиш ва фикрлар алмашинувини таъминлаш орқали ҳар бир таълим олувчининг

манфаатдорлигини таъминлаш. Бу орқали ўқувчи-талаба ўқув жараёнининг объектидан унинг субъектига айланади;

онглилик – таълим жараёнига онгли муносабатни намоён қилиш, берилган топшириқ ёки вазифаларни фикрий жараёндан ўтказиш орқали индуктив хулосалар чиқаришга лаёқатлилики. Табиийки, юқоридаги мезонлар бўлажак офицерларда мустақил ва эркин фикрлаш, фаоллик ва ўз нуқтаи назарини таҳлил қилишга имкон яратиш, уларда ташаббускорлик, билимдонлик ҳамда ўз ақлий имкониятларидан тўлиқроқ фойдаланиш имкониятини таъминлайди.

Педагогик психологияда мустақил фикрловчи шахсни тарбиялашда таълимни ташкил этиш, таълим жараёнида таълимнинг интерфаол усулларидан кенг фойдаланиш ижодий тафаккур соҳибини тарбиялашнинг асосий педагогик-психологик омилларидан бири сифатида қаралади. Таълим олувчиларни мустақил фикрлашга ундовчи интерфаол таълим методларининг педагогик-психологик моҳияти шундаки, оддий мунозарада баҳслашувчилар кўпроқ онгли, асосли фикрларни баён этишга ҳаракат қиладилар ва мустақил фаолият юритиш натижасида таълим олувчи шахсида ижодкорлик хислатлари шаклланади. Бунда баҳслашувчиларга мияга қандай фикр қуйилиб келса, уни танқидсиз ва асосламай эркин, «тилга нима келса», лекин навбатма-навбат айтиш имконияти берилади. Бу нарса кўпроқ муаммо анча нотаниш, савол мураккаб ёки ноаниқ бўлган шароитларда қўл келади. Яъни бунда “эркин ассоциациялар”га имкон берилади ва охир-оқибат курсантнинг ўзи муаммонинг маълум рационал “мағзни” ажратиш олади.

Юқоридагилардан келиб чиқиб, бугунги кунда ҳарюбий таълим жараёнида мустақил фикрловчи, ижодкор шахсни тарбиялашнинг асосий йўналишлари сифатида қуйидагиларни кўрсатиш мумкин:

«таълимни индустрлаштириш», яъни компьютерлаштириш ва технологиялаштириш асосида ҳозирги замон жамиятининг ақлий фаолиятини кучайтириш;

таълимнинг ҳозирги вақтгача устунлик қилган ахборот берувчилик шаклларида фаол ўқитиш методлари ва шаклларига ўтиш. Бу йўналиш «хотира мактаби»дан «тушуниш мактаби», «тафаккур мактаби»га ўтишдан иборат;

ўқув-тарбиявий жараёни ташкил қилиш ва бошқаришда қатъий белгиланган назорат усулларидан ривожлантирувчи, фаоллаштирувчи, такомиллаштирувчи усулларга ҳамда ўйин усулларига ўтиш. Бу эса таълим олувчиларнинг ташкилий-ижодий, мустақил фаолиятини қўллаб-қувватлаш ва уни ривожлантириш имкониятини яратади;

таълим олувчи ва педагог ўртасидаги ўзаро ҳамкорликдаги фаолиятни ташкил этиш, яъни таълим олувчиларни биргаликдаги жамоа фаоллиги сифатидаги иштирокини таъминлаш. Бунда асосий урғу ўқитувчининг билим бериш фаолиятдан талабанинг билим олиш фаолиятига ўтказилади.

Бўлажак офицерларда мустақил фикрлаш ва ижодкорлик қобилиятини шакллантиришга йўналтирилган таълим жараёнларида, мустақил фикрловчи, ижодкор шахсни тарбиялаш жараёнида воқелаштириш усуллари жуда кўп ва

ранг-барангдир. Улардан асосийлари сифатида қуйидагиларни санаб ўтишимиз мумкин:

ҳар бир машғулотда курсант ўқитувчи дарслик талаби асосида унга берган, етказган билимларни такрорлаши эмас, балки унинг йўлланмаси билан янги билим ҳосил бўлишини таъминлаши лозим. Бу эса фикрлаш ёрдамида билим олувчида билишга интилишнинг амалий кўникмасининг шаклланишига олиб келади;

дарса курсант сушт тингловчи эмас, балки изловчи, қиёсловчи, кашфиётчи бўлиши керак. Шунинг учун ўқувчи ёки курсант оғзидан чиққан ҳар бир сўз, фикр, ҳукм, баён унинг ўзиники бўлмоғи шарт. Албатта, курсантда туғилган бу фикр оламшумул кашфиёт ёки бирор чигал муаммонинг ечими ҳам, ўқитувчи (дарслик) берган ахборотнинг соддагина такрори ҳам бўлмаслиги мумкин. Бундай таълим усули бўлажак офицерларда мустақиллик, масъулият, ўз менлигини англаш, ижод, бунёд қилиш руҳини тарбиялашга хизмат қилади. Натижада ўқитувчи билан курсантлар орасида дарс жараёнидаги алоқа – муносабат жуда кўп ҳолларда жонли оғзаки мулоқот, қолаверса, баҳс тусини олиши мумкин;

ўқитувчининг таълим олувчига берадиган изланиш ва фикрлаш йўлланмаси шундай бўлмоғи лозимки, аудитория ёки гуруҳдаги курсантларнинг изланиш ва ижод маҳсули айнан бир хил бўлмаслиги моҳиятан бир йўналишда бўлиб, лекин шаклан ҳар хил бўлмоғи лозим. Шундагина ҳар бир таълим олувчи ўзлигини мумкин қадар ёрқинроқ ифода этиш имкониятига эга бўлади ва уларда ҳар бир машғулотда мусобақа руҳи етакчилик қилади;

дарс жараёнида (уй вазифасини бажариш ва уни синфда, аудиторияда таҳлил этишда) курсант ўқитувчи йўлланмаси асосида изланар, фикр қилар, бирор нарсани топар, бирор хулоса ва ҳукмга келар экан, у ўз фикрини асослаш ва исботлашга, ҳимоя қилишга интилоғи зарур. Қолаверса, машғулотнинг ташкил этилиши ва ўқув материали бунга кенг йўл очиб бермоғи, таълим олувчининг ёш психологияси ва ақлий физиологик имкониятига мос бўлмоғи лозим.

Хулоса қилиб айтадиган бўлсак, юқорида таъкидланган фикрлар бизнинг ҳарбий таълим-тарбия жараёнида бўлажак офицерларда мустақил фикрлаш ва ижодкорлик қобилиятини ривожлантиришга қаратилган илмий ва ҳаётий кузатувларимиз асосида шаклланган қарашлардир. Аммо, назаримизда бу каби фундаментал масалалар ҳарбий таълим тизимида бўлажак офицерларнинг мустақил фикрлаш қобилиятини шакллантиришда ва ижодкор шахсни тарбиялашда ўзига хос ўрин тутаяди.

Адабиётлар рўйхати:

1. Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-том. – Тошкент: Ўзбекистон, 2018. – Б.508.

2. Матюшкин А.М. Некоторые проблемы психологии мышления. «Психология мышления». / Сборник переводов с английского и немецкого под ред. А.М.Матюшкина. - М.: «Просвещение», 1965.

3. Муҳаммаджонов А. Школа и педагогическая мысль узбекского народа XIX – начала XX в. – Т.: «Фан», 1978. -С. 44.

4. Рахманова Н.Р., Умаров Б.М. Психологические основы учебно-познавательной деятельности вуза. Т.: ИПТД имени Г.Гуляма, 2008. С. 67.

5. Каримова В.М., Суннатова Р.И., Тожибоева Р.Н. Мустақил фикрлаш. / Академик лицейлар ва касб-хунар коллежлари ўқувчилари учун ўқув кўлланма. – Т.: «Шарқ», 2000. –112-б.

HARBIY RAHBARLARDA LIDERLIK SIFATLARI SHAKLLANISHI PSIXOLOGIK FENOMEN SIFATIDA

*Djabbarov Anvar Axrorovich –
O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari
kichik mutaxasislarni tayyorlash markazi boshlig‘i,
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), polkovnik*

Xalqaro miqyosda, ofitserlarda liderlik sifatlarini shakllantirish hamda uni rivojlantirishning psixologik shart-sharoitlarini tadqiq etish, dunyo mamlakatlaridagi ko‘pgina ilmiy tadqiqot institutlari va harbiy oliy o‘quv yurtlarida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Harbiy faoliyat har doim shaxsdan liderlik, o‘ziga ishonch, mustaqillik, g‘ayratlilik, aqliy yetuklik, kasbiy kompetentlik, qat‘iylik, mardlik, jasurlik kabi xususiyatlarni talab etishi tabiiy. Bundan tashqari, liderlik fenomeni harbiy topshiriq va vazifalarni o‘z vaqtida bajarish, qo‘l ostidagi xodimlarni mohirona boshqarish, jamoa uchun doim namunali boshliq bo‘la olish, har qanday murakkab sharoitlarda vaziyatdan chiqib keta olish, topshiriqlarni bajarilish holatini to‘g‘ri tashkil eta olish kabilarni ta‘minlovchi shaxsning psixologik sifatlaridan biridir. Shu jihatdan qaralganda, harbiy xizmatchilar shaxsida shakllanuvchi liderlik sifatlarini psixologik jihatdan tadqiq etish, o‘ta muhim va zarur ishlar turkumidan biri sanaladi.

Liderlik – bu guruh a‘zolari faoliyati va ularning o‘zaro aloqasi natijasida vujudga keladigan shaxsga xos tashkiliy xususiyatlar yig‘indisidir. Liderlikni faqat bir shaxs harakati bilan tavsiflash mumkin emas. Shuning uchun, liderlik sifatleri guruhlarining dinamik jarayonlariga tegishli hodisa sanaladi. K.T.Bazarovanning aytishicha, ishbilarmonlik, yetakchilik kabi sifatlar jamiyat sohalaridagi raqobatining kuchayishi va boshqaruv xodimlarining ish faoliyatiga qo‘yiladigan talablarning ortishi sharoitida yuzaga keladi[1].

Liderlik hamma uchun ham xos bo‘lgan sifat emas, uning zamirida o‘ziga xos psixologik qobiliyatlar, individual-psixologik sifatlar, kasbiy kompetensiyalar, ijtimoiy-psixologik sifatlar, asab tizimining o‘ziga xos xususiyatlari kabilarni mujassamdir. Liderlik sifati ko‘p qirrali faoliyatdir. Unda tushuntirishda ikkita asosiy yo‘nalish ajratiladi deb ta‘kidlaydi tadqiqotchi D.K.Dayl[2]:

Liderlik bu – aniq vazifalarga e'tibor qaratish ya'ni motivatsiya, tashkilotchilik, ko'rsatma berish, to'g'ri qarorlar qabul qilish va uni ijrosini ta'minlash, ish hajmini to'g'ri taqsimlash va hokazo;

Liderlik bu – jamoani saqlab qolishga va uni rivojlantirishga instilish, o'z qo'l ostidagilarga e'tibor berish, o'ziga ishonch, jamoasini rag'batlantira olish, kishilarni o'z shaxsiy maqsadlariga erishishiga ko'maklashish, o'z ishidan qoniqish, o'zini o'zi anglash, o'ziga ishonch, muammolarni o'ylash va hal qilishda faol ishtirok etish, shaxsiy munosabatlarda o'zaro hurmat va samimiylikka amal qilish kabi sifatlar majmuidir.

Aytish joizki, psixologiya fani sohalariga tegishli ko'plab tadqiqotlarda, lidelik fenomeni masalasida ko'plab ilmiy yondashuvlar, konsepsiyalar, ilmiy modellar ilmiy ishlab chiqilgan bo'lib, ularda liderlik va lider shaxslar xarakteristikasini tavsiflovchi, ko'plab ahamiyatga molik ma'lumotlar keltirilgan. Biroq, mahalliy tadqiqotlarda liderlik sifatlari shakllanishini asoslovchi, ayniqsa harbiy xizmatchi xodimlarda liderlik sifatlari shakllanishining psixologik jihatlari borasida deyarli tadqiqotlar amalga oshirilmagan. Bizningcha, liderlik – bu guruh faoliyatida maksimal ta'sirga erishish uchun, psixologik ta'sirning barcha mexanizmlari va usullarini o'zida birlashtirgan individual harakatlar majmuidir.

P.Yu.Semenuxinning so'zlariga ko'ra, liderlik shaxs – bu o'ziga xos funksiyalarni tashuvchi shuningdek, mehnat jamoalarida rasmiy munosabatlarni tartibga soluvchi subyektdir[3]. Shu bois, bunday insonlarning o'ziga xos sifatlarini o'rganishda ijtimoiy, iqtisodiy, ma'muriy, psixologik, sotsiologik omillarning ta'siri bilan o'rganish maqsadga muvofiqdir.

Tadqiqotchi T.Shibutanining aytishicha, lidelik tushunchasini tavsiflashda yoki unga aloqador ma'lumotlarni tahlil etishda, fanlararo integratsiya holatini hisobga olish lozim. Chunki, ushbu tushuncha zamirida inson faoliyati va uning imkoniyatini baholovchi ko'plab xarakterologik xususiyatlar aks etgan[4]. Haqiqatdan ham, ko'plab psixologik adabiyotlarda rahbar va lider tushunchasining tavsifi borasida bahsbop mulohazalar mavjud. Ya'ni rahbar va lider o'rtasidagi farqlar nimada? Rahbarning liderdan farqi shuki, unda qonuniy vakolat bor, ya'ni vazifa berish va jazolash, rag'batlantirish, lider esa, bunday vakolatdan holi shaxslar hisoblanadi.

Ayrim manbalarda lider shaxsning o'ziga xos rasmiy vakolatlari haqida ham fikrlar mavjud. Lider - bu nafaqat bo'yruq berish, balki homiylik qilish, norasmiy rahbarlik qilish, rag'batlantirish kabi funksiyalarni amalga oshira oluvchi va shunga qobiliyatli shaxsdir. Tadqiqotchi N.V.Misen liderlikni ma'muriy, huquqiy va ijtimoiy vakolatlar asosida, guruhning ish faoliyatini boshqaruvchi hamda ularning motivatsiyasini oshiruvchi shaxs deb ta'riflaydi[5]. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, liderlik taqsimlangan vazifalarni bajarishda boshqalardan faolroq, boshqalarni bajarishga undovchi yoki ularni yetaklovchi, guruh harakatlarini muvofiqlashtirib boruvchi shaxsdir. Fanda liderlik sifatlarini tushuntiruvchi xislatlar nazariyasi, kognitiv nazariya, chegaraviy rollar yondoshuvi, tizimli yondoshuv va sintetik yondoshuv kabilarning mohiyatini yoritish o'ta muhim hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganimizda, haqiqiy lider harbiy rahbar har jihatdan murakkab amallarga tayyor, jamoa va rahbarning holatidan to‘liq xabardor hamda jamoaning taqdiriga tegishli barcha yangiliklardan bohobar shaxs hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Базарова К.Т. Лидерские качества руководителя как социально-психологический феномен / К.Т.Базарова // Современный кадровый менеджмент. Вып.6. М.: ИПК госслужбы, 2007. – С.5-41.

2. Дайл Д.К. Трансформирующее действительность лидерство / Д.Дайл, Дж.Канджеми, К.Ковальски // Психология. Журнал высшей школы экономики. 2004. Т. 1. - № 1. – С.96 -109.

3. Семенухин П.Ю. Психологические особенности самоактуализирующейся личности лидера / П.Ю.Семенухин // Сибирский педагогический журнал. №11. – Новосибирск, 2007. – С.354 -360.

4. Шибутани Т. Социальная психология. Пер. с англ. / Т. Шибутани. - Ростов н/Д: Изд-во.«Феникс», 1998 – С.96.

5. Мысин Н. В. Теория социального управления. – СПб., Сев. Зап. акад. гос служб. 1998. – С.61.

HARBIY XIZMATCHILARNI TAYYORLASHDA PSIXOLOGIYANING O‘RNI VA ZAMONAVIY TALQIN

*Butayeva Umida Aliboyevna –
O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti
Psixologiya kafedراسи mudiri, psixologiya fanlari
bo‘yicha falsafa dokroti (PhD), dotsent.*

Bugungi kunda butun dunyo jamiyatida sodir etilayotgan voqelar shaxslarning ongiga o‘zining salbiy ta‘sirini o‘tkazmasdan qolmayapti. Bu esa o‘z navbatida davlatni, jamiyatni ximoya qiladigan kuchlarga, ya‘ni harbiy xizmatchilarga bo‘lgan extiyojning oshayotganligini va insonlarning ularga ishonchining yuqoriligi, natijada o‘sha ishonchni oqlay olishga bo‘lgan qat‘iyat va sadoqatni bo‘lajak askarlarda shakllantirish bugungi kuning eng muhim bo‘lgan masallaridan biridar. Harbiy xizmatchilarni yetuk va zabardas askarlar etib shakllantirish hamma zamonlarda ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo‘lib kelgan. Ammo biz yashayotgan XXI asrda bu masala haqiqatan ham hayot-mamot masalasiga aylanib bormoqda.

Shu o‘rinda aytib o‘tishim lozimki, O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.Karimov ta‘limning ahamiyati haqida to‘xtalib, «...armiyamizda soglom ma‘naviy muhitni yaratishda ta‘lim-tarbiya ishlariga alohida e‘tibor berish, harbiy tayyorgarlik jarayonini ilg‘or texnika va texnologik vositalar, yangicha usul-uslublar asosida tashkil etish, harbiy xizmatning intellektual mezonlari va yo‘nalishlarini takomillashtirish yo‘lida boshlagan ishlarimizni izchil davom ettirishimiz shart», degan edi.

Shu nuqtayi nazardan, davlat barqarorligiga qarshi qaratilgan tahdidlarning mavjudligini inobatga olsak, harbiy xizmatchi ularning salbiy mohiyatini tushunib yetadigan, nostandart vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qila oladigan, o'z burchi va qasamyodiga sodiq qoladigan, xizmat manfaatini shaxsiy manfaatdan doimo ustun qo'yib, zimmasidagi vazifani bajaradigan kompetent shaxs bo'lishi lozim.

Bu borada harbiy xizmatchilardan doimo o'z ustilarida tinmay ishlashlari, jismoniy, ruhiy va kasbiy jihatdan tayyorgarliklari yuqori darajada bo'lishiga erishishlari talab etiladi. Bu esa o'z navbatida Qurolli Kuchlarimiz safida harbiy xizmat o'tayotgan har bir harbiy xizmatchida, ayniqsa ofitserlar va serjantlarda kasbiy kompetentlikni tarbiyalash, shu bilan birgalikda psixologik jihatdan yetuk qilib shakllantirish masalasi dolzarb ekanligiga urg'u beradi.

Harbiy xizmatchilarning kasbiy kompetentligi va psixologik yetukligi o'z faoliyatlarining barcha yo'nalishlarida namoyon bo'ladi. Shu bois, bugungi kunda ofitserlar va serjantlarda kasbiy kompetentlikni tarbiyalash, ruhiyatini mustakkamlashning barcha komponentlari, tamoyillari, mexanizmlarini shakllantirish talab etiladi.

Zero, harbiy xizmatchilarning kasbiy kompetentligini tarbiyalash, ruhan mustahkamlikni ta'minlash deganda, avvalambor chuqur bilim va yuksak intellektual salohiyat, o'z harbiy burchini bajarishda qat'iy iroda va puxta tayyorgarlik sifatlarini shakllantirish nazarda tutiladi.

Harbiy OTM bitiruvchilari ruhan tetik, aqlan sog'lom, mustahkam irodali bo'lgan ofitserlar o'z bo'ysunuvchilarini kundalik faoliyatda boshqarishga qodir bo'ladi. Bugun biz intellektual jihatdan rivojlangan, har tomonlama yaxshi tayyorlangan, strategik fikrlovchi ofitserlarga egamiz va ularda zamonaviy jangda zarur bo'lgan mustahkam irodaviy sifatleri va avvalo, Vatanga, o'z xalqi va Prezidentiga sodiqlik, mamlakat xavfsizligi va halqimizning tinch-osoyshta hayoti uchun shaxsiy mas'ullik tuyg'usi shakllangan deb ishonch bilan ayta olamiz.

Xarbiy xizmatchilarni psixologik jihatdan yetuk shaxs sifatida shakllantirishda nimalarga e'tibor qaratish kerak. Keling shuni ko'ribchiqamiz:

- mas'uliyatni o'z bo'yniga olish va qaror qabul qilish;
- yetakchi bo'lishga intilish, o'zi va atrofdagilarni boshqara olish;
- o'zi va atrofdagilarni emotsional va ruhiy qo'llab-quvatlashga tayyor bo'lish;
- o'ziga ishonish va qat'iyat bilan harakat qilish;
- falsafiy mushohada qilish va fikrlarni umumlashtira olish;
- o'z prinsiplarni himoya qilish, ilgari surgan qarashlarini tasdiqlay olish, tanlagan yo'lidan qaytmaslik, irodaviy mustahkam bo'lish;
- shaxsiy individual qarashiga ega bo'lish;
- hayotiy tajribani ortttirish va uni yosh avlodga berishga tayyor bo'lish;
- realizm, ratsionallik, qilingan ishlarini taxlil qilish, baholash va unga javob berisha olish;
- hayotiy ijtimoiy rollarda o'zgarmaslik va to'g'ri bajarishga intilish.

Albatta, yetuklik shaxs rivojlanayotgan muhit va unga ta'sir etayotgan faktorlarga bevosita bog'liq.

Harbiy xizmatchi yetuklik darajasiga ta'sir etuvchi 5 aspektni ajratish mumkin:

1. Muvaffaqiyatga intilish motivatsiyasi - qo'yilgan maqsad sari intilish, maksimal ravishda o'z-o'zini realizatsiya qilish, mustaqillik, tashabbuskorlik, liderlikka intilish, yuqori natijalarga erishishga harakat qilish.

2. O'z "Meni"ga munosabat o'ziga bo'lgan munosabatda, qobiliyat, xarakter va temperament munosabatlari, o'z-o'zini baholash, talabchanlik, samimiylik, kamsuqumlik, o'zini manmanlikdan asrash, boshqa odamlarga nisbatan hurmatda bo'lish.

3. Fuqarolik burchini anglash, vatanparvarlik, kasbiy mas'uliyat va kompetensiya, muloqot qilishga extiyoj, jamoaviy mehnatni qo'llab-quvvatlash.

4. Hayotiy ustanovkalar. Intellektning xis-tuyg'udan ustunligi, emotsional barqarorlik, hamkorlikka intilish va keng fikrlilik.

5. Boshqalar bilan emotsional, psixologik yaqinlikka intilish. Boshqalarni eshitish qobiliyati, boshqalar bilan yaqin bo'lish extiyoji.

Shaxsning har bir taraqqiyot bosqichidagi yetukligini shu bosqichdagi yetakchi faoliyat uning faolligini, muvaffaqiyatga erishishini ta'minlaydi.

Ta'lim jarayonida harbiy xizmatchining psixologik yetukligini yaxlit holda shakllantirishda quyidagi holatlarga e'tibor qaratiladi:

harbiy xizmatchining ongi, his-tuyg'usi, xulqiga maxsus psixotreninglar orqali ta'sir etish;

harbiy xizmatchining tashqi ta'sir asosida o'z-o'zini tarbiyalashi;

harbiy xizmatchi yetukligi bilan bog'liq barcha sohalarning o'zaro aloqasi;

harbiy xizmatchining ijtimoiy yetukligini shakllantirishda aqliy, axloqiy, ijtimoiy va boshqa tarkibiy qismlarning uyg'unligiga erishish;

harbiy xizmatchi psixologik yetukligini shakllantirish jarayonining tizimliliigi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, xarbiy xizmatchilar har tomonlama yetuklikka erishishlarilozim. Harbiy xizmatchining psixologik yetilishi uchun uni aqliy, axloqiy, emotsional, jismoniy rivojlantirish, ijodiy qobiliyatini namoyon etishi uchun imkoniyat yaratish, unda psixologik yetuklik sifatlarini tarkib toptirish maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy taxlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik- har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. // "Xalq so'zi", 2017 yil 15 yanvar.

2. Ананьев В.А. Основы психологии здоровья. Книга 1. Концептуальные основы психологии здоро-вья. СПб., 2006.

3. Butayeva Umida Aliboyevna. Mas'uliyat psixologik yetuklik mezoni sifatida. Sovremennoye obrazovaniye (Uzbekistan). 2017. S-52-58.

4. Butayeva Umida Aliboevna. Shaxsning noaniqlik sharoitlarida qaror qabul qilish xususiyatlari. Central asian research journal for interdisciplinary studies (carjis). Volume 2 | issue 1 | 2022.

5. Butayeva Umida Aliboyevna. Rahbar kadrlar zaxirasini shakllantirishda ijtimoiy intellekt va qadriyatlarining o'rni. Ta'lim va innovasion tadqiqotlar 2023 y 7-son. C-218-229.

6. Butayeva Umida Aliboevna. Harbiy xizmatchilarda psixologik etyklikning ijtimoiy-psixologik asoslari. O'zbekiston Respublikasi Mudofaa Vazirligi

Markaziy harbiy okrug huzuridagi “Ilmiy tadqiqot” ilmiy-amaliy va uslubiy Markazi “Harbiy xizmatchilarni xizmat faoliyatiga tayyorlashda psixologiyaning o‘rni” mavzusidagi respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferentsiyasi. 2021 й. 44-б.

7. G‘oziyev E.G‘. Oliy maktab psixologiyasi.-T.: O‘qituvchi, 1997.-106 b.

8. Alimardonov Z.Sh. Harbiy xizmatchilarning kasbiy kompetentligini tarbiyalash mexanizmlarini ilmiy-pedagogik takomillashtirish. “Zamonaviy ta’lim” jurnali. T.: 2016. 8-son

PROKURATURA TIZIMI XODIMLARIDA KASBIY REFLEKSIYA IJTIMOY-PSIXOLOGIK FENOMEN SIFATIDA

*O‘sarov Odiljon Avalbayevich –
Samarqand harbiy prokurori,
adliya polkovnigi, ilmiy izlanuvchi*

Dunyo miqyosida Prokuratura tizimidagi xodimlarni kasbiy faoliyatga tayyorlash va kasbiy refleksiyasini oshirish jahon mamlakatlaridagi ko‘pgina ilmiy markazlar va tadqiqot institutlarida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Jumladan, prokuratura tizimidagi xodimlarning ijtimoiy-psixologik va huquqiy sohada kasbiy yo‘nalganlik, kasbiy refleksiv qobiliyat hamda amaliy natijaviyligi rivojlangan mamlakatlar prokuratura tizimida muhim hisoblanadi. Jahonda kasbiy refleksiya strategiyasi va mexanizmlarini zamonaviy zamonaviy rivojlanish tamoyillari asosida takomillashtirish, kreativ fikrlovchi kadrlarni tayyorlash masalalariga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir.

Qolaversa, davlatlar o‘rtasida turli madaniy, huquqiy va ijtimoiy-psixologik munosabatlarning integratsiyalashuvi prokuratura tizimi xodimlarida kasbiy refleksiyani o‘rganish tizimini isloh qilish va takomillashtirish vazifasini belgilaydi. Prokuratura tizimi xodimlarida kasbiy refleksiya, o‘zini o‘zi faollashtirish, nostandart vaziyatlarga psixologik yechim topish, ilg‘or huquqiy texnologiyalarni qo‘llash kabilarga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Shuningdek, rivojlangan mamlakatlar prokuratura tizimi xodimlarining ijtimoiy-psixologik va huquqiy sohada kasbiy yo‘nalganlik, kasbiy refleksiv qobiliyatining amaliy natijaviyligi muhim masalalar sarasiga kiritilgan.

Prokuratura tizimi xodimlarida kasbiy refleksiya ijtimoiy-psixologik jihatdan tadqiq etishda quyidagi vazifalarni belgilab olish o‘rinli hisoblanadi:

kasbiy refleksiya muammosining mazmun-mohiyati va uning ijtimoiy tabiatini aniqlashtirish;

prokuratura tizimidagi xodimlarda kasbiy refleksiya xususiyatining psixologik tavsifini asoslash;

prokuratura tizimidagi xodimlarda kasbiy refleksiyaning ijtimoiy-psixologik omillarini tahlil qilish;

shaxs xususiyatlari va kasbiy refleksiya sifatlarining bog‘liqlik jihatlarini aniqlash;

prokuratura tizimidagi xodimlarda kasbiy refleksiyaning ijtimoiy-psixologik determinantlarni yoritish, umumiy xulosa hamda taklif-tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotchi A.V.Karpov prokuratura tizimidagi xodimlarda refleksiya tushunchasini o'rganib, uni quyidagi uch turga ajratadi[1,45]:

1. Situatsion refleksiya ma'lum bir vaziyatda shaxs o'z xulqini nazorat qilishida namoyon bo'ladi. Bunday refleksiya muayyan hayotiy vaziyatlarda shaxs o'zini o'zi tahlil qilishga moyilligi, qaror qabul qilish jarayonlarini qo'llashi, subyektning hozirgi faoliyati to'g'risida fikr yuritishi bilan ifodalanadi.

2. Retrospektiv refleksiya o'tmishda amalga oshirilgan harakatlar va sodir bo'lgan voqealarni tahlil qilish tendensiyasida namoyon bo'ladi. Bunday refleksiya subyekt tomonidan o'tgan voqeani tahlil qilish va baholashning chastotasi va davomiyligida ifodalanadi.

3. Perspektiv refleksiya kelajakdagi faoliyat, xulq-atvor bilan amalga oshishi mumkin bo'lgan natijalarni rejalashtirish va bashorat qilish o'rtasidagi nisbatda namoyon bo'ladi. Bunday refleksiyaning asosiy xususiyatlari xulq-atvorni rejalashtirishning batafsil tavsifi, kelajakdagi voqealarga murojaat qilish chastotasi va kelajakka yo'naltirilganlikdir.

Psixolog olim V.A.Metayevaning fikricha, prokuratura tizimi xodimlarida kasbiy refleksiyaning akmeologik xususiyatini alohida ta'kidlab, refleksiya orqali shaxsiy va kasbiy rivojlanishda eng yuqori natijalarga erishishni ta'minlaydi. Aynan akmeologiyada "refleksiv kompetensiya" boshqa barcha turdagi kasbiy kompetensiyalarning yetarli darajada rivojlanishiga hissa qo'shadigan meta-kompetensiya sifatida qaraladi degan fikrni ilgar suradi[2,58]. V.A.Metayevaning o'qituvchilar, tibbiyot xodimlari, jamoat va siyosiy arboblari, rahbarlar o'rtasida olib borgan tadqiqotlari refleksiya barcha mutaxassislar faoliyatida tizimni tashkil etuvchi element bo'lib, ularning kasbiy malakasini rivojlantirishga xizmat qilishini isbotlaydi.

Tadqiqotchi M.M.Mukanova fikricha, o'z-o'zini bilish jarayonida refleksiyaning rolini aniqlash bilan bir qatorda, u muloqotda o'zaro tushunishga erishish imkoniyatini ta'minlaydigan ijtimoiy persepsiyaning asosiy mexanizmlaridan biri sifatida qaralishini ta'kidlaydi[3,54]. Bu yerda refleksiya muloqotdagi sherigi tomonidan o'zini qanday qabul qilinishini anglashida namoyon bo'ladi, shuningdek, ijtimoiy persepsiyaning yana bir mexanizmi bo'lgan sherigining kechinmalarini tushunishga qaratilgan kognitiv empatiya bilan bog'liq hisoblanadi.

Tadqiqotchi Yu.I.Lobanovning fikricha, prokuratura tizimi xodimlarining faoliyatida refleksiyaning roli ularning kasbiy fikrlash jarayonida bajaradigan funksiyalari bilan belgilanadi. Fikrlash jarayonini tahlil qilish funksiyasi muvaffaqiyatsizlik tufayli yuzaga keladigan muammoni tushunishni ta'minlaydi va mutaxassis o'zini xato qilayotgan ijrochi sifatida ko'rishida, qabul qilgan qarorlari nima uchun samarali yoki samarasiz ekanligini aniqlashga intilishida namoyon bo'ladi[4,54]. Demak, refleksiya ongli ravishda muammoni qo'ya olishni, fikrlash jarayonini mustaqil ravishda shakllantirishni, ya'ni uni tashkil etishni ta'minlaydi. Bu vaziyatda refleksiya tafakkurni amaliy muammoni hal qilish uchun tanlangan yo'lni qayta ko'rib chiqishga, ular asosida yangi harakat uslubini ishlab chiqish

uchun uning xatolarini topishga majbur qilar ekan. Ushbu funktsiyaning natijasi mavjud vaziyatdan tashqariga chiqish va ijodiy tafakkur jarayonini faollashtirish bo'ladi.

Tadqiqotchi M.K.Tutushkina tomonidan prokuratura tizimi xodimlarida refleksiyaning shaxsning o'zini o'zi boshqarishidagi zaruriy mexanizmlardan biri sifatida belgilaydi. U prokuratura tizimi faoliyatdagi refleksivlikning ikki xil nazorat va konstruktiv funktsiyalariga ajratadi[5,67]. Nazorat funktsiyasi ma'lum bir sohadagi mavjud vaziyat va shaxs dunyoqarashi o'rtasidagi aloqalarni o'rnatish va tekshirish jarayonidan iborat bo'lib, ma'nolar, munosabatlar va obrazlar shaklidagi ko'rsatmalardan iborat bo'ladi. Konstruktiv funktsiya muayyan harakatlarni bajarish bilan bog'liq bo'lib, ideal obrazning o'zi harakat bajarilishi kerak bo'lgan model jarayonida yaratiladi, ya'ni bu ijodiy jarayon hisoblanadi.

Prokuratura tizimi xodimlarida kasbiy refleksiya shakllanishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o'rganish masalasi ijtimoiy psixologiya sohasining oldidagi eng dolzarb masalalardan biri sanaladi. Tadqiqot jarayonida prokuratura tizimi xodimlarida kasbiy refleksiya faoliyatini rivojlantirish darajasining psixologik jihati bilan bir qatorda, ularning kasbiy, ijtimoiy va psixologik xususiyatlari ham e'tiborga olingan.

Demak, refleksiya shaxsiy tajribani o'zlashtirishning o'ziga xos shakli, subyekt tomonidan o'zining muhim xususiyatlari, qobiliyatlari va yutuqlarini, shuningdek, ijtimoiy muhit bilan bo'ladigan munosabatlarini anglashining ongli va ixtiyoriy jarayoni tushuniladi, hamda boshqalar bilan muloqoti davomida yangi ijtimoiy normalar va xulq va faoliyat shakllari faol o'zlashtirilgan ekan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, prokuratura xodimlarining berilgan so'rovnomaga nisbatan mulohazalari hozirgi davr uchun eng muhim sanalgan kasbiy refleksiya shakllanish faoliyati bilan bog'liq jarayonlarni o'rganishda ularning bu mulohazalarga bergan javoblari shuni namoyon qildiki, kasbiy refleksiyaning rivojlantirishga xos sifatlarini inobatga olishi va buning natijasida kasbiy faoliyatda yuzaga keladigan qiyinchiliklarni oldini olishda asosiy mezonlardan biri sanalishi muhim ahamiyat kasb etishi nomyon bo'ldi. Shuningdek, prokuratura tizimi xodimlarining berilgan so'rovnomalarga nisbatan mulohazalari korrelyatsion koeffitsiyent bo'yicha shakllarning ahamiyatli ravishda bog'langanligi, ularning kasbiy faoliyatida muhim ahamiyat kasb etishini prognoz qilishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Карпов А.В., Рефлексивность как психическое свойство и методика ее диагностики // Психологический журнал. – 2003. – Том 24. – №5. С. 45 – 57.
2. Метаева В.А., Рефлексия как метакомпетентность / В.А.Метаева // Педагогика. - 2006. -№ 3. - С. 57-61.
3. Муқанов М.М., Исследование когнитивной эмпатии и рефлексии представителей традиционной культуры // Исследование рече-мысли и рефлексии. Алма-Ата, 1979. С. 54-79.
4. Лобанова Ю.И., Исследование влияния рефлексивного механизма

на успешность профессиональной подготовки современного специалиста: Авто-реф. ... канд. психол. наук. СПб., 1998. С. 45.

5. Тутушкина М.К., Практическая психология. Учебник . Санкт-Петербург. 2001. С. 67.

HARBIY XIZMATCHILARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASH PSIXOLOGIK FENOMEN SIFATIDA

*Ravshanov Lochinbek Urinovich - O'R MV MHO
huzuridagi "Ilmiy tadqiqot" markazi boshlig'i,
psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent, podpolkovnik*

O'zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan mudofaa tizimini qayta, to'liq modernizatsiya qilishning hozirgi bosqichida, eng ilg'or, eng jonkuyar, eng vatanparvar, jamiyatimiz manfaatlariga sodiq, yoshlarimizni keng qamrovli o'rganish, uni psixodiagnostik usullar bilan baholash hamda ularda harbiy-vatanparvarlik ruhini rivojlantirishga xizmat qiluvchi taklif va tavsiyalar, ilmiy modellar ishlab chiqish dolzarb masalalardan biri ekanligi belgilandi.

Jumladan, harbiy xizmatchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tizimidagi ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qabul qilingan strategik hujjatlarni amalga oshirish doirasida har tomonlama rivojlangan, bilimdon, xalqiga, shuningdek, Vatanimizga xizmat qilishga sodiq yoshlarni tarbiyalash bo'yicha keng miqyosli ishlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, milliy qadriyatlarga, xalqlarning madaniyatiga va o'zligiga bo'lgan tahdidlar, yod g'oyalarni singdirishga bo'layotgan urinishlar kuchayib borayotgan globalizatsiya jarayonlari jadal rivojlanayotgan sharoitda yoshlar eng zaif qatlam bo'lib qolayotganligi sababli bu yo'nalishda qo'shimcha kompleks chora-tadbirlar qabul qilinishi dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda[1].

O'quv-tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda yoshlarni milliy urf-odat, an'ana va qadriyatlarni asrash, ularni boyitish uchun harakat qila olish ko'nikmalarini tarbiyalashga e'tiborni qaratish maqsadga muvofiq. harbiy xizmatchilar o'rtasida vatanparvarlik g'oyalarini targ'ib etuvchi qiziqarli tadbirlarning keng ko'lam va yuksak saviyada tashkil etish an'anasini qayta tiklash. harbiy xizmatchilarda vatanparvarlik qadriyatlarini shakllantirishning psixologik jihatlarini yaxlit holda o'rganilishiga erishish, mazkur jarayonni tashkil etishning samarali yo'llari, omillari va vositalarini yetarli darajada o'rganish muhim hisoblanadi. Demak, yoshlarda vatanparvarlik qadriyatlariga ega bo'lishlarini ta'minlashda va bu jarayonni yaxlit tashkil etish, unda har bir samarali omildan maqsadli foydalanish, imkoniyatlarni ko'ra olish va ularning samaradorligini baholash muhim ahamiyatga ega.

Harbiy xizmatchilardagi vatanparvarlikni ulardagi ichki motivatsion omil sifatida shakllanishi ulkan tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Ularda vatanparvarlik qadriyatlarini shakllantirish va hissiy motivatsion munosabatlarni tarkib toptirishda quyidagi shart-sharoitlarga amal qilish zarur deb hisoblayman:

vatanparvarlikni shakllantirishda ijtimoiy hayot sharoitlari bilan bog‘lab olib borish;

yoshlarni ijtimoiy yo‘naltirish, ijtimoiy faolligini oshirishga qaratilgan amaliy faoliyatni tashkil etish;

ijtimoiy ongillik va ijtimoiy hayot vaziyatlaridan to‘g‘ri yo‘l topib chiqish olish – ma‘naviyatlilik, komillik belgisi ekanligini tushuntirish;

yoshlarda mas‘uliyat, mustaqil fikrlash malakalarni shakllantirish;

o‘smirlik davri – o‘tish xususiyatlarini to‘g‘ri tushunish, ulardagi yosh va individual xususiyatlarni e‘tibordan chetda qoldirmaslik.

Harbiy xizmatchilarda vatanparvarlik qadriyatlarini shakllanishida oiladagi sog‘lom munosabatlar katta ahamiyat kasb etadi. Oilada sog‘lom muhitning saqlanishi ko‘p omillarga bog‘liq. Masalan, ota-onalar bilan bolalarning o‘zaro yaxshi munosabati, katta avlod vakillariga hurmat, e‘tibor, oiladagi farzandlarning o‘zaro munosabatlari to‘g‘ri tarbiyalangani, ota-onaning bolalari tarbiyasiga barobar jonkuyarligi, oilada o‘rnatilgan to‘g‘ri tartib va yaxshi odatlar, ota-onaning mehnatga, ijtimoiy hayot hodisalariga to‘g‘ri munosabatda bo‘lish kabilar shular jumlasidandir.

Shaxsda vatanparvarlikning psixologik tuzilmasini tadqiq qilgan V.N.Myasishchevning fikricha, vatanparvarlik komponentlari shaxsning davlatga, xalqqa va o‘z-o‘ziga nisbatan quyidagi munosabatlarida namoyon bo‘ladi[2,53]:

davlatga munosabat – davlat ramzlarini, davlatning tarixiy, madaniy an‘analarini, davlat tilini bilish va ularga nisbatan munosabatda ko‘rinadi;

xalqqa munosabat – xalqning mentaliteti, qadriyatlari, asosiy xususiyatlarini anglash, vatanparvarlik, millatchilik, egotsentrizm, shovinizm tushunchalarining mohiyatini bilish, xalqning tinchlik va harbiy safarbarlik holatiga munosabat, xalq manfaatida vatanparvarlikni ifoda etishga ehtiyojini his qilishda ifodalanadi;

shaxsning o‘ziga vatanparvar sifatida munosabat – o‘zining huquqlarini, burch hamda majburiyatlarini bilishida namoyon bo‘ladi.

Tadqiqotchilar A.L.Juravlev va A.V.Yurevichlarning tadqiqotlarida vatanparvarlikning psixologik jihatini tavsiflashga harakat qilingan[3,88]. Mualliflarning ta‘kidlashicha vatanparvarlik ko‘p komponentli tushuncha va hodisa bo‘lib, uning asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat ekanligini ta‘kidlaganlar:

Vatanga muhabbat tuyg‘usi;

shaxsiy manfaatlaridan ko‘pchilik, omma manfaatlari uchun voz kechishga tayyorlik;

munosib xulq-atvor;

o‘z mamlakati, uning tarixi va xalqiga mansubligini his etish.

Tadqiqotchi J.Ramatovning ta’kidlashicha, o‘z taqdiri va kelajagi uchun qayg‘uruvchi har qanday jamiyat, har qanday mamlakat harbiy xizmatchilarga munosabat masalasida ularning hayotini ma’naviy boy, sermazmun qilish, xalqiga, Vatanga sadoqatli, har tomonlama yetuk, barkamol inson bo‘lib yetishishidan manfaatdordir[4,129]. Shuning uchun harbiy xizmatchilarning jismoniy, ma’naviy va intellektual qobiliyatlarini namoyon qila olishlari uchun keng imkoniyatlar yaratib berilmoqda. Yoshlarimizning siyosiy ongli, ma’naviy barkamol, sharqona odob-axloqli, faol, mas’uliyatli, ona Vatanga sadoqatli bo‘lib yetishishi jamiyat va davlat taqdiri uchun g‘oyat muhimdir.

Qolaversa, “Zamonaviy harbiy xizmatchi imijining psixologik jihatlari” mavzusida psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan tadqiqot ishimga asosan “Harbiy xizmatchi imijining ijobiy psixologik sifatleri”ga mas’uliyatlilik, jamoaviy “Men”, qat’iyatlilik, sabr-bardoshlilik, faollik, jasoratlik, progressiv tip, ijobiy emotsional tip, muvozanatlashgan tip kabi psixologik sifatlar qatoriga vatanparvarlikning kiritilishi[5,116] yuqorida e’tirof etilgan ilmiy-psixologik ta’riflarning isbotini belgilaydi.

Xulosa kilib aytganda, mamlakatimizda harbiy xizmatchilarni o‘qitish va tarbiyalash milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari prinsiplari va mustaqillik yutuqlari, xalqning boy milliy, ma’naviy va intellektual salohiyati hamda umumbashariy qadriyatlarga tayangan, insonparvarlikka yunaltirilgan ta’limning mazmuni davlat ta’lim standartlari asosida isloh qilinishiga katta e’tibor qaratilmoqda. Harbiy xizmatchilarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga doir ishlarni jonlantirish va faollashtirishda “oila – mahalla – harbiy qism” shu uchlikning hamkorlikdagi faoliyati alohida sanaladi, shu bilan bir qatorda pedagoglarda ijtimoiy va psixologik bilimlarni ham talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 28 iyundagi “O‘smirlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari va davlat xizmati uchun kadrlar zaxirasini tayyorlash tizimini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4375-son qarori..

2. Мясищев В.Н., Социальная психология личности. - Л.: 1974. С. 53.

3. Журавлев, А.Л., Юревич А.В., Патриотизм как объект изучения психологической науки / А.Л. Журавлев, А.В.Юревич. // Психологический журнал. - 2016. - Т. 37. - № 3. - С. 88-98.

4. Ramatov J., Yoshlarda vatanparvarlik fazilatini shakllantirish - ta'lim-tarbiya sohasining asosiy vazifasi. "Globallashuv sharoitida vatanparvarlik tarbiyasining ma'naviy-ma'rifiy texnologiyalari". Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari // O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi. – Toshkent, 2019, 129-131-b.

5. Ravshanov L.U., "Zamonaviy harbiy xizmatchi imijining psixologik jihatlari" PhD doktorlik diss..., O'zMU: 2019 y., 116 – b.

АНАЛИЗ КОНФЛИКТНЫХ СИТУАЦИЙ В ОТНОШЕНИЯХ МЕЖДУ ПОДРОСТКАМИ

*Салахутдинова Мушарраф Исомиiddиновна –
доцент кафедры психологии Самаркандского
государственного университета имени Шарофа
Рашидова.*

*Умаралиева Хилола Фазлиддин кызы –
магистрант факультет Психологии и
социально-политических наук, Самаркандский
государственный университет имени Шарофа
Рашидова,*

Аннотация: В статье представлены сведения о конфликтных ситуациях, в которых наблюдались взаимодействия между подростками. Конструктивное управление конфликтами в подростковом возрасте, сохранение спокойствия, выслушивание и уважение к ним может стать хорошим решением для предотвращения конфликтных ситуаций. Анкета К.Н.Томсона о том, как ведет себя человек в конфликтных ситуациях, была взята у подростков (13 лет), и в статье вы познакомитесь с анализом результатов анкеты.

Ключевые слова: конструктивный менеджмент, Анкета К.Н.Томсона, конкурентоспособность, сотрудничество, компромисс, доброжелательность, избегание конфликтов, гибкость.

Abstract: The article provides information about conflict situations in which interactions between teenagers were observed. Constructive management of conflicts in adolescence, keeping calm, listening and respecting them can be a good solution to prevent conflict situations. K.N.Thomson's questionnaire about how a person behaves in conflict situations was taken from teenagers (13 years old), and in the article you will get acquainted with the analysis of the results of the questionnaire.

Keywords: constructive management, K.N.Thomson questionnaire, competitiveness, cooperation, compromise, agreeableness, conflict avoidance, flexibility.

Introduction. Nowadays, the problem of conflict situations is relevant even for school-aged students. Such situations are often observed in teenagers who are trying to recognize themselves and who are developing their personality. Because it is during this period that physiological and psychological changes accelerate in them.

The conflict situations that occur in teenagers are caused by the social environment along with their individual characteristics. Dissatisfaction with the relationships of relatives towards them leads to aggressive and stressful situations. As a result of this, conflict situations arise with close people and friends.

Purpose: Empirical analysis of conflict situations among teenagers, explore of their personal characteristics.

Adolescence is defined as a period of development with its own characteristics. Changes in the cognitive, physical and social spheres of a person, along with psychological changes and increasing independence, accelerate.

Researchers pay attention to various aspects of this problem, especially the personal characteristics of teenagers, psychological factors, social environment and emotional sphere. M. Piren, L. Kozer, M. Meskon, E. Mayo, T. Parsons and others emphasized the importance of effective conflict management and prevention of aggressive behavior.

In psychology, we see the concept of conflict as disagreements and misunderstandings between people entering into mutual relations. Conflict is a characteristic of adolescence, which can be caused by external and internal factors, changes in social role and independence. Conflict situations affect the psychological state and social life of adolescents. Psychological determinants of the conflict behavior of teenage students are the factors that determine the behavior of teenagers in conflict situations.

Adolescent children strive to be independent in all spheres, but they mentioned that their parents interfere in decision-making and choosing friends during this period. Adolescents and parents are often unable to come together and face many difficulties. Adolescents are in the process of developing their own personality, which can lead to a deterioration in their relationship with their parents and to assert their independence. Adolescents usually want freedom. is key to creating an environment where both sides are respected and heard.

K.N.Thomson's questionnaire was conducted among the 6th grade students of the 3rd school of the preschool and school education department of the city of Samarkand.

With the help of K.N.Thomson's questionnaire, it is possible to determine the degree of manifestation of such qualities as a person's tendency to cooperation or competition, readiness for compromise (compromise, giving way,), avoiding conflicts or striving for escalation. This questionnaire also provided an opportunity to assess the level of socio-psychological adaptability of each member of the team to cooperative activities.

30 students of the 6th grade (13 years old) participated in the survey. According to him, the high, medium and low results of teenagers in terms of

competitiveness, cooperation, tolerance, agreeableness, avoidance of conflict and flexibility are reflected in the following tables.

**The degree of manifestation of the competitive feature
and the series of distribution**

Evaluation criteria	Numbers	percentage
1-High level	9	30%
2-Average level	13	43,3%
3-Low level	8	26,6%

**The degree of manifestation of the characteristic of cooperation
and the series of distribution**

Evaluation criteria	Numbers	percentage
1-High level	10	33,3%
2- Average level	16	53,3%
3- Low level	4	13,3%

**The degree of manifestation of the quality of compromise
and the range of distribution**

Evaluation criteria	Numbers	percentage
1- High level	13	43,3%
2- Average level	8	26,6%
3- Low level	9	30%

**The degree of manifestation of the trait of avoidance of conflict
and the series of distribution**


Evaluation criteria	Numbers	percentage
1- High level	2	6,6%
2- Average level	17	56,6%
3- Low level	11	36,6%

**The degree of manifestation of the flexibility feature and the series of
distribution**

Evaluation criteria	Numbers	percentage
1- High level	5	16,6%
2- Average level	14	46,6%
3- Low level	11	36,6%

From the results shown in the tables, it is known that the high and medium level of indicators of competition, cooperation, and tolerance were observed in most of the students. In the characteristics of avoiding tension and flexibility, a medium and low level was observed, and the high level was relatively low.

The high level of all characteristics in the questionnaire is illustrated in the following diagram.



Conclusion. A high and average level of competitiveness was shown in high percentages among 13-year-old teenagers. Average level of cooperativeness, high level of tolerance, average level of conflict avoidance, average level of adaptability are expressed in high percentages.

References:

1. Larisa A. Golovey, Marina V. Danilova, Irina A. Gruzdeva, Liudmila V. Rykman Psychological Well-Being and Intra-personal Conflicts in Adolescence.2021. [<http://psychologyrussia.com>].
2. Kostin S., Almashi S. Psychological features of adolescent conflict behavior.[[researchgate.net](https://www.researchgate.net)].
3. Perception of adolescents' relationships with parents: A Qualitative research Savas Karatas, Sertelin Mercan, Aylin Duzen. 2016.[<https://www.researchgate.net>].
4. K.N.Thomson's questionnaire.

EKSTREMAL XULQ-ATVORLARNING SOTSIAL-PSIXOLOGIK OMILLARI

Abdanov N.N. – O'R QK kichik mutaxassislarni tayyorlash markazi Havo hujumidan mudofaa sikli katta o'qituvchisi, podpolkovnik

Annotatsiya. Yoshlarga o'zini sinab ko'rish, o'zligini namoyon etish uchun jamiyat tomonidan imkoniyat yaratilmasa, hayf-xatarli bo'lsa ham, ular yashirin

tarzda tuzilgan turli diniy sektalar, har-xil neofashistik guruhlariga kirib, shu yo'l bilan o'zini sinab ko'rishga, namoyon etishga intiladi.

Kalit so'zlar: *Agar bu xil toifadagi yoshlar birlashib, muayyan kuchlar tomonidan boshqarilib, yo'naltirilib turilgan bo'lsa, ular jamiyat barqarorligi, odamlar hayoti va yashashi uchun o'ta hayfli kuchga aylanadilar.*

Keyingi yillarda xalqaro muammoga aylanib borayotgan terrorizm va ekstremizm, fundamentalizm va radikalizm kabi ekstremal xatti-harakatlarga qarshi kurashish jahon hamjamiyatining ichki va tashki siyosatlarining muhim yo'nalishiga aylanib bormoqda. Yuzlab, minglab begunoh insonlar qoni to'kilishiga sabab bo'layotgan terroristik harakatlarning oldini olish va zararlantirish masalalari dunyo mamlakatlarining birlashishini taqozo etmoqda. Terrorizm ayniqsa, XX asr oxirlarida va XXI asr boshlarida xalqaro ko'lamda kuchayib ketdi va siyosiy kurashning bir usuliga aylanib bormoqda.

Terrorizm(yunoncha terror- qo'rquv, daxshat) o'ldirish, qo'rqitish yo'li bo'lib, muxoliflar, siyosiy raqiblarni yo'q qilish usulidir. Shuningdek, aholi o'rtasida vahima va tartibsizliklar keltirib chiqarish maqsadida qilinadigan zo'rvonlik bo'lib, uning ta'qib qilish, garovga olish, qotillik, portlatish kabi ko'rinishlari mavjud. Afsuski, bu ijtimoiy illat kishilik jamiyatining ilk kunlaridan boshlab yashab kelayotgan fenomen xdsoblanadi.

Terrorizm tarixi bilan tanishish shuni ko'rsatadiki, bir mamlakat doirasidagi terroristik harakatlarning vujudga kelishida bir necha sabablar, avvalo, jamiyat hayotidagi adolatsizliklar, ularni bartaraf etish uchun demokratik tamoyillarning yo'qligi, jamiyatni boshqarishda qonunchilikka rioya qilmaslik, mustabittuzum, zo'rvonlik, iqtisodiy qiyinchilik kabi omillar yetakchi o'rinda turadi. Terrorizmning siyosiy, milliy, diniy, iqtisodiy, g'oyaviy, guruxiy kabi turlari mavjud. Siyosiy maqsadlarda qilinadigan terrorizm tarix sahifalarida ko'p yozilgan.

O'zining siyosiy raqiblarini zaxarlash, o'ldirish, yo'q qilib yuborish ibtidoiy davrlardan boshlangan va hozirgi davrga kelib ayrim siyosiy guruhlarining asosiy kurash quroliga aylanib qoldi.

Diniy mazmundagi terrorchilikka Zardo'shtning o'ldirilishi, halifalardan Abu Bakr Siddiqdan tashqari, qolgan uch halifa - hazrati Umar, Usmon, Alilar ham suiqasd qurbonlari bo'lganlari ham misol bo'la oladi. Bunday terroristik harakatlarni boshqa dinlar tarixidan ham ko'plab keltirish mumkin.

Milliy ozodlik va mustaqillik uchun olib borilgan kurashlarda siyosiy, harbiy va iqtisodiy imkoniyatlarning tengsizligi ham o'z erki va ozodligi uchun kurashayotgan tomonni qo'poruvchilik harakatlari qilishga majbur qilgan. Masalan, Ikkinchi jahon urushi davrida gitlerchilar Germaniyasi tomonidan bosib olingan mamlakatlarda, xususan, sobiq Ittifoq xududida ham partizanlik harakatlari boshlanib, bosqinchilarga qarshi turli harakatlar kuchayib ketgan. Harbiylar joylashgan binolar, qurol-yarog' olib kelayotgan eshelon va ko'priklar portlatilgan. Bunday portlashlar jarayonida dushman kuchlari bilan bir qatorda aholi o'rtasida ham ko'plab talofotlar bo'lgan.

Millatlar va davlatlar o'rtasidagi munosabatlarda gegemon davlat yoki millat o'z manfaatlari yo'lida kuchsizroq davlatga yoki etnik guruhga tazyiq o'tkaza boshlasa,

tabiiyki, bu davlatlar va millatlar o'rtasida nizo va ziddiyatlarni keltirib chiqarishi barobarida, nochor qolgan tomonni turli qo'poruvchilik harakatlari qilishga undaydi. Hozirgi davrda dunyoning turli mintaqalarida milliy mustaqillik, ozodlik bayrog'i ostida kurashayotgan siyosiy harakatlar o'zaro kuchlar tengsizligi natijasida hatto terroristik guruhlar tuzib, kurash olib borishmoqda. Ular o'zlarining mustaqil davlatlarini tuzish uchun ko'p yillardan buyon ochiq va yashirin tarzda harakat qilishyaptiki, bu kurashda ba'zan terroristik harakatlar - turli joylarda portlatish va buzg'unchiliklarga ham yo'l qo'yilayotgani bunga misoldir.

Yana shu narsa ma'lumki, urushni boshidan kechirgan har bir xalq juda og'ir irodaviy, axloqiy-ma'naviy zo'riqishlarga uchraydi. Urush el-yurtdan katta matonat, fidoyilik va yo'qotishlarni boshidan kechirishni taqozo etadi. Urushda doimo mardlik, qahramonlik, kuchli iroda va ruhning vujud ustidan g'alabasi zarur. Urush odamni turli xavf-xatarlar, og'ir jarohat va o'lim, qahramonlik va sotqinlik bilan tez-tez yuzma-yuz bo'lishga, o'ldirish, vayron qilish, nafrat va dushmanchilik ruxiyatida yurishga o'rgatadi.

Urush o'zini himoya qilayotgan xalqda vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantiradi. Bu tuyg'ular odamlarni yuksak qahramonliklarga o'rgatadi. Shuning barobarida, urushda millatning eng asl vakillari qirilib ketadi. Jamiyatni boshqarish turli yo'llar bilan urushdan qochib omon qolgan qo'rqqoq va munofiqlar qo'lida qolishi mumkin. Eng yomoni, odamlar urushda o'ldirishga o'rganib, shafqatsiz bo'lib qoladilar. Yuksak tuyg'ular urushda sarf bo'lib, tinch hayotga toliqqan, asabiy, tajovuzkor, axloqiy normalarga nopisand holda, axloqsiz ehtiros va ruh bilan qaytadi. Ko'ngilga kelgan xohishni o'ylamasdan qilishga o'rganib qoladi. Odamlarning diydasi qotib, inson sog'lig'i va umrining qadri ham qolmaydi. Shuning uchun uzoq davr urushni boshidan kechirgan mamlakatda urush illatlari ancha vaqt hokimlik qilib turadi. Alkogolizm, giyohvandlik, maishiy, ma'naviy buzilishlar, turli xil qon to'kishlar, terror, jinoiy guruhlar ko'payib ketadi. Tinch hayot bir necha yillarga izdan chiqadi.

Mamlakat ichida terroristik harakatlarning vujudga kelishiga adolatsizlik, zo'ravonlik asosida qurilgan mustabid tuzum sabab bo'lishi ham mumkin. Jabr ko'rgan tomon o'zini himoya qilish yoki adolat uchun qonuniy kurashish imkoniyatlaridan mahrum bo'lib, kamsitish va xo'rliklar kuchayib ketsa, nochor qolgan tomon oxirgi imkoniyat sifatida terroristik harakatlarga o'tishi mumkin. Demak, terrorchilik ma'lum ma'noda ojizlik va nochorlik belgisi sifatida ham tug'iladi. Shuning uchun terrorchilikning kuchayish sabablarini avvalo jamiyatning o'zidagi illatlardan qidirish kerak.

Hokimiyat uchun kurashuvchi siyosiy kuchlar o'rtasida ham terroristik harakatlar uchrab turadi. 20-asr boshlarida bo'lib o'tgan hokimiyat uchun kurashlarda bolsheviklar partiyasi qurol bilan hokimiyatni qo'lga kiritgach, hokimiyatdan ag'darilgan kuchlar "qora terror"ni boshlab yuborganlar. Bunga



javoban bolsheviklar "qizil terror"ni kuchaytirib, davlat xizmatchilari, mulk egalari, harbiy boshliqlar, hatto ziyolilarni ham dushman sinf sifatida qirib yubora boshladi. Hokimiyat tepasiga kelgan nemis sotsial demokratlari (natsistlar) ham Germaniyadagi muxolif partiyalarni terror yo'li bilan daf eta boshlagan. Bunga o'xshash misollarni tarixdan ko'plab keltirish mumkin.

Globalashuv sharoitida madaniyatlar mushtaraklashuvi tobora jadallashmoqda. Bugungi kunda Jahon bankining Bosh qarorgohida masjid bo'lganidek, Makkada Makdonalds yemakxonasi shoxobchasi faoliyat yuritmoqda. Bizning atrofimizda bizning xohishimizsiz jadallashib borayotgan globalashuv jarayonlarini tushunish fuqarolik burchimizdir.

G'arb sanoati mahsulotlarining keltirilishi, shuningdek, yetishtirilgan mahsulotni eksport qilish zarurati Sharq mamlakatlarida muayyan o'zgarishlar bo'lishiga olib keldi. Avvalo, armiyani modernizatsiyalash va uning oqibatida zamonaviy sanoatni barpo etish, zamonaviy maktablar ochish kabi vazifalarni kun tartibiga qo'ydi. Sanoat ishlab chiqarishi va harbiy sohalargina emas, huquqda ham G'arb modellariga moslashish zarurati kun tartibiga qo'yila boshlandi. Bunda mamlakatdagi ziyolilar bilan birga, G'arb universitetlarida tahsil olib qaytgan elita(xos) qatlami farzandlari ham yetakchilik qila boshlashdi. Bu harakatlar jarayoniga qattiq qarshilik qilishga qodir bo'lgan kuchlar ham mavjud edi. Bu xil kuchlar ongida davlatni boshqarishda huquqni g'arblashuvi, zamonaviy maktablarning ochilishi dindan uzoklashishni, zararli, begona ta'sirlarning kirib kelishi va nomusulmonlarga qaram bo'lib qolishni anglatar edi. Bu esa dinga yanada qattiqroq bog'lanish, har qanday yangilikka qarshilik qilish tuyg'ularini va intilishini chiqardi. Bu xil his-tuyg'ular, fikr-mulohazalar musulmonlar orasida ikkita yangi yo'nalishni - modernizm va fundamentalizmni vujudga keltirdi.

Modernizm (fransuzcha moderne - yangi, zamonaviy) -davlatni boshqarish va islom ta'limoti borasidagi ayrim tushunchalarni zamonaviy talablar bilan hamohang qilishga urinishdir. Modernistlar o'zlarining islom diniga bog'liqligidan voz kechmagan holda, Allohtaolo bergan aqlni ishga solib, islom tarixining turli davrlarida vujudga kelgan va o'sha davrlar uchun xizmat qilgan, hozirgi bosqichda esa, yangicha yondashishni taqozo etadigan amallarni ko'rib chiqishni kun tartibiga qo'yadilar. Modernistlar ayrim masalalarda an'anaviy boshqarish usulidan qutulish, din ta'siridan xalos bo'lishga moyillikni, ya'ni sekulyarizatsiya hodisasini yuzaga keltira boshladilar.

Shuning bilan birga, yoshlarga an'anaviy diniy bilimlar berish barobarida, ularga dunyo madaniy va intellektual tilini, ijtimoiy-falsafiy bilimlarni o'rgatish lozim. Zarur paytda raqib mafkuralariga qarshi ilmiy asosda javob bera oladigan, dunyoviy tafakkurni tanqid qilibgina qolmay, uni tushunadigan, u bilan bahsga kirisha oladigan kishilarni tarbiyalashimiz kerak, deb hisoblay boshlashdi.

Fundamentalizm (lotincha fundamentum-acoc)-aqidaparastlik tushunchasi ilohiyotchilik tarixida, ayniqsa, nasroniylikda ancha avval shakllangan. Lekin rasmiy qo'llanilishi 1908 yili AQShning Kaliforniya shtatida radikal protestantlarining "Xristian dinining fundamental tushunchalari konferensiyasi" uyushmasining vujudga kelishi bilan belgilanadi. Bu uyushmaning bosh maqsadi Injilni sof holiga qaytarish bo'lgan.

Islomdagi aqidaparastlikka vahobiylik harakatining otasi Muhammad Abdul al-Vahab asos solgan. XVIII srda Markaziy Arabistonning Najd vohasida yuzaga kelgan bu harakat islom dinini Payg'ambarimiz (s.a.v) davridagi asl holatiga qaytarish, barcha arablarni islom bayrog'i ostida birlashtirish g'oyasini targ'ib qilgan. Bir asr oralig'ida bu g'oya dunyoning ko'p mamlakatlariga yoyildi. XX asrning saksoninchi yillaridan boshlab bu harakat Mustaqil Davlatlar Hamjamiyatiga ham yetib keldi.

Vahobiylik va islomdagi boshqa aqidaparastlar, diniy amallarda har qanday o'zgarishlar qilish, din ta'siridan qisman xalos bo'lish (sekulyarizatsiya)ga qarshi yo'nalish hisoblanadilar. Islom aqidaparastligi o'zining yaxlit dasturiga ega bo'lgan yopiq harakatdir. Ularning asosiy talablari shariat qonunlarini to'liq amalga oshirishdan iborat. Aqidaparastlarning islomiy jamiyatlar va davlatlar (xalifalik) barpo etishni talab qilishlari, avvalo, bu davlatlarning Islom qonunlariga to'liq amal qilishi lozimligini bildiradi.

Aqidaparastlikning mohiyatida diniy davlatni barpo etish, modernizmga - dinni zamonaviylashtirishga qarshi kurashish yotadi. Uning ashaddiy kurinishi esa ekstremizmga namoyon bo'ladi.

Musulmonlar uchun haqoratli tuyuladigan diniy ekstremizmning turli shakllari avvallari bo'lmagan. Zero, islom diniga xos bag'rikenglik barcha davlatlarda turli din vakillarining bir mamlakat va davlat hududida tinch-totuv yashashlariga imkon bergan. Islom dinining keng tarqala boshlagan ilk davrlardayoq, zabt qilingan mamalakat aholisidan faqat soliq undirilgan xolos, Islomni qabul qilishga majbur qilinmagan.

Noislomiy diniy jamoalar asrlar davomida islom davlati tasarrufida bemalol o'z dinlariga e'tiqod qilib umrguzaronlik qilganlar. Zabt etilgan mamlakat aholisining ko'pchilik qismi bora-bora o'z xohishlari bilan islom dinini qabul qilganlar.

Ekstremistlar (lot. Ektremus - o'ta, keskin, ashaddiylik)-turli masalalarda o'ta keskin choralar qo'llash tarafdorlari hisoblanadi. Diniy ekstremizmni turli dinlarda uchratish mumkin. Masalan, katolik cherkovining XV-XVII asrlarda hur fikr yurituvchi, feodal-katolik cherkov aqidalarini rad etuvchi minglab odamlarni qiynab o'ldirilishiga sabab bo'lgan inkvizitsiya faoliyatini keltirish mumkin.

Keyingi vaqtlarda ekstremistik guruhlar turli dinlar ta'limotidan o'zlarining g'arazli maqsadlari uchun foydalanyaptilar. Jangarilik yo'rig'i esa tarixan Markaziy Osiyo mintaqasi uchun yot narsa. Aksincha, bizning ota-bobolarimiz islomning dastlabki davridan to hozirgi kungacha bag'rikenglik va insonparvarlik tamoyiliga amal qilib keladilar. "O'rta asrlarda Arab Sharqida ayrim sufiy birlashmalari jangovarlikni namoyon qilgan hamda inkvizitsiya va jazolash tuzilmalari vazifalarini bajargan vaqtda ham Markaziy Osiyo sufiyligida insonga muhabbat va bag'rikenglik targ'ib qilinardi"¹.

Shuni ta'kidlash kerakki, jangarilik umuman islom dini tabiati va mohiyatiga xilof narsa. Lekin islom olamida hamma ham mo'tadillikka amal qilavermagan. Boz ustiga, ayrimlar mo'tadillikni qo'rqqoqlikka yo'nganlar. Shuning oqibatida bir qancha musulmon mamlakatlarida o'n yillar davomida qon to'kilmoqda, musulmonlarning mol-mulki nobud bo'lmoqda, o'zlari quvg'in bo'lmoqdalar. Islom dunyosidagi ayrim terrorchilik va jangarilik harakatlarining

asosida mutaassiblik, diniy hukmlarni tor olish, bilib-bilmay kishilarni "kofir" deb fatvo chiqarish kabi omillar ham yotadi². Shuningdek, islom ekstremizmining mohiyatida diniy davlatni barpo etish, modernizmga - dinni zamonaviylashtirishga qarshi kurash, ayrim guruhlarining xudbin manfaatlarining roli katta.

Diniy ekstremizm - jangarilik o'z faoliyatini hayot tajribasi kam, bilimlari yetarli bo'lmagan, diniy e'tiqodi sust yoshlarga qaratadi. Ular hozirgi vaqtda o'z maqsadlari yo'lida ijtimoiy-iqtisodiy omillardan tashqari, psixologik omillarga ham katta e'tibor berib kelmoqdalar. Ular yoshlar ongini turli yo'llar bilan - noto'g'ri ma'lumotlar berish, jixod, islom himoyachilari kabi tushunchalar bilan chalg'itib, o'zlarining shum niyatlari yo'lida ishlatishga harakat qilayaptilar. 16-20 yashar yoshlardan terrorchilar, jangarilar va kamikadzelar tayyorlayaptiki, bu islomiy ta'limotga mutlaqo ziddir.



Hazrat Bahouddin Naqshband butun olamdagi jami borliqni Alloh tajalliyotining zuhr bo'lishi, deb biladi va uning biror zarrasiga ham nafrat va yomon ko'rish hissi bilan qarash mumkin emas, deb ta'kidlaydi. Boshqa mazhab, tariqatda bo'lgan kishilarga adovatda bo'lish, yomon ko'rish jamiyatda notinchlik, urush-janjallarni, qon to'kishni keltirib chiqaradi. O'zaro ehtirom, har bir kishining e'tiqodini hurmat qilish, ularga nisbatan sabrli bo'lish mo'min insonlarga xos fazilat bo'lib, jamiyat muvozanatini saqlashga xizmat qiladi¹.

Fanatizm (yunoncha fanaticus) - g'azablangan, jazavasi tutgan ma'nosini bildirib, qandaydir g'oya yoki e'tiqodda o'ta mukkasidan ketgan ruhiy holat. Kuchma ma'noda biron-bir narsaga kuchli zhtiros bilan berilish, boshqa har qanday qarash va g'oyalarga murosasiz munosabat hisoblanadi. Masalan, diniy mutaassiblik, futboldagi mankurtlik shular jumlasidan.



Fanat guruhlar rahbarlari fanatlarni o'zlarining ma'naviy boshlig'iga so'zsiz bo'ysunishi mexanizmlarini ishlab chiqadi. Bunday guruhlar, asosan, o'zining mustaqil fikriga ega bo'lmagan, diniy bilimlari sayoz yoshlardan, qat'iyatsiz kishilardan tashkil topadi. Lekin ularda o'zini ko'rsatish, qanday yo'llar bilan bo'lsa ham "Men"ini namoyon etish istagi ustivor bo'ladi.

XX asr boshlarida fransuz nevropatolog va psixiatrlari fanatlarning oliy nerv faoliyati asoslarini o'rganishga harakat qilganlar. Shu yo'nalishda ish olib borgan E.Myurise "Diniy hissiyot kasalligi" asarida fanatizm - yuqori darajada rivojlangan ehtiros asosida ijtimoiy muhit, muayyan guruh yoki shaxsga yoqish istagi, deb yozadi.

Fanatizm insonning hissiyot va e'tiqodda biron narsaga mukkasidan ketishi natijasida kelib chiqadi. Bunday holda inson o'zi qilayotgan xatti-harakatlari, bildirilayotgan fikrlarini birdan-bir to'g'ri, haqiqat deb qabul qiladi va aytilayotgan, unga bildirilayotgan har qanday e'tirozlarni mutloqo tan olmaydi. Uning gnoseologik asosida ilmsizlik, dunyoviy bilimlarning sayozligi, ilmiy tafakkur va idrokining pastligi, hayotiy tajribaning yetishmasligi va muayyan asosda aqidaparastlik

(fundamentalizm) yotadi. Bu toifaga ayniqsa, ongi shakllanishga ulgurmagan yoshlarning kirib qolishi o'ta xunuk oqibatlariga olib keladi. Fanatizm og'usi bilan zaharlangan yoshlar, o'z xatti-harakatlariga tanqidiy baho bera olmaydilar. Natijada, ular o'zlarining maqsadlari yo'lida har qanday nomaqbul xatti-harakatlardan qaytmaydilar. Agar bu xil toifadagi yoshlar birlashib, muayyan kuchlar tomonidan boshqarilib, yo'naltirilib turilgan bo'lsa, ular jamiyat barqarorligi, odamlar hayoti va yashashi uchun o'ta xavfli kuchga aylanadilar. Bunga dunyoning turli burchaklarida bo'layotgan futbol fanatlarining xatti-harakat, xulq-atvorlaridan tortib, diniy manqurtlar qilayotgan terroristik harakatlargacha misol bo'la oladi. Dunyoning ayrim mamlakatlaridagi turli neofashistik guruhlar faoliyatini ham misol qilish mumkin.

Diniy fanatizmning ayrim guruhlarining yashash tarziga aylanishi, dindoshlari va boshqa dindagilarga nisbatan o'ta betoqatlik qilishi, ayrim tushunchalarni noto'g'ri talqin qilishi, o'z manfaatlari uchun foydalanishidir. Fanatizm jamiyat va din uchun katta zarar keltiradi. Avvalo u yoki bu dinga nisbatan ishonchsizlik, dushmanlikni tuvdirish barobarida, dindagi eng muhim sifat-insonlarning bir-biriga nisbatan mehr-muhabbatini, ishonchini o'ldiradi. Dinga loqayd yoki diniy e'tiqodi kuchsizroq odamlarni dindan qaytaradi.

Fanatlar ko'p jihatdan olomonga xos xususiyatga ega bo'lishadi. Bu guruh a'zolarining deyarli barchalari hech narsani o'ylamasdan, oqibatlarni hisob-kitob qilmay, lider ortidan borishga tayyor turishi va unga ergashishida namoyon bo'ladi.

Fransuz psixologi Gustav Lebon olomon va omma psixologiyasini atroflicha o'rganishga harakat qilgan va XX asr boshlarida uning "Olomon va xalqlar psixologiyasi" degan kitobi chop etiladi. Bu asarda olomonga xos xususiyatlar, holatlar tasvirlab berilgan. Shuningdek, olomon ichidagi individ xatti-harakati, xulq-atvorlarining umumiy qonuniyatlarini ochishga harakat qilingan. G.Lebon birinchilardan bo'lib, olomon ta'sirida inson psixologiyasi va xulqidagi o'ziga xos o'zgarishlarni o'rgandi. Bu o'zgarishlar sotsial psixologiyada deindividualizatsiya (individuallikning yo'qolishi) va shaxsiyatsizlik hodisasi deyiladi.

Olomonga xos xususiyatlar quyidagilarda namoyon bo'ladi: birinchisi, xatti-harakatlarning stixiyali (o'z-o'zidan, tartibsiz) bo'lishi. Bu xatti-harakatlarni ayni paytdagi hissiy holat boshqaradi. Olomon, hatto u be'mani bo'lsa ham, o'ziga yoqadigan gaplarnigina eshitadi. Qanchalik mantiqiy, asosli fikrlar aytilmasin, ular olomonga yoqmasa, uni inkor etishadi. Ikkinchisi, olomonning ichki tuzilmasi ma'lum bir tarzda shakllanmagan, vazifalar taqsimlanmagan bo'ladi. Shuning uchun, deydi G. Lebon, olomonni boshqarish xdm oson, ham qiyin bo'ladi.

Uchinchisi, olomonning ehtiroslar jo'sh urib turgan paytdagi intellekt darajasi keskin pasayib ketgan bo'ladi. Agar uning intellekt salohiyatini to'plash imkoniyati bo'lganda edi, uning yig'indisi, sokinlik holatda turgan bir kishining intellekt darajasidan past bo'lgan bo'lardi. To'rtinchidan, olomon ichida fikr bayon qilish va hissiy kechinmalarda yaqinlik, umumiylik ustuvor bo'ladi. Bu olomon guruhiga xos xususiyat bo'lib, ayrim individlarda ko'pchilikning qarashlariga yoki e'tiborli shaxs fikrlariga qarshi bormaslik, ya'ni konformistik ruhning yetakchilik qilishidir. G.Lebonning ta'kidlashicha, individ ko'pchilik ichida, ayniqsa olomon orasida o'z

intellekt darajasini keskin tushirib yuborishi barobarida, ancha ishonuvchan, sabrsiz, tajovuzkor, ahloqsiz, hatto o'zini hayvondek tutishi mumkin.

Beshinchidan, olomon ichida individlar o'zlarida to'planib qolgan norozilik tuyg'ularini, salbiy emotsiyalarni chiqarish uchun imkoniyat tug'ilganidan foydalanib qolishga harakat qiladi. Ko'pchilik orqasida (anonimlik holatida) shaxsiy javobgarlik bo'lmaydi. Jazosiz qolish, mas'uliyatsizlik kishilarda agressivlikni kuchaytirib yuboradi. Amerikalik psixolog S.Milgrem ham omma va olomon ta'siri ostida individlarning ko'r-ko'rona va ongsiz ravishda ko'pchilikka bo'ysunishi, xatti-harakatlarining chegaradan chiqib ketishini eksperimental asosida o'rgangan.

G.Lebon o'z tadqiqotlarida olomon ichida deindi-vidualizatsiya sabablarini o'rganishga harakat qilgan. Deindividualizatsiyani vujudga keltiruvchi vaziyatli sabablarga quyidagilar kiradi: a) anonimlik; b) hissiy qo'zg'alishning yuqori darajasi; v) individ diqqatini o'z xatti-harakatlariga emas, atrofda sodir bo'layotgan narsalarga qaratishi.



Deindividualizatsiyaning kuchayishiga boshlovchi sotsial-psixologik holatlar avvalo, olomon faolligining yuqoriligi bo'lsa, ikkinchidan, individ ongi va o'z-o'zini boshqarish darajasining tushib ketishidir.

Deindividualizatsiya oqibatlari: a) impulsiv xatti-harakatlarning vujudga kelishi; b) xatti-harakatlarini boshqara olmaslik; v) atrofda kishilar fikriga qiziqishning pasayishi; g) xatti-harakatlarni aqliy rejalashtirish va to'g'ri baholashga qodir bo'la olmaslik.

Bularning barchasi shaxsni shaxsiyatsizlik holatiga olib keladi. Fanatlar ham, olomon ham dastavval qandaydir yaxshi bir g'oya va maqsad atrofida birlashishi, uni amalga oshirish uchun sa'yi harakatlar qilishi va bu yo'lda hatto, jonlarini fido qilishga



tayyor turishi mumkin. Diniy fanatning bu yo'lda o'zinigina emas, hatto eng yaqinlarini ham fido qilish fazasi(bosqichi)ga o'tishi natijasida, dastlabki g'oya (masalan, din) uchun kurash yo'qoladi. Uning o'rnini guruh liderlari egallaydi. Uning so'zi va buyruqlari fanat uchun qonun darajasiga ko'tariladi. Fanat esa bu o'zgarishni anglay olmay qoladi va shu holda manqurtga aylanadi. Endi u faqat avvalgi konkret muxoliflargagina emas, endi unga kim ergashmasa, uning g'oyalariga qo'shilmasa, e'tiroz bildirsa, ularga ham qarshi kurasha boshlaydi. Bora-bora dastlabki goya o'rnini muxoliflarga qarshi nafrat, ularga qarshi kurashish, ularni jazolash va yo'qotib tashlash kabi g'azabli va g'arazli hissiyotlar egallab oladi.

Siyosiy fanatizmning bu xildagi ko'rinishlarini dunyodagi urush o'choqlariga aylangan barcha joylarda uchratishimiz mumkin. Qarshilik ko'rsatayotgan tomon o'ziga dushman qo'shinlar bilan birga, hatto ularga insonparvarlik yordami ko'rsatishga kelgan xalqaro tashkilot vakillariga ham qarshi kurashish

darajasiga yetib bormokda. Terroristik yo'llar bilan kurash olib borayotgan kuchlar hozir ko'pincha qasd olish, xunrezlik bilan mashg'ul bo'layaptilarki, bu ularning eng avvalgi asosiy g'oyasidan og'ishi qisoblanadi.

Turli oqim va sektalar ham yoshlar ongi va kalbini egallash uchun kurash olib borishyapti. Ana shunday xavfli oqimlardan biri "Satanizm" ("Shaytonchilik") tarafdorlaridir. "Satanizm" XIX asrning saksoninchi yillaridan AQSh, Fransiya, Angliya, Olmoniya kabi rivojlangan mamlakatlarda ko'rina boshladi. "Satanizm"ga 1900 yillar boshida Alister Grovley degan shaxs asos solgan. Ular sehr-afsun amallari, hayvonlarni (asosan mushuklarni) o'ldirish marosimlari, ommaviy musiqaning rok, metal, xevi metal kabi yo'nalishlari yordamida, ichkilik, giyohvandlik qilib, buzuvchilik kechalari tashkil qilish bilan yoshlarni o'ta xatarli yo'llarga chorlaydi.

O'tgan asrning 60-yillarida Amerikaning Kaliforniya shtatida Anton Levij ismli shaxs "Shayton cherkovi"ni qurdirdi. Nasroniylikka qarshi chiqib, "Sehr xalqasi" nomli guruh tashkil etgan Levij to'qqiz shaytoniy asosdan iborat "Shayton injili"ni to'qidi. U «Shayton injili»da:



"Shaytonning davridir bu davr, dunyoni shayton boshqarmoqda", deb yozadi. Bu oqim birinchi o'rinda nasroniylikka, umuman barcha dinlarga, ularning kitoblari, aqidalari va tarafdorlariga tish-tirnog'i bilan qarshidir. Ular shaytonning eng muhim xususiyati-dushmanlik va isyonkorlikni aqidalariga asos qilib olishgan. Bu oqim boshliqlari diqqat-e'tiborlarini odatda, o'ziga to'q, ammo bola tarbiyasi o'z holiga tashlab qo'yilgan oila a'zolariga, ota-ona mehri va tarbiyasidan bebahra qolgan yoshlarga qaratadi.

Oilaviy qo'ydi-chiqdi ko'p, ichkilikbozlik, giyohvandlik, maishatparastlik kabi axloqsizliklar avj olgan jamiyatlarda shaytonchilarning ishi "yurishadi". Ular yoshlar ongiga oxirat dunyosi, adolat, axloq yo'q narsalar, degan g'oyani singdiradi. Inson ko'ngli nimani tusasa, shuni qilishda erkin ekani, hayotini faqat ko'ngilxushlik, hayosiz harakatlar bilan istagancha o'tkazishi kerakligini tinmay uqtirishadi. Yoshlarimizni shaytonchilik kabi chirkin va yaramas og'uning zararidan himoya qilish uchun ota-onalar, ustoz va muallimlar, din xodimlari, mahalla-ko'y qayg'urishlari zarur. Diniy sektalarda mustabid(totalitar) tartib, qonun-qoidalar bo'lib, kishi ruhiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan, hatto buzib yuborishi mumkin bo'lgan usullar, udum va marosim, tamoyillar bo'ladi.¹

Fanatizm vujudga kelishining siyosiy, psixologik va diniy sabalari mavjud. Siyosiy kuchlar o'zlarining manfur maqsadlariga erishish yoki boshqa davlatlarni bosib olish uchun halqlar o'rtasida diniy fanatizmni kuchaytirishdan manfaatdordirlar. Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, psixologik tomondan fanatizm ayrim shaxslarning ruhiy jihatdan nevrotik holati bilan bog'liq bo'lib, o'zlaridagi ichki qarama-qarshilik, noxushlik va baxtsizliklarini o'zi va boshqalardan yashirish uchun, fanatizmdan foydalanib, o'zlaridagi tajovuzkorlik va xudbinlikni namoyon etishadi.

Hozirgi davrda G'arb aholisi soni kamayib va keksayib borish barobarida, musulmon mamlakatlari axoliev sonining o'sishi va yosharib borishi tendensiyasi kuzatilyapti. Semyuel Xantintonning "Tamaddunlar to'qnashuvi" nomli risolasida dunyoda xristianlarning soni kamayib borayotgani va 2025 yilga borib, ular dunyo aholisining taxminan 25 foizini tashkil etgan holda, musulmonlar soni esa 30 foizni tashkil etishi bashorat qilinyapti. Amerika va Yevropa aholisi tez sur'atlar bilan keksayib borayotgan bir paytda, islom dunyosida buning aksi kuzatilyapti.

Bunday keskin o'zgarishlarning qanday oqibatlari bor? U iqtisodiy, siyosiy, diniy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadimi? Bugungi kunda miqdor ustunligi muhim bo'lsa-da, hal qiluvchi ahamiyat kasb etmaydi. To'g'ri, miqdorning ishonchli jihatlari bor. Lekin aholining ruhiy-dinamik xususiyati miqdordan ko'ra muhimroq ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, avlodlar orasidagi nisbat ham ijtimoiy-siyosiy masalalarda yetakchi faktorga aylanishi mumkin. Ma'lumki, keksa avlod passiv va introspektiv - o'zini o'zi kuzatish, o'z dardi bilan yashashga intilsa, yosh avlod serg'ayrat, yangilikka intiluvchan va milliy-siyosiy faollikni ko'llab-quvvatlashga moyil bo'ladi.

Tarixiy-ijtimoiy nuqtai nazardan bu xil vaziyat ko'pincha murakkabliklar, beqarorlik, to's-to'polon va keskin islohotlar qilishni keltirib chiqaradi. Chunki bu yoshga xos bo'lgan muhim psixologik xususiyat - erkinlikka, mustaqil fikrlashga moyillik, kattalar vasiyligidan, ularga qaramlikdan qutilishga, o'zini kattaroq ishlarda sinab ko'rishga intilish kuchli bo'ladi. Bu ko'pincha o'zini boshqalarga, bu o'rinda kattalarga qarama-qarshi qo'yish shaklida namoyon bo'ladi. O'zining mustaqil va ishonarli fikri, g'oyasi bo'lmasa ham, kattalar bildirayotgan fikr, hukmron g'oyaga qarshi borish ular uchun o'zlikni namoyon etishning bir vositasi hisoblanadi. Bunday paytda tengdoshlarning o'zaro birdamligi paydo bo'lib, jamiyatdagi yetakchi, nufuzli g'oyalarga, kuchlarga qarshi chiqa boshlaydi. Chet yellarda, xususan, iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar misolida ham shuni ko'rish mumkinki, jamiyat hayotida bo'layotgan ijtimoiy jarayonlarga birinchi navbatda student-yoshlar munosabat bildiradilar. Ularning ma'naviy-ruhiy xususiyatlari shunga moyillikni keltirib chiqaradi.

Hozirgi davrga kelib musulmon mamlakatlarida nomutanosib ravishda yosh aholi soni va shaharlar salmog'i ortib borayapti. Bir qator arab mamlakatlari va boshqa islom davlatlarida mehnat bozoriga kelib ishlovchilar soni keskin o'sib ketishi natijasida, ishsizlik muammosi kun tartibiga qo'yilyapti. Bu hol ayrim mamlakatlardagi boshqaruv tizimiga jiddiy xavf tug'diradi. Chunki kuch-quvvatga to'lgan, g'ayrati vujudiga tinchlik bermayotgan yuz minglab yoshlarning ishsizligi, bekor yurishi, ertangi kunining shubhaliligi xunuk oqibatlarga olib kelishi mumkin.

XXI asrning dastlabki o'n yilligiga kelib, G'arb dunyosida keksa va nisbatan barqaror, o'z-o'zi bilan ovora etnik guruhlar umrguzaronlik qilayotgan bo'lsa, Sharq va Islom olamida keskin demografik o'sish natijasida ish o'rni uchun navbatda turgan millonlab kuch-g'ayratga to'lgan, vulqondek qaynab turgan yoshlar yashayapti. Jahon miqyosida bo'layotgan globalashuv jarayoni borgan sari o'z qa'riga eng chekka va kichik davlatlarni ham tortib borayotgan ekan, yuqoridagi jarayonlar bizni chetlab o'tadi, deb o'ylamaslik yoki muammoni ko'rib-ko'rmaslikka

olishlik gumrohlik bo'ladi. Shuning uchun bu yoshlar kuch-g'ayratini ijtimoiy foydali faollikka yo'naltirish uchun muayyan dasturlar yaratilmoqda.

Yoshlarga o'zini sinab ko'rish, o'zligini namoyon etish uchun jamiyat tomonidan imkoniyat yaratilmasa, xavf-xatarli bo'lsa ham, ular yashirin tarzda tuzilgan turli diniy sektalar, har-xil neofashistik guruhlariga kirib, shu yo'l bilan o'zini sinab ko'rishga, namoyon etishga intiladi. Albatta bu xil harakatlar ta'siriga, ayniksa, saviyasi past yoshlar tez beriladilar. Bilimli, mulohazali, ijtimoiy foydali faoliyat bilan shug'ullanayotgan yoshlar bu xil harakatlardan o'zlarini tiyadilar. Milliy qadriyatlarini, o'z tarixini yaxshi bilgan, ular bilan faxrlanadigan millat va millat yoshlari boshqalarga, har-xil oqimlarga ko'r-ko'rona ergashavermaydi. Ularga taqlid qilmaydi. Ota-bobolari ming yillar davomida amal qilib kelgan udumlar, rasm-rusumlar, e'tiqoddan voz kechmaydi. Ustoz-muallim va ota-onalarga hurmatsizlik ko'rsatib, ularga qarshi bormaydilar.

O'sib kelayotgan shaxsiyati hali to'la shakllanmagan yoshlarning ma'naviy-ruhiy, g'oyaviy-mafkuraviy dunyosida bo'shliq bo'lmasligi zarur. Bunday bo'shliqning bo'lmasligi uchun har bir davrda qo'llanilgan va yaxshi samara bergan ayrim amal va usullarni olib foydalanishdan orlanmaslik kerak. Bir tarixiy davrdan boshqa bir ijtimoiy-iqtisodiy davrga o'tilayotganda vorisiilik muayyan darajada saqlanmas ekan, bo'shliqning vujudga kelishi muqarrardir.

Ilmiy g'oyalar va din tarixiga nazar solsak, vaqti-vaqti bilan ularni taftish qilish, ayrim o'zgartirishlar kiritishga harakatlar bo'lganligining guvohi bo'lamiz. Buni tabiiy bir hol sifatida qabul qilishga o'rganishimiz kerak. Chunki jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, mafkuraviy qadriyatlar o'zgarib borar ekan, unda yashayotgan odamlarning xayot va turmush tarzi, ongi va ruhiyati ham o'zgaradi. Shu bois, bu xil qarashlarga munosabat bildirishni ham o'rganishimiz lozim. Ko'pincha e'tirof etilgan va amal qilinayotgan g'oyalarga boshqacha fikr va munosabat bildirgan kishilarni eshitishga, ayniqsa, ular yoshlar bo'lsa, sabrimiz yetmaydi. Ular bilan mubohasa qilishni bilmaymiz. Muxoliflar bilan bahs-munozaralarda fikrga qarshi fikr bilan, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish hozircha mubohasa vositasiga aylanmayapti. Muxoliflarning xatolari nimadan iborat ekanligini Qur'oni karim, Hadisi shariflarga tayanib, misollar keltirib, tarixiy faktlar bilan asoslab berish kerak. Muxoliflarga nksbatan turli cheklov va ta'qiqlar qo'yish, aksincha, jamoatchilikda ularga nisbatan qiziqishni orttiradi. Sabab, inson ruhiyatida ma'n etilgan narsalarga nisbatan qiziqish kuchli bo'ladi. Mavlono Jaloliddin Rumiya bunga bir misol keltiradi. "Masalan, sen xotinga "ochiq-sochiq yurma, o'ran" desang, unda o'zini ko'rsatish orzusi tobora ortadi. O'z navbatida, o'rangan ayolni ko'rishga xalq ham shuncha ishtiyoqmand bo'ladi. Mazkur ish bilan sen ikkiki taraflama - ko'rmoq va ko'rilmog istagini orttirmoqchisan. Biroq, sen o'zingcha, uni isloh qildim, deb o'ylaysan. Aslida esa bu ishing fasodchilik (buzg'unchilik)dan boshqa narsa emas".

Agar muxoliflar o'z g'oyalarini kuch bilan o'tkazmoqchi, terrorchilik harakatlariga moyil yoki mavjud tuzumga xavf tug'dirayotgan bo'lsa, ular diniy oqim yoki mazhab sifatida emas, qonun doirasida davlat tuzumiga qarshi kurashayotgan jinoyatchilar sifatida baholanib jazolanishi kerak.

Xalqimizda "kur ushlaganini, kar eshitganini qo'ymaydi", degan naql bor. Xuddi shunga o'xshab bilim va saviyasi past, g'oyaviy jihatdan g'o'r yoshlar ongiga

singdirilgan dastlabki g'oya, tushuncha uning ongida muhrlanib qoladiki, keyinchalik bu g'oyani uning ongidan siqib chiqarish juda mushkul bo'ladi. Ba'zan noto'g'ri g'oyalar diniy tushunchalar, bilimlar sifatida berilyapti, o'smir va o'spirinning diniy bilim va tushunchalari bo'lmaganligi uchun haqiqiy musulmonchilik, islomiy bilim shu ekan, deb uni qarshiliksiz qabul qiladi. Shuning uchun dinshunoslik asoslari yoshlarning tafakkuri va idrok etish xususiyatlarini xisobga olib o'qitilishi lozimki, bu turli buzg'unchi guruhlarning harakatlariga qarshi samarali vosita bo'ladi.

Xulosa: Yoshlar, ayniqsa, o'smirlik yoshida (12-16 yosh) turli ta'sirlar, stress holatlarga tez tushishi mumkin. Agarda ularda shu xil kayfiyat ko'rinsa, ularning ustuvor, yetakchi bo'lgan intellektual va hissiy-emotsional faoliyat yo'nalishini o'zgartirish lozim. Ko'proq jismoniy harakatlar, ko'ngil ochuvchi, tinchlantiruvchi tomoshalar, musiqalar tinglash zarur. Masalan, o'smir faqat urush bilan bog'liq jangari filmlarga ruju qo'ygan bo'lsa, yoki internetdan terrorizm, portlatish, o'ldirish bilan bog'liq narsalarni qidirib ko'ra boshlasa, demak, u ma'lum noxush ta'sir og'ushiga tushib qolgan. Uni boshqa faoliyat bilan chalg'itish, shug'ullantirish kerak. Uning xatti-harakati va xulq-atvori nazorat qilinib borishi maqsadga muvofiq. Aks holda u o'z irodasini boshqara olmaydigan ruhiy holatga tushib qolishi mumkin. Albatta, bunda bolaga tazyiq qilish, qo'rqitish, majburlash bilan emas, aksincha, juda extiyotkorlik va mehribonlik bilan, uning shaxsini hurmat qilish asosida ta'sir etish talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rumi J. Ichindagi ichindadur. T.; 1997 y. 82-bet.
2. Timoti J. Uinter. XXI asrda islom. T.; 2008 y. 12-29 betlar
3. Shayton malaylari. "Hidoyat", 2010 y. 6- son, 32 6.
4. Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma'naviy-ma'rifiy asoslari./ Masul muh. A. Ochildiev. - T.: 2008 y, 96 - b.
5. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. "Vasatiya -hayot yo'li". T.: "Sharq", 2006.7-10 b.
6. Bahouddin Naqshband. "Avrodi bahoia". "Buxoro" nashriyoti, 2000.26-27 b.
7. Islom: Bag'rikenglik va mutaassiblik. T.; 1998, ZZ-b.
8. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch T. "Ma'naviyat", 2008.

OLIY HARBIY TA'LIM MUASSASALARI TINGLOVCHILARINING SHAXSLILIK SIFATLARINI TADQIQ QILISHNING PSIXOLOGIK VA ILMIY METODOLOGIK ASOSLARI

Abdullayev Amrullo Nassulloyevich – Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti dotsenti

Annotatsiya: Harbiy ta'lim fakulteti talabalarining shaxslilik sifatlarini tadqiq qilishning ilmiy metodologik asoslari, milliy iftixor, o'zlikni anglash, vatanparvarlik tuyg'ularining shakllanganligi va rivojlanganligini aniqlash uchun ta'lim-tarbiyani masalasi hali ham ko'plab professor-o'qituvchi va

mutaxassislarining e'tiborini tortib kelmoqda. Hozirgi vaqtda ko'plab tadqiqotchilarning qiziqishi turli yoshdagilarda harbiy xizmatchilarni tarbiyalash masalasiga qaratilgan va bu qobilyatlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan o'quv-mashg'ulot jarayonlari pedagogik muloqotni o'zlashtirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishga hamda talabalarda imkon qadar , pedagogik muloqot omillarini shakllantirishning sifat darajalarini yuqori darajada rivojlantirishga yordam beradi. Mazkur maqolamiz manashu muammlarning yechimiga bag'ishlangan bo'lib, maqolada harbiy ta'lim muassasalari talabalarining , pedagogik muloqot omillarini shakllantirishning rivojlanganlik darajalari tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: *Xususiy metodologiya, Shaxslararo idrok, pragmatik funksiyasi, Stereotiplashtirish (qoliplashtirish) effekti, vatanparvarlik tuyg'ularining shakllanganligi.*

Hozirgi zamonaviy fan nuqtai – nazarida «metodologiya» atamasi uchta turli darajadagi ilmiy yondashuv asosida anglanadi.

Umumiy metodologiya – tadqiqotchi tomonidan qabul qilinadigan umumiy falsafiy yondashuv, umumiy bilish usuli, umumiy anglash usuli. Umumiy metodologiya tadqiqot jarayonida anglangan yoki anglanmagan tarzda qabul qilinadigan eng umumiy tamoyillarni shakllantiradi. Xususan, ijtimoiy psixologiya uchun jamiyat va shaxs, inson tabiati masalalarini tushunilishini aniqlash zarur. Umumiy metodologiya sifatida tadqiqotchi turli falsafiy tizimlarni qabul qilishi mumkin.

Harbiy ta'lim fakulteti talabalarining shaxslilik sifatleri tadqiqida ham biz, shaxs va jamiyat kategoriyalarini umumiy metodologik tamoyil sifatida asos qilib oldik.

Xususiy (yoki maxsus) metodologiya – ma'lum bir bilimlar sohasi qo'llanadigan metodologik tamoyillar majmuidir. Xususiy metodologiya tadqiqotning o'ziga xos ob'ektiga nisbatan qo'llanadigan falsafiy tamoyillarning o'rganilishini taqozo etadi. Bu ham o'ziga xos bilish usuli, ammo bilimlar sohasining birmuncha tor doirasiga moslashtirilgan usuldir. Ijtimoiy psixologiyada uning ikki soha asosida kelib chiqishi bilan bog'liq holda maxsus metodologiya ham psixologiya, ham sotsiologiya tamoyillariga mos kelishi lozim. Misol tariqasida faoliyat tamoyilini ijtimoiy psixologiyada qanday qo'llanishini olish mumkin. Sotsiologiyada keng ma'nodagi faoliyat falsafiy tamoyili insonning jamiyatda hayot kechirishi usuli, insonlar faoliyati orqali yuzaga chiqadigan ijtimoiy qonuniyatlarning amalga oshirilishi sifatida qaraladi. Faoliyat yaratadi va individlarning, shu bilan birga butun jamiyatning hayot kechirishi shart – sharoitlarini o'zgartiradi. Aynan faoliyat orqali shaxs ijtimoiy munosabatlar tizimiga kirishadi. Psixologiyada esa faoliyat inson faolligining o'ziga xos turi, inson – sub'ekt tegishli tarzda ob'ektga nisbatan munosabatda bo'lishi, uni tasarruf etishi sifatida namoyon bo'ladigan sub'ekt – ob'ekt munosabati ko'rinishi sifatida qaraladi. Faoliyat davomida inson o'z qiziqishlarini qondiradi va shu asosda dunyoni o'zgartiradi. Shu bilan birga, kishi o'z ehtiyojlarini qondirishi jarayonida

yangi ehtiyojlarning tug'ilishiga sabab bo'ladi. Shunday qilib, faoliyat davomida inson shaxsi rivojlanuvchi jarayon sifatida yuzaga chiqadi [33].

Muloqot psixologiyasida qo'llaniladigan kategoriyalardan yana biri mehnat guruhi psixologiyasidir.

Axloqiy – etik me'yorlar inson faolligining barcha shakllarini qamrab oladi, ular universaldir, ammo har bir sohada ushbu yozilmagan qonunlar o'ziga xos xususiyat kasb etadi. Bunday qoidalar to'plami odatda professional etika deb ataladi. Azaldan tibbiyot xodimlari, o'qituvchilar va boshqa kasb egalari uchun axloqiy qoidalar to'plami mavjud.

Professional etikaning muhim shakllaridan birini muloqot etikasi tashkil etadi, chunki, uning zamiridagi bosh omil inson omilidir.

G.M. Andreyevaning fikriga ko'ra, muomalaning eng muhim birligi muloqot sanalib, motivatsiyada motiv qanchalik ahamiyat kasb etsa, u ham muomalada xuddi shunday muhim rol uynaydi. Muomala hamkorlik faoliyatining ehtiyojidan vujudga keluvchi, shaxslararo muloqot rivojining ko'p qirrali jarayonidir. Jahon psixologiyasi fanida e'tirof etilganidek, muomala ushbu tarkiblardan tashkil topgan bo'ladi.

1. Kommunikativ (asosan bir tomonlama) axborot uzatish.
2. Interaktiv (ikki tomonlama o'zaro ta'sir).
3. Perseptiv (o'zaro bir-birini idrok qilish).

1. Muomala o'z ichiga hamkorlik faoliyatining qatnashchilaridan o'zaro axborot almashuvni qamrab olgan bo'lib, u kommunikativ jabha sifatida tavsiflanishi mumkin. Odamlar bir-birlari bilan muloqotga kirishishi jarayonida muomalaning muhim vositalaridan biri hisoblanmish tilga va uning amaliy ifodasi bulmish nutq faoliyatiga bevosita murojaat qiladilar.

2. Muomalaning ikkinchi tomoni muloqotga kirishuvchilarning o'zaro ta'siri, ularning nutq faoliyatida nafaqat so'z orqali fikr almashinuvi, balki xatti-harakati va xulq-atvori bilan ham ta'sir o'tkazish hamda ta'sirlanishdan iboratdir.

3. Muomalaning uchinchi tomoni shundan iboratki, bunda muloqotga kiruvchilarning (muloqotdoshlarning) o'zaro bir-birlarini idrok qilish jarayonida namoyon bo'ladi, insonning inson tomonidan idrok qilishi yuzaga keladi. Bu jarayonning eng zarur tomoni unda muloqotga kipishuvchi sheriklarning biri aqlli, farosatli, tajribali, saviyasi yuqori inson sifatida ikkinchisining ishonchini qozonganligi uchun uni idrok qilish juda muhim ekanligi anglanadi yoki bir-birlarini oldindan u bari bir hech narsani tushunmaydi, uzatilgan axborotni fahmlay olmaydi, degan taxminga suyangan ruhiy holat vujudga keladi [33, B. 79 – 174.].

Muomala ishtirokchilarining aloqaga kirishish jarayonida bir-birlariga nisbatan ular uchun u yoki bu darajada muhim bo'lgan muayyan maqsadlarni ko'zlashlari odatiy holdir, bu maqsadlar o'z mazmuniga ko'ra bir-biriga mos kelishi yoki bir –biridan farq qilishi mumkin. Mazkur maqsadlar – muomala ishtirokchilarida mavjud bo'lgan ma'lum motivlar ta'sirida yuzaga kelib, ularni amalga oshirish har bir insonda muomalaning ob'ekti va sub'ekti sifatlarini rivojlanishi davomida shakllanadigan turli xulq-atvor usullaridan doimiy foydalanishni taqozo qiladi.

O'z shakli va turiga ko'ra shaxslararo muloqot juda xilma-xildir. Be'vosita va bilvosita muloqot, verbal (so'z orqali) va noverbal (imo-ishora, mimika, hatti-harakatlar orqali) shakllarga ajratiladi.

O'z vazifasiga ko'ra muomala ko'p funksiyalidir. Muomala funksiyalaridan 5 ta asosiysini ajratib ko'rsatish mumkin [140, B. 94-96].

1. Muomalaning pragmatik funksiyasi. Birgalikdagi faoliyat jarayonidagi kishilarning o'zaro hamkorligida amalga oshiriladi.

2. Muomalaning shakllantiruvchi funksiyasi. Insonning psixik qiyofasi shakllanishi va o'zgarishi jarayonida yuzaga kelib, o'zgaralar tajribasini qabul qilish, o'zlashtirish, qo'llashda namoyon bo'ladi.

3. Muomalaning tasdiqlovchi funksiyasi. shaxslilik sifatlarida inson o'z-o'zini anglash, o'zligini tasdiqlash imkoniyatiga ega bo'ladi. O'z mavjudligini, qadr-qimmatini tasdiqlash xoxishi insonni o'zgalardan «tayanch nuqtasi» qidirishga undaydi.

4. Muomalaning shaxslararo munosabatlarni tashkil etish va ta'minlash funksiyasi. O'zga kishilarni idrok etish va ular bilan turli munosabatlarga kirishishni amalga oshirish. Har qanday kishi uchun o'zgalarga baho berish ma'lum emotsional (ijobiy yoki salbiy) munosabatlarni o'rnatishda ko'rinadi.

5. Muomalaning shaxs ichki dunyosi bilan bog'liq funksiyasi. Kishining o'z-o'zi bilan (ichki yoki tashqi nutq vositasida, dialog tipida qurilgan) muloqoti.

Ko'pgina hollarda, muomala deb ataluvchi insonlarning shaxslararo munosabatlari faoliyat bilan chambarchas bog'liq holda uning amalga oshirilishining sharti sifatida yuzaga chiqadi. Shu bilan birga, muomala xizmat qilayotgan faoliyat turi faoliyat qatnashchilari orasidagi muomala mazmuniga, shakliga, uning jarayoni oqimiga o'z ta'sirini o'tkazadi.

Boshqa effekt – «izchillik effekti» bo'lib, u ma'lumotlar ziddiyatli bo'lgan taqdirda inson qiyofasini va u to'g'risidagi tasavvurni shakllantirishga birinchi navbatda kelib tushgan ma'lumotlar eng ko'p ta'sir etishida namoyon bo'ladi. Agar bu tanish odamga daxldor bo'lsa, aksincha, eng oxirgilari ko'p ta'sir ko'rsatadi.

«Stereotiplashtirish (qoliplashtirish) effekti» idrok etilayotgan kishini muayyan ijtimoiy guruhga xos xislatlar unga ham xos deb qarashda namoyon bo'ladi. Har birimizda muayyan ijtimoiy stereotiplar – o'qituvchi, harbiy kishi, jinoyatchi kabi guruhlarning stereotiplari mavjud. Muayyan guruhning vakiliga duch kelganda, biz oldindan unga ushbu guruh vakillari bo'lgan kishilarga xos muayyan xislatlarni unga ham xos deb qabul qilamiz. Ko'pincha bunday stereotipdan xalos bo'lish juda qiyin bo'ladi [82].

Harbiy ta'lim fakulteti talabalarining kasbiy mahoratini hamda ular zimmasiga yuklatilgan funksiyalarning muvaffaqiyatli bajarilishini ko'p jihatdan belgilab beruvchi muhim tarkibiy qism kasbiy muomala ko'nikmalarini egallash va o'z xizmat vazifalarini bajarish chog'ida fuqarolar bilan psixologik aloqa o'rnatish olish qobiliyatini shakllantirish bo'lib hisoblanadi.

Psixologik aloqa o'rnatish muloqotning kerakli yo'nalishida rivojlanishini va belgilangan maqsadga erishilishini ta'minlovchi sharoitlarni yaratishga qaratilgan, maqsadga yo'naltirilgan, rejalashtiriladigan faoliyatdir. Psixologik aloqa o'rnatishda

muloqot rivojlanishi umumiy jarayonning bir qismini qamrab oluvchi bir necha bosqichlarni ajratib ko'rsatish mumkin. Bularga quyidagilar kiradi:

- muloqotni oldindan rejalashtirish;
- aloqa o'rnatishni osonlashtiruvchi tashqi sharoitlarni yaratish;
- tashqi kommunikativ xislatlarni namoyon etish;
- kelishuvlarni to'plash;
- umumiy va neytral qiziqishlarni izlab topish;
- muomaladagi to'siqlarni bartaraf etishga qaratilgan harakatlar;
- individual ta'sir etish.

Muloqotni oldindan rejalashtirish. Psixologik aloqa o'rnatish chog'ida maqbul tarzda munosabatga erishish uchun harakatlarning avvaldan tuzilgan rejasiga ega bo'lish, bo'lg'usi muloqotning qanday kechishini oldindan ko'rish maqsadga muvofiqdir. Buning uchun muloqotga kirishish mo'ljallanayotgan shaxs haqida dastlabki ma'lumotlarga ega bo'lish zarur. Masalan, uning muomalaga kirishuvchanlik xislatlari haqidagi ma'lumotlarga ega bo'lish lozim. Shaxs bilan aloqaga kirishishni osonlashtiradigan ochiqlik, qiziquvchanlik, kirishimlilik, xushmuomalalik, odoblilik kabi xislatlar ham mavjud. Shu bilan birgalikda, aloqa o'rnatishni qiyinlashtiradigan ortiqcha asabiylik, jizzakilik, tajovvuzkorlik, shubhaga beriluvchanlik, alamzadalik kabi shaxsiy xislatlar mavjud. Muloqotni oldindan rejalashtirish chog'ida yuqorida sanab o'tilgan xislatlarning mavjudligini doimo inobatga olish zarur.

Aloqa o'rnatishni osonlashtiruvchi tashqi sharoitlarni yaratish. Har bir muayyan vaziyatda tashqi sharoitlar shaxslilik sifatlarida muloqot qilish zarur bo'lgan ijtimoiy rolga ideal ravishda mos kelishi kerak. Hech narsa muloqotga xalaqit bermasligi, suhbatdoshingizni chalg'itmasligi kerak. Vaziyat ishonchli suhbatga moyil bo'lishi lozim. Shaxslararo masofa, shaxsiy maydonlar haqida bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish hamda ulardan shaxslilik sifatlarida unumli foydalanish zarur.

Kasbiy muloqot – xodimning muayyan qobiliyatlarini rivojlantirishni talab etuvchi anchagina murakkab jarayon bo'lib, mazkur qobiliyatlarning rivojlantirilishi bojxona xodimi faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirishning garovi sifatida yuzaga chiqadi va bojxona tizimi samaradorligini oshirishga ijobiy ta'sir etadi.

Kommunikatsiya jarayonida odamlar haqida axborot olish, ularga baho berishda verbal kommunikatsiya – so'z, og'zaki va yozma nutq keng qo'llaniladi, ammo olimlarning ta'kidlashlaricha noverbal belgilar – mimika, vizual aloqa (ko'z kontakti), muomalaning masofa va vaqt o'lchamlari, jestlar, tana harakatlarini o'qiy olish samarali muloqotning muhim shartidir [55].

Shunday qilib biz yuqorida shaxslilik sifatlarini psixologik jihatdan tadqiq qilishning metodologik tomonlariga to'xtalib o'tdik. Unda asosiy e'tiborimizni shu yo'nalishda psixologiya fanida mavjud bo'lgan turli xil ilmiy qarashlar va yondashuvlarga qaratdik. Endi tadqiqot predmetini o'rganishga safarbar etilgan psixologik metodlar tavsifini ko'rib chiqishga o'tamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abu Nasr Forobiy. Fazilat, baxt-saodat va kamolot haqida. – Toshkent: Yozuvchi, 2002.- B.62.
2. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993.- 224 b.
3. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al Buxoriy «Al Jomi' as– sahih». – Toshkent: Qomuslar bosh tahririyati, 1997. 4-jild.- 526 b.
4. Alisher Navoiy. Mahbub – ul – qulub. – Toshkent, 1983.- 138 b.
5. Amir Temur va Temuriylar madaniyati va san'ati. – Toshkent: F. Fulom, 1996.- 88 b.
6. A'zamxo'jayeva E.A. Muomala maromining yosh xususiyatlari va dinamikasi: Dis. ... psixologiya fanlari nomzodi. – Toshkent, 2002.- 160 b.
7. Баротов Ш.Р. Социально-психологические и научно-практические основы создания психологической службы в Узбекистане: Автореф. дис. ... докт. психол. наук. – Ташкент, 1998.- 37 с.

TALABA-YOSHLARNI QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISHDA TA'LIM JARAYONINING PSIXOLOGIK AHAMIYATI

*Abdumannotova Nargisa Abdumajidovna –
O'zbekiston-Finlandiya Pedagogika instituti
Psixologiya kafedrasi o'qituvchisi*

“Farzandlarimizning qobiliyatini ro'yobga chiqarishga bolalikdan e'tibor berib, ularning kamoloti uchun barcha imkoniyatlarimizni safarbar etsak, yurtimizdan yana ko'plab Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug'beklar yetishib chiqadi. Men bunga ishonaman...”

Sh.M.Mirziyoyev.

Shiddat bilan rivojlanayotgan davrda yashamoqdamiz. Mamlakatimiz hayotidagi o'zgarishlar, islohotlar barcha sohalarda ko'zga ko'rinmoqda. Jumladan, kelajagimiz egalari bo'lgan talaba yoshlarni qobiliyatini rivojlantirishda kabi ta'lim sohasida ham katta o'zgarishlar ro'y bermoqa. Yoshlarimiz ta'lim-tarbiyasiga yuksak e'tibor berilib, farzandlamizning iqtidor va iste'dodlari erta aniqlab shu asosida ta'lim sohalari bo'yicha yo'naltirilib o'qishlariga alohida e'tibor berilmoqda.

Bugungi kun yoshlarining nafaqat jismoniy taraqqiyoti balki, ruhiy barkamolligi ham juda muhimdir. Shu maqsadda talaba-yoshlarni qobiliyatlarini erta aniqlash va rivojlantirish bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir. Iqtidorli yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ulardagi tug'ma qobiliyatni, iqtidor va iste'dodini erta yoshdan boshlab aniqlashga e'tibor qaratishimiz orqali kelajakda vatanimizdan buyuk shaxslar etishib chiqishiga o'z hissamizni qo'shgan bo'lamiz. Buning uchun biz bolalardagi iqtidor va qobiliyatni o'z vaqtida aniqlab, to'g'ri yo'naltirib rivojlantirsak, ularning kelgusida yangi-yangi kashfiyotlarni yaratishlariga zamin yaratadi hamda kasb-hunarni mustaqil tanlay olishlari mumkin.

Shu sababli axloqli sof mantiqiy tafakkuri kuchli, aqliy madaniyati yuqori bo'lgan. Bolalarni maxsus o'qitish va ularga ko'proq umid bog'lash lozim. Aynan shunday bolalar kelgusida yanada muhimroq iqtisodiy, ilmiy va ijtimoiy masalalarni yechishga qodir bo'ladilar. O'zbek avlodini jahonga ko'z-ko'z qila oladigan kishilar-bu iste'dodli, qobiliyatli, zukko, o'z ishining ko'zini bilib bajaradigan qo'li gul, o'z sohasining mohir mutaxassislaridir. Dono, tetik, aqli raso talaba-yoshlarni aniqlab ularni layoqat yo'nalishlari, qobiliyatlariga qarab u yoki bu sohaga, kasbga yo'naltirishimiz kerak. Iste'dodli bolalarni aniqlab ular bilan ishlashda quyidagilarga amal qilinganda yaxshi natijalarga erishiladi:

har bir bola takrorlanmasdir. Ba'zilar she'r yozish, ba'zilar matematikadagi qobiliyati, intellekti bilan ajralib turadi.

Iste'dodli yoshlarni o'zlariga nisbatan ishonchini oshirish juda muhim. Ular o'z "Men" ini rivojlantirishga harakat qilishlari kerak. Yaqin qarindoshlarining ta'siri iste'dodli bolalar uchun juda muhimdir, ular yaqinlarining fikrini inobatga oladilar. Agar oila va ta'lim maskanlari o'zaro aloqada bo'lsa, bu eng yaxshi natijalarga olib kelishi mumkin. Iste'dodli yoshlar uchun turli xil o'quv rejasini tuzish. Iste'dodli yoshlarning qiziqish va ehtiyojlarini inobatga olib o'quv rejalari ishlab chiqilishi lozim. Ta'lim maskanlari, ota-ona va mutaxassislar bir-birlari bilan hamkorlikda ishlashlari kelajagimiz egalari bo'lgan yosh-avlodni har jihatdan yetuk bo'lib komolga yetishishlariga sabab bo'ladi. Talaba-yoshlarning o'ziga nisbatan ishonchini oshirishimiz juda zarur. Bu borada ta'lim jarayonining mazmuniga psixologik metodlarni kiritishimiz va ulardan oqilona foydalanishimiz lozim.

Xulosa qilib aytish mumkinki, bugun biz pedagoglar oldimizda turgan muhim vazifalarni, teran fikrli, maqsadlari aniq va qobiliyatli yoshlarga ta'lim-tarbiya berishda mas'uliyat bilan yondoshsak, kelajagimiz barkamol avlodlarning qo'llarida bo'ladi. Shu maqsadda ta'lim-tarbiya jarayonini to'g'ri tashkil etishimiz kerak. Ta'lim jarayonini samaradorligini oshirishda psixologiya fanining ahamiyati muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. I.Ibragimov. U.Yo'ldoshev. X.Bobomirzayev. Pedagogik psixologiya. Toshkent. 2007 y.

2. Z.T.Nishonova. Z.Qurbonova. S.Abdiyev. Sh.To'laganova. "Psixodiagnostika" Toshkent. 2008y.

3. E.V.G'oziyev. T.To'laganova. Pedagogik psixologiya asoslari. Toshkent. 1997 y.

OLIY TA'LIM TIZIMIDA BOSHQARUVNING PSIXOLOGIK AHAMYATI

*Abdusayitov Baxtiyor Kamoliddinovich – O'zbekiston-Finlandiya
pedagogika instituti "Psixologiya" kafedasi asistenti*

Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari odimlayotgan Yangi O'zbekiston uchun – boshqaruv tizimini tubdan takomillashtirish, rahbar (yosh) kadrlarni

tanlash, o'qitish, qayta tayyorlash, malakasini oshirish va ularning bilim saviyalarini yanada yuqori bo'lishi bilan bog'liq shart-sharoitlarni yaratish masalasi taraqqiyotning muhim omiliga aylanib bormoqda. Prezident Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomalari, asarlari mazmunini tashkil qiluvchi konseptual g'oyalar, Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi hamda Senat fraksiyalarida, Hukumat doirasida qabul qilinayotgan qarorlar ham bu masalani hozirgi kunning nechog'lik darajadagi dolzarb muammosi ekanligini ko'rsatmoqda.

XXI asrning yuksak axborot texnologiyalari va intellektual saviyaning keskin oshishi asri bo'lishi sifatida bashorot qilinganligi bejiz emasligini bugungi kun voqealari ko'rsatib turibdi. Bu holat insoniy munosabatlar sohasida ham islohotlar yuz berishi, intellektual saviyasi yuqori insonlar bilan muomala qilishning va ularga samarali ta'sir ko'rsatishning nozik hamda o'ziga xos usullarini tanlashni talab qiladi. Agar O'zbekiston misolida olinadigan bo'lsa, muomala an'analari, milliy qadriyatlarimiz, mentalitetimizning o'ziga xos nodir qirralarini yo'qotmagan holda jahon sivilizatsiyasining ta'sirlaridan, umuminsoniy qadriyatlardan xoli bo'lmagan boshqaruvchilar qatlamini shakllantirish, ularning faoliyati orqali adolat, insoniylik va demokratiyaning asoslarini insonlar ongi va shuuriga singdirish – davr talabidir. Jamiyat rivojlanishidagi o'tish, o'zgarishlar davrida davlat (oliy ta'lim sohasi) boshqaruvidagi, shu jumladan boshqaruvning barcha darajalaridagi rahbarlar oldida turgan murakkab vazifalarni bajarishda professionalizmga, keng, davlat (oliy ta'lim sohasi) darajasidagi tafakkurga, kuchli irodaga, maqsadga intilganlikka egaligi bilan ajralib turishlari kerak.

Zero, Prezident Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek: “Ish yuzasidan talabchanlik qilish boshqa, odamlarning shaxsiyatiga tegish butunlay boshqa narsa. Odamlar ish yuzasidan sizga bo'ysunishi mumkin, boshqa har qanday masalada siz bilan teppateng huquqqa ega ekanini aslo esdan chiqarmang. ... Barchamiz yaxshi bilamiz, xalqimiz oriyatli, nomusli xalq. Xalqimiz barcha narsaga chidashi mumkin, lekin takror-takror aytaman, adolatsizlik va nohaqlikka chiday olmaydi. Haqiqiy rahbar, haqiqiy yetakchi odamlarning bardoshini sinash uchun emas, balki ularga munosib shart-sharait yaratib berish uchun rahbar etib tayinlanadi. Barcha bo'g'indagi rahbarlar – u vazir yoki hokim bo'ladimi, idora yoki tashkilot boshlig'i bo'ladimi, odob-axloqi va madaniyati bilan hammaga o'rnak va namuna bo'lishi zarur.”

O'z navbatida jahondagi nufuzli xalqaro ekspertlar tomonidan professional kadrlarni tayyorlashdagi an'anaviy yondashuv etarli samara bermayotgani, shu munosabat bilan kasbiy va shaxsiy kompetensiyalarni yanada rivojlantirish, bilim va malakalarni o'zgaruvchan mehnat bozoridagi talab va ehtiyojlarga muvofiq darajada rivojlantirish bugungi kun pedagogikasining asosiy vazifasi ekanligi e'tirof etilmoqda.

Bunda shaxsning individual regulyasiyasi - o'z-o'zini tarbiga solishi va boshqarishining pedagogik-psixologik aspektlarini, ustivor yo'nalishlarini determinatsiyalash, inson shaxsiga subyekt, individ sifatida individual boshqaruv ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Oliy ta'lim muassasasi standartlariga muvofiq texnik ta'lim bakalavrlarining psixologik tayyorgarligi mazmuni va tuzilishiga qo'yiladigan talablar belgilanadi. Kurs tarkibida boshqaruv psixologiyasining nazariy asoslari, psixologik va

boshqaruv o'zaro ta'sirining asosiy yo'nalishlari, usullari va vositalari, asosiy psixologik texnologiyalar keltirilgan.

Bo'lajak menejerlarning kasbiy tayyorgarligida bizning fanimizning maqsadi va o'rnini uning mazmuni ko'lami va yaxlit xususiyatini aniqladi. Ushbu o'quv qo'llanmaning asosiy maqsadlaridan biri texnik ta'lim talabalarini boshqaruv psixologiyasining o'ziga xos xususiyatlarini ongli ravishda tushunishga tayyorlashdir. Kursni o'rganish jarayonida talabalar va magistrantlar psixologik faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan aniq vakolatlarni shakllantiradilar.

Talabalarda quyidagi kompetensiyalarni hosil qilish:

- Barcha subyektlarning samarali faoliyatga motivatsion tayyorligini aniqlash vasharoit yaratish qobiliyatiga ega.

O'quv intizomini o'zlashtirish natijasida talaba quyidagilarga qodir bo'lishi kerak: - shaxs xususiyatlarini o'rganishning psixologik usullaridan foydalanish (testlar, qiziqishlariga reaksiyalar);

- etakchilik uslublarini qo'llash tashkilotni boshqarishdagi holatlarga;

- guruhdagi shaxslararo munosabatlarni o'rganish, har birining holatini aniqlash guruhdagi xodim;

- jamoaning tuzilishi va jamoadagi ijtimoiy-psixologik iqlimni aniqlash;

- muvaffaqiyatli muloqot uchun muhim bo'lgan suhbatdoshning shaxsiy fazilatlarini ta'kidlang;

- ish odobi ko'nikmalarini rivojlantirish;

- nizoli vaziyatda xatti-harakatlar strategiyasini ishlab chiqish, jamoada yuzaga keladigan nizolarni hal etish.

Talaba bilishi kerak:

➤ Boshqaruvchining o'ziga xos xususiyati sifatida faoliyat olib borish.

➤ Menejer shaxsining yo'nalishi.

➤ Boshqaruvchining individual tipologik xususiyatlari.

➤ Menejer faoliyatining Individual uslubi.

➤ Boshqaruv faoliyatiga oid faktlarni urganish.

➤ "Men" - rahbar shaxsi tushunchasi.

➤ Menedjerning qiymat yo'nalishlari va qiymat munosabatlari.

➤ Boshqaruvchilik ko'nikmalarinitala'minlash.

➤ Menedjerning professional muhim fazilatlarini.

➤ Boshqaruvchining kasbiy mahorati.

➤ Boshqaruvchining tavakkal qilishga tayyorligi.

Deyarli barcha mutaxassisliklar bo'yicha boshqaruv kadrlarini tayyorlash tizimi " boshqaruv psixologiyasi "kabi fanni o'z ichiga oladi. Har qanday darajadagi menejer ishining samaradorligi ko'p jihatdan, bir tomondan, bo'ysunuvchilarni to'g'ri baholash, ularning xatti-harakatlari motivlarini aniqlash qobiliyatiga, boshqa tomondan, o'z ishlarini psixologik nuqtai nazardan to'g'ri baholash qobiliyatiga bog'liq. Tavsiya etilgan darslik ushbu kursni o'rganayotganda talabalar va korxonalarda amaliy menejerlar va psixologlar uchun

foydali bo'ladi.

Hozirgi vaqtda rivojlangan mamlakatlarning texnologik jihatdan rivojlangan korxonalarida psixologiya boshqaruv ta'sirini amalga oshirishda eng muhim o'rinni egallaydi, bu menejer va bo'ysunuvchilar o'rtasida eng samarali o'zaro aloqalarni o'rnatishga imkon beradi, xodimlar nafaqat ish haqi bilan maksimal darajada qoniqishi uchun ishni tashkil qiladi. ish jarayoni o'zi.

Buning uchun boshqaruv ishlarini ongli psixologik tarkib bilan to'ldirish kerak edi, ularni ko'rib chiqish nafaqat yaxshi istak, balki barcha darajadagi menejerlar uchun majburiy talabdir. Zamonaviy tashkilotning rahbari solist emas, balki xor dirijyori, uning izchilligi u xizmat qiladigan sababning uyg'un rivojlanishini belgilaydi.

Ta'lim jarayonida boshqaruvning ahamiyati haqida gap ketar ekan amerikalik psixolog Teylorning "boshqarish tamoyillari" ni ko'rib chiqamiz

1. Mehnat qismi. Avvalo, rahbarni ijro etuvchi mehnatidan ajratish. "Bir turdagi odam ish rejasini tuzishi va boshqa turdagi odam bajarishi kerak". Keyin boshqaruv ishlarini faoliyat turlari bo'yicha ajratish va maxsus ijrochilarga birlashtirish. Yuqori ish samaradorligiga erishish uchun ijro etuvchi mehnatni operatsiyalar, texnikalar va harakatlarga ajratish.

2. *Mehnat faoliyatining normalari.* Ishni bajarish uchun vaqt sarflashni kamaytirish uchun keraksiz harakatlar va samarasiz harakatlarni bartaraf etish orqali vaqtni kuzatish va mehnat jarayonlarini ratsionalizatsiya qilish asosida hisoblab chiqilgan me'yorlarni belgilash kerak. Tartibga solish bo'yicha tavsiyalarda Teylor eng tajribali, mohir va kuchli ishchilarni kuzatish va ularning yutuqlari asosida boshqa barcha ishchilar uchun normani belgilashni maslahat beradi.

3. *Yuqori ish faoliyatini ta'minlash uchun ish va dam olishning tartibga solinishi.*

4. *Texnologik xaritalarni ishlab chiqish - retseptlar.* Har bir ishchiga har bir ish uchun vaqtning normativ xarajatlarini ko'rsatuvchi ishning alohida elementlarini bajarishning texnologik ketma-ketligini tartibga soluvchi yozma ko'rsatma berilishi kerak. Ishchi bu qoidaga qat'iy rioya qilishi kerak. Buni maxsus kuzatuvchi kuzatadi.

5. *Ishchilarni o'qitish va qayta o'qitish uchun ilmiy tanlash usuli.* Har bir ishni va ijrochilarni diqqat bilan tanlab olish, ularni o'qitish va qayta tayyorlash kerak. Shu bilan birga, ular ishchilarni tanlash uchun zarur mezonlarni belgilashlari kerak. Misol uchun, quyma temirni olib yurish uchun Teylor Iroda qobiliyatiga ega odamlarni tanlashni tavsiya qiladi.

6. *Moddiy qiziqish orqali motivatsiya (ruhlantirish).* Teylor samarali mehnatning yagona sababi moddiy mukofotni ko'rib chiqdi.

7. *Mehnatni tartibga solish asosida ish haqini tashkil etish.* Asosiy stavka ishlab chiqarish normasini bajaradiganlar uchun o'rnatildi va normani bajarmagan taqdirda sezilarli darajada kamaydi.

8. *Guruh boshqaruvi* – alohida shaxslarni boshqarish orqali. Teylorning ilmiy boshqaruvi faqat shaxsiy ta'sirga asoslangan. Individual ishlarni muvofiqlashtirish faqat quyidagi tashkiliy usullar bilan amalga oshirildi: rejalashtirish, tartibga solish, intizomni nazorat qilish, mehnat sifati va boshqalar.

Xulosa, korporativ madaniyat korporativ tuzilmani tashkil etuvchi tashkilotlar uchun majburiy bo'lgan xatti-harakatlarning to'plamidir. Korporativ madaniyat tashkilotlar faoliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Yaqinda bizning sharoitimizda tadbirkorlikka nafaqat haqiqiy axloq nuqtai nazaridan, balki G'arb axloqi, korporativ axloq mezonlari bilan ham yondashish mumkin emas. Ammo bugungi kunda biznes professional assotsiatsiyalari va korporativ tuzilmalar tomonidan qabul qilingan bir qancha mahalliy axloqiy kodlar mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.D.I. Mukumova, R.X. Fayzullaev, A.A. Jumanov, S.B. Yarova / Boshqaruv psixologiyasi / O'quv qo'llanma. -T.: "TIQXMMI" MTU, 2023. - 232 bet
2. Lukashuk I.I. Biznes-muzokaralar san'ati: o'quv-amaliy qo'llanma. - Moskva: bek nashriyoti - 208 b.. 2002
3. Krasovskiy Y. Rahbar qaror qabul qiladi//Mohir rahbarning sirlari. M., 2007
4. Kishkel E.N. boshqaruv psixologiyasi.

TA'LIM JARAYONIDA O'QITUVCHILARNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK KOMPETENTSIYASI

*Adilov Olim Adilovich –
O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi
Samarqand akademik litseyi direktori,
ilmiy izlanuvchi, podpolkovnik*

***Annotatsiya.** Maqolada funktsional savodxonlikning ta'rifi va uning o'quvchilarning rivojlanishi uchun ahamiyati yoritilgan. O'quvchilarning funktsional savodxonligini rivojlantirishning psixologik-pedagogik sharoitlari va omillari belgilab berilgan hamda o'quvchilarning funktsional savodxonligini shakllantirish uchun o'qituvchining kasbiy kompetentsiyasiga qo'yiladigan talablar ko'rsatilgan.*

***Kalit so'zlar:** funktsional savodxonlik, psixologik-pedagogik sharoitlar, ta'lim jarayoni, omillar, kasbiy kompetentsiya.*

Ma'lumki, funktsional savodxonlikni rivojlantirish respublikamizda ta'limni rivojlantirish bo'yicha davlat dasturlarida aniq ko'rsatilgan hamda bu borada mamlakatimizdagi ta'lim muassasalarida intellektual, jismonan va ma'naviy barkamol fuqarolarni shakllantirish, o'quvchilarning jismoniy o'zgaruvchan dunyoda ijtimoiy moslashuvini ta'minlovchi ta'limga bo'lgan ehtiyojini qondirish yo'lidagi ishlar amalga oshirilmoqda.

XXI asr - tezroq rivojlanish va olg'a intilish asosiy maqsad bo'lgan davrdir. Bugungi sharoitda funktsional savodxonlik o'qituvchi uchun ham, o'quvchi uchun ham zarur ekanligini hamma tushunadi. O'quvchilarning funktsional savodxonligi bevosita o'qituvchiga bog'liq. O'quvchini shaxs deb oladigan bo'lsak, mana shu shaxsning funktsional savodxonligini oshiruvchi va rivojlantiruvchi - o'qituvchidir, chunki funktsional savodxonlik ta'lim jarayoni orqali shakllanadi. Agar shaxsni

jamiyat taraqqiyotida o'ziga xos xususiyatlar bilan ijtimoiy munosabatlar tizimiga kirib kelayotgan vakil sifatida ijtimoiy fazilatlarining to'raligi deb hisoblasak, o'qituvchining o'rni juda kattadir.

Biologik irsiyat, muhit, madaniyat, guruh tajribasi, shaxsiy tajriba har qanday bolaga shaxsni shakllantirishda o'qituvchining tarbiyasi bilan birga ta'sir qiladi. Davlatning iqtisodiy rivojlanishi o'qituvchining pedagogik va psixologik kompetentsiyasi bilan chambarchas bog'liq. O'qituvchi bolani maktabga kelgan paytdanoq raqobatbardosh shaxs sifatida shakllantiradi.

Quyida maktabni tugatgandan so'ng o'quvchi hayotida yuz beradigan turli xil o'zgarishlarga tayyorgarlik ko'rish va uni zamonaviy ta'limga mos ravishda o'zgartirish uchun o'quvchilarning egallagan malakalari o'qitishning yakuniy natijasi sifatida olingan holatlar keltirilgan. Demak, funksional savodxonlik:

- ❖ o'quvchilarning tashqi muhit bilan muloqot qilish qobiliyati;
- ❖ o'quvchilarning o'zgaruvchan hayotga moslashishi uchun sharoit;
- ❖ o'quvchilarning shaxsiy qobiliyatlarini rivojlantirish mexanizmi;
- ❖ o'quvchilarning ijtimoiy va madaniy rivojlanishi o'lchovi;
- ❖ o'quvchilarning ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirish asoslari;
- ❖ o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini kompetentsiyaga o'tkazish yo'llari;
- ❖ o'quvchilarning ishtiroki, axborot, muammoli kompetentsiyalari birligi.

O'quvchining funksional savodxonligi oldingi bilimlarni eslab qolish va yangilash, ularni qo'llash, maktabdan tashqarida foydalanish qobiliyati bilan tavsiflanadi.

Shu bilan birga, o'quvchining fizika, kimyo, biologiya, geografiya, astronomiya fanlari bo'yicha olgan bilimlari atrof-muhitga, hayotida uchragan vaziyatlarga nisbatan qaror qabul qilishda undan foydalanish qobiliyatini belgilaydi. Bundan o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarining malakaga o'tish yo'llarini ko'rish mumkin.

O'qituvchi o'quvchining o'quv malakasini, matematika va tabiatshunoslik ko'nikmalarini rivojlantirish, fikrlash, mulohaza yuritish, masalalar qo'yish va yechish, modellashtirish, natijalarni taqdim etishning turli usullaridan foydalanish bilan bog'liq ishlarni tizimli ravishda olib borsin, natijaga erisha oladi.

"Tabiiy fanlar bo'yicha savodxonlik" tushunchasi o'quvchilarning tabiatshunoslik bilimlarini tan olish va savol berish, yangi bilimlarni o'zlashtirish, tabiat hodisalarini tushuntirish va ilmiy dalillar asosida tabiatshunoslikka oid muammolarni umumlashtirish uchun xulosalar chiqarish qobiliyatini o'z ichiga oladi.

Tabiatshunoslikning asosiy xususiyatlarini inson bilimining shakli sifatida tushunish va tabiiy fanlar va texnikaning jamiyatning moddiy, intellektual va madaniy sohalariga ta'sir qilishini tushunish bu tushunchaning asosiy tarkibiy qismlaridir.

O'qituvchining psixologik-pedagogik kompetentsiyasi birinchi navbatda shaxsning muayyan sifatlariga bog'liq. O'qituvchining o'quvchiga ta'sir qiladigan kompetentsiyalarga ega bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

O'qituvchining psixologik-pedagogik kompetentsiyasi uch blokdan iborat:

- ❖ psixologik-pedagogik savodxonlik,
- ❖ psixologik-pedagogik bilim,
- ❖ kasbiy shaxs sifatлари.

O'qituvchining psixologik-pedagogik kompetentsiyalarining asosiy ko'rsatkichlari quyidagilardan iborat:

- ❖ o'quvchiga uning ishining etakchi qiymati sifatida yo'naltirilganligi;
- ❖ doimiy o'z-o'zini takomillashtirish, o'z-o'zini anglash va o'z-o'zini o'zgartirishga bo'lgan ehtiyoj va moyillik;
- ❖ didaktika, ta'lim nazariyasi va maktabshunoslik asoslaridan iborat umumiy pedagogika bo'yicha bilimlar;
- ❖ umumiy psixologiyani bilish;
- ❖ shaxs nazariyasi va o'quvchilarning yosh xususiyatlari psixologiyasidan bilimga ega bo'lish.

Bu ko'rsatkichlar har bir o'qituvchida bo'lishi kerak. Bu asosiy ko'rsatkichlardir. O'qituvchining o'quvchi va o'ziga nisbatan axloqiy va shaxsiy pozitsiyasini hisobga olish esa o'qituvchining psixologik-pedagogik malakasini oshirishdan iboratdir.

Bundan tashqari, ta'lim jarayonida o'qituvchining yuqori kasbiy tayyorgarligi juda zarurdir. Qachonki, o'qituvchining kasbiy tayyorgarligi yuqori bo'lsa, o'qituvchining pedagogik faoliyatiga mas'uliyat bilan yondashishi natijasida ta'lim jarayonida o'quvchilar bilan samarali o'zaro munosabatlar o'rnatiladi. Shuningdek, o'qituvchining psixologik-pedagogik kompetentsiyasi bevosita kasbiy kompetentsiya bilan bog'liq. Kasbiy kompetentsiyani shakllantirish esa har bir o'qituvchining shaxsiy ijodkorligini rivojlantirish, pedagogik yangiliklarni to'g'ri qabul qila bilish, kundalik o'zgarishlarga to'la pedagogik muhitga tez moslashishni taqozo etadi.

Funksional savodxonlik esa har qanday o'quvchining doimiy xususiyati bo'lishi kerak. O'quvchi funksional savodxonlikka maktabda olgan bilim, ko'nikma va malakalari orqali erishadi. Shuning uchun maktabda olingan ta'lim ma'lum bir savodxonlikni, aniq harakatlar natijasini ta'minlaydigan vositadir. Avvalo, o'qish savodxonligiga e'tibor qaratishimiz mumkin: o'quvchi boshlang'ich sinflarda o'qishga undaydi, keyin esa yuqori sinflarga o'tgan sari uning o'qishga bo'lgan motivatsiyasi pasaya boshlaydi. Kitob o'qimagan, kutubxonaga bormaydigan o'quvchi asta-sekin savodsiz talabaga aylanadi. Har qanday fan bo'yicha berilgan matnlar bilan ishlashda talaba javobni ishlab chiqish jarayonida ma'lumotlarni solishtirish, muallifning fikrini aniqlash, o'z fikrini o'z mulohazalari asosida isbotlay bilishni mashq qilishi kerak. Bu mahorat insonga butun umri davomida kerak bo'ladigan mahoratdir.

Funksional savodxonlikni rivojlantirishga yordam beruvchi omillar:

- ❖ ta'lim mazmuni;
- ❖ ta'lim shakllari va usullari;
- ❖ o'quvchilarning o'quv yutuqlarini diagnostika qilish va baholash tizimi;
- ❖ maktabdan tashqari qo'shimcha ta'lim dasturlari;
- ❖ maktabni boshqarish modeli;

❖ barcha manfaatdor tomonlarning hamkorligiga asoslangan foydali ta'lim muhitining mavjudligi.

Yuqoridagi kompetentsiyalar qisqa vaqt ichida shakllantiriladigan malakalar emas, balki u faqat o'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi tushunish bilan shakllangan munosabatlar tufayli yuzaga keladi. O'qituvchi faoliyatiga ijodiy elementlarni joriy etishni mashq qilish, kundalik ta'lim jarayonida yuzaga keladigan muammolarni malakali yechish usulidan foydalanish talab etiladi.

Xulosa sifatida aytish joizki, hozirgi ijtimoiy tendentsiya o'z harakatlarini samarali rejalashtira oladigan, o'z ta'limiy faoliyatida olingan bilimlardan foydalana oladigan, yakuniy natijaga erishish uchun turli toifadagi odamlar bilan samarali muloqotga kirisha oladigan bilimli shaxsni tarbiyalash muammosini qo'ymoqda. Kuchli raqobatga bardosh bera oladigan bilimli, bilimli, malakali talabalargina kelajak kalitini ocha oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ананьев Б.Г. Избранные психологические труды.:В 2 т. -М. 1980.Т 2.
2. M.G.Davletshin va boshqalar "Yosh davrlar va va pedagogik psixologiya" T.TDPU. 2009.
3. M.G.Davletshin. Zamonaviy maktab o'qituvchisining psixologiyasi. - Pedagogika va psixologiyal (ilmiy ommabop seriya). T., Nizomiy nomidagi TDPU, 1999/1.
4. Зимняя И.А. Педагогическая психология: Учебник для вузов. Изд. второе, доп., испр. и перераб. - М.: Логос, 2002.- 384 с.
5. Karimova V.M., Sunnatova R.I., Tojibayeva R.N. Mustaqil fikrlash. - T.: Sharq. 2000. - 111 b.
6. V.A.Krutetskiy. "Pedagogik psixologiya asoslari". -T.: O'qituvchi.1976
7. Немов Р.С. Психология: Учеб. для студ. высш. пед. учеб. заведений: В 3 кн. – 4-е изд. – М.: Гуманит.изд. центр ВЛАДОС, 2003.-Кн.2: Психология образования.
8. Nishanova Z.T. Mustaqil ijodiy fikrlash. –Т. Fan.2003.
9. Petrovskiy. A.V. Yosh psixologiya va pedagogik psixologiya. M.1979

KURSANTLARDA ANTIFRUSTRASION KO'NIKMALARNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK MEKANIZMLARI

*Achilov Akmal Abdullayevich –
O'R QK KMTM boshlig'ining birinchi o'rinbosari-
shtab boshlig'i, podpolkovnik
Rasulov Bahodir Nozimjanovich –
O'R QK KMTM Gumanitar va ijtimoiy fanlar
sikli o'qituvchisi, mayor*

Annotasiya. Ushbu maqolada bo'lajak pedagoglarda o'quv faoliyati jarayonida yuzaga keladigan frustrasion vaziyatlar, ularning oqibatlari va

unga nisbatan bildiriladigan reaksiyalarning psixologik mexanizmlari yoritilgan. Shuningdek, frustrasion vaziyatlarni bartaraf etish – antifrustrasion ko'nikmalar bilan bog'liq jihatlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Harbiy xizmatchi, kursant, ekstrapunitiv, intrapunitiv, impunitiv, frustrasiya, tolerantlik, frustrasion tolerantlik, frustrator, frustrasion vaziyat.

Annotation. In this article, the frustration situations occur in the educational process of future pedagogues, their consequences and the psychological mechanisms of the reactions expressed in relation to them also the aspects related to the skills of overcoming frustration situations are revealed.

Key words: Military serviceman, cadet, extrapunitive, impunitive, frustration, tolerance, frustration tolerance, frustrator, frustsituation.

Аннотация. В данной статье освещены ситуации фрустрации, возникающие в процессе учебной деятельности у будущих педагогов, их последствия и психологические механизмы реакции на нее. Так же раскрыты аспекты, разочаровывающий связанные с навыками совладения.

Ключевые слова: Военнослужащий, курсант, экстракарательный, интракарательный, имнаказанный, фрустрация, толерантность, фрустрационная толерантность, фрустратор, фрустрирующая ситуация.

Shaxs kamolotga erishish muammosi insoniyatning azaliy ezgu niyati bo'lib, ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot davrining barcha bosqichlarida o'zining birlamchiligi, o'ta dolzarbligi bilan alohida ijtimoiy, ma'naviy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy ahamiyat kasb etib kelgan. Xuddi shu boisdan harbiy xizmatchi shaxsi, uning kamoloti, unga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillar, faoliyat, tajriba va intilishning roli masalalari XXI asrda tadqiqot etilishga muhtojdir. Shunga qaramasdan, bir tomondan, harbiy xizmatchi shaxsini o'rganishda differensiasiya hodisasi yuz bermoqda, ikkinchi tomondan esa inson taraqqiyotining sintetik (birikuv) tavsifi bo'yicha integrasiya holati ko'zga tashlanmoqda. Harbiy xizmatchi shaxsini bir qator fanlarning tadqiqot obyekti ekanligini yig'iq, ixcham, yaxlit tarzda tasavvur etish uchun uni biososial va sosiobiologik jihatdan o'rganish maqsadga muvofiq.

Dunyodagi yetakchi armiyalarda yosh harbiy xizmatchilar salohiyatini rivojlantirish va amalga oshirish, shaxs o'z-o'zini anglash va ijtimoiy intellektni muvaffaqiyatli boshqarish shart-sharoit va imkoniyatlarni yaratish, psixologik jihatdan yetuk shaxslarni shakllantirish muammolariga asosiy e'tibor qaratilgan.

Psixologik jihatdan yetuk harbiy xizmatchi (kursant)lar har qaysi davlat va jamiyatning tayanchi hamda uning ximoyasiga bel bog'lagan ekan, zamonaviy ijtimoiy-gumanitar bilim sohasida ushbu muammoga jiddiy e'tibor qaratilishi va ko'p yillar davomida psixologiyada shaxsning kamoloti muammosi saqlanib qolmoqda. Ayniqsa ekzistensial va gumanistik psixologiyada tegishli «o'zini o'zi anglash», «to'liq faoliyat ko'rsatuvchi», «yetuk» va «sog'lom» kabi tushunchalar kiritildi. Kamolot tushunchasi V.I.Dalning rus tili izohli

lugʻatida (zrelost) «yetilish, pishish, oʻylab, fikrlab ish koʻrish davri» deb ifodalangan.

B.G.Ananyevning fikricha, kamolot mezonlarini ishlab chiqish va taxlilida «kamolot» tushunchasi «katta boʻlish», «kamol topish» tushunchalari bilan uygʻunlashib sinonimik qatorni tashkil etishi mumkin. Lekin aslida, subyektiv faoliyat va shaxs haqida gap ketganda, ular, albatta, mazmun va mohiyat jihatidan bir-biridan farq qiladi. Katta boʻlib yetilish bu hali kamolot emas. U harbiy xizmatchi shaxsining kamolotiga bevosita bogʻliq xarakterli xususiyatlarni taʼkidlab oʻtadi. Bular:

- a) shaxsiy va funksional oʻzgarishlarning geteroxronligi;
- b) tarixiy oʻzgarishlar sharoitida yosh va individual oʻzgaruvchanlik.

B.G.Ananyevning fikricha, inson oʻquv faoliyatidan mehnat faoliyatiga oʻtganda kamolot boshlanib, u fuqarolik, aqliy va axloqiy kamolot yoʻnalishlarida namoyon boʻladi.

Professor Gʻ.B.Shoumarov «kamolot» tushunchasi maʼlum bir hayotiy tajriba bilan, yaʼni «hayotiy bilimlar» bilan bogʻliqligini taʼkidlaydi. «Hayotiy bilimlarni oʻzlashtirish», «Hayot universitetlaridan» oʻtishning ham oʻziga xos individual xususiyatlari mavjud. Kimdir 20 yoshdayoq «hayotni yaxshi bilib oladi», kimdir 30 yoshida ham bolaligicha qolaveradi. Hayotni bilish, hayotiy tajribalar turli individlarda turli jadallikda amalga oshishi mumkin va bu oʻrinda qandaydir yosh, vaqt oraligʻini mutlaq koʻrsatish mumkin emas.

Kamolot davrida intellekt va tafakkurning rivojlanishiga toʻxtaladigan boʻlsak, Fulds va Raven fikricha, 20 yoshlilarda mantiqiy tafakkur qobiliyati 100%, 30 yoshda 96%, 40 yoshda- 87%, 50 da – 80% va 60 yoshda 75%ni tashkil etarkan. Kamolot davrida intellektning rivojlanishi ikki faktor: ichki va tashqi faktorga bogʻliq. Iqtidor - bu ichki faktordir. Iqtidorli kishilarda bu jarayon, yaʼni rivojlanish uzoq davom etadi va innovasiyalarning kirib kelishi kechroq boʻladi. Kamolot davrida intellekt rivojlanishining tashqi faktorlariga taʼlimni kiritish mumkin. Zero, aynan taʼlim kamolot davrida qarish va psixik funksiyalarning involyusiyasini toʻxtatib turadi.

Ye.I.Stepanova kamolot davri intellektual taraqqiyotining uchta davrini ajratadi. Birinchi davr-18-25 yoshgacha, ikkinchi davr- 26-35 gacha va uchinchi davr 36-40 yoshgacha. Ushbu mikro davrlar xotira, tafakkur, diqqat va umumiy intellektning turli tempda rivojlanishini farqlaydi. Kamolot davrida intellektning nihoyatda oʻzgaruvchanligi birinchi davrda kuzatiladi. Keyingi davrlarda bu rivojlanish ancha barqarorlashadi. Ikkinchi va uchinchi bosqichda nutqiy intellektning rivojlanishi yaqqol namoyon boʻladi.

Ushbu davrlarga qisqacha xarakteristika Ye.P.Ilin tomonidan berilgan boʻlib, u quyidagicha izohlangan.

Erta kamolot - yetilishga qadam qoʻyish bosqichi boʻlib, u organizmning biologik yetilishi, optimistik ruhning mavjudligi, shaxsiy va kasbiy kelajakni rejalashtirish, fuqarolik kamolotiga erishish, ijtimoiy rollarning oʻzgarishi bilan ifodalandi.

O'rta kamolot - bu «ochilish» davri bo'lib, ijodiy va kasbiy muvaffaqiyatga erishishning yuqori bosqichi, qaysidir miqdorda hayotiy faollikning kamayishi, o'z bilim, malaka va ko'nikmalarini quyi avlodga qoldirish ehtiyojining mavjudligi, lekin shu bilan birga, erisha olmagan yutuqlari va muvaffiqiyatsizliklaridan o'kinish ham davridir.

Kech kamolot - kasbiy va professional faoliyatning yakunlanishi, yangi ijtimoiy rollarning yuzaga kelishi, qarilik davriga o'tish davri bilan bog'liqdir.

Tadqiqotning usullari kursantlarning antifrustrasion ko'nikmalarini bir necha jahada o'rganishga yo'naltirilgan.

Kursantlarning antifrustrasion ko'nikmalarini rivojlantirish masalasi tahliliy jihatlarini uzoq tarixiy davrdan buyon tadqiqotchilarning diqqat markazidagi muammolardan biri hisoblanadi. Ushbu yo'nalishda olib borgan tadqiqot ishlarimizda antifrustrasion ko'nikmalarni aniqlash borasidagi dastlabki natijalar umumiy xarakterga ega. Antifrustrasion ko'nikmalar shaxs egallashi lozim bo'lgan muhim shaxs sifatleri mujassamlashtirilgan timsol bilan belgilanadi. Uning «Men timsoli», «Men va boshqalar», «Men va jamiyat» munosabatlarda uyg'unlashgan eng muhim shaxs sifatleri o'z aksini topadi. Respondentlar tomonidan keltirilgan natijalarning ko'rsatishicha, antifrustrasion ko'nikmalarni uning psixologik va ijtimoiy kamoloti bilan baholanadigan jihatlarini mavjudligi aniqlanadi.

Antifrustrasion ko'nikmalar va ijtimoiy kamolotni talqin qilishda shaxsning psixologik imkoniyati, o'zini emosional-irodaviy tartibga solish usullarini o'zlashtirganligi, ijtimoiylashuvni to'liq bosib o'tganligi, o'tmish, bugun va kelajak timsoliga ko'ra shaxsning rivojlanishi uzviy kamol topayotganligini belgilab beradi.

Antifrustrasion ko'nikmalar darajasi quyi va o'rtacha bo'lgan kursantlar natijalari talqin qilinganda, statistik jihatdan ahamiyatli ko'rsatkichga ega bo'lgan holat birgina ko'rsatkichda kuzatildi. Psixologik yoshdagi tafovut mavjud bo'lgan sharoitda ijtimoiy yoshda shaxslarda tafovut yoki farqlar kuzatilmagani mumkin ekan. Bu ijtimoiy yosh alohida mezonlar va shaxs sifatleri bilan bog'liqni ko'rsatadi. Bundan ko'rinadiki, quyi va o'rtacha psixologik yetuk bo'lganlarda psixologik yosh ko'rsatkichlari kursantlarda emosional zo'riqlashlarni bartaraf etish, o'zining imkoniyatlari, emosional intellekt, umumiy intellekt, faoliyat motivlari shakllanganligi bilan bog'lanadi.

XULOSA:

1. Kursantlarda antifrustrasion ko'nikmalar darajasi quyi, o'rtacha, yuqori va juda yuqori psixologik yosh darajasi aniqlanadi. Kursantlar psixologik kamolotini oldingi an'anaga muvofiq quyi, o'rta, o'rtachadan yuqori, yuqori va juda yuqori darajalar bo'yicha ajratilgan holat bo'yicha tahlil qilinadi.

2. Antifrustrasion ko'nikmalar borasidagi izlanishning ushbu bosqich natijalariga ko'ra kursantlardagi tafovutli holatlar o'rganilayotgan muammo bo'yicha doimiy ravishda shaxs kamolotining har bir darajasida o'ziga xos ijobiy ahamiyatli sifatlar kuzatilishi mumkinligi bo'ldi. Kamolotning bir-biriga yaqin darajalari orasida esa, tafovutlar keskinlashishi yoki tenglashishi mumkinligi ham kuzatiladi.

3. Yuqori va juda yuqori psixologik yosh darajasiga ega bo'lgan kursantlarning natijalarida ayrim shkalalardagina statistik tafovutlar aniqlanganligi e'tiborga molik. Bu esa, statistik tafovutga ega bo'lmagan shkalalar bo'yicha kursantlar antifrustrasion ko'nikmalar ko'rsatkichlari bo'yicha mavjud shaxs sifatlarida bir-birlariga yaqindarajada ekanliklaridan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ananyev V.A. Osnovy psixologii zdorovya. Kniga 1. Konseptualnyye osnovy psixologii zdorovya. - SPb, 2006
2. Ananyev B.G. O problemax sovremennogo chelovekoznaniya. M. 1977 Nauka. 158-159.
3. Bodalev A.A. Mejlichnostnoye vospriyatiye i ponimaniye. Lichnost i obshchestvo.M., Pedagogika, 1983.
4. Avlaev, O., & Maripov, E. (2020). The problem of emotional situations like childhood, anxiety and fear. SAARJ Journal on Banking & Insurance Research (SJBIR), 9(3), 24-28.

HARBIY XIZMATCHILARDA KASBIY STRESSNI KELTIRIB CHIQRUVCHI PSIXOLOGIK OMILLAR

*Ahmedova Dildora Mahmudjonovna –
Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti
Psixologiya (faoliyat turlari) yo'nalishi magistranti*

***Annotatsiya.** Harbiy xizmatchilar o'z ishining tabiati tufayli o'ziga xos kasbiy stresslarga duch kelishadi, bu esa sezilarli psixologik ta'sirlarga olib kelishi mumkin. Ushbu maqola harbiy xizmatchilarda kasbiy stressni keltirib chiqaradigan asosiy psixologik omillar, jumladan jangovar ta'sir, harbiy madaniyat talablari, oiladan ajralish va eng yuqori samaradorlikni saqlab qolish uchun bosimni o'rganadi. Ushbu omillarni tushunish harbiy xizmatchilarning ruhiy salomatligi va farovonligini qo'llab-quvvatlash uchun samarali tadbirlarni ishlab chiqish uchun juda muhimdir.*

***Kalit so'zlar:** Harbiy xizmatchilar, kasbiy stress, psixologik omillar, jangovar ta'sir, tashkiliy stresslar, ruhiy salomatlik stigmasi, aralashuv strategiyalari.*

Kasbiy stress har xil kasblar uchun keng tarqalgan muammodir, ammo harbiy xizmatchilar o'z ishlarining talabchan va ko'pincha xavfli tabiati tufayli murakkab stresslarni boshdan kechiradilar. Ushbu maqolada harbiy xizmatchilarda kasbiy stressni keltirib chiqaradigan psixologik omillarni aniqlash va tahlil qilishga qaratilgan bo'lib, qurolli kuchlarning umumiy samaradorligi va tayyorgarligini saqlash uchun ushbu muammolarni hal qilish muhimligi ta'kidlab o'tiladi.

Jangga ta'sir qilish.

Harbiy xizmatchilar uchun kasbiy stressning eng muhim manbalaridan biri bu jangovar ta'sirdir. Jang tajribasi o'tkir stress reaksiyalariga va ko'p hollarda travmadan keyingi stress buzilishi (PTSD) kabi uzoq muddatli psixologik ta'sirlarga

olib kelishi mumkin. Jangovar vaziyatlarning oldindan aytib bo'lmaydiganligi va intensivligi, o'lim va jarohatlarning guvohi bo'lish, inson hayotiga doimiy tahdid stressning kuchayishiga yordam beradi.

Harbiy madaniyat talablari.

Qattiq tartib-intizom, ierarxiya va ishlashga bo'lgan talabning yuqori darajasi bilan ajralib turadigan harbiy madaniyat stressning muhim manbai bo'lishi mumkin. Qattiq standartlarga rioya qilish bosimi va muvaffaqiyatsizlik yoki kam ishlash qo'rquvi surunkali stressga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari, o'zini doimiy ravishda isbotlash zarurati va xatolarning mumkin bo'lgan oqibatlari yuqori stressli muhitni yaratishi mumkin.

Oiladan ajralish.

Tez-tez joy almashtirish va boshqa joyga ko'chirish oila va yaqinlardan uzoq vaqt ajralishga olib keladi, bu esa harbiy xizmatchilar uchun katta stress bo'lishi mumkin. Barqaror uy muhitining yo'qligi, shaxsiy munosabatlardagi zo'riqish va ishga joylashishdan keyin qayta integratsiyalashuv qiyinchiliklari psixologik stressni keltirib chiqarishi mumkin. Muhim oilaviy tadbirlarda qatnasha olmaslik va uzoqda bo'lgan oila a'zolarining farovonligi haqida qayg'urish stress darajasini yanada kuchaytiradi.

Eng yuqori samaradorlikni saqlab qolish uchun bosim.

Harbiy xizmatchilardan ko'pincha jismoniy va aqliy ko'rsatkichlarning eng yuqori darajasini saqlab qolish talab qilinadi, bu esa stressning muhim manbai bo'lishi mumkin. Har doim eng yaxshi holatda qolish, qat'iy jismoniy tayyorgarlik standartlariga javob berish va istalgan vaqtda tezkor joylashtirishga tayyor bo'lish harbiy xizmatchilarga doimiy yuk bo'ladi. Ushbu talablarga javob bermaslik qo'rquvi va potensial oqibatlar, masalan, lavozimdan tushirish yoki ishdan bo'shatish stressni kuchaytiradi.

Qo'shimcha stresslar.

Boshqa psixologik stress omillariga harbiy operatsiyalarning o'ziga xos xavfi, og'ir muhitga ta'sir qilish va xizmatdoshlarning hayoti uchun javobgarlik kiradi. Harbiy qarorlar va xizmat paytida duch keladigan ma'naviy va axloqiy muammolar ham psixologik stressga hissa qo'shishi mumkin.

Interventsiyalar va qo'llab-quvvatlash.

Harbiy xizmatchilarda kasbiy stressni keltirib chiqaradigan psixologik omillarni bartaraf etish ko'p qirrali yondashuvni talab qiladi. Samarali aralashuvlar quyidagilarni o'z ichiga olishi mumkin:

Psixologik maslahat va yordam: Ruhiiy salomatlik xizmatlaridan, jumladan, maslahat va terapiyadan foydalanishni ta'minlash xizmat a'zolariga stressni qayta ishlash va boshqarishda yordam beradi.

Tengdoshlarni qo'llab-quvvatlash dasturlari: Tengdoshlarni qo'llab-quvvatlash tarmoqlarini tashkil etish do'stlik va umumiy tushunish tuyg'usini taklif qilishi va izolyatsiya tuyg'usini engillashtirishga yordam beradi.

Stressni boshqarish bo'yicha trening: Stressni boshqarish usullarini o'rgatish, masalan, ongni saqlash va dam olish mashqlari, xodimlarga stressni samaraliroq engish imkonini beradi.

Oilani qo'llab-quvvatlash xizmatlari: Harbiy xizmatchilarning oilalariga yordam taklif qilish, jumladan, maslahat va harbiy hayotdagi qiyinchiliklarni boshqarish uchun resurslar, harbiy xizmatchilar uchun stressni kamaytirishi mumkin.

Tashkiliy o'zgarishlar: Keraksiz stress omillarini kamaytirish uchun tashkiliy o'zgarishlarni amalga oshirish, masalan, joylashtirish jadvallarini o'zgartirish va ko'proq taxmin qilinadigan aylanishlarni ta'minlash stressni yumshatishga yordam beradi.

Xulosa, harbiy xizmatchilarning kasbiy stressi turli xil psixologik omillar ta'sirida murakkab masaladir. Jangga duchor bo'lish, harbiy madaniyat talablari, oiladan ajralish va eng yuqori samaradorlikni saqlab qolish uchun bosim - bularning barchasi harbiy xizmatchilarning yuqori darajadagi stressi ortishiga sabab bo'ladi. Har tomonlama qo'llab-quvvatlash va aralashuv dasturlari orqali ushbu omillarni yumshatish va hal qilish orqali harbiylar o'z shaxsiy tarkibining ruhiy salomatligi va farovonligini oshirishi, ularning o'z vazifalarini bajarishda tayyorligi va samaradorligini ta'minlashi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Xoge C.V. va boshqalar. (2004). Iroq va Afg'onistondagi jangovar vazifa, ruhiy salomatlik muammolari va parvarish qilishdagi to'siqlar. *New England Journal of Medicine*, 351 (1), 13-22.
2. Adler A.B. va boshqalar. (2011). Harbiy xizmatchilarning farovonligiga joylashtirish muddati va tajribasining ta'siri. *Harbiy tibbiyot*, 176 (6), 647-652.
3. Burrell L.M. va boshqalar. (2003). Harbiy turmush tarzi talablarining farovonlik, armiya va oila natijalariga ta'siri. *Qurolli kuchlar va jamiyat*, 30(1), 27-51.
4. Hall L.K. (2011). Harbiy madaniyatni tushunishning ahamiyati. *Sog'liqni saqlashda ijtimoiy ish*, 50 (1), 4-18.

CHAQIRUVGA QADAR BOSHLANG'ICH TAYYORGARLIK FANINING BUGUNGI KUNDAGI DOLZARBLIGI

*Allamov Mansurbek Xasanbayevich – Qoraqalpog'ston
Respublikasi To'rtko'l tumanidagi 40-maktab
Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik rahbari*

Annotatsiya: Jahonda turli yovuz kuchlar o'zining mustaqil rivojlanish yo'lini tanlagan yosh davlatlar uchun xavf solib turgan hozirgi davrda Vatan himoyachilariga yuqori darajadagi talablar qo'yilmoqda. Shunday ekan, haqiqiy Vatanparvar, mard va jasur o'g'lonlarni shakllantirish maktabdan boshlanadi.

Kalit so'zlar: Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik, harbiy kadrlar, metodika, harbiy-vatanparvarlik, amaliy ko'nikmalar, burch, sadoqat.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlikni tashkil qilish va uning metodikasi bugungi kunda o'quvchi-yoshlarni

vatnparvarlik ruhida tarbiyalashdagi muhim fan sifatida milliy o'quv dasturiga kiritilgan.

Mazkur fanni o'qitishdan asosiy maqsad – o'quvchilarni Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, ajdodlarga munosib avlod qilib kamol toptirish, jismoniy barkamollik, favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakatlanish, zarur holatlarda birinchi tibbiy yordam ko'rsata olish bo'yicha amaliy ko'nikmalarni shakllantirish va mamlakatimiz Qurolli Kuchlari tarkibida mavjud qurol-aslaha va harbiy texnikalar bo'yicha bilimga ega bo'lgan avlodni tarbiyalashga qaratiladi.

Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik faninig vazifalari:

O'zbekiston Respublikasining Qurolli Kuchlari safidagi harbiy xizmat huquqiy asoslarining talablari hamda mohiyatini o'rgatish;

harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va harbiy burchga sadoqatli bo'lish, mas'uliyat va javobgarlikni shakllantirish;

Vatan mustaqilligi va ravnaqi yo'lida fidokorona kurashgan milliy qahramonlarimiz bilan faxrlanish, ularga munosib voris bo'lish tuyg'usini shakllantirish;

umumharbiy nizomlarning harbiy xizmatchilar hayotidagi ahamiyatini, Vatanga qasamyod va uning talablarini anglash;

favqulodda vaziyatlarda harakatlanish, zaruriyat tug'ilganda o'ziga hamda yon atrofdagilarga birinchi tibbiy amaliy yordam ko'rsatish ko'nikmalarini o'rgatish;

yosh avlodda qat'iy hayotiy pozitsiyz va Vatan taqdiri uchun daxldorlik mas'uliyatini shakllantirish;

yoshlarni o'z fuqarolik burchi va konstitutsion majburiyatlarini bajarishga, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilishga qodir shaxslar etib tarbiyalashga yo'naltirish;

harbiy burchga va Prezidaentga sadoqaqatli bo'lish, xalq taqdiri uchun javobgarlik tuyg'usini shakllantirishdan iborat.

Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fanini o'rganish O'zbekiston Respublikasining «Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida»gi Qonun talablarini, O'zbekiston Respublikasining yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarligi bo'yicha Nizomini, O'zbekiston Respublikasi Mudofaa Vazirligining buyruqlari va direktivalarini, chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlikni tashkil qilish va olib borish, o'quvchi-yoshlarni vatanparvarlik tarbiyasi ishlarini, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safiga xizmatga tayyorlash bo'yicha masalalarni, chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarligi (chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani) bo'yicha o'quv jarayonini rejalashtirish tamoyillarini, ta'lim muassasalarida chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani dasturining barcha bo'limlari bo'yicha mashg'ulotlarni tashkil qilish va olib borishda yangi pedogogik texnologiyalarni qo'llashni, zamonaviy o'quv texnika vositalaridan foydalana bilishni, ta'lim muassasasi direktori va Chaqiruvga qadar tayyorgarlik o'qituvchisining majburiyatlarini, hamkorlikda bo'lgan tashkilotlar bilan aloqa shakllarini, chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani bo'yicha o'quv-moddiy bazaga qo'yiladigan talablarni bilishlari va

ularni amalda qo'llay olishlari uchun yetarli ilm-malaka va ko'nikmalar berishdan iborat.

O'quvchi-yoshlar ta'lim olayotgan paytlarida o'zlarida askarning yoshlarni O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safiga xizmatga tayyorlash masalalari bo'yicha majburiyatlarini bajarishida zarur bo'lgan siyosiy, ahloqiy, ruhiy tayyorgarliklarini yuqori bo'lishini va Vatan himoyachisi sifatlarini mujssamlashtirishlari shart. Hozirgi kunda Qurolli kuchlarimiz tarkibidagi harbiy qism va bo'limalarni puxta bilimga ega bo'lgan shaxsiy tarkib bilan to'ldirish, uning siyosiy, manaviy, axloqiy ruxiy, vatanparvarlik tarbiyasiga alohida e'tibor berish muhim shartlardan biri hisoblanadi. Shaxsiy tarkibning yuqoridagi qayd etilgan sifat va fazilatlarini shakllantirishni, tarbiyalashni faqat harbiy kadrlar tayyorlash bilim yurtlari, qism komandirlari va harbiy boshliqlarning vazifasi deb hisoblash to'g'ri bo'lmaydi. Ma'lumki armiya safida o'z bo'ysunuvchilarining faoliyatlariga komandir va boshliqlar ma'suldirlar. Lekin sifat va fazilatlarni shakllantirishga kelganda armiya safigacha bo'lgan ta'lim tarbiya o'rnining ahamiyati katta. Ayniqsa umumta'lim maktablari, o'rta-maxsus va o'rta kasb-hunar ta'limi muassasalarida chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fanini sifatli va samarali o'qitilishini ahamiyati bu borada muhim.

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek «Eng katta boylik – bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros – bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlikdir». Umumiy o'rta maxsus va boshlang'ich professional ta'lim muassasalarida «Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik»ni o'qitilishi haqida O'zbekiston Respublikasining «Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida»gi Qonunning 13-moddasida quyidagicha qayd qilingan: «Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik, shu jumladan fuqaro mudofaasi va tibbiy bilim asoslari bo'yicha tayyorgarlik o'quv dasturidagi majburiy fan bo'lib, umumiy o'rta, o'rta maxsus va boshlang'ich professional ta'lim muassasalarida chaqiruvga qadar tayyorgarlik fani o'qituvchilari tomonidan bitirish yili arafasidagi kurslardan yoki sinflardan boshlab o'tiladi». Bundan tashqari ushbu ustuvor vazifalar O'zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», «Mudofaa to'g'risida»gi Qonunlarida, Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-iyun kunidagi qarori bilan tasdiqlangan «2023-2027-yillarda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirish Konsepsiyasi», 2023-yil 8-noyabr kunidagi Qarori bilan tasdiqlangan «Ta'lim muassasalarida chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlikni tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizomi» va O'zbekiston Respublikasi Mudofaa Vazirligining buyruq va talablarida ham o'z ifodasini topgan. Ko'rinib turibdiki 1999-yil yanvaridan e'tiboran Qurolli Kuchlarda boshlangan harbiy islohotlar strategiyasining nazarda tutgan, mamlakatimiz tinch, osoyishtaligini ishonchli va samarali himoya qilishga qodir tezkor, yaxshi ta'minlangan Qurolli Kuchlarni tuzish maqsadini amalga oshirish faqat oliy harbiy o'quv muassasalarining vazifasi deb o'ylash, masalaga faqat bir tomonlama qarashdir. Bu borada chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik muhim ahamiyat kasb etadi.

Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fanini takomillashishi va rivojlanishi, Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fanining maqsad vazifasi

borasida bir qancha ilmiy izlanishlar olib borilayotganligi, davlat chegaralarining o'z qo'shinlarimiz tomonidan hushyorlik bilan qo'riqlanayotganligi mamlakatimizda olib borilayotgan ilmiy ishlar natijasi desak adashmaymiz. Yoshlarimizni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

Yoshlarimizni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash borasida biz nimalarga e'tibor berishimiz kerak? Qanday ilmiy izlanishlar olib borishimiz kerak?

Bu borada birinchi masala yoshlarimizga ota-bobolarimiz bosib o'tgan yo'llarini to'g'ri tushuntirish (ishontirish usuli) dir. Buyuk tariximiz, ulug' ajdodlarimizning boy ma'naviy merosi, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi sarkardalarning jahon sivilizatsiyasi hamda harbiy san'at rivojiga qo'shgan hissalarini yoshlar o'rtasida keng targ'ib qilishimiz, shuningdek Vatan ozodligi va mustaqilligi yo'lida jon fido qilgan yurtdoshlarimiz ko'rsatgan vatanparvarlik va qahramonlik, ulardagi sadoqat, fidoiylik, matonat hamda jasorat kabi xislatlarni, qolaversa yurt, oila, ota-ona va farzandlar himoyasi xalq va ajdodlar xotirasi oldida muqaddas burch ekanini yoshlar ongiga singdirishimiz lozimdir.

Ikkinchi masala (tarbiya) agar biz yoshlarimizni vatanparvarlik ruhida tarbiyalay olsak kelajakga ko'chmas poydevor qo'ydim deb ayta olamiz. Hozirgi kunda yoshlarni turli ko'rinishdagi vayronkor g'oyalar ta'siridan asrash, ularni milliy g'oya va Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning onggida Vatan himoyasi sharafli va muqaddas burch ekanligini singdirish eng muhim vazifalarimizdan biridir. O'quvchi-yoshlarda yon-atrofimiz va jahonda ro'y berayorgan siyosiy-ijtimoiy jarayonlarga milliy mamfaatlarimizdan kelib chiqqan holda yondashish ko'nikmalarini, ommaviy axborot vositalari, shu jumladan Internet jahon axborot tarmog'i orqali tarqatilayotgan g'arazli axborotlar, odob-axloqni yemiruvchi illatlar, yoshlarni zalolatga boshlovchi buzg'unchi g'oyalarga qarshi sog'lom dunyoqarashni shakllantirishimiz muhimdir.

Uchunchi masala (o'qitish o'rgatish) bu eng dolzarb masalalardan biridir. Biz qanchalik yoshlarimizni to'g'ri o'rgatsak, o'qitsak ularda o'zlariga bo'lgan ishonchlarini yana bir bor uyg'otgan bo'lamiz. Yoshlarimizni harbiy-vatanparvar qilib tarbiyalashda avvalambor biz ularga milliy qadriyatlarimizni o'rgatamiz va o'qitamiz. Bu yoshlarimizni harbiy-vatanparvar bo'lib tarbiyalanishida katta samara beradi. Hozirgi shiddat bilan o'zgarib borayotgan zamonning o'zgarishiga katta tasir ko'rsatayotgan fan, texnikalar borasidagi o'zgarishlar, ularni boshqarish masalalarini to'g'ri tushuntirish orqali biz ularda harbiy texnikalarni boshqarishga bo'lgan qiziqishlarini oshirib boramiz. Bu borada bizga Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani katta yordam beradi. Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining tarkibiy qismi ekanligi nazariy bilimlarga asoslanib isbotlangan. Chunki, ushbu fan O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining asosiy zaxirasini tayyorlash uchun yordam beradigan fan hisoblanadi va uni ilmiy, bilimli haqiqiy vatanparvar yoshlar bilan to'ldirishga xizmat qiladi. Shuning uchun ham mazkur fan o'quv dasturi o'quvchi-yoshlar maktabni bitirgach, mamlakat Qurolli Kuchlari safiga chaqirilar ekan, qisqa vaqt ichida zamonaviy qurollar va jangovar texnikalarni o'zlashtira olishi uchun

ularni yosh askar ega bo'lishi lozim bo'lgan darajadagi bilim va ko'nikmalar bilan qurollantirishni ko'zda tutadi.

Xulosa o'rnida, Haqiqiy mustaqil davlat shunday ish tutadi, o'z mudofaasini o'zgalari qo'lga topshirib qo'ymaydi. Xalqning umumiy harbiy ruhini ko'tarishda, harbiylarni matonatli, shijoatli qilib tarbiyalashda ajdodlarimizdan bizga meros qolgan harbiy bilimlarni ommalashtirish, harbiy san'at sirlarini umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'qitish ham samara beradi.

Foydalanilgan adbiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi . T.: 2023-y.
2. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni. 2020 -y.
3. O'zbekiston Respublikasining «Mudofaa to'g'risida»gi qonuni.2018-y.
4. O'zbekiston Respublikasining «Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida»gi qonuni. 2002-y.
5. «Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik» (10-sinf) o'quv dasturi 2022-y.
6. «O'smirlarni chaqiriqqacha tayyorlash to'g'risidagi Nizomi» 2014-y.
7. Vazirlar Mahkamasining Qarori bilan tasdiqlangan «2023-2027-yillarda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirish Konsepsiyasi» 2023-y.

MAKTABGACHA TA'LIM TARBIYACHISI PEDAGOGIK FAOLIYATIGA KREATIV YONDASHUVNI SHAKLLANTIRISH

*Aminova G.N. – Buxoro Psixologiya va xorijiy tillar instituti
Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim kafedrasida tadqiqotchisi*

Zamonaviy ta'lim barcha turdagi ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan tarbiyachi, pedagoglarning ijodkor bo'lishlarini taqozo etmoqda.

“Kreativlik” tushunchasi o'zida madaniy xilma-xillikni aks ettiradi. G'arb kishilari uchun kreativlik, umuman olganda, yangilik sanaladi. Ular kreativlik negizida noan'anaviylik, qiziquvchanlik, tasavvur, hazil-mutoyiba tuyg'usi va erkinlik mavjud bo'lishiga e'tiborni qaratadilar. Sharqda esa, aksincha, kreativlikni ezgulikning qayta tug'ilish jarayoni, deb tushunadilar. Garchi g'arblik va sharqliklarning kreativlik borasidagi qarashlari turlicha bo'lsa-da, biroq, har ikki madaniyat vakillari ham mazkur sifat va unga egalikni yuqori baholaydilar.

Pedagogning kreativligi - bu uning innovatsion yondashuvlari bilan shakllanadi. Pedagogning kreativligi - tashabbuskorlikni, samarali muloqotni, yuksak siyosiy va ijtimoiy mavqeni, oldindan ko'ra olish, vaziyatni tezda payqab olishlari zarur. O'ziga ishonchi bo'lmagan pedagog vaziyat o'zgarishi bilan, o'z qarorini o'zgartirib turadi. O'z shaxsiga va qobiliyatiga ishonmagan odam o'zgalarda ham ishonch uyg'ota olmaydi. Kreativlikning mohiyati - intellekt insonning aqliy salohiyati bo'lsa, kreativlik ana shu aqliy salohiyatni maqsadga yo'naltirgan holda erkin ishlata olish qobiliyati hisoblanadi.

Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg'ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo'ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi. Kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida ham aks etadi. Qolaversa, kreativlik zehni o'tkirlikni belgilab beradi, "ta'lim oluvchilar e'tiborini ta'lim jarayoniga faol jalb etishni ta'minlaydi". Kasbiy faoliyatda pedagogning kreativligi turli shakllarda namoyon bo'ladi. Ular quyidagilardir: axborot, shu jumladan, kompyuter texnologiyasi yordamida pedagog - tarbiyachi tomonidan kreativ yondashuv asosida tayyorlanib, ta'lim jarayonida samarali foydalanish mumkin bo'lgan ijod mahsulotlari sanab o'tiladi.

Multimedia mahsulotlari – o'zida AKTning dasturiy va texnik imkoniyatlari asosida audio, video, matn, grafika va animatsiya effektlari asosida o'quv materialini tinglovchilarga etkazib berilishini mujassamlashtirgan ishlanma (mahsulot)lar.

Audio va video vizual materiallar – o'quv axborotlarini kompyuter texnologiyasi yordamida ovozi va vizual shaklda qabul qilinishini ta'minlovchi materiallar.

Video animatsiyalar – chizilgan (rasmi) yoki kichik hajmli obraz (hajmiy, qo'g'irchoq yoki o'yinchoqli obyekt) larni harakatga keltirish va bu harakatning har bir bosqichini ketma-ket suratga olinganligini ifodalovchi elektron tasvirlar.

Prezentatsiya (*taqdimot; lot. "praesentatio" – taqdim etish*) – muayyan mavzu yoki muammo bo'yicha o'quv (ilmiy, amaliy) xarakterdagi materiallarning ish qog'ozlari (oddiy yoki vatman qog'ozlar) hamda axborot-kommunikatsion vositalar (kompyuter, proektor, protsesor va b. qurilmalar) yordamida taqdim etilishi.

Tarbiyachi – pedagoglarda kreativlikni tarbiyalash mezonlari-kasb talablariga javob beruvchi maxsus bilim, ko'nikma, malaka va shaxs sifatleri majmuasidan iborat. U ijtimoiy foydali natijalarni olishga yo'naltirilgan bo'lib, pedagogning o'z-o'zini boshqarish natijasida shakllantiriladi.

Aqlning peshqadamligi belgilangan muddatda ko'pchilik o'ylab ko'rishga ulgurmaydigan muammolar bo'yicha bir emas, balki bir necha yechimlarni ko'rsata olish hamda ularning barchasining o'ziga xos salbiy va ijobiy tomonlarini asoslab bera olish qobiliyati.

Tafakkurning egiluvchanligi – jamiyatda qabul qilingan va an'anaviy mavjud bo'lgan, aslida to'g'ri deb o'ylangan yo'nalishlar va tamoyillarning zamonaviy taraqqiyot uchun javob bera olmay qolganligini anglash, yangi yo'nalish va choralarni sezish, ularni tafakkur qila olish va shakllantira bilish, o'z faoliyatini yangidan qura olish va masala yechimining yangi yo'nalishlariga o'zini safarbar eta olishdir.

Bashorat qila olish esa - o'z sohasi rivojidadagi istiqbol o'zgarishlar mohiyati, kelib chiqish sabablari va yuzaga kelish muddatlarini tafakkur tahlili orqali oldindan anglash tafakkuri hisoblanadi. Masalan, mehnat unumdorligining ko'tarilishi va pasayishi, konyuktura yoki bozorning o'zgarishi hamda mazkur o'zgarishlarning sohaga bo'lgan ta'siri, narxlarning ko'tarilishi va pasayishi v.b.

Tarbiyachi pedagog doim mas'uliyatni his qilishi lozim. Uning kreativ tafakkuridagi aqlning peshqadamligi va egiluvchanligini maxsus abstrakt mashqlar

va bilimlar asosida tarbiyalash mumkin. Kreativ tafakkur maqsadga yo'naltirilgan, ammo shu vaqtgacha ma'lum bo'lmagan va an'anaviy tarzda tajribaga kiritilmagan batamom yangi usul, yo'l, vositalarning tanlanishi va ishlab chiqilishini anglatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Азизходжаева Н.Н. Педагогические технологии и педагогическое мастерство. Издателско-полиграфический творческий дом им.Чулпана. Т.; 2005. -200 с.
2. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari / Muslimov N.A., va b.qalar. – Toshkent, 2015. – 120 b.
3. Umumiy pedagogika Darslik 1-qism /O.Musurmanova va boshq. – Toshkent, Yoshlar nashriyot uyi, 2020. -376 b.
4. G'oziyev E. Tafakkur psixologiyasi. - T: O'qituvchi, 1990.

HARBIY XIZMATCHI VA XODIMLARNI INTERNET TARMOG'IDAN FOYDALANISH MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH

*Anorboyev Farrux Rustamovich – O'zbekiston Respublikasi
Milliy gvardiyasi Jizzax mintaqaviy o'quv markazi
“Huruqiy fanlar” sikli boshlig'i, mayor*

Tabiyki, hozirgi kunda ushbu omilga bo'lgan ehtiyojmandlar soni kundan kunga ortib bormoqda. Mazkur tarmoq butun dunyo miqyosida global tarmoqdir. Zero unda mavjud yangiliklardan xabardor etuvchi matnlar, tasvir hamda ovoz xizmatlari va bir qator imkoniyatlar barcha jabhada katta yengilliklarni yuzaga keltirayotgan bo'lsada, ammo ikkinchi tomondan insoniyatni beixtiyor virtual olamga jalb etib bormoqda.

“Internet” bu – xozirgi zamon talabidagi yagona ommabop kompyuter tarmog'i hisoblanib, bizga barcha sohalarga oid noaniqlik ya'ni ongimizga mavhum bo'lgan tushunchalar haqida ochiq, oddiy va ravon ma'lumot beruvchi axborot manbaidir.

Ayniqsa bu ta'sir doirasidan harbiy xizmatchilar ham yo'q emas. Bu borada mutahasislarning so'zlari quyidagi natijalarni isbotlamoqda: internet tarmog'idagi ijobiylik insonning fan, soha va faoliyatiga bog'liq muhim aniq dalillarga ega bo'lishida har tomonlama qulayligi va tegishli vaqt miqdorining tejalishiga olib kelishi kundek ravshan, lekin qiziquvchanlik sababli “Internet” axborotlaridagi ortiqcha ma'lumotlarga haddan ziyod berilib ketishlaridir. Izlanuvchanlik, fikriy rivojlanish, mushoxada, taxlil qilish qobilyati va xotiraning o'tkirlik darajasini susaytirishga sabab bo'lmoqda. Ma'lumki, “Internet” vositasidan foydalanish hech kimga majburiy bo'lmagan va insonning o'z tafakkuridan kelib chiqqan qonun qoidalar asosida bo'lishi kerakligi hamda undagi me'yor talablari, ya'ni “Internet” tarmog'idan axborotlarni to'g'ri tanlash har jihatdan o'rinlidir. Bundan ko'rinib turibdiki, ushbu tarmoq vositasining o'z ichiga qamrab olgan axborotlar miqyosi shu qadar keng va ko'p ekanligi gohida o'zimizga kerakli bo'lgan ma'lumotlarni ajratib olishimizda ham qiyinchilik tug'dirmoqda. Barchamzga ma'lumki, Internetda

ishlashimiz uchun qidiruv tizimining o'rnini beqiyos. O'zingizga kerakli barcha ma'lumotlarni shu kabi biron bir saytning "izlash" katakchasiga yozib, chiqarilgan ko'pgina ma'lumotlar ichidan o'zingizga keraklisini tanlab olaverasiz yoki ma'lum bir saytning manzili yodingizdan ko'tarildimi, yana o'sha qidiruv sistemalari yordamga keladigan saytga aloqador kalit so'zlarini terasiz va qarabsizki o'sha sayt qarshingizda namayon bo'ladi. Internet tarmog'ida: "Yahoo", "Google", "Ref.uz" singari yana boshqa nomlar bilan ataluvchi qidiruv tizimlari mavjud. Yuqoridagi qidiruv dasturlari haqida batafsil va umumiy ta'rif berishda ularni biror bir tizim orqali *masalan*, "Google" tizimini tushuntirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu kompaniya Internetdagi yetakchi qidiruv tizimi hisoblanadi, dunyo bo'ylab tarmoq foydalanuvchilarning o'ntadan yettitasi u yoki bu ma'lumotlarni topish ilinjida aynan mana shu saytga murojat qilishadi. Tizim har kuni 50 millionga yaqin so'rovlarni qabul qiladi, sakkiz milliard veb sahifalarni idetifikatsiya qiladi. U 101 tildagi axborotni izlab topishi mumkin. Keyingi yillarda butun dunyo internet foydalanuvchilari orasida keng ommalashib borayotgan "Google" tizimi 1998 – yil sentabrda ishga tushgan. Hozirda bu kompaniyaning qidiruv tizimlaridan tashqari yana bir qator foydali va qulay xizmatlari mavjud va ular soni ortib bormoqda.

Darhaqiqat, hozirda nafaqat "Internet" tarmog'i vujudga kelganligi, bundan tashqari shu kabi jahonaro rivojlanib keayotgan turli – tuman axborot texnologiyalar harbiy xizmatchi va xodimlarga ijobiy ta'sir kuchini o'tkazayotganligini bir tomondan quvonarli bo'lsa – da, ikkinchi tomondan ularni turli salbiy saboqlardan asrash maqsadida tarbiyaviy muhitni kuchaytirishga undaydi.

Bugungi kunda xarbiy xizmatchi va xodimlari radio–televideniya, matbuot, "Internet" kabi vositalar orqali rang barang axborot va ma'lumotlarni olmoqda.

Jaxon axborot maydoni tobora kengayib borayotgan shunday bir sharoitda xarbiylarimiz ongini o'rab – chirmab, uni o'qima, buni ko'rma deb bir tomonlama tarbiya berish, ularning atrofini temir devor bilan orab olish hech shubhasiz zamonning talabiga ham bizning ezgu maqsad – muddaolarimizga xam to'g'ri kelmaydi.

Nega deganda biz yurtimizda ochiq va erkin demokratik jamiyat qurish vazifasini o'z oldimizga qat'iy maqsad qilib qo'yganmiz va bu yo'ldan hech qachon qaytmaymiz.

Binobarin, biz davlatimiz kelajagi o'z qobig'imizga o'ralib qolgan holda emas, balki umumbashariy va demokratik qadriyatlarni chuqur o'zlashtirgan holda tasavvur etamiz. Biz istiqbolimizni taraqqiy topgan mamlakatlar tajribasidan foydalanib, davlat va jamiyat boshqaruvini erkinlashtirish inson huquqi va erkinliklarini fikrlar rang – barangligini o'z hayotimizda yanada kengroq joriy qilishda ko'ramiz. Biz butun ma'rifatli xalqaro hamjamiyat bilan tinch – totuv, erkin va farovon hayot kechirish o'zaro manfaatli xamkorlik qilish tarafdorimiz.

Xozirgi zamon axborot tizimi uning, juda keng imkoniyatlaridan kelib chiqib aytish mumkinki, O'zbekistonda axborot olish, saqlash, foydalanish va tarqatishning umumiy manfaat va umumiy taraqqiyot nuqtai nazaridan boshqaruv mexanizmini yaratish, uning moxiyati va unsurlarini chuqur anglash zarur bo'lib qolmoqda. Ana shu hayotiy extiyojdan kelib chiqib axborot sohasida milliy xavfsizlikni ta'minlash

tizimini yaratishning quydagi usullarini qo'llash madaniyatini zarur deb hisoblaymiz:

Birinchiidan, sotsiologik yo'nalish. Bunda axborot olish va tarqatish jarayonida jamiyat taraqqiyotining axborotini ijtimoiy voqelik sifatidagi roldan kelib chiqib, jamiyatda shakillanayotgan ijtimoiy ong yo'nalishlari ijtimoiy tafakkur darajasi va uning oqimlarini o'rganishni yo'lga qo'yish kerak.

Aholi turli qatlamlari, qarashlari, kasbiy va boshqa ijtimoiy holatlari asosidagi fikirlash tarzini aniqlab borish zarur.

Ikkinchiidan, statistik yo'nalish. Ko'p millatli mamlakatda, hususan, 130 dan ortiq millat va elat yashayotgan, 20 ga yaqin diniy konfessiyalar faoliyat ko'rsatayotgan O'zbekistonda millatlararo va dinlararo mojarolarni turli siyosiy manfaatlar va buzg'unchi g'oyalar tasirida kelib chiqishi mumkin bo'lgan nizolar manbalarini o'rganib borish, bu borada aniq hisob – kitoblarga tahliliy yechimlarga ega bo'lish.

Uchinchiidan, siyosiy konfliktologiya va siyosiy psixologiya. Axborot psixologik xavf avj olayotgan bir paytda, turli buzg'unchi g'oyalar inson ongi va tafakkuriga o'z ta'sirini o'tkazayotgan bir sharoitda siyosiy mojarolar kelib chiqish mumkin bo'lgan manbalarni o'rganish, omillarini aniqlash hamda siyosiy qarashlari, ruhiyati, ijtimoiy – siyosiy psixologik izchil ravishda o'rganib borilmog'i lozim.

To'rtinchiidan, mantiqiy tizimiy va funksional tahlil. Axborot tizimi, xususan, axborot psixologik ta'sir axborot siyosati tizimi va vositasining muxim qismi sifatida baxolashi lozim. Voqelikka ana shu tarzda yondashib, ilmiy – taxliliy nazariy va amaliy xulosalar chiqarish kerak. Tig'iz axborotlashgan jamiyatda axborot oqimi ta'sirida shakillanayotgan ijtimoiy fikr fan nuqtai nazaridan izchil o'rganilmog'i lozim.

Beshinchiidan, axborot tizimida milliy istiqlol g'oyasining ustuvorligi. Har qanday fuqoro axborot bazasidan “maxsulot” tanlash jarayonida uning qalbida, ruxiyatida, kayfiyatida, fe'l atvorida, bularning barchasining oqibati sifatidagi hatti – xarakati va munosabatida mafkuraviy immunitet ustuvorligini ta'minlash. Albatta, O'zбекистон mustaqillikning 31 yili mobaynida ommaviy axborot kommunikatsiyasi soxasida jiddiy o'zgarishlar yuz berdi. Eng avvalo har bir fuqaroning so'z va fikr erkinligi, axborot olish va tarqatish huquqi Konstitutsiya bilan kafolatlangan.

Ommaviy axborot vositalari to'g'risidagi bir qator qonunlar yaratildi va amalda qo'llanilmoqda. Mustaqil nashrlar soni keskin ko'paydi. Bularning hammasi mamlakat ichki hayotida milliy axborot tizimining o'ziga xos taraqqiyotidan dalolat beradi.

Yana shuni takidlash lozimki, “Internet” vositalaridan o'rin olgan jamiki axborot va ma'lumotlarning hammasi ham real haqqoniy emasligi ayni paytda ayon bo'lmoqda. Bundan kelib chiqib aytish joizki, olinayotgan dalillarning qay darajada to'g'riligini ongli ravishda mushohada etish maqsadga muvofiqdir.

Shundagina “Internet” orqali egallayotgan bilimlarimiz hayotimizda ijobiy samara berishiga ishonch xosil qilish mumkin.

Harbiy xizmatchi va xodimlarilarimizning ma'naviy olamida bo'shliq vujudga kelmasligi uchun ularning qalbi va ongida sog'lom hayot tarzi milliy va

umummilliy qadriyatlarga hurmat – ehtirom tuyg‘usini har doim shakillantirishimiz zarur.

Shuni unutmash kerakki, bugungi kunda inson ma’naviyatiga qarshi yo‘naltirilgan bir qarashda arziyasiz bo‘lib tuyuladigan kichkina xabar ham axborot olamidagi globalashuv shiddatidan kuch olib, ko‘zga ko‘rinmaydigan, lekin zararini hech narsa bilan qoplab bo‘lmaydigan ulkan ziyon yetkazishi mumkin.

IJTIMOYIY TARMOQ, YOT G‘OYALAR VA GLOBAL AXBOROT XURUJLARINING YOSHLARIMIZ MA’NAVYIY ONGIGA TA’SIRI

Avlaqulov Bobir Ro‘ziqulovich – Toshkent amaliy fanlar universiteti “Psixologiya” kafedrasi o‘qituvchisi,

Avlaqulov Avazjon Ismoilovich – Toshkent amaliy fanlar universiteti “Chet tillar” kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Bugungi kunda axborot xurujlariga qarshi kurash barcha davlatlarning milliy xavfsizligi nuqtai nazaridan hal etilishi zarur bo‘lgan dolzarb va muhim muammo va vazifaga aylandi. Axborot makonining yordami bilan aholining barcha qatlamlarining axborotga bo‘lgan ehtiyoji qondiriladi, jamiyat hayotida shaxslararo, millatlararo, davlatlararo kommunikativ munosabatlar o‘rnatiladi va rivojlanadi. Maqolada aholining siyosiy faolligini oshirish, fuqarolarning mamlakat siyosiy va ijtimoiy hayotidagi amaliy ishtirokini oshirish, axborotning ijtimoiy-siyosiy sohadagi o‘rni keng jamoatchilikka ochiq bo‘lgandagina muhokama qilinadi.

Kalit so‘zlar: demokratik, siyosiy va ijtimoiy hayot, zamonaviy kommunikatsiya, axborot inqirozi, axloqiy-ma’naviy, psixologik-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy.

Аннотация: сегодня борьба с информационными атаками стала актуальной и важной проблемой и задачей, которую необходимо решать с точки зрения национальной безопасности всех государств. С помощью информационного пространства удовлетворяются потребности всех слоев населения в информации, в жизни общества устанавливаются и развиваются межличностные, межэтнические, межгосударственные коммуникативные отношения. В статье обсуждается необходимость повышения политической активности населения, практического участия граждан в политической и общественной жизни страны, роль информации в социально-политической сфере только в том случае, если она открыта для широкой публики.

Ключевые слова: демократическая, политическая и социальная жизнь, современное общение, информационный кризис, морально-духовный, психологический и политический, социально-экономический.

XXI asrga xos globalashuv natijasida xalqaro integratsiya jarayonlari jadal rivojlanmoqda. Yigirmanchi asrning oxiriga kelib dunyoning siyosiy qutblaridan biri – sotsialistik lager yo‘qoldi, “sovuq urush” esa tarixning siyosiy sahnasidan

yo'qoldi. Ammo insoniyat sivilizatsiyasining yangi bosqichida qudratli davlatlar o'z manfaatlaridan kelib chiqib, yangi mustaqil davlatlar yoki dunyoda taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan mamlakatlarga ta'sir o'tkazishga harakat qilmoqda. Bu xurujlar insoniyatning ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyot yo'liga hali to'la o'tmaganidan, urushlarsiz yashayotganidan dalolat beradi.

Bugun biz demokratik jarayonlarni chuqurlashtirish, aholining siyosiy faolligini oshirish, fuqarolarning mamlakatimiz siyosiy va ijtimoiy hayotida amaliy ishtirokini ta'minlash haqida bormoqda, ularsiz axborot erkinligimiz yaxshi bo'ladi.

Bu maqsadlarga rotatsiyasiz erishib bo'lmashligini tushunamiz. Axborot - taqdim etish shaklidan qat'i nazar, har qanday shaxs, ob'ekt yoki dalillar to'g'risidagi ma'lumotlar, shuningdek hodisalar, hodisalar va jarayonlar to'g'risidagi ma'lumotlar. O'z-o'zidan ma'lumki, axborot keng omma uchun ochiq bo'lsagina ijtimoiy-siyosiy sohada o'zining yangilanish rolini o'ynashi mumkin. Bu faqat demokratiyada mumkin.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev global ijtimoiy xavf, radikalizm va ekstrimizm xavfi ortayotganini takidlab 06.07.2022 yildagi navbatdagi ma'ruzasida quyidagi mulohazalarni keltirib o'tadi: "Hozirgi vaqtda dunyoning turli mintaqalarida yangi keskinlik o'choqlari paydo bo'lmoqda, millatlar va konfessiyalar o'rtasida qarama-qarshiliklar kuchaymoqda, turli ijtimoiy axborot xavflari, radikalizm va ekstrimizm xavfi tobora ortib bormoqda.

Mana shunday tahlikali sharoitda biz barqarorlik va xavfsizligimizga ziyon yetkazadigan har qanday tahdid va xatarlarga keskin qarshi turishimiz shart. Ayni vaqtda shuni e'tirof etish kerak-ki, mamlakatimizning izchil va barqaror rivojlanishidan manfaatdor bo'lmagan buzg'unchi tashqi kuchlar ham mavjud.

Ushbu kuchlar tomonidan yurtimizdagi osoyishta vaziyatni izdan chiqazish, fuqorolarimizning ishonchiga kirib, ularni to'g'ri yo'ldan chalg'itishga qaratilgan g'arazli maqsadlar amalga oshirishga va bunday urinishlar bundan keyin ham sodir bo'lishi mumkin." [1]

Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek: "Axborot erkinligini ta'minlamay turib, ommaviy axborot vositalarini odamlar o'z fikr va g'oyalarini erkin ifoda etish minbariga aylantirmasdan, demokratiyani chuqurlashtirmasdan, aholining siyosiy faolligini oshirmasdan turib, amaliy ishtirok bo'lmaydi. fuqarolarning siyosiy va jamoat hayotida" [2,191]. Ma'lumki, fuqarolarning axborot sohasidagi huquq va erkinliklarini ta'minlash masalasi shaxsning axborot olish, axborot va shaxsiy fikrini tarqatish huquqi va erkinligini o'zida mujassam etgani O'zbekistonda demokratik jamiyat qurishning muhim shartidir.

Zamonaviy ommaviy axborot vositalari va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining mutlaqo yangi avlodini yaratish jamiyatda axborot almashish, qayta ishlash va maqsadli yo'naltirish uchun misli ko'rilmagan imkoniyatlar yaratdi. Bugungi kunda axborot texnologiyalarining rivojlanish sur'atlari uning imkoniyatlarini kengaytirdi.

Inson ongiga siyosiy maqsadlarda ta'sir etuvchi tizimli axborot texnologiyalarini yaratish natijasida ulardan siyosiy maqsadlarda foydalanish samaradorligini bir necha barobar oshirdi.

Shunga ko'ra, bugungi kunda barcha davlatlarning milliy xavfsizligi nuqtai nazaridan axborot xurujlariga qarshi kurashish dolzarb va muhim muammo va hal etilishi zarur bo'lgan vazifaga aylandi. Axborot makonining yordami bilan aholining barcha qatlamlarining axborotga bo'lgan talab va talablari qondiriladi, jamiyat hayotida shaxslararo, millatlararo, millatlararo, davlatlararo kommunikativ munosabatlar o'rnatiladi va rivojlanadi. Shuningdek, axborot makoni jamiyatning axloqiy, ma'naviy, psixologik, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy ruhiyatini shakllantiruvchi va yo'naltiruvchi axborot munosabatlari tizimidir. Hozirgi vaqtda yosh mustaqil davlatlarning milliy axborot va psixologik xavfsizligiga qarshi urush olib borishning eng zamonaviy texnologiyalaridan biri axborot hujumiga axborot-psixologik ta'sir ko'rsatish hisoblanadi.

Axborot-psixologik ta'sirga asoslangan axborot xuruji – muayyan davlat yoki jamiyatdagi mavjud konstitutsiyaviy tuzumni, siyosiy va ijtimoiy muhitni buzishga, shuningdek, aholi o'rtasida davlatga qarshi norozilik kayfiyatlarini shakllantirishga qaratilgan axborot-psixologik texnologiya. Ushbu texnologiya axborot materiallarini intensiv, tizimli va tezkor tarqatishni talab qiladi.

Bugungi kunda butun dunyo bo'ylab ma'lum bir davlat yoki jamiyatga (agar ma'lumot internetda joylashtirilgan bo'lsa) axborot xuruji tarqalishi uchun ikki-uch daqiqa kifoya qiladi.

Mutaxassislarning fikricha, axborot xurujlariga qarshi samarali kurashish uchun nima “axborot-psixologik ta'sir”ga duchor bo'lganligi va axborot hujumlari nishoniga aylanganini aniq bilish zarur [2,138.]

Birinchidan, axborot-psixologik sezgirlik jamiyatning qaysi darajasida ko'proq yo'naltirilgan? U qaysi ijtimoiy guruhga mansub? Ularning muammosi nima, ular hozir va kelajakda nimaga qiziqadi? Bunday savollarga javoblar aniq bo'lishi kerak;

Ikkinchidan, milliy miqyosda innovatsiya niqobi ostida kutilayotgan axborot va psixologik tahdid va xavf-xatarlar yo'nalishlarini aniqlash;

Uchinchidan, axborot-psixologik xurujlardan jamiyat hayotida, ayniqsa, yoshlar oldida yechimini kutayotgan dolzarb muammolardan samarali foydalanilmoqda [4,176]. Axborot-psixologik hujum qisqa vaqt ichida mo'ljallangan holatning axborot himoyasini butunlay yo'q qiladi.

Ichki va tashqi axborot makonida ko'plab axborot manbalari o'z mazmuniga ko'ra, real voqelikni buzuvchi kompromat material yoki axborot ko'rinishida harakatlanadi va mavjud bo'ladi. Xalqaro axborot makonida turli axborot manbalarining o'zaro ta'siri axborot hujumlarini amalga oshirish imkonini beradi. Har qanday hujum singari, axborot hujumining mohiyati ham inson ongini yo'q qilish va uni o'ziga xos asoratga aylantirish, uni psixologik qaramlik holatiga aylantirishdir. Bu siyosiy jarayonlarning motivlarini va shaxsni siyosiy tarbiyalash, axborot xurujlariga qarshi immunitetni shakllantirish va rivojlantirish va ularga faol ta'sir ko'rsatish masalalarining mohiyatini bilishni talab qiladi [5,1].

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar ommaviy axborot vositalari oldiga yangi vazifalarni qo'yimoqda. Ommaviy axborot vositalari aholining yangicha tafakkuri, tafakkuri va yangi ongini shakllantirishda harakatlantiruvchi kuch bo'lishi, shu bilan birga, xalq fikrini erkin va xolis ifoda eta olishi zarur.

Axborot xurujlarining ko‘rinishlari xilma-xil bo‘lgani uchun ularning har birining imkoniyatlarini o‘rganish va tahlil qilish, shu bilan birga ularga qarshi immunitetni shakllantirish zarur. Zamonaviy dunyoda axborot hujumlarining turli usullari va ko‘rinishlari o‘z tajribasiga ega va ko‘plab mamlakatlarning milliy xavfsizligiga tahdid solmoqda.

Xatto, zamonaviy dunyoda ijtimoiy axborot xuruji xam konstitusiyaviy kafolatlarga jiddiy xavf deb baholash lozim. Insoniyat taraqqiyotining tarixiy yo‘li ba‘zan “Zamon senga boqmasa, sen zamonga bok!” iborasiga amal kilishidan dalolat beradi.

Demak, Konstitusiyamiz, milliy mafkuramiz, tariximiz, etnopsixologiyamiz har bir fuqaro uchun hayotiy dasturiamal, huquqiy tarbiya hamda iftixor manbai, huquqiy qurol, ishonchli qalqon bo‘lib xizmat qilishi zarur va ogohlik davr talabi bo‘lib qolaveradi.

Farzandlarimizga Vatan, Millat, dini va qadriyatlariga muhabbatli bo‘lish xissinini uygotish, ilmga ishtiyoqini oshirish, xiyonat, sotqinlik, beparvolik kabi illatlarga “Jaholatga qarshi ma‘rifat” bilan qarshi kurashishni shakllantirishimiz lozim.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Sh.Mirziyoyev radikalizm va ekstremizm xavfi to‘g‘risidagi ma‘ruzasi. Toshkent.:06.07.2022 [1]

2. Karimov I. O‘zbekiston jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh qilish yo‘lida // O‘zbek xalqi hech qachon hech kimga qaram bo‘lmaydi. T. 13. T.: “O‘zbekiston”, 2005. [2]191-bet.

3. Umarova N. Globallashuv sharoitida axborot xurujlariga qarshi kurash. // Toshkent. "Akademiya", 2005. [3]138-bet.

4. Karimov I.A. Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch. T.: Ma‘naviyat, 2008. [5]B. 176.

5. Juraev N. Mafkuraviy immunitet. T.: Ma‘naviyat, 2000. B. 1.

BOSHQARUV PSIXOLOGIYASIDA LIDERLIK MASALASINING ZAMONAVIY MUAMMOLARI

Avlaqulov Bobir Ro‘ziqulovich – Toshkent amaliy fanlar universiteti “Psixologiya” kafedrasi o‘qituvchisi,

Qo‘chqarov Jasurbek O‘ktamboy o‘g‘li – Geologiya fanlari universiteti, Ta‘lim sifatini nazorat qilish bo‘limi bosh mutaxassisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada yoshlarda liderlik xususiyatlarini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari bugungi bozor iqtisodiyoti talablarini inobatga olgan holda bayon etilgan. Ta‘lim-tarbiya jarayonida talabalarda liderlik qobiliyatning tutgan o‘rni haqida so‘z yuritilgan. Shuningdek maqolada rahbar va liderlik o‘zaro farqli jihatlari tahlil qilingan.

Kalit soʻzlar: lider, liderlik psixologiyasi, yetakchi, oʻquvchi, lider, muloqot, psixologik omil, introvert.

Mamlakatning umumiy taraqqiyoti individual komillikning yigʻindisi, koʻrinishi sifatida namoyon boʻladi. Xalqimiz mentalitetiga xos boʻlgan ana shu oʻziga xoslik, yaʼni jamoaga qarab fikrlash, qaror qilishdan iborat mazkur tamoyildan kelib chiqib, yoshlarda liderlik koʻnikmalarini shakllantirish va boshqaruv mahoratini rivojlantirish katta ahamiyatga ega. Yetakchi, eng muhimi, u yoshlar bir-birlarini muloqotda yoʻl topishi, ular bilan hamnafas boʻlib, ularni yuksak maqsadlar sari boshlaydigan, ularning haqiqiy yordamchisiga, maslahatgoʻyiga, maslakdoshiga aylanishi zarur.

“Yetakchi” soʻzi guruh aʼzolariga taʼsir oʻtkazuvchi va maqsadga yetaklovchi shaxsga nisbatan qoʻllaniladi. Ilmiy adabiyotlarda baʼzan “lider” soʻzini “yetakchi” atamasi bilan almashtirish hollari ham uchraydi. Yetakchi - oʻz atrofidagi odamlarning fikri va xulq-atvoriga ijobiy taʼsir oʻtkaza oladigan, maqsadli vazifalarni amalga oshirish qobiliyatiga va yuqori shaxsiy mavqega ega boʻlgan ijtimoiy guruh aʼzosi. Yetakchilikguruh tarkibini, undagi munosabatlar tizimini tahlil etish orqali insonda shakllangan qobiliyatga suyanish va qobiliyatni imkoniyatga qarab, namoyon etish holatidir.

Yosh yetakchi degani oʻziga tengdosh shaxslar manfaatlari uchun qonun doirasida faol ish yuritishni anglatadi. Yetakchi oʻz kuchiga ishongan, jasur va xarizmatik inson boʻlishi lozim. U, hatto, yosh avlodning himoyachisi boʻla oladi. Odatda, yosh yetakchilar tengdoshlari orasida ajralib turadigan yorqin xislatlarga ega shaxslardir. Ular nafaqat tengdoshlarini oʻziga jalb qila oladi, balki oʻzidan katta yoshdagilar bilan ham tez til topisha oladi. Bunday yetakchi tengdoshlaridan koʻra koʻproq maʼlumotga ega boʻladi, bu esa unga muhim masalalarni hal etish imkonini beradi.

Mehnat jamoasidagi har bir xodim guruhda oʻz mavqeiga ega. Bu mavqe rasmiy yoki norasmiy tarzda boʻlishi mumkin. Rasmiy mavqe xodimning mansab pogʻonasidagi oʻrni va uning lavozimidankelib chiquvchi vakolatlari bilan fodalanadi. Har bir xodim oʻz hamkasblari bilan oʻzaro munosabatda boʻlar ekan, turli omillar taʼsirida bu munosabatlar samimiy tus ola boshlaydi.

Hissiyotga asoslangan munosabat ikki koʻrinishda boʻladi:

–yoqtirish (simpatiya) va yoqtirmaslik (antipatiya). Shunday xodimlar ham borki, ular maʼlum xislatlari bilan jamoaning koʻpchilik aʼzolarini oʻziga jalb qiladi, ular guruhning norasmiy tizimida yuqori mavqe egallaydi.

Psixologik talqin boʻyicha jamoaning rasmiy tizimida yuqori mavqeni egallovchi xodim rahbar hisoblansa, norasmiy tizimda yuqori mavqeni egallovchi shaxs lider. Lider, odatda, guruhning norasmiy munosabatlar tizimida namoyon boʻladi. Muayyan shaxsning lider darajasida tan olinishi unga ruhan yaqinlikni, uning ish bilan bogʻliq qator fazilatlarini yuqori baholashni, ushbu shaxsning guruh manfaatlariga eʼtibori kuchliligini anglatadi.

Lider –guruhning hamma aʼzolari tomonidan tan olingan shaxs lider. Liderning qadriyatlar tizimidagi asosiy jihati guruh manfaatini har narsadan ustun qoʻyish, guruh oldiga qoʻyilgan vazifani hal etishga sidqidildan kirishib, bu

jarayonga jamoani safarbar eta bilishidir. Mehnat jamoasidagi yetakchi, avvalambor, ishchanligi va ijtimoiy faolligi bilan ajralib turadi.

Rahbarlik –lavozim, lider guruh tomonidan saylangan shaxs. Agar rahbar va lider o‘rtasidagi farqqa e‘tibor beradigan bo‘lsak, rahbar xodimlarga ega, liderning esa hamfikir tarafdorlari mavjud. Rahbar tayinlanib, boshqaruvda hokimiyatga suyansa, lider jamoa a‘zolari orasidan saylanib, jamoaga tayanadi. Ba‘zi jamoalarda rasmiy rahbar va lider alohida shaxs bo‘ladi. Bunday jamoa guruh a‘zolari rahbardan ko‘ra norasmiylider tarafida bo‘lishi ko‘p uchraydi. Jamoada rasmiy rahbar va norasmiy liderning o‘zaro munosabati jarayonida ko‘pgina rahbarlar yetakchini siqib chiqarishga, hatto, undan qutilishga intilsalar, ba‘zi rahbarlar lider guruh maqsadi va manfaatiga erishish yo‘lida foydalanishga intiladi.

Rasmiy rahbar va guruh lider alohida-alohida shaxs bo‘lsa, ular o‘rtasidagi kelishmovchilik xodimlar tomonidan ijtimoiy adolatning buzilishi sifatida idrok etiladi. Lider bilan kelishuvesa guruhdagi kuchlarni tan olish, oqillik yo‘lini tanlash, deb baholanadi. Guruhda norasmiy liderning mavjudligi rahbar uchun guruh a‘zolari bilan iliq munosabat o‘rnatishda qo‘shimcha ko‘prikdir. Lekin rasmiy rahbar bilan norasmiy yetakchi manfaati bir-biriga zid bo‘lishi, mos kelmasligi ham mumkin. Bu esa jamoadagi turli nizolarga sabab bo‘ladi. Mehnat jamoasidagi har bir xodim guruhda o‘zining mavqeiga ega. Bu mavqe rasmiy yoki norasmiy tarzda qo‘lga kiritilgan bo‘lishi mumkin. Rasmiy mavqe xodimning mansab pog‘onasidagi o‘rni va uning lavozimidan kelib chiquvchi vakolatlari bilan ifodalanadi. Har qanday xodim o‘z hamkasabalari bilan o‘zaro munosabatda bo‘lar ekan, turli omillar ta‘sirida bu munosabatlar xissiy rang ola boshlaydi. Xissiyotga asoslangan munosabatlar ikki ko‘rinishda:

- yoqtirish (simpatiya) va yoqtirmaslik (antipatiya) sifatida shakllanadi. Shunday xodimlar ham borki, ular o‘zining ma‘lum xislatlari bilan jamoaning ko‘pchilik a‘zolarida simpatiya uyg‘ota oladilar va ular guruhning norasmiy tizimida yuqori mavqeni egallaydilar. Psixologik talqin bo‘yicha, jamoaning rasmiy tizimida yuqori mavqeni egallovchi xodim rahbar bo‘lib hisoblansa, norasmiy tizimda yuqori mavqeni egallovchi shaxs esa lider.

Liderlik holati, odatda, guruhning norasmiy munosabatlar tizimida amalga oshadi. Biron-bir shaxsning lider darajasida tan olinishi unga borliq bo‘lgan qator fazilatlarini yuqori baholashni va ushbu shaxsning guruh manfaatlariga e‘tiborliligini anglatadi.

Lider - guruhning aksariyat a‘zolari tomonidan tan olingan shaxs. Liderning qadriyatlar tizimidagi asosiy jihati - guruh manfaatini har narsadan ustun qo‘yish, doimo guruh oldiga qo‘yilgan vazifani yechishga sidqidildan kirishish va bu jarayonda jamoani safarbar eta olishidir.

Mehnat jamoasidagi lider avvalambor o‘zining ishchanlik xususiyatlari bilan farqlanib turadi, chunki, u aynan mehnat faoliyati tufayli boshqalardan ajralib ko‘zga tashlana boshlaydi. Bundan tashqari, lider, jamoa manfaatini himoya etar ekan, kezi kelganda rasmiy munosabatlar tizimiga va rasmiy doiralar manfaatiga ham zid chiqa oladi. Natijada, jamoada rasmiy rahbar va norasmiy lider o‘rtasida ziddiyat paydo bo‘lishi mumkin. Korxonada yokitashkilot manfaatidan kelib chiqsak,

jamoadagi rasmiy rahbar va norasmiy tizimda shakllanuvchi lider bir shaxs orqali ifodalanishi eng maqbul xoldir.

Bugungi kunda zamonaviy liderlar kamayib boroyotganligi hammamizga ma'lum, shuning uchun yosh zamonaviy liderlarni yetkazib chiqarish dolzarflik kasb etmoqda. Har bir sohada liderlarni izlab topish va ularni qo'llab-quvvatlab turish lozim. Chunki, bugungi kun jamiyatiga ham mukammal shaxslar albatta kerak. Barcha ta'lim tizimida yoshlarning ijodiy iste'dodlarini rivojlantirishga katta e'tibor qaratish lozim. Ustozlarning asosiy vazifalaridan biri – izdoshlarning tashabbuslari, innovatsion g'oya va fikrlarini, iste'dod va iqtidorini o'z vaqtida ko'ra olishi va uni ro'yobga chiqarish uchun ko'makdosh bo'lish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. "Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz". – Toshkent: "O'zbekiston", 2017 y.
2. Mirziyoyev Sh.M. Oliy Majlisga Murojaatnoma. – Toshkent, 2020 yil. 24 yanvar.
3. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008.
4. Lewin. K. (1935) Shaxsning dinamik nazariyasi. Nyu-York: McGraw-Hill.
5. www.Ziyonet.uz
6. www.google.uz

PSIXOLOGIYADA SUHBAT METODI

Avlaqulov Bobir Ro'ziqulovich - Toshkent amaliy fanlar universiteti "Psixologiya" kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya. Psixolog yoki sotsiolog va sub'ekt o'rtasida oldindan ishlab chiqilgan reja bo'yicha suhbatni o'tkazishdan iborat bo'lgan psixologik og'zaki-kommunikativ metod. Suhbat metodi suhbatdoshlarning qat'iy tashkil etilishi va teng bo'lmagan funktsiyalari bilan ajralib turadi. Psixolog-suhbatdosh, sub'ekt-responentga savollar beradi, shu bilan birga u bilan faol dialog o'tkazmaydi. O'z fikrini bildirmaydi va o'zining shaxsiy xususiyatlarini oshkor etmaydi. Maqsadga yo'naltirilgan mavzu yoki berilgan savollarga javoblarni baholaydi.

Kalit so'zlar: psixolog, sotsiolog, sub'ekt, reja, suhbat, psixologik og'zaki-kommunikativ usul.

Psixologning vazifalari orasida respondentning javoblari mazmuniga uning ta'sirini minimallashtirish va qulay muloqot muhitini ta'minlash kiradi. Psixolog nuqtai nazaridan suhbatning maqsadi respondentdan butun tadqiqot maqsadlariga muvofiq tuzilgan savollarga javob olishdir.

Suhbat turlari:

Rasmiylashtirish darajasiga ko'ra:

- Standartlashtirilgan, yarim standartlashtirilgan. Bunday suhbatda savollarning matni va ularni berish ketma-ketligi oldindan belgilanadi.

- Nostandart, erkin yoki yo'naltirilmagan suhbat. Bunday suhbat davomida psixolog faqat tadqiqot maqsadlariga muvofiq tuzilgan umumiy rejaga amal qiladi, vaziyat haqida savollar beradi. Moslashuvchanligi tufayli u standartlashtirilgan intervyu bilan solishtirganda psixolog va respondent o'rtasida yaxshiroq aloqa qilish imkonini beradi.

- Yarim standartlashtirilgan yoki maqsadli intervyu. Ushbu turdagi suhbatni o'tkazishda psixolog qat'iy zarur va mumkin bo'lgan savollar ro'yxatini boshqaradi.

Tadqiqot bosqichi bo'yicha

- Dastlabki suhbat. Tajribali o'rganish bosqichida foydalaniladi.

- Asosiy suhbat. Asosiy ma'lumotlarni yig'ish bosqichida foydalaniladi.

- Nazorat suhbat. Bahsli natijalarni tekshirish va ma'lumotlar bankini to'ldirish uchun foydalaniladi.

Ishtirokchilar soni bo'yicha

- Individual intervyu – suhbatda faqat muxbir (psixolog) va respondent (sub'ekt) ishtirok etadi.

- Guruh suhbat – ikkidan ortiq kishi ishtirok etadigan suhbat.

- Ommaviy intervyu – yuzlab va minglab respondentlar ishtirok etadigan intervyu asosan sotsiologiyada qo'llaniladi.

Suhbatni psixologik maslahatning asosiy usuli sifatida tavsiflab, biz quyidagi dastlabki fikrlardan kelib chiqamiz: maslahatchi psixolog mijozning buyrug'i bilan ishlaydi. Agar ushbu tartib dialogik ishlarni o'z ichiga olsa, u holda u maxsus belgilangan vaqtda yoki boshqa psixodiagnostika mutaxassisi tomonidan amalga oshiriladi. Maslahatchi psixolog tashxis qo'ymaydi, u ushbu tahlil uchun maxsus bilimlardan foydalangan holda mijozning holatini tahlil qiladi;

Intervyu - mijozning xatti-harakatlari, tajribalari, his-tuyg'ulari, fikrlari, maqsadlari uchun muqobil variantlarni yaratish uchun, ya'ni uning ichki dunyosining ko'proq harakatchanligini yaratish maqsadida mijozning o'ziga xos buyurtma holatini tahlil qilishning maxsus usullaridan biridir.

Intervyu amaliy psixologning boshqa ish usullaridan nimasi bilan ajralib turadi? Birinchidan, intervyu har doim individualdir, u psixolog va mijoz o'rtasidagi o'zaro ta'sir mavzusini qurishni o'z ichiga oladi. O'zaro ta'sir mavzusi mijozning ichki dunyosi bo'ladi, u tasvirlangan usullar psixolog va mijoz o'rtasidagi o'zaro ta'sir mavzusini tashkil qiladi.

Masalan, mavzu mijozning tajribasi bo'lishi mumkin yoki mijozning harakatlari alohida mavzu bo'lishi mumkin.

Ammo intervyu o'tkazish uchun muhim bo'lgan narsa shundaki, mijoz va psixolog o'rtasidagi munosabatlarni belgilaydigan o'zaro ta'sirning predmeti mijozning ichki dunyosi bo'ladi. Suhbat jarayoni mijozning turli mavzularni muhokama qilishda uning ichki dunyosiga munosabatini o'zgartirishga qaratilgan - uni yanada dinamikroq qilish.

Suhbat mavzusi mijoz tomonidan ma'lum, qat'iy individual hayot kontekstida belgilanadi, masalan, ota-onaning qobiliyatsizligi tajribasi, turli kontekstlarda so'ralishi mumkin; masalan, to'liq bo'lmagan oila, qayta turmush qurish yoki ota-ona emas, balki vasiylik huquqiga ega bo'lgan shaxs.

Mavzuning paydo bo'lishi kontekstini tiklash intervyularni psixologik yordamning boshqa usullaridan ajratib turadi, chunki nafaqat kontekst haqidagi ob'ektiv ma'lumotlar, balki mijozning ularga bo'lgan munosabati, uning ushbu kontekstdagi roli ko'rsatilgan mavzuning muhim tarkibiy qismi ham hisoblanadi.

Buyurtma mavzusi va uning konteksti bilan ishlaydigan psixolog suhbat davomida mavzu mazmuni bo'yicha o'zining shaxsiy prognozlarini doimiy ravishda kuzatib borishi kerak, biz ularni suhbatning pastki matni deb ataymiz. Ushbu subtekstni suhbatga psixologning o'zi kiritishi mumkin, agar u suhbat davomida shaxsiy prognozlarining mazmunini ajratib qo'ymasa.

Bular intervyu paytida mijoz bilan o'zaro munosabatda bo'lganida, psixolog o'z shaxsiy muammolarini proektsiyalash, uzatish, sublimatsiya qilish va o'z shaxsiyatining himoya mexanizmlarining boshqa variantlari orqali hal qiladi va ulardan bexabar bo'ladi.

Intervyu mijozning hozirgi va potensial imkoniyatlarini ochib beradigan savollar va maxsus topshiriqlar orqali mijozga ta'sir qilishni o'z ichiga oladi.

Adabiyotda odatda intervyu jarayonining besh bosqichli modeli tasvirlangan. Keling, buni batafsil ko'rib chiqaylik:

Suhbatning birinchi bosqichi - bu tizimlashtirish, o'zaro tushunishga erishish yoki ko'pincha "Salom!"

Bir necha soniyadan o'n daqiqagacha davom etishi mumkin bo'lgan ushbu birinchi bosqichda psixolog va mijoz qanday maqsadlarni hal qiladi? Psixolog mijoz bilan o'zaro munosabatlarining mavzusi nima bo'lishini aniqlash orqali vaziyatni tuzadi. U mijozga uning imkoniyatlari haqida ma'lumot beradi. Shu bilan birga, psixolog mijoz bilan aloqa o'rnatish, muvofiqlik va munosabatlarni o'rnatish muammolarini hal qiladi. Ushbu muammolarning o'ziga xos echimlari mijozning individual va madaniy xususiyatlariga bog'liq.

Suhbatning ushbu bosqichida mijoz psixologik qulaylikka erishish muammosini, ya'ni suhbatdagi vaziyatni va psixologning shaxsiyatini hissiy va kognitiv qabul qilish vazifasini hal qiladi.

Suhbatning ushbu bosqichi psixolog va mijoz o'rtasidagi yozishmalarga erishilganda tugaydi, ular buni taxminan quyidagi formulada ifodalashlari mumkin: "Men uni his qilaman, men uni tushunaman" (psixolog), "Ular meni tinglashadi, men bu odamga ishonam" (mijoz).

Suhbatning ikkinchi bosqichi - odatda mavzu mazmuni haqida ma'lumot to'plash bilan boshlanadi: muammo aniqlanadi; mijozning potensial imkoniyatlarini aniqlash masalasi hal qilinadi. Suhbatning ushbu bosqichini belgilash: "Muammo nima?"

Psixolog quyidagi savollarni hal qiladi: mijoz nima uchun keldi? U o'z muammosini qanday ko'radi? Ushbu muammoni hal qilishda uning imkoniyatlari qanday? Belgilangan mavzuga asoslanib, psixolog mijozning muammoni hal qilishda ijobiy imkoniyatlarini tushunadi.

Mijozning maqsadlari aniq tushunilgach, psixolog mavzuni aniqlashga qaytadi.

Shundan so'ng, intervyuning uchinchi bosqichi boshlanadi, uni istalgan natija deb ta'riflash mumkin. Suhbatning ushbu bosqichining belgisi "Siz nimaga erishmoqchisiz?"

Psixolog mijozga o'z idealini aniqlashga yordam beradi va u nima bo'lishni xohlaydi. Istalgan natijaga erishilganda nima bo'lishi haqida ham muhokama qilinadi.

Ba'zi mijozlar ushbu bosqichda boshlanadi. Agar psixolog mijozning maqsadlari haqida allaqachon aniq bo'lsa, unda darhol tavsiyalar berilishi kerak.

Suhbatning to'rtinchi bosqichi - muqobil echimlarni ishlab chiqish. Ushbu bosqichning yorlig'i "Bu haqda yana nima qilishimiz mumkin?"

Psixolog va mijoz muammoni hal qilishning turli xil variantlari bilan ishlaydi. Muqobil variantlarni izlash qat'iylikka yo'l qo'ymaslik va alternativalar orasidan tanlash maqsadida amalga oshiriladi. Psixolog va mijoz mijozning shaxsiy dinamikasini o'rganadilar. Ushbu bosqich uzoq davom etishi mumkin.

Psixolog o'zi uchun to'g'ri bo'lgan qaror mijoz uchun noto'g'ri bo'lishi mumkinligini hisobga olishi kerak, shu bilan birga, ba'zi mijozlar uchun aniq direktiv tavsiyalar kerak.

Suhbatning beshinchi bosqichi - oldingi bosqichlarni umumlashtirish, o'rganishdan harakatga o'tish. Ushbu bosqichning belgisi "Siz buni qilasizmi?" Psixolog suhbatdan tashqarida mijozlarning fikrlari, harakatlari va his-tuyg'ularini kundalik hayotida o'zgartirishga harakat qiladi. Maslahat amaliyotidan ma'lumki, ko'plab mijozlar o'zgartirish uchun hech narsa qilmaydi.[1]

Psixolog tomonidan amalga oshirilgan umumlashtirish suhbatning birinchi bosqichlarida aniqlangan mijozning individual va madaniy xususiyatlarini hisobga oladi. Keling, suhbatning har bir bosqichini batafsil ko'rib chiqaylik. Birinchi bosqich "Salom!" – Bu aloqa o'rnatish va mijozni ishlashga yo'naltirish. Agar munosabatlar 5 daqiqada ishlamas, amaliyot shuni ko'rsatadiki, maslahat vaziyatini tuzatish qiyin.

Ushbu bosqichda psixolog mijozga o'zaro munosabatlardagi o'z pozitsiyasini ko'rsatadi. Bu, aloqadagi har qanday pozitsiya kabi, tenglik va tengsizlik nuqtai nazaridan tasvirlangan bo'lishi mumkin. Bu erda variantlar quyidagilar bo'lishi mumkin:

- 1) psixolog mijozdan yuqori pozitsiyani egallaydi;
- 2) psixolog mijoz bilan tenglik pozitsiyasini egallaydi;
- 3) psixolog mijozni o'zidan yuqori lavozimni egallashga taklif qiladi, ya'ni mijozga ergashishga tayyor.

Suhbat davomida pozitsiyalar o'zgarishi mumkin, ammo agar psixolog mijoz bilan o'zaro munosabatlar mavzusini o'ylab ko'rsa va unga intervyu mantig'ini kuzatish imkoniyatini bersa, bu professional intervyu holati bo'ladi.

Odatda, yaxshi intervyuning belgilariga quyidagilar kiradi: mijoz suhbat mantiqini tushunadi, bu uning faolligini oshiradi. Mijoz intervyu holatiga qiziqadi.

Psixologning pozitsiyasi testlar, o'yin texnikasi va proektiv vaziyatlar yordamida amalga oshirilishi mumkin.

Aloqani o'rnatish - bu psixolog va mijoz o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni fazoviy tashkil etish holati. Maslahatlashuv uchun alohida ofis yoki sun'iy ravishda

cheklangan joy bo'lishi kerak. Optimal fazoviy tartibga solish - zaif yorug'likdagi kofe stoli (bir-biridan 1,5 metr) bilan ajratilgan ikkita bir xil stul.

Suhbatning tezligi mijoz uchun ham, psixolog uchun ham bir xil bo'lishi kerak. Maslahat bilan shug'ullanadigan ko'plab amaliy psixologlar mijoz bilan uchrashish uchun stolni tark etishadi va uni kafedraga kuzatib borishadi.

Keyin quyidagi jumla keladi: “O'rnashib oling” va pauzadan so'ng kirish bo'ladi.

Mijozga teng asosda o'z pozitsiyasini yaratish imkoniyatini berish. Psixolog birinchi navbatda o'zini tanishtirmaydi. Mijoz birinchi navbatda o'zini tanishtiradi. Agar mijozning madaniy darajasi past bo'lsa, unda psixolog o'zini tanishtiradi va bir nechta qisqa, tushunarli iboralarni aytib, o'zining kasbiy imkoniyatlarini tushuntiradi. Ular nimani o'z ichiga olishi kerak? Psixolog kimligini, nima bilan shug'ullanayotganini aniqlab berishi va dori-darmonlar va maslahatlardan qat'iyon voz kechishi kerak.

Lug'atni tanlash katta ahamiyatga ega bo'ladi. Barcha baholash usullari (“bo'ldi”, “tashvishlar”, “ro'y berdi” va boshqalar), shuningdek, ilmiy terminlarga yaqin atamalar (ular orasida mijozlar uchun eng qo'rqinchli atama “muammo” dir, ammo shunday atamalar ham mavjud: (“munosabatlar”, “vositalar” va boshqalar).

Suhbat psixologning savol-taklifi asosidagi kirish so'zi bilan boshlanishi mumkin:

- Men sizni tinglayapman, yoki:
- O'zingiz haqingizda gapirib bering yoki:
- Meni nimaga olib keldi ...

O'zi haqida gapirish imkoniyati yaratiladi, ya'ni o'zaro ta'sir predmeti - mijoz va uning hayotidagi voqealar belgilanadi.

Aloqa o'rnatishda psixolog mijozga murojaat qilganda uning ismini ishlatishi kerak. Ma'lumki, ism va undan foydalanish mijozni boshqarish vositasidir. Ismni takrorlash kontakti individuallashtirish va mijozga ta'sir qilish uchun sharoit yaratadi.

Aloqaga chiqmaydigan mijozlar bor. Agar bunday mijoz o'n daqiqa ichida gapirmasa, unda uning rahbarligiga ergashmaslik va u orzu qilgan savollarni bermaslik tavsiya etiladi. Shunday qilib, psixolog maslahat maqsadlariga zid bo'lgan suhbat sharoitida mijoz va uning faoliyati uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga oladi.

Suhbatning ikkinchi bosqichida, mijoz haqida ma'lumot yig'ilganda, “Muammo nima?” degan savol hal qilinadi.

Suhbatning ushbu bosqichida psixolog mijoz haqida iloji boricha ko'proq ma'lumot olishga harakat qilib, mijozning buyrug'i paydo bo'lgan o'rganilayotgan kontekstning barcha tafsilotlarini tiklab, tergovchi sifatida harakat qilishi mumkin va ko'pincha kerak. Bunday holda, psixolog voqealar rivoji, voqealar ishtirokchilari va ularning aniq harakatlari haqida aniq savollar beradi. Barcha ma'lumotlar mijozni buyurtma konteksti va psixologik ma'lumotlarning kelib chiqishidagi roli haqida xabardor qilishga qaratilgan. Mijoz taxminan 15-20 daqiqa davomida o'zi haqida keng hikoya aytib beradi.

Bu vaqtda psixolog mijozning ichki dunyosining tuzilishi, mijozning ushbu ichki dunyosining modalliklari haqida taxminlar qiladi. Yuqorida aytib

o'tganimizdek, kontekstni tahlil qilish orqali psixolog quyidagilarni aniqlashi mumkin:

- mijoz o'z harakatlarining imkoniyatlari haqida nimani biladi;
- mijoz o'z maqsadlari haqida nimani biladi;
- mijoz o'z his-tuyg'ulari haqida nimani biladi;
- mijoz o'z fikrlari haqida nimani biladi,

Shuningdek, mijozni yanada harakatchan qilish uchun uning ichki dunyosining mazmuni haqida nimalarni bilishi kerakligi masalasini hal qiling.

Savollar berishda psixolog mijozning muammosining mazmunini aks ettiruvchi kalit so'zlarni o'z ichiga olgan mijozning matniga e'tibor qaratadi. Mijoz tomonidan aytilgan butun matnda ham, uning har bir iborasida ushbu mavzudagi o'zaro ta'sir mavzusini - mijozning ichki dunyosini, uning hayotidagi voqealarni aniqlaydigan kalit so'zlar mavjud.

Har qanday matndagi kalit so'zni quyidagi mezon bilan aniqlash mumkin: uni sinonim bilan almashtirib bo'lmaydi. Agar u almashtirilsa, unda butun matnning yoki matndagi alohida iboraning ma'nosi buziladi. Kalit so'z - bu o'zaro ta'sir mavzusini aniqlash. Psixolog savollar berish orqali mijozning hayotiy holatini tahlil qilishni u bilan kasbiy o'zaro munosabat mavzusiga yo'naltiradi. U bilan o'zining ichki dunyosi, hayotidagi voqealardagi o'rni haqida gapiradi. Psixolog o'zining professional ta'sirida mijozga uning hayotidagi voqealarda o'z ishtirokini ko'rsatadi. Shu bilan birga, u mijozning potentsial imkoniyatlarini aniqlaydi, xususan, unga optimistik mulohazalar bilan murojaat qiladi:

“O'zingizni o'zgartirish orqali siz boshqalarni o'zgartirasiz”,
“Atrofingizdagilar o'zgarishi uchun vaqt va sabr kerak” va hokazo.

Suhbat davomida psixolog mijozning ichki dunyosi haqida bir nechta farazlarni ilgari suradi va ularni o'z savollari bilan sinab ko'radi.

Psixologning savollariga javob berib, mijoz o'zining xatti-harakatlarini va bu vaziyatda boshqalarning xatti-harakatlarini tahlil qiladi va ulardan xabardor bo'ladi.

Psixolog mijoz bilan muhokama qiladigan farazlar mijoz uchun sodda va adekvat ifodalangan bo'lishi kerak. Bu yana bir bor psixologga yo'naltirilgan quyidagi qurilish qoidalariga javob berishi kerak bo'lgan adekvat intervyu tili muammosini keltirib chiqaradi:

- qiymat mulohazalari yordamida bo'rttirishga hojat yo'q;
- asosiy so'zga e'tibor qaratish - mijozning mavzusi;
- o'z nuqtai nazariningizni majburlamang;
- axborotni etkazish uchun oddiy so'z va tasvirlardan foydalanish;
- qisqa tuting.

Maslahat paytida mijozga Psixolog u haqida o'rgangan hamma narsani tushuntirishning hojati yo'q. Mijozning xatti-harakatlarida mantiqning versiyasini ko'rsatish uchun faktlar bilan tasdiqlangan bitta farazni aniq bayon qilish kifoya. Gipoteza mazmunini etkazish uchun psixolog mijozga o'z savollarining mazmuni orqali muammoning turli tomonlarini ko'rsatadi, shunda mijoz ushbu ma'lumotni qabul qilishi va tekshirishi mumkin. Buning uchun psixolog uchun mijozning bayonotiga asoslangan savol shaklida, mijoz uchun esa - bu savolga javob shaklida namoyon bo'ladigan teskari aloqaning taniqli printsiplari qo'llaniladi.[2]

Suhbatning ushbu bosqichida psixolog o'zi hal qilayotgan muammoning asosiy parametrlarini takrorlashga murojaat qiladi. Takrorlash maslahat tamoyillaridan biri bo'lib, mijozga ushbu ma'lumotni qabul qilishi va ishonishi uchun uning muammosining turli tomonlarini ko'rsatishga imkon beradi.

Konsalting, ma'lum ma'noda, mijozning xatti-harakatini berilgan mantiq bo'yicha soddalashtiradi, uning ichki dunyosini tuzadi. Insonning o'zi haqidagi hikoyada hissiy ishtirokisiz samarali bo'lmaydi. Psixolog uchun gipotezani tasdiqlovchi faktlarni to'plash va uni mijoz uchun soddalashtirish muhimdir.

Mijozning bu vaziyatda hissiy ishtiroki strukturaviy jarayonni belgilaydi. Ko'pgina mualliflarning fikriga ko'ra, ilgari surilgan gipotezaga asoslangan psixolog va mijoz o'rtasidagi suhbat 10 daqiqadan oshmasligi kerak. Agar psixolog allaqachon aniq ishlaydigan farazga ega bo'lsa, mijozning hikoyasini to'xtatish tavsiya etiladi. Mijozning maqsadlari psixolog tomonidan aniq tushunilgach, psixolog muammoni aniqlashga qaytishi kerak. Bu mijozga o'z muammosini ko'rish va ijobiy variantlarini aniqlashtirish imkonini beradi.

Suhbatning uchinchi bosqichi istalgan natijani anglash bosqichi sifatida belgilanishi mumkin: "Siz nimaga erishmoqchisiz?" Psixolog mijoz bilan birgalikda mijozning idealini belgilaydi - u kim bo'lishni xohlaydi; muammolar hal bo'lsa, uning hayotida nima bo'ladi. Agar mijoz va psixologga hamma narsa tushunarli bo'lsa, darhol tavsiyalar berilishi kerak. Ba'zi mijozlar bu erda boshlanadi.

Suhbatning ushbu bosqichi psixologning ta'sirini o'z ichiga oladi - maslahatning asosiy mazmuni. Bu mijoz uchun alohida ko'rinmaydi. Psixolog bilan suhbatda o'ziga xos "tushunish" paydo bo'ladi - mijoz o'z harakatlari natijasida sodir bo'layotgan o'zgarishlarni boshdan kechiradi ("Men hamma narsani o'zim tushundim"). Psixologning mijozning potentsialiga tayanishi intervyu holatida mijoz tomonidan sodir bo'lgan o'zgarishlar uning xatti-harakatlarida o'zgarishlarga olib kelishiga olib keladi.

Agar mijoz psixologning ta'siriga qarshilik ko'rsatsa va ta'sirning yumshoq shakllariga javob bermasa (yuqorida tavsiflangan), u holda psixolog mijozning qarshiligini aniqlaydi va u bilan ishlaydi, bu quyidagi shaklda bo'lishi mumkin: "Siz uchun buni qabul qilish qiyin, "Siz rozi bo'lishni xohlamaysiz ..."

Bu bizga mijoz tomonidan qarshilik ko'rsatadigan vaziyatni aniqlashga va shu bilan birga psixolog tomonidan mijozning yo'nalishini o'zgartirishga bo'lgan kuchli istakdan voz kechish, psixologning mijozning ma'lum darajada haq ekanligini tan olish istagini ko'rsatishga imkon beradi. .

Bu uni yumshatish istagi bilan ta'sirning kuchayishi, mijozga psixolog bilan kelishmaslik huquqini qoldiradi.

Muhim ta'sir nuqtasi shundaki, suhbat odatda odam haqidagi salbiy ma'lumotlar fonida sodir bo'ladi, chunki u ko'pincha hech narsa topa olmaydi. Psixolog uchun mijoz bilan mumkin bo'lgan ijobiy xatti-harakatlar variantlarini muhokama qilish juda muhim, bu xatti-harakat variantini qayta yaratish kerak. Siz hatto xatti-harakatlarning bunday og'zakilashuvida turib olishingiz mumkin.

Bunday vaziyatda test o'tkazish mijozga o'z shaxsiyatining noma'lum manbalarini topishga va e'tiborni u o'ylamagan imkoniyatlariga qaratishga imkon beradi.

Ijroiy munozara juda aniq bo'lmasligi mumkin, lekin u erda bo'lishi kerak. U bo'lishi mumkin! To'liq konsultatsiya bunga bag'ishlangan. Bu ta'sir bosqichini yakunlaydi. Uning davomiyligi taxminan 15 daqiqa.

Suhbatning to'rtinchi bosqichi muqobil echimlarni ishlab chiqish bo'lib, uni quyidagicha ta'riflash mumkin: "Biz bu borada nima qila olamiz?" »

Mijoz bilan ushbu muammoni hal qilishning turli xil variantlarini muhokama qilish, qat'iylikni engish uchun alternativlarni izlash va muqobillarni tanlash uchun sharoit yaratish. Shu bilan birga, bu uzoq muddatli bo'lishi mumkin bo'lgan shaxsiy dinamikani o'rganishdir.

Muqobil yechimlar bilan ishlaydigan psixolog doimiy ravishda o'z kasbiy pozitsiyasining mazmunini o'ylab ko'rishi va u uchun "to'g'ri" qaror mijoz uchun bir xil bo'lishi shart emasligini va ularning ba'zilari aniq direktiv tavsiyalarga muhtojligini yodda tutishi kerak.

Keling, turli xil nazariy yo'nalishdagi psixologlar tomonidan qo'llaniladigan ko'rsatmalar misollarini ko'rib chiqaylik:

Direktiv turi:

- Direktivning mazmuni

- Maxsus istak

"Men sizga quyidagilarni qilishni taklif qilaman ..."

- Paradoksal ko'rsatma

"Qilayotgan ishni qilishda davom et... Harakatlaringizni (fikrlaringizni) kamida uch marta takrorlang".

- Fantaziyalar

"Tasavvur qiling ...". "Ko'zlaringizni yuming va ko'rganlaringizni, eshitganlaringizni va his qilganlaringizni tasvirlab bering." Ideal kuningizni, ideal ishingizni, ideal sherigingizni tasvirlab bering". "O'z tanangiz ichida sayohat qilishni tasavvur qiling."

- Rol bo'yicha ko'rsatma

"Endi bu vaziyatga qayting va yana o'ynang." "Agar qarshi bo'lmasangiz, rolni bir xil saqlang, lekin xatti-harakatlarning kichik qismini o'zgartiring."

- Gestalt usuli bazal xulq-atvor

"Bir qo'lingiz qisilgan, ikkinchisi ochiq ekanligini payqadim. Bir qo'l boshqasiga gapirsin".

- Erkin uyushmalar

"Ushbu tuyg'uni eslang va bolalik xotiralaridan u bilan bog'liq uyushmalar haqida gapiring." "Kundalik hayotingizda nima sodir bo'layotganiga o'ting."

- Haddan tashqari baholash (Gendlin konsentratsiyasi)

"O'zingiz uchun salbiy his-tuyg'ular va fikrlarni o'rnatib. Endi o'zingiz uchun salbiy tajribalarni toping. Endi bu borada ijobiy narsani toping va diqqatingizni shu yo'nalishga qarating. Uni muammo bilan birlashtiring."

- Dam olish

"Ko'zlaringizni yuming va suzing, mushtlaringizni mahkam ushlang va endi qo'yib yuboring ..."

Stressni tizimli yo'qotish

a) mushaklarning chuqur bo'shashishi; b) tashvishlar ierarxiasini qurish; c) bezovtalik ob'ektlarini dam olish bilan bog'lash.

- Tillarni almashtirish

"Men xohlayotganimni o'zim xohlagan bilan almashtiraman, men xohlagan bilan almashtira olmayman." Har qanday yangi so'z o'zgaradi.

- Tuyg'ularni qabul qilish, "hissiy issiqlik"

"Bu tuyg'uga qayting, u bilan qoling, uni to'liq qabul qiling."

Suhbatning beshinchi va yakuniy bosqichi psixologning muammo bo'yicha mijoz bilan o'zaro munosabatlari natijalarini umumlashtirish, mashg'ulotdan harakatga o'tish shaklida umumlashtirishdir. Psixolog uchun mavjud bo'lgan umumlashtirish darajasi uning suhbatning dastlabki bosqichlarida individual va madaniy farqlarni hisobga olishiga bog'liq. Suhbatning ushbu bosqichida psixologning vazifalari mijozlarning kundalik hayotidagi fikrlari, harakatlari va his-tuyg'ularini o'zgartirishga yordam berishdir. Maslahat amaliyotidan ma'lumki, ko'plab mijozlar o'z xatti-harakatlarini o'zgartirish uchun hech narsa qilmaydi.

Psixolog buni xotirjam qabul qilishi kerak, chunki maslahatning ta'siri mijozning suhbat davomida boshidan kechirgan tajribasi bilan belgilanadi. Suhbat davomida mijozning holatining o'zgarishi uning samaradorligining asosiy ko'rsatkichidir. Psixolog uchun ushbu o'zgarishlarni ajratib ko'rsatish va ularni mijozga ochiq qilish qobiliyati ishning asosiy professional qoidasidir. Psixologning maslahatlashuv ta'sirini mijoz tomonidan salbiy baholanishidan qo'rqishning ma'nosi yo'q (garchi buni suiiste'mol qilmaslik kerak).

Birinchi suhbatning samarasini buzmasdan, yana ikki yoki uchta uchrashuv o'tkazish mumkin. Uchrashuvlar chastotasi yordamni yaxshilaydi degan illyuziya. Mijoz bilan o'zaro munosabatlar holati munosabatlarning tobora murakkab shakllarini o'z ichiga oladi, vaziyat tobora muammoli bo'lib boradi.

Maslahatlashuvni uy vazifasi bilan yakunlash yaxshidir, mijozga uy vazifasini bajarish (mos kelmasligi) to'g'risida hisobot berish zarurligini unutmang. Shu tarzda, suhbat davomida mijoz bilan sodir bo'lgan o'zgarishlar mazmunini kuzatish vositalari safarbar qilinadi.

Psixolog uy vazifasini tushunish va bajarish oson bo'lgan sodda shaklda tuzilganligini va undagi muayyan vaziyat va harakatga qaratilganligini ta'minlashi kerak.

Mijoz bilan keyingi uchrashuvda vazifani muhokama qilib, siz o'rganilayotgan vaziyatni yangicha ko'rishingiz mumkin. Agar mijoz uy vazifasini bajarmagan yoki qisman bajargan bo'lsa, u bilan topshiriqni bajarmaslik sabablari muhokama qilinadi.

Suhbat oxirida psixolog mijoz bilan xayrlashib, kelajakdagi uchrashuvni va'da qiladi, xotirjam va sekin mijoz bilan xayrlashadi.

Suhbat psixologik maslahatning asosiy usuli hisoblanadi, chunki bu psixolog mijozning muammolari bo'yicha professional qarorlar qabul qiladigan vaziyatdir. Aynan shunday vaziyatda psixologning eng muhim kasbiy fazilatlarini namoyon bo'ladi va shakllanadi - mijoz bilan o'zaro munosabatlar holatini shaxsiy va professional tarzda aks ettirish.

Maslahat berish nafaqat psixolog va mijozning og'zaki reaksiyalarini tahlil qilishdan iborat. Psixologning suhbat davomida mijoz bilan og'zaki bo'lmagan o'zaro ta'sirlari haqida fikr yuritishi ham muhim emas. Og'zaki bo'lmagan til quyidagilarni aks ettirishini hisobga olish kerak: mijoz bilan o'zaro munosabatlar shartlari (suhbat vaqti va joyi, ofis dizayni va boshqalar); axborot oqimi (nutq nutqining ma'nosi og'zaki bo'lmagan tarzda ifodalanishi mumkin); o'zaro muloqotda ishtirokchilar tomonidan mavzu mazmunini izohlash. Psixologning diqqatni jalb qilishning asosiy qobiliyatlari uning mijoz bilan vizual aloqasida (individ qachon va nima uchun ko'zlariga qarashni to'xtatadi), tana tilini tahlil qilishda (eng ma'lumotli bo'lgan moyillik o'zgarishi deb hisoblanadi) namoyon bo'ladi. tanasi), nutqning intonatsiyasi va turini aniqlashda (so'zlayotgan narsaning balandligi va boshqalar), shuningdek, mavzudagi barcha o'zgarishlarni hisobga olgan holda.[3]

Muvaffaqiyatli suhbatda psixolog va mijoz o'rtasida muvofiqlashtirilgan yoki nosimmetrik harakatlar sodir bo'ladi.

Maslahatchi uchun suhbatning samaradorligini baholash masalasi ko'pincha paydo bo'ladi. Bu masala, ayniqsa, mijoz suhbat natijalarini salbiy baholagan hollarda - professional muammo sifatida paydo bo'ladi.

Maslahatchi psixologning ishi doimiy shaxsiy va professional fikrlashni talab qiladi, bu esa mutaxassisning energiya imkoniyatlariga va uning neyropsik barqarorligiga yuqori talablarni qo'yadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nikandrov V.V. Psixologiyada og'zaki-kommunikativ usullar. Sankt-Peterburg: Rech,[1] 2002.
2. Belanovskiy, S. A. Individual chuqurlashtirilgan suhbat. - M.: Niccolo-Media, - 320 b.[2]
3. Merton R., Fiske M., Kendall P. Yo'naltirilgan intervyu / Tarjima. ingliz tilidan T. N. Fedorovskaya, ed. S. A. Belanovskiy. - M., 1991 yil.
4. Kvale S. Tadqiqot suhbat / Tarjima. ingliz tilidan M. R. Mironova. - M.: Smysl, 2003. - 301 p.[3].

ZAMONAVIY JANG VA UNING HARBIY XIZMATCHILAR PSIXOLOGIYASIGA TA'SIRI

*Axmedov Baxtiyor Shodiyorovich –
O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari
Kichik mutaxasislarni tayyorlash markazi
Gumanitar va ijtimoiy fanlar sikli o'qituvchisi,
zaxiradagi podpolkovnik*

Zamonaviy harbiy harakatlarda g'alabaga erishishda harbiy xizmatchilarning yuksak ma'naviyati va jangovar fazilatlarini muhim o'rin egallaydi. Harbiy harakatlar jarayoni va natijasi ko'p jihatdan harbiy xizmatchilarning jangovar va ruhiy holatiga bog'liq. Tarixdan yaxshibilamizki, ikkinchi jahon urushi, Afg'on urushi, shuningdek, mamlakatimiz Sariosiyo va Uzun tumanlaridagi terrorchilarga qarshi

maxsus operatsiyalarda ishtirok etgan harbiy xizmatchilarning ko'rsatgan qahramonliklari, jangovar va ruhiy holatiga bog'liq ekanligi bir necha bor o'z tasdig'ini topgan. Jangchining shaxsiyati o'zaro bog'langan va bir-birini to'ldiradigan axloqiy va jangovar fazilatlar bilan belgilanadi.

Adabiyotlarda axloqiy va jangovar fazilatlarining to'rtta guruhi ajratiladi: axloqiy, psixologik, professional jangovar va jismoniy sifatlari. Yuqorida keltirilgan sifatlari tavsifini qisqacha ko'rib chiqaylik. Harbiy xizmatchining axloqiy fazilatlariga shaxsning egilmas, jo'shqin, mustahkam irodaga ega yuksak jangovar qobiliyati, axloqi, dunyoqarashi, ijtimoiy ahamiyatga ega qadriyatlar, burch va vatanparvarlik tuyg'usi, Vatan himoyasi uchun shaxsiy javobgarlik, sha'ni, jamoatchilik, o'zaro yordam berish kabi fazilatlar kiradi.

Harbiy-pedagogik jarayonning tarkibiy qismidan biri bu harbiy xizmatchilarning psixologik tayyorgarligi bo'lib, psixologik barqarorlik va psixologik tayyorgarlikni rivojlantirishga qaratilgan. Shaxsiy tarkibning harbiy harakatlarga psixologik tayyorgarligi harbiy xizmatchining psixologik fazilatlarini shakllanganligi bilan belgilanadi, ular psixologik jarayonlar (idrok, diqqat, fikrlash, xotira, nutq), reaksiyalarning aniqligi, tezligi, irodaviy va hissiy barqarorlikdir. Harbiy xizmatchining psixologik fazilatlarini rivojlantirish professional jangovar va jismoniy fazilatlarini namoyon qilish uchun zarur sharoitni yaratib beruvchi eng muhim omildir. Axloqiy va jangovar fazilatlarini tarbiyalashning jihatlaridan biri harbiy xizmatchilarda mustahkam irodaga ega yuksak jangovar qobiliyati, mardlik, chidamlilik, fidoyilikka shaylik, faollik va maqsadga muvofiqlikni tarbiyalashdir. Askarlarning zamonaviy janglarni muvaffaqiyatli olib borishga, harbiy texnika va qurollardan mohirona foydalanishga tayyorgarligi professional jangovar fazilatlarining shakllanganlik darajasi bilan belgilanadi. Kasbiy jangovar fazilatlar yuksak harbiy mahorat, jangovar tayyorgarlik, texnika va zamonaviy qurollarga oid nazariy va amaliy bilimlar, rivojlangan taktik-texnik tafakkur, jangovar faollik, intizom, o'z kasbiga g'urur va harbiy xizmatga muhabbat bilan ajratib turadi.

Harbiy xizmatchining jismoniy sifatlari, jismoniy rivojlanishi, tayyorgarligi, uning jiddiy jismoniy zo'riqish va uzoq davom etadigan hissiyotli ta'sirlanishga bardosh bera olishi, harbiy xizmatning qiyinchiliklariga bardosh bera olish qobiliyatining ko'rsatkichi sifatida qaralishi kerak. Shuni ta'kidlash kerakki, axloqiy va jangovar fazilatlarining shakllanishiga insonning irsiy, biologik xususiyatlari katta ta'sir ko'rsatadi, ular asab tizimining xususiyatlari, temperament turi, tana tuzilishi, yosh va gender xususiyatlarini o'z ichiga oladi. Harbiy-pedagogik jarayonning tarkibiy qismlaridan biri harbiy (askariy) o'rtoqlik bu harbiy xizmatchilar jamoasidagi uyushqoqlik va jangovar qudratga sezilarli ta'sir o'tkazuvchi o'zaro munosabatlarning axloqiy-huquqiy me'yoridir.

Askariy o'rtoqlikning keng tarqalgan shakllari:

jangda bir-biriga ko'rsatadigan yordam (madad);

o'qish va xizmatda bir-biriga ko'rsatadigan yordam;

halok bo'lgan quroldoshlar xotirasini e'zozlashda o'z ifodasini topadi.

Mavjud ma'naviy-jangovar fazilatlar harbiy xizmatchilar faoliyatida o'z ifodasini topadi. Harbiy burchni aniq ishonchli bajarishga, qat'iyatlilik, mashg'ulotlarda g'ayratlilik, o'rtoqlarga qurol va harbiy texnikani o'zlashtirishda

yordam berish, texnika va mexanizmlarni boshqarish bo'yicha mustahkam ko'nikmalarga ega bo'lish va ularni rivojlantirish, zamonaviy jang olib borish taktikasini egalashda bilimlarni kengaytirish, murakkab jangovar topshiriqlarni muvaffaqiyatli hal qilish - bularning barchasi mavjud ma'naviy va jangovar fazilatlarning ko'rsatkichidir. Axloqiy va jangovar fazilatlarni shakllantirish jarayonida asosiy o'rin axloqiy tarkibiy qismga tegishli bo'lib harbiy hizmatchilarning g'oyaviy, mafkuraviy va e'tiqodini belgilaydigan, ularning xatti-harakatlari va faoliyatini tartibga soladi.

Harbiy harakatlarni muvaffaqiyatli olib borish uchun shaxsiy tarkibni tayyorlashda har tomonlama ta'minlovchi boshqa tarkibiy qismlar ham xuddi shu kabi muhimdir. Askarlarning ma'naviy va jangovar fazilatlarini tarbiyalash jangovar tayyorgarlik mashg'ulotlar davomida, tarbiyalash jarayonida, shaxsiy tarkibning butun xizmati va hayoti davomida, komandirlarning va boshliqlarning sa'yi-harakatlari bilan amalga oshiriladi. Ushbu sa'yi-harakatlar jangovar vazifalarni muvaffaqiyatli bajarish uchun zarur bo'lgan fazilatlarni rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, askarlarning butun xizmati davomida, maqsadli ko'p qirrali psixologik, pedagogik va o'zaro tarbiyalanish ta'sirlarni ta'minlaydi. Yuqori axloqiy va jangovar fazilatlar tarbiya jarayonida u yoki bu vositalardan foydalangan holda, maqsadlarga erishish uchun ta'lim jarayonida foydalaniladigan moddiy va g'oyaviy obyektlar tomonidan tarbiyalanadi.

Harbiy hizmatchilarda Vatan himoyasi uchun shaxsiy javobgarlik to'g'risida aniq tushunchani shakllantirishda vatanparvarlik, baynalminallik, qahramonlik va harbiy burch tuyg'usini rivojlantirishga xizmat qiluvchi maqsadli vatanparvarlik tarbiyasi katta o'rin tutadi. Ma'naviy-jangovar fazilatlarni shakllantirishning mohiyati, mazmuni va usullarini tushuntirish, jangovar harakatlarni samarali olib borish uchun, ularni takomillashtirish zaruriyati ham muhim o'rinni egallaydi. Ushbu masalalarni tushunish zamonaviy jangovar harakatlar xususiyatlarini, jangovar vaziyatda inson ruhiyati holatining o'ziga xos xususiyatlarini va zamonaviy jangovar vositalarning salbiy ta'sirini bartaraf etish usullarini chuqur bilish bilan birlashtiriladi. Askarlarning ma'naviy va jangovar fazilatlarini oshirish asosiy shartlardan biri bo'lib xizmat qiladi. Halqimizning tarixiy, jangovar va mehnat an'alarini targ'ib qilish shaxsiy tarkibda yuksak ma'naviyat va jangovar fazilatlarni shakllantirish usullaridan biridir. Tarixiy targ'ibotning samaradorligi va yangi harbiy an'analarni shakllantirish ko'p jihatdan tarbiyaviy ish shakllarini mohirona qo'llashga bog'liq. Axloqiy va jangovar fazilatlarni tarbiyalashda askarlar tarbiyasida estetik komponent muhim o'rin tutadi. Xalq g'ururini ochib beruvchi buyuk adabiy asarlar, tasviriy san'at, musiqa bilan tanishish harbiy hizmatchilarda vatanparvarlik tuyg'usini uyg'otadi. Yuqori ma'naviy-ruhiy va jangovar fazilatlarni shakllantirishga doimiy mehnat, shaxsiy tarkibning serqirra amaliy faoliyati, harbiy ta'lim-tarbiya borasidagi maqsadli ishlar bilan uyg'unlashuvi yordam berishi shubhasiz.

Jangovar tayyorgarlik va xizmat ko'rsatish jarayoni nafaqat shaxsiy tarkibni bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantiradi, balki askarlar ruhiyatining shaxsiy imkoniyatini oshiradi, ularning bilim jarayonlari, his-tuyg'ulari va irodasini

zamonaviy jangovar harakatlardagi vazifalarni muvaffaqiyatli bajarishga yo'naltiradi.

Axloqiy va jangovar fazilatlarni rivojlantirishga harbiy xizmatning hayot tarzi, hizmat faoliyati samarali o'z ta'sirini ko'rsatadi. Yuksak intizom, qat'iy tartib, askarlarning hayotini to'g'ri tashkil etishi hamisha aniq, jamlangan, tezkor harakatga doimo tayyor bo'lish odatini shakllantiradi. Axloqiy va jangovar fazilatlarni shakllantirish usullaridan biri bu askarlarda o'z-o'zini tarbiyalash istagini rivojlantirishdir.

Axloqiy-jangovar fazilatlar, shaxsning boshqa xususiyatlari kabi, agar jangchi o'z zarurligini anglagan bo'lsa, o'z faoliyati va harakatlarining natijalarini xolisona baholasa, o'zining zaif tomonlarini bartaraf etishga, kamchiliklarni tuzatishga harakat qiladi, muvaffaqiyatga erishadi. Shu bois komandir va boshliqlar tomonidan olib boriladigan tarbiyaviy ishlarda aniq misollar yordamida harbiy burchni muvaffaqiyatli bajarish uchun axloqiy-jangovar fazilatlarning ahamiyatini ochib berish, har bir askarning o'z kamchiliklarini ko'rishga yordam berish, so'ngra ularni tuzatishga imkon yaratadi. Ofiserning shaxsiy namunasi muhim o'rin egallaydi. Komandir va uning tarbiyaviy ishlar bo'yicha o'rinbosarining yuksak ma'naviy va jangovar fazilatlari ularga o'quv tarbiyaviy jarayonini to'g'ri tashkillashtirish, qo'l ostidagilar faoliyatini boshqarish, askarlarga katta ta'sir ko'rsatadi, ularga taqlid qilish va o'zlarida shu kabi fazilatlarni rivojlantirish xoxishini uyg'otadi.

Shunday qilib, ma'naviy-jangovar fazilatlar o'zaro bog'liq bo'lgan axloqiy-psixologik, professional-jangovar va biologik tarkibiy qismlarning sintezidir. Ularning har biri o'z xususiyatlarining egaligini saqlab, yaxlit ta'lim tizimida yangi xususiyat va sifatlarga ega bo'ladi. Harbiy xizmatchilarda yuksak ma'naviy va jangovar fazilatlarni singdirish samaradorligi harbiy jamoalar va bo'linmalarda maqsadli tizimli tarbiyaviy ishlarni tashkil etish bilan belgilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, T.: 2023 y.
2. O'zbekiston Respublikasining 2018 yil 9 yanvardagi 458-sonli Qonuni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Mudofaa doktrinasini.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 4 avgustdagi PQ 3898-sonli "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilarining ma'naviy-ma'rifiy saviyasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida" gi Qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi Mudofaa Vazirining 300 va 454 - sonli buyruqlari.
5. Ch.R. Nasriddinov. Harbiy psixologiya. O'quv qo'llanma. Toshkent – 2004 y.

AMALIYOTCHI PSIXOLOG FAOLIYATINING ASOSIY KO‘RINISHLARI VA UNGA QO‘YILGAN TALABLAR

*Axmedov Shavkat Asadilloevich – Toshkent
amaliy fanlar universiteti o‘qituvchisi,
Abdurahmonova Umida – Toshkent amaliy fanlar
universiteti pedagogika fakulteti talabasi*

Annotatsiya: *Amaliyotchi psixologlar ish tajribasini umumlashtirish, o‘qituvchilar va ota-onalar turli xil muammolar bo‘yicha psixologka murojaat qiladilar: turli fanlar bo‘yicha o‘quvchilarning o‘zlashtirishdagi qiyinchiliklari, bolalarning o‘qiy olmasligi va o‘qishni istamasligi, guruhdagi nizoli vaziyatlar, shaxsiy pedagogik ta’sirning natija bermasligi, har xil yoshdagi bolalarning tengdoshlari oila muloqati va bolalar jamoasining shakllanishi, kasbiy malakalarini oshirish yo‘llari, o‘quvchilarning qobiliyatlari, layoqatlari, qiziqishlarini aniqlash va rivojlantirish yo‘llari, o‘quvchilar bilan kasbga yo‘naltirish ishlarini olib boorish va muammolarni hal qilishni samarali usullarini topishdan iboratdir.*

Kalit so‘zlar: *Psixologlar, o‘qituvchilar, ota-ona, oquvchi, o‘qituvchi, Ommaviy axborot vositalari*

Hozirgi vaqtda ta’lim muassasalarida amaliyotchi psixologlar o‘z faoliyatlarini olib borishadi xo‘p amaliyotchi psixolog kim o‘zi?.

Boshqa psixologlarning fikricha, amaliyotchi psixologning shaxsiy hayotiy tajribasi muhim ahamiyatga ega, hech qanday eng yuksak kasbiy mahorat va bilimlar bilan ham almashtirish mumkin emas. Ularning fikricha, nizolar va ularni boshqarish usullari haqida o‘n soatlik ma’ruzani eshitish mumkin, lekin agar siz yaqin kishingiz bilan bo‘lgan nizoni boshdan kechirmagan bo‘lsangiz, munosabatlarni buzmasdan amaliy hal qila olmagan bo‘lsangiz, ish joyingizda nizolarni boshqarishga kirishmang. Bunda sizda faqat texnika va faqat kasbiy mahorat namoyon bo‘ladi, sizning ichki dunyoingiz, ruhingiz, sizning boshdan kechirganlaringiz, sizning dardingiz bo‘lmaydi. Shunday qilib, kasbiy ishda texnika yoki shaxsiy tajriba bilan boshdan kechirayotgan ichki dunyo, ruh - ikkisidan biri bo‘lishi kerak.

Nima uchun «va» so‘zini emas, yoki so‘zini ishlatish kerak. Bizningcha, amaliyotchi psixologning kasbiy ishi – bu kasbiy bilimlar va hayotiy tajribasidir. Birini ikkinchisidan ajratish mumkin emas. Psixologik kasbda kasbiy bilimlar va shaxsiy tajribasiz ish olib borish qiyin. U soatlab texnik vosita hisoblanmish qo‘l va barmoqlarni mashq qiladi. Lekin u chalayotganda «texnik barmoqlari» tagida asar «musiqaviy hayot» sifatida yashay boshlaydi, o‘zining musiqiy ruhiyatiga ega bo‘ladi. Siz doim texnik ijrochi bilan mumtoz ijroni ajrata olasiz.

Texnika faqat asos, haqiqiy ijod yetishib chiqadigan yer, negizdir. Psixolog sizning hayotingizda hammasi joyidami?

Maktab psixologlari, umuman amaliy sohadagi ishlaydigan psixologlarga atrofdegilar boshqacha munosabatda bo‘ladilar. Men oramizda nima

bo'layotganiga tushunmayman? «Siz psixologsiz-ku, hammasini tushunishingiz va tushuntirishingiz kerak», deyishadi.

Maslahatga kelgan mijoz: «Siz psixologsiz, biz birga yashashimiz yoki yashamasligimizni, o'zingiz hal qiling», deydi. Psixologlar ko'pincha boshqalarga oilaviy nizolar bo'yicha maslahat berishadi-yu, lekin ba'zan o'zlarining oilalarida hammasi joyida bo'lmasligi ham mumkin. Bunga ko'pincha ularning oila psixologiyasi bo'yicha hamma narsani bilganliklari tufayli oilada haddan tashqari yumshoq bo'lishlari ham sabab bo'lishi mumkin. Ishda professional psixolog bo'lib, uyda bo'lsa professional rolni chetga qo'yib, xuddi ish kiyimingizni yechib, uy xalati kiyganday, o'zimizni erkin tabiiy his qilishimiz zarur.

Hozirgi vaqtda maktablarda, litsey va kollejlarda ikki yo'l bilan amaliy psixologiyaga kelgan psixologlar ishlashadi. Birinchilari—universitetlarning psixologiya fakul'tetini bitirgan va ikkinchilari—maktabda ma'lum vaqt o'qituvchi bo'lib ishlab, keyin amaliyotchi psixologlar fakul'tetini bitirib, so'ng o'z maktablariga psixolog sifatida qaytib kelganlar.

Bu ikki psixologlar guruhining qaysi biri masulroq, degan savol tug'iladi. Asosiy ma'lumotli psixologlar yaxshi kasbiy bilimga egalar, psixologik metodlarni yaxshi biladilar. Lekin ular maktab hayotidagi ishning barcha xususiyatlaridan xabardor emaslar.

Ikkinchi mutaxassislikni egallagan o'qituvchi psixologlar, aksincha, maktab va pedagogik amaliyot bilan yaxshi tanishlar, lekin psixologik bilimlar va psixologik ish ko'nikmalari etishmasligini his qiladilar.

Psixolog bitiruvchilar dastlab maktabga borganda, o'zlarini himoyasiz sezadilar, birinchi navbatda nima qilish kerakligini, o'zini qanday tutishni, kim bilan qanday gaplashishni bilmaydilar. Ular maktabda muammolarga ko'milib ketadilar, hammasini birdan bajarib, maktabga foydali ekanligini ko'rsatishga urinadilar, maktabda har kuni, dam olish kunlari, hatto kechalari ham qolib ketadilar. Natijada zo'riqish, charchash, ish qobiliyatining pasayishi ko'zga tashlanadi.

Shu o'rinda psixologlar psixologik xizmat haqidagi Nizomda keltirilgan psixologlarning huquqlari va javobgarligi bilan tanishishlari maqsadga muvofiq.

Nizomda keltirilishicha, psixolog quyidagi huquqlarga ega:

➤ bolalar, ularning ota-onalari yoki qonuniy vakillari, shuningdek, maktabgacha ta'lim, umumta'lim muassasasi, mehribonlik uyi pedagoglari bilan olib boriladigan ishlarning muayyan yo'nalishlarini mustaqil shakllantirish;

➤ psixologik xizmatni amalga oshirish doirasida tadbirlarning ketma-ketligini, maktabgacha ta'lim, umumta'lim muassasasi, mehribonlik uyi pedagogik jarayonining o'ziga xos tomonlari, muayyan shart-sharoitlari va kontingentini hisobga olgan holda o'z faoliyatining ustuvor yo'nalishlarini belgilash;

➤ muassasa rahbariyatiga o'zi uchun xona, mebel jihozlari, kompyuter va boshqa texnika vositalari, idora buyumlari ajratilishi to'g'risidagi talablar bilan murojaat qilish;

➤ maktabgacha ta'lim, umumta'lim muassasasi, mehribonlik uyi hujjatlari bilan tanishish;

➤ psixologik-pedagogik tashxisga oid yangi metodikalar, psixoprofilaktika va

korreksion-rivojlantiruvchi dasturlarni ishlab chiqishda qatnashish, ularni sinovdan o'tkazish va amaliyotga joriy etishda ishtirok etish;

➤ ma'muriyat bilan kelishgan holda sinfdagi va sinfdan tashqari mashg'ulotlar, shuningdek, boshqa tadbirlarda o'quvchilarning xulq-atvori hamda individual xususiyatlarini, ularning o'qishga, sinf rahbari va o'qituvchilar bilan muomala munosabatini o'rganish maqsadida ishtirok etish;

➤ psixologik tadqiqot va tajribalar o'tkazish, ularning natijalarini ilmiy jurnallarda hamda boshqa matbuot nashrlarida e'lon qilish;

➤ muassasa ma'muriyati ko'rsatmalari psixologning mazkur Nizomda belgilangan majburiyatlari, funksiyalari va faoliyat yo'nalishlariga zid bo'lsa, ularni bajarmaslik;

➤ bolalar taqdirini hal etuvchi turli idoralar va komissiyalar ishida maslahat ovozi huquqi bilan qatnashish, qabul qilingan qarorlar qoniqtirmagan holatlarda yuqori turuvchi idoralarga murojaat qilish;

➤ joylardagi davlat hokimiyati idoralariga, tibbiyot va huquqni muhofaza qilish muassasalariga, boshqa davlat va jamoat tashkilotlariga bolalar huquqlari hamda manfaatlarini himoya qilish masalalari bo'yicha iltimosnomalar bilan murojaat qilish;

➤ barcha darajadagi tashxis markazlariga maktab o'quvchilarining kasbiy o'zligini belgilashi hamda kasb - hunarga yo'naltirish masalalari bo'yicha murojaat etish;

➤ O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida xalq ta'limi tizimi muassasalari xodimlari uchun nazarda tutilgan rag'batlantirish va imtiyozlardan foydalanish.

Shuningdek, psixologik xizmat haqidagi Nizomda keltirilishicha, psixologlar mehnatini rag'batlantirish quyidagi holatlarni o'z ichiga oladi:

Psixologlar mehnatini moddiy va ma'naviy rag'batlantirish amaldagi qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Ko'p yillik mehnatlari natijalari bo'yicha yuqori natijalarga erishgan psixologlar O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi va O'zbekiston Respublikasi Hukumatining mukofotlariga taqdim etilishi mumkin.

Psixologlar shartnoma asosida haq to'lanadigan ta'lim va psixologik xizmatlar ko'rsatishda, shuningdek, xalq ta'limi muassasalarining manfaatdor yuridik hamda jismoniy shaxslar bilan tuzadigan tadqiqotchilik loyihalari (grantlar)ni bajarishda qatnashadilar.

Psixologlarga malaka toifalari attestatsiya natijalariga ko'ra belgilanadi hamda ularning mehnatiga haq to'lash differensial tarzda malaka toifasiga muvofiq amalga oshiriladi.

Umumta'lim maktablarining, maktabgacha ta'lim muassasalari, "Mehribonlik" uylari amaliyotchi psixologlari orasidan ilg'or, tashabbuskor va ijodkor mutaxassislarni tanlash hamda ularning kasbiy yo'nalishdagi iqtidorlarini, kasbiy mahoratlarini aniqlash, ularning ilg'or ish tajribalarini o'rganish va ommalashtirish psixologlarning kasb mahoratlarini takomillashtirishning eng qulay shaklidir.

Ilg'or ish tajriba bu psixologning o'z faoliyatiga ijodkorona va novatorlarcha yondashib, o'quvchilarga sifatli psixologik xizmat ko'rsatishning yangi yo'llarini izlab topishdir.

Ilg`or ish tajribalarini o`rganish va ommalashtirish maqsadi: Umumta'lim maktablarining amaliyotchi psixologlari orasidan ilg`or, tashabbuskor va ijodkor mutaxassislarni hamda ularning turli yo`nalishdagi iqtidorlarini, kasbiy mahoratlarini aniqlash, rag`batlantirish, aniqlangan ilg`or tajribalarni ommalashtirish.

Ilg`or ish tajribalarini o`rganish va ommalashtirishning asosiy vazifalari:

Ish tajribasi o`rganilayotgan psixolog quyidagi talablarga javob berishi kerak:

- mahsus ma'lumot va yuqori darajadagi bilimga ega bo`lishi;
- turli vaziyatlarda samarali psixologik yordam bera olish malaka va ko`nikmalariga ega bo`lishi;
- o`quvchilar bilan o`tkazilgan psixologik-pedagogik tashxis metodikalari asosida aniq tahlillar va istiqbol rejalar tuza olishi, ularning mavjudligi;
- o`quvchilarni kasb -hunarga yo`naltirish va psixologik-pedagogik tashxisga doir yangi yo`nalishdagi izlanishi va o`z psixologik kontseptsiyasiga ega bo`lishi; - zamonaviy psixologiyaning rivojlanishiga doir fikr va takliflar bera olishi;
- psixologik korreksion mashg`ulotlar jarayonida kompyuter, internet, elektron pochta tizimi, texnik moslamalardan samarali foydalana olishi;
- mutaxassisligi bo`yicha jahon psixologiyasi ilg`or ish tajribalaridan xabardor bo`lishi;
- ish jarayonida o`ziga xos yutuqlarga erisha olishi, zamon bilan hamnafasligi, mustaqillik mafkurasi va milliy istiqbol g`oyasi, jamiyat hayotining iqtisodiy va siyosiy sohalardagi o`zgarishlardan psixologik jarayonlarda foydalana olishi;
- ijtimoiy hayotda, jamoatchilik orasida ma'naviy-ma'rifiy faollik ko`rsata olishi;
- ma'naviy yangilanish jarayonida jamiyat xavfsizligiga ta'sir etuvchi tashqi va ichki tahdidlar hamda g`arazli g`oyalarga qarshi keskin kurasha oladigan darajada bilimga ega bo`lishi;
- yangiligi, amaliyotdagi metodikaga qo`shgan yangi usullari;
- Ilg`or ish tajribalarni aniqlash o`rganish, umumlashtirish va ommalashtirish bosqichlari asosida amalga oshiriladi.

Ilg`or ish tajribani umumlashtirish uchun quyidagi ishlar amalga oshiriladi: psixolog haqidagi ma'lumotlar umumlashtiriladi;

1. O`rganilgan yo`nalish bo`yicha psixologning amalga oshirgan ishlari to`plam holatiga keltiriladi;
2. Psixologning ilg`or ish tajribasiga aniq xulosalar qilinadi;
3. Psixologning ta'lim-tarbiya sohasidagi bajargan ishlari bo`yicha mukammal tavsiyalar yaratiladi;
4. Materiallar kerakli miqdorda ko`paytiriladi;
5. Ilg`or ish tajribalar seminar kengashlarda, pedagogik kengashlarda, tuman metodika uyushmasi yig`ilishlarida muhokama qilinadi.

Ilg`or ish tajribalarini ommalashtirishda quyidagi shakllardan foydalaniladi:

- Pedagogik kengash, metod birlashma yig`ilishida, anjumanlarda, pedagogik o`qishlarda so`zlab berish;

- Ilg`or tajriba, tayanch maktablarida, seminarlarda, ijodiy guruhlarda, malaka oshirish kurslarida ma'lumot berish;

- Ommaviy axborot vositalarida maqolalar va tavsiyalar shaklida berish.

Ilg`or ish tajribani ommalashtirish quyidagi tizimda amalga oshiriladi:

Maktablarda pedagogika kengashi qarori, maktab rahbari taqdimnomasi va psixologning faoliyatiga oid hujjatlar, yaratgan yangiliklari haqida ma'lumot tayyorlanib, tavsiyalar tuman o'quvchilarini kasb hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik diagnostikasini metodik ta'minlash kichik guruhiga taqdim etiladi, tavsiya etilgan hujjatlar tuman psixologlari metodik uyushmasi a'zolari tomonidan o'rganiladi va taqdimotlari eshitiladi, so'ng tuman metodika kabineti kengashiga ommalashtirish uchun tavsiya etiladi. Tuman metodika kabinetining kengash yig'ilishining qarori bilan tuman miqyosida ommalashtiriladi; viloyat miqyosida ommalashtirish uchun tuman metodika kabinetining qarori, psixologning faoliyatiga oid hujjatlari, tayyorlagan tavsiyalari va tuman metodika kabineti mudirining taqdimnomasi metodika markaziga taqdim etiladi.

Amaliyotchi psixologlar ish tajribasini umumlashtirish shuni ko'rsatadiki, o'qituvchilar ko'pincha psixologga quyidagi muammolar bo'yicha murojaat qiladilar: turli fanlar bo'yicha o'quvchilarning o'zlashtirishdagi qiyinchiliklari, bolalarning o'qiy olmasligi va istamasligi, guruhdagi nizoli vaziyatlar, shaxsiy pedagogik ta'sirning natija bermasligi, har xil yoshdagi bolalarning tengdoshlari oila muloqati va bolalar jamoasining shakllanishi, kasbiy malakalarini oshirish yo'llari, o'quvchilarning qobiliyatlari, layoqatlari, qiziqishlarini aniqlash va rivojlantirish yo'llari, o'quvchilar bilan kasbga yo'naltirish ishlarini olib borish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Adizova T.M. Psixokorreksiya. – T.2005.
2. Barotov Sh.R. Ta'limda psixologik xizmat. – Buxoro, 2007.
3. Дубровина И.В. Рабочая книга школьного психолога. – М.: Просвещение, 1991. – 303 с. 482
4. Дубровина И.В. Школьная психологическая служба. –М.: Педагогика, 1991. – 232 с.
5. Дубровина И.В. Практическая психология в образовании. – М.: Педагогика, 1998.

MULOQOTDA TILNING AHAMIYATI VA PSIXOLINGVISTIKKA

*Axmedov Shavkat Asadilloevich – Toshkent
amaliy fanlar universiteti o'qtuvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada shaxslar o'rtasida muloqot jarayonining psixolingvistik xolatlar ularning vujudga kelish sabablari va lingvopsixologiya yo'nalishining yuzaga kelish shartlari, o'ziga xosligi va bugungi kunda hayotimizda

zarurati xususida so'z boradi. Shu o'rinda til nutqiy faoliyatda yuzaga chiqqanligi va inson sivilizatsiyasida shakllanib borishini ko'rishimiz mumkin.

Kalit so'zlar: *Tilshunoslik, psixolingvistika, nutq, axborot, muloqot, matn voqelik, matn yaxlitligi, tafakkuri, nutq hosil qilish modeli.*

Til nutqiy faoliyatda yuzaga chiqqani tufayli tilshunoslikda ham, psixologiya fanida ham tekshirish obyekti hisoblanadi. Shunga asosan, bu ikki fanning sintezi sifatida, kesishgan nuqtada psixolingvistika (lingvopsixologiya) yo'nalishi yuzaga keldi. U ichki nutqni tekshirish jarayoni, nutqni qabul etish, tilni egallash kabi masalalarni o'rganadi. Ushbu atama dastlab 1946-yilda amerika psixologi N.Pronko tomonidan qo'llangan bo'lib, XX asrning 50-yillaridan keng yoyildi.

Psixologik yo'nalish bilan bog'liq muammolar tilshunoslikka naturalistik va logik ta'lim egalarining g'oyalari bilan bog'liq ravishda kirib kelgan. Bu borada V.fon Gumboldtning semantik qurilishda nutqiy ijodiy yondashuv xususidagi konsepsiyasi e'tiborga loyiq. Tilshunoslikdagi psixologizm oqimi naturalizmni qattiq tanqid ostiga oladi, ular tilning taraqqiyotini shaxs tafakkuri, ruhiyatidagi taraqqiyot bilan bog'liq, deb hisobladilar. Uning ildizlari XIX asrda qiyosiy-tarixiy tilshunoslik negizida vujudga kelgan psixologizm oqimiga borib taqaladi. Berlin universiteti professori Geyman Shteyntal (1823-1899) psixologizm ta'limotining asosiy namoyandasidir. U V.Gumboldt va psixolog Iogann Gerbertning shogirdi hisoblanadi. Shteyntal ta'limotidagi eng muhim g'oya nutq, tilni tafakkur quroli, fikr ifodalash vositasi, deb qaraganligida, biroq psixologizm tilning ijtimoiy hodisa ekanligini inkor qiladi. Shteyntal ilmiy qarashlariga Potebnya va Paul, Boduen de Kurtene ham Sossyur, Sepira va Shcherbalar e'tibor qaratadi. Psixologik tushunchalar til aloqasining shaxs va xalqqa bog'liqligini, shuningdek, tilning tarixiy-madaniy faktor ekanligini ifoda etadi. Shuni ham alohida ta'kidlash kerakki, lingvistik biologizmning o'ziga xos xususiyatlari Shleyxer ta'limotida o'z ifodasini topgan bo'lsa, logik grammatizm Bekker ta'limotida jonlantirildi. Shteyntal esa o'z ijodiy ishlarida bu jaryonni individning xatti-harakati va xalq psixologiyasi taraqqiyotiga tayanib o'rganadi. Biroq psixolingvistika bir xalq misolida rivojlangan emas.

Psixolingvistika tilshunoslik ilmiga xos bo'lgan qator yangi sohalardan biri bo'lmish kommunikativ tilshunoslik va matn lingvistikasi, matnning o'rganishdagi antroposentrik yondashuv, kognitiv tilshunoslik, pragmalingvistika, lingvokulturologiya, sotsiolingvistika, lingvoo'lkashunoslik, etnolingvistika sohalariga oid masalalarni tahlil qilish yo'nalishidagi tadqiqot ishlari bilan chambarchas bog'liq. Tilshunoslik nafaqat individning psixologik xarakterini, balki uning nutqini ham tadqiq etadi. Qariyb yuz yildirki, psixologiyaning turli xil aspektlarida nutq o'stirishning nutqiy ijodiy yondashuvdagi suhbat me'yorlari faoliyatiga aloqadorligi alohida o'rganilgan. Inson ma'lum miqdordagi tajriba, qoidalar yordamida yangidan yangi jummalarni yaratish qobiliyatiga ega.

Psixolingvistika sohasidagi nazariy va amaliy xarakterdagi ayrim umumiy hamda xususiy masalalar bugungi kunda dolzarb ahamiyatga ega. Birinchidan, matnning semantik tuzilishini modellashtirish, qabul qiluvchi va matnning o'zaro ta'sirida shakllanadigan matn tushunchasini yetarli darajada aks ettirish muammosini

hal qilish zarur. Ikkinchidan, matnning semantik tuzilishini shunday o'rganish kerakki, ushbu tadqiqot natijalari aloqa jarayonini optimallashtirish, semantik ma'lumotlarni mashinada qayta ishlash, chet tillarini o'qitish usullari va tarjima faoliyatini optimallashtirish uchun pragmatik ahamiyatga ega. Psixolingvistik tadqiqotlar rus psixologiya maktabi doirasida L.S.Vigotskiy (1956), A.A.Leontyev (1977, 1981) va A.R.Luriya (1959, 1962, 1975, 1979) tomonidan ishlab chiqilgan nazariy tamoyillarga asoslanadi. Psixologik maktab XIX asrning birinchi yarmi va XX asr boshlarida vujudga kelgan bo'lib, til va nutq muammosiga doir tilning funksional (vazifaviy) belgilarini, shuningdek, til qurilishini va nutqiy-ijodiy yondashuvni o'rgangan edi. Ma'lumki, vazifaviy-struktur yo'nalish psixolingvistika uchun muhim.

Psixolingvistika tarafdorlari o'z e'tiborlarini tilning ichki tomoniga, jonli nutqqa, bevosita nutqiy jarayonga, so'z va gaplarning ma'no tomoniga qaratib, assotsiativ psixologiya tushunchalarini va amalini kiritishga harakat qildilar.



Hozirgi kunda tilshunoslikning ushbu yo'nalishi yanada kengaygan bo'lib, nutqdagi inson omili, individuallik, ichki nutq va tashqi nutq masalalari keng o'rganilmoqda.

Shveytsariyalik tilshunos Sharl Ballining (1865-1974) nomi dunyo tilshunoslari uchun yaxshi tanish. Uning ta'limotida hayajonli nutq holatini o'rganish masalasiga alohida e'tibor qaratilgan. Olimning fikricha, tilda affektiv (hayajonli) vaziyatning yuzaga kelishi ikki asosiy maqsadni ko'zlaydi:

1) so'zlovchining his-tuyg'usi, kayfiyatini ifodalash hamda ma'lum qilinayotgan axborotga baho berish;

2) muloqot ishtirokchilariga ta'sir o'tkazish maqsadida ma'lum turdagi lisoniy vositalardan foydalanish.

Umuman olganda, Sh.Balliga tegishli tilning ta'sir etish vositasi sifatidagi fikrlari diqqatga sazovor. Hozirgi kunda bu fikr-mulohazalar psixolingvistika, kommunikativ tilshunoslik, pragmatolingvistika kabi yo'nalishlarda faollashgan qator muammolarni muhokama qilishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Sh.Balli lisonda intellektual va affektiv xususiyatlar munosabatini aniqlashda psixologiya fanida ushbu xususiyatlarning inson ongida alohida aks etishi haqidagi g'oyaga asoslanadi. Tafakkur faoliyati hamda ongda bunday ikki tomonlamalik to'g'ridan to'g'ri til tizimiga ham ko'chadi va Balli "intellektual" va "affekt" tillarini farqlaydi. Tilning hayajonli-affektiv xususiyatlari haqidagi Ballining fikrlari ekpressivlikning nutqiy faoliyatdagi o'rnini aniqlash uchun muhim. Olim hayajonli nutq faoliyati tadqiqiga sotsiologik nuqtayi nazardan yondashadi. Bunday yondashuv o'sha davr uchun yangilik edi va shu asosda tilshunoslikda tamoman yangi yo'nalish - lingvostilistika yuzaga keldi. Lingvostilistikaning til tizimi va nutqiy faoliyatni funksional jihatdan tadqiq qilish borasidagi mahsuldor natijalari barchaga ma'lum.

Semantik-psixologik qarashlarda nutqiy jarayoni aynan nutqning qurilishi, nutqning vaziyati, shuningdek, nutqning kontekstda tutgan o'rnini masalalari to'laqonli ravishda o'rganilgan va o'rganilib kelinmoqda.

Tilshunoslikda matn mohiyati, unga xos bo'lgan asosiy belgilar haqida mavjud bo'lgan fikrlar matnni psixolingvistik aspektda o'rgangan tadqiqotchilar tomonidan ham e'tirof etiladi. Jumladan, yaxlitlik, informativlik, bog'lanishlik kabi xususiyatlar matnning asosiy belgilari ekanligi bir qator psixolingvistlarning ishlarida ham qayd etib o'tilgan. Shu bilan birga, ushbu tadqiqotchilar matnning psixolingvistik o'ziga xosligi haqida ayrim qarashlarni ham ilgari surdilar. Jumladan, matnni psixolingvistik aspektda o'rgangan Yu.A.Sorokin uning bog'lanishlik va yaxlitlikdan iborat belgilariga quyidagi tarzda yondashadi: "Matn yaxlitligi psixologik nuqtai nazardan retsipient va matnning o'zaro munosabati jarayonida yuzaga keluvchi yashirin proeksion (konseptual) holatdir, shuningdek, bog'lanishlik til /nutq qurilishi unsurlari barobarida uning qurilish unsurlari bo'lmagan qismlarning o'zaro hamkorligi natijasi hamdir. Yana bir tilshunos A.I.Novikovning fikriga ko'ra esa matn yaxlitligi faqat uning mazmuniy tuzilishiga xosdir. A.I.Novikovning ushbu xulosasi psixologik va kognitiv nuqtayi nazardan to'g'ri bo'lsa-da, matnning tashqi tuzilishi - sintaktik-struktur jihatini e'tiborga olmaganligi bilan munozaralidir.

Psixolingvistikaga doir ko'plab tadqiqotlar yaratgan rus tilshunosi va psixologi V.P.Belyanin "Основы психолингвистической диагностики (модели мира в литературе)" nomli asarida matnga lingvistik va psixologik yondashuv haqidagi o'z konsepsiyasini yaratdi. Olimning mazkur kitobdan o'rin olgan, matn haqidagi qarashlarini aks ettiruvchi quyidagi 5-6-banddagi fikrlari bu borada alohida e'tiborga loyiq:

Demak, insonning ijtimoiy-siyosiy qarashlarida tildan va uning elementlaridan foydalanishi muhim. Bunda til elementlari yordamida hosil qilingan

ma'nolar til belgilari yordamida ma'no hosil qilib, ular ayni zamonda inson xatti-harkatiga xos tushunchalarni tushunish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Леонтьев А.А. Основы психолингвистики. Уч. М., 1997. 287 с.
2. Акбарова З. Мурожаат моҳияти ва унинг ташкил этувчилари. Фил.фан.номз.дисс., Т. 2006.
3. Арутюнова Н.Д. Практическое рассуждение и язык. Сб. : «Сущность, развитие и функции языка» М.: Наука, 1987, с. 6.
4. Янко Т. Лексическая семантика обращений: семантические особенности русских антропонимов и других имён, обозначающих людей // Язык и речевая деятельность. Т. 11. Спб. 2011. С 239-255.
5. Ковшиков В.А., Пухов В.П. Психология. Теория речевой деятельности: Учебник для вузов. - М.: Астрель, АСТ, 2007.

**YETUK MUTAXASSIS KADRLARNI TAYYORLASHDA
O'QITUVCHI MAS'ULIYATI**

*Axrorova Marjona Anvar qizi –
Samarqand davlat Chet tillar instituti
2-bosqich talabasi*

Tarix tajribasi shuni ko'rsatadiki, har bir davrda jamiyatdagi taraqqiyot yoki inqiroz mavjud kadrlarning potensial salohiyati bilan bog'liq kechgan. Bugungi yetishib chiqayotgan har-bir soha mutaxassisining bilim va saviyasi ham ertangi taraqqiyotimizning belgilovchi omili bo'lib xizmat qiladi.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda har tomonlama sog'lom va barkamol avlodni voyaga yetkazish davlatimiz siyosatining ustuvor sohalaridan biri qilib qo'yildi. Ushbu vazifaning dolzarbligi bugungi kunda kuchaysa kuchaydiki, aslo kamaymadi.

Shundan kelib chiqadigan bo'lsak hozirda ta'lim berish uchun barcha shart-sharoitlar mavjud. Faqatgina bugungi zamon o'qituvchisi o'z kasbining professional ustasi, chet tillarini o'zlashtirishning barcha qoidalarini biladigan, zamonaviy kompyuter va ta'lim texnologiyalaridan unumli foydalana oladigan mustahkam iroda va kuchli ruhiyat egasi bo'lishi lozim.

Aynan davlatimiz oliy ta'limining maqsadi – hozirgi zamon talablariga javob beradigan, respublikaning ilmiy-texnikaviy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanishini ta'minlashga qodir bo'lgan malakali kadrlar tayyorlashni ta'minlashdan iboratdir. O'zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» va «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunining qoidalariga muvofiq, milliy tajribaning tahlili va ta'lim tizimidagi, jahon miqyosidagi yutuqlari asosida tayyorlangan hamda yuksak umumiy va kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda mo'ljalni to'g'ri ola bilish mahoratiga ega bo'lgan, istiqbol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir yetuk kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga yo'naltirilgandir.

Jadidchilik harakatining asoschilari, taniqli ma'rifatparvarlar – Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvar qori, Abdulla Avloniy, Abduqodir Shakuriy, Ismatulla Raxmatullayev, Abdurauf Fitrat, Isohxon Ibrat va boshqalar aholi orasida nafaqat murabbiy, balki ma'naviy yetuk inson sifatida ham nom qozondilar.

Sharq mutafakkirlari va g'arb pedagoglari jamiyatda pedagoglik kasbining tutgan o'rnini haqida. Jamiyat tomonidan o'qituvchi shaxsiga qo'yilayotgan talablar o'z davrida Sharq mutafakkirlari hamda g'arb ma'rifatparvarlarining asarlarida o'z aksini topgan.

Muhammad al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy hamda Abu Rayhon Beruniylar o'qituvchining ma'naviy-axloqiy jihatdan yetuk bo'lishlariga alohida ahamiyat qaratadilar. Ularning fikrlaricha, yaxshi o'qituvchi boshqalardan bir jihati bilan farq qiladi, ya'ni, u o'zi ega bo'lgan bilimlarni yoshlarga beminnat o'rgatadi, har bir ishda ularga namuna bo'la oladi.

Respublikamizning pedagog-olimi S.Rahimov tomonidan yozilgan "Abu Ali ibn Sino, Ta'lim va tarbiya haqida"gi asarida o'qituvchi bolalarga ta'lim berishdek mas'uliyatli burchni bajarishi zarurligini o'qtirar ekan, ularning faoliyatida muvaffaqiyatga erishish garovi bo'lgan quyidagi tavsiyalarni beradi[1,67]:

bolalar bilan muomalada bosiq, jiddiy bo'lish;
berilayotgan bilimning talabalar tomonidan o'zlashtirilishiga ye'tiborni qaratish;

ta'limda turli shakl va metodlardan foydalanish;
talabaning xotirasi, bilimlarni egallash qobiliyati, shaxsiy xususiyatlarini bilishi;

fanga qiziqтира olishi;
berilayotgan bilimlarning eng muhimini ajratib bera olishi;
bilimlarni talabalarga tushunarli, uning yoshi, aqliy darajasiga mos ravishda berish;

har bir so'zning bolalar hissiyotini uyg'otish darajasida bo'lishiga erishish.

G'azal mulking sultoni Mir Alisher Navoiy o'z davrining ayrim maktabdollariga yod bo'lgan sifatlar, xususan, qattiqqo'llik, ta'magirlik va johilliklarni qoralar ekan, o'qituvchining ma'naviy qiyofasiga nisbatan jiddiy talablarni qo'yadi. Jumladan, «mudarris kerakki, g'arazi mansab bo'lmasa va bilmas ilmni aytishga urinmasa, manmanlik uchun dars berishga havas ko'rgazmasa va olg'irlik uchun gap-so'z va qavqo yurgizmasa, nodonlikdan sallasi katta va pechi uzun bo'lmasa, gerdayish uchun madrasa ayvoni boshi unga o'rin bo'lmasa... Yaramasliklardan qo'rqsa va nopoklikdan qochsa, nainki, o'zini olim bilib, necha nodonga turli xil fisq ishlarni mumkin, balki halol qilsa, qilmas ishlarni qilmoq uchun sodir bo'lsa va qilar ishlarni qilmaslik unga qoida va odat bo'lib qolsa. Bu mudarris emasdir, yomon odatni tarqatuvchidir»[2,189] deydi. Qolaversa, o'qituvchi shaxsiga quyidagi misralarni yozadi:

Haq yo'lida kim senga bir harf o'qitmish ranj ila,

Aylamak bo'lmas ado oning haqin yuz ganj ila.

Mashhur pedagog Abdulla Avloniy ham o'z asarlarida o'qituvchi shaxsi va uning faoliyati borasidagi qarashlarni ifodalashga alohida o'rin beradi. Allomaning qayd etishicha, bolaning sog'lom bo'lib o'sishida ota-onalar o'ziga xos rol

o'ynasalar, uning fikriy jihatdan taraqqiy etishida o'qituvchining o'rni beqiyos ekanligini ta'kidlaydi. Xususan, bolalarning aqliy qobiliyatlarini shakllantirish muallimlarning «diqqatlariga suyalgan, vijdonlariga yuklangan muqaddas bir vazifa» ekanligini ta'kidlab, «fikrning quvvati, ziynati, kengligi, muallimning tarbiyasiga bog'liqdur» [3,301] – deb ta'kidlagan.

Bizning nazarimizda, zamonaviy o'qituvchi qiyofasida quyidagi fazilatlar namoyon bo'la olishi kerak (so'z yuritilayotgan sifatlar mohiyatan o'qituvchi tomonidan amalga oshirilishi zarur bo'lgan vazifa, burch va mas'uliyatlarini ifodalaydi):

o'qituvchi jamiyat ijtimoiy hayotida ro'y berayotgan o'zgarishlar, olib borilayotgan ijtimoiy islohotlar mohiyatini chuqur anglab yetishi hamda bu borada o'quvchilarga to'g'ri, asosli ma'lumotlarni bera olishi lozim;

zamonaviy o'qituvchining ilm-fan, texnika va texnologiya yangiliklari va yutuqlaridan xabardor bo'lishi talab etiladi;

o'qituvchi o'z mutaxassisligi bo'yicha chuqur, puxta bilimga ega bo'lishi, o'z ustida tinimsiz izlanishi lozim;

o'qituvchi pedagogika va psixologiya fanlari asoslarini puxta bilish, ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda faoliyat tashkil etishi kerak;

o'qituvchi ta'lim-tarbiya jarayonida eng samarali shakl, metod va vositalardan unumli foydalana olish imkoniyatiga ega bo'lmog'i lozim;

o'qituvchi ijodkor, tashabbuskor va tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo'lishi shart;

har bir ta'lim oluvchiga alohida e'tibor va yuksak talabchanlik asosida yondoshishi zarur;

o'qituvchi yuksak darajadagi pedagogik mahorat, chunonchi, kommunikativlik layoqati, pedagogik texnika (nutq, yuz, qo'l-oyoq va gavda harakatlari, mimika, pantomimika, jest) qoidalari chuqur o'zlashtirib olishga erishishlari lozim.

O'qituvchi nutq madaniyatiga ega bo'lishi zarur, uning nutqi quyidagi xususiyatlarni o'zida aks ettira olishi kerak:

nutqning to'g'riligi;

nutqning aniqligi;

nutqning ifodaviyligi;

nutqning sofligi (uning turli sheva so'zlaridan holi bo'lib, faqat abadiy tilda ifoda etilishi);

jargon (muayyan kasb yoki soha mutaxassisliklariga xos so'zlar);

varvarizm (muayyan millat tilida bayon etilayotgan nutqda o'zga millatlarga xos so'zlarni noo'rin qo'llanilishi);

vulgarizm (haqorat qilish, so'kishda qo'llaniladigan so'zlar);

konselyarizm (o'rni bo'lmagan vaziyatlarda rasmiy so'zlardan foydalanish) so'zlardan holi bo'lishi, o'qituvchining nutqi sodda, ravon va tushunarli bo'lishi kerak;

nutqning ravonligi;

nutqning boyligi (hikmatli soʻzlar, ibora va maqollar, matallar hamda koʻchirma gaplardan oʻrinli va samarali foydalana olish).

Oʻqituvchi kiyinish madaniyati (sodda, ozoda, bejirim kiyinishi), taʼlim-tarbiya jarayonida oʻquvchining diqqatini tez jalb etuvchi turli xil bezaklar (oltin, kumush taqinchoqlar)dan foydalanmasligi, fasl, yosh, gavda tuzilishi, yuz qiyofasi, hatto, soch rangi va turmagiga muvofiq ravishda kiyinishni oʻzlashtirishga erishishi lozim.

Oʻqituvchi shaxsiy hayotda pok, atrofdagilarga oʻrnak boʻla olishi lozim.

Ayniqsa, shaxsning psixoemotsional jihatlarini hisobga olgan holda harakat qilishi oʻqituvchi faoliyatida magʻlubiyatning oldini olib, uni koʻzlagan marrasiga yetkazadi.

Oʻqituvchining mutaxassis kadrlarni tayorlash faoliyatida oʻz kasbdoshlari bilan sogʻlom ijodiy raqobatda boʻlishi ham muhim ahamiyatga egadir.

Oʻqituvchi pedagogik muloqot jarayonining faol ishtirokchisi sifatida oʻzida bir qator ijobiy sifatlarning tarkib topishiga erishishi zarur.

Xulosa oʻrnida shuni qayd etish joizki, Oʻzbekiston Respublikasining «Taʼlim toʻgʻrisida»gi Qonuni hamda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»dagi vazifarni amalga oshirish jarayonida oʻqituvchilar muhim rol oʻynaydilar. Komil inson va yetuk malakali mutaxassis maxsus tashkil etilgan pedagogik faoliyat jarayonida tarbiyalanar ekan, ushbu jarayonda oʻqituvchilarning oʻrni beqiyosdir. Shu bois ularning shaxsida bir qator ijobiy maʼnaviy-axloqiy sifatlar namoyon boʻla olishi maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rahimov S., Abu Ali ibn Sino, Taʼlim va tarbiya haqida. – Toshkent. Oʻqituvchi, 1997. – 75-bet.

2. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. Asarlar. Oʻn besh tomlik. 13 tom. – Toshkent, Badiiy adabiyot nashriyoti, 1966. –189-190-betlar.

3. Hoshimov K. va boshqalar. Pedagogika tarixi // Pedagogika oliy oʻquv yurtlari va dorilfununlar talabalari uchun qoʻll. – Toshkent. Oʻqituvchi, 1996, - 301-bet.

MUVAFFAQIYATGA ERISHISHDA VAQTNI BOSHQARISHNING PSIXOLOGIK JIHLARI

Babakulova M.N. – Oʻzbekiston-Finlandiya pedagogika instituti “Psixologiya” kafedrasi oʻqituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada vaqtdan unumli foydalanish inson tafakkuriga bogʻliq jarayon эканлиги, vaqtни boshqarish (vaqtни rejalashtirish) - vaqtни tashkil qilish va optimallashtirish texnologiyasi, barcha rejalashtirilgan ishni oʻz vaqtida bajarish, kechikmaslik, muhim ishlarni orqaga surmaslikda “Taym menejment”ning psixologik jihatlari yoritilgan.

***Kalit so‘zlar:** Taym menejment, ongni to‘g‘ri yo‘naltirish, Parettoning “Disbalans tamoyil”i, dogmatik, dinamik, muvaffaqiyatga erishish, strategik reja, vaqtni tashkil etish, tafakkur, xulq atvor, inson madaniyati.*

Inson tafakkuri orqali fikrlaydi, muammo paydo bo‘lganda esa, fikrlash jarayoni faollashadi.

Muammoni bartaraf etish uchun hayotiy ko‘nikmalar, ya‘ni kundalik hayotdagi vazifalarni samarali hal qilishda insonga zarur bo‘ladigan ijobiy hatti-harakatlar majmui zarur. Ijobiy hatti-harakatlariga inson madaniyati, axloqi, xulq atvori, sog‘lom turmush tarzi kabi shaxsiy kategoriyalarni misol qilib olish mumkin.

Vaqtdan unumli foydalanib muvaffaqiyatga erishishning siri nimada?

Ongimizni to‘g‘ri yo‘naltirish – vaqtdan unumli foydalanishning eng maqbul yo‘lidir:

Maqsadni to‘g‘ri qo‘ya bilish tafakkurimizning faollashuviga olib keladi va qisqa vaqtda ko‘zlangan natijaga erishiladi.

Insonlarni muvaffaqiyatli harakat qiluvchi yoki muvaffaqiyatsiz ishlovchi shaxslar toifasiga ajratishimiz mumkin

Muvaffaqiyatli ishlovchi insonlarning siri vaqtdan unumli foydalanish uquviga egaligidadir

“Aniq maqsadli inson xatto eng og‘ir yo‘lni ham bosib o‘tadi. Maqsadi yo‘q inson esa, xatto eng silliq yo‘lda ham joyidan siljimaydi”- degan edi Tomas Karleyl

Vaqtdan unumli foydalanish doimiy ravishda insonni bezovta qiladi. Chunki, barcha insonlar ham belgilangan muddatga muvofiq oldiga qo‘ygan maqsadlarni amalga oshira olmaydilar.

Kimdir kam kuch sarflash orqali muvaffaqiyatlarga erishadi, kimdir esa ko‘p kuch yo‘qotish hisobiga past natija ko‘rsatkichiga ega bo‘ladi. Shu boisdan ham vaqtdan unumli foydalanish masalasi psixologik muammo sifatida boshqaruv faoliyatimizda uchrab turadi

Insonning shaxsiy faoliyatidagi muammolarini o‘z vaqtida bartaraf etish uchun vaqtdan unumli foydalanish va vaqtni boshqarish mahorati egallansa yaxshi natijalarga erishadi va bu “Taym menejment” degan tushuncha bilan izohlanadi.


Taym menejment - bu o‘z shaxsiy ish vaqtini boshqarish mahoratidir.

Taym menejment- Bu faqatgina zarur ishlar ro‘yxatini tuzish emas, balki vaqt va yuklamani to‘g‘ri taqsimlash hamdir.

Vaqtni boshqarishning ko‘plab tizimlari mavjud ular: har bir daqiqani qat‘iy rejalashtirishdan boshlab kuni hech qanday segmentlarga bo‘linmaydigan yumshoq, moslashuvchan usullaridir.

Psixolog Parkinsonning fikricha: «Agar vaqtni boshqarmasang, u qo‘lingdan uchib ketadi»

Vaqt haqida Vilfredo Parettoning “80/20 qoidasi” ham vaqtdan unumli foydalanishni ifodalaydi. Uningcha «Inson umrining 80 %ini mayda-chuyda, keraksiz ishlarga, 20 %ini muhim, dolzarb ishlarga sarflar ekan».



Ishlarni bajarish jarayonida vaqtni sarflashda quyidagi harakatlarni amalga oshirish, ya'ni «Ishlarni muhim/ muhim emas, dolzarb/dolzarb emasga toifalash mumkin “Vaqt o‘g‘rilari” muvaffaqiyatli inson bo‘lib yetishimiz va vaqtni foydali ishlarga sarflashimizda bizga to‘sqinlik qiladi.

“Vaqt o‘g‘rilari” –bu saviyasi past seriallar tomoshasi, do‘konlarda bo‘sh vaqtni o‘tkazish, soatlab kimnidir hatti-harakatini g‘iybat qilish, INTERNET tizimidaги noma’qul saytlardagi “sayohat”, tafakkur talab qilinmaydigan har-xil o‘yinlar va h.k.

Vaqt o‘g‘rilarining sizning vaqtingizni o‘g‘irlab, sizning ustingizdan hukmronlik qilishiga yo‘l qo‘ymang!

Siz quyidagilarni tartibga keltiring:

O‘z maqsad va intilishlaringizni,

Shaxsiy taraqqiyot rejangizni,

O‘zingizni,

Sog‘lig‘ingiz va hayot tarzingizni

Rejalashtirish yordamida vaqtni tejash:

Vaqtning tashkil etishning mazmuni vaqtni boshqara bilish , vaqtdan foyda olish yoki vaqtning qurboniga aylanishdir.

Strategik reja tuzish – uzoqni ko‘zlab reja tuzishdir.

“Biz bir yilga rejalashtirganimizda, don sochamiz, o‘n yilga rejalashtirganimizda daraxt ekamiz, agar butun umrga rejalashtirsak, kishilarni o‘qitamiz va tarbiyalaymiz.”(Xitoy xalq maqoli)

Rejalashtirishda quyidagilarni inobatga olish zarur: Rejani qog‘ozda yoki elektron variantda tuzish lozim miyada emas. Optimal hordiq chiqarish kerak, har bir soat ishdan so‘ng 10 minut. Kundalik tutish ham qulay, ham foydalidir.

Korxonada muvaffaqiyatga erishishning yana bir samarali yo‘li har bir xodim o‘zining lavozimi va bajarayotgan funksiyalariga qarab strategik vazifalarni amalga oshirishi, istiqbolini ko‘ra bilishi lozim.

Muvaffaqiyatsizlikka erishishning eng oson yo‘li esa, “VAQT” degan qimmatbaho xazinadan noto‘g‘ri foydalanish, ya’ni siz uchun muhim bo‘lgan ishni to‘g‘ri kelmaydigan vaqtda amalga oshirishdir.

Muvaffaqiyatga erishish, ya’ni ishingizning ijobiy hal bo‘lishi uchun, ishingizni hal qiladigan kishi- boshlig‘ingiz, o‘qituvchingiz, turmush o‘rtog‘ingiz, ota-onangiz va h.klar bilan bu ishingizni qachon, qaysi vaqtda muhokama qilishingiz lozimligi haqida puxta o‘ylab kirishish ma’qul.

Inson shaxsi ko‘p qirrali, turli ta’limot vakillari shaxs sifatlari to‘g‘risida, ularning hayotda muvaffaqiyatga erishishlari haqida quyidagi fikrlarni bildiradilar va shaxsning turli xususiyatlariga e’tiborlarini qaratadilar, bir ta’limotda

ta'kidlanishicha, shaxsning mukamalligi va omadini uning boshqa insonlarning zaruriyatiga yordam berishga tayyorligi, ular bilan til topisha olishlariga qarab belgilasa, boshqa ta'limotda esa odamning boshqa odamlarda qanday taassurot paydo qilishlariga qarab o'lchanadi degan fikr ilgari suriladi.

Oila ham hayotda muvaffaqiyatga erishishda asosiy o'rinni egallaydi.

Sharaitlar va vaziyatlar dogmatik emas, ular dinamik xususiyatga egadir, bu o'zgaruvchan jarayonga inson doimo o'z vaqtida, vaqtni boshqara olgan holatda tayyorligini ko'rasata bilsagina muvaffaqiyat kalitining sohibi bo'la oladi

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Maxmudov M. Boshqaruv psixologiyasi. – T.: "Akademiya", 2006.
2. Sattarov E.N. “Omadga erishish psixologiyasi.-T.:G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi”, 2014.

ПЕДАГОГЛАРНИНГ ТАРБИЯЛАНУВЧИЛАР БИЛАН МУОМАЛАСИ

Баратова Дилафруз Олимжоновна – Иқтисодиёт ва педагогика университети ўқитувчиси,

Уралова Маржона – Иқтисодиёт ва педагогика университети талабаси

Муомала-ахборот алмашилиш жараёнидир. Педагог бевосита шахсларга муомалада ўз тарбияланувчилари, умуман, жамоа ҳақида, ундаги ички жараёнлар ҳақида ғоят ҳилма-ҳил ахборотга эга бўлади ва хоказо. Педагог ҳам ўз навбатида муомала жараёнида ўз тарбияланувчиларига мақсадга қаратилган ахборотни маълум қилади.

Педагог муомала воситаси орқали қандай ахборот олишини қараб чиқар эканмиз, талабанинг шахси ҳақидаги ахборотнинг муҳимлигини алоҳида таъкидлаб ўтиш керак. Муомала шахсни ғоят ҳилма-ҳил шароит ва қуринишларда ургатишга имкон беради. Педагог талабалар билан муомала қилар экан жуда майда қисмларни ҳам англаб олишга қодир бўлади. Булар сирдан қараганда унчалик ахамиятли бўлмасада, шахсда содир бўлаётган, уни тушуниш учун жуда муҳим булган зарур ички жараёнлар қуринишларининг аломатлари булиши ҳам мумкин, бунда педагог шахси ката рол уйнайди. Айни ҳил ходисанинг турли кишилар томонидан талқни унинг шахснинг утмишдаги тажрибасига боғлиқлиги билан изоҳланади, бу тажрибанинг уч жиҳати бор: умуман, ҳаётий тажриба, педагогик фаолият тажрибаси ва муайян жамоа билан, талабалар билан муомалада булиш тажрибаси.

Ниҳоят, педагогнинг талабалар билан кундалик муомаласи шунга олиб келадикки, у талабаларнинг хатти-ҳаракатларидаги чуқур маъно ва ҳақиқий сабабни турли вазиятларда пайкаб олади, бунинг учун намуна сифатида у узи тез-тез кайд қилган далиллардан ва талабаларнинг хулқ-атвор усулларида

фойдаланади. Педагогнинг талабалар билан муомаласи тарбияни бошқариш воситасида сифатида қаралиб, бирлаштирувчи урнини тулдирувчи вазифасини ҳам бажаради. Муомала узаро муносабатлар доирасида содир булади. Бошқариш воситаси булган муомала фаолиятидан олдин содир булади. Бошқариш воситаси булган муомала талабаларнинг фаолиятига ҳамроҳлик қилади. Ниҳоят, бошқариш воситаси булган муомала фаолиятидан кейин боради.

Муомала ахлоқ қурқи саналади. Хар бир кишининг қандай дунёқарашга эғалиги, билимлилиги унинг муомаласидан маълум булади. Муомала инсонлар уртасидаги узаро алоқа воситаларидир. Муомалада асосий восита тил ҳисобланади. Шунинг учун ҳам тил алоқа қуроли дейилади. Инсоннинг тили ширин, муомаласи маданиятли булса, қиска вақт ичида халқ орасида обрӯ-эътибор топади. Сузга чечанлик ҳеч қачон инсонга обрӯ келтирмайди. Шунинг учун ҳам утмишда яшаб утган мутафаккирларимиз тилга, сузга ҳурмат билан ёндашишларини уқтириб утганлар. Улуғ бобомиз Алишер Навоий муомала маданияти, хушмуомалалик, тилнинг аҳамияти тугрисида, ширинсузлик ҳақида нурҳикмат фикрлар баён қилганки, бугунги қунимиз учун ҳам уз аҳамиятини юқотган эмас. «Тил ширинлиги қунгилга ёқимлидир, мулоқимлиги эса фойдали Ширин суз соф қунгиллар учун асал қаби тотлидир» дейди А.Навоий. Педагог талабаларга билим бериш учун бир қаторда улар нутқининг ривожланишига ҳам алоҳида аҳамият беради ва бунда у турли педагогик усуллардан фойдаланади.

Талабалар нутқини устиришда педагог (сузи) муҳим аҳамиятга эга: бир томондан, унинг нутқи талабани уқитиш ва тафакқурини ривожлантиришнинг муҳим омили булиб ҳисобланади. Бундан шундай ҳулоса қилиб чиқадики, педагогнинг нутқи образли, чиройли, жарангдор, намунали булмоғи, талаба диққатини узига тортмоғи лозим. Зотан нутқ педагогнинг уз мутахассислиги қай даражада лойиқ эканлигини ифодалайдиган улчов, қурсатқич ҳисобланади. Шунинг учун нутқ устида ишлаш, нутқ маданиятини такомиллаштириб бориш хар бир педагогнинг энг асосий ижтимоий бурчи ва масъулияти ҳисобланади. Таълим – тарбия ичида нутқнинг таъсир қучи ниҳоятда қаттадир. Педагогнинг нутқи талабаларнинг узларини тута билишларига, ҳулқ-атвори ва фикр юритишларига ҳам таъсир этувчи қучли воситадир. Педагогнинг нутқида унинг ҳисси, интилишлари ирода ва эътиқоди акс этади. У нутқ ёрдами билан талабаларда ҳурсандчилик, руҳланиш, муҳаббат, садокат, газабланиш, нафратланиш ҳисларини тугдиради. Халқ билан бирга туриш, бирга яшаш муошарат деб аталади. Одамларнинг бир-бирлари билан булган муносабатларининг гузаллиги, мулоқимлигига «Муошарат одоби» дейилади. инсоннинг энг улуғ, лекин мураккаб ва машаққатли фаолиятларидан бири одамлар орасида, яъни жамиятда ўз ўрнини топиб яшашида. Бу фаолиятнинг мураккаблиги шундаки, қуччиликка қушилиш, улар билан (алоҳида) аҳил булиб яшаш учун инсонда шунга яраша муомала ва муносабат булиши қерак. Муомала ва муносабат қуччиликнинг дилига тугри қелмайдиган қупол ва дилозор одамни қуччилик ёқтирмайди. Инсонлар хушфёъл, ширинсухан, мард, муомаласи ширин

кишиларни дилдан ёктиришади ва хурмат-эътибор килишади. Инсонлар орасида муносиб урин топиш, иннок, иттифок яшаш шартларидан бири одамнинг камтарлигидир. Камтарин инсон ҳеч қачон узининг ютуғи билан, бой-давлатлилиги билан, илм-хунари билан мактанмайди, ҳамма вақт камгап, содда булади. Аммо инсондаги камтарлик самимий булмағи зарур.

Суз инсон қалбини илитади, суз инсон қалбини жароҳатлайди. «Тиг яраси кетар, суз яраси кетмас» деган халқ мақоли бекорга айтилган эмас. Чунки сузнинг қудрати бениҳоя катта. Инсон уз сузига, тилига ниҳоятда эҳтиёткор булмағи лозим. Айрим ёшларимизда сузга, тилга эътибор анча суст. Энг аввало, ёшларга муомала маданиятини, катталар олдида махмадоналик қилмасликни, катталар гапини булмасликни, ёши улугларга гап қайтармасликни ургатишимиз зарур.

Муомала маданияти ҳамма жойда керак. Иш жойида, транспортда, уйда шунинг учун ҳам биз ким билан қандай муомала қилишни билишимиз керак. Инсоннинг қанчалик билимли, ақл-заковатли эканлигини муомала орқали намоён булади.

Одамлар бутун ички дунёсини, мақсадини, муомала ва муносабатларини бир-бирларига суз ёрдамида етказди, амалга оширади. Шу туфайли сузлашув муносабатларини ниҳоятда гузал ва мулойим булишини ҳаёт такозо этади. Сузга бой, ширинсухан кишиларнинг муомалалари ёқимли, иши ҳам юришган булади. Бундайларни одамлар ёктиради, ҳурмат қилади. Сузлашув ҳам узига ҳос санъатдир. Бу санъатни мукамал урганиш ҳар бир инсонга зарур. Шу билан бирга, она тилини мукамал урганмок ҳар бир инсоннинг муқаддас бурчидир. Тилни билгач: уни ишлата билиш санъатини эгалламок инсон учун зарурдир.

Ширин сузлик ва гузал нутқ ҳеч қачон, ҳеч қаерда сотилмайди. Бунга эришмоқликнинг биргина юли бор. Бу ҳам булса, тинимсиз ширин сузлашни машқ қилмоқликдир. Бу эса, асосан, қуп қитоб уқиш юли билан амалга оширилади. Муомала инсоннинг қимлигини қурсатувчи юзидир.

Муомала категорияси умумий психология фанининг асосий категорияларидан бири ҳисобланиб, у уз ичига шахслараро муносабатнинг энг муҳим механизмларини қамраб олган. Психология фанида муомала категорияси қенг алоқани мужассамлаштириб, одамлар уртасида узаро муносабатни ақс эттиради. Муомаланинг энг муҳим тарқифи мулоқот саналиб, мотивацияда мотив қандай аҳамият қасб этса, у ҳам худди шундай муҳим рол уйнайди. Муомала ҳамқорлик фаолиятининг эҳтиёжидан вужудга қелиб қуп қирралари қараёнидир. Муомала қуйидаги тарқибий қисмлардан ташқил топган.

1. Қоммуникатив (бир томонлама ахборот узатиш).

2. Муомала уз ичига ҳамқорлик фаолиятининг қатнашчилари билан узаро ахборот алмашинувини қамраб олган қулиб, қоммуникатив қабҳа сифатида тавсифланиши мумкин. Одамлар бир-бирлари билан мулоқотга қиришиши қараёнида муомаланинг муҳим воситаларидан бири тилга ва нутқ фаолиятига бевосита мувоҷат қиладилар.

3. Интерқаол (иққи томонлама таъсир) -мулоқотга қиришувчиларни

узуро таъсири, уларнинг нутк фаолиятида нафакат суз оркали фикр алмашинуви, балки хатти харакати ва хулк- атвори узуро таъсир утказиш тушунилади.

4. Ўзуро бир-бирини идрок қилиши, англаши. Бунда мулоқотга киришувчилар ўзуро бир-бирини идрок қилиши жараёни намоён бўлади. Яъни, улардан бири иккинчисининг ишончига лойиқ ақилли, фаросатли, тажрибали, юксак тайёргарликка эга инсон сифатида идрок қилинади.

Педагогик муомала- бу педагогнинг талабага таъсир утказиш уларнинг бир-бирлари билан ҳамкорликларининг фаолиятидир.

Ҳамкорлик узуро ахборот алмашинуви -турлича коммуникатив воситалар ёрдамида педагог томонидан талабалар билан ўзуро муносабатни ташкил қилади. Педагогик фаолиятда муомала муайян дастур асосида мақсадни амалга ошириш, режалаштириш ва утказиш функциясини бажаради. Яъни муомала:

-Ўқув фаолиятини яқка хол бажаришнинг воситаси;

-Тарбия жараёнини таъминлашнинг ижтимоии-психологик тизими;

-Таълим ва тарбиянинг муваффақиятини таъминловчи педагог билан талабалар узуро муносабатининг муайян тизимини ташкил қилишнинг усули;

-Талаба индивидуаллигини такомиллаштириш, истеъдодини қарор топшириш имконини берувчи жараён сифатида хизмат қилади.

Муаллим педагогик жараёнда етакчи кишидир. Унга ёш авлодни уқитиш ва тарбиялаш вазифаси юклатилган. Шунинг учун ҳам педагогга, унинг ахлокий сифатларига талабалар билан муомаласига нисбатан алоҳида юксак талаблар қуйилади. Муаллим ҳаётга эндигина кириб келаётган, баркамол шахс сифатида шаклланаётган инсонлар -ёш талабалар бплап мулоқотда бўлади. Талабалар таълим-тарбия жараёнида умуминсоий ва миллий ахлоқ нормаларини узлаштиради. Талаба муомала одобини агосан педагог тимсолида англаб олади. Педагоглар жамоасида педагоглар уртасидаги муомала-муносабатлар инсонпарварлик, ихтиёрийлик тамойилларига асосланади. Улар одатда, икки хил бўлиб, бири-расмий, иккинчиси-норасмий муомала дейилади. Расмий муомала-муносабатлар Ўзбекистан Республикасининг қонунлари, директив ҳужжатларига асосланади. Норасмий муомала педагогик этиканинг қонуниятларига асосланади ва жамоанинг ҳар бир аъзоси томонидан ихтиёрий равишда бажарилади. Муомала одоби психологик қонуниятлар, одоб нормалари, қоидаларида талаблари педагоглар жамоасининг фикри асосида бажарилади. Ёшларга таълим-тарбия бериш бир кишининг иши эмас. Уни педагоглар жамоаси бажаради. Таълим-тарбияда қузда тутилган мақсадга эришиш учун уқув юрти бутун жамоаси, »хамма педагоглари бирлашиб харакат қилишлари лозим. Ҳар бир муаллимнинг хатти-харакати, хулқи, муомаласи педагоглар жамоасининг мақсади талабларига мос бўлмоғи керак. Жамоанинг айрим педагогга таъсири педагоглар жамоасида шаклланган муомала одоби муносабатларига бог-лик. Ҳар бир талабанинг тарбияси учун маъсулиятнинг бирлиги педагоглар жамоасининг талабага нисбатан талабларидан биридир. Дарсда талабаларнинг интизоми педагогик жамоадаги муомала одоби ахлокий муносабатлар

даражасини курсатади. Коллежда укув интизомини саклаш бутун педагоглар жамоасининг иши. Педагоглар жамоасида узаро ёрдам ва ишончнинг мавжудлиги муомала одобига амал қилишнинг муҳим шартидир. Муомала одобига риоя қилиш педагоглар жамоасининг мақсадига педагогларнинг ахлоқий савиясига борлиқ. Педагоглар жамоасида ўзаро муомала муносабатлар ўқув-тарбия жараёнини такомиллаштиришга масъулият ва интизомни саклашга асосланади. Педагогик жамоада соғлом ақлий-руҳий муҳит мавжуд бўлса, ахлоқий норма ва йўл-йўриқлар бажарилибгина қолмасдан, балки улар ҳар бир муаллимнинг эътиқодига, одатига айланади. Педагоглар жамоасининг шахс ва жамоа учун фойдали ишларига асосланган таъсири натижасида муаллимнинг маънавий кифоасида чуқур сифат ўзгаришлар содир бўлади. Ижтимоий бурчни тўғри англаш, хулқини тўғри баҳолай олиш одати шаклланади. Жамоада узаро муомала яхшиланади. Муомала жараёнида унинг мақсадга мувофиқ амалга оширишни таъминлаш учун ижтимоий назорат ва ижтимоий қонун-қоидалар муҳим аҳамиятга эга. Бу назоратда ўқув муҳим таъсир этиш воситаси иштирок этади: маъқулламалик, қоралаш, жазолаш.

Муомала жараёнида талаба ёки талаба хулқ ижтимоий қонун-қоидалар маромига зид келса, у ҳолла унинг хатти-ҳаракати қораланади, эътироз, танбех, эслатиш каби воситалар билан таъсир утқазилади. Муомала вақтида одоб, одоблилик муҳим аҳамиятга эга. Унинг асосий вазифалари: ахборот алмашув, узаро таъсир, узаро идрок қилиш, турри амалга ошишини идора қилиб туради. Ҳар бир фикр билдирилганда, мулоқотдош қабул қилаётганини фахмлаб туриш, ташқи қуранишлари ўзгаришига эътибор бериш, ўз сураш тавозе билан мувожаз қилиш эвазига муомала одоб ишлаб турилади. Муомала жараёнида баъзи бир хатти-ҳаракат ўйламай билдирилган фикр, ортиқча имо-ишора одобсизликка олиб келади. Одобсизлик эса низоли вазият, қарама-қаршилик, зиддиятли вазиятни келтириб чиқаради. Бунинг натижасида муомала фикр алмашув ўзини вазифасини низоли вазиятга бушатиб беради. Педагогик муомалада психологик алоқа ўрнатиш алоҳида аҳамиятга эга, чунки талаба билан узаро муносабат, ҳурмат ишонч негизида қурилади.

Бунда педагог талабанинг ҳйқук мажбуриятини, унинг коллежда, жамоат жойларида, оилада бажарадиган вазифаси нимадан иборат эканлигини эътибордан четга чиқармаслиги лозим.

Педагогнинг талабаларга таъсир утқазиш самараси унинг принципаулиги ва талабчанлигида ўз аксини топади. Бундан ташқари у ўзига ҳам ута талабчан бўлмоғи, шахсий намунаси билан табиий равишда обрў-эътибор қозонмоғи лозим. Муомала жараёнида ва ҳамкорлик фаолиятида педагогнинг талабаларга таъсир утқазиш натижасида уларда:

ўз - ўзини ва ўзгаларни ҳурмат қилиш;

ўз - ўзини ва бошқаларнинг фаолияти, хулқини баҳолаш;

ўз - ўзини бошқариш;

ўз - ўзининг назорат ва ўзгаларни назорат қилиш;

ўз - ўзини такомиллаштириш ва янги фазилатларни эгаллаш шаклланади.

Дустона муомалада талаба билан педагог уртасидаги билимларни пухта узлаштиришни таъминлайди ва мукамал шахсий фазилатларни таркиб топтиришга хизмат килади.

Педагогик жараёнда содир. буладиган муомала одоби, муаллимнинг ахлокий маданияти, тарбияланшнлик даражаси акс этади. Муаллимнинг педагогик касб эгаси сифатида узига, уз касбига талабаларга булган муносабати унинг мулокотида яккол намоён булиши мумкин. Педагогик жараёндаги алокалар тизимида педагог билан талаба уртасидаги муомала муносабатлар катта урин эгадлайди. Педагоглар жамоасида ижодкорлик мухити муомала одобининг шаклланишида жамоат ташкилотларининг роли каттадир. Улар муаллимнинг обрусини ошириш жамоат ишларига фаол катнаштириш юли билан педагогнинг ахлокий педагогик маданияти, маъсулияти оширишига кумаклашади. Муаллим хар-бир сузини уйлаб гапириши, бошкаларнинг касбдошларининг сузи, фикри, мулохазаларини тинглай олиши хам педагогик жамоада узаро муомала муносабатларини яхшилашга хизмат килади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Азизхужаева Н.Н. Педагогик технология ва педагогик махорат. – Т.:ТДПУ, 2003.
2. Ишмухамедов Р.Ж. “Инновацион технологиялар ёрдамида таълим самарадорлигини ошириш юллари”. – Т.: ТДПУ, 2004.
3. Сайидахмедов Н. “Янги педагогик технологиялар”. –
4. Очилова Г.О. ”Педагогик махорат” Тошкент., “ТДИУ” 2005 йил
5. В.А.Сластенина В.А. Педагогика профессионального образования. Москва «Академия». 2004.

HARBIY PSIXOLOGIYA: ZAMONAVIY YONDASHUVLAR, MUAMMOLAR VA TAKLIFLAR

Beysebayeva Fotima Bahrom qizi – Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti Psixologiya (faoliyat turlari) yo'nalishi magistranti

Annotatsiya. Harbiy psixologiya - bu harbiy harakatlar va shaxsiy tarkibning psixologik jihatlariga qaratilgan maxsus soha. Ushbu tadqiqot hujjati harbiy psixologiyadagi zamonaviy yondashuvlarni o'rganadi, harbiy xizmatchilar duch keladigan TSSB, stress va chidamlilik kabi asosiy muammolarni aniqlaydi va ushbu muammolarni hal qilish uchun strategiyalarni taklif qiladi. Tadqiqotda umumiy samaradorlik va farovonlikni oshirish uchun psixologik yordamni harbiy tayyorgarlik va operatsiyalarga integratsiya qilish muhimligi keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Harbiy psixologiya, TSSB, stress, chidamlilik, psixologik yordam, harbiy tayyorgarlik, ruhiy salomatlik, zamonaviy yondashuvlar.

Harbiy psixologiya harbiy xizmatchilarning ruhiy salomatligi va farovonligiga e'tibor qaratib, harbiy kontekstga psixologik tamoyillar va amaliyotlarni qo'llashni o'z ichiga oladi. U stressni boshqarish, chidamlilikni oshirish va travmatik tajribalar bilan kurashish kabi muammolarni hal qiladi. Zamonaviy urush rivojlanib borar ekan, harbiy xizmatchilar duch keladigan psixologik muammolar ham yangilangan yondashuvlar va yechimlarni talab qiladi.

Harbiy psixologiyada zamonaviy yondashuvlar

Chidamlilik treningi:

- Ta'rifi va ahamiyati: Bardoshlilikka o'rgatish harbiy xizmatchilarning qiyinchiliklar, stress va jarohatlardan qutulish qobiliyatini oshirishga qaratilgan.

- Dasturlar va texnikalar: Har tomonlama askar va oilaviy fitnes (CSF2) kabi dasturlar aqliy mustahkamlik, hissiy kuch va ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan.

Stressni boshqarish choralari:

- Kognitiv-xatti-harakat usullari: ongni yo'qotish, dam olishni mashq qilish va kognitiv qayta qurish kabi usullar stressni boshqarishga yordam beradi.

- Biofeedback va Neurofeedback: Ushbu texnologiyalar stressni tartibga solishda yordam beradigan fiziologik javoblar haqida real vaqtda fikr-mulohazalarni taqdim etadi.

Travma haqida xabar berilgan avtomobil:

- TSSBni tushunish: Shikastlanishdan keyingi stress buzilishi (TSSB) harbiy xizmatchilar orasida muhim muammo bo'lib, maxsus terapevtik yondashuvlarni talab qiladi.

- Dalillarga asoslangan terapiya: Ko'z harakatini desensitizatsiyalash va qayta ishlash (EMDR) va uzoq muddatli ta'sir qilish terapiyasi kabi muolajalar TSSBni davolashda samaradorlikni ko'rsatdi.

Tengdoshlarni qo'llab-quvvatlash dasturlari:

- Rol va samaradorlik: Tengdoshlarni qo'llab-quvvatlash dasturlari umumiy tajribalar orqali ruhiy salomatlikni qo'llab-quvvatlovchi norasmiy yordam tarmog'ini ta'minlaydi.

- Amalga oshirish: Battle Buddy va Tengdoshlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha mutaxassislar kabi dasturlar harbiy xizmatchilar o'rtasida o'zaro yordamni osonlashtiradi.

Harbiy psixologiya muammolari

Ruhiy salomatlik atrofidagi stigma:

- Madaniy va institutsional to'siqlar: yutuqlarga qaramay, stigma psixologik yordam so'rash uchun to'siq bo'lib qolmoqda.

- Xodimlarga ta'siri: zaif deb hisoblanish qo'rquvi harbiy xizmatchilarni zarur ruhiy salomatlik xizmatlaridan foydalanishdan to'xtatib qo'yishi mumkin.

Joylashtirish bilan bog'liq stress:

- Operatsion stress: Uzoq muddatli joylashtirish va jangga ta'sir qilish surunkali stress va ruhiy salomatlik muammolariga olib kelishi mumkin.

- Oilaviy ta'sir: tarqatish, shuningdek, harbiy xizmatchilarning oilalariga ham ta'sir qiladi, bu munosabatlardagi stress va ikkilamchi shikastlanishga yordam beradi.

Reintegratsiya muammolari:

-Fuqaroviy hayotga o'tish: fuqarolik hayotga qaytish muhim psixologik muammolarni keltirib chiqaradi, jumladan, shaxsni o'zgartirish va harbiy bo'lmagan muhitga moslashish.

- Qo'llab-quvvatlash tizimlari: adekvat qo'llab-quvvatlash tizimlari muammosiz reintegratsiya uchun juda muhim, ammo bu tizimlarda bo'shliqlar saqlanib qolmoqda.

Texnologik va axloqiy masalalar:

- AI va VRdan foydalanish: psixologik aralashuvlarda sun'iy intellekt (AI) va virtual haqiqat (VR) integratsiyasi axloqiy va amaliy tashvishlarni keltirib chiqaradi.

- Ma'lumotlarning maxfiyligi: nozik psixologik ma'lumotlarning maxfiyligi va xavfsizligini ta'minlash muhim masaladir.

Muammolarni hal qilish bo'yicha takliflar

1. Ruhiiy salomatlik savodxonligini oshirish:

- Ta'lim va o'qitish: stigmani kamaytirish va yordam so'rash xatti-harakatlarini rag'batlantirish uchun harbiy tayyorgarlik dasturlariga ruhiy salomatlik bo'yicha ta'limni kiritish.

- Yetakchilikni jalb qilish: harbiy rahbarlarni ruhiy salomatlik haqida xabardorlikni oshirish va qo'llab-quvvatlashga jalb qilish.

2. Yordam tarmoqlarini mustahkamlash:

- Oilani qo'llab-quvvatlash dasturlari: joylashtirilgan xodimlarning oilalari uchun ularning noyob ehtiyojlarini qondirish uchun keng qamrovli qo'llab-quvvatlash dasturlarini ishlab chiqish.

- Jamiyat integratsiyasi: reintegratsiyaga yordam berish va har tomonlama yordam berish uchun harbiy va fuqarolik jamoalari o'rtasidagi aloqalarni rivojlantirish.

3. Tadqiqot va innovatsiyalarni rivojlantirish:

- Innovatsion terapiya: VR-ga asoslangan ta'sir qilish terapiyasi kabi yangi terapevtik yondashuvlarni ishlab chiqish va tasdiqlash uchun tadqiqotlarga sarmoya kiritish.

- Axloqiy asoslar: Harbiy psixologiyada rivojlanayotgan texnologiyalardan foydalanish bo'yicha aniq axloqiy ko'rsatmalarni o'rnatish.

4. Siyosat va infratuzilmani rivojlantirish:

- Xizmatdan foydalanish: ruhiy salomatlik xizmatlaridan barcha harbiy xizmatchilar, shu jumladan uzoq yoki joylashtirilgan joylarda bo'lganlar uchun osonlik bilan foydalanish imkoniyatini ta'minlash.

- Uzoq muddatli monitoring: erta aralashuvni osonlashtiradigan va doimiy qo'llab-quvvatlovchi psixologik salomatlikni uzoq muddatli monitoring qilish tizimlarini joriy etish.

Xulosa harbiy psixologiya harbiy xizmatchilarning ruhiy salomatligi va tezkor tayyorgarligini saqlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Zamonaviy yondashuvlarni qabul qilish, mavjud muammolarni hal qilish va strategik takliflarni amalga oshirish orqali soha harbiy xizmatchilarning farovonligi va samaradorligini oshirishi mumkin. Ushbu maqsadlarga erishish uchun doimiy izlanishlar, siyosatni ishlab chiqish va jamoatchilikni jalb qilish muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Adler A.B., Kastro C.A. (2013). Harbiy psixologiya: Klinik va operatsion ilovalar. Guilford Press.
2. Xoge C.W., Kastro, C. A., Messer, S. C., MakGurk, D., Kotting, D. I., Koffman R.L. (2004). Iroq va Afg'onistondagi jangovar vazifa, ruhiy salomatlik muammolari va parvarish qilishdagi to'siqlar. New England Journal of Medicine, 351 (1), 13-22.
3. McCauley M.D., Meyer E.C. (2020). Harbiy psixologiyaning yutuqlari. Joriy psixiatriya hisobotlari, 22 (1), 1-11.
4. Reger G.M., Gahm G.A., Ruggiero K.J., Stetson C.A. (2013). Operatsiyalar va jangovar harakatlar uchun chidamlilik mashg'ulotlari. A. B. Adler va C. A. Kastro (Eds.), Harbiy psixologiya: Klinik va operatsion ilovalar (123-140-betlar). Guilford Press.
5. Tanielian T., Jaycox L.H. (Tahrirlar). (2008). Urushning ko'rinmas yaralari: Psixologik va kognitiv jarohatlar, ularning oqibatlari va tiklanishga yordam berish xizmatlari. Rand korporatsiyasi.
6. Vogt D., Taverna, E. (2018). Armiyada stigma va ruhiy salomatlik. J. D. Uorten va J. A. Moos (Eds.), Veteran va harbiy ruhiy salomatlik: sog'liqni saqlashni tushunish va yaxshilash (73-94-betlar). Springer.
7. Mexmonovna M.Z. Xavfsizlik xizmatida psixologik xarakteristikalar: Maxmudova Zulfiya Mexmonovna, Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi // Ta'lim innovatsion tadqiqot xalqaro ilmiy-metodik jurnali. – 2023. – №. 2. – S. 367-375.

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI VA OTA-ONALAR O'RTASIDAGI O'ZARO MUNOSABATLAR SHAKLLARI

*Bo'riyeva Elnora Shavkat qizi.
Iqtisodiyot va Pedagogika Universiteti NTM talabasi*

***Annotatsiya.** Maqolada Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagogik jamoa va ota-onalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarga katta e'tibor berilmoqda. Ota-onalar ta'lim xizmatlarining mijozlariga aylangan zamonaviy o'zgaruvchan sharoitlarda o'zaro ta'sir sifatini boshqarishning o'ziga xos xususiyatlarini tushunish asosiy sabablari keltirilgan.*

***Kalit so'zlar.** Ta'lim, tarbiya ota-ona, hamkorlik, pedagogik jarayon, bola o'yin.*

Ota-ona va maktabgacha ta'lim muassasasi bir-birini almashtira olmaydi.

Bolalarni tarbiyalash insonning eng qadimgi faoliyatidir. Qadim zamonlarda u san'at bilan taqqoslangan. Tarixiy manbalarga murojaat qiladigan bo'lsak, yosh avlod tarbiyasida oila birlamchi bo'lganligi haqida ko'plab dalillar mavjud. Inson rivojlanishi jarayonida bolalarga g'amxo'rlik qilish, ularning jismoniy va aqliy rivojlanishi alohida funksiyaga aylandi va oiladan tashqari ta'lim muassasalari shakllana boshladi. Shuni ta'kidlash kerakki, ko'p asrlar davomida oilaning farzand tarbiyasidagi o'rni birinchi darajali ahamiyatga ega [2, 146-b].

P.Yusupova tadqiqotlariga ko'ra bola 2-3 yoshga kirganidayoq unda uyatchanlik, mustaqillik yoki o'ziga ishonchsizlik, xudbinlik yoki g'amxo'rlik, o'z tengdoshlariga e'tibor bilan munosabatda bulish kabi shaxsiy xususiyatlar namoyon bo'la boshlaydi. Bularning hammasi bolalarning tevarak-atrofdagilar bilan bo'ladigan munosabatini belgilaydi [5, 104-b].

G.Berdaliyeva o'z tadqiqotlarida maktabgacha yoshdagi bolalarni mustaqilligiga e'tibor berib, narsa-hodisalar olami, ular yordamida amalga oshiriladigan xatti-harakatlar, ona tili va odamlar orasidagi munosabatlarni anglash, ayni zamonda faoliyat motivlarining rivojlanishi, qobiliyatlarning o'sib borishi kattalarning bevosita yordami asosida amalga oshishini ta'kidlaydi .

D.Abdurahimova xalq og'zaki ijodi asosida maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash haqida so'z yuritib, maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy-madaniy kompetensiya – hayotiy vaziyatlarda kattalar va tengdoshlari bilan muloqotda axloq qoidalari va meyorlarini bolalar xalq og'zaki ijodi namunalari vositasida egallab borishi to'g'risida qat'iy xulosaga kelingan. Maktabgacha yosh davridan boshlab bolalarda yuksak ma'naviy-ma'naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirish ko'p bosqichli va murakkab jarayon bo'lib, bu jarayon texnologik yondashuvni talab qilishi ta'kidlangan [2, 18].

Maktabgacha ta'limda bolaning xulq-atvorni rivojlantirishning asosiy sharti qoidalarni bolalarga yetkazish, ularda mavjud bo'lgan talablarning mazmuniy-mantiqiyiligini tushunishdir, deb hisoblaydi. Shuningdek, guruhni tartibga solish, bolalarning ongli o'zlashtirishi, ularni faol mehnatga jalb qilish, g'oyaviy tuzilmaga bo'lgan qiziqarli tadbirlarni tashkil etish zarur.

SH.Shodmonova kishi hayotining dastlabki faoliyatidagi eng oddiy turi undagi shaxsiy qobiliyatlar, xususiyatlar, imkoniyatlar asosida ma'lum bir munosabatni rivojlanishida asos bo'lib xizmat qiladi deb hisoblaydi. [1, 39-b].

Bolani har tomonlama barkamol etib tarbiyalashda uning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi muhim hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bolaning kelgusida umumiy o'rta ta'lim maktabida muvaffaqiyatli o'qishi, balki hayotiy o'rnining shakllanishi ham ma'naviy-axloqiy tarbiyasi darajasiga bog'liq. Maktabgacha yosh davrida oilada va maktabgacha ta'limda tashkil etilgan ta'lim va tarbiya jarayonlarda bolaning shaxsiyati shakllanadi, ya'ni tashabbuskorlik, tashkilotchilik, ijtimoiy-madaniy faollik, faol muloqotga kirishuvchanlik, mustaqillik, mas'uliyat, javobgarlik kabi asosiy shaxsiy fazilatlar shakllanadi.

Maktabgacha ta'lim sohasining yetakchi olimalaridan F.R.Qodirovaning fikricha: "Bolalarning rivojlanishi va tarbiyalanishining yosh bilan bog'liq davrlarida faoliyatning turli xillari yonma-yon bo'ladi va o'zaro ta'sir ko'rsatadi, lekin bunda ularning roli bir xil bo'lmaydi: har bir bosqichda faoliyatning yetakchi turi ajratiladi, unda bolaning rivojlanishidagi asosiy yutuqlar namoyon bo'ladi. Har bir faoliyat ehtiyoj, sabablar, faoliyat maqsadi, mavzui, vositalari, buyumlar bilan amalga oshiriladigan harakatlar va nihoyat, natija bilan ajralib turadi" deya maktabgacha yoshdagi bolalar faoliyati ularning yosh bosqichlariga xos ravishda takomillashib borishini ta'kidlaydi [139].

Bugungi kunda pedagogik jamoa va ota-onalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarga katta e'tibor berilmoqda. Ota-onalar ta'lim xizmatlarining

mijozlariga aylangan zamonaviy o'zgaruvchan sharoitlarda o'zaro ta'sir sifatini boshqarishning o'ziga xos xususiyatlarini tushunish uchun "o'zaro ta'sir" tushunchasining mohiyatini ko'rib chiqish muhimdir.

Shunday qilib, o'zaro munosabatlarning umumiy falsafiy yondashuvlari maktabgacha ta'lim muassasasi va oila o'rtasidagi munosabatlarni ko'p qirrali hamkorlik majmui sifatida ko'rib chiqishga imkon beradi, shuningdek, ota-onalar bilan ishlash shakllarini va ularning munosabatlarini amalga oshirishning ichki mexanizmlarini aniqlashga yordam beradi. Shu bilan birga, sotsiologiya nuqtai nazaridan ko'rib chiqiladigan "o'zaro ta'sir" (M.S.Komarov) odamlarning bir-birining ongi va xulq-atvoriga o'zaro ta'sir qilish jarayoni bo'lib, bu jarayonda harakatlarni o'zaro muvofiqlashtirish sodir bo'ladi [3, 102-b]. N.F.Radionova "o'zaro ta'sir" tushunchasini to'ldiradi, uning keng va tor ma'nosini ta'kidlaydi. Keng ma'noda u buni inson ishtirok etadigan hayotiy jarayonlar to'plami sifatida tushunishni taklif qiladi va uning muhim xususiyati o'zaro ta'sir va ta'sirlar natijasida o'zaro ta'sir qiluvchi tomonlarning o'zaro o'zgarishi bo'lib, ma'noni rivojlantiradi. Ijtimoiy ma'noda N.F.Radionova insonning barcha hayotiy jarayonlari o'zaro ta'sir emas, balki faqat o'zaro ta'sir qiluvchi tomonlarda ijobiy, ijtimoiy qadriyatli o'zgarishlarni ta'minlaydigan narsalar deb hisoblaydi. Shu bilan birga, u o'zaro ta'sirning yana bir ma'nosini ta'kidlaydi, unda bu tushuncha odamlar, shuningdek, ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlar sifatida talqin etiladi [3, 35-b]. Guruhlar va odamlar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlar fikr va hissiyotlar, ma'naviy qadriyatlar almashinuvini o'z ichiga oladi. Bu fikr psixologlar L.P.Bueva va M.S.Kogon tadqiqotlarida o'z ifodasini topgan. Mualliflarning fikriga ko'ra, o'zaro ta'sirning mohiyatini ochib beradigan muhim xususiyat - bu faoliyat. Aynan faoliyatda shaxs munosabatlarga va o'zaro ta'sirga kirishadi.

Sharq va G'arbda keng tanilib "Shayx ur-ra'is" nomiga sazovor bo'lgan Abu Ali Ibn Sinoning (980-1037) «Tib qonunlari» va «Tadbiri manzil» asarlarida oila, ota-ona hamda bola munosabatlariga oid pedagogik va psixologik qarashlari bayon etilgan. Uning oilani shaxslararo munosabatlar manbai, o'zaro ta'sir o'tkazishning qulay ijtimoiy-madaniy muhiti, milliy an'analar ta'sirchanligi, taqlid, yuqish fenomenlari negizi ekanligi to'g'risidagi mulohazalari to'g'risida hozirgi davrgacha o'z kuchini yo'qotgani yo'q. U bola tarbiyasida ota-onalarning umuminsoniylik tamoyillariga amal qilishlarini ta'kidlaydi. Tarbiyachi, ota-onalarga uni qattiq tana jazosidan farqli o'laroq, shaxsiy ibrat orqali tarbiyalash ma'qulligini uqtirgan. Ibn Sino oila boshlig'i oldiga katta talablar qo'yadi, farzandlarni bir-biriga nisbatan mehr-oqibat tuyg'usi orqali tarbiyalash, iliq ruhiy muhitni yaratishni uqtiradi. Oiladagi noxush tarbiya faqat shu oilagagina salbiy ta'sir qilib qolmasdan, balki boshqa oilalarga ham xuddi shunday ta'sir qilishini oqilona tarbiya oila baxtining muhim asosi ekanligini ta'kidlaydi. Ibn Sino bola yomon xarakter xislatning egallashini kutmasdan turib, uni ijobiy fazilatlar bilan tanishtirib, bolaga yaxshi odobni singdirish kerak, - deb yozadi. Uning ta'kidlashicha, sharoit (muhit) qanday bo'lishidan qat'iy nazar, farzand kamoloti ota-onalarning asosiy vazifasidir, ular davlat boshlig'imi yoki jamiyatning oddiy bir a'zosi, bari bir tarbiya masalasida ular uchun bir xil talab qo'yilishi kerak, chunki bu ijtimoiy-madaniy ehtiyojdir

[Zunnunov A. Pedagogika tarixi // Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. – T.: 2004. - 335 b.].

O'z navbatida, D.A.Leontiyev birgalikdagi faoliyatning ikki ishtirokchisi o'rtasidagi o'zaro ta'sirning asosiy turlarini aniqlaydi. Birinchi tur - o'zaro ta'sir, "sheriklarning har biri bir-biriga obyekt sifatida qaraydi va o'z navbatida, u uchun obyektidir. Keyingi tur - kooperativ, ya'ni faoliyatga kiritilgan subyekt va subyektning o'zaro ta'siri uning ishtirokchilarini muvofiqlashtirish shakli sifatida ishlaydi va pirovardida uning ishtirokchilari o'rtasida taqsimlangan individual harakatlarni birgalikdagi faoliyatga birlashtirishni ta'minlaydi. Va monotsentrik tip, agar sheriklardan biri faoliyat obyektini sifatida harakat qilsa, ikkala ishtirokchi o'rtasida birgalikda taqsimlanadi [5, 5-b].

Psixologik nuqtai nazardan "o'zaro ta'sir" toifasi shaxslararo o'zaro ta'sirga asoslanadi. N.N.Obozova, B.P.Parigina, V.V.Boykning so'zlariga ko'ra, shaxslararo o'zaro ta'sir haqiqatan ham ishlaydigan aloqa, subyektlar va shaxslar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik sifatida qaraladi. Mualliflarning fikricha, o'zaro ta'sirning komponentlari o'zaro tushunish, o'zaro bilish, munosabatlar, o'zaro harakatlar, o'zaro ta'sir, o'zaro ma'lumotdir [5, 51-b].

Pedagogika fanida ta'lim sohasidagi ko'plab hodisalarni tushuntiruvchi kategoriya sifatida o'zaro munosabatlarga qiziqish XVI-asrning o'rtalaridan boshlab namoyon bo'la boshladi. Y.A.Komenskiy o'z pedagogikasini ota-onalar bilan o'zaro munosabatlarga qaratilgan demokratik intilishlar asosida qurdi

[1, 220-b.]. Bir vaqtlar I.G.Pestalotssi oila o'ylab topilmagan, balki "jonli" hayotiy zarurat yordamida o'rgatishini, so'z bilan emas, amalda o'rgatishini qayd etgan

[1, 220-b]. K.D.Ushinskiy XIX-asrning o'rtalarida tarbiyalash oilada amalga oshirilishi kerak deb hisoblagan. Keyinchalik, P.F.Kapterev ta'lim muassasasi va ota-onalar o'rtasidagi yaqin hamkorlik haqida yozgan. U ota-ona tarbiyasi bola kamolotining asosi, ta'lim muassasasi va ota-onaning hamkorlikdagi tarbiyasi bolalarning maktab faoliyatida aks etadi, deb hisoblagan I.O.A.S.Makarenko shunday deb yozgan edi: "Biz oila o'zi xohlagandek ta'lim bera olishiga kafolat bera olmaymiz. Biz oilaviy ta'limni tashkil etishimiz, tashkilotchilik tamoyili esa davlat ta'limi vakili sifatida maktab bo'lishi kerak". Ammo, shu bilan birga, u oila asosiy jamoa ekanligini ta'kidlaydi, bu yerda har bir kishi o'z funksiyalari va majburiyatlari, shu jumladan bola ham to'liq a'zodir. A.S.Makarenko ota-onalarga bolalarni tarbiyalashdagi muvaffaqiyatsizliklarning sabablarini o'zlarida izlashni maslahat beradi, ularga orqaga qarashni va "o'z xatti-harakatlarini qayta ko'rib chiqishni" boshlashni maslahat beradi [1, 152-b].

Oila va maktabgacha ta'limning o'zaro ta'siri g'oyalari V.A.Suxomlinskiy asarlarida kuzatilgan. U shunday deb yozgan edi: «Maktabgacha yoshda bola o'zini deyarli butunlay oila bilan identifikatsiya qiladi, o'zini va boshqa odamlarni, asosan, ota-onasining mulohazalari, baholari va harakatlari orqali kashf etadi va tasdiqlaydi» [2, 82-b]. Maktabgacha ta'lim muassasasining oila bilan aloqasi mustahkam bo'lsa, pedagoglar va ota-onalar o'rtasida ishonch va hamkorlik aloqalari o'rnatilsa, ta'lim-tarbiya oldidagi vazifalarni muvaffaqiyatli hal etish mumkin. V.A.Suxomlinskiyning so'zlariga ko'ra, bolalar bilan ishlashdan oldin

ularning oilasi va yashash sharoitlari o'rganish lozim. Muallif "maktabgacha ta'lim muassasasi-oila ta'limi" tushunchasini kiritib, uni to'laqonli xalq ta'limi deb atagan. "Ota va onaning faol ishtirokisiz, kattalar va bolalarning doimiy ma'naviyatini boyitmasdan turib, natijaga erishib bo'lmaydi" [4, 83-b]. O'zaro ta'sir ta'lim-tarbiya muassasasi ichidagi bo'linmalarning eng yaqin mikrojamiyat bilan o'zaro munosabatlari orqali ta'lim maqsadlariga erishishning ustuvor mexanizmi, jamoada shaxsni samarali tarbiyalash sharti, kasbiy tayyorgarlik va moslashuv omili sifatida tushuniladi. Ta'kidlash mumkinki, ta'lim muassasasi va oila o'rtasidagi o'zaro munosabatlar masalalari maktabgacha ta'lim pedagogikasida ko'rib chiqilgan [5, 21-b].

O'zaro ta'sirni o'rganishda "Hamkorlik pedagogikasi" alohida rol o'ynadi, bunga SH.A.Amonashvili, I.P.Volkova, YE.N.Ilina, V.F.Shatalova va boshqalarning faoliyati yordam berdi.. Keyinchalik bu fanning yangi yo'nalishi - "o'zaro ta'sir pedagogikasi" ning rivojlanishini belgilab berdi. Ushbu yo'nalish vakillaridan biri YE.V.Korotayeva pedagogik o'zaro ta'sirlarning xilma-xilligini ajratib ko'rsatadi, ular quyidagicha tavsiflanadi [1, 49-b]: destruktiv, restrektiv, restruktiv, konstruktiv. Tarbiyachilar tomonidan o'zaro munosabatlarning bir turini tanlashga subyektiv yoki obyektiv omillar ta'sir qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Yusupova P. Maktabgacha pedagogika. Toshkent. "O'qituvchi".
2. Xasanboeva O.I. va boshqalar. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi Toshkent. Ilm- Ziyo.
2. Zunnunov A. Pedagogika tarixi // Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. – T.: 2004.
3. Inomova M. Oilada bolalarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU.
4. Hasanboyeva O. Oila pedagogikasi.– T.: Aloqachi.
5. Djurayeva B.R., Tojiboyeva H.M., Nazirova G.M. "Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishning zamonaviy tendensiyalari" – T.: O'zPFTTI nashriyoti.

ФРУСТРАЦИОН ҲОЛАТЛАРНИ ЎЛЧАШДА ПСИХОДИАГНОСТИК ТЕКШИРУВ ИМКОНИАТЛАРИ

*Бўтаев Улугбек Абдусатторович –
Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардияси
Ихтисослаштирилган ўқув маркази
Психологик ва профилактик фаолият цикли
катта ўқитувчиси, илмий изланувчи, подполковник.*

Аннотация. Ушбу мақолада шахсдаги фрустрацион ҳолатларни ўлчашдаги психодиагностик текширувларнинг ишончли имкониятлари, турли тоифадаги шахсларнинг ушбу ҳолатлардаги реакцияси ҳамда уларнинг хатти-ҳаракатларини прогноз қилиш масалалари ёритилган. Шунингдек,

етакчи психологлар томонидан фрустрацион ҳолатларни психодиагностик текширувлардан ўтказишда фойдаланилган ишончли тестлар баён этилган.

Калит сўзлар. *Психология, фрустрацион ҳолат, эмоционал ҳолат, психодиагностик текширув, тест, тажриба-синов, ижтимоий-психологик.*

Ҳозирги шиддатли геосиёсий қарама-қаршиликлар шароитида иқтисодий, ижтимоий, сиёсий, ахборот хавфсизлиги ва бошқа соҳаларда кескин муаммолар пайдо бўлмоқда. Мураккаб халқаро вазият, хавфсизликка нисбатан хавф-хатар ва таҳдидларнинг кучайиши Марказий Осиёда ҳам кузатилмоқда.

Шу нуқтаи назардан, 2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистон Тараққиёт стратегиясида Қуролли Кучларнинг тезкор бошқарувини амалга ошириш, миллий армиямизни замонавий қурол-яроғ ва ҳарбий техникалар билан таъминлаш ҳамда ҳарбий хизматчиларнинг ахлоқий-руҳий тайёргарлиги ва жанговар руҳини ошириш бўйича аниқ чора-тадбирларни кўзда тутадиган қарорлар қабул қилинди. [1]

Шу нуқтаи назардан келиб чиқиб, фрустрацион ҳолатларни ижтимоий-психологик жиҳатдан тадқиқ қилиш бугунги кунда ҳарбий хизмат фаолиятида долзарб муаммолардан бири саналади.

Шунингдек, ҳарбий хизмат фаолияти жараёнида фрустрацион ҳолатларни психодиагностик текширув имкониятлари даражасини тадқиқ қилиш ҳам муҳим аҳамият касб этади. С.Розенцвейг шахс мақсадга эришиш йўлида енгиб бўлмас тўсиқлар бўлган, вазиятларда муваффақиятга эришиш ва муваффақиятсизлик ҳолатларида, инсон реакциялари масалаларини психодиагностик жиҳатдан ўрганган.

Бундай ҳолат субъектнинг эмоционал ҳолатига таъсир этади ва уни ўзгартириши мумкин. Бундай ҳолатларга бўлган инсон реакцияларининг, яъни фрустрацион ҳолатларга тушиш, пассивлик, ҳаракатсизлик ёки тушкунлик ҳолатидан тортиб кескин агрессив ҳаракатларгача бўладиган эмоционал ҳолатларни ўз ичига олади. Бундай ҳолатларнинг психодиагностик хусусиятлари у ёки бу ҳолат фрустрация ҳолатларида инсоннинг хатти-ҳаракатларини прогноз қилишгача бўлган турли муаммоларни ҳал қилиш имконини беради. Бу масалалар С.Розенцвейгнинг “PF-study” методикаси фрустрация назарияси асосида ишлаб чиқилган ва илк бор 1944-1945-йилларда таҳлил этилган. 1948 йилда Розенцвейг методиканинг болалар учун мўлжалланган вариантини яратади. Россияда Розенсвейг тести Н.В.Тарабрина томонидан мослаштирилгандан сўнг 1984 йилда нашр этилди ва “Фрустрацияли реакцияларни ўрганиш методикаси” номи билан кенг тарқалган. [2] Бундан кейин тестнинг аҳамияти, ишончилиги ва унинг ёрдамида олинган натижаларни талқин қилишнинг кенг имкониятларини тасдиқловчи турли муаллифларнинг модификациялашган вариантлари пайдо бўлди.

Л.Ф.Бурлачук ва С.М.Морозовларнинг психодиагностика бўйича луғат-маълумотномасида фрустрацион ҳолатларни ўлчашга мўлжалланган тестлар таҳлил қилинган. Унга кўра “ретест ишончилиқ коэффициентини

0.60-0.80 ни ташкил этади”. Фрустрация тестининг валидлиги анча юқори, яъни экстрапунитивлик параметри 0.74 ни ташкил этади. 1976 йилда К.Д.Шафранская томонидан олий ўқув юртлари талабаларида ўтказилган ва тадқиқотда иштирок этганларнинг аксариятида тестнинг валидлиги юқори чиққан. [3] Собик Совет Иттифоқида Н.В.Тарабрина (1973) томонидан мослаштирилган тест биринчи навбатда неврозларнинг дифференциал диагностикаси ва беморларнинг ижтимоий хавfli ҳаракатларини прогноз қилишда қўлланилган.

Фрустрация тестининг тажриба синов қўламлари йиллар давомида тобора кенгроқ бўлиб борган. И.В.Хитрова ишчан вазиятларда фрустрацияга бўлган реакцияларни аниқлаш учун ишлатиладиган методиканинг ўз вариантини таклиф этади. Унинг фикрича, инсоннинг меҳнат жараёнида ижтимоий хулқ-атворни ҳал қилиш билан боғлиқ бўлган шахснинг психологик хусусиятларини ҳар томонлама ўрганиш ва қарор қабул қилиш вазиятида унинг хатти-ҳаракатларини баҳолашни талаб этади. У тестнинг оригинал вариантини қўллаган муҳандислар (биринчи навбатда раҳбарлар) фаолиятининг экспериментал тадқиқотларини кузатган. [4]

“Ишчанликни аниқлаш” тестининг валидлиги Вильнюс шаҳридаги корхоналардан бирининг 40 нафар раҳбарлари намуналарида олинган натижаларни шу намунадаги С.Розенцвейгнинг тест натижалари билан таққослаш орқали аниқланган. Корреляцион таҳлил методикаларнинг бир хил омиллари ўртасидаги ижобий алоқаларни аниқлаб берган. Ушбу тестнинг валидлиги унинг натижаларини шахснинг гуруҳли баҳолаш маълумотлари билан таққослаш орқали ҳам аниқланади, бу эса ушбу шахс ҳақида жамоанинг фикрини акс эттиради. Ушбу тадқиқотда Красноярск шаҳар конструкторлик бюроларидан бирининг 111 нафар муҳандислари иштирок этган.

Г.А.Епанчинцеванинг айтишича, С.Розенцвейг тести яхши тузилганлиги билан ажралиб туради, у муайян хулқ-атворнинг маълум бир соҳасига йўналтирилган ва нисбатан объектив баҳолаш тартибига эга бўлиб, кўпгина проектив методикаларга қараганда статистик таҳлил қилиш учун қулайроқдир. Тадқиқотлар тестнинг янги диагностик имкониятларига ишора қилади, бу эса бизга бошқа шахс билан ўзаро муносабатларда ижтимоий муносабатларни йўлга қўйиш имконини беради. [5]

Хулоса қилиб айтганда, ҳарбий хизматчи ходимларда фрустрацион ҳолатларнинг ижтимоий-психологик хусусиятлари юзасидан олиб борилган тадқиқотнинг назарий жиҳатлари шуни кўрсатадики, фрустрацион ҳолатларни ўлчайдиган жаҳон психологиясида тажрибалардан кўп маротаба ўтган ва ишончлилиги юқори бўлган тестларни қўллаш тадқиқотнинг амалий жиҳатларини янада бойитишга хизмат қилади. Шунингдек, фрустрацион тестларни амалга ошириш жараёнида синалувчиларнинг ёш, маълумот даражаси, жинси ва психик ҳолатлари эътиборга олиниши лозим ҳамда профанация хавфи, яъни тадқиқотда иштирок этаётган синалувчилар ўз хоҳишларига кўра иштирок этишлари лозим.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикаси Қуrolли Кучлари ташкил этилганининг 31 йиллиги муносабати билан Ватан ҳимоячиларига байрам табриги. <https://president.uz/uz/lists/view/5821>.
2. Тарабрина Н.В., Лазебная Е.О. Синдром посттравматических стрессовых нарушений: современное состояние и проблемы // Психологический журнал. 1992. N2. С.14-29.
3. Бурлачук Л.Ф. Словарь-справочник по психодиагностике // Л.Ф.Бурлачук. 3-е изд., перераб. и доп. — СПб.: Питер, 2008. — С.248.
4. Хитрова И.В. Изучение личности в зарубежной психологии // И.В.Хитрова. Современные гуманитарные исследования. 2007. - № 5. — С.246-249.
5. Епанчинцева Г.А. Становление психодиагностики в образовании. Оренбург, 2007. — С.96.

SHAXSIY TARKIBNING AXLOQIY-RUHIY TAYYORGARLIGINI TASHKILLASHTIRISHDA MANSABDOR SHAXSLARNING MAJBURIYATLARI

*Bozorov Aziz Abdlakulovich –
O‘R QK KMTM Qurollanish va otish sikli
katta o‘qituvchisi, podpolkovnik*

Qurolli Kuchlarimiz rivojlanishining zamonaviy bosqichi insonning jangovar faoliyat sharoitlarida ishonchli va samarali harakatlanishi masalalariga ahamiyatli e'tibor qaratish bilan xarakterlanadi. Harbiy xizmatchilarning axloqiy-ruhiy holati va psixologik barqarorligini mustahkamlash zaruriyati, ularni tayyorgarligi darajasiva vaziyatning har qanday sharoitida qo'yilgan vazifalarni bajarish qobiliyatini oshirish bo'yicha shaxsiy tarkibning ta'lim va tarbiyasining barcha tizimida islohotlar o'tkazilmoqda. Bu sohada harbiy kadrlar faoliyatining ilmiy-psixologik asosi harbiy psixologiyadir.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tizimida ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini yanada takomillashtirish, harbiy xizmatchilarning ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar bilan uyg'un ravishda bilimlarini oshirib borishning zamonaviy usullarini joriy etish, shuningdek, ichki va tashqi tahdidlarga qarshi mafkuraviy immuniteti shakllangan, burchiga sadoqatli, yuqori professional harbiy xizmatchilarni tayyorlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 4 avgustdagi PQ-3898-sonli Qarori bilan O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tizimida ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish Konsepsiyasi tasdiqlandi.

Konsepsiyaning asosiy maqsadi mustaqil, keng dunyoqarash va fikrlashga ega, iymon-e'tiqodi va irodasi mustahkam, ma'naviyatli va fidoyi, ajdodlarimizning bebaho merosiga tayanib yashaydigan barkamol shaxs-Vatan himoyachilarini

tarbiyalash, ularning dunyoqarashlarini, mantiqiy, ijodiy va tahliliy fikrlash doirasini kengaytirish, ona Vatan taqdiri uchun yuksak mas'uliyat va javobgarlik kabi muhim xususiyatlarni shakllantirishdan iborat.

Ushbu konsepsiyaning maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, mutaxassislar oldiga harbiy psixolog, sosiologlarning to'laqonli tayyorgarligi va amaliy faoliyatini ta'minlovchi zamonaviy o'quv-metodik baza yaratish zaruriyati masalasini keskin hal etishdekulgan talablar va mas'ul vazifalar yuklanmoqda.

Ana shu vazifalarni amaliyotda o'z ifodasini toptirishda harbiy psixologiya fani muhim rol o'ynaydi. Mutaxassislar tayyorlash jarayonida harbiy psixologiya fani kasbiy bilimlar, ko'nikmalar va malakalarni shakllantirish borasida ustuvor o'rin egallaydi.

Shaxsiy tarkibning axloqiy-ruhiy tayyorgarligini tashkillashtirishda mansabdor shaxslarning majburiyatlari. Shaxsiy tarkibning axloqiy-ruhiy tayyorgarligi qo'mondonlik tarkibi, shaxsiy tarkib bilan ishlash organi, tibbiy xizmat, jangovar tayyorgarlik vakillari xizmat faoliyatining mazmunini tashkil kiladi.

Komandir(boshlik) quyidagilarga javob beradi: tashkillashtirish, rejalashtirishsh, axloqiy-ruhiy tayyorgarlikning holati va o'tkazilishiga.

U quyidagilarga majburdir:

axloqiy-ruhiy tayyorgarlikni tashkillashtirishni shaxsan boshqarish;

axloqiy-ruhiy tayyorgarlikni tashkillashtirish va o'tkazish bo'yicha o'rinbosarlari, xizmat boshliqlari va bo'linma komandirlariga ko'rsatmalar berish;

axloqiy-ruhiy tayyorgarlik tadbirlarini sifatli o'tkazilishida qatnashish va nazoratni amalga oshirish;

o'quv jangovar vazifalar natijalari bo'yicha yakun yasashda axloqiy-ruhiy tayyorgarlik holatiga baho berish;

bo'ysunuvchi bo'linmalarda axloqiy-ruhiy tayyorgarlikni tashkillashtirish va o'tkazish bo'yicha o'rinbosarlar, xizmat boshliqlari va bo'linmalar komandirlaridan har oyda ma'ruzalar qabul qilishga;

axloqiy-ruhiy tayyorgarlikni tashkillashtirish va uning sifatini oshirish bo'yicha yilda bir marotaba harbiy kism mansabdor shaxslarining majburiyatlariga aniqlik kiritish;

shaxsiy tarkibning kundalik faoliyatini o'rganish, ularni o'qishga yuborishdan yoki yuqori lavozimlarga tayinlashdan oldin shaxsiy-psixologik holatlarini o'rganish;

bo'linmalar komandirlarini shaxsiy tarkibni jangovar-xizmat vazifalarni bajarishga tayyorlash uchun axloqiy-ruhiy tayyorgarlikni shakl va uslubini o'rgatishga.

Komandirning jangovar tayyorgarlik bo'yicha o'rinbosari axloqiy-ruhiy tayyorgarlikni rejalashtirilishiga va o'tkazilishiga javob beradi.

U quyidagilarga majburdir:

jangovar va safarbarlik rejasini ishlab chikish va bajarishda katnashish, jangovar tayyorgarlik, jangovar tayyorgarlik mashg'ulotlari davomida axloqiy-psixologik tayyorgarlik tadbirlarining o'tkazilishiga;

jangovar tayyorgarlik mashg'ulotlari davomida shaxsiy tarkibning axloqiy-ruhiy holatlariga ta'sir etuvchi omillarni hisobga olish, ularning jangovar tayyorgarligi holatiga;

shaxsiy tarkibning yuqori harbiy-mutaxassislik va psixologik sifatlarini, jangovar ko'nikmalarini takomillashtirish, harbiy texnika va qurollarni chuqur o'rgatishga;

mashg'ulotlar va o'quv yig'inlar davomida xavfsizlik talablarini buzmasliklari uchun profilaktik tadbirlarni o'tkazishga;

murakkab va ekstremal vaziyatlarda faol qatnashgan va jasorat ko'rsatgan harbiy xizmatchilar malakasini umumlashtirish va o'rganishga.

Komandirning tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar bo'yicha o'rinbosari shaxsiy tarkibning axloqiy-ruhiy tayyorgarligini rejalashtirish, tashkillashtirish va o'tkazishga javob beradi.

U quyidagilarga majburdir:

jangovar va ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarlik, tarbiyaviy ishlar rejasini ishlab chikish va axloqiy-ruhiy tayyorgarlik tadbirlarining bajarilishiga;

harbiy xizmatchilarning xizmat malakalarini va psixologik holatlarini inobatga olgan holda axloqiy-ruhiy tayyorgarlikni tashkillashtirishga;

shaxsiy tarkibda yuqori ma'naviy-axloqiy va axloqiy-ruhiy sifatlarini takomillashtirishga;

harbiy jamoalar orasida jipslashtirish ishlarini olib borish, jangovar tayyorgarlik vazifalarini sifatli bajarishlari uchun jamoalar orasida sog'lom axloqiy-ruhiy muhit va ijtimoiy-psixologik sharoit yaratilishiga;

har bir harbiy xizmatchiga shaxsiy yondashish va ularni o'rgatish maqsadida shaxsiy psixologikholatlarni o'rganishni tashkillashtirishga;

faollarni o'quv-jangovar vazifalarni bajarishda psixologik ta'minot amaliyotiga o'rgatish;

shaxsiy tarkibning axloqiy-ruhiy tayyorgarlikdagi malakalarini umumlashtirish va targ'ib etishga;

axloqiy-ruhiy tayyorgarlikni tashkillashtirish va o'tkazish masalalari, shuningdek shaxsiy tarkibning axloqiy-ruhiy holati va tayyorgarligi bo'yicha xulosa qilish va o'rganishga;

jangovar vazifalarni bajarishga tayyorlash maqsadida shaxsiy tarkibning axloqiy tayyorgarlik masalalari bo'yicha takliflarni kiritish;

o'quv-jangovar tayyorgarlik faoliyati davomida axloqiy-ruhiy tayyorgarlik o'quv moddiy bazalaridan unumli foydalanishni nazoratga olish;

shaxsiy tarkib bilan o'tkaziladigan axloqiy-ruhiy tadbirlarda shaxsan qatnashish;

ofiser va serjantlarni axloqiy-ruhiy tayyorgarlik tadbirlarini tashkillashtirish va o'rgatish.

Komandirning qurol-aslaha bo'yicha o'rinbosari quyidagilarga majbur:

shaxsiy tarkibda harbiy texnika va qurollar, ularning ishonchligiga bo'lgan xislatlarini tarbiyalash;

shaxsiy tarkibda harbiy texnikalardan unumli foydalanish ko'nikmalari va bilimlarini takomillashtirish;

haydovchilarda (mexanik-xaydovchi) harbiy texnikalardan noto'g'ri foydalanish natijasida yuz berishi mumkin bo'lgan ko'ngilsiz hodisalarning tahlilini o'tkazish;

o'quv-jangovar vazifalarni bajarish jarayonida qurol-aslaha va texnikalardan unumli foydalangan harbiy xizmatchilarning faol harakat malakalarini umumlashtirish va targ'ib etish.

Axloqiy-ruhiy tayyorgarlik organi katta ofiseri (ofiseri) shaxsiy tarkibning axloqiy-ruhiy tayyorgarligini rejalashtirish, tashkillash-tirish va o'tkazishga javob beradi.

U quyidagilarga majburdir:

harbiy jamoalardagi axloqiy-ruhiy jarayonlar, harbiy xizmatchilarning shaxsiy sifatlari, ularning fikr va mulohazalari, shuningdek kayfiyatlarini o'rganish va baholash;

axloqiy-ruhiy tayyorgarlik tadbirlarining tashkillashtirilishi va o'tkazilishi, shaxsiy va guruhiy psixologik profilaktika ishlarining o'tkazilishiga;

axloqiy-ruhiy holatning baholanishida qatnashishga (katta boshliqlarning ko'rsatmasiga asosan);

shaxsiy tarkibning axloqiy-ruhiy mustahkamliligi va ruhiy tayyorgarligini oshirishni rejalashtirish va o'tkazishda bo'linma komandirlariga uslubiy yordam ko'rsatishga;

shaxsiy tarkibning axloqiy-ruhiy tayyorgarligini oshirish bo'yicha mansabdor shaxslarni axloqiy-ruhiy tayyorgarlik amaliyotini o'rgatishga;

shaxsiy tarkibning axloqiy-ruhiy holati bo'yicha shaxsiy va guruhiy psi maslahatlarini olib borish va korreksiyalashga;

axloqiy-ruhiy tayyorgarlik o'quv-moddiy bazasini takomillashtirishda ishtirok etishga;

bo'linmalardagi shaxsiy tarkibning axloqiy-ruhiy holati, o'rganish va psixologik vaziyatlarning baholanishlari to'g'risida komandirning shaxsiy tarkib bilan ishlash buyicha o'rinbosariga muntazam ravishda ma'ruza berib turishga.

Harbiy kism jismoniy va sport tayyorgarligi boshlig'i quyidagilarga majburdir:

jismoniy tayyorgarlik va sport vositalari yordamida shaxsiy tarkibning harbiy-mutaxassislik va psixologik sifatlarini mustahkamlashga;

shaxsiy tarkibning psixologik, fiziologik sifatlarini mustahkamlash maksadida turli trenajerlarda mashg'ulotlar o'tkazishga;

shaxsiy tarkibni jangovar vazifalarni bajarishga tayyorlashda, ekstremal vaziyatlarda hissiy-irodaviy qobiliyatlarini mustahkamlash va takomillashtirishda jismoniy tayyorgarlik usullarini qo'llash;

shaxsiy tarkibning shaxsiy psixologikholati, jangovar tayyorgarlik davomida psixologik zo'riqish ta'sirini o'rganish;

tibbiy xizmat boshlig'i bilan hamkorlikda shaxsiy tarkibning jismoniy tayyorgarlik bo'yicha shaxsiy dastur-vazifalarini ishlab chikish;

axloqiy-ruhiy tayyorgarlik o'quv-moddiy bazasini takomillashtirishda ishtirok etishga.

Tibbiy xizmat boshlig'i quyidagilarga majburdir:

shaxsiy tarkibning ishga yaroqliligi, ularning shaxsiy-psixologikholatlari, jangovar tayyorgarlik davomidagi zo'riqishlarda bir-birining psixologik mosligini o'rganish;

shaxsiy tarkib bilan psixologo-fiziologik mashg'ulotlar o'tkazish;

psixofiziologik korreksiya tadbirlarini tashkillashtirish;

shaxsiy tarkib bilan turli ob-xavo sharoitlarida jangovar vazifalarni bajarish uchun psixofiziologik holatlarni o'rganish bo'yicha mashg'ulotlar o'tkazish;

shaxsiy tarkib bilan psixologik-profilaktik ishlarni o'tkazish (zo'riqish me'yorlari o'zgarishi, mashg'ulotlar, dam olish va boshqalar).

Bo'linma komandiri quyidagilarga majbur:

shaxsiy tarkibning o'quv-jangovar vazifalarni bajarish uchun bevosita tayyorlaydi, ularning axloqiy-tayyorgarligi va psixologik mustaxkamligi uchun javob beradi;

bo'linmalar shaxsiy tarkibida yuqori axloqiy-ruhiy va jangovar sifatlarni shakllantirish, belgilangan vazifalarni bajarishga bo'lgan javobgarliklarini oshirish;

bo'ysunuvchi shaxsiy tarkibning shaxsiy-psixologik holati, harbiy jamoaning axloqiy-ruhiy holatini muntazam o'rganish, shaxsiy tarkibni o'qitish va tarbiyalashda uni hisobga olish, ularning ko'nikmalarini takomillashtirish;

shaxsiy tarkibni jipslashtirish, bo'linmalarda sog'lom axloqiy-ruhiy muhitni shakllantirish;

harbiy psixologiya sohasida shaxsiy tarkibning axloqiy-ruhiy tayyorgarligini shakli, usul va uslublari bo'yicha o'z bilimlarini takomillashtirishga.

Harbiy xizmatchilarning Vatanni himoya qilishdagi yuqori axloqiy tayyorgarliklariga yanada ta'sir o'tkazishdagi samarali yo'li, uslubi va shakllaridan biri bu barcha turdagi qo'mondonlik tarkibi va shaxsiy tarkib bilan ishlash organlarining harbiy xizmatchilarda har qanday vaziyatlarda hissiy-irodaviy mustahkamlik va psixologik boshqarishni shakllantirishdir.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi qo'shinlarida psixologik ishlarni tashkil etish to'g'risidagi Nizom – T.,2019.

2. Karayani A. G. Psixologicheskoye obespecheniye boyevykh deystviy lichnogo sostava chastey Suxorutnykh voysk v lokalnykh voyennykh konfliktax. - M., 1998.

3. Soderjaniye i organizasiya moralno-psixologicheskogo obespecheniya boyevykh deystviy. - M., 1994.

6. Sosialnaya i voyennaya psixologiya / Pod red. N. F. Fedenko. - M., 1990.

7. Siromyatnikov I.V. Organizasiya psixologicheskoy raboty v voynskoy chasty v mirnoye vremya. - M., 2000.

8. Voyennaya psixologiya. Uchebnik. /. A.G. Maklakov. - Sank- Peterburg: Piter, 2005. - 464 b.

INSON HAYOTIDADA IDROK JARAYONINI O'RGANISH

*Bozorova D.S., Ruziyeva M.Z. –
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zMU*

Inson hayotida muhim o'rinda turadigan bilish jarayonlaridan biri bu idrok. Biz idrokni o'rganar ekamiz idrok qanday vazifani bajaradi va u inson hayotida qanaqa ustun jihatlari bor degan savollarga javob berishga harakat qilamiz. Idrok bu sub'ekt tashqi tomondagi obektni, voqea hodisalarlarni inson miyasida yaxlit aks etirilishi tushuniladi. Inson idrok qilganda yorug'lik, tovush, bosim, ko'rish va

eshitish signallari orqali qabul qilinadi. Idrok qilish inson hayot tajribalari asosida ko'rgan, ushlagan, mazza-ta'mini ta'tib ko'rgan narsalarni idrok qiladi. Biz idrokni o'rganganimizda inson hayotida bo'lgan tashqi tomondagi voqea hodisa va predmetlarni noto'g'ri idrok qilish, yoq narsani eshitish yoki ko'rish shu kabi holatlar uchraydi. Bizning idrok qilishimiz hissiyotlarimiz bilan ham bog'liq ya'ni inson xursand vaqtda tashqi tomondagi har bir detal chiroyli va betakror ko'rinadi aksincha xafa, tushkun vaqt buni aksi sodir bo'ladi.

Idrok tasvirlarda ob'ektlarning ko'pgina xususiyatlari qayt etiladi ularning fazoda joylashishi, masofasi, harakat yo'nalishi, idrok predmetga tashqi qo'zg'atuvchining ta'siri qilish muddati. Idrok modallik va intensivlik bilan tavsiflanadi va buning natijasida tashqi qo'zg'atuvchilarning farqlanishi sifatiga ega bo'ladi. Uni sezgilardan ajratib turadigan xususiyatlarga ega bular: ob'ektivlik, yaxlitlik, doimiylik, tuzilish va hatto umumiylik. Agar idrok muammolarni hal qilish jarayoniga kiritilsa va tafakkur yoki ongning tarkibiy qismiga aylansa, u holda u tomonidan tartibga soluvchi va tashkiliy ta'sir ko'rsatadi. Bu ta'sirlar natijasida selektivlik, mazmunlilik, maqsadga muvofiqlik, kategoriyalik, reflekslik va boshqa xususiyatlar rivojlanadi. Idrok tug'ma ham o'zlashtirilgan bo'lishi mumkin. Idrok hiss tuyg'ular, kechinmalar orqali boyitib boriladi. Idrok jarayonida ob'ekt va fon tushunchasi mavjud, ob'ekt bu idrok qilinadigan narsalarni o'rab turgan boshqa narsa, jism yoki hodisalarga nisbatan ob'ekt tushunchasi qo'llaniladi, fon esa ob'ektning atrofidagi narsalardir.

Idrok jarayonida illuziya va gallyutsinatsiya hodisalari mavjud. Illuziya haqida gapirilganida illuziya bu-narsa va hodisalarni yaxlit idrok qilishda noto'g'ri idrok qilish. Masalan: og'irligi aynan teng ammo kattaligi har xil bo'lgan ikki buyumni ketma-ket ko'tarib ko'rganda ulardan kattasi og'irroq, kichigi esa yengil tuyuladi. Buning sababi shundaki kishi hajmi kattaroq buyumlarning hajmini kichikroq buyumdan og'ir ekanligini o'z tajribalarida doimo sinab kelgan. Illuziya ko'p hollarda ko'z chalg'ishi bilan bog'liq. Bu xil illuziyalar optik illuziyalar deyiladi. Optik illuziyalar muayyan sharoitda turli kesmalar uzunligi, narsalar o'rtasidagi masofalar va shu kabilarni o'zaro taqqoslanganda kuzatiladi. Eshitish illuziyasi ham bor bunda bir shaxsning nutqidagi ayrim so'zlar boshqacha bir ma'noda eshitiladi. Harakat illuziyasi qanday bo'lishi mumkin? Harakat illuziyasi misol uchun poyezd juda tez yurganda vagondagi kishiga go'yo u harakat qilmayotgandek tuyuladi. Inson hayajonlanish, qo'rqish, charchash kabi holatlarda ro'y beradigan subyektiv illuziyalar deyiladi. Sog'lom odamda illuziyalar o'tkinchi holat. gallyutsinatsiya yoq narsa va hodisalarni bordek idrok qilish. Idrok etilgan yo'q obrazlar tashqi tasvirga ega bo'lib, ular borliqda real narsalar kabi o'rin oladi. Gallyutsinatsiya tushunchasini fanga birinchi bo'lib fransuz psixatri Jean-Etienne Dominique Esquirol ta'riflab bergan. Xulosa qilinganida inson atrof muhitni doimo bilish jarayonlari orqali qabul qiladi va bosh miyada aks ettiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Leo P.W. Chiu (1989). "Differential diagnosis and management of hallucinations". Journal of the Hong Kong Medical Association.
2. Леонтьев А.Н. Лекции по общей психологии: учеб.пособие для.

3. G‘oziyev E. G‘. Umumiy psixologiya. – Toshkent., 2010.

BEMOR PSIXOLOGIYASI KELIB CHIQISHI, VA UNGA ILK QARASHLAR

*Bozorova D.S., Bakirov A.A. –
O‘zbekiston Milliy universiteti*

Annotatsiya. Ushbu maqolada shifokor va bemor o‘rtasidagi muloqot madaniyati haqida so‘z yuritiladi. Shuningdek, shifokor bemor bilan muloqot jarayonida qanday psixologik yondashish kerakligi maqolaning asosiy mazmunini tashkil etadi. Barcha davolash muassasalarida bemorlarning shifokor bilan o‘zaro munosabatini o‘ziga xos xususiyatlarini bilish kabi masalalarni ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Kasallikning ichki ko‘rinishi, avtoplastik rasm, sezgirlik, intellektual, so‘zlash odobi, deontologiya, parvarish.

Shifokor ruhiy hastaliklarni davolovchi bir usul. Shifokor bemorlar muammolarni hal qilish uchun asosiy muloqot qobiliyatlari va ko‘nikmalariga ega bo‘lish muhimdir. Birinchi navbatda, bemor bilan suhbatlashish, uning ichki dunyosiga kirib borish, bemorning individual psixologik xususiyatlarini yetarli darajada tushunish va boshqalarni o‘z ichiga oladi. Har bir tibbiyot xodimi har daqiqada duch keladigan ushbu va boshqa ko‘plab qiyinchiliklarni yengib o‘tish qobiliyati shifokor va bemor o‘rtasidagi muloqot psixologiyasining asosiy xususiyatidir. Ular o‘rtasidagi muloqotlarning maqsadi, muloqot ishtirokchilaridan biri tomonidan boshqasiga nisbatan ko‘rsatiladigan tibbiy yordamdir. Shifokor bilan yaxshi muloqotda bo‘lgan holda, qo‘llaniladigan davolash yaxshi ta’sirga ega, yon ta’siri va asoratlari ancha kam. Bemor bilan muomalaga kirishishning o‘ziga yarasha shartlari bor, albatta. Shifokor bemor xastaligining taxminiy diagnozini, shaxsini, kasbini, ijtimoiy sharoitini, saviyasini, dunyoqarashini, bilim darajasini, tashqi psixik belgilarini o‘rganganidan so‘ng, o‘zini ham bu muloqotga ruhan tayyorlaganidan keyingina u bilan muloqot qilish uchun ma’naviy haqqi paydo bo‘ladi. Bemor va shifokor muloqoti (shartli ravishda) ikki doirada kechadi:

- Birinchi, tashqi doira zanjirida yuqorida aytilgandek, shifokorning bemor bilan muloqotga tayyorlanish bosqichidagi amallar kiradi.

- Ikkinchi, ichki doirani esa bemor shaxsini, uning kasallik sabablarini begilovchi dalillar zanjiri tashkil etadi. Birinchi doira sohibining mahorat darajasi qay darajada yuksakligi uning ikkinchi doiraga «ko‘prik» sola olish sa’nati bilan belgilanadi. Aynan shu «ko‘prik» solinganidan so‘ng bemor shifokorga ishonch va umid ko‘zi bilan qaray boshlaydi.

Shifokor, bemor bilan muloqotga kirishar ekan, uning ko‘z o‘ngida ma‘lum ma‘noda kamchiliklardan holi, yuksak axloqli inson sifatida gavdalanishi zarur. O‘z axloq normalarini to‘g‘ri belgilay olmagan shifokor bemor ko‘z o‘ngida obro‘sizlanadi. Obro‘sini yo‘qotgan shifokorning esa, tabiiyki, o‘z bemori bilan talab qilingan saviyada muloqot qilishga ma’naviy haqqi bo‘lmaydi. Shifokor ma’naviyati deganda, ma’nili fikrlashi, so‘zlashi, shuningdek shaxsiyatidagi, tarbiya

va odobidagi hamda amaliyotidagi barcha ijobiy xatti-harakatlar majmuasi tushuniladi. Allomalar aytadilar-ku, yer yuzida uzoq muddat qamal qo'yishga eng muhtoj narsa tildir, deb. Shifokor aynan shu qoidadan holi sub'ekt bo'lmog'i kerak. Shuningdek, bemor bilan muloqotda uning diqqati va ixtiyorini shifokor suiste'mol qilmasligi, ya'ni so'zda me'yorni saqlay bilishi muhim. Aytar so'zni ayt, aytmas so'zdan qayt, deyilar. Shifokor bemor bilan muloqotda unga ayni zarur gaplardan so'zlamog'i uning amaliyoti uchun juda foydalidir.

Bemorning his-tuyg'ularini, uning kasalligi haqidagi kechinmalarini va g'oyalarini tasvirlab bergan A. Goldsheider (1926). U ularni kasallikning avtoplastik rasmi deb atadi. Goldscheider kasallik rasmining ikki darajasini aniqladi: - "sezgir", sezgilarga asoslangan, - "intellektual" - bemorning jismoniy holati haqidagi fikrlari natijasi. Kognitiv kasallik haqidagi bilimlarni, uning xabardorligini, uning roli va bemorning hayotiy faoliyatiga ta'sirini tushunish, kutilayotgan prognozni o'z ichiga oladi; hissiy - kasallikni va u bilan bog'liq barcha vaziyatni his qilish va boshdan kechirish; xulq-atvor kasallik bilan bog'liq reaksiyalar, unga moslashish yoki moslashishga va kasallik bilan bog'liq hayotiy vaziyatlarda xatti-harakatlarning o'ziga xos strategiyasini ishlab chiqishga yordam beradi (bemorning rolini qabul qilish, kasallik bilan faol kurashish, e'tibor bermaslik, pessimistik munosabat, va boshqalar). Boshqa mualliflar kasallikning ichki ko'rinishi ikki darajani o'z ichiga oladi.

1-daraja - sezgir. Bu kasallik sabab bo'lgan barcha his-tuyg'ularning yig'indisidir.

2-daraja - intellektual. Bu bemorning kasalligi va u bilan bog'liq bo'lgan barcha narsalar haqidagi fikrlaridan iborat.

Shuning uchun KXTni to'g'ri baholash va bemorga malakali yordam ko'rsatish uchun ICDni aniqlaydigan asosiy omillarni bilish kerak. Ushbu omillarni quyidagi guruhlariga bo'lish mumkin:

- 1) premorbid biologik va shaxsiy omillar;
- 2) kasallikning tabiati va uning yuzaga kelishi mumkin bo'lgan oqibatlari;
- 3) bemorning ijtimoiy holati va atrof-muhitning ta'siri;
- 4) tibbiy omillar (tashxis va davolash shartlari).

"Kasallikning ichki (yoki "avtoplastik") rasmi bemorning kasalligi bilan bog'liq bo'lgan tajribalarining butun doirasini qamrab oladi. Bunga kasallikning birinchi, erta namoyon bo'lishining ahamiyati, buzilishlarning asorati tufayli farovonlikdagi o'zgarishlarning xususiyatlari haqidagi g'oyalar kiradi; kasallikning balandligida davlat va uning mumkin bo'lgan oqibatlarini boshdan kechirish; kasallikning teskari rivojlanish bosqichida farovonlikning boshlanishi va uni tugatgandan keyin sog'lig'ining tiklanishi, kasallikning o'zi uchun mumkin bo'lgan oqibatlarini haqida g'oya oila, kelgusida samarali kasbiy faoliyat uchun, oila a'zolarining, ish joyidagi xodimlarning, tibbiyot xodimlarining kasallik davrida unga bo'lgan munosabati haqida fikr.

R.Konechny va M.Bouhal "Tibbiyot psixologiya" kitobida, shuningdek, kasallikning avtoplastik rasmining shartlilikini birinchi navbatda kasallikning tabiati bilan ta'kidlaydilar: o'tkir yoki surunkali, qanday davolash kerak (statsionar yoki

ambulator, konservativ yoki jarrohlik), kuchli og‘riqlar mavjudligi, salbiy kosmetik alomatlar, cheklangan harakatchanlik.

Bundan tashqari, kasallikning ichki ko‘rinishiga kasallik yuzaga kelgan holatlar ta’sir qiladi. Bir tomondan, bu kasallik o‘zi bilan olib keladigan muammolar va noaniqlik holati. Bemor oldida savollar tug‘iladi: kasallik qanchalik og‘ir, bu vaqt ichida oilani kim boqadi, shifokor haqiqatni aytadimi, shifokor qanchalik bilimdon va boshqalar. Boshqa tomondan, kasallik rivojlanayotgan muhitning ta’siri. Ma’lumki, tropik mamlakat sharoitida, o‘z vatanidan, yaqinlaridan uzoqda odamlar o‘z kasalliklariga uydagidan ko‘ra ko‘proq chidashadi, ruhiy tushkunlik, o‘limdan qo‘rqish, davolanishga va ularga g‘amxo‘rlik qilayotganlarga ishonchsizlikka tushib qolishadi. Kasallik sharoitida yana bir muhim jihat uning sababidir.

Maqolani xulosasi shundan iboratki: Shifokor bemor bilan ma’lum mantiqiy ketma-ketlikda savol-javob qilishi kerak. Bu suhbat (dialog)da fikrning tushunarli bo‘lishi uchun marom, urg‘u va takror to‘g‘ri belgilanishi, mazmun va ohangdorlikning uyg‘unlashuvi, so‘zlaraning hamda to‘g‘ri talaffuz qilinishi muhimdir, bu yerda bemor o‘ziga savol beradi: uning kasalligi uchun kim aybdor o‘zi yoki boshqasi: kasallikning ichki ko‘rinishini belgilovchi omil, sifatida premorbid shaxsning xususiyatlari, bu birinchi navbatda, bemorning yoshi, bemorning shaxsiy xususiyatlarining o‘zaro ta’siri va uning tanasidagi somatik o‘zgarishlar, bir tomondan, shaxsning somatik kasallikka reaksiyasi va kasallik bilan bog‘liq bo‘lgan shaxsiy o‘zgarishlar sifatida namoyon bo‘lish mumkin. Shaxsning o‘zi somatik kasallikning kechishiga ta’siri sifatida, shaxsning kasallikka bo‘lgan munosabatiga bog‘liq.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Пограничные психические расстройства. Ю. А. Александровский. Москва. “Медицина”, 2000. 16. Справочник: соматогенные и соматоформные психические расстройства (клиника, дифференциальная диагностика, лечение). В. Я. Гиндикин. Москва. “Триада- X”, 2000.

2. Психотерапия. Искусство постигать природу. Шелдон Роут. Москва. “КогитоЦентр”, 2002.

3. Психосоматические заболевания. Полный справочник. Под ред. Ю.Ю.Елисеева. Москва. «Эксмо», 2003.

4. Депрессии при соматических и психических заболеваниях. А.Б. Смулевич – М.: Медицинское информационное агенство, 2003.

5. Фармакотерапия психических расстройств. Джордж Арана, Джеральд Розенбаум. Под редакцией профессора С. Н. Мосолова. Москва. “Бином”, 2004.

6. Психические расстройства в практике терапевта. Москва «Медпресс – информ» 2005.

7. Психокardiология. А.Б. Смулевич, А.Л. Сыркин. Москва. Медицинское информационное агенство, 2005.

8. Нарметова, Ю. (2014). Депрессия-психосоматик касалликларнинг предиктори сифатида. Scienceweb academic papers collection.

BILISH JARAYONLARINING BUZILISHI VA PSIXOLOGIK QARASHLAR

*Bozorova D.S., Axmatov A.R. –
O‘zbekiston Milliy universiteti*

***Annotatsiya:** Deliriy - ong buzilishining ko‘p uchraydigan turi bo‘lib, bunda bemor o‘z shaxsini anglay olsa-da, vaqt va atrof-muhitga bo‘lgan idroki buziladi. Deliriy turli endogen va ekzogen zaharlanishlarda, bolalarda esa tana harorati oshgan paytlarda ko‘p kuzatiladi. Ko‘ruv va eshituv gallyutsinatsiyalarining moiligi bo‘lishi deliriy uchun juda xosdir. Bemorlar ruhiy qo‘zg‘algan holatda o‘zlarini ta‘qib etuvchi bunday tasavvurlardan himoya qiladilar. Koma bir necha kundan bir necha oygacha davom etishi mumkin. Es-hushning kirdi chiqdi bo‘lib qolishi ongning ancha ko‘p uchrab turadigan buzilishlariga kiradi. Maqolda bilish jarayonlarining buzilishining psixologik holatlari haqida so‘z yuritilgan.*

***Kalit so‘zlar:** ataksiya, koma, klinik o‘lim, biologik o‘lim, sopor, delirioz, shok, apraksiya, abuliya.*

Ong va ongsiz jarayonlari ko‘pgina falsafiy, psixologik va psixiatrik asarlar ong muammosiga bag‘ishlangan. Sovet tibbiy psixologiyasi ong masalalarini o‘rganishda dialektik materializm nuqtai nazaridan yozilgan savollarga tayanadi. Sovet mualliflarining zamonaviy psixologik va psixopatologik asarlaridan F.V. Bassina, A.N. Leontiev, A.A. Mehrabyan, S.L. Rubinshteyn, E.V. Shoroxova. Ong - bu voqelikni aks ettirishning eng yuqori shakli, faqat insonga xos bo‘lgan, neyropsik faoliyat jarayonlarining eng murakkab ko‘rinishi. Shuning uchun "ongli" va "aqliy" ni aniqlash noto‘g‘ri bo‘ladi. Ikkinchisi birinchisiga qaraganda kengroq. Ong jamiyatdan tashqarida mavjud emas. Ong - ijtimoiy va mehnat taraqqiyotining eng yuqori mahsuli. K. Marks shunday deb yozgan edi: «Demak, ong boshidanoq ijtimoiy mahsulot bo‘lib, odamlar umuman mavjud ekan, shunday bo‘lib qoladi».

Somnolensiya (uyqu bosishi) – sog‘lom odamlarda ham kuzatiladi. Masalan, kechasi bilan kasalxonada navbatda turib, ertasi kuni ham ishlaganda, vaqtida uxlab dam olmagan holatlarda, uzoq yo‘lga mashina haydab chiqqanda va hokazo. Somnolensiya bedorlik va uyqu orasidagi chegaradosh holatdir. Turli xil kasalliklarda somnolent holat ancha vaqt davom etishi (soatlab yoki bir necha kun) mumkin. Bemor uyquchan bo‘lib qoladi. Uning mudroq ongida haqiqiy idrok etish va tushsimon kechinmalar chalkashib ketadi. Unda goho u yoki bu kechinmalar ustunlik qiladi. Bemor diqqatini biror narsaga qisqa vaqt jalb etsa, atrofidagi narsalarga diqqatini to‘plab qarasa, nim anidir anglashi mumkin, lekin bu narsalar xotirasida turmaydi. Bunday holat, ayniqsa, giyohvandlarda, spirtli ichimliklar va uyqu dorisini ko‘p iste‘mol qilganda kuzatiladi. Obnubilyatsiya («nubes» - bulut degani) ham somnolent ongga o‘xshab ketadi. Bu ongning yengil buzilishidir. Bulut osmonni xira qilgani kabi ba‘zi kasalliklarda ong xiralashuvi ham kuzatiladi. Ong bir necha daqiqa xiralashadi, xolos. Bunda tevarak-atrofnı anglash, atrofdagi odamlarni tanish va xotiraning buzilishi kuzatilmaydi. Ongning birdan yuz beradigan qisqa muddatli buzilishiga, ya‘ni hushdan ketishga sinkope deb ataladi.

Bu holat qattiq qo'rqanda, o'ta hayajonli xabarlarini eshitganda, arterial qon bosim birdan pasayib ketganda kuzatiladi. Sinkopening sabablari turli-tuman bo'lib, bunda hushdan ketish qisqa muddat davom etadi. Koma - ongning to'liq yopilishi - uch darajaga bo'linadi. Birinchi darajali koma (koma I, o'rtacha koma): tashqi ogohlantirishlarga muvofiqlashtirilgan reaksiyalar yo'q, himoya tipidagi muvofiqlashtirilmagan reaksiyalar saqlanib qoladi (masalan, og'riqning tirnash xususiyati bilan bezovtalanish, oyoqqa javoban oyoqning egilishi, prik va boshqalar). Ko'zlar og'riqli ogohlantirishlarga ochilmaydi. O'quvchilarning yorug'likka reaksiyalari va shox parda (shox parda) reflekslari saqlanib qoladi. Yutish qiyin. Yo'tal refleksi nisbatan saqlanib qolgan. Chuqur reflekslar odatda qo'zg'atiladi. Ikkinchi darajali koma (koma II, chuqur koma) har qanday tashqi ogohlantirishlarga hech qanday reaksiyaning yo'qligi, mushak tonusining pasayishi yoki gormonning pasayishi (bir tomonning barcha oyoq-qo'llarida yoki oyoq-qo'llarida mushak tonusining davriy qisqa muddatli oshishi) bilan tavsiflanadi. , ularning kuchlanishiga olib keladi). Barcha reflekslar (ko'z qorachig'i, shox parda, chuqur va boshqalar) keskin kamayadi yoki umuman yo'q. O'z-o'zidan nafas olish buzilgan bo'lsa ham (to'lqinsimon nafas qisilishi, taxipnea, Cheyne-Stokes nafasi va boshqalar), shuningdek, yurak-qon tomir tizimining faoliyati (taxikardiya, qon bosimining pasayishi va boshqalar) saqlanadi. Uchinchi darajali koma (koma III, transsendental koma) midriyazis, total arefleksiya, mushak gipotenziyasi, hayotiy funksiyalarning buzilishi bilan tavsiflanadi (QP juda muhim yoki aniqlanmaydi; apneagacha nafas olish qiyinlashuvi).

Yuz agnoziyasi (prozopagnoziya). Aytib o'tganimizdek, agnoziyaning bu turida bemor avval o'ziga tanish bo'lgan chehralarni tanimaydi. Bu bemorlar narsalami tanishi mumkin. Ular yuzda joylashgan burun, qosh, ko'z va quloqlarning nomini aytib berishi mumkin, lekin bu odam kimligini aytib bera olmaydi, ular hatto rafiqasi, bola-chaqalari, davolovchi vrachni, shu bilan birga avvaldan tanish odamlarni, yaqinlarining, mashhur kishilarning suratlarini ham tanishmaydi. Og'ir holatlarda bemor hatto oynadagi o'z aksi yoki suratini ham tanimaydi. Shuningdek, bemor ayol va erkak yuzining farqiga bormaydi, ularning taxminiy yoshini chalkashtirib yuboradi. Bu bemorlar odamlarni ovozi, kiyimi yoki yurishidan tanib olishlari ham mumkin. Ba'zan tanib olishda tanish-bilishlarining soch tuzilishi, yuzidagi xollari, ko'zoynak taqishi kabi ortiqcha belgilar yordam beradi. Agar doimo ko'zoynak taqib yuradigan tanishi ko'zoynagini taqmay ko'rinsa, bemor uni tanimay qoladi. Ba'zan bunday bemorlarga sochi kalta ayol erkak kishidek ko'rinadi. Yuz agnoziyasi nisbatan kam uchraydi va ko'pincha agnoziyaning boshqa turlari bilan birga kuzatiladi. Yuz agnoziyasi bosh miyaning orqaensa sohalari zararlanganda kuzatiladi.

Optik-fazoviy agnoziya. Agnoziyaning bu turi, ko'pincha, bosh miyaning o'ng yarim shari (tepa-ensa sohalari) yoki ikkala yarim shar ham zararlanganda kuzatiladi. Bunda bemorlar narsalarning fazoviy belgilarini tasvirlab bera olmaydilar. Bu yerda narsalarning yoki atrofmuhitdagi obyektlarning katta-kichikligining ahamiyati yo'q. Ular geometrik figuralar (uchburchak, romb, kvadrat) ning rasmini to'g'ri chiza olmaydilar.

Ong buzilishining ko'p uchraydigan turi bo'lib, bunda bemor o'z shaxsini anglay olsa-da, vaqt va atrof-muhitga bo'lgan idroki buziladi. Deliriy turli endogen va ekzogen zaharlanishlarda, bolalarda esa tana harorati oshgan paytlarda ko'p kuzatiladi. Ko'ruv va eshituv gallyutsinatsiyalarining moi-ko'l bo'lishi deliriy uchun juda xosdir. Bemorlar ruhiy qo'zg'algan holatda o'zlarini ta'qib etuvchi bunday tasavvurlardan himoya qiladilar. Ularga hamla qilayotgan hayvonlarni go'yoki ushlab oladilar, «dushmanlar» ovozi eshitiladigan eshikni yopib qo'yadilar va hokazo. Bemorning ongi tashqi ta'sirlarga uzviy bog'langan bo'ladi. Gallyutsinatsiyalar kamayganda, ong vaqtincha tiklanadi, ko'payganda, yana buziladi. Ongning bunday o'zgarishi deliriyga xos xususiyat hisoblanadi. Bunday psixologik holatlarda psixologik yordam berishning asosiy sharti psixologik holatlar o'rganilib yondashishdan iborat.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

1. Фармакотерапия психических расстройств. Джордж Арана, Джеральд Розенбаум. Под редакцией профессора С. Н. Мосолова. Москва. “Бином”, 2004.
2. Психические расстройства в практике терапевта. Москва «Медпресс – информ» 2005.
3. Психокardiология. А.Б. Смулевич, А.Л. Сыркин. Москва. Медицинское информационное агенство, 2005.
4. Психические расстройства в практике терапевта. Ф. И. Беялов. Москва. “Медпресс - информ”, 2005.
5. Психосоматическая медицина. Руководство для врачей. Под ред. Акад. РАМН П.И. Сидорова, Москва «Медпресс – информ» 2006.
6. Ахола Т., Фурман Б. Терапевтическое консультирование. Беседа, направленная на решение. С.-Пб., «Речь», 2001 г.
7. Баркер Ф. Использование метафор в психотерапии НПО «Модек», Воронеж, 1995 г.
8. Браун Дж., Кристенсен Д. Теория и практика семейной психотерапии. С.-Пб., «Питер», 2001 г.

MAKTABDA PSIXOLOGIK XIZMATIDA DUCH KELINADIGAN MUAMMOLAR

*Bozorova D.S., Ozodov S.O. –
O'zbekiston Milliy universiteti*

**Ta'limning maqsadi yangi narsalar yaratish
qobiliyatiga ega ayol va erkaklarni yetishtirmoqdir.
Jean Piaget**

Yoshlar har bir davlatning o'sib-rivojlanishida va ishchi o'rnini to'ldirish borasidagi ham iqtisodiy, ham siyosiy jihatdan eng kata kuchidir. Ularning ulg'ayish davridagi yuzlashadigan nizolarni, muammolarni yengib o'tishi va to'g'ri

kasbni tanlab, jamiyatda o'z o'rnini egallashi har birimiz uchun birdek muhimdir. Bu boradagi muammolarni hal qilishda maktablarda psixologik xizmatlar joriy qilingan, lekin psixolog sonining va malakasining yetishmagani sababli yoshlar psixologga bo'lgan ehtiyojini asosan, adabiyot o'qituvchilari, ba'zan do'stlari, otionalari bilan muammolarini bo'lishish, tahlil qilish orqali qondirishadi.

Ko'plab yoshlarning yuzlashadigan psixologik muammolariga shaxs o'laroq qabul qilinmasligi, sotsial oidlik, kasb tanlashdagi qiyinchiliklar va keljakdagi maqsadlarini belgilash kabi masalalar kiradi. [1, 103] Bugungi kunimizda yaxshi universitet diplomiga ega bo'lish yaxshi ish kafolati emasligi hammamizga birdek ma'lum bo'lib, oliy ta'limni bitirganiga qaramasdan, ishsiz qolganlar ham kam emas. Bundan tashqari oylik maoshlar kamligi sababli hamma yuqorli maoshli ishga joylashishni xohlaydi. Bu ehtiyojlar qondirilmaganidan keyin insonning ruhiy holatida buzilishlar, stress, depressiya va hatta suidsidal harakatlar paydo bo'ladi. Bu borada hammada psixologik yordamdan bilan birga kasbiy maslahatga ham ehtiyoj seziladi. Bu ehtiyojlarni qondirish, davlatimizdagi ishsizlik miqdorini kamaytirish va psixologik sog'lomlikni ta'minlash uchun maktab psixologlari psixologik bilimlar qatorida kasbiy-konsulatsion bilim va tajribalarga ega bo'lmog'i kerak. Chunki ko'pchilik psixologik muammolarimizning negizida moddiy omillar yotadi va bular hayotimizga kuchli ta'sir o'tkaza oladi.

Psixologning ta'lim sohasidagi eng kata vazifalaridan biri o'quvchining qiziqish, qobiliyatlarini, shaxs tipi va xususiyatlarini psixometrik o'lchovlar yordamida aniqlash va bu ma'lumotlar asosida unga mos kasb tanlashda maslahat berish, kasbga yo'nalitirishdan iboratdir[2,2]. Amerika kabi rivojlangan davlatlarda bu soha (Psychological counseling and kareer guidance) siyosiy miqyosga ko'tarilib, muhim ahamiyatga ega. Chunki o'quvchilarning qaysi kasbni tanlashi, bu kasbning kelajakdagi ahamiyati, davlatga keltiradigan foydasi va kasb tanlashda psixolog o'rnining kattaligi muhim faktorlardan biridir.

Jamiyatimizdagi har insonda paydo bo'ladigan ehtiyojlardan biri bu – oidlik ehtiyojidir. Oidlik ehtiyoji A. Maslou nazariyasidan qaraganimizda fiziologik va xafsizlik ehtiyojlaridan keyin uchinchi o'rinda turib, insonning biror guhga, jamiyatga a'ziligini, o'zini o'sha jamiyatning bir qismi sifatida his qilishini ifodalaydi. Masalan, "Oliy ta'limga kishishingizdan asosiy maqsad nima?"- deb so'ralganida ko'pchilik inson "Jamiyatda o'z o'rnimni egalash, davlat rivojlanishiga hissamni qo'shish"- deb javob beradi. Bu "jamiyatda o'z o'rnini egallash" psixologiya tili bilan aytganda oidlik ehtiyoji bo'lib, bunga ko'ra inson qilayotgan mehnatining qadrlanishini, insonlarga foyda keltirishini xohlaydi. Kimdir bu ehtiyojini karierasidagi muvaffaqiyat, yana kimdir oila qurish bilan to'ldiradi.

Maktabda uchraydigan va muammoli vaziyat sifatida qabul qilinadigan masalalardan yana biri – bu sevgi-muhabbatdir. Bu ham inson ekanmiz, barchamizda birdek uchraydigan ehtiyojlaridan biri bo'lsa-da, maktab muhitida anormal harakat sifatida qabul qilinib, majlislarda salbiy holat sifatida tilga olinadi. Ba'zi o'quvchilar kimnidir sevib qolsa, buni aybdorlik sifatida qabul qilib, tuyg'ularini yashiradi va keljakda asotsial, kamsuqumlik xususiyatlarni xulqida namoyon qiladi. Bu borada psixolog o'smir yoshdagi o'quvchilarning o'z hislarini,

ehtiyojlarini tanishiga yordam beradigan psixologik treninglarni ko'proq o'tqazishi va o'quvchilar bilan guruh holatida ishlashi kerak.

Ijtimoiy tarmoqlarga, pornografik kontentlarga qaramlik, diqqat buzilishi, deviant xulq-atvor (ijtimoiy normalardan og'ish) kabi masalalar ham maktab o'quvchilarida kuzatiladigan, psixolog yordamida hal qilinadigan muammoalar sirasiga kiradi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, maktab kelajakda davlatga manfaatli kadr va yetuk shaxslarni tarbiyalashi uchun o'quvchilarning qobiliyat va qiziqishlaridan kelib chiqqan holda ta'limga yondashishi kerak. Shundagina darsxona o'quvchilar uchun zerikarli muhit emas, qiziqqan narsalarini o'rganadigan maskan holiga keladi. Maktab psixologlari o'quvchilarga kasbiy hamda kelajak maqsadlarini belgilashga yo'naltirilgan guruhli treninglarni ko'proq o'tib, har bir o'quvchining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda unga mos kasbni tanlashishida yordam berishi kerak. Buning uchun psixolog psixologik bilimlar bilan birga kasbiy-konsultatsion tajribaga ega bo'lishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. "Türkiye'de Psikolojik Danisma ve Rehberlik (PDR) Mesleg'i ve Psikolojik Danisman Eg'itimi" makalesi, Emel ÜLTANIR, Meltin Univesitesi Dergisi, Cilt 1, Sayi 1, Haziran 2005, ss. 102-111

2. Why A Psychologist Should Take Up a Career Counselling Course? https://medium.com/@priyathakur5276_3830/why-a-psychologist-should-take-up-a-career-counselling-course-8a85a10fc2f8.

PSIXOLOGIYADA STRESS MUAMMOSI

*Bulanova Nozima Dilshodbek qizi –
O'zbekiston Milliy universiteti
Psixologiya ta'lim yo'nalishi talabasi*

Stress (inglizcha stress so'zidan olingan bo'lib, O'zbekcha bosim, zo'riqish degan ma'noni anglatadi.) Har xil turdagi ekstremal ta'sirlarga javob sifatida vujudga keluvchi inson holati sanaladi. Bu tushuncha XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab psixologiya qolaversa fiziologiya, tibbiyot fanlarida tatqiq eta boshlagan. Stress tushunchasini psixologiyaga birinchi bo'lib kanadalik olim fiziolog G.Selye olib kirgan sanaladi. U stressni tatqiq etishda moslashuv alomati masalasiga, uning faoliyatiga ijobiy hamda salbiy ta'sir etishiga alohida ahamiyat bergan. Stress psixosomatik kasallikning asosiy sabablaridan biri bo'lib, jinsi, yoshi va kasbidan qat'iy nazar aholining barcha guruhlariga ta'sir qiladi. Stress juda muhim emotsional holatlardan biri sababi, u insondagi barcha holatlarga o'z ta'sirini o'tqazmay qolmaydi. Stressning uzoq muddatli va kuchli bo'lishi qon bosimining oshishiga, yurak ritmining buzilishiga, ovqat hazm qilish muammolariga, gastrit va kolitga, bosh og'rig'iga va libidoning pasayishiga olib keladi. Stress bu biz bilan sodir bo'luvchi narsa emas balki, biz ishtirok etadigan jarayon hisoblanadi. Jarayon esa stressor ya'ni voqea, hodisa, kognitiv baholash, tananing reaksiyasi va yengish

strategiyalarni o'z ichiga oladi. Stressorlar bizning stressga javob berishimizni qo'zg'atadigan hodisalar va sharoitlarga ishora qiladi, chunki ular juda qiyin, tahdidli va zararli deb qabul qilinadi. Stressorlarga: falokatlar, hayotiy muhim o'zgarishlar, surunkali kundalik muammolar, past ijtimoiy kuch kabilarni misol qilishimiz mumkin. Mashhur amerika psixologi va biolog bo'lgan Sapolski insonlarning stressga tushish sabablari haqida shunday deydi: Insonlarning kelajak haqida qayg'urishlari bir la'nat va bir hikmatdir. Sababi inson kelajak haqida ko'p o'ylar ekan tashvishlarga moyil bo'lib qoladi bu esa doimiy stressni olib keladi. Sapolski o'z asarida insonlarni zebralar bilan qiyoslaydi va shunday deydi: zebralar fiziologik hujumlar sabab tez halok bo'lishadi, insonlar esa psixologik hujumlar ya'ni stresslar sababli sekin vafot etishmoqda. Darhaqiqat uzoq muddatli stress insonni sekin astalik bilan yemirishi va halok qilishi mumkin. Yuqorida aytib o'tganimizdek har bir o'zgarish insonga stress olib kelishi mumkin shunga asoslanib stressning ham foydali tomonlari mavjud.

Stressning qisqa tajribasi foydali bo'lishi mumkin: immunitet tizimining javobini yaxshilash rag'batlantiruvchi harakat ustuvorliklarga e'tibor qaratish, energiya va qoniqish hissini o'stirish, bilimni, o'z o'zini hurmat qilishni rag'batlantiradigan muammolarni ta'minlashdan iborat.

Inson stress holatiga duch kelganda bir qancha shartlarni bajarishi lozim masalan: biror qiyinchilikka duch kelganda buni men qila olamanmi? Bu juda qiyin jarayonmi va men unga taslim bo'lamanmi? Kabi. Ularga beradigan javoblarimizga qarab stress kuchini kamaytirishimiz va aniq xulosa kelib olishimiz mumkin.

Stress alomatlari uch jabhada

1. jismoniy

2. Emotsional

3. Xulqiy jarayonlarda namoyon bo'ladi. Stress uch bosqichda amalga oshadi : xavotirlik, qarshilik, toliqish. Stressning birqancha turlari mavjud:

Eustress-foydali stress, Kritik stress-zararli stress, Psixologik stress-jamiyat bilan ko'ngilsiz, noqulay munosabatlarni keltirib chiqaradi, Fiziologik stress-jismoniy zo'riqish, noto'g'ri ovqatlanish va uyqusizlikning natijasidir, Axborot stressi- qaror qabul qilishda kelib chiqadi, Hissiy stress – haddan tashqari kuchli hissiyotlarni keltirib chiqaradi.

V.A. Bodrovning fikricha, "stress atamasi har doim ham asoslangan holda ishlatilavermaydi, ba'zan uni ma'no jihatdan yaqin bo'lgan so'zlar bilan almashtirib yuboradilar shu sababli ham bu sohada aniq tushunchani joriy etishimiz va shu yo'nalishdagi o'xshash tushunchalar o'rtasida differentsiya o'rnatishimiz lozim" Stress mavzusi keng va chuqur bo'lib bu haqida yana keng izlanishlar va tadqiqotlar olib borilishi tabiiy va bu muammo hali hanuz o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Bir so'z bilan aytganda N.H. Rizvi aytganidek "stress hamma joyda mavjud, u hayotning soyasidir, kimgadir uning mazasi yoqadi va ular istalgan natijaga erishish uchun undan foydalanadilar, kimgadir esa u yoqmaydi va uning organizmi stressga qo'ldan kelgancha qarshilik ko'rsatadi".

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Robert M. Sapolski "Психология стресса"-2015.

2. Bodrov V.A. Informasion stress. Moskva-2000.
3. Lazarus R. “Теория стресса и психофизиологические исследования” 2003.

SHAXS MUSTAQILLIGINING SHAKILLANISHI

*Dedaquziyeva Barchinoy Maxamadjonovna –
Toshkent amaliy fanlar universiteti o‘qituvchisi
barchinoymaxamadjonovna@gmail.com*

***Annotatsiya:** Shaxs deganda muayyan jamiyatning a'zosi tushuniladi. Ijtimoiy munosabatlarga kirishuvchi, ongi yuksak taraqqiy etgan, ijtimoiy taraqqiyotda ishtirok etuvchi odamgina shaxs deyiladi. Shaxsning eng asosiy belgisi-uning ongli faoliyat egasi ekanligidir. Ma'lumki kishi ongi faqat jamiyatda, boshqalar bilan o'zaro munosabatda til yordamida ijtimoiy tajribani o'zlashtirishda shakllanadi. Binobarin shaxs ham faqat jamiyatdagina shaxsga aylanishi mumkin Prizidentimiz asarlarida "Kadrlar tayorlash milliy dasturida olga surga" shaxs to'g'risida konsepsiya (g'oyalar) milliy mustaqilligimiz sharoitida shaxsning mohiyati rivojlanishi, tarbiyasi, tarkib topishini istiqlol g'oyalari asosida izohlash taxlil etishga imkoniyat yaratdi. Shaxsning shakllanishi bu ko'proq dunyo qarashi va atrof muhitga eng asosiysi o'ziga ko'proq bog'liq hisoblanadi va yana shuni takidlashimiz joizki yonidagi insonlarga ham bog'liq shaxsning shakllanishi haqida ushu maqolamizda yoritib berishga harakat qilamiz.*

***Kalit so'zlar;** Pedagogika, asosiy turlari, xususiyat, rivojlanish, odob-axloq, ijtimoiy, ishtirokchilar, o'zgarish, individ, shaxs, yuksalish.*

Shaxs deganda muayyan jamiyatning a'zosi tushuniladi odam shaxs bo'lishi uchun ruhiy jihatdan taraqqiy etgan, o'z xususiyati va sifatlari bilan boshqalardan farq qilishi lozim. Har bir odam shaxs sifatida turlicha namoyon bo'ladi. U o'zining xarakteri qiziqishi va qobiliyati aqliy rivojlanganlik darajasi, ehtiyoji, mehnat faoliyatiga munosabati bilan farqlanadi. Bular shaxsni o'ziga xos xususiyati bo'lib, ana shu ruhiy xususiyatlari rivojlanib ma'lum bir bosqichga yetsagina u mukammal kamol topgan inson deyiladi. Shaxsning ijtimoiy voqelikka, mehnatga, kishilarga, jamiyatga bo'lgan munosabati turlicha, uning faollik darajasi va odob-axloq borasida yetukligi ham turlicha. Shaxs nomini olish uchun nimalar darkor? Odamning ijtimoiy mavjudot sifatida shaxs nomini olish uchun unga ijtimoiy iqtisodiy hayot va tarbiya kerak. Shu sababli pedagogika fani bolaning shaxs sifatida rivojlanishi, uning har tomonlama kamolga etish qonuniyatlarini, unga ta'sir etuvchi ob'ektiv va sub'ektiv omillarni, rivojlanish jarayoniga aloqador davrlarini aniqlash kerak. Shunga asosan pedagogika fani shaxsning rivojlanishda va ta'lim, o'qitish, tarbiya hamda bola faolligi, o'z-o'zini tarbiyalash bosqichlarini aniqlash lozim.

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov Oliy Majlisning I chaqiriq I sessiyasida qilgan ma'ruzasida hur O'zbekistonda demokratik tuzumni barpo etishda amalga oshirilayotgan ulkan o'zgarishlarni asosiy ishtirokchilari bo'lgan jamiyatimiz a'zolarining ma'naviyatini butunlay yangicha qaror toptirish

lozimligini ta'kidlagan edi. Chunki ta'lim tarbiya - ong mahsuli, lekin ayni vaqtda ong darajasi va uning rivojini xam belgilaydigan omildir. Binobarin, ta'lim-tarbiya tizimini o'zgartirmasdan turib ongni o'zgartirib bo'lmaydi. Ongni, tafakkuri o'zgartirmasdan turib esa biz ko'zlagan oliy maqsad ozod va obod jamiyatni barpo etib bo'lmaydi. Shaxs tarbiyaning ob'ekti va sub'ekti hisoblanadi shaxsning kamol topishida ijtimoiy va biologik omillarning ta'sir kuchi bir xil bo'lmaydi. Shaxsning rivojlanish holatini to'g'ri baholash va bilish uchun uni turli munosabatlar doirasiga qo'yib tuzatish lozim. Pedagogika shaxsning kamoliga etishishning murakkab va ziddiyatli jarayon deb biladi. Shaxs qaysi o'quvchilarda o'z-o'zini tarbiyalashda ya'ni o'z ustida ongli batartib ishlashga ehtiyoj paydo bo'lgandagina, tarbiya jarayonini samarali deb hisoblasa buladi.

Kishilik jamiyati taraqqiyotida shaxsni tarbiyalash muammosi odam shaxs bo'lishi uchun psixik jihatdan rivojlanishi, o'zini yaxlit inson sifatida his etishi, o'z xususiyatlari va sifatleri bilan boshqalardan farq qilmog'i kerak. "Individ" nima? Bola ma'lum yoshga qadar "individ" sanaladi. Individ lotincha "individium" so'zidan olingan bo'lib, «bo'linmas», «alohida shaxs», «yagona» ma'nolarini anglatadi xatti-harakatlarini shartli refleks yordamidagina tashkil eta oluvchi biologik mavjudotdir. Individuallik esa shaxsning o'ziga xos xususiyatlari bo'lib, uning namoyon bo'lishi, tarbiya jarayonini amalga oshirishda bola shaxsini puxta o'rganish, uning yashash sharoitlaridan etarli darajada xabardor bo'lish va ularning hisobga olinishini taqozo etadi. Individual yondashuv o'quvchilarning aqliy qobiliyatlari, bilishga bo'lgan qiziqish hamda iste'dodini namoyon etishda muhim ahamiyatga ega. Bola harakatlari ongli, ijtimoiy munosabatlar jarayonidagi ishtiroki natijasida shakllana boradi.

Kadrlar tayyorlash milliy modelida shaxs kadrlar tayyorlash tizimining bosh sub'ekti va ob'ekti, ta'lim sohasidagi xizmatlarining iste'molchisi va ularni amalga oshiruvchi sifatida ta'riflanadi. Kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati insonni intellektual va ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash, uning har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida namoyon bo'lishiga erishishni nazarda tutadi. Mazkur ijtimoiy talabning amalga oshirilishi har bir fuqaroning bilim olish, ijodiy qobiliyatini namoyon etish, intellektual jihatdan rivojlanishi hamda muayyan kasb yo'nalishi bo'yicha mehnat qilish huquqini kafolatlaydi. Odamning ijtimoiy mavjudot sifatida shaxsga aylanishi uchun ijtimoiy muhit sharoitlari va tarbiya kerak bo'ladi. Ana shular ta'sirida odam inson sifatida rivojlanib boradi va shaxsga aylanadi. Rivojlanishning o'zi nima? Rivojlanish shaxsning fiziologik va intellektual o'sishida namoyon bo'ladigan miqdor va sifat o'zgarishlar mohiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayondir. Rivojlanish mohiyatan oddiydan murakkabga, quyidan yuqoriga, eski sifatlardan yangi holatlarga o'tish, yangilanish, yangining paydo bo'lishi, eskining yo'qolib borishi, miqdor o'zgarishining sifat o'zgarishiga o'tishini ifodalaydi. Rivojlanishning manbai qarama-qarashliklarni o'rtasidagi kurashdan iboratdir. Bola shaxsining rivojlanishi inson ijtimoiy mavjudotdir, degan falsafiy ta'limotga asoslanadi. Ayni vaqtda inson tirik, biologik mavjudot hamdir. Demak, uning rivojlanishida tabiat rivojlanishining qonuniyatlari ham muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, shaxs bir butun mavjudot sifatida baholanar ekan,

uning rivojlanishiga biologik va ijtimoiy qonuniyatlar birgalikda ta'sir etadi, ularni bir biridan ajratib bo'lmaydi.

Chunki shaxsning faoliyati, hayot tarziga uning yoshi, bilimi, turmush tajribasi bilan birga boshqa fojiali holatlar, kasalliklar ham ta'sir etadi. Inson butun umri davomida o'zgarib boradi. U ham ijtimoiy, ham psixik jihatdan kamolga etadi, bunda bolaga berilayotgan tarbiya maqsadga muvofiq bo'lsa, u jamiyat a'zosi sifatida kamol topib, murakkab ijtimoiy munosabatlar tizimida o'ziga munosib o'rin egallaydi. Chunki rivojlanish tarbiya ta'siri ostida boradi. Shaxsning fazilatlarini to'g'ri ko'rish va bexato baholash uchun uni turli munosabatlar jarayonida kuzatish lozim. Demak, shaxsni rivojlantirish vazifasini to'g'ri hal etish uchun uning xulqiga ta'sir etuvchi omillar hamda shaxs xususiyatlarini yaxshi bilish zarur hisoblanadi. Insonning qobiliyati va yoshi u tomonidan tashkil etilayotgan faoliyat mohiyatiga ko'ra belgilanadi. Faoliyat jarayonida inson shaxsi, har tomonlama va bir butun, yaxlit holda rivojlanadi. Lekin faoliyatni maqsadga muvofiq amalga oshirishi uchun uni to'g'ri tashkil etish lozim. Lekin ko'p holatlarda shaxsning rivojlanishi uchun imkoniyatlar yaratilmaydi, tarbiyalanuvchilarning ijtimoiy mehnat, bilish faoliyatlari cheklangan bo'ladi.

O'smir va o'spirinlar faoliyatining asosiy turlariga o'yin, o'qish va mehnat kiradi. Ular yo'nalishiga ko'ra bilishga doir, ijtimoiy, sport, badiiy, texnik, hunarmandchilik hamda shaxsiy qiziqish asosida tanlangan sohalardan iborat. Faoliyatning asosiy turi – muloqotdir. Faoliyat faol va passiv bo'lishi mumkin. O'smir faoliyati muhit va tarbiya ta'sirida faollashishi yoki susayishi mumkin. Inson shaxsining rivojlanishida uning butun vujudi bilan sevib, o'z imkoniyatlarini namoyon etib, mehnat qilishi, o'zini shaxs sifatida ko'rsata olishi, unda o'z faoliyatidan qoniqish hosil qiladi. Uning ijtimoiy mehnatdagi ishtirokida faollik ko'zga tashlanadi. Ta'lim jarayonida faollik o'quvchiga bilimlarni chuqur va mustahkam egallashga, o'z qobiliyatini namoyon etishga yo'llaydi. Bilishga bo'lgan faollik o'quvchining intellektual rivojlanishini ta'minlaydi. Faollik ko'rsatishning asosini esa hamma vaqt ehtiyoj tashkil etadi. Ehtiyojlarning xilma-xilligi faoliyatning ham turlarini kengaytiradi shunga ko'ra, o'quvchining turli yosh davrlarida ularning faoliyati turlicha bo'ladi. Ta'lim muassasasida bir xil talab shaxs rivojlanishida har doim ijobiy natija beravermaydi. Turli yosh davrlarida faoliyatning turlari va mohiyati o'zgarib turishi kerak. Insonning ijtimoiy faolligi, qobiliyati barcha muvaffaqiyatlarining garovidir. Chunki har bir inson o'z mehnati, g'ayrati, intilishi bilangina faollashadi. O'qituvchi qanchalik yaxshi o'qitmasin yoki tarbiya bermasin, tarbiyalanuvchining o'zi harakat qilmasa, rivojlanish muvaffaqiyatli kechmaydi.

Zero barcha ma'naviy-axloqiy kamchiliklarning asosiy sababi ham insonning o'z faoliyatini to'g'ri yo'lga qo'yaganligidadir. Shuning uchun ham inson faoliyati uning rivojlanishi natijasi hamdir. Demak, shaxs faolligi asosida ijtimoiy faollik tashabbuskorlik ijodkorlik hislatlarini shakllantirish – uning shaxslik imkoniyatlarini namoyon etishi orqali faoliyatini rivojlantirish muhim sanaladi. Rivojlanishning yosh va o'ziga xos xususiyatlari. Muayyan bir yosh davriga xos bo'lgan anatomic fiziologik jismoniy va psixologik xususiyatlar yosh xususiyatlari deb ataladi. Ana shu yosh xususiyatlarni hisobga olgan holda ta'lim va tarbiya ishi

tashkil etiladi. Shunda bola rivojlanishiga tarbiya ta'siri kuchli bo'ladi. Inson odam shaxs ko'plab fanlarning o'rganish ob'ekti hisoblanadi. Shaxs deganda muayyan jamiyatning a'zosi tushuniladi. Ijtimoiy munosabatlarga kirishuvchi, ongi yuksak taraqqiy etgan, ijtimoiy taraqqiyotda ishtirok etuvchi odamgina shaxs deyiladi. Shaxsning eng asosiy belgisi-uning ongli faoliyat egasi ekanligidir. Ma'lumki kishi ongi faqat jamiyatda, boshqalar bilan o'zaro munosabatda til yordamida ijtimoiy tajribani o'zlashtirishda shakllanadi. Binobarin shaxs ham faqat jamiyatdagina shaxsga aylanishi mumkin.

Foydalangan adabiyotlar:

1. G'oziev E.G'.Psixologiya.-T.,O'Zmu «Universitet», 2003.
2. G'oziev E.G'.Tafakkur psixologiyasi.Toshkent: Universitet,1990. Fromm E.Psixologiya chelovecheskoy destruktivnosti. M.2000 g.
3. Статистика по изучению/ Под ред. А. Н. Леонтьева, А. А. Пьюз-Рая, В. В. Шульгина. Я Романова.М.Питер,2004.
4. Хрестоматия по общей психологии. Психология памяти / Под. ред. Ю.Б.Романова. Гиппенрейтер В., Я.Романова. М.:Изд-во Моск.ун-та,2001.
5. Дэвид Ф.Ломан, Джони М.Лакин.Мышление и интеллект.Нью-Йорк: Издательство Кембриджского университета.-2009.
6. Васильев И.А,Магомед-Эминов М.Ш.Мотивация и контроль за действием. М.,1991.
7. Гальперин П.Я., Кабыльницкая С.Л. Экспериментальное формирование мышления. М.:Изд-во Моск.ун-та,1999.

OLIY HARBIY TA'LIM TIZIMIDA HARBIY PSIXOLOGIYA FANINI O'QITISHNING DOLZARBLIGI

*Djalolov Sanjar Raufovich –
O'R QK KMTM Radiatsion, kimyoviy va biologik
muhofaza sikl katta o'qituvchisi, QK xizmatchisi,*

*Djalolov Mansur Marufovich –
O'R QK KMTM muxandislik tayyorgarlik sikli
katta o'qituvchisi, QK xizmatchisi*

Annotatsiya. Mazkur maqolada harbiy psixologiyaning tarixiy shakllanishi hamda zamonaviy fan tarmog'i sifatida rivojlanishi bosqichlari, uning vazifalari va tuzilishi, shuningdek harbiy ta'lim muassasalarida psixologik fanlarni joriy etishning muammo va istiqbollari yoritilgan. Ilmiy iste'molga kiritilmagan bir qancha psixologik manbalar asosida harbiy psixologiyaning mustaqil fan sifatidagi asosiy yo'nalishlari va istiqboldagi muammolari tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: harbiy jamoa, psixika, axloqiy-psixologik tayyorgarlik, inson psixikasini kuchaytirish, ilmiy psixologik bilimlar, harbiy psixologiya, harbiy xizmatchi shaxsi psixologiyasi, armiyada guruh va shaxslararo munosabatlar

psixologiyasi, tinchlik paytida harbiy faoliyat psixologiyasi, harbiy intizom psixologiyasi, jang vaurush psixologiyasi.

Urush va tinchlik kabi insoniyat oldida turgan globalmuammoni hal etish zarur bo'lib turgan bugungi tahlikali zamonda Vatanimizning tinchligi, osoyishtaligini ta'minlash O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi harbiy qism va bo'linmalari shaxsiy tarkibining, qolaversa har bir fuqaroning muqaddas burchidir.

Mudofaa va xavfsizlik sohasida amalga oshirilayotgan ishlar Vatan himoyasi, yurt tinchligi hamda davlatimiz istiqboli uchun jonkuyar, fidokor, vatanparvar, vijdonli hamda o'z xizmat burchini sidqidildan bajaradigan xizmatchilarni etishtirish vazifasini qo'yimoqda.

Bu kabi maqsadlarni samarali amalga oshirishda insonning ichki dunyosi, uning ruhiyatini har tomonlama o'rganuvchi psixologiya fanining ahamiyati benihoya kattadir.

Ta'kidlash joizki, bugungi kunda ijtimoiy hayotning barcha sohalarida psixologiyaning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Harbiy ta'lim sohasi ham bundan mustasno emas. Psixologik bilimlar bilan qurollanish harbiy xizmatchilar hayotida muhim ahamiyat kasb etadi. Barchaga ma'lumki, inson zoti butun hayoti davomida asosan muayyan muammolarni echish bilan ovora bo'ladi. Ehtiyoj bor joyda o'z-o'zidan turli-tuman muammolar kelib chiqadi. Kattayu-kichik turli muammolar insonni butun umri davomida ta'qib etadi. Oddiy qilib aytganda, hayot bu – muammolarni echib borish jarayonidir. Tan olish kerakki, muammolarning katta bir qismi insonlarni bir-birlarini tushunmasliklari oqibatida vujudga keladi. Ota o'g'lini, komandir qo'l ostidagi askarni, rahbar xodimni yoki aksincha, o'g'il otani, askar komandirni, xodim esa rahbarni tushunmasa o'zaro xusumat, xafagarchilik, kek, hattoki o'z joniga qasd qilish kabilar bilan birga ish samaradorligini pasayib ketishi kabi muammolar vujudga keladi. Harbiy soha xodimlari bir-birlarini yaxshi tushunishlari uchun ruhiyatning tarkibiy qismlarini bilishlari kerak bo'ladi. Ya'ni harbiy jamoada yoki boshqa bir guruhda insonlar bir-birlarini ijobiy tushunishlari uchun ular hayotiy hamda ilmiy psixologik bilimlar bilan ma'lum ma'noda qurollanishlari lozim. Shundagina paydo bo'lishi mumkin bo'lgan muammolarni miqdorini kamaytirish imkoni tug'iladi.

Psixologik bilimlar bilan qurollanishning yana bir ahamiyatli tomoni shundaki, harbiy soha xodimi o'z ishining sifati va samaradorligini oshirishi uchun o'zining imkoniyatlarini bilish bilan birga o'zgalarning imkoniyatlari hamda xatti-harakatlarini bashorat qila olish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim. Bunday maqsadlar esa psixologik bilimlarni talab etadi. Barchaga ma'lumki, agar inson yashab turgan hayotidan nimani xohlayotganligini aniq bilmasa muayyan muammolarga duch keladi. Inson o'zining ruhiy imkoniyatlarini to'g'ri baholay olgan taqdirdagina hayotda muvaffaqiyatga erishishi mumkin. O'zining psixologik imkoniyatlariga to'g'ri baho bera olmaydigan hamda o'zini etarli darajada tushunmaydigan inson hayotda ketma-ket xatolarga yo'l qo'yadi. Barkamollik tomon intilayotgan inson psixologik jihatdan doimo o'zining imkoniyatlari, yutuqlari va kamchiliklarini bilib yurishi kerak bo'ladi.

Aniqroq qilib aytganda, inson o'zini shaxs sifatida tavsiflay olish qobiliyatiga ega bo'lgan paytdan boshlab unda kamolot sari qadam tashlash imkoniyati paydo bo'ladi. Yuqoridagi maqsad va vazifalarni amalga oshirish uchun psixologiyani bilimlar tizimi sifatida o'zlashtirish katta nazariy va amaliy yordam bo'lishi shubhasizdir. Psixologiyaning eng ahamiyatli tomoni shundaki, psixologik bilimlarni tizimli ravishda o'zlashtirgan inson o'z-o'zini anglay boshlaydi, yutuq va kamchiliklarini tahlil qiladi hamda zaruriy hollarda ularga muayyan o'zgartirishlar kiritadi. Psixologik bilimlarni o'zlashtirish komandirlarga qo'l ostidagi harbiy xizmatchining ichki dunyosida nimalar kechayotganligini yaxshiroq tushunish, "ko'ngliga qo'l solish" hamda uning psixik rivojlanishida ko'rinib turgan kamchiliklarni tuzatish uchun nihoyatda zarurdir. Shuningdek, psixologik bilimlarni tizimli ravishda o'zlashtirish samarali muomala va muloqot o'rnatish yo'lida insonlarning kayfiyati, fe'l-atvori, ruhiy imkoniyatlari, didi, qiziqishlari, yutuq va kamchiliklari bilan hisoblashishda ko'makchi vazifasini o'tashi mumkin.

Psixologiyani o'rganish harbiy xizmatchiga aqliy salohiyatni o'stirish, xotirani kuchaytirish, diqqat kuchini oshirish, ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish hamda yangi bilim va ko'nikmalarni tez va oson o'zlashtirish imkonini beradi. Muayyan psixologik bilimlarga ega bo'lgan inson o'z fikr-mulohazalarini boshqalarga qaraganda nutqda to'g'ri ifodalay oladi hamda o'zgalarning nutqini to'g'ri tushuna oladi; o'zining aql-idrokini, psixik jarayonlarini puxta bilib oladi hamda ularga e'tiborini qaratadi; aqliy faoliyatni hamda psixik jarayonlarni kuchaytiruvchi yo'llarni bilib oladi va o'z ruhiyatini tizimli ravishda tarbiyalab, toblab, shakllantirib boradi.

Bizga ma'lumki, har bir inson o'zi yashab turgan olam va hayot haqida muayyan bir bilimlarga egadir. Insonlar umri davomida to'plagan bilimlariga ko'ra "aqli", "aqlsiz", "bilimli", "bilimsiz" "qobiliyatli" yoki "qobiliyatsiz" kabi turli sifat va darajalarga bo'linadilar. Harbiy xizmatchi o'z kasbining haqiqiy egasi bo'lishi uchun o'zini qurshab turgan atrof-muhit haqida bilim va tasavvurga ega bo'lishi shartdir. Olam va odam, tabiat va jamiyat hamda fazo haqidagi bilimlar inson psixikasining muhim shakli bo'lgan bilish jarayonlari yordamida to'planadi va rivojlanadi.

Harbiy xizmatchilar samarali faoliyat olib borishlari uchun ularning psixikasi, birinchi o'rinda psixologik bilish jarayonlari har tomonlama kuchli bo'lishi kerak. Psixikasi mustahkam va musaffo bo'lgan odam har qanday qiyin, ekstremal holatlardan osonlikcha, bezarar chiqib keta oladi. Psixikasi kuchli bo'lgan harbiy xizmatchi harbiy harakatlar davomida o'zini dadil tutadi, Vatanni ishonchli himoya qila oladi. SHuning uchun ham, shaxsiy tarkibning axloqiy-psixologik tayyorgarligida "inson psixikasini kuchaytirish" muhim ahamiyatga ega bo'lgan tadbirlar sirasiga kiradi.

SHaxsiy tarkibni ilmiy psixologik bilimlar bilan qurollantirish AQSH, Buyuk Britaniya, Rossiya, Fransiya, Isroil va boshqa jahonning ko'plab rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarda yo'lga qo'yilgan. Bunda harbiy psixologiya fanining ahamiyati kattadir.

XIX asr oxirlari va XX asr boshlarida Rossiyada harbiy psixologiya bilan samarali shug'ullangan tadqiqotchilardan biri G.E.SHumkov o'sha davrlarda askarlarning tarbiyasi hamda jangovar holatlarga tayyorgarligi ilmiy psixologik bilimlarga asoslangan qat'iy tizimasosida o'tkazilishi shart deb hisoblagan.

Harbiy psixologiya – harbiy xizmatchi va harbiy jamoalarning ichki dunyosi hamda askarning psixik rivojlanish qonuniyatlarini o'rganadigan psixologiyaning alohida tarmog'i. Harbiy psixologiya fani quyidagi 5 yo'nalish bo'yicha o'rganiladi:

1. Harbiy xizmatchi shaxsi psixologiyasi;
2. Armiyada guruh va shaxslararo munosabatlar psixologiyasi;
3. Tinchlik paytida harbiy faoliyat psixologiyasi;
4. Harbiy intizom psixologiyasi;
5. Jang va urush psixologiyasi.

Harbiy xizmatchi shaxsi psixologiyasi. Mazkur yo'nalish harbiy xizmatchining psixikasi va xulq-atvorini harbiy ish samaradorligini oshirish hamda salbiy holatlarni oldini olish maqsadida o'rganish uchun mo'ljallangan. Askarni ruhiy-ma'naviy jihatdan baquvvat, bilimli hamda sohasining professional qilib tarbiyalash maqsadida komandirlar ularning psixik dunyosini o'rganib olishlari kerak bo'ladi. Bunday darajaga harbiy xizmatchining o'zi ham o'z-o'zini kuzatish, o'rganish va mustaqil tarbiya natijasida erishishi mumkin.

Armiyada guruh va shaxslararo munosabatlar psixologiyasi. Harbiy jamoa orasida jangovar o'rtoqlik hamda elkadoshlikni shakllantirish, jamoda ro'y berishi mumkin bo'lgan ziddiyatlarni bartaraf qilish, jamoani psixologik jihatdan to'g'ri shakllantirish kabilar mazkur yo'nalishning bosh maqsadidir.

Tinchlik paytida harbiy faoliyat psixologiyasi. Ma'lumki, tinchlik paytida shaxsiy tarkib asosan o'quv, maishiy hamda har kungi xizmat faoliyati bilan shug'ullanadilar. Jangovar, jismoniy, saf, ma'naviy-ma'rifiy hamda mutaxassislik bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni oshirish harbiy xizmatchilarning tinchlik paytida bajarishi lozim bo'lgan asosiy vazifasidir. Ta'lim mobaynida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan psixologik muammolarni bartaraf etish, shuningdek ta'lim sifati va samaradorligini oshirishning psixologik qonuniyatlarini ishlab chiqish ushbu yo'nalishning tadqiqot doirasiga kiradi.

Harbiy intizom psixologiyasi. Harbiy intizomni psixologik jihatdan tahlil qilish, intizomni mustahkamlash maqsadida psixologik usullarni ishlab chiqish kabilar harbiy intizom psixologiyasida ko'rib chiqiladi.

Jang va urush psixologiyasi. Askarda real harbiy harakatlar jarayonida kechadigan ruhiy hodisalarni o'rganish, harbiy xizmatchilarga ruhiy barqarorlikni saqlay olishning psixologik usullarini o'rgatish, jang sharoitlarida boshqaruvning psixologik asoslarini ishlab chiqish kabilar jang va urush psixologiyasining vazifasidir.

Harbiy psixologiyaning tadqiqot doirasi harbiy-professional faoliyatning turli sharoitlarida harbiy xizmatchi psixikasining namoyon bo'lishi xususiyatlari hamda harbiy jamoalarga xos psixologik jarayonlar, holatlar va xususiyatlarni tashkil etadi.

Harbiy psixologiya psixologiyaning alohida tarmog'i sifatida XX asr boshlarida shakllangan. SHuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, davlatchilik paydo bo'lib har bir mamlakat o'z armiyasiga ega bo'lganidan keyin davlat va armiya boshliqlari o'z armiyasini har tomonlama rivojlantirish masalasiga jiddiy e'tibor qaratganlar. Tabiiyki, o'tmishdagi Qurolli Kuchlar bilan zamonaviy armiya o'rtasida kattagina farq bor. O'z askarlarini jang maydoniga olib chiqqan sarkardalar jang oldidan askarlarini ruhlantirish maqsadida turli usullardan foydalanganlar. Masalan, bosh sarkardaning jang oldidan so'zlagan nutqining ta'sirchanlik darajasi butun jang davomida askarlarning jangovar ruhini ko'tarinkilik holatida bo'lishini ta'minlab bergan. Iskandar Zulqarnayn, Sezar, Attila, Chingizxon, Jaloliddin Manguberdi, Sohibqiron Amir Temur, A.V.Suvorov, Napoleon Bonapart va boshqa nomi ulug' sarkardalar o'z askarlarini ruhlantirish masalasiga katta e'tibor qaratganlar. Ular ko'p hollarda askarlarning kayfiyati hamda ehtiyojlari bilan hisoblashganlar. Buyuk qomusiy olim Arastuning buyuk shogirdi, mashhur lashkarboshi Iskandar Zulqarnayn har doim janglarga ta'sir etadigan ijtimoiy-psixologik omillarni hisobga olgan. U birinchilardan bo'lib jang davomida chekinishga tushgan qo'shinning bir qismi qo'shinning boshqa qismini ham vahimaga solib qo'yishini, ya'ni jangdagi vahima tarqalish xususiyatiga ega ekanligini tushunib etgan va bunga qarshi chora qo'llashga harakat qilgan. Iskandar Zulqarnayn sarkardaning o'z askarlariga psixologik ta'sir o'tkaza olish orqali obro' orttirishi naqadar muhim ekanligini ham tushungan. Masalan, qo'shin suvsizlikdan azob chekayotgan bir paytda hukmdorga ko'zda qimmatli suvni taklif qilishganida, u askarlar oldida suvni to'kib tashlagan va shu tariqa oddiy jangchilar bilan elkadosh ekanligini namoyon qilgan.

Sohibqiron Amir Temur ham shaxsiy tarkib orasidan mard, tadbirkor, aqlli askarlarni doimo tanlab olib ularga har tomonlama yordam ko'rsatgan va o'stirgan. Keyinchalik ijtimoiy-iqtisodiy hayotning rivojlanishi hamda yangi erlarning ochilishi dunyoni bo'lib olish, mustamlakalarni ko'paytirishga bo'lgan intilishlarga asos bo'lib xizmat qildi. Birinchi jahon urushining (1914-1918) sababi ham aynan dunyoni jug'rofiy jihatdan bo'lib olish maqsadida boshlandi. XX asr boshlarida armiyada shaxsiy tarkibda askarlarni tanlab olish, o'qitish va taqsimlash maqsadida ommaviy tadqiqotlar o'tkazilgan. 2-jahon urushi (1939-1945)dan keyin, AQSHda harbiy psixologiya bo'yicha olib borilayotgan tadqiqotlar kuchayib ketdi. Bunday tadqiqotlar faqatgina harbiy muassasalarni o'zidagina emas, balki turli psixologiya institutlari bilan shartnoma asosida ham o'tkazilar edi. Bugungi kunda AQSHda 100ga yaqin ilmiy-tadqiqot markazlari harbiy-siyosiy va psixologik tadqiqotlar bilan shug'ullanmoqda. AQSH Qurolli Kuchlarida minglab diplomli psixolog mutaxassislari faoliyat olib boradi, har yili yuzlab yangi mutaxassilar xizmatga olinadi. Inson omili AQSHda olib borilayotgan harbiy-psixologik tadqiqotlarda eng ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Mazkur yo'nalish ramkasida harbiy jamoalarda liderlik muammosi faol ravishda tadqiq etilmoqda (Stogdill, Xollander, Bass, Xevron, Mak-Grat, Fidler, Gutskou va boshqalar).

O‘zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan barcha oliy harbiy o‘quv yurtlarida bo‘lajak ofitserlarga psixologik bilimlar tizimli ravishda o‘rgatiladi. Oliy harbiy ta‘lim muassasalarida psixologiya, pedagogika, harbiy psixologiya va pedagogika, aviatsiya psixologiyasi kabi fanlarning o‘qitilishi joriy etilgan. Har bir harbiy qism va bo‘linmada malakali psixolog mutaxassisi lavozimining bo‘lishi harbiy ish samaradorligini oshirishi shubhasizdir. Bu borada O‘zbekistonda muayyan amaliy harakatlar olib borilmoqda. Respublikamizdagi bir necha oliy harbiy ta‘lim muassasalarida harbiy psixologiya kafedralari ochildi. SHu bilan birga ko‘plab muammolar o‘z echimini kutmoqda.

Oliy harbiy ta‘lim tizimida harbiy psixologiya fanini o‘qitish bilan bog‘liq eng muhim masalalar quyidagilardir:

1. Respublika oliy o‘quv yurtlaridagi psixologiya yo‘nalishi tizimida harbiy psixologiya fanining o‘qitilmasligi. Oliy harbiy ta‘lim tizimida harbiy psixologiyadan mashg‘ulot o‘tayotgan mutaxassisning o‘zi OO‘YUda bu fanni o‘tmaganligi ta‘lim samaradorligiga ta‘sir etishi shubhasizdir. Psixolog mutaxassislarni tayyorlaydigan universitetlarning harbiy kafedralarida bu fanning joriy etilishi maqsadga muvofiq ish bo‘lar edi.

2. Oliy harbiy ta‘lim muassasalarida harbiy psixologiya o‘qituvchilari orasida nomutaxassis kadrlarning ko‘pligi. Psixologiyadan tayanch ma‘lumotga ega bo‘lmagan pedagog bu fanni samarali o‘ta olmasligi tabiiy hol. Oliy ma‘lumotli ofitserlarni to‘rt, olti yoki bir yillik qayta tayyorlashdan o‘tkazish ishlari har doim ham yaxshi samara bermaydi.

3. Harbiy psixologiya fani bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlarining sust olib borilishi. Harbiy psixologiya va pedagogika hamda aviatsiya psixologiyasi bo‘yicha talaygina muammolar mavjudligi bu sohalarining rivojlanishini, ilmiy izlanishlar olib borilishini talab qilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, psixologik tayyorgarlikning tizimli ravishda olib borilishi bilan shaxsiy tarkibning yuqori darajadagi jangovar, axloqiy-psixologik va ma‘naviy-ma‘rifiy tayyorgarligiga erishiladi. Ularda professional faoliyatni samarali olib borish uchun zarur bo‘lgan xususiyatlar shakllantiriladi va rivojlantiriladi. Harbiy xizmatchilarni psixologik bilimlar bilan sifatli qurollantirish harbiy ish samaradorligini oshiruvchi asosiy omillardan biridir. Shuning uchun ham, oliy harbiy ta‘lim tizimida harbiy psixologiya fanini o‘qitish bilan bog‘liq metodologik masalalarni hal etish bugungi kunning dolzarb masalasi bo‘lib qolmoqda.

Adabiyotlar:

1. Nasriddinov CH.R. Harbiy psixologiya. T.:“Fan”, 2004.
2. Majidov, J. (2020). Professional futbol jamoalarida “trener–sportchi” tizimidagi munosabatlarning o‘ziga xos xususiyatlari. Arxiv Nauchnyx Publikatsiy JSPI.
3. Majidov, J., & Majidova, G. (2020). Shaxs ijtimoiy taraqqiyotida oila muhitining o‘rni. Arxiv Nauchnyx Publikatsiy JSPI.
4. Majidov, J. (2020). Psychological criteria of the leader personality. Arxiv Nauchnyx Publikatsiy JSPI.

5. Majidov, J. (2021). Sportdagi muloqot ijtimoiy psixologik hodisa sifatida. Jurnal Pedagogiki i psixologii v sovremennom obrazovanii, 1(1). izvlecheno ot <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/723>

6. Majidov, J. (2021). Futbol jamoalarida o'zaro munosabatlar kechishining ayrim hususiyatlari. Jurnal Pedagogiki i psixologii v sovremennom obrazovanii, 1(1). izvlecheno ot <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/724>.

O'ZBEKISTONDA MUSTAQILLIK YILLARIDA TA'LIM TIZIMIDAGI ISLOHOTLAR

*Ergashev Yahyo Mansurjon o'g'li –
Aniq va Ijtimoiy fanlar universiteti magistranti
Tel: +998998785745
E-mail: yahyoergashev808@gmail.com*

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada mustaqillikning dastlabki yillarida ta'lim tizimining o'rni va ahamiyati, ta'lim tizimida olib borilgan islohotlar, o'z haquqlarini tanitadigan, atrofida sodir bo'layotgan voqea-hodisalarga mustaqil munosabat bilan yondashadigan, ayni zamonda shaxsiy manfaatlarini mamlakat va xalq manfaatlari bilan uyg'un holda ko'radigan erkin, har jihatdan barkamol yoshlarni tarbiyalashning istiqboldagi vazifalarini belgilash kabi dolzarb masalalar atroflicha yoritilgan.*

***Kalit so'zlar:** ta'lim va tarbiya, ta'lim sifati, ta'lim jarayonida olib borilgan o'zgarishlar, ta'lim va tarbiyaning jamiyatdagi o'rni va ahamiyati, maktab ta'limi, ma'naviy ruh, insonparvarlik, barkamol avlodni tarbiyalashda ta'lim sifatining dolzarbligi, milliy ruh, milliy mentalitet.*

Jahonning bir qator ilmiy-tadqiqot markazlari, xalqaro tashkilotlari tomonidan oliy ta'limga yoshlarni qamrab olish, sohaga daxldor ilg'or dasturlarini yaratish va o'qitishni tashkil qilish, nazariy bilimdan amaliy ko'nikmalarni hosil qilishga qaratilgan tizimga o'tish, ayni jarayonlarini boshqarishning ilg'or usullarini yaratish, muassasa professor-o'qituvchilari ilmiy salohiyatini oshirish bo'yicha keng ko'lamli tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu ilmiy izlanishlar natijalarini oliy ta'lim tizimiga joriy etilishi orqali erishilgan yutuqlarni o'rganish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab mamlakatimizda davlat va jamiyat boshqaruvida demokratik islohotlarni amalga oshirish, yuksak ma'naviyatli, mustaqil va erkin fikrlaydigan, zamonaviy ilm-fan yutuqlarini puxta o'zlashtirgan, sog'lom e'tiqodli, har tomonlama barkamol avlodni voyaga yetkazish, ijtimoiy munosabatlarni tashkil etishda qonun ustuvorligiga erishish, jamiyat boshqaruvida fuqarolar va jamoat tashkilotlari ishtirokini ta'minlash hamda erkin fuqarolik jamiyatini barpo etish masalalariga alohida ahamiyat berilmoqda. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» da fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishning muhim yo'nalishi sifatida

yuksak ma'naviyatli, raqobatbardosh va yuksak kasbiy madaniyatga ega mutaxassislarni tayyorlash muhim vazifa sifatida belgilandi.

O'zbekistonda mustaqillikning dastlabki yillaridanoq oliy ta'lim tizimiga katta e'tibor qaratilgan. Sohada tizimli ravishda islohatlar amalga oshirib kelingan. Ayniqsa, so'nggi yillarda oliy ta'lim va o'rta ta'lim tizimidagi mavjud muammolarni hal etish va bu sohani zamon talablari darajasida rivojlantirish maqsadida qator davlat dasturlari qabul qilinib, amaliyotga keng joriy qilinmoqda. Shu jihatdan oliy ta'lim va o'rta ta'lim tizimidagi o'zgarishlar tendensiyasi hamda, qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlar ijrosi natijalari yaqqol namoyon bo'lmoqda, tizimga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilmoqda. Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Biz ta'lim va tarbiya tizimining barcha bo'g'inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o'zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz".

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning muvaffaqiyati ko'p jihatdan ta'lim-tarbiya tizimini hozirgi darajasiga ko'tarish, har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirishga, ya'ni pirovard natijada malakali kadr tayyorlashga bog'liq. Chunki jamiyat taraqqiyotining asosini uning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanganligi bilan bir qatorda shu jamiyatda yashayotgan fuqarolarning intellektual va ma'naviy salohiyati ham belgilab beradi. Shu nuqtai nazardan qaraganda har bir davlatning istiqboli, uning ta'lim-tarbiya tizimi qay darajada ekanligi bilan belgilanadi.

O'zbekistonda malakali kadrlarni tayyorlashdagi, aholining ilmiy madaniy, ta'lim-tarbiyaviy taraqqiyotini ta'minlashda yetarlicha natijalar an'analarni o'zida jamlagan kuchli potensial jamlangan. Shuning uchun O'zbekistondagi oliy ta'lim oldida to'plangan ijobiy tajribalarni saqlash va mazmunan boyitish dunyo ta'lim kengliklarida o'zining munosib o'rnini egallash kabi favqulodda jiddiy vazifa turib qoldi. Ayniqsa, bir necha o'n yillab mafkuraviy iskanjada bo'lgan fan, madaniyat, ta'limning undan bo'shatish, yangi qadriyatlar, innovatsiyalar orqali jonlantirish mustaqil O'zbekiston xalqi oldida sharaflil va sermashaqqat vazifalardan biri edi.

Zamonning tezkor taraqqiyotiga xizmat qiluvchi yangi fan sohalari bo'yicha tadqiqotlar yo'lga qo'yildi. Tabiiy va aniq fanlarni o'qitish va ilmiy tadqiqotlar olib borish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. O'zbekiston Respublikasida ilm-fanni rivojlantirishda O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining o'rni beqiyosdir. Shuningdek, respublika oliy ta'lim muassasalaridagi professor-o'qituvchilar faoliyatining salmoqliqismi ilmiy tadqiqotlarga qaratilganligi o'z samarasini bera boshladi. "Fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasi" O'zbekistonda ilmu-fan rivojlanishiga bosh maqsadlardan biri etib belgilandi. 1992- yilda O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidentining farmoniga binoan Respublika Vazirlar Mahkamasi huzurida Oliy Attestatsiya Komissiyasi tashkil etilishi munosabati bilan ilmiy tadqiqotlar va texnologik ishlanmalar sifatiga qo'yilgan talablarga muvofiq, ilmiy texnika va innovatsiya faoliyatini yanada rivojlantirish, shuningdek,

mamlakat ilmiy salohiyatidan samarali foydalanishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

O'zbekistonning mustaqillikka erishuvi xalq ta'limi tizimi taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Milliy pedagogik tafakkur ta'sirichan ta'limning sog'lomlashtirish jarayoni boshlandi. Uzoq vaqt mobaynida tashqi dunyodan uzib qo'yilgan, o'zga mamlakatlar tarixiy tajribasidan ham, milliy ma'rifiy merosdan ham bahramand bo'lmagan milliy pedagogika jahon maydoniga chiqdi. Erishilgan natijalarni o'zgalarniki bilan qiyoslash, boshqalardan ijobiy jihatlarni o'zlashtirish imkoniyati paydo bo'ldi.

Respublikamizda ta'limning yangi tizimini amalga oshirishda O'zbekiston xukumati tariximizdagi ta'lim jarayonlarini o'rganib chiqib, ta'limni isloh qilish dasturini tayyorladi. Barcha e'tibor ta'lim tizimlarini demokratik va insonparvarlik tamoyillari asosida takomillashtirilib, uning moddiy-texnik bazasini zamon va davr talablari darajasiga ko'tarish va O'zbekiston ma'rifiy salohiyatini kuchaytirishga qaratildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2016-yil yakunlariga bag'ishlangan ilmiy-amaliy anjumandagi nutqida "Eng avvalo, yoshlar va aholi o'rtasida mamlakatimizning boy tarixi, uning betakror madaniyati va milliy qadriyatlarini keng targ'ib qilish, jahon ilm-fani va adabiyoti yutuqlarini yetkazish uchun zarur muhit va shart-sharoit yaratish ustuvor vazifalardan hisoblanadi", - deb ta'kidlab o'tdi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T. "O'zbekiston", 2018.
2. O'zR Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni 2017-yil 7-fevral. PF-4947-son
3. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni 2020-yil 23-sentabr O'RQ-6370-son.
4. Alijonov A, Rahmatullayev J. Komil inson tarbiyasi — milliy g'oyamiz maqsadi. Maqola. T: 2016.
5. Barkamol avlod tarbiyasida tarixiy, madaniy va ma'naviy merosning ahamiyati. Maqolalar to'plami. Toshkent 2015. B 344.
6. Yusupov E. Yoshlar o'rtasida vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirish yo'llari.- T.: O'qituvchi, 1996. – B. 187.
7. Ирзаев Б. Ўзбек ёшлари ва хорижий таълим. – Тошкент: "Академнашр", 2018.
8. Элмуратова У. Таълим тизими ислоҳоти: ҳуқуқий–меъёрий асосларнинг яратилиши (1991-2014 йй.) // Ўзбекистонда ижтимоий фанлар. – Тошкент, 2016. – №3. – Б.32-40.
9. www.ziynet.uz
10. www.edu.uz

O‘SMIR SPORTCHILARNING STRESS HOLATIDAN CHIQISHIDA KOPING-STRATEGIYANING AHAMIYATI

*Eshmonov O.B. – SamDU Psixologiya kafedrası
o‘qituvchisi, mustaqil tadqiqotchi*

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘smir sportchilarning psixik holati unda kechayotgan stressli holatidan chiqishida koping-strategiyaning ahamiyati va uning o‘smir sportchilarda vujudga keladigan stressli holatni bartaraf etishda va hamda stressga barqarorlik darajasi bilan aloqadorligini o‘rganish borasida olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari natijalari yoritilgan.

Kalit so‘z. o‘smir sportchilar, stress, koping-strategiya, stressga barqarorlik, stressogen, muammo, hissiyot, xulq-atvor.

Shaxsda sodir bo‘ladigan stress va unga qarshi turish masalasi psixologiya sohasida, ayniqsa rivojlanish psixologiyasi, ijtimoiy psixologiyada dolzarb muammolardan bo‘lib, hozirgi kunda ham ushbu muammoga psixolog mutaxassislarning e‘tibori kamaymagan.

Aytish joizki, so‘nggi vaqtlarda stress xolatidan chiqish, stressga barqarorlik muammosi borasida ilmiy izlanishlar olib borgan tadqiqotchilar stressga qarshi turishga, ya‘ni koping-strategiyaga ham e‘tibor qaratmoqdalar, chunki ular stress holatidan chiqish va stressga barqarorlik holatini shakllanishida koping-strategiyani muhim omil sifatida e‘tirof etishmoqda. Haqiqatdan ham koping-strategiya usullari ushbu muammoni yechimiga va stressga qarshi katta yordam beradi.

Keyingi davrlarda stress va stressga barqarorlik muammosini ilmiy tadqiqot ishlarini olib borgan olimlar stressga barqarorlikni shaxsning individual-psixologik xususiyatlari bilan bog‘liqlik jihatlariga ham e‘tibor qaratganlar . Ushbu muammo yuzasidan tadqiqot ishlari natijalarida ularning ba‘zilari stressga barqarorlik bilan koping-strategiya o‘rtasida bog‘liqlik borligini ta‘kidlab o‘tganlar.

B.G.Mesheryakovning katta psixologik lug‘atida koping-strategiyaga quyidagicha izoh keltirilgan: “Koping-strategiya - shaxsning qiyin hamda murakkab vaziyatlar ta‘sirida yuzaga keladigan holatlarni yengib o‘tishi uchun qo‘llaydigan usuldir” .

Koping-strategiya tushunchasi ilk marotaba R.Lazarus hamda S.Folkman tomonidan qo‘llanilgan bo‘lib, ular koping-strategiyani ikki turga -muammoni yechishga yo‘naltirilgan, stress manbaini va hissiyotni, ya‘ni hissiy qo‘zg‘alishni bartaraf etishga yo‘naltirilgan kopinglarga ajratib ko‘rsatadilar.

Koping-strategiya usuli borasida qisqacha to‘xtalib, bu borada bildirilgan fikrlarni keltirib o‘tamiz. Ko‘plab xorij olimlari koping-strategiya usuli negizida shaxs xususiyatini nazarda tutishgan va ko‘proq shunga urg‘u berishadi, o‘z tadqiqot ishlarida kengroq o‘rganishga xarakat qilishgan. O‘tkazilgan tadqiqot ishlarida tavsiya etilgan koping-strategiya klassifikatsiyasiga asoslanib, E.Fraydenberg koping-strategiya usulini uchta turini ta‘kidlab o‘tadi. Uning fikriga ko‘ra, birinchi turdagi strategiya – bevosita muammoli vaziyatni yechishga qaratilgan strategiyalar ko‘pchilik tomonidan tan olingan, koping-strategiyaning ikkinchi turi faol koping

bilan bog‘liq bo‘lib, stressli vaziyatlarga insonni moslashuvi, ya’ni ijtimoiy-hissiy qo‘llab-quvvatlashni izlash (atrofdagi odamlarni tushunishi va hamdardligini his qilish), faoliyatdan vaqtincha chalg‘ish (ishdan chalg‘ib, butun e’tiborini stress manbasiga qaratish) va bardosh berish (vaziyatni hal qilish uchun qulay sharoitni kutish va yumordan foydalanish) va koping-strategiyaning uchinchi turiga noadaptiv, ya’ni insonga stress holatiga moslashishiga hamda uni yechishga yordam beruvchi strategiyalarni kiritish mumkin .

Koping-strategiyani noadaptiv turlarini o‘rgangan T.O.Gordeeva esa o‘zining tadqiqot ishi natijalariga tayanib quyidagi mulohazalarni bildiradi: “...Koping-strategiya usullari hayotiy qiyinchiliklarni yengib o‘tishda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ular - hissiyot va uni namoyon etish (muammoli vaziyatga bo‘lgan munosabat), rad etish, muammoni tan olmaslik (stressogen vaziyatni tan olmaslik), mental chekinish (orzu, o‘y-xayol, fantaziya orqali chetlashish), o‘z harakatlarini cheklash (yuzaga kelgan vaziyatni yechimini topishdan bosh tortish)”. Muallif bu usullarni koping-strategiyaning noadaptiv turiga kiritadi.

Yuqoridagi fikr-mulohazalardan kelib chiqib, biz o‘smir sportchilarni stress holatidan chiqishini tadqiq qilishimiz uchun D.Amirxan tomonidan tavsiya etilgan “Koping-kurash indikatori” metodikasidan foydalandik. Aytish joizki, ushbu metodika o‘zbek psixolog olimlari E.N.Sattorov, N.A.Sog‘inovlar tomonidan O‘zbekiston muhitiga maslashtirilgan va samarali qo‘llanilgan, shuningdek, bugungi kunda ko‘plab tadqiqotchilar ushbu metodikadan samarali foydalanib kelmoqdalar. Quyidagi jadvalda o‘smir sportchilar bilan o‘tkazilgan tadqiqot natijalari keltirilgan.

**Koping-kurash indikatori metodikasi bo‘yicha
o‘smir – sportchilarning natijalari**

Shkala	Sport turlari									F	Ishonch darajasi (Sig.)
	Yunon-Rum			Milliy kurash			Dzyudo				
	O‘rtacha qiymat	Standart qiymat	%	O‘rtacha qiymat	Standart qiymat	%	O‘rtacha qiymat	Standart qiymat	%		
Muammoni hal etish strategiyasi	26,13	4,80	48 %	26,36	4,82	49,1 %	26,66	4,22	50 %	,200	,819
Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni izlash strategiyasi	23,71	3,44	31 %	23,53	3,52	30,3 %	24,58	3,59	28 %	1,523	,221
Muammodan qochish strategiyasi	21,86	3,54	21 %	22,15	3,94	20,6%	22,68	2,72	22 %	,870	,421

Tadqiqot ishimizda qo'llanilgan ushbu metodika shaxsning dominant koping-strategiyalarini aniqlashga yordam beradi. Koping-strategiya natijalari uch guruhga bo'lgan holda izohlanadi, biz ham shu asosda o'smir sportchilarning ko'rsatgan natijalarini izohlashga harakat qildik.

1. Muammoni hal qilish strategiyasi. Ushbu strategiya faol xulq-atvor strategiyasi bo'lib, bunda inson muammoni samarali hal qilishda o'zida mavjud bo'lgan barcha imkoniyat va resurslarini sarflashga intiladi.

O'tkazilgan tadqiqot natijalari o'smir sportchilarda yuzaga keladigan muammoni hal qilish strategiyasi bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichga ega ekanligini ko'rishimiz mumkin (yunon-rum – 23,13; milliy kurash – 20,36; dzyudo – 26,66;). Tadqiqot natijalari asosida aytish mumkinki, o'smir sportchilar faoliyatlari jarayonida yuzaga keladigan stressogen hamda hayotiy vaziyatlarni hal qilishga harakat qilishlari namoyon bo'lmoqda.

Yunon-rum kurashi bilan shug'ullanuvchi o'smir sportchilarning 48,3%, milliy kurash bilan shug'ullanuvchi sportchilarning 49,1% hamda dzyudo kurashchilarining 51%i muammodan qochmasdan, yuzaga kelgan vaziyatni keltirib chiqaruvchi sabablarini o'rganishga, uni tahlil qilishga va vaziyatni sabablarini mantiqan aniqlab, so'ngra qaror qabul qilishga harakat qilishlari namoyon bo'ldi.

Ular yuzaga kelgan muammoni hal qilishda o'zlaridagi barcha imkoniyatlardan foydalanar ekanlar, bunda ular o'z irodaviy, aqliy resurslari hamda shaxs sifatlarini namoyon qilar ekanlar. Bizni nazarimizda, o'smir sportchilarning kurash mashg'ulotlari bilan shug'ullanishlari ulardagi imkoniyatni oshirishga yordam beradi, bu holat ular bilan o'tkazilgan suhbat jarayonida ham namoyon bo'ldi.

2. Ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni izlash strategiyasi. Mazkur strategiyada shaxs muammoni ijobiy jihatdan hal qilish uchun o'zining atrofida gilaridan yordam va qo'llab-quvvatlashni izlaydi, ya'ni o'zining oila a'zolaridan, qarindoshlari, do'stlari va o'ziga yaqin olgan odamlardan o'zini qo'llab-quvvatlashlarini kutadi.

Sportning kurash turlari bilan shug'ullanayotgan o'smir sportchilarda ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni izlash strategiyasi bo'yicha olingan natijalar uchala kurash turlarida ham o'rtacha ko'rsatkichni ko'rsatmoqda, yunon-rum kurashi bilan shug'ullanuvchilarning 31% i, milliy kurash bilan shug'ullanuvchi sportchilarning 30,3%i hamda dzyudo kurashchilarining 28%i stressogen vaziyatlarda tengdoshlari, jamoadagi eng yaqin o'rtog'i hamda murabbiyi, ota-onalardan ijtimoiy qo'llashlarini kutishar ekan, ulardan ruhiy dalda olishar ekan, ularni moddiy, ma'naviy jihatdan qo'llashlari asosida o'zlarida yuzaga kelgan muammoga yechim topishga harakat qilar ekanlar. Boshqalarning ijtimoiy qo'llab-quvvatlashlari o'smir sportchilarda o'ziga bo'lgan ishonchni ortishi, atrofda gilarini yaqinligi va yordamini his qilishi ulardagi stressga qarshi tura olish va stressga barqarorlikni yuzaga chiqishida katta ahamiyatga ega ekanligini e'tirof etish mumkin. Shuningdek, bu holat o'smir sportchilarda o'zaro munosabatlarni samarali bo'lishiga ham yordam beradi, bu esa o'z navbatida ularni sport musobaqalarida muvaffaqiyatga erishishlarida samarali omil bo'lib xizmat qiladi.

3. Muammodan qochish strategiyasi. Ushbu strategiya passiv xulq-atvor strategiyasi bo'lib, unda odam muammoni hal etishdan, o'zini o'rab turgan odamlar bilan aloqa, muloqot qilishdan qochishga xarakat qiladi.

Inson bunday vaziyatda qochishning passiv usullaridan, ya'ni o'zini kasallikka solish, alkogol ichishga mukkasidan ketish, giyohvand moddalar iste'mol qilish yoki shu muammodan butunlay qutulish maqsadida qochishning faol usuli hisoblangan suitsiddan foydalanishi mumkin.

Muammodan qochish strategiyasi noto'g'ri, psevdobardoshli xatti-harakatlarni shakllantirishda yetakchi xulq-atvor strategiyalaridan biri bo'lib, rivojlanish darajasi pastroq bo'lgan odam tomonidan qayg'uni yengish yoki kamaytirishga qaratilgani bilan xarakterlidir. Ushbu strategiyadan foydalanish shaxsda muammolarni faol hal qilishda koping-strategiyasining va malakasining yetarlicha rivojlanmaganligi bilan bog'liq bo'ladi. Biroq, u shaxsning yoshi va koping-strategiya holatiga hamda stressogen vaziyatga bog'liq holda adekvat yoki noadekvat xarakter shaklida namoyon bo'lishi mumkin.

O'smir sportchilar bilan o'tkazilgan tadqiqot natijalari asosida aytish joizki, har uchala kurash turlari bilan shug'ullanuvchi o'smirlarda natija o'rtadan past ko'rsatkichni tashkil qilmoqda (yunon-rum kurashi-21,86 ball, 21 %; milliy kurash-22,15 ball, 20,6 %; dzyudo kurashi-22,68 ball, 22 %).

Olingan tadqiqot natijalari shundan dalolat beradiki, o'smir sportchilarda stressogen vaziyatlarga duch kelib qolganda, qiyin vaziyatlarga tushgan holatlarda faol harakat qilishga, muammodan qochmaslikka, o'zini atrofidagi odamlar bilan ko'proq muloqot qilishga, ulardan maslahat so'rashga, ularning bildirgan fikrlarini inobatga olishga, qiyin vaziyat va muammoning kelib chiqish sabablarini o'rganish kabi xarakter xususiyatlari namoyon bo'lganini ko'rishimiz mumkin. Bu holatni biz kurash mashg'ulotlarining o'smir sportchilarning shaxs xususiyatlariga ko'rsatayotgan ijobiy ta'siri bilan izohlashimiz mumkin.

Xulosa qilganda stressogen vaziyatlarning yuzaga kelishiga qarab, koping-strategiyaning uchala turidan xam foydalanish samarali bo'lishi mumkin. Ba'zi vaziyatlarni inson o'zi yengishi, boshqa bir vaziyatlarda u atrofidagi odamlarning yordami va qo'llab-quvvatlashlariga muhtoj bo'lishi, uchinchi vaziyatlarda esa salbiy oqibatlarini oldini olish uchun muammoli vaziyatlarga duch kelmaslikka xarakat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurasulov R.A. Sport mashg'ulotlarining o'quvchi - sportchilar shaxsini shakllanishidagi roli (Yakkakurash turlari misolida). Psixol. an.dok. diss.avtoref. – T. 2018.

2. Величковский Б.Б. Многомерная оценка индивидуальной устойчивости к стрессу. Автореф. дис. канд. психол. наук. - М., 2007. – 28 с.

3. Мелников В.М., Ямпольский Л.Т. Введение в экспериментальную психологию личности. -М.: Просвещение. 1986. 319с.

4. Марищук В.Л. Перераспределение функциональных резервов в организме спортсмена как показатель стресса. //Стресс и тревога в спорте. - М., 1994. - С. 58-73.

5. Апчел В.Й., Лимаренко В.М., Павлова Н.В., Леонтев О.В. Исторические аспекты изучения проблемы стресса. Вестник российской военно - медитсинской академии, 4(40) - 2012. с. 255-260

6. Ахмедова Х.Б. Изменения личности при посттравматическом стрессовом расстройстве (по данным обследования мирного населения, пережившего военные действия). авторефер. дисс. доктора психол. наук.: 19.00.04 - М. – 2004

7. Бадмаева Д.Г. Саморегуляция активности личности в стрессовых ситуациях (на примере экзаменационного стресса). авторефер. дисс. канд. психол. наук.: 19.00.01 - Красноярск - 20071.

8. Boymirzayeva D.D. Oliy o'quv yurtlari talabalarida frustrasiyaning namoyon bolishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (phd) disser. avtoref.: 19.00.05. Toshkent – 2021.

OILADA PSIXOLOGIK TARBIYANING MUHIMLIGI VA PSIXOLOGIK MUHITNI TASH KIL ETISH

*G'ayriyeva Zaxro Roziq qizi – Iqtisodiyot va
Pedagogika Universiteti NTM talabasi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada oilada psixologik tarbiyaning muhimligi va psixologik muhitni tashkil etish haqida tavsiyalar bilan yoritib o'tilgan.

Kalit so'zlar: oila, psixologik, tarbiya, muhit, farzand, hissiyot, motivatsiya, tanqidiy fikrlash, ota-ona.

Oilada psixologik tarbiya muhimdir, chunki uni o'zida mujassam etgan oila farzandlar tarbiyasida ham ancha harakatlar samarasini ko'radi hamda bola erkinlik orqali o'ziga ishonchi oshadi. Psixologik tarbiya kelajakda o'zingiz, do'stlaringiz va xayotingiz bilan qanday o'zaro munosabatlarni o'rganishda juda muhim bo'ladi. Eng muhim qismi, bolalar uchun qulay va ko'tarilgan atmosferani yaratishdir. Ular o'z fikrlari va hissiyotlarini ifodalash uchun o'zi mustaqil o'qish va tushunchalarga ega bo'lishi uchun keng imkoniyatlarga ega bo'lishi kerak. Psixologik tarbiya keng ko'rinishda oilaning farzandlarga sodiqlik, adolat, empatiya va boshqa odamlarga qarshi hurmatni qanday ko'rsatishni ham asosiy tarbiya vositasi sifatida tushunadi. Bolalar o'zlari yaxshi namoyon etmagan voqealarda ham ota-onalari ularni tushunish va qo'llab-quvvatlashiga ehtiyoj sezishlari ham mumkin. Oiladagi psixologik tarbiya a'zolari o'rtasidagi qarashlarni amalga oshirish, muomala qilishning ishonchli va himoyador usullarini o'rganish va o'rnatishda muhim ahamiyatga ega. Oilada psixologik tarbiya, farzandlarni o'z xatolaridan o'qib olish va ularni o'z xatolaridan to'g'ri xulosa qilishni o'rgatishga, o'zlarini yangilovchi va shaxsiy rivojlantiruvchi yondashishga olib keladi. Bo'lgan voqea negativ bo'lsa yoki yaxshi bo'lsa, oiladagi psixologik tarbiya uning muammosini tahlil qilishga va yechim topishga yordam bera olishi kerak. Bu tarzda munosabatlar va harakatlar oila a'zolari orasidagi aloqalarni kuchaytiradi va oilaning o'sishiga yordam beradi.

Oila tarbiyasida insonning rolini o'rganish uchun sifatli intervyular va miqdoriy so'rovlarni birlashtirgan aralash usulli yondashuv qabul qilindi. Turli xil diniy va ma'naviy kelib chiqishni ifodalovchi turli xil oilalar namunalari tanlandi. Ishtirokchilar orasida turli yosh guruhlarini qamrab olgan ota-onalar va ularning farzandlari bor edi. Oilada insonni tarbiyalash murakkab va ko'p qirrali jarayon bo'lib, bolalarda diniy yoki ma'naviy e'tiqodlar, qadriyatlar va amaliyotlarni singdirishni o'z ichiga oladi. Ushbu tarbiya sog'lom psixikani shakllantirishda muhim rol o'ynaydi va inson rivojlanishiga chuqur ta'sir ko'rsatadigan psixologik mohiyatga ega. Oilada inson tarbiyasining tarkibiy qismlari va ahamiyatini batafsil ko'rib chiqamiz: Axloqiy qadriyatlar: e'tiqod tarbiyasi ko'pincha bolaning xulq-atvori va qaror qabul qilishiga rahbarlik qiluvchi axloqiy va axloqiy qadriyatlarni berishni o'z ichiga oladi. Bu qadriyatlar sevgi, rahm-shafqat, halollik, kechirimlilik va kamtarlik kabi tushunchalarni o'z ichiga olishi mumkin. Marosimlar va amaliyotlar: insonni tarbiyalash ibodat, meditatsiya, diniy marosimlarda qatnashish va diniy bayramlar yoki marosimlarda qatnashish kabi diniy yoki ma'naviy marosimlar va amaliyotlarni o'z ichiga olishi mumkin. Ushbu marosimlar jamoat va urf-odatlar tuyg'usini ta'minlaydi va ular bolaning hayotida qulaylik va tuzilishni taklif qilishi mumkin. Jamiyat va ijtimoiy aloqa: ko'pgina dinlar jamiyat va ijtimoiy aloqalarning muhimligini ta'kidlaydilar. Diniy jamoada ishtirok etish tegishlilik hissi va ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni kuchaytirishi mumkin. Ushbu munosabatlar xavfsizlik tarmog'i va bolalar va oilalar uchun hissiy yordam manbai bo'lishi mumkin. Psixologik foydalar: inson tarbiyasining psixologik mohiyati hissiy farovonlik, ichki tinchlik va maqsad tuyg'usini targ'ib qilishni o'z ichiga oladi. Inson odamlarga stress, tashvish va depressiyani boshqarishga yordam beradi va bu umumiy hayotdan qoniqishning oshishiga yordam beradi. Ota-ona va bola munosabatlari: insonni tarbiyalashda oila asosiy rol o'ynaydi. Otaonalar ko'pincha o'z e'tiqodlari va harakatlari orqali farzandlarini o'rgatib, namuna sifatida xizmat qilishadi. Inson haqida ochiq va qo'llab-quvvatlovchi muloqot juda muhim, bu bolalarga xavfsiz va tarbiyali muhitda savollar berish va o'z e'tiqodlarini o'rganish imkonini beradi. Tanqidiy fikrlash va izlanish: bolalarni o'z e'tiqodlari va e'tiqodlarini tanqidiy o'rganishga undash juda muhimdir. Bu ularga passiv ravishda qabul qilishdan ko'ra, chuqurroq tushunish va o'z e'tiqodlari bilan shaxsiy aloqani rivojlantirishga yordam beradi. Tanqidiy fikrlash va izlanish yanada mustahkam va mazmunli inson tajribasiga olib kelishi mumkin. Shuni ta'kidlash kerakki, e'tiqod tarbiyasi madaniy, diniy va falsafiy kelib chiqishiga qarab bir oiladan boshqasiga sezilarli darajada farq qilishi mumkin. Inson tarbiyasining bola ruhiyatiga ta'siri ham turlicha. Ko'pchilik buni foydali deb bilsa-da, shaxsiy e'tiqodlar va oilaviy an'analar o'rtasidagi potentsial ziddiyatlar kabi qiyinchiliklar ham bo'lishi mumkin. Oilaviy-munosabatlar asosan shaxs ijtimoiylashuvining dastlabki davridanoq shakllana boshlaydi va uning o'zgarishida ijtimoiy-psixologik omillar, ta'lim-tarbiya, oila muhiti, milliy ma'naviy va axloqiy qadriyatlar, shaxsning muloqot muhiti va shaxsiy faolligi muhim rol o'ynaydi. Oilaviy-munosabatlar har bir oila a'zosining bilish tizimida shakllangan ong tarkiblaridan iborat bo'lib, shaxsning ijtimoiy va individual tajribasi sifatida uning oilaviy hayotga tayyorligini ta'minlaydi.

V.M.Karimova tadqiqotlarida oilaviy-munosabatlarning xarakteri farzand tarbiyasiga ta'siri bolaning shakllanishida muhim ahamiyat kasb etishi, ya'ni oilaning katta yoki kichikligi, to'liq yoki noto'liqligi, undagi rollar, jinsiy o'zaro munosabatlar haqida va reproduktiv tasavvurlar xarakterini belgilashi va shaxsiy ijtimoiy ustanovkalar yo'nalishida aks etishi aniqlangan. Oiladagi o'zaro munosabatlarning asosini tashkil etgan oilaviy tarbiyaga oid masalalar va ularning differentsiatsiyasi o'zining yosh, hududiy va jinsiy xususiyatlariga ega bo'lib, ular avvalo har bir oilaning ruhiy ma'naviy muhiti, u yerdagi milliy qadriyatlar, an'analar, rasm-rusumlar qanchalik saqlanib qolganligiga ham bog'liqligi asoslangan.

X.Karimovning ilmiy ishlarida o'zbek oilasida er-xotin orasidagi nizolar boshqa millat vakillari (rus, ukrain va boshqa) oilalaridagi nizolardan farqlanishi, ya'ni o'ziga xos etnopsixologik xususiyatlarga ega ekanligi aniqlangan o'zbek oilalaridagi er-xotin orasida nizolarning kelib chiqishiga milliy-madaniy muhitiga xos bo'lgan nikoholdi omillarining xususiyatlari: ya'ni ba'zida tanishish imkoniyatining bo'lmasligi yoki qisqaligi ham ta'sir etishi, natijada yuzaga kelgan nizo sabablarini tomonlar o'zidan qidirmasligi, uni bartaraf etishda ota-onalarga tayanish, oiladagi o'zaro munosabatlar qo'pollik asosiga qurilishi va boshqa bir qator salbiy holatlar yuzaga kelishi ko'rsatib o'tiladi. Bugungi kunda oila muammosiga aloqador masala uning barqarorligini ta'minlash, undagi inqirozli holatlarni bartaraf etish choratadbirlarini ishlab chiqishga davat etadi. Oilada bola nutqni egallashi uchun nutq sharoitida, mehnat qilish uchun mehnat sharoitida, aqliy taraqqiy etmog'i uchun aqliy faoliyat sharoitida yashamog'i kerak. Ana o'shanda bolaning nimaga, qanday sohaga layoqati borligi namoyon bo'ladi. fiziologik va psixologiya fanining ko'rsatilishicha inson bolasi tayyor qobiliyat bilan emas, balki biror xil qobiliyatni ro'yobga chiqishi va rivojlanishiga ta'sir etadigan potensial imkoniyatlar, ya'ni shaxs xususiyatini ifodalaydigan layoqat bilan tug'iladi. Tug'ma layoqat o'z holicha rivojlana olmaydi, go'yo u «mudroq» holatda bo'lib, uning uyg'onishi rivojlanishi uchun qulay muhit kerak. Agar bola o'z layoqatiga mos sharoitda o'sib zarur faoliyat bilan shug'ullansa, layoqat erta ko'rinib, rivojlanishi, aksincha bu bo'lmasa yo'q bo'lib, ketishi mumkin. Sog'lom turmush tarzini shakllantirish muammosi insoniyat oldida turgan eng muhim muammollardan biridir. U o'zida jismonan sog'lom, aqlan barkamol yangi avlodni voyaga yetkazishni, kishilarning mehnat qilishi, dam olishini va ijtimoiy faoliyat ko'rsatishini to'g'ri tashkil etishni, oqilona hayot kechirishi mujassamlashtiradi.

Shuning uchun sog'lom turmush tarzini shakllantirishning ijtimoiy-iqtisodiy va tabiiy-gigienik, ma'naviy jihatlarni har tomonlama o'rganish, vujudga kelgan haqiqiy ahvolni hisobga olib tadqiq etish davr talabidir. Oilani moddiy imkoniyatlarini yaratish, ota-onalarning ongliligi, ma'naviyatini boyitish sog'lom turmush tarzini shakllantirish imkoniyatini tug'diradi. Sog'lom turmush tarzi esa farzandlarni jismonan sog'lom, ma'nan boy qilib o'stirishga imkoniyat yaratadi. Boshqa xalqlar qatori o'zbek oilalari ham milliy tarbiya an'alariga boy. Ularni tiklab, boyitib, zamonaviylashtirib, maktab tarbiyasi bilan uyg'unlashtirish nafaqat har bir oila, balki butun O'zbekiston ijtimoiy ma'naviy hayotini boyitishga xizmat

qiladi. Oilada psixologik muhitni tashkil etish uchun quyidagi ko'rsatmalar foydali bo'ladi:

1. Kuzatish va e'tibor: Oiladagi psixologik muhitni tashkil etish uchun ota-ona va farzandlar o'rtasidagi e'tiborni oshirish, bir-birining fikrlariga va ishonchiga hurmat qilish, aniq va mustaqil fikrlar ifodalash kabi amallarni amalga oshirish lozim.

2. Adolat va hurmat: Oilada psixologik muhit faol a'zolari o'rtasida adolat va hurmatni saqlab qolishga yordam beradi. Farzandlarni doimiy qo'llash, hurmat va oila a'zolari o'rtasidagi har qanday muomala adolatli va boshqa a'zolar izhor etilgan raqobat va zulmni oldini olishga imkon berishi kerak.

3. O'yin va faoliyatlar: Oila a'zolari o'rtasida o'yinlar, oila safari kabi faol faoliyatlar orqali o'zaro aloqa va birgalikni ya'ni birdamlikni kuchaytirish muhimdir. Birga vaqtimizni o'tkazish orqali oiladagi munosabatlar va aloqalar kuchayadi.

4. Maslahatlashishning ijobiy tomonlarini yaratish: Oilada psixologik muhitni oshirish uchun maslahatlashish, muhim hisoblanadi Oila a'zolari o'rtasidagi muammoni yechish uchun o'z fikrlarini ifoda qilishi kerak.

5. Negativ hislarni tushunish va pozitivga almashtirish: Negativ hislarni tushunish va ular bilan oilada psixologik muhitni yengillashtirish uchun muhim qismlardan biridir. Maslahatlashish, tushunish va o'z ishlarini hal qilishga, erishishga yordam beradi.

6. Qulay va muhofaza muhitini ta'minlash: Oilada qulay, ishonchli va qarindoshlikni his qiluvchi muhitni ta'minlash muhimdir. Ular o'zlari, farzandlari va o'rtalaridagi do'stlari bilan qanday munosabatlarni o'rnatishlari kerakligini his qiladilar va anglab yetadilar. Suhbat va tinglovchilik: Suhbat, tinglovchilik va do'stlar bilan munosabatlarning o'ziga xos ahamiyati bor. Oilada har bir a'zo o'z fikrlarini ishonch va hurmat bilan ifodalash va tinglashni o'rganishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. P. Yusupova. Maktagacha pedagogika. Toshkent. "O'qituvchi". 1998yil.1-396-bet.

2. Xasanboeva O.I. va boshqalar. Toshkent, «Fan va texnologiyalar» nashriyoti. 2007 yil. 1-274bet

3. Zunnunov A. Pedagogika tarixi // Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. – T.: 2004. 1-487bet.

4. Inomova M. Oilada bolalarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU.2000yil.1-333bet.

5. Hasanboyeva O. Oila pedagogikasi.– T.: Aloqachi. 2014 Darslik1-184bet.

6. Djurayeva B.R., Tojiboyeva H.M., Nazirova G.M. "Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishning zamonaviy tendensiyalari" – T.: O'zPFTTI nashriyoti.2003yil.1-392bet.

ЎСМИРЛИК ДАВРИДА ЎЗ-ЎЗИГА БЎЛГАН ИШОНЧНИ ШАКЛЛАНИШИГА ОТА-ОНА МУНОСАБАТЛАРИНИ ТАЪСИРИ

*Ғайбуллаева Дилноза Мухаммадjon қизи –
“Оила ва хотин-қизлар илмий-тадқиқот институти”
таянч докторанти*

Шахснинг камол топишида оиланинг етакчи таъсири бор. Оила тарбиясининг ўзига хос миллий хусусиятлари ҳамда типик камчиликларини бартараф этиш йўлларини, тарбия самарадорлигини ошириш омилларини тушунтириш, оила тарбияси, оиладаги тарбия имконияти ва педагогик маданият ҳақида тушунчалар берилади.

“Ўзига ишонч” феномени ўнлаб йиллар давомида турли соҳалардаги олимларнинг эътиборини тортди.

Мазкур концепция тадқиқотчилар учун илмий қизиқиш уйғотади, чунки у ижтимоий йўналтирилган хусусиятга эга.

Бу шахснинг шахсий таркибининг муҳим таркибий қисмларидан бири бўлиб, унинг турли соҳалардаги муваффақиятини белгилайди. [1]

Болага оилада яхши тарбия бериш бола ҳаётининг дастлабки вақтларидан бошлаб, ота-она олдида турган асосий мақсад ва вазифадир, яъни ота-онанинг шахсий ишигина бўлиб қолмасдан балки, уларнинг ижтимоий бурчи ҳамдир. Маълумки шахснинг қадрияти унинг жамиятдаги тутган ўрни билан белгиланиб, кўп жиҳатдан унинг тарбиясига боғлиқ бўлади. Шу сабабли табиийки, ота-она ўз болаларининг тарбиячиси ҳисобланади.

Ёш авлодни ҳар томонлама мукамал шахс қилиб тарбиялашдек маъсулиятли вазифа ота-она елкасида. Дарҳақиқат, инсон шахсини шакллантириш оиладан бошланади. Хусусан болада ирода, одатлар, феъл-атвор, ҳулқ, атрофга муносабат, эътиқод ва қарашлар вужудга келади. Ана шулардан келиб чиқиб, турмушда инсонни камол топтириш шароитлари, таъсир кўрсатиш имкониятларини изчил ўрганмай туриб, шахснинг хусусиятлари ва уларни келтириб чиқарувчи омиллар тўғрисида фикр юритиш мумкин эмас. Оила муркаб ижтимоий гуруҳ бўлиб, биологик, ижтимоий, ахлоқий, мафкуравий ва рухий муносабатларнинг бирлашуви натижасида вужудга келади. Шу сабабли турмушдаги ва оила аъзолари муносабатларидаги ўзгаришлар унинг моддий-маиший, иқтисодий негизи ўзгаришига бевосита боғлиқдир.

Оилада қатъий интизом ва кун тартибининг бўлиши болалар тарбиясига ижобий таъсир қилади. Фарзандларнинг билим олишдаги ютуғи, ахлоқи, саломатлик даражаси кўп жиҳатдан оилада қарор топтирилган режимга боғлиқ. Бунда меҳнат асосий ўрин эгаллайди. Фарзандлар ота-онанинг меҳнат қилишга, мустақилликка, шахслараро ибратли муносабатига ўрганади.

Олимларнинг фикрига кўра, ўзига ишонч ўз сўровлари ва ўз муносабатларига эга бўлишга рухсат бериш қатъиятини ўз ичига олади.

Ушбу назария туфайли ижтимоий муҳит ўз-ўзига ишончни шакллантириш учун муҳим эканлигини таъкидлаш мумкин. [2]

Ота- оналарнинг ўз фарзандларига бўлган муносабати катталарнинг болаларга нисбатан турли туман хиссиёт ва хулқ атворлари тизими сифатида тушунилади. Психологик нуқтаи назардан қаралганда ота оналарнинг ўз фарзандларига муносабати бу болаларга нисбатан ўрнатиладиган педагогик ижтимоий установка бўлиб, ўз ичига рационал эмоционал ва хулқ атвор компонентларини олади.

Болалар билан ота-онанинг, умуман, катталарнинг мулоқоти ва муносабати, айниқса, болалар ўсмирлик ёшига етганда ўта мураккабланиши, мулоқотнинг нозик қирралари кўпаяди. Педагоглар ва психологлар, социологлар ва физиологлар, психиатрлар ва ҳуқуқшунослар – барча бир овоздан ўсмирлик даври инсон ҳаётидаги мураккаб ва инқирозли давр эканини тан оладилар. Ўсмирлик даврини инқирозли даврга айлантириб қўядиган сабаблар жуда кўп (болаларнинг жинсий етилиши, уларда катталиқ ҳиссининг пайдо бўлиши ва ривожланиши, мустақилликка бўлган эҳтиёжнинг кучайиши ва ҳ.к.). Бундай сабабларнинг таҳлилига бағишлаб қатор мақолалар, рисоалар ёзиш мумкин. Бироқ фарзандининг “тилини топа олмаётган”, у билан психологик алоқа ўрнатишга қийналаётган ҳар бир ота-онани фарзандидаги ўзгаришларнинг сабабларидан кўра шундай вазиятларда қандай йўл тутиш кераклиги, нима қилиш мумкинлиги кўпроқ қизиқтиради.

Хулоса қиладиган бўлсак шахсда ўз-ўзини назорат қилишнинг шаклланиши оиладаги психологик муҳитга, ота-онанинг шахсий намунасига кўп жихатдан боғлиқдир.

-ўсмирлик даврида ўзига нисбатан ишончнинг қарор топиши улардаги ўзини ўзи қабул қилиш, бошқаларни яхши кўриш, мустақиллик каби сифатларнинг уйғунлашувида яққол кўринади;

-шахс мустақиллиги ўзига нисбатан ишончни таъминловчи омиллардан саналади;

-ўсмир шахсида ўзини ўзи англашни таркиб топиши ўзига нисбатан ишончни таъминловчи омил ҳисобланади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Змановская Е.В., Девиантология : психология отклоняющегося поведения : учебное пособие для студентов высших учебных заведений / Е.В.Змановская. – Москва : Академия, 2013. – 152 с.

2. Вайнер И.В., Субъективная уверенность как фактор решения психофизической задачи / И.В.Вайнер. – Саратов: Сарат. ун-та, 2017. – 257 с.

OILA MUNOSABATLARIDA GENDER ROLLARINING O‘RNI

*Goyibnazarova Soxiba Shakarovna –
O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti
psixologiya kafedrası o‘qituvchisi*

Annotatsiya. Maqolada oilaviy munosabatlarda xotin-qizlarga nisbatan umuman jamiyatda kamchiliklarga barham berish yo‘lida olib borilayotgan ishlar muhim o‘rin tutadi. Shu jihatdan ayollarning bandligini ta‘minlash, ularning o‘z intilish va qobiliyatlarini to‘laqonli ro‘yobga chiqara olishlari uchun imkoniyatlarni kengaytirish masalasi butun dunyoda ham, davlatimizning ham doimiy diqqat markazida ekanligi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Gender tenglik, qonun, ijtimoiy to‘siqlar, jins, oila, ayollar manfaati tengsizlik oila, munosabat, oilaviy munosabat, zulmkorlik, psixoproflaktika, mehnat.

Oilaviy munosabatlarda xotin-qizlarga – ularni an‘anaviy ravishda ona va ayol deb qarash amaliyoti barcha darajalarda ustunlik qila boshladi. Bunday amaliyot xotin-qizlarning, ayniqsa, qishloq ayollarining ahvoli, tanlash imkoniyatiga jiddiy ta‘sir ko‘rsatdi. Hozirda ham xotin-qizlarni kamsituvchi qarashlar va urf-odatlar, aqidalar ba‘zan uchrab turadi. Bugungi kunda aholining huquqiy madaniyati darajasi ortib bormoqda. Ma‘lumotli xotin-qizlar o‘z huquqlarini yoki ularni qay tarzda amalga oshirishni bilmasliklari vaziyatni yanada jiddiylashtiradi. Bu boradagi kamchiliklarga barham berish, xotin-qizlarni tom ma‘noda yangi, demokratik tamoyillarga asoslangan fuqarolik jamiyatining teng huquqli bunyodkoriga aylantirish yo‘lida respublikamizda ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda.

Oila-nikoh ustanovkalari oilaviy qadriyatlar tizimida mustahkam o‘rin egallar ekan, unda jinsga oid xususiyatlarni, kognitiv, konativ va emosional tomonlarini ham bilishni talab etadi. Oilaviy qadriyatlar fenomeni psixologiyada turli xil talqinga ega. Jumladan, qadriyatlarning mafkuraviy, axloqiy, estetik va boshqa turlari mavjud bo‘lib, ular odamlarning atrof-muhit va voqelikni baholashi uchun asos sifatida namoyon bo‘ladi. Odatda qadriyatlar ijtimoiy tajribani egallash jarayonida shakllanib boradi hamda maqsadlar, g‘oyalar, ideallar, e‘tiqodlar shaklida namoyon bo‘ladi. Qadriyatlar tizimi shaxs yo‘nalganligini mazmun jihatidan izohlaydi va uning borliqqa, o‘zga kishilarga, o‘ziga nisbatan munosabatining ichki asosini belgilaydi, aniqroq qilib aytadigan bo‘lsak, hayotiy faollik motivatsiyasining yadrosini, «hayot falsafasi» konsepsiyasi va dunyoqarashning negizini tashkil qiladi.

Gender konsepsiyasi ijtimoiy-iqtisodiy tahlil kategoriyasi sifatida MDH mintaqasi uchun ahamiyatlidir. Ayni paytda, Rossiya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Ukraina va boshqa respublikalarda gender tadqiqotlari asosida oliy o‘quv yurtlari talabalarining ijtimoiy faolligini oshirish borasida ishlar olib borilmoqda.

Jamiyatda xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini shakllantirish pedagogika tari-xida Sharq mutafakkirlari Abu Nasr Forobiy, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniy,

Elbek (Mashriq Yunusov) kabi allomalarimizning ilmiy yo‘nalishlari asosini tashkil etgan.

Oilaviy munosabatlarda jamiyatda xotin- qizlarning ijtimoiy faolligini shakllantirishga doir ilmiy-tadqiqot ishlari falsafiy, ijtimoiy, psixologik va iqtisodiy yo‘nalishlarda amalga oshirilayotganligi ko‘zga tashlanadi. Ularning falsafiy-metodologik jihatlari Simona de Buvuar, R.Xov, J.Lorber, K.Uest va D.Zimmermann, Ye.Kuchkina, V.Fesenko, ijtimoiy yo‘nalishda V.M.Xvostov, O.Voronina, B.Fridan, Ye.Zdravomislova, gumanitar yondashuv asosida N.Vulf, K.Mishar-Marshal, K.Riberi, G.Mur kabi olimlarning ilmiy ishlari, monografiya va o‘quv qo‘llanmalarida chuqur tahlil etilgan.

Pedagog olimlardan M.Quronov, S.Nishonova, O.Musurmonova, N.Egamberdieva, E.Turdiqulov, A.Zunnunov, S.Ochil, J.Hasanboev, U.Mahkamov, R.Safarova kabilarning ilmiy izlanishlarida jamiyatda xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini shakllantirishga doir ayrim xususiyatlarga e‘tibor qaratilgan.

Umuman olganda, gender tenglikni ta‘minlash ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda bir qator ijobiy natijalarga olib kelishi mumkin. Xususan, Xalqaro mehnat tashkiloti tomonidan 70 ta mamlakatda 13 mingta korxonada o‘tkazilgan so‘rovnoma ishtirokchilarining 57 foizdan ko‘prog‘i gender xilma-xilligi biznes natijalarini yaxshilayotganini tasdiqlashgan. Boshqaruv organlarida gender xilma-xilligini ta‘minlagan kompaniyalarning qariyb to‘rt dan uch qismi foyda ulushini 5% dan 20% gacha oshirganini bildirishgan.

Mutaxassislar fikricha, ayollarning mehnat bozorida to‘liq ishtiroki iqtisodiy o‘sish sur‘ati 10% oshishiga olib kelsa, xotin-qizlarning ta‘lim olish dasturlariga kiritilgan sarmoya 5 barobar, ayollarni tadbirkorlik sub‘ektlariga keng jalb qilishga kiritilgan sarmoya 7 barobar ko‘p daromad keltiradi.

BMT Taraqqiyot dasturi tomonidan har yili dunyo mamlakatlarida gender tengsizlik indeksi bo‘yicha tadqiqot o‘tkaziladi. Unda 3 ta asosiy ko‘rsatkich bo‘yicha mavjud holatlar o‘rganiladi: 1) reproduktiv sog‘liqni saqlash; 2) fuqarolik huquq va imkoniyatlari; 3) mehnat bozoridagi iqtisodiy faoliyat va imkoniyatlar.

2019 yilda tashkilot tomonidan e‘lon qilingan hisobotda gender tenglik ta‘minlanganiga oid eng yuqori ko‘rsatkichlar SHveytsariya, Daniya, SHvetsiya kabi davlatlarga tegishlidir. MDH davlatlaridan Belarus` Respublikasi 27-o‘rinni, Qozog‘iston - 46, Moldova - 50, Rossiya Federatsiyasi - 54, O‘zbekiston - 64, Tojikiston - 84 va Qirg‘iziston 87-o‘rinni egallagan. Rivojlanayotgan mamlakatlarning deyarli uchdan ikki qismi boshlang‘ich ta‘limda gender muvozanatga erisha olgan.

Gender tenglikning huquqiy takomillashuvida asosiy o‘rin tutuvchi normativ huquqiy hujjat 1948 yilda BMT Bosh assambleyasi tomonidan qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, desak xato bo‘lmaydi. erkak va ayollarning tengligi alohida e‘tirof etilgan ushbu deklaratsiyaning 1-moddasida: “Hamma odamlar o‘z qadr-qimmatini hamda huquqlarida erkin va teng bo‘lib tug‘iladilar. Ularga aql va vijdon ato qilingan, binobarin, bir-birlariga nisbatan birodarlik ruhida munosabatda bo‘lishlari kerak”, deya belgilab qo‘yilgan.

Bundan tashqari, BMT tomonidan 1966 yilda qabul qilingan yana bir xalqaro hujjat – Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro paktning 3-moddasida

“Mazkur paktida ishtirok etuvchi davlatlar erkaklar va ayollar uchun ushbu paktida ko'rib chiqilgan barcha fuqarolik va siyosiy huquqlardan bir xilda foydalanishini ta'minlash majburiyatini oladi”, deb ta'kidlangan.

O'zbekiston bu xalqaro hujjatlarni ratifikatsiya qilgan bo'lib, ularda belgilangan majburiyatlarni bajarishda yuqori tashabbus ko'rsatmoqda.

Prezidentimiz SH. Mirziyoev BMT Bosh assambleyasining 75-sessiyasidagi nutqida bunday degan edi: “Gender tenglik mavzusini to'g'ri yoritish zo'ravonlikdan aziyat chekkan ayollarni himoya qilishga yordam beradi. Ayollar o'z huquqlarining himoya qilinishi, kamsitilishga qarshi kurash usullari to'g'risida ma'lumot olishlari mumkin. Barcha uchun teng imkoniyatlar to'g'risida jamoatchilik fikrini shakllantirishga aynan OAV javobgardir”.

Mamlakatimizda qisqa muddatda gender tenglikni ta'minlash sohasida amalga oshirilgan ishlar tahlili asosida quyidagilarni ko'rsatish mumkin.

Birinchi, gender tenglikni ta'minlash bo'yicha qonunchilik va institutsional asosni mustahkamlash yo'lida muhim choralar ko'rildi. Xotin-qizlar huquq va manfaatlari himoyasiga doir qariyb 20 ta normativ-huquqiy hujjat, shu jumladan, 2 ta qonun, Prezidentning 4 ta farmoni va 1 ta qarori, Vazirlar Mahkamasining 13 ta qarori qabul qilindi.

Jumladan, “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida”gi qonunga muvofiq, barcha vazirlik va idoralarga gender tenglik masalalari bo'yicha maslahat kengashi organlari faoliyatini yo'lga qo'yish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqilib, mehnat jamoalarida maslahat kengashlari tashkil etildi.

Ikkinchi, xotin-qizlarni ham hayotda, ham ish faoliyatida huquqlarini va gender tengligini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Gender tenglikni ta'minlash masalalari bo'yicha komissiyasi tuzildi. Ushbu komissiya xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash sohasidagi yagona davlat siyosatini yuritadi. SHularni inobatga olgan holda 2020-2030 yillarda O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasi loyihasi tayyorlanib, mamlakatdagi davlat va nodavlat tashkilotlar bilan ushbu hujjatda belgilangan vazifalarni bajarishda hamkorlik o'rnatmoqda. Mazkur strategiyadagi barcha yo'nalishlar BMTning 2030 yilgacha mo'ljallangan Barqaror rivojlanish maqsadlariga muvofiq ishlab chiqilgan.

Uchinchi, 2019 yil 7 martda Prezidentimizning “Xotin-qizlarning mehnat huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to'g'risida”gi qarori qabul qilindi.

Ushbu qarorga muvofiq, 2019 yil 1 maydan:

- ayollar mehnatini muayyan soha yoki kasblarda qo'llash bo'yicha taqiqlar bekor qilindi;
- tavsiyaviy xarakterdagi ayollar sog'lig'iga salbiy ta'sir etishi mumkin bo'lgan soha yoki kasblar ro'yxati tasdiqlandi;
- bola parvarishiga oid bir qator imtiyoz va huquqlar berilishi belgilab qo'yildi.

To'rtinchi, mamlakatimizda zo'ravonlik qurbonlari bo'lgan ayollarning huquqlarini himoya qilish va ularga o'z vaqtida yordam berish uchun bir qator ijobiy

ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 4 yanvardagi “Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarorida tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlangan xotin-qizlarga himoya orderini berish, ijrosini ta'minlash va monitoring olib borish bo'yicha tartiblar belgilangan.

Bundan tashqari, zo'ravonlikka uchragan ayollarga o'z vaqtida yordam berish va holidan xabar olish maqsadida “Najot” mobil ilovasi ishlab chiqildi. Ilovada “Yordam markazlari” bo'limi mavjud bo'lib, unda oilaviy muammolar, zo'ravonlik va favqulodda vaziyatlarda yordam uchun murojaat qilish mumkin bo'lgan joylar haqida ma'lumot olish mumkin. Ushbu markazlarda zarur hollarda psixolog, shifokor yoki huquqshunos maslahatlarini olish va himoyalangan turar joy bo'yicha yordam ko'rsatish imkoniyati mavjud.

Beshinchidan, 2019 yilning avgust oyida Toshkentda zo'ravonlikdan jabr ko'rgan ayollarni rehabilitatsiya qilish va moslashtirish markazi ochildi. SHuningdek, 2019 yil 2 sentyabrda “Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida”gi qonun qabul qilindi. Unga muvofiq, tazyiq va zo'ravonlikka uchragan xotin-qizlar ariza bilan tegishli vakolatli organlarga yoki sudga murojaat etish, maxsus markazlarda, shuningdek, bepul telefon liniyasi orqali tekin huquqiy maslahat, iqtisodiy, ijtimoiy, psixologik, tibbiy va boshqa yordam olish, ichki ishlar organlariga himoya orderi berish to'g'risidagi talab bilan murojaat qilish kabi huquqlarga ega bo'ldilar.

Bir so'z bilan xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda gender tenglikni ta'minlash borasida keng ko'lamli islohotlar tizimli ravishda amalga oshirilmoqda. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad jamiyatimizda xotin-qizlar mavqeini oshirish, ularni ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy sohalaridagi huquqlarini ta'minlash, oilaviy munosabatlarni mustahkamlash hamda jamiyatda ma'naviy-ma'rifiy muhitni barqarorlashtirishdan iborat. Bunday mas'uliyatli ishni muvofiqlashtirish O'zbekiston Respublikasi Gender tenglikni ta'minlash masalalari bo'yicha komissiyasining zimmasiga yuklatilgani esa mazkur sohada kelgusida keng ko'lamli islohotlar va o'zgarishlar bo'lishidan dalolatdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiya kuniga bag'ishlangan tantanali marosimda qilgan ma'ruza. T., Xalq so'zi, 2020 yil dekabr.
2. Mirziyoyev Sh.M. “Yoshlar forumidagi va ma'naviyat haqida” nutqidan 25 dekabr 2020 yil, 18:00 Siyosat.
3. O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi. – T.: Adolat. 1998.
4. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1998 yil, №5-6, ilova.
5. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. – T.: Rasmiy nashr. 2003.
6. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1996 yil, №2-ilova; 1996 yil, 11-12-son.
7. Mualliflar jamoasi. O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksiga sharhlar. – T.: Adolat. 2000. – 446 b.

BO‘LAJAK HARBIY XIZMATCHILARDA TIBBIYOT KO‘RIGI TADBIRLARINI REJALASHTIRISHNING O‘ZIGA XOSLIGI

*Halimov B.X. - O‘zbekiston Respublikasi Qurolli
Kuchlari Harbiy tibbiyot akademiyasi*

Bugungi kunda Yangi O‘zbekiston armiyasida harbiy xizmatchilarda ma‘naviy-madaniy, axloqiy-ruhiy, jismonan sog‘lom tayyorgarlik tizimini tubdan isloh qilishga alohida e‘tibor qaratilib, ularning jahon andozalari darajasida zamonaviy bilim egallashi, ma‘nan-axloqan, jismonan yetuk insonlar bo‘lib ulg‘ayishi, harbiy xizmatchilar qalbida Vatanga sadoqat, fidoyilik tuyg‘ularini yanada yuksaltirish borasida O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha ustuvor vazifalar belgilangan.

“Qurolli Kuchlarimizda jangovar ruhni yuksaltirish, askar va ofitserlarimizni jismoniy va ma‘naviy jihatdan barkamol etib tarbiyalashga e‘tiborni yanada kuchaytirish kerak”[1], - deb ta‘kidlaydi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni Shavkat Mirziyoev.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, shaxsning umumiy salomatlik holatini aniqlashda hayot sifatini baholash tushunchasi nisbatan keng ma‘lumotli bo‘lib, insonning nafaqat tibbiy-biologik jihatdan balki, boshqa muhim aspektlar hisoblanga ruhiy, jismoniy va ijtimoiy holatlari to‘g‘risida batafsil ma‘lumotlarni olish imkonini beradi

Hayot sifati - insonning ijtimoiy, emotsional, jismoniy va ruhiy faoliyatlarining majmuaviy xarakteristikasi bo‘lib, uning subektiv tuyg‘ulariga asoslanadi[2]. Oxirgi yillarda olimlar orasida hayot sifatini baholashda standartlashtirilgan so‘rovnomalarni qo‘llashga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Hayot sifatini baholash so‘rovnomalarini qo‘llashning asosiy maqsadi, insonning jamiyatdagi jarayonlarga ishtirok etish imkoniyatlarini salomatlikning boshqa ko‘rsatkichlari ya‘ni kasallanish, mehnatga layoqatsizlik, o‘lim va boshqalar bilan bog‘liq holda to‘liqroq baholashdan iboratdir.

Salomatlikni baholash hayot sifatini baholash xalqaro loyihasi (International Quality of Life Assessment Project (IQOLA)) talablari asosida Medical Outcomes Study-Short Form-36 (SF-36) anketa so‘rovnomasi asosida o‘tkazildi. Standart so‘rovnoma natijalari SF-36 natijaarini hisoblash formulasi yordamida hisoblab chiqilib olingan ma‘lumotlar statistik ishlov berishning o‘rnatilgan funksiyalaridan foydalangan holda MSO Excel–2016 dasturlar majmuasi yordamida Pentium–IV personal kompyuterida statistik ishlov berildi.

Bundan tashqari transformatsiya qilingan SF-36 savolnomasida ishtirok etgan barcha toifadagi harbiy xizmatchilarning umumiy o‘rtacha ballariga e‘tibor qaratar ekanmiz, og‘riq intensivligi-79,74 ballni, hayotiy faollik-78,03 ballni, ijtimoiy faoliyat-80,05 ballni, emotsional holatga asoslangan rolli faoliyat-79,40 ballni, ruhiy salomatlik komponenti-78,78 ballni, jismoniy holatga asoslangan rolli faoliyat-78,65 ballni tashkil etganligi aniqlandi.

Olingan natijalarning yig‘indisi ko‘ra ShHO tasarrufidagi harbiy qism va muassasalar shaxsiy tarkibining hayot sifati ko‘rsatkichlari barcha shkalalar

bo'yicha, harbiy xizmatchilarning yoshi, tashqi iqlim va ekologiya holati hayot sifatiga ta'siri salmoqli hisoblanadi.

Harbiy xizmatchilar organizmida turli xastalikning rivojlanish ehtimoli yuqori sanaladi. Deyarli barcha harbiy okruglar shaxsiy tarkibining hayot sifati ko'rsatkichlari orasida salomatlikning jismoniy komponenti (Physicalhealth-PH) shkalasining boshqa komponentlarga nisbatan yuqoriligi (92,772,0) harbiy xizmatchilar o'z jismoniy holati yuqori baholashlarini ko'rsatadi. Ushbu ko'rsatkichning boshqa shkalalardan yuqori bo'lishi bu harbiy jamoalar orasida tabiiy holat bo'lib, armiyadagi jismoniy tayyorgarlikka bo'lgan talablar, harbiy xizmatchilarning jismoniy holatini saqlash va doimiy ravishda jismoniy barkamollikka erishish yo'lidagi harakatlari samarasi sifatida ko'rishimiz mumkin.

Inson salomatligini baholashda subektiv javoblarga asoslangan standartlashtirilgan so'rovnomalardan foydalanish Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining "inson salomatligi" ta'rifi "Sog'liq - nafaqat kasalliklar va jismoniy nuqsonlar yo'qligi emas, balki to'liq jismoniy, ruhiy va ijtimoiy osoyishtalik holatidir"[3] bo'yicha baholash imkoniyatini yaratadi.

Salomatlik va hayot sifatini baholash uchun standartlashtirilgan anketaso'rovnomalari insonlarning salomatlik holati va hayot sifati profilini yaratishga asoslangan bo'lib, eng keng tarqalgan so'rovnomalari SF-36 (Medical Outcome Study SF-36) va JSST tomonidan ishlab chiqilgan to'liq hajmli WHOQOL-100 va qisqa mazmunli WHOQOL-BREF so'rovnomalariidir.

Nihoyat, alohida tajriba guruhlarini va patsientlar uchun kasallikka xos hayot sifatini baholash usullari taklif qilingan. Bir tomondan, bunday usullar tekshirilayotgan shaxslarning ehtiyoji va noyob xususiyatlarini hisobga olish imkoniyatini taqdim qilsa, ikkinchi tomondan, bu usullar turli guruhlar va kasalliklarni bir-biri bilan taqqoslash imkonini bermaydi. Hayot sifatini aniqlash so'rovnomalari nafaqat bemorlarning balki sog'lom insonlarning ham salomatlik holatini jismoniy, psixologik, emotsional va ijtimoiy tomondan o'rganish va baholashga yordam berishi qator ilmiy manbalarda ko'rsatib o'tilgan.

Ta'kidlash joizki, turli toifadagi harbiy xizmatchilarning turmush tarzi ko'rsatkichlari aholining boshqa sog'lom qatlami vakillari ko'rsatkichlariga yaqinligi aniqlandi. Xizmatchilarning turmush tarzining eng past ko'rsatkichlari umumiy salomatlik holati eng yuqori ko'rsatkich jismoniy faoliyat ko'rsatkichi bo'lib ularning hayot sifati qoniqarli baholandi. Ushbu holatlarni albatta armiya safida amaliy sog'lom fuqarolarning xizmat qilishi, xizmatda o'rnatilgan qat'iy tartib va intizom hamda harbiy xizmatchilar uchun belgilangan kun tartibi va yuqori jismoniy faollik natijasi sifatida baholashimiz mumkin.

Xulosa qilib aytganda, jamiyat taraqqiyotining har bir yangi bosqichi kishilarning ma'naviy yetuk, jismonan sog'lomligi ham yangi davrning yuzaga kelishi bilan xarakterlanadi. Harbiy xizmatchilarimiz jismonan sog'lom, ruhan tetik, ma'nau yuksak bo'lmasa, jamiyat rivoji sust ketishi muqarrardir. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, O'zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari harbiy xizmatchilarida jismonan baquvvatlikni, ruhan tetiklikni, shuningdek, ma'naviy-madaniy fazilatlarini takomillashtirish ularning o'z burchlariga qanchalik sodiqligini qaror toptirish bilan chambarchas bog'liq desak to'g'ri bo'ladi.

Adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Xavfsizlik Kengashining kengaytirilgan tarkibdagi majlisida “Qurolli kuchlarimiz – mamlakatimiz barqarorligi va taraqqiyotining mustahkam kafolatidir” mavzusidagi nutqidan
2. Stekolnikov L.V. Reyting kachestva jizni naseleniya / L.V. Stekolnikov, L.I. Gerasimova // Zdravoxranenie Chuvashii. -2014. -№3. -str. 45-52.
3. <https://www.who.int/ru/about/frequently-asked-questions> (murojaat vaqti 31.01.2024 y).

O‘ZBEKISTON HARBIYLARINI VATANPARVARLIK TUYG‘USINI OSHIRISH VA ULARNI VATANGA SODIQ FARZANDLAR QILIB TARBIYALASH

*Hojiyev Ochil Ibragimovich –
KMKTМ texnik tayyorgarlik sikl o‘qituvchisi,
zampiradagi podpolkovnik QK xizmatchisi.*

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada intellektual salohiyatli avlodni tarbiyalash va voyaga yetkazishda to‘g‘ri ahamiyati yoritilgan. Unda inson uchun zarur bo‘ladigan ta‘im va tarbiya tamoyillari, qoidalari, rejimi va shart-sharoitlari atroflicha ko‘rib chiqilgan.*

***Kalit so‘zlar:** innovator, model, vitaminlar, mineral modda, sog‘liqni saqlash quvvat, ratsion.*

Vatan - bu inson va uning avlod-ajdodlari kindik qoni to‘kilgan muqaddas dargohdir. Vatan - bu ajdodlar maskani, el-yurt, xalq voyaga etgan, uning tili, tarixi, madaniyati, urf-odatlar, qadriyatlari chinakamiga shakllanib, o‘sib, kamol topib boradigan zamindir. Vatan ona kabi aziz va mukarramdir. Vatan insonga baxt-iqbol beradigan zamindir. Abdulla Avloniy aytganidek: «Har bir kishining tug‘ilib o‘sgan shahar va mamlakatini shul kishining vatani deyilur. qar kim tug‘ilgan, o‘sgan joyini jonidan ortiq suyar... Biz turkistonliklar o‘z vatanimizni jonimizdan ortiq suyganimiz kabi, arablar arabistonlarini, qumlik issiq cho‘llarini, eskimuslar shimol taraflar, eng sovuq qor va muzlik erlarni boshqa erlardan ziyoda suyarlar. Agar suymasalar edi, havosi yaxshi turonlik oson erlarga o‘z vatanlarini tashlab hijrat qilurlar edi»

Vatan - bu xalqning o‘tmishi, buguni va kelajagidir. Vatan - muqaddas qadriyat. Taraqqiyot vatandan boshlanadi. U insonning kindik qoni to‘kilgan joy, insonni ijtimoiy etimlikdan asrovchi manzil, ma‘naviy kamolot va fuqarolik maydoni, hayot maktabi, farovonlik va baxt-saodat o‘choqidir. Inson uchun vatan yagonadir. Vatanning katta-kichigi ham, boy-kambaqali ham bo‘lmaydi. Vatan tanlanmaydi. Vatan bizning molimiz emas. Shuning uchun ham u pulga sotilmaydi va sotib olinmaydi. Vatan in‘om etilmaydi, qarzga berilmaydi. Vatan har bir fuqaro uchun muqaddas va betakroridir. Vatanni eng oliy ne‘mat singari boshimiz uzra

baland ko'tarib, har on va har soniyada uning tuproqini ko'zlarga surtib, unga ta'zim bajo aylashimiz farzandlik burchimizdir.

Vatan mehrini, vatan sehrini, uning mo'tabarligiyu uluqvorligini so'z bilan ifodalash qiyin. Har bir barkamol inson vatan kamoloti va istiqboli, el-yurtining ozodligi va mustaqilligi uchun hamma narsani, hatto shirin jonini ham ayamaydi. Bu haqda mavlono Fuzuliyning, mening bitta hayotim bor, bordiyu mingta hayotga ega bo'lgan taqdirimda ham hammasini vatan uchun sarflagan bo'lur edim, deb aytgan so'zlari har birimiz uchun bebaho o'g'itdir. Sho'rolar davrida milliy manfaat, vatanga, ona zaminga mehr-muhabbat degan his-tuyqular asta-sekin so'na boshladi. «Vatan» tushunchasi mavhum bir umumiy holga kelib qolgandi.hamma narsa - «Umumsovet» manfaatiga qaratilgandi. har bir millat, xalq ming yillardan beri yashab kelayotgan o'z vatani uchun qayqurishga haqli emasdi.

Vatanparvarlikni eng oliy tuyqu sifatida o'tmish mutafakkirlari alohida qayd etganlar va o'zlari ham unga sodiq qolganlar.Endi ana shu qaydlardan ba'zilarini eslab o'tamiz.

Tsitseron (Rim notiqi va faylasufi). Bizga ota - onalar, bolalar, yaqin xesh-aqrobalar qimmatlidir, lekin muhabbat bobidagi barcha tasavvurlarimiz birgina «Vatan» degan so'zda mujassamlashgan. Vatanga nafi tekkudek bo'lsa, qaysi vijdonli odam u uchun jonini berishga ikkilanar ekan!

Gegel (nemis faylasufi). Ma'rifatli xalqlarning haqiqiy jasorati Vatan yo'lida qurbon bo'lishga hozir ekanliklarida aks etadi.

Bayron (ingliz shoiri).Kimki o'z yurtini sevmasa, u hech nimani seva olmaydi.

Belinskiy (rus tanqidchisi). Kimki o'z Vataniga daxldor bo'lmasa, u insoniyatga ham dahldor emas.

Gyugo (frantsuz adibi). O'z vataniga doq tushirish - uni sotish degan so'z.

Vatan tuyqusi bo'lgan kishidagina vatanparvarlik jo'sh uradi. Prezidentimiz Islom Karimov aytganidek: «Vatanga muhabbat hissi odamning qalbida tabiiy ravishda tuqiladi. Ya'ni, inson o'zligini anglagani, nasl-nasabini bilgani sari yuragida Vatanga muhabbat tuyqusini ildiz otib, yuksala boradi. Bu ildiz qanchalik chuqur bo'lsa, tuqilib o'sgan yurtga muhabbat ham shu qadar cheksiz bo'ladi».



Vatanparvarlik deganda esa yana qo'yidagilarni anglash joiz:

- o'z xalqini, tarixini yaxshi bilish va u bilan faxrlanish;

- qadimiy obidalar, mislsiz imoratlar, ajdodlar yaratgan moddiy va ma'naviy meroslarni ko'z qorachiqiday asrash va avlodlarga taqdim etish;

- xalqimizning, ajdodlarimizning go'zal va ma'noli urf-odatlar, rasm-rusum va udumlarini qadrlay bilish, ularni davom ettirish;

- ajoyib vatandoshlar - ajdodlar nomi bilan, ularning uluq ishlari, ijodlari bilan faxrlanish,

ularning ishlarini davom ettirish, ularga munosib voris bo'lish;

- shunday ajoyib xalqqa, yurtga, uning boy tili va madaniyatiga mansubligi bilan faxrlanish;

- Turonzaminni himoya qilib, tomirida oxirgi qoni qolguncha dushmanga qarshi kurashgan bahodirlarni, ayovsiz janglarda halok bo'lgan qahramonlar nomini yod etish;

- asrimizning yigirmanchi, o'ttizinchi, qirqinchi, elliginchi va nihoyat saksoninchi yillarida xalqimiz, millatimizga qarshi uyushtirilgan qataqonlarda qamoq va surgun azoblarini boshidan kechirgan va halok bo'lgan minglab millatimiz gullarini unutmazlik;

- bu aziz va go'zal vatanimizda yuksak e'tiqod bilan yashash, unga hamisha sadoqatli bo'lishdir.

Vatanparvarlik hammamizning o'z ishimizga mas'uliyat bilan qarash, vatanning boyliklarini ko'z qorachiqiday asrash, boyliklariga boylik qo'shishga o'z ulushimizni qo'shish, ilm-fan cho'qqilari sari intilish va boshqalardir.

Vatanparvarlik bir so'z bilan aytilganda o'z ijobiy ishlarimiz, bunyodkorlik harakatlarimiz bilan uning kuch-qudratiga, gullab yashnashiga imkon darajasida hissa qo'shish:

- ona yurtimizda tinchlik, barqarorlik va osoyishtalikni saqlashga intilish vatanparvarlikning belgisidir;

- vatanparvarlik – xalqaro munosabatlarda vatan, millat manfaatlarini birinchi o'ringa qo'yishdir.

Vatanparvarlik — kishilarning ona yurtiga, o'z oshyoniga muhabbati va sadoqatini ifodalaydigan tushuncha. Vatanparvarlik barcha kishilar, xalq, millatlar uchun umumiy bo'lgan, asrlar davomida sayqallanib kelgan umuminsoniy tuyg'u, ma'naviy qadriyatlardan biri. Tarixiy jihatdan Vatanparvarlik kishilarning o'z vatanlari taqdiri bilan bog'liq ijtimoiy rivojlanish, xalqlarning o'zlari yashayotgan hududning daxlsizligi va mustaqilligi yo'lidagi kurashi jarayonida takomillashib kelgan his-tuyg'ular jamlanmasi hamdir. Bu vatanning o'tmishi va hoziri bilan faxrlanishda, uning manfaatlarini himoya qilishda namoyon bo'ladi. Bejizga Amir Temur bobomiz vatanni sevish iymondandir deb ham bejizga aytmagan.

Vatanparvar insonlar vatanimizda juda ham ko'p uchraydi. Masalan, Chingizxonning xos kotiblari tomonidan bitilib, iskandarmonand yurishlar ta'rif tavsif qilingan kitoblarning bari Shaxobiddin An Nasaviyning «Jaloliddin Manguberdi hayotining tasviri» asari oldida xira tortadi. Binobarin, yog'iy xos kotiblarining o'zlari ham, o'rni kelganda, noilojlikdan Jaloliddin Manguberding mardligi va jasorati haqida hayrat bilan yozishadi:

Chingizxon daryodan oti bilan sakrab o'tgan Jaloliddinga qarab aytgan «Ota o'g'li mana shunday bo'lishi kerak» degan gap ham aslida mo'g'ullarga xizmat qilgan muarrix tomonidan tarixga muhrlangan.

Keyingi davr tarixchilari esa Jaloliddin Maguberdini mo'g'ul bochqinchilari zulmidan yarim jahonni saqlab qolgan xaloskor sifatida e'tirof etishadi. Axir u butun 11 yil davomida bosqinchilarni o't halqasi orasida saqlab, ularning butun kuch-qudratini o'ziga qaratdi. Oxir-oqibat Chingizxon Iskandardan ham o'zib ketish orzusidan voz kechib, armon bilan vafot etdi. U Vatan mudofaasi uchun jonini

tikkan mardlarning shonu-shavkati o'zining shonu-shavkatidan ko'p ustun ekanligini o'limi oldidan anglab etdi.

1221 yilning boshida Jaloliddinning xorazmlik jangchilar va qo'shni halqlar askarlaridan iborat qo'shini mo'g'ullar ustidan qozongan beqiyos g'alabalar dushmani behad sarosimaga solganligi tarixiy asarlarda aniq ravshan ifoda etilgan. Mo'g'ullar istilosiga qarshi juda ko'p sarkardalar va davlat arboblari kurashishgan. Ularning nomlari ham o'z davrining fidokorlari sifatida tarixdan joy olgan. Ammo, ko'xna tarix bu borada birinchi navbatda Jaloliddin Manguberdini o'z xotirasida avaylab asraydi. U faqat bosqinchilarga qarshi fidoiy kurashchigina emas, balki turli halqlar ustiga mo'ru malaxday yoprilgan baloyu qazolarga o'zini tutib, mo'g'ullarning dodini bera olgan yagona lashkarboshi hamda davlat rahnamosi sifatida mangulik mulkidan o'rin egallagan. U dushman ustidan uzil-kesil g'alabaga erishib, davlatni qayta tiklash orzusi ushali shiga juda yaqin keldi. Ammo, bunga g'animning kuch-qudrati emas, o'zining itifoqchilari hamda yaqinlari sanalgan ko'plab hukmdor va lashkarboshchilarning munofiqliklari va xiyonatkorliklari yo'l qo'ymadi. Eng qaltis vaziyatlarda ular o'zlarining arzimas manfaatlarini ko'zlab, qo'shinlari bilan xorazmshohni tark etdilar. U esa yonib kulga aylangan va kuldan qayta tug'ilib, olov tarata boshlagan Qaqnus kabi o'zini ko'rsataverdi.

Abdulla Avloniy, u qatag'on yillari paytida yashagan bo'lsa ham so'z erkinligi unda juda rivojlangan. Mahmudxo'ja Behbudiy, u o'zining bolalarni o'qitish kitoblari bilan Vatanimizda tanilgan. Uning bolalarga Chet tilini o'rgatish, savod chiqarish va boshqa o'qitishga oid qilgan ishlari taqsimga loyiq.

Yangi 2022 yilning ilk kunlarida Vatan himoyachilari kuni hamda O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 30 yilligini keng nishonlar ekanmiz, davlatimiz rahbarining, xalqimizning, keng jamoatchilikning Vatan himoyachilariga bo'lgan yuksak ishonchi va mehr-u muhabbatini chuqur his qilmoqdamiz. Zero, qadimdan o'z isbotini topib kelayotgan bir haqiqat bor, ya'ni yurtning ilmli, mard va fidoyi yoshlari hamisha xalqdan kuch-quvvat olgan.

Davlatimiz rahbari xalqimizning, xususan, ezgulikni o'ziga shior qilgan fidoyilarning, og'ir kunlarda el dardiga darmon bo'lgan mutaxassislarining, o'z kasbini ardoqlab, mamlakatimiz rivojiga hissa qo'shgan va qo'shayotgan vatandoshlarimizning xizmati va mehnatini alohida e'tirof etdilar.

Darhaqiqat, o'tgan yil davomida qo'shinlarda jiddiy o'zgarishlar, islohotlar o'tkazildi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarini rivojlantirish, harbiy jamoalarga uyg'oq ruhni olib kirish, jangovar tayyorgarlik, ta'minot va boshqa yo'nalishlarda to'p-langani muammolarni hal qilish, lo'nda qilib aytganda armiyaning qiyofasini tubdan o'zgartirish uchun jiddiy harakatlar amalga oshirildi. Dunyo-da sodir bo'layotgan hodisalarni, harbiy va mudofaa sohasidagi yangiliklarni tahlil etgan holda ilg'or tajribalarni o'rganish, harbiy xizmatchilarni mutaxassisligidan kelib chiqqan holda har tomonlama tayyorlash borasida amaliy ishlarga qo'l urildi. Bu jarayonda harbiy okrugimizda askardan to'qmondongacha, oddiy xizmatchidan to' tajribali mutaxassisgacha – barcha faol ishtirok etdi. Natijada ko'plab yutuqlarga erishdik. Pandemiya sharoitida harbiy xizmatchilarimiz o'z burchi va majburiyatlariga vijdonan yondashib, Vatan oldidagi qasamyodiga sodiq qoldilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. **Sotim Avaz.**, Jaloliddin Manguberdi. <http://xorazmiy.uz/oz/pages/view/106>.
2. Vikipediya, ochiq ensiklopediya // O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Vatanparvarlik>.

ХАЛҚАРО ҲАРБИЙ ВАЗИЯТ ВА БИЗНИНГ ҲАРБИЙ ТАЪЛМИМИЗ

*Ҳожиёв Очил Ибрагимович –
Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучлар
Кичик мутахассислар тайёрлаш маркази
Техник тайёргарлик цикли ўқитувчиси,
захирадаги подполковник, ҚК хизматчиси.*

***Аннотация.** Мақолада бугун дунёда содир этилаётган қуролли можаролар, уларнинг сабаблари ва бўлажак катострафик натижалари тахмин қилинган. Ундан ташқари бугунги кун ҳарбий хизматчилари жамиятда мавжуд бўлган салбий иллатлар ёритилган ва уларни бартараф этиш йўллари кўрсатилган.*

***Калит сўзлар:** Глобаллашув, қуролли чождаролар, ривожланиш, маънавият, ахлоқ, урф-одат, бурч, виждон, садоқат, тарбия.*

Бугунги кунда Глобаллашув давом этаётган ва халқаро муносабатларнинг бутун тизими ўзгариб бораётган шароитларда жаҳондаги ҳарбий-сиёсий вазият халқаро ва минтақавий хавфсизликка хавф-хатар ҳамда таҳдидлар кўлами кенгайиб бораётганлиги - геосиёсий қарама-қаршилиқнинг кучайиши, можаролар ва танг вазиятларни куч ишлатиб ҳал этишга бўлган ёндашувнинг устунлик қилиши, куч ишлатиш, шу жумладан оммавий қирғин қуролини қўллаш эҳтимоли ошганлиги, ҳарбийлаштириш, халқаро терроризм ва экстремизм фаоллашганлиги, ахборот макони ва кибермаконда ўзаро кураш кучайганлиги билан тавсифланади.

Жаҳонда ва Марказий Осиё минтақасида, шунингдек, Ўзбекистонга қўшни минтақаларда рўй бераётган воқеалар, кечаётган ҳарбий-сиёсий жараёнлар (айниқса чегарадош Афғонистонда), таҳлили, бутун дунёда ҳарбий-сиёсий вазият жиддий тус олаётгани намоён бўлмоқда.

Россия бир томонидан АҚШ ва НАТО давлатлари иккинчи томонидан ўртасидаги муносабатлар чигаллашиб бораётганлиги, хавфсизлик ҳамда барқарорликка хавф ва таҳдидларнинг миқёси кенгайиб бораётганлигини кўрсатмоқда.

Геосиёсий майдонда ҳарбий-сиёсий вазиятга бевосита таъсир этувчи “ноанъанавий” хавф ва таҳдидларнинг пайдо бўлиши оқибатида қуролли тўқнашувларнинг таъсири остида қолаётган мамлакатлар сонининг тобора кўпайиб бораётгани кузатилмоқда.

Жумладан, Европа, Кавказорти (Азербайжон ва Арманистон ўртасидаги муносабатлар) Марказий Осиё (Афғонистондаги беқарорлик), Яқин Шарқдаги (Палестина ва Изроил ўртасидаги келишмовчилик) Ироқ, Сурия, Ливан давлатларидаги сиёсий-ижтимоий вазият, Жануби-шарқий Осиё ва Корея ярим ороли каби минтақаларда турли даражадаги давлатлараро низоли вазиятлар кескинлашмоқда ҳамда улар ўртасида қуроли мижозларнинг келиб чиқиш хавфи ортиб бормоқда.

Европа минтақасида сақланиб қолаётган мураккаб ҳарбий-сиёсий вазият фонида хавф ва таҳдидлар жиддийлигининг ўсиш эҳтимоли мавжуд.

2022 йилнинг 24 февраль куни Россия ва Украина давлатлари ўртасидаги муносабатлар дипломатия кўринишидан қуроли тўқнашувларга айланиб кетди.

Айни пайтда Россия ва Украина ўртасида кечаётган қуроли мижзони замонавий урушларнинг ёрқин мисоли сифатида қайд этиб, унинг қуйидаги муҳим хусусиятларини кўриш мумкин. Украина ва Россия қуроли мижзосига АҚШ бошчилигида НАТО давлатларининг аралашуви (Украина армиясининг таъминоти, жанговар шайлиги ва тайёргарлиги шу давлатларнинг ёрдамида содир этилмоқда.

Россия ва Украина қуроли мижзосида Марказий осийдан чиққанлар ҳам иккала томонда, моддий бойлик учун жанговар ҳаракатларда иштирок этишмоқдалар, яъни легионер сифатида.

Европа минтақасида содир этаётган Россия-Украина қуроли мижзоси фонида НАТО мамлакатлари, Европа, Осиё ва бошқа ҳудудларида ҳамкорликдаги ҳарбий ўқувларни кучайтирмоқда.

Шунингдек, АҚШ ва Европанинг кўпчилик давлатлари томонидан Россия ва Хитойни НАТО нинг асосий душмани сифатида баҳоланган ва барча минтақаларда Москва ва Пекингга қарши оммавий-ахборот ва ташвиқот кампаниялари фаол давом эттирилмоқда.

Иккита жаҳон урушининг бешиги бўлган Европа, бугунги кунда учинчи Жаҳон уруши ўчоғи бўлишига ҳеч ким қафолат бера олмайди.

Ватанимиз келажаги, хавфсизлиги, тинлиги ва унинг буюклиги бугунги Қуроли Кучларда ҳарбий хизматни ўтаётган ёшларнинг қўлида.

Бугун ҳарбий хизмат фаолиятимизга сингиб кетган “Ўз уйингни ўзинг асра!”, деган даъватни янада чуқурлаштириб, керак бўлса, уни бойитиб “ўз уйингни ўзинг асра, ўз юртингни ўзинг ҳимоя қил” деган умуммиллий ширимизга биз ҳарбийлар доимо содиқ бўлишимиз лозим.

Ёш ҳарбийларимиз қанчалик ўқимишли ва саводли бўлишса, шунга қараб юртимиз ривожланади, хавфсизлигимиз мустаҳкамланади ва бошқа юртдан келган ҳарбий меҳмонлар бизнинг миллатимиз тўғрисида ижобий хулоса чиқаришади. Бекорга Президентимиз 2019 йил февраль ойида Сирдарё вилояти фаоллари билан учрашувида “... менга маърифий ривожланиш иқтисодий ривожланишдан муҳимроқ”-деб таъкидламаган эди.

Жамият ҳаётида жиддий сиёсий ўзгаришлар юз берганда инсон ўзига, ўзлигига янада теранроқ назар ташлашга интилиб қолади. Мураккаб глобаллашув даврида маънавият соҳасида вужудга келган долзарб муаммолар

халқимиз маънавиятини асраш ва юксалтириш, айниқса ёш авлоднинг қалби ва онгини турли зарарли ғоя, мафқуралардан сақлаш, ҳимоя қилишни талаб этмоқда.

Ҳар бир тараққий этган халқнинг ўз тили, урф-одатлари, адабиёти, моддий ва маънавий бойликлари бўлади. Ўзбек халқи ҳам дунёдаги энг қадимий халқлардан бири сифатида улкан маънавий хазинага эга. Бу билан биз ўзбеклар, ҳақли равишда фахрлансак арзийди

Машҳур юнон драматурги Софокл буюк инсонпарварлик ғояларини тарғиб этар экан: “Оламда улуғ нарсалар кўп, аммо инсондан улуғ нарса йўқ”- деган эди.

Инсон барча маҳлуқлар ичида энг азиз ва энг муқаррам. Инсон бошқа ҳайвонат оламидан ақлу-идроки, нутқи, шакли, таому – либослари, бошқа жонзотларни ўзига бўйсундиришга интилиши каби бир қатор хусусиятлари билан яққол ажралиб туради. Ҳайвонларда нафсу шахват бору, онг йўқ. Одамдодда эса онг ҳам, нафсу шахват ҳам бор. Ақл уни тўғри йўлга, савобли ишларга бошласа, нафсу шахват эса ҳаром йўл билан нафсни қондириб, керак бўлса бу йўлда ҳар қандай жиноий ишлардан қайтмасликка ундайди.

Қалби пок ҳарбий хизматчилар ҳамиша ҳаёт учун, тириклик учун ақл, матонат билан курашадилар, ҳар қандай бузуқликка ва ёвузликка мардона боқиб, жонларини фидо қиладилар.

Ота-боболаримиздан қолган яхши одатларимиз, қиладиган амалларимиз бор. Ҳар бир ҳарбий хизматчи уни унутмаслиги ёки тарк этмаслиги керак. Хурсандчилик ва қувонч, меҳр ва шафқат, биродарлик ва иноқлик бизнинг халқимизнинг доимий кундалик одати бўлган.

Қишлоқ ва маҳаллада, оилада хурсандчилик қилиш, очик чеҳрали бўлиш, ота-она, кўни-кўшни, қариндошларга хурсандчилик, қувонч бахш этиш одобли ва маданиятли ҳарбий хизматчининг вазифаси. Аммо минг афсус, надоматлар бўлсин, жамиятимизда инсонга номуносиб одатлар ва қилиқлар мавжуддирки, бу ҳарбий хизматчининг шаънига доғдир. Шулардан бири коррупция, ўғрилик, ичкиликбозлик, гиёҳвандлик, зинокорлик ва фохишабозликдир. Мисол учун, коррупционерлар ўз қилмишлари билан юртга нафақат моддий, энг ачинарлиси, катта ахлоқий зарар етказишади. Қолган ҳалол ҳарбий хизматчиларда, буларнинг қилмишларини кўриб, онгларида адолатга ишончисизлик пайдо бўлади ва уларнинг қилмишларида бефарқлик сифатлари илдиз отади.

Мисол тариқасида ичкиликбозликни олайлик, статистик маълумотлар хулосасига қараганда жиноятларнинг 90% кишининг мастлик чоғида содир этилар экан. Кўпчилик ҳарбий хизматчилар, сиқилса ҳам ичади, хурсанд бўлса ҳам ичади. Билимли ароқ ичса, маданиятсизликка айланади. Билимсиз ароқ ичсачи? Буни тасаввур этиш қийин эмас. Ичимлик ақл-идроққа ҳам, билимга ҳам ётдир. У уруш ва жанжаллар асоси. Не-не доно ва ақл-идроқли офицерлар ароқ ичганидан сўнг тубанлик қилиши, ноинсоний йўл сари юз буриши мумкин.

Ақл идрокли, андишали, феъли соз офицерлар бошларини ароққа сукқанларидан сўнг ўз ишларини бузишган. Мана шу ярамас ичкилик туфайли

кўплаб яхши ҳарбий хизматчилар ҳам телба, тентак деган ном олишган. Ичимлик ҳарбий хизматчини нафақат Қуролли балки эл аро шармандаи шармисор қилиши мумкин.

Бугунги кунда ичкилик бозлик жамият танасидаги тузалмас ўсимтадир. Уни вақтида кесиб олиб ташланмаса, бутун Қуролли Кучларни шикастлаши мумкин. Ароқ касофати ачинарли. У марказий асаб тизимига, жигар, юрак фаолиятига шикаст етказди. Ақлий фаолиятни заифлаштиради. Наслга зарар етказди, тафаккурга путур етади. Тафаккурсиз ҳарбий хизматчи ҳайвонга айланиб қолиши ҳеч гап эмас. Ичкилик ва гиёҳванд моддалар ҳарбий хизматчини ана шу тафаккурдан айирувчи воситадир.

Ичкиликбозлик барча сохаларда кенг тарқалиб бораётганлиги, бу ҳол кўпчиликини ташвишга солаётганлиги сир эмас. Ичкиликбозлик деганда фақат ароқ ичиш ёки шундай номланган ичимлик кўзда тутилмаётир, балки ҳар бир маст қилувчи ичимлик кўзда тутилаётир.

Гиёҳванд деганда афюн, қора дори, наша, яна бошқа номлар билан аталадиган гиёҳлардан тайёрланадиган маст қилувчи моддаларни истеъмол қиладиганлар айтилади.

Бизнинг юртимизни Чор Россияси босиб олингунча шаҳар ва қишлоқларда ичкиликбозлик иллатлари бўлмаган экан. Рус босқинчилар ўлкага дастлаб жуда катта миқдорда турли маст қилувчи ичимликлар билан ароқхўрларни, киссавурларни, безориларни, ишёкмасларни юборган экан. Улар билан бирга санки фоҳишалар ҳам бизнинг диёримизга киритилган экан. “Сургун” қилинганлар ўзларига ёрдам берган маҳаллий кишиларга зиёфатларга таклиф қилиб, ароқ ичирган эканлар. Барча хоинлик, ўғрилик, безорилик, фоҳишабозлик, одам ўлдириш каби жиноятлар эса кўпроқ мастликда содир этилиши ҳаммага маълум.

Инсонларнинг яхши хулқларга чақириб, ёмон хулқлардан қайтармоқ учун яхши хулқларнинг яхшилигини, ёмон хулқларнинг ёмонлигини билдирадиган илм-бу илми ахлоқдир. Дунёда чин инсон бўламан деган кишиларга бу илми ўқитмоқ, ахлоқ йўлларни ўргатмоқ, яхши хулқ қайси, ёмон хулқ қайси билмоқ, фарқини бир-биридан ажратиб олмоқ лозим.

Хазрати Алишер Навоий ахлоқни инсоннинг қимматбаҳо маънавий либоси деб ҳисоблаган. Буюк табиб Абу Али ибн Сино ҳаё ва ифбатни инсондаги ҳусн ва латофат, деб баҳолаган.

Ота-онага итоат этмоқ, қариндошларни иззат ҳурмат қилмоқ, тўғри сўзламоқ, мухтожларга ёрдам бермоқ, саҳоват, юмшоқлик, очик юзлик, тавозе, шафқат, мурруват-буларнинг ҳаммаси яхши хулқлардандир.

Жаҳолат, порахўрлик, лаганбардорлик, ялқовлик, кўрқоқлик, ёлғончилик, ҳийлагарлик, ҳасад, бахиллик, исрофгарчилик, беҳуда сўзламоқ, мунофиқлик, сир айтмоқ, чақимчилик, зулм қилмоқ, ичкиликбозлик, мансабидан фойдаланиб бўйсинувчиларни хўрлаш, ғазабли бўлмоқ-буларнинг ҳаммаси ёмон хулқлардир.

Умуминсоний қадриятлардан бири хотирлашдир. Шу боис ҳар бир ҳарбий хизматчи, ўтмиш аждодларини хотирлаш билан қандай халқ вакили эканлигини дилдан ҳис қилади. Қалби фахр, ғурур ва ифтихорга тўлади. Ҳар

қайси ҳарбий хизматчи яхшилик қўлидан келмаса-да яхши ният билан яшамоғи керак.

Зиёлий ҳарбий хизматчилар орасида энг етуғи-номусли, уят, андишалиларидир. Номус, андишаси бўлмаган ҳарбий хизматчи ҳар қандай пасткашликдан қайтмайди.

Агар ўтмишдаги аждодлар ҳаётига назар солгудай бўлсак, бир ҳолатни кузатамиз: оддий одам ҳам, катта мартабадаги кишилар ҳам билимли ва доно бўлса, улар эл-юрт тадбирини ўйлашган. Бугун ҳам комилликка интилган ҳар қандай одам эзгуликка интилиб яшаган кишиларга бош бўлади. Бошлиқ (командир) билимли ва доно бўлса атрофига ўзига ўхшаган яхши бўйсинувчиларни йиғади. Бундай бошлиқ элини маънавиятга етаклайди ва бойитади. У саҳий деб ном олади. Саҳий ўлса ҳам номи тирик қолаверади. Агар бошлиқ (командир) билимсиз ва такаббур бўлса, бўйсинувчилар тақдири ҳақида ўйламаса, шахсий бойлик орттириш йўлида ҳар қандай ишдан тоймаса, у атрофига лаганбардорларни ва ўзига ўхшаганларни йиға бошлайди. Бунақа лаганбардорлар жамиятга эмас, ўз бошлиқларига хизмат қиладилар ҳолос. Бошлиқ (командир) ишдан бўшатиб биринчи бўлиб тош отиб ёмонлашни бошлашади.

Қуролли Кучларимиздаги баъзи салбий ҳолатларнинг сабаблари, бу бугунги ҳарбий хизмат жараёнида маънавий тарбиянинг сустлигидир. Тарбия қонунига кўра, инсон жисм ва руҳдан иборат. Жисм тарбияга қанчалик муҳтож бўлса, руҳ ҳам тарбияга шунчалик ташнадир. Руҳий тарбия топмаган ҳарбий хизматчи маънавий қашшоқ бўлиб, раҳму-шафқат, адолат ва эзгулик туйғуларидан маҳрум бўлади. Бундай офицерлар эртами кечми, ахлоқий нопоклик ва маънавий тубанлик чоҳига дучор бўладилар. Ҳарбий таълим масканларида ўқиётган ёшлар тарбиясига ғоят зарарли таъсир кўрсатадилар. Бу ҳолатни тўғри изга солиш учун ахлоқий-маънавий тарбияни умумхалқ ишига айлантириш зарур.

Барча ёш ҳарбий хизматчиларимиз “Ватанимиз битталигини ва барчамизга азизлигини, ота-боболаримизнинг хоки шу ерда ётганлигини, шу муқаддас замин бизни дунёга келтирганлигини, биз уни обод этиш, ҳимоя қилишимиз шартлигини, нафақат ҳаётимиз, балки бизга умид кўзини тикиб турган ота-онамиз, опа-сингилларимиз, ёш гўдақларимиз, нуроний қарияларимизнинг ҳаёти ҳам ана шу бурчимизни нечоғлиқ адо этишимизга боғлиқ”, деган тушунчани онгларида сингдиришлари керак.

Фойдаланган адабиётлар:

1. Замятин А.И. “Проблемы мира и войны на современном этапе» Реферат., М.,2023.
2. Иванов П.И “Кодекс приличий на востоке”. Санкт-Петербург 1904.
3. Ионченко А.А. “Занимательная психология”. М., 1989.
4. Ойбек “Алишер Навоий”. Т., 1995.
5. Холмирзаев.Б “Абу Али ибн-Сино”. Т., 1995.
6. Хожиев О. “Одобнома” Т.,2018.
- 7.Уразолиев А. “Инсон омили”. Т., 2019.
8. Маматов Т. “Коррупция ва унга қрши курашиш” КМТМ., 2023.

YANGI O‘ZBEKISTON MUDOFAASINI TA’MINLASHDA MILLIY VA JANGOVAR RUHNING O‘RNI

*Ibragimov Qobil Soatovich –
O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari
kichik mutaxassislar tayyorlash markazi
Muhandislik tayyorgarligi sikli
katta o‘qituvchisi, zaxiradagi podpolkovnik*

Bugungi kunda O‘zbekiston demokratik o‘zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanib bormoqda. Olib borilayotgan islohotlar natijasida ulkan muvaffaqiyatlarga ega bo‘lgan Yangi O‘zbekiston dunyo sahnasiga yuz tutmoqda. Binobarin, Yangi O‘zbekistonni barpo etish - bu shunchaki xohish-istak, subhektiv hodisa emas, balki tub tarixiy asoslarga ega bo‘lgan, mamalkatimizdagi mavjud siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, mahnaviy-mahrifiy vaziyatning o‘zi taqozo etayotgan, xalqimizning asriy orzu-intilishlariga mos, uning milliy manfaatlariga to‘la javob beradigan obhektiv zaruratdir.

Jamiyatimizning barcha sohalari singari Mudofaa tizimida ham olib borilayotgan islohotlar tufayli O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari faoliyatida katta ijobiy o‘zgarishlar yuz bermoqda. Yuksak jangovar salohiyatga ega bo‘lgan professional milliy armiya barpo etildi. Davr talabiga mos keladigan yangi tuzilmalar shakllanib, qo‘shinlar zamonaviy qurol-aslaha va harbiy texnikalar bilan butlandi. Harbiy xizmatchilarning professional tayyorgarligi oshirilib, xorijiy armiyalar o‘rtasida bo‘lib o‘tadigan xalqaro musobaqalarda yuqori natijalar qayd etilmoqda.

Albatta, olib borilayotgan mazkur islohotlar zamirida Milliy armiyamiz shaxsiy tarkibining milliy ruhini mustahkamlash, jangovar qobiliyatini oshirish hamda yoshlarimizni ona vatanga sadoqatli mard va jasur qilib tarbiyalash kabi ezgu maqsadlar majussamlashgan.

Mamlakatimiz Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni SHavkat Mirziyoev tahkidlaganidek: “Milliy ruh, ona Vatanga mehr va sadoqat, adolat tuyg‘usini har tomonlama kuchaytirish, buyuk ajdodlarimiz, jumladan, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, SHohruh Mirzo, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi sarkardalarimizning boy jang sanhatidan keng foydalanish muhim ahamiyatga ega”.

Milliy ruh - millatning ichki ruhiy holati, his-tuyg‘ulari, mahnaviy dunyosi, o‘y-fikrlari, maqsadi va kayfiyatini ifodalovchi tushuncha.

Harbiy xizmatchilarni o‘z Vatani uchun jonini fido qilishga tayyor bo‘lish mard bo‘lishga, undaydigan kuch, eng avvalo ulardagi mahnaviy-mahrifiy tarbiyadir. Ular ongida bunday tarbiya asosida o‘ziga xos milliy ruh shakllanadi.

Yurtboshimiz tahriri bilan aytganda «...har bir askarda va serjantda, ofitser va generalda, butun shaxsiy tarkibda milliy ruh va g‘urur kuchli bo‘lishi kerak. Milliy ruh – bu yengilmas kuchdir. Milliy ruh kuchli bo‘lsa, iroda va jangovar salohiyat ham yuqori bo‘ladi. Kelajakda harbiy bo‘lishni orzu qiladigan botir farzandlarimiz, milliy ruhni, muqaddas Vatan taqdiri uchun mashuliyat tuyg‘usini qaerdan oladi? Vatanimiz boy tarixidan, Amir Temur kabi buyuk ajdodlarimiz jasoratidan oladi.

O‘z oilasi, mehribon ota-onasidan hamda el-yurtimizning ishonchi, g‘amxo‘rligi va ehtiboridan oladi».

Demak, harbiy xizmatchilar ongida milliy ruhni yuksaltirishning muhim vositalaridan biri buyuk sarkardalar, tarixiy qahramonlar faoliyatini o‘rganishga alohida ehtibor qaratish lozim. Bu nafaqat kitob saxifalaridagi tarixiy dalillar, balki shu tarixiy dalillar asosida yaratilgan kinofilg‘mlar, qo‘shiqlar, spektakllar, tasviriy sanhat asarlari ham bo‘lishi mumkin.

Jangovar ruh – harbiy xizmatchilar va bo‘linmalarning og‘ir va murakkab vaziyatda jismoniy va ruhiy zo‘riqishlarni yengib o‘tib, jangovar vazifani bajarishga shayligini hamda g‘alabaga bo‘lgan ishonchini anglatadigan tushuncha [5].

Jangovar ruhni tashkil etuvchilar sifatida quyidagilarni belgilash mumkin:

- g‘oyaviy-mafkuraviy ishonch;
- siyosiy qarashlar, siyosiy ong va hayotiy pozitsiya;
- ijtimoiy muhofaza va tahminot darajasi;
- harbiy xizmatchidagi professionalizm darajasi;
- o‘z quroliga, komandiri, bo‘linmasi va g‘alabaga bo‘lgan ishonchi va boshqalar.

Jangovar ruh, harbiy xizmatchilarning yurt tinchligi va ravnaqini tahminlash g‘oyasiga ishonganligi, botirligi, topqirligi, metin iroda va tanqidiy tafakkur sohibi bo‘lish kabi shaxsiy sifatlariga bevosita bog‘liqdir.

Jangovar ruh, harbiy jamoalardagi inoqlik, o‘zaro madad ko‘rsatish odatining borligi, harbiy xizmatchilarning bir-biriga yordam qo‘lini cho‘zishi, hamkorlikda o‘quv-jangovar vazifalarni bajarishlari kabi harbiy, ijodiy, mahnaviy muhit hukm suradigan jamoalarda shakllanadi.

Xulosa. Yuqorida bildirilgan fikrlardan kelib chiqib, xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, harbiy xizmatchilar dunyoqarashida buyuk tarix, milliy urf-odat, anhana va qadriyatlarining jamiyat hayotidagi o‘rni hamda ahamiyatini chuqur bilish, ulug‘ sarkardalar va zamondosh qahramonlarning ibratli hayotlarini o‘rganish hamda ulardan saboq olish asosida milliy ruh shakllanadi va yuksaladi. Hozirgi murakkab sharoitda harbiy xizmatchilarda jangovor ruh, vatanparvarlik fazilatlarini va qatg‘iy fuqarolik pozitsiyasini yuksaltirish, ular ongida vatan sarhadlarini himoya qilishga oqilona yondashuvni shakllantirish mamlakatda tinchlik va barqarorlikni asrash hamda saqlash omili bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 8 sentyabrdagi “Harbiy xizmatchilarning axloqiy-ruhiy tayyorgarligi va jangovar ruhini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-371 sonli Qarori.

2. SH. Mirziyoev Yangi O‘zbekiston Strategiyasi. –T.: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021. - B.464.

3. SH. Mirziyoev Qurolli Kuchlarni rivojlantirish borasidagi ishlarni sarhisob qilish, yangi vazifalar belgilash /O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni SHavkat Mirziyoevning Xavfsizlik Kengashining navbatdagi yig‘ilishidagi mahruzasi. www.gazeta.uz.xavfsizlik-kengashi.2021.

4. Mirziyoev SH. Milliy armiya va xalqimiz qancha yaqin, bir tanu bir jon bo'lsa, shuncha qadri bo'ladi /Qurolli Kuchlar tashkil topganligining 27 yilligi munosabati bilan bir guruh harbiy xizmatchilar, huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarini harbiy unvon, orden va medallar bilan taqdirlash marosimida Prezident Shavkat Mirziyoevning so'zlagan nutqi. www.gazeta.uz.xavfsizkik-kengashi. 2019.

PEDAGOGIK MAHORATNI EGALLASH VOSITALARI

Ikramova M.A. – Buxoro Psixologiya va xorijiy tillar instituti psixologiya kafedrasi tayanch doktoranti.

O'qituvchi barkamol avlodni tarbiyalash jarayonida ishtirok etar ekan, nafaqat ma'naviy-axloqiy madaniyati bilan atrofdagilarga o'mak bo'lishi, shu bilan birga, pedagogik mahorat qirralaini namoyon eta olishi, yetuk O'qituvchi sifatida barkamol insonni tarbiyalashga, yuqori malakali kadrlarni tayyorlash ishiga o'zining munosib hissasini qo'shishi zarur. Pedagogik mahorat - yuksak pedagogik tafakkur, ta'lim-tarbiya jarayoniga ongli, ijodiy vondashuv, metodik bilimlarni samarali qo'llay olish qobiliyati bo'lib. u doimiy ravishda pedagogik bilimlarni oshirib borish, o'tmish qadriyatlarini, O'rta Osiyo mutafakkirlari ijodiy merosida yoritilgan murabbiyiyatni tayyorlash to'g'risidagi ma'lumotlar hamda zamonaviy axborot texnologiyalari, portal yangiliklaridan xabardor bo'lish, ilg'or xorijiy davlatlarning o'qituvchilar tayyorlash texnologiyalarini nazariy jihatdan o'rganish jarayonida tarkib topadi. Yosh o'qituvchilarning, shuningdek, ta'lim muassasasida bir necha yillik mehnat stajiga ega bo'lgan o'qituvchilarning pedagogik mahoratga ega bo'lishlari o'zlarini kasbiy jihatdan takomillashtirib borish yo'lida bir qator shartlarga amal qilishi hisobiga rivojlanib boradi. Ularni quyidagi vositalar asosida yanada rivojlantirish mumkin:

1. Mustaqil o'qib-o'rganish (pedagogika fanida ro'y berayotgan eng so'nggi yangiliklar haqida ma'lumotlarni beruvchi yangi adabiyotlar, Internet materiallari, portal tizimi, vaqtli matbuot sahifalarida chop etilayotgan ma'lumotlar, shuningdek, ilg'or texnologiyalar bilan tanishib borish, ularda ilgari surilayotgan g'oyalarni umumlashtirish, xulosalash asosida mustaqil loyihalarni tayyorlash)[1; 20-29].

2. Tajribali ustoz o'qituvchilar faoliyatini o'rganish (ta'lim muassasasidan chetga chiqmagan holda tashkil etilib. vaqt va iqtisodiy nuqtai nazardan samarali sanaladi. Tajribali o'qituvchilar faoliyatini o'rganish, ular tomonidan tashkil etilayotgan mashg'ulotlarni kuzatish, tahlil qilish asosida amalga oshiriladi. Bu borada olingan taassurotlarni umumlashtirish asosida xulosa chiqarish maqsadga muvofiqdir).

3. O'qituvchi xodimlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish kurslari va institutlarida kasbiy malaka va ko'nikmalarni oshirib borish.

4. Doimiy ravishda ilmiy anjumanlar (nazariy va amaliy konferensiya hamda seminariyaning pedagogik o'qish hamda treninglar) da faol ishtirok etish.

5. Respublika hamda rivojlangan xorijiy mamlakatlarning yetakchi ta'lim muassasalarida o'z tajribalarini oshirish, kasbi bo'yicha eng so'nggi ma'lumotlarni o'rganish.

Pedagogik mahoratni egallashda guruhli va ommaviy tadbirlarda ishtirok etish ijobiy natijalar beradi. Binobarin, bunday muhitda o'zaro fikr almashish, shaxsiy mulohazalami boshqalar tomonidan bildirilayotgan qarashlar bilan taqqoslab, ularning to'g'riligi, haqqoniyligiga ishonch hosil qilish, mavjud bilimlarni yanada boyitish, xato yoki kamchiliklarni o'z vaqtida aniqlash hamda ularni bartaraf etish yo'larni topish imkoniyati mavjud. Pedagogik mahoratga ega bo'lish ta'lim-tarbiya samaradorligini ta'minlash garovi bo'lgina qolmay, ayni vaqtda o'qituvchilarning jamoada, ijtimoiy muhitda obro'-e'tiborini oshiradi, o'quvchilar orasida unga nisbatan hurmat yuzaga keladi. Kasbiy mahoratni oshirish yo'lida amaliy harakatlarni tashkil etish pedagogik faoliyatda yo'l qo'yilgan yoki qo'yilayotgan xatolardan holi bo'lish, o'quvchilar, hamkasblar hamda ota-onalar bilan munosabatda muvaffaqiyadarga erishish imkoniyatini yaratadi. Hozirgi paytda O'zbekiston Respublikasida yosh o'qituvchilarning kasbiy mahorati, bilim va ko'nikmalarini muntazam oshirib borish maqsadida qizg'in faoliyat olib borilmoqda.

Xususan, O'zbekiston xalq ta'limi vazirligi hamda Osiyo taraqqiyot banki bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan "Ta'lim sektorini rivojlantirish dasturi" loyihasi doirasida respublika hududlarida masofadan o'qitishning "Ta'lim-resurs" Markazlari tashkil etilgan. Ushbu faoliyat natijasida yosh o'qituvchilarning xorijiy mamlakatlarda kasbiy malakalarini oshirish imkoniyati tug'ildi. Maktablarga yosh o'qituvchilarni jalb etish va ularga har tomonlama amaliy yordam berish, ta'lim-tarbiya jarayoniga ilg'or va zamonaviy texnologiyalarni joriy etishga ko'maklashish maqsadida 2009-yildan boshlab "Respublika yosh o'qituvchilar assotsiatsiyasi" o'z faoliyatini boshladi.

Mustaqillikka erishgach, 1 oktyabr - O'qituvchi va murabbiylar kuni umumxalq bayrami sifatida keng nishonlanadi. Mamlakatimizda an'anaviy ravishda "Yilning eng yaxshi pedagogi" Respublika ko'rik-tanlovi o'tkazilib kelinmoqda. Umumta'lim maktablarida faoliyat ko'rsatayotgan pedagog xodimlar orasidan ilg'or va tashabbuskor o'qituvchilar aniqlanib rag'batlantirilishi, yosh o'qituvchilarda o'z kasbiga nisbatan hurmat va ehtirom uyg'otadi. www.ziyouz.com kutubxonasi 2006-yildan boshlab esa, "Yilning eng yaxshi fan o'qituvchisi" ko'ri tanlovi o'tkazilib kelinmoqda. [2; 31-61]

"Yil maktabi" - Respublika ko'rik-tanlovi o'qituvchilarga jamoa asosida ta'lim muassasasida qo'lga kiritilayotgan yutuqlarni targ'ib etish uchun sharoit yaratmoqda. Shuningdek, mustaqillik yillarida respublika xalq ta'limi tizimida 3425 nafar o'qituvchi va murabbiylar pedagogik faoliyatda ulkan yutuqlari qo'lga kiritganlari va fidokorona melmatlari uchun turli davl; mukofotlari va unvonlari bilan taqdirlandilar. Barkamol avlodga ta'lim va tarbiya berishda cheksiz matonatlar uchun ustoz o'qituvchilardan olti nafari "O'zbekiston Qahramoni" unvoni bilan, 302 nafari "O'zbekiston Respublikasi xalq o'qituvchisi" va 31 nafari "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan xalq ta'limi xodimi" faxri unvonlariga sazovor bo'lganlar, 101 nafari "El-yurt hurmati", 21 nafa "Fidokorona xizmatlari uchun" ordeni bilan, 1229 nafari "Shuhrat medali bilan taqdirlanganlar.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da alohida ta'kidlangan milli model O'zbekiston Respublikasining milliy-hududiy xususiyatlarini inobatga olish hamda ilg'or fan, texnika va texnologiya yutuqlari asosida tayyorlangan kadr (mutaxassis) -

barkamol inson va yetuk mutaxass qiyofasini o'zida to'laqonli aks ettiruvchi namunadir. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni hamc «Kadrlar tayy orlash milliy dasturi» g'oyalarini amalga oshirish jaray< nida asosan o'qituvchi kadrlaming roli nihoyatda beqiyos. XXI a; bolasini o'qitish va tarbiyalash, ularni barkamol inson va yetuk malaka mutaxassis kadrlar darajasiga etkazish vazifasini faqat yuksak tajribaj ega XXI asr o'qituvchisigina uddalay oladi.[3; 99]

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining 'Ta'lim to'g'risida"gi qonuni. //Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. -T. Sharq, 1997, 20-29 betlar.
2. O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasti to'g'risida"gi qonuni. //Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotini poydevori. -T. Sharq, 1997,31-61 betlar.
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch. -T.: Ma'naviyat, 2009. - 176 b.
4. Abdullayev H. Yashil daftar hikmati. -Toshkent, O'qituvchi, 2000.
5. Barkamol avlod orzusi. - T.. "O'zbekiston Milliy Eensiklof diyasi", 2000 y.
6. Omonov N.T. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. - ' Iqtisod-moliya. 2009. - 240 b.
7. Ochilov M., Ochilova N. O'qituvchi odobi. //Saylanma. - O'qituvchi, 1997. - 118 b.
8. Sultonova G.A. Pedagogik mahorat. - T.: Nizomiv nomli TDP 2005.-149 b.

KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI BOLALARDA QO'RQUVLAR VA ULARNING PAYDO BO'LISHI

*Ilxomova Mohira Ilg'or qizi –
O'zbekiston Milliy Universiteti magistranti*

Kichik maktab yoshi – bu bolaning shaxsiyati bilan sodir bo'ladidigan ijobiy o'zgarishlar davri. Undan tashqari bu yosh bosqichida har bir bola tomonidan erishiladigan yutuqlar darajasi uning kelajak xayot boskichlari uchun juda muhimdir. Aynan shu yoshda bola bilish quvonchini his qilishi, ko'rvuv va tazyiqlardan, emotsional zo'riqishlardan xoli bo'lishi kerak. [1]Bu uning kelajakda qobiliyatlari va imkoniyatlariga ishonch hosil qilishiga, sog'lom psixo-emotsional rivojlanishi, o'smirlik davri qiyinchiliklariga kurashuvchanlik va mustaxkam iroda shakillanishiga sababchi bo'ladi.

E.P.Ilin:" qo'rquv–bu odam yoki hayvonning sog'lig'i va farovonligi uchun haqiqiy yoki xayoliy xavfni boshdan kechirganda himoya biologik reaksiyasini aks ettiruvchi hissiy holat ". [2]

Qo'rquv bolaning hayotida muhim rol o'ynaydi. Bir tomondan, bu bolani xavfli va o'ylamasdan qilinadigan harakatlardan himoya qilsa, boshqa tomondan esa doimiy qo'rquvlar bola shaxsiyatining rivojlanishini kechiktiradi, ijodiy faoliyatni

qoloqlashishiga sabab bo'ladi, o'zini o'zi past baholash va tashvishning kuchayishiga sabab bo'ladi.

Bolalik qo'rquvi-bu bolalarning tahdid holatiga (haqiqiy yoki xayoliy) yoki bolalar ongida xavfli bo'lgan narsaga, ular tomonidan noqulaylik, qochish yoki yashirish istagi sifatida boshdan kechirgan hissiy reaksiyalari. Qo'rquv hissi yoshi, jinsi va psixofiziologik xususiyatlaridan qat'i nazar, barcha odamlar tomonidan boshdan kechiriladi. Ishonchsizlik qo'rquvning ildizida. Muammo shundaki, bolalar tashvish va xavotirni kattalarga qaraganda ancha kuchli va qiyinroq his qilishadi va boshdan kechirishadi, kattalar esa ko'pincha bolalarning qo'rquviga unchalik ahamiyat bermaydilar. Bola vaziyatni ob'ektiv va adekvat ko'rib chiqa olmaydi va uning oldida paydo bo'lgan qo'rquvni baholay olmaydi.[3]

Xulq-atvor nazariyalarida (G. Eysensk, A. Bandura, C. Spilberger, J. Uotson) qo'rquv insonning qo'rqinchli ob'ekt bilan o'zaro ta'sirining travmatik tajribasi natijasidir. Psixoanalitik yo'nalish doirasida asoschilari A. Adler, Z. Freyd va A. Freyd, G. S. Sallivan va boshqalar., qo'rquvning asosiy sababi birlamchi umumiy psixotravma hisoblanadi. Qo'rquv manbalari-bu bola hayotining dastlabki besh yilida oilada boshdan kechiradigan nomukammallik kompleksi, shuningdek atrof muxitdan kutiladigan taxdidlar.

Psixologiyada kichik maktab yoshidagi bolalarda qo'rquvini o'rganish dolzarb mavzu sifatida qarab kelinmoqda. Bolalar qo'rquvi muammosi xorijiy olimlar tomonidan o'rganilmoqda, masalan: S.Xoll, Z.Freyd, G.S.Sallivan; va mahalliy V.I.Garbusov, A.I.Zaxarov, N.G.Vologodina va boshqalar. o'rganishlar najasida qo'rquvning turlarini, ularning namoyon bo'lish sabablari va shakllarini aniqlamoqdalar. Ulardan bolalar psixologi A.I.Zaxarov quyidagi qo'rquv guruhlarini misol qilishimiz mumkin:

- "tibbiy" qo'rquv (og'riq, in'ektsiya, shifokorlar, kasalliklar);
- jismoniy zarar etkazish bilan bog'liq qo'rquvlar (kutilmagan tovushlar, transport, yong'in, olov, elementlar, urush);
- hayvonlar va turli yovuz niyatli multfilm qaxramonlaridan qo'rqish;
- ijtimoiy vositachilik qo'rquvlari (odamlar, bolalar, jazo, kechikish, yolg'izlik);
- o'lim qo'rquvi;
- fazoviy qo'rquvlar (balandliklar, suv, yopiq joy).
- qorong'ulikdan qo'rqish. [4]

Yuqorida sanab o'tilgan qo'rquvlarning kichik maktab yoshidagi bolalarda shakilanishi va ularning emosional xolatlarga ta'siri xaqida suz yuritar ekanmiz, avvalo bolalarda qo'rquvning kelib chiqish sabablarini o'rganish muxim hisoblanadi. Qo'rquv paydo bo'lishida oila a'zolari ya'ni ota-onalar, aka-uka, opa-singillar yoki tarbiyachi, o'qituvchilar tomonidan jazolanishlari, tazyiq o'tqazishlari va yolg'on qo'rqitishlari natijasida paydo bo'ladi. Bular esa bolalardagi agressiya va xavotirlilikning yuqori darajada bo'lishiga sabab bo'ladi.

Kichik maktab yoshidagi bolalarda o'quv jarayoni bilan bog'liq qo'rquv bolaga qo'yiladigan yangi talablar va ularni qondirish qobiliyati o'rtasidagi nomuvofiqlikdan xam kelib chiqadi. Maktabdagi qo'rquvlar doskaga chiqib javob berishdan hosil bo'lishi, xato qilish yoki o'qituvchining savolga javob bera olmay

qolishdan qoʻrqish, shuningdek tengdoshlarining tajovuz va taxqirlashlaridan qoʻrqishdan paydo boʻlishi mumkin. Bu bolada emotsional stressni keltirib chiqarishi mumkin. Bu xolatning uzoq vaqt davom etishi depressiv xoloatlarga ham sabab boʻlishi mumkin.

Kichik maktab yoshida oʻzini himoya qilish instinktiga asoslangan tabiiy qoʻrquvlar murakkabroq va aniqlash qiyinroq boʻlgan ijtimoiy qoʻrquvlar bilan almashtiriladi.

Kichik maktab yoshidagi bolalarda qoʻrquvning koʻproq turi boʻlishi uning rivojlanishi va psixik va emosional farovonligiga salbiy taʼsir qiladi. Qoʻrquv ijtimoiy muloqotga kirishishga va oʻquv materialini oʻzlashtirishga toʻsqinlik qiladi. Bu uning jismoniy va psixologik salomatligiga ham salbiy taʼsir qiladi. Davomiy qoʻrquvlar ijodiy energiyani cheklaydi, noaniqlik va kuchli xavotirning shakllanishiga asos boʻladi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. «Umumiy psixologiya» Ergash Gʻoziyev 2010-y
2. Ильин Е.П. Психология страха. СПб.: Питер, 2017. - 288с.
3. Бахтина С.В., Антонова О.В., Розина А.В. Детские страхи: специфика и факторы формирования. Наукосфера. №12 (1), 2022 Психологические науки.
4. Оганесова Н. Л., Понаморёва Е.Ф. Причины возникновения детских страхов в младшем школьном возрасте. Наукосфера. №3 (2), 2022 Психологические науки. – С.148-152.

TEZKOR-QIDIRUV XODIMLARIDA MUVAFFAQIYATGA ERISHISH MOTIVLARI PSIXOLOGIK FENOMEN SIFATIDA

*Inoqov Baxtiyor Raximjonovich –
Surxondaryo viloyati IIB boshligʻining birinchi oʻrinbosari,
ilmiy tadqiqotchi, podpolkovnik*

Oʻzbekiston Respublikasida keyingi yillarda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning qudratini mustahkamlash borasida keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. «...tezkor-qidiruv va tergov faoliyati ustidan nazoratni kuchaytirish, fuqarolarning qadr-qimmatini va erkinligini samarali himoya qilishning taʼsirchan mexanizmlarini joriy etish», «...ichki ishlar organlari xodimlari uchun zarur boʻlgan yuksak vatanparvarlik va maʼnaviy-axloqiy fazilatlarga, dastlabki kasbiy bilim va koʻnikmalarga ega aqlan va jismonan yetuk yoshlarni tarbiyalash»[1] boʻyicha ustuvor vazifalarni amalga oshirishda ichki ishlar organi tizimiga kasbiy tanlov tizimini modernizatsiyalash va ichki ishlar organlari tezkor-qidiruv xizmati xodimlari kasbiy faoliyatida muvaffaqiyatga erishish motivlarining psixologik omillarini tadqiq etish yetarli asos boʻla oladi.

Tadqiqotni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalarni belgilab olish oʻrinli hisoblanadi:

ichki ishlar organlari xodimlarida muvaffaqiyatga erishish sifatleri namoyon bo'lishining psixologik xususiyatlarini aniqlashtirish;

ichki ishlar organlari xodimlarida muvaffaqiyatga erishishni amaliy tahlil etuvchi metodologik yondashuvlarni tahlil etish;

ichki ishlar organlari xodimlari kasbiy faoliyatida muvaffaqiyatga erishish jarayonining o'ziga xos xususiyatlarini yoritish;

ichki ishlar organlari xodimlarida muvaffaqiyatga erishish va motivatsion xususiyatlarning o'zaro farqli jihatlarini asoslash, xulosa hamda amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish.

Shaxsning muvaffaqiyatga erishishi muammosiga bag'ishlangan Rossiya va xorijiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ushbu sohadagi nazariy qarashlar, shuningdek, empirik tadqiqotlar fanda turli jihatlariga ega va mualliflarning ushbu hodisaga turli xil yondashuvlari va qarashlarini aks ettiradi. Ushbu qarashlar, yondashuvlar, metodikalar polifoniyasining ilm-fandagi aksi sifatida "shaxsning muvaffaqiyatga erishishi" tushunchasiga turli xil ta'riflar mavjud. Mahalliy psixologlarning ilmiy ishlarida muvaffaqiyatga erishish doirasida shaxs rivojlanishi jarayonini ta'riflash uchun turli atamalardan foydalaniladi «professionalizatsiya», «muvaffaqiyatga erishish», «shaxs shakllanishi», shuningdek, inson tomonidan kasbiy faoliyatni egallash jarayonining mazmunini va tarkibiy qismlarini aniqlashda birlik mavjud emas. Mazkur muammoni o'rganuvchi har bir tadqiqotchi tadqiqotning obyektini va maqsadiga bog'liq ravishda muvaffaqiyatga erishish, shaxsning shakllanishi va rivojlanishi bo'yicha o'z tushuncha va qarashlarini beradi.

Rus psixologlarining shaxsni rivojlantirish haqidagi nazariy g'oyalarini umumlashtirib, xulosa qilishimiz mumkinki, ushbu toifa "umuman olganda, insonning tizimli sifatidagi progressiv o'zgarishlar, uning paydo bo'lishi va rivojlanishi tashqi sharoitlar (ijtimoiy vaziyat va faoliyat) va shaxsning ichki biopsixik funksiyalarining o'zaro ta'siri bilan belgilanadi». Ushbu o'zaro ta'sirning natijasida psixologik yangiliklar yuzaga keladi.

Muvaffaqiyatga erishishning harakatlantiruvchi kuchlari, ularning tashqi va ichki manbalari – bu boshqa masala. Psixologiyani birinchi navbatda harakatlantiruvchi kuchlardan maqsadli foydalanish qiziqtiradi. Ushbu pozitsiyalardan shaxsning psixologik shakllanishi u bilan birgalikda ishlashning psixologik tizimini tashkil etish va amalga oshirish, uning o'zini o'zi shakllantirishga ko'maklashish va buning uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishdir.

A.V.Petrovning fikricha, «shaxs shakllanishi atamasi ikki xil ma'noga ega birinchidan, bu shaxsning rivojlanishi, bu rivojlanish jarayoni va natijasini anglatadi, ikkinchidan, bu maqsadli tarbiyani anglatadi (shakllanish, shakllantirish, loyihalash, modellashtirish va hokazo.)»[2,45]. Shuning uchun shaxs shakllanishi deganda ma'lum bilimlar, ko'nikmalar, malakalar, munosabatlar, qadriyat yo'nalishlari, ijtimoiy va kasbiy ahamiyatga ega sifatlar hamda boshqalar tizimini yaratish maqsadida shaxsga ijtimoiy ta'sir ko'rsatish usullari va vositalari majmui tushunilishi kerak.

Rus olimi S.L.Rubinshteynning ta'kidlashicha, shaxsning kasbiy faoliyati samaradorligini belgilovchi va uning o'quv jarayonida muvaffaqiyatli muvaffaqiyatga erishishining asosini tashkil etuvchi asosiy tarkibiy qismlardan biri

bu kasbiy yaroqlilikdir[3,463]. Kasbiy yaroqlilik deganda shaxsning o'ziga xos psixologik xususiyatlari majmui bo'lib, faoliyatning o'zida shakllanadigan ijtimoiy zarur xizmat samaradorligi va o'z kasbidan qoniqishni ta'minlaydigan shaxs sifati tushuniladi.

Hozirgi zamon olimlarning ta'kidlashicha, mutaxassisning shakllanishi bir qator shaxsiy fazilatlarni, ularning ahamiyatini va kasbiy vazifalarini hal qilishda harakat xususiyatini o'zgartirish orqali sodir bo'ladi. Shaxsning muvaffaqiyatga erishishining muhim sharti, ularning fikriga ko'ra, uning ichki muhitidir. Ularning afzalliklari va kamchiliklarini anglab, ularni faoliyat talablari va uzoq muddatli maqsadlari bilan taqqoslab, inson o'zini o'zi rivojlantiradi, o'zining muvaffaqiyatga erishish subyektiga aylanadi.

Mavzuga oid adabiyotlarni tahlil qilganimizda ichki ishlar organi xodimlarini tayyorlashda ikkita qarama-qarshi tendensiyani guvohi bo'lishimiz mumkin. Ular fundamentalizatsiya va professionalizatsiyadir, ammo ular bir-birini to'ldiradi degan xulosa qilishimiz o'rinlidir. Chunki, olingan fundamental bilimlar ma'lum bir professionallik darajasini ta'minlagan holda amalda foydali chiqish ehtimoli yuqoridir. Aksincha, agar fundamental tayyorgarlik yetarli bo'lmasa, professionalizatsiya jarayoni to'xtab qolishi mumkin. Shuning uchun professionallikni rivojlantirgan bilimlar, ko'nikmalar, malakalar, usullar va dasturlar to'plami xizmat vazifalarini bajarish samaradorligini ta'minlaydigan psixologik xususiyatlar va shaxsiy fazilatlar sifatida o'rganib chiqish muhim hisoblanadi.

Rus olimi S.L.Rubinshteynning ta'kidlashicha, shaxsning kasbiy faoliyati samaradorligini belgilovchi va uning o'quv jarayonida muvaffaqiyatli muvaffaqiyatga erishishining asosini tashkil etuvchi asosiy tarkibiy qismlardan biri bu kasbiy yaroqlilikdir[4,463]. Kasbiy yaroqlilik deganda shaxsning o'ziga xos psixologik xususiyatlari majmui bo'lib, faoliyatning o'zida shakllanadigan ijtimoiy zarur xizmat samaradorligi va o'z kasbidan qoniqishni ta'minlaydigan shaxs sifati tushuniladi.

Kasbiy yuksalish, ya'ni professionallik «acme» o'z-o'zini bilish va kasblar dunyosini o'rganish bilan boshlanadi. Ongli, asosli, puxta o'ylangan professional tanlov shaxsning optimal muvaffaqiyatga erishishining tayanch tushunchasidir. Shaxsning kasbiy o'zini o'zi aniqlashi insonning kasbiy o'zini o'zi anglash sohasini tavsiflaydi, bu uning qadriyatlari dinamikasi bilan bog'liqdir. Rus olimlari T.Kudryavsev va V.Shegurovalar kasbiy jarayonlarni o'rganishda ushbu konsepsiyaning o'rni va roliga umumiy baho berib[5,51], ularning ta'kidlashicha kasbiy o'zini o'zi aniqlash - «shaxs faoliyatining yadrosi», ya'ni shaxs muvaffaqiyatga erishishining eng muhim komponenti sifatida qaraladi.

Tadqiqotimizning asosiy o'zagi sifatida, tezkor-qidiruv xodimlarida muvaffaqiyatga erishish muammosini ilmiy asoslash, ularda namoyon bo'lgan xulqning shakllanishida uning qaysi xususiyatlari yetakchilik qilganligi, u yoki bu hatti-harakatlarni sodir etishda nimalarga asoslanganligini aniqlash muhim ahamiyat kasb etib, empirik jihatdan o'z tasdig'ini topishi lozim bo'lgan xulosalar bilan asoslanishi muhim hisoblanadi.

Shaxs xususiyatlari va psixik taraqqiyot darajasini aniqlash uchun turli eksperimental psixologik metodlardan foydalaniladi. Psixologik tadqiqotlarda

foydalaniladigan metodikalar u yoki bu faoliyat jarayonida shaxs psixik xususiyatlarining namoyon bo'lishini aniqlashdan iborat. Eksperimental metodikalarni ishlab chiqish va o'tkazish psixolog hamda tadqiqotchilarning asosiy vazifasidir. Eksperimental topshiriqlar majmui shaxs psixik taraqqiyoti, uning aqliy darajasi hamda individual-psixologik xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan.

Umumiy xulosa qilib aytganda, yuqori kasbiy motivatsiyaga ega bo'lgan tezkor-qidiruv hodimlari, turli sharoitlarda o'zining funksional vazifalarini barqaror va samarali bajarishlari aniqlandi. Tezkor-qidiruv xodimlarining kasbiy muvaffaqiyatga erishish darajasi barcha tarkibiy qismlar bilan bog'liq hisoblanib, uning natijasi tarbiyaviy ishlardagi faollik, xizmat faoliyatidagi samarali faoliyat olib borish ishlari bilan izohlanishi ehtimoldan holi emas.

Foydalanilgan adabiyotlar ruyxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli «2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni.

2. Петров А.В., Психология развивающейся личности / Под ред. А.В.Петровского. М., 1987. - С. 45.

3. Дружинин В.Н. Особенности перестройки мотивационной подсистемы личности в процессе профессиональной подготовки//Проблемы индустриальной психологии. - Ярославль, 1981. – С. 128.

4. Рубинштейн С.Л. Избранные философско-психологические труды. М.: Наука, 1997. – С. 463.

5. Кудрявцев Т.В., Шегурова В.Ю., Психологический анализ динамики профессионального самоопределения личности. // Вопросы психологии. - 1983.-№2. - С. 51-59.

ЁШЛАРДА КИТОБХОНЛИК МАДАНИЯТИНИ ШАКЛЛАНТИРИШДА АХБОРОТ-КОММУНИКАЦИЯ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИДАН ФЙДАЛАНИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ

*Исмаилова Нулуфар –
ИИВ Академияси Хизмат психологияси ва
касбий маданияти кафедраси ўМК бошлиғи,
мустақил тадқиқотчи, майор
ismailova_nilufar@internet.ru*

Дунёда кескин ижтимоий-сиёсий ўзгаришлар рўй бераётган бугунги кунда шахс маънавияти, айниқса ёшларга берилаётган таълим-тарбиянинг туб моҳиятига алоҳида эътибор қаратиш муҳим аҳамият касб этаётганлигини кўришимиз мумкин. Сизу биз яшаб турган бугунги даврда маънавият, маънавий тарбия, миллий кадрият тушунчалари юксак ахборот технологияларининг жадал тараққий этиши билан уйғун тарзда ҳаётимиздан ўз ўрнини эгаллаб бормоқда.

Маънавийт масаласи кеча ёки бугун пайдо бўлган эмас. Кишилик жамияти бор экан, бунга эҳтиёж сезилади. Фақат ҳар бир давр, замоннинг ўз маънавий қадриятлари, талаблари, қарашлари бўлади. Гап бу жараёнда ўзлигимизни сақлаб қолиш, ҳар соҳада фаол, қизиқувчан, шу билан бирга ўзгарувчан ёшларимизни турли ахборот хуружлари ва таъсирларидан ҳамда ёт ғоялардан ҳимоялашимиздадир. Бу борада Президентининг 2018 йил 14 августдаги “Ёшларни маънавий-ахлоқий ва жисмоний баркамол этиб тарбиялаш, уларга таълим-тарбия бериш тизимини сифат жиҳатидан янги босқичга кўтариш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-3907 сон қарори ҳамда ислохотларнинг давоми сифатида Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 31 декабрдаги 1059-сон қарори билан тасдиқланган “Узлуксиз маънавий тарбия концепцияси”нинг қабул қилиниши, Ватанга садоқат, бурч ва масъулият, ташаббускорлик ва бошқа фазилатларни ёшлар онгида фақат назарий тушунчалар сифатида қолиб кетмаслигини, аксинча маънавий-ахлоқий тарбия мавзусининг яна асосий ўринда эканлигини тасдиқлайди. [Расулов М.К. 4]

Бугун юртимизда ёш авлодни ҳар томонлама комил инсон этиб тарбиялаш, уларнинг улуғ аجدодларимизга муносиб ворислар этиб вояга етишларида барча имкониятлар яратиб келинмоқда. Юртимизнинг турли ҳудудларида янгидан барпо этилаётган таълим муассасалари, кутубхоналар, спорт иншоотлари ва яратилаётган барча имкониятлар ёшларимизнинг жисмонан соғлом, маънавий етук шахс бўлиб камол топишига хизмат қилмоқда. Булар орасида айниқса, ёшларни бўш вақтини мазмунли ташкил этиш, ахборот олиш ва илм йўлида изланишларни амалга оширишда кутубхоналарнинг ўрни беқиёсдир. Бунга мисол тариқасида Ўзбекистоннинг энг йирик кутубхоналари – Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, Ўзбекистон Фанлар академияси фундаментал кутубхонаси, Республика илмий-техника ҳамда Давлат илмий-тиббиёт кутубхоналарида китобхонларга масофавий хизмат кўрсатиш ишлари амалга ошириб келинмоқда. [Хакимова М.С. 4] Ушбу кутубхоналарда китобхон (фойдаланувчи)ларга ахборот-коммуникация технологияларидан фойдаланган ҳолда хизмат кўрсатишнинг икки хил хусусиятини санаб ўтиш мумкин.

Биринчидан, китобхонларга масофавий хизмат кўрсатиш ва электрон китоблар мутолаасининг ривожланиши китобхонлар аудиторияси трансформацияси ва “кутубхона-китобхон” тизимида турли ёш ва характердаги ёшлар учун айнан ягона хизматлардан фойдаланишнинг бир хил имкониятини таъминланмоқда.

Иккинчидан, кутубхоналарнинг ижтимоий функциялари аввалгидек сақланиб, фойдаланувчи ишончини оқлаш, унинг ахборот талабларини қондириш, ахборотнинг жойлашган манзилдан қатъий назар, унга фойдаланиш учун тақдим этиш, яъни очиқлик, тезкорлик ва ташувчанлик хусусиятлари янги босқичга кўтарилмоқда. Шу билан бирга, китобхон ёшларнинг ахборот-коммуникация тизимлари ва тармоқларидан фойдаланиш кўникмалари тобора мустаҳкамлаш, адабиётлар билан танишиб чиқиш,

кўчириб олиш, сақлаш, истаган вақтда қайта муружат қилиш ва мустақил мутолаа қобилиятларини шакллантиришга хизмат қилмоқда.

Шахсининг китобхонлик маданиятини шакллантириш бугунги кунда кутубхона ва таълим муассасалари амалий фаолиятининг муҳим йўналишларидан бирини ташкил этади. “Ахборот маданияти асослари”, “Ахборот технологиялари асоси” каби фанлар деярли барча таълим муассасаларида муваффақиятли ўқитилмоқда. Кутубхоналарда эса барча китобларни электрон шаклга ўтказиш, электрон маълумотлар базасини яратиш ва тўлдириб бориш жараёни жадаллик билан амалга ошириб келинмоқда. Ёшларнинг китобхонлик маданияти даражасини аниқлаш истагида тадқиқотчилар томонидан ҳар йили турли хил сўровнома, анкета ва интервьюлар ўтказилади. Изланишлар натижасида ёшларнинг анъанавий китоблар билан бирга электрон китобларни ўқиш истаги ҳам борлиги, улар учун бу қулайлик ва вақт тежамкорлиги яратиб бераётганлиги маълум бўлади. Нуфузли хорижий университетларнинг бирида ўтказилган сўровномада талабалар имтиҳонларга тайёргарлик кўришда анъанавий дарсликлардан фойдаланишни афзал кўрганликлари – 79 фоизни ташкил этган бўлсада, ўқув материалларининг мураккаблик даражасига қараб электрон китоблардан фойдаланиш тарафдори эканликларини маълум қилишган.

Мамлакатимизда 28-30 ёшдан катта бўлган кишилар интернет тармоғидан қандай ахборот олиш ва уни ўз фикрига эга бўлган ҳолда қабул қилиб, ахборотнинг ҳар қандай хуружидан ҳимоялана олади.

Бунинг учун:

- ёшлар билан мунтазам мулоқотда бўлиш;
- интернет тармоғини миллий қадрият ва анъаналаримизни ўзида акс эттирувчи веб-сайтлар билан бойитиш;
- таълим муассасаларини интернет тармоқига улашда одоб-ахлоқ қоидаларига мувофиқ бўлмаган сайтлардан фойдаланишга чекловларни жорий этиш;
- ёшларда ахборот ресурсларидан фойдаланиш маданиятини шакллантириш вояга етмаган ёшларга оид миллий қонунчилигимизга маънавий таҳдидлар, ахборот хуружларининг олдини олишга қаратилган зарур ўзгартиш ҳамда кўшимчалар киритиш керак. [Ганиева Б.И. 15]

Мамлакатимизда аҳоли ва айниқса ёшларимиз учун ахборот ресурслари, жумладан Интернет глобал тармоғидан фойдаланиш борасида кенг имкониятлар яратилганлигини таъкидлаш билан бирга, жамият ривожланишининг ахборот босқичига кириши инсон катта ҳажмдаги ахборотни қабул қилиш ва уни қайта ишлаш ҳамда фойдаланишнинг ҳозирги замон воситалари ва усулларини эгаллашга том маънода тайёр эмаслигини ҳам кўрсатиб қўйди. Ахборотлаштириш асрида ахборот хуружининг авж олиши айниқса ёшларда ахборот олиш маданияти, ўқиш маданиятини шакллантиришни тақозо этади. Ахборот маданияти эса кутубхона - библиография саводхонлиги, китобхонлик маданияти ва компьютер саводхонлиги каби асосий устунлардан ташкил топади.

Бугунги кунда юртимизда китобхонлик сифат жиҳатдан янги босқичга кўтарилмоқда. Ёшлар маънавияти тадрижий ривожланиб боровчи фаол жараёнدير. Шу жиҳатдан китобхонликни шакллантиришда ахборот-коммуникация технологияларининг барча имкониятларидан кенг фойдаланиш мақсадга мувофиқ. Шарқ мутафаккирларининг тажрибасига кўра, китобхон қайси мавзуга қизиқса шу мавзудаги китобни тақдим қилиш, китоб ўқишга кўникма ҳосил қилгач эса аста-секин унга ихтисослашган китоблар тақдим қилиб борилади. Ушбу тажрибага кўшимча равишда агар ёшлар адабиётларни электрон шаклда ўқишга қизиқса, шу кўринишда мутолаа этиши ва китобхонлик маданиятини шакллантириб бориши мақсадга мувофиқдир.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Расулов М.К. Маънавий-ахлоқий тарбия - мафкуравий таҳдидларга қарши курашишда энг кучли омил // Тафаккур манзили. - Т., 2022. – авг. – Б.172-175

2. Ганиева Б.И. Талабаларда ахборот олиш маданиятини шакллантиришнинг муҳим йўналишлари // Иқтисодиётнинг реал тармоқларини инновацион ривожланишида ахборот–коммуникация технологияларининг аҳамияти республика илмий-техник анжуманининг маърузалар тўплами; 3-қисм.- 6-7 апр. 2017. - Т.- Б. 15-17.

3. Хақимова М.С. Электрон ахборот - кутубхона тизимларидан фойдаланиш // Science and innovation: international scientific journal. – 2022. – №2 [<https://doi.org/10.5281/zenodo.6636271>] ISSN: 2181-3337.-P.157-162.

O‘SMIRLIK YOSHIDAGI O‘G‘IL VA QIZLARNING O‘ZIGA XOS PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI O‘SMIRLIK DAVRI HAQIDA TUSHUNCHA

*Ismoilova Zarnigor Tolib qizi –
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti talabasi*

Bu davrda bola yuridik shaxs hisoblanib, ovoz berish huquqiga ega bo‘ladi. Mabodo bu davrda o‘smir ota-onasi ajralib ketgudek bo‘lsa, bu holatda o‘smirning qayerda va kim bilan qolishi bola xohishiga qarab hal etiladi. Shuningdek bola bu davrda o‘z imkoniyatidan kelib chiqqan holda rasmiy ravishda jismoniy mehnat bilan shug‘ullanishi ham mumkin. Lozim bo‘lsa, ulardan o‘z xatti- harakati, qiliqlari uchun javob berishi ham talab qilinadi. Shu kabi huquqiy imkoniyatlarga ega bo‘lish va bundan o‘smirning xabardorligi uning huquqiy avtonomiyasining yuzaga kelishini ta‘minlaydi. Bunday avtonomiyaga ega bo‘lish o‘smirda o‘z xatti-harakati uchun javobgarlik, mas’uliyatlilik hissini yuzaga keltiradi.

Bular: chaqaloqlik, ilk bolalik, maktabgacha ta‘lim yoshi, kichik maktab yoshi, o‘smirlik, ilk yoshlik, yoshlik, yetuklik va keksalik davrlaridir. Bu davrlarning har biri o‘ziga xos xususiyatlarga, sifatlarga ega bo‘lib, ular bir-biridan odamning xronologik yosh ko‘rsatkichlariga ko‘ragina emas, balki shu davrda inson

ruhiyatida kechadigan hodisalar, ro'y beradigan o'zgarishlar, uning ruhiyatidagi umumiy qonuniyatlarga ko'ra ham farqlanadi.

Biz o'smirlik davri psixologiyasi haqida to'xtalib o'tamiz. O'smirlik davri insonni bolalikdan — yoshlikka o'tuvchi va o'z navbatida boshqa davrlardan o'zining nisbatan keskinroq, murakkabroq kechishi bilan farqlanib turuvchi davrdir. Bu davr taxminan bolalarning 5—8-sinflarda o'qish paytlariga to'g'ri keladi va 11—12 yoshdan 14—15 yoshgacha bo'lgan davr oralig'ida kechadi. Ayrim bolalarda bu davr 1—2 yil ertaroq yoki kechroq kuzatilishi ham mumkin. O'smirlik davri ayrim maxsus psixologik adabiyotlarda «*o'tish davri*», «*og'ir davr*», «*inqiroz davri*» kabi nomlar bilan ham ataladi. Bu davrning «og'irligi», «keskinligi», «murakkabligi» nimalar bilan asoslanadi? O'smirlik davrining og'ir, murakkab davr ekanligi ko'plab psixologik, fiziologik, ijtimoiy omillar bilan bog'liq. Bu davrda rivojlanishning barcha jihatlari: jismoniy, aqliy, axloqiy, ijtimoiy va shu kabilarning mazmun-mohiyati ham o'zgaradi. Bu davrda o'smir hayotida, uning ruhiyati, organizmining fiziologik holatlarida, uning ijtimoiy holatida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'ladi. Aksariyat holatlarda ularda bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan turli xil an'analar kuzatiladi. Bu davrga kelib bola endi «bola» emas va shu bilan birga hali «katta» ham emas. Uning o'z-o'ziga va atrofdagilarga nisbatan bo'lgan munosabatlari butunlay boshqacha xarakter kashf etib boradi. Uning qiziqishlari tizimi, ijtimoiy yo'nalganligi qaytadan shakllanadi, o'z-o'zini anglashi, baholashi, qadriyatlarini o'zgaradi. Uning uchun o'z «men»i va shu «men»ning ahamiyati ortadi.

O'smir organizmida ro'y beradigan o'zgarishlar shundan iboratki, bola rivojlanishining ayni shu davrida biologik, fiziologik yetukligi borasida tub o'zgarishlar amalga oshadi. Bo'yning o'sishi, vaznning ortishi, ko'krak qafasining kengayishi — bularning barchasi jismoniy rivojlanishning o'smirlik yoshiga xos xususiyatlaridir. Shular tufayli o'smirning tashqi ko'rinishi bolaning tashqi ko'rinishiga qaraganda farq qiladi: tana proporsiyasi kattalarga xos ko'rinishga ega bo'ladi. Shuningdek o'smirning yuz tuzilishi ham o'zgarib, bosh suyagining yuz qismi jadal rivojlana boradi. O'smirlik yoshida umurtqa pog'onasining o'sishi bo'yning o'sish tempidan orqada qoladi. Chunki 14 yoshgacha umurtqa pog'onalari o'rtasidagi oraliqlar tog'aylar bilan to'lgan bo'ladi, bu esa ortiqcha jismoniy zo'riqish, tana holatining noto'g'ri turishi tufayli umurtqa pog'onasining noto'g'ri rivojlanishga moyilligini bildiradi. Umurtqa rivojlanishini buzilishining eng ko'p holati 11—15 yoshlarga to'g'ri keladi va ayni shu yoshlarda ro'y berishi mumkin bo'lgan defektlarni ham bartaraf etish ham oson kechadi. 20—21 yoshlarga yetib tos suyaklarining o'sishi yakunlanadi (shu davrda qizlarning jinsiy organlari ham yetiladi). Muskul vazni va muskul kuchlarining ortishi jinsiy balog'atga yetishning oxirlarida nisbatan jadalroq amalga oshadi. Bunda o'g'il bolalarda muskullarning rivojlanishi erkaklarga xos tipda, qiz bolalarning yumshoq to'qimalari esa ayollarnikiga xos tipda amalga oshadi. Bu esa har bir jins vakiliga o'ziga xos erkaklik va ayollik sifatlarini beradi. Bu jarayonlarning nihoyasiga yetishi esa o'smirlik davridan keyin amalga oshadi. Muskul kuchlarining ortishi o'smir jismoniy imkoniyatlarini kengaytiradi. Buni bolalar juda yaxshi anglaydilar va ularning har biri uchun bu juda muhim ahamiyatga ega. Biroq o'smir muskullari kattalarnikiga qaraganda tez toliquvchan bo'ladi va davomli kuchlanishlarga dosh

berolmaydigan bo'ladi. Shuning uchun sport va jismoniy mehnat bilan shug'ullanishda buni inobatga olish lozim. Turli organ va to'qimalarning o'sishi yurak faoliyatiga ham yuqori talablar qo'yadi. O'z navbatida yurak ham qon tomirlariga qaraganda tezroq o'sadi. Bu jarayon yurak-qon tomir sistemasi faoliyatidagi funksional buzilishlarga sabab bo'lishi, yurak urishining tezlashishi, qon bosimining ortishi, bosh og'rig'i, bosh aylanishi, tez toliquvchanlik kabilar ko'rinishida namoyon bo'lishi mumkin.

Shuningdek, o'smirlik davrida ichki sekretsiya bezlari faoliyati bilan bog'liq ravishda organizmda keskin o'zgarishlar ro'y beradi. Ayniqsa qalqonsimon bez va jinsiy bezlar ajratib chiqaradigan gormonlar organizmda modda almashinishining katalizatori vazifasini bajaradi. Shuning uchun aqliy yoki jismoniy ortiqcha toliqish, uzoq muddatli asabiy zo'riqish, affektlar, kuchli salbiy hissiyotlar (qo'rqish, g'azab, xafagarchilik) endokrin buzilishlarga (menstrual siklning vaqtincha buzilishiga) va nerv sistemasi vazifasining buzilishiga sabab bo'lishi mumkin. Bunday buzilishlar ta'sirlanuvchanlikning ortishi, o'zini tuta bilmaslik, parishonxotirlik, ishda mahsuldorlikning pasayishi, uyquning buzilishi kabilarda namoyon bo'ladi. O'smirlik davrida endokrin va nerv sistemalari faoliyatining bolalik davrida mavjud bo'lgan muvozanati buziladi, yangisi esa endigina o'matilayotgan bo'ladi. Bunday qayta qurilishlar albatta o'smirning ichki holati, kayfiyati, ruhiyatiga ta'sir ko'rsatadi va ko'pincha uning umumiy noturg'unligiga, ta'sirlanuvchanligiga, serjahlligiga, harakat faolligiga, vaqti-vaqti bilan hamma narsalarga befarq bo'lib qolishligi va lanjligiga asos bo'ladi. Bunday holatlarning yuzaga kelishi ko'pincha qizlarda menstrual sikl boshlanishidan biroz oldinroq yoki sikl davrida ko'proq kuzatiladi. Jinsiy balog'atga yetish va jismoniy rivojlanishdagi o'sish o'smir ruhiyatida yangi psixologik tuzilishlarning yuzaga kelishida muhim ahamiyatga ega.

Birinchi, bu o'smir uchun juda sezilarli bo'lgan o'zgarishlar bo'lib, ular o'smirning katta bo'lganini his qilishining yuzaga kelishining obyektiv manbasi bo'lib xizmat qiladi (uning asosida o'smir o'zining kattalarga o'xshashligini his qiladi).

Ikkinchi, jinsiy balog'atga yetish boshqa jins vakiliga qiziqishni rivojlantiradi, yangi kechinma, hissiyot, tuyg'ularni yuzaga keltiradi. O'smirning ichki bandligi va yangi taassurotlar, kechinmalarga munosabati darajasi ularning o'smir hayotidagi o'rni keng ijtimoiy sharoitlar bilan, o'smir hayotining konkret individual sharoitlari, uning tarbiyasi va muloqoti xususiyatlari bilan belgilanadi. Bularning barchasi, shuningdek o'rtoqlari bilan sevgi va jins muammolari haqida gaplashishlari o'smirlarda odamlar munosabatlarining intim jihatlariga ko'tarinki qiziqishni yuzaga keltirishi, erotik an'analar va ilk seksuallikni rivojlantirishi mumkin. Har ikkala jins o'smirlari uchun bu davrda ilk romantik hislarning yuzaga kelishi «birinchi muhabbat»ga duch kelishi, birinchi bo'salarni olish kabilar me'yoriy hol hisoblanadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. G.Shoumarov, B.Umarov, F.Akromova. Yoshlarda xulq ogishi va tarbiya buzilishining oldini olish bo'yicha psixologik maslahatlar. Uslubiy qo'llanma. T- 2015.

2. N.G` .Komilova. Xulqi og`ishgan bolalar psixologiyasi. O`quv qo`llanma. T.- 2007.
3. O.Qodirova. B.Parmonov Xulqi og`ishgan bolalar psixologiyasi O`quvslubiy majmua Andijon-2019.
4. G`oziyev E. G. «Tarbiyasi «Kiyin» o`smirlar psixologiyasi». Lektorga yordam. Toshkent-1984.
5. Q.Raximova, A.Abdullaeva Tarbiyasi qiyin o`smirlar psixologiyasi FarDU: 2006 y.
6. Read more at: <https://minikar.ru/uz/zdorove/vospitanie-podrostkov/>.

**HARBIY TA'LIM MUASSALARIDA ZAMONAVIY TA'LIM TIZIMINI
TAKOMILLASHTIRISH UNING MUAMMOLARI VA ISTIQBOLI**

*Jamolov Azizjon Axmatovich –
O`zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar Akademiyasi
Harbiy xavfsizlik va davlat mudofaasi fakulteti
Sirtqi talimining harbiy pedagogika va psixologiya
mutaxassisligi bo`yicha 2- bosqich magistranti*

**Mening hamma istaklarim, butun vujudim ilm tarqatishga qaratilgan va men
buni o`zim uchun eng ulug` baxt deb bilaman.**

A.Beruniy

***Annotasiya.** Ushbu maqolada zamonaviy ta`lim tizimini takomillashtirish, o`quv-tarbiyaviy jarayonni samarali tashkillashtirish masalalari yoritilgan. Shuningdek, harbiy ta`lim muassasalarida ta`lim sifatini oshirish yo`lidagi muammolar, ularni bartaraf etish va istiqbolini belgilashga oid nazariy tahlili berilgan.*

***Kalit so`zlar.** Ta`lim, dunyoqarash, tarbiya, samarali, zamonaviy ta`lim jarayoni, g`arb ta`limoti, metodik ahamiyat.*

***Annotation.** This article describes the issues of improving the modern education system, effective organization of the educational process. Also, a theoretical analysis of the problems in the way of improving the quality of education in military educational institutions, their elimination and setting the perspective is given.*

***Key words:** Education, worldview, upbringing, effective, modern educational process, western education, methodical significance.*

Ma`lumki, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida zamonaviy bilim va yangicha yondoshuvlarga ehtiyoj mavjud. Shu bois, ta`lim sifatini oshirishda o`quv jarayonini davr talablariga mos ravishda tashkil etish, davlat ta`lim standarti va o`quv dasturlarini takomillashtirish, yangi avlod o`quv adabiyotlarini yaratish, zamonaviy innovasion pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish, mavjud muammolarni bartaraf etish istiqboldagi yutuqlarimiz kafolati hisoblanadi.

Ta'lim – kishilarda to'laqonli hayot kechirishlari va ma'naviy barkamol bo'lib yetishishlari yo'lida ularda zaruriy bilim, ko'nikma va malakalarni muttasil shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan uzluksiz jarayondir. Ta'limning asosiy maqsadi keng ilmiy dunyoqarash, chuqur bilimlar va ularni amaliyotda qo'llash malakasiga ega shaxsni tarbiyalashdan iborat. Bu jarayonning samaradorligi va maqsadga muvofiqligiga erishishda, avvalambor, quyidagi ikki savolga qanchalik to'g'ri javob topishga bevosita bog'liqdir:

1. Ta'lim oluvchilar (kursant)ga nimalarni o'rgatmoq kerak, yoki boshqacha aytganda, qanday bilimlar ta'lim oluvchilar (kursant) tomonidan o'zlashtirilishi zarur;

2. Zaruriy bilimlarni ta'lim oluvchilar (kursant) tez, oson va samarali o'zlashtirishi uchun ularni qanday usullarda yetkazmoq lozim;

Birinchiidan, bilimlar dunyosidagi zaruriy va ahamiyatli bilimlarni saralash, tanlab olishni va tahlil qilishni taqozo etadi. Bunda ta'lim oluvchilar (kursant)ga shunday bilimlar tizimi taklif qilinishi zarurki, bu bilimlar nafaqat o'z hayot yo'lini to'g'ri yo'lga qo'yishi va hayotiy muammolarni oqilona hal etishlariga, balki muayyan kasbning yetuk mutaxassislari bo'lib yetishishlariga kafolat bo'lib xizmat qilishi kerak bo'ladi.

Ikkinchiidan, bilimlar metodik ahamiyatga ega bo'lib, ta'lim jarayoniga yangicha ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llash orqali ta'lim oluvchilar (kursant)larga zaruriy axborotlarni o'qituvchi tomonidan qiziqtirish, jalb etish, rag'batlantirish, vaqtdan samarali foydalanish va mustahkam qaror toptirishni ifodalaydi.

Birinchi masala yuzasidan quyidagi dilemma o'z-o'zidan yuzaga keladi: ta'lim sovet pedagogikasida ustuvor bo'lgan "barchaga hamma narsani o'rgatish lozim" tamoyiliga asoslanishi kerakmi yoki g'arbning pragmatik ruhdagi "barchaga zaruriy bilimlarni o'rgatish lozim" tamoyiligami? Sobiq Ittifoq pedagogikasi o'z vaqtida barchani savodli hamda bilimli qilish borasida, garchi kommunistik mafkuradan chetga chiqmagan bo'lsa-da, anchagina ilg'or yutuqlarni qo'lga kiritgan edi. Ammo bu tamoyilga asoslangan ta'lim hozirgi kunda qanchalik o'zini oqlaydi? Avvalo, shuni alohida ta'kidlash lozimki, ta'limning maqsadi ensiklopedik darajadagi bilimlarni o'zlashtirgan shaxsni shakllantirishdan iborat bo'lmagan. Qolaversa, hozirgi kunda fanlarning misli ko'rilmagan darajadagi tarmoqlashuvi bilan bog'liq bilimlar diapazonining yuqori darajada kengayib ketganligi, insonning bu axborotlarni qabul qilish va o'zlashtirish imkoniyatlaridan anchagina ortib ketgan. Xususan, fan doirasida ishlab chiqilgan bilimlar tizimi ham to'liq o'zlashtirilib olinishi uchun kishidan anchagina vaqt va mashaqqatli mehnatlarni talab qiladi. Demak, davrning o'zi muayyan darajada ixtisoslashuv va bilimlarni saralab o'zlashtirish hamda o'qitishni talab qilmoqda.

Davrning bunday jadallik bilan o'zgarishi, ta'lim sohasidagi qo'yiladigan talab va hozirgi rivojlanish standartlariga qo'yilgan talablar o'z o'rnida ta'limning o'zni qanchalik dolzarbligini taqozo etdi. Bir so'z bilan aytganda, hozirda ta'lim jarayoni "barcha zaruriy bilimlarni o'rgatish" tamoyiliga ko'proq ehtiyoj sezmoqda.

O'tgan davr mobaynida ta'lim jarayoni sobiq Ittifoq pedagogikasi tamoyillariga asoslanib keldi. Natijada keng bilimlarga ega bo'lgan, ammo bu

o'zlashtirilgan bilimlar amaliy hayotiy jarayonlar spesifikasiga ko'p ham mos kelavermaydigan, o'zgargan sharoitlarga nisbatan evristik xususiyatidan biroz uzoqlashgan holatni yuzaga keltirdi. (*Bu bilan sobiq Ittifoq pedagogikasining tamoyillari to'g'risida salbiy fikr yurita ololmaymiz, ammo, o'sha davrning partiyaviy g'oya va mafkuralari millat ziyolilari va olimlari tomonidan ko'pgina fanlarni yetuk darajada rivojlanishi va takomillashishiga har tomonlama to'sqinlik qilganligi hozirda yaqqol namoyon bo'lib turibdi*). Bunday holatlarda nazariya va amaliyot o'rtasida to'siqlar paydo bo'ldi. Afsuski, buning salbiy oqibatlarini inersiyasi hanuzgacha to'xtagani yo'q. Ya'ni muammo shundaki, birinchidan, ta'lim jarayonini tashkillashtirilishidagi haddan tashqari ko'plab bilimlar tizimini jalb qilinishi, axborotning ekstensiv tarzda havola etilishi ta'lim oluvchilar (kursant)da ma'naviy zo'riqishni va ta'lim olish jarayonida bunday ta'limdan bezish holatlarini yuzaga keltirdi. Aksariyat hollarda ta'lim oluvchilar (kursant)da axborotning bunday keng oqimi qarshisida hadiksirash, o'zining bu bilimlarni o'zlashtirish imkoniyatlariga shubha bilan qarash hissiyotlari shakllanishi, ohir-oqibatda olingan axborotning tezda unutilishi yuz beradi. Muqobil yo'l – axborotlarni havola etishning intensivlik usuliga, tajriba va amaliyot bilan mustahkamlangan chuqur bilimlar berishga ko'proq asoslanish;

Ikkinchidan, ta'limda axborot ko'proq statik usulda havola etiladi. Ya'ni, berilayotgan bilimlar mutlaq haqiqat sifatida taqdim etiladi. Ta'lim oluvchilar (kursant)da qabul qilinayotgan har qanday axborotga nisbatan tahliliy-tanqidiy munosabatga aksariyat hollarda o'rin qoldirilmaydi. O'qituvchi muayyan masala yoki mavzuni tushuntirish chog'ida auditoriyaga qo'yilayotgan muammoning muqobil yo'llari taklif qilinmaydi. Darsliklar va o'quv adabiyotlardagi fikrlar e'tirozsiz qabul qilishga o'rgatiladi. Sobiq Ittifoq pedagogikasidan qolgan bunday an'anaviy yondashuvga ko'ra tanqidiy fikr bildirgan ta'lim oluvchilar (kursant)da negativ deviasiya sodir bo'lmoqda, deb baholanadi. Natijada ta'lim oluvchilar (kursant) faqat darslik va o'quv qo'llanmalarda keltirilgan standart, chuqur tahlilga yo'naltirilmagan, bir qolipga solingan va standartlashtirilgan bilimlar iste'molchisiga aylanib qoladi. O'qituvchi esa o'zi keltirayotgan dalillar bilan tinglayotgan va qabul qilayotgan ta'lim oluvchi (kursant) qiyofasidan har qanday chetga og'ishlarni sezmaydigan murosasiz bo'lib qoladi. Muqobil yo'l – axborotni mutlaq haqiqat sifatida emas, tavsiya sifatida berish, ta'lim oluvchi (kursant)ning mavjud bilimlarga nisbatan ishonchsizlik ruhini rag'batlantirmagan holda muqobil fikr bildirish imkonini yaratish, ko'rilayotgan masalaga turli tomondan hamda nuqtai nazardan qarash, tahlil etish ko'nikmasini shakllantirib borish yo'nalishlarida izlanishlar olib borish va bu tadqiqot natijalari chuqur tahlil asosida kelajakda ta'limni, ya'ni ta'lim oluvchining yetuk mutaxassis bo'lishiga hissa qo'shishi lozim;

Uchinchidan, ta'limning asosiy vazifasi ta'lim oluvchi (kursant)ni faqatgina ishonchli bilimlar bilan qurollantirish emas, balki mustaqil fikr yuritishga o'rgatishdan iborat. Hozirda "kim ko'p bilimga ega bo'lsa yutadi" tamoyili "kim to'g'ri va oqilona fikr yuritsa, ko'proq muvaffaqiyatga erishadi" tamoyiliga o'zgardi. Zero, ta'lim oluvchi (kursant) olgan bilimlarni muayyan va murakkab vaziyatlarda qo'llay olish malakasiga ham ega bo'lishi lozim. Avvalo, har bir bilim sifatida taqdim qilinayotgan axborot ta'lim oluvchi (kursant) tomonidan

qo'yiladigan "bu bilim shaxsan men uchun qanday ahamiyatga ega?", "men bu bilimlardan qanday vaziyatlarda foydalanishim mumkin?" degan savollarga nisbatan aniq tasavvur hosil qilish lozim. Bunday motivasiyaga asoslanish bilimlarning puxta o'zlashtirilishi imkonini beradi. Inson ruhiyatining asosiy qonuniyatlaridan biri shundan iboratki, har bir inson o'ziga daxldor bo'lgan axborotga ko'proq qiziqish bildiradi. Garchi dars jarayonida umumiy masalalar ko'rilayotgan bo'lsa-da, buni individ hayotiga daxldor ko'rinishda taqdim qilish lozim.

Shuningdek, ta'lim jarayoni ta'lim oluvchi (kursant)da muammoli va qiyin vaziyatlarda mustaqil hamda oqilona qaror qabul qila olish, bunday mas'uliyatni o'z zimmasiga olishdan qo'rqmaslik, tashabbuskorlik ko'rsatish, kreativ fikrlashga o'rgatishni ham rag'batlantirishi lozim. Shunday holatlar kuzatiladiki, bir ta'lim oluvchi (kursant) berilgan savollarga nazariy tomondan to'g'ri va aniq javoblar beradi. Ammo hayotiy muammoli vaziyatni to'g'ri baholash va muqobil yechimlarni ko'ra olish hamda oqilona qaror qabul qilishga kelganda o'zlashtirilgan nazariy bilimlarni muayyan vaziyatlarda qo'llash borasida layoqatsiz bo'lib chiqadi. G'arb ta'limida mazkur muammoga alohida e'tibor berilgan holda, har bir dars jarayoni individni muammoli vaziyatlarga tayyorlash hamda mas'uliyatni o'z zimmasiga olishdan cho'chimaslikka o'rgatish kabi xususiyatlar bilan sug'orilgan. Bunday muammoli o'qitish ta'lim oluvchi (kursant)da muammolardan qochishdan ko'ra unga tik boqib, uning to'g'ri yechimini topish yo'lida faollikka undaydi.

Ta'limning mazmuni bilan bog'liq yuqoridagi fikr yuritilgan muammolar bilan birga bir qator metodik muammolar ham mavjud ekanligiga e'tibor bermoq joiz. Bu bir tomondan hanuzgacha ta'lim jarayonida an'anaviy-konservativ metodlar hamda texnologiyalar ustuvorligini saqlanib qolayotganligi bo'lsa, ikkinchi tomondan dars jarayoniga joriy etilayotgan yangicha pedagogik texnologiyalarning qo'llanilish jarayonida yuzaga kelayotgan shakl va mazmun o'rtasidagi nomuvofiqlikdir. Gap shundaki, uzoq vaqtlar davomida an'anaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanib kelgan ba'zi o'qituvchilarda an'anaviy ma'ruza va avtoritar xususiyatlari ustuvor bo'lib qolmoqda, shu bilan birga ba'zi hollarda yangi pedagogik texnologiyalarning jozibadorligiga e'tibor qaratilib, turli xil pedagogik o'yinlar, texnik vositalar asosida darsning qiziqtiruvchanlik tamoyiliga ko'proq e'tibor berilib mazmunning to'laqonli namoyon bo'lmasligi, bir so'z bilan aytganda, dars spekulyasi sodir bo'layotganligi ham sir emas.

Yuqorida ta'kidlagan pedagogik muammolardan shunday xulosa qilish mumkinki, ta'lim rasionallik, maqsadga muvofiqlik, muqobillik, demokratik (liberal ham avtoritar ham emas) balki, individual yondashuv, an'anaviylik va noan'anaviylik uyg'unligi kabi tamoyillarga asoslanishi lozim. Har bir kasb egasiga, shu jumladan o'qituvchiga ham ob'ektiv talablar qo'yiladiki, bu talablardan kelib chiqib uning faoliyatining mezonlari ishlab chiqiladi. Albatta, bu mezonlar faoliyatning yuksak mahsuldorligini, unumdorligini, sifati, natijaning kafolatlanganligini, kasbning jamiyatdagi o'rnini hamda nufuzini va shu kabilarni belgilab beradi.

Ana shunda ta'limning vazifalaridan kutilayotgan yuksak bilimli va intellektual salohiyatli, qat'iy va pozitiv hayotiy pozitsiyaga ega avlodni tarbiyalash maqsadiga erishish mumkin.

Foydalanilgan manbalar:

1. Sh.Mirziyoyev “Yangi O‘zbekiston demokratik o‘zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda” “Yangi O‘zbekiston” gazetasi, 2021 yil 17 avgust.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni. – T.: “O‘zbekiston”, 2020 yil.
3. D.Abdurahimova. Harbiy pedagogika. Darslik. - Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi, - T.: 2022 yil.

ICHKI ISHLAR ORGANLARI XODIMLARINI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASHDA PSIXOLOGIK BILIMLARNING TUTGAN O‘RNI VA AHAMIYATI

*Jo‘rayev Sodiqjon Muhammadinovich –
Namangan davlat pedagogika instituti
Pedagogika va psixologiya kafedrasi stajyor o‘qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada ichki ishlar organlari xodimlarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda psixologik bilimlarning o‘rni va ahamiyati, xodimlarda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan stressli xolatlarni oldini olishga qaratilgan, xizmat jarayonida o‘zining ruhiy holatini boshqarish uchun zarur bo‘lgan psixologik chora tadbirlar haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Kasbiy mahorat, stress, depressiya, chidamlilik, irodaviylik, ichki omil, individual xususiyatlar, sezgi, charchash, tushkunlik.

Har qanday mutaxassislikda kasbiy mahoratga erishish davri uzoq va qiyin kechadi, mazkur muammoning ilmiy-nazariy asoslari B.G.Ananyev, Ye.A.Klimov, R.Z.Gaynutdinov, E.G'.G'oziyev, Z.S.Zaripov, S.V.Asyamov, R.M.Maxmudov kabilarning ilmiy izlanishlarida tahlil etilgan. Mazkur olimlarning tadqiqotlarida kasbiy faoliyatning boshqaruvda bevosita ishtirok etadigan alohida shaxs tuzilmalari hamda ularning ontogenezi, tuzilishi, vazifalari, imkoniyatlari, shakllanish qonuniyatlari, huquqiy madaniyati va boshqa masalalar tahlil qilingan. Xodim kasbiy faoliyatining psixologik xususiyatlari va tarkibiy qismlari bilan tanishish, faoliyatning murakkab va serqirraligidan dalolat beradi.

Ichki ishlar organlari xodimlarining xizmat jarayonida o‘zining ruhiy holatini boshqarish zarur bo‘lgan vaziyatlar tez-tez yuzaga keladi. Ruhiiy va jismoniy zo‘riqishlar haddan ziyod ortib ketganda, xatti-harakatlarini yetarli darajada boshqara bilmaganda asabiylashish yuzaga keladi. Bu esa faoliyat samaradorligini pasayishi, ishda jiddiy xato va kamchiliklarning yuzaga kelishiga olib kelishi mumkin. Mazkur vaziyatlarni takrorlanishi ko‘pincha o‘ziga bo‘lgan ishonchning yo‘qolishi, depressiyalarga sabab bo‘ladi.

Stress holatiga tushmaydigan xodim juda kam uchraydi. Har bir xodim kasbiy faoliyatida turli xil qarama-qarshilik, ziddiyatlarga duch keladi va unga nisbatan organizmida qarshilik ko‘rsatishining individual chegarasi bo‘lib, bu chegaradan

chiqish, qattiq charchash, tana a'zolari funksiyalarining buzilishiga olib keladi. Xodimning stressni vujudga keltiruvchi tashqi hamda ichki omillarga nisbatan chidamliligi, avvalo, uning individual-psixologik xususiyatlari va ularni asosli tushunishi bilan bog'liq bo'ladi.

Ayrim xodimlar stress xolatni keltirib chiqaruvchi tashqi omillarga qarshi kurashishga oid psixologik bilimlarning yetarli emasligi tufayli, organizmda vujudga kelgan emotsional zo'riqishlarni bartaraf etish maqsadida spirtli ichimlikdan foydalanadi. Spirtli ichimliklar bir muddat organizmda vujudga kelgan emotsional zo'riqishlarni bartaraf etgandek tuyuladi, xodimda shunga nisbatan moyillik paydo bo'la boshlaydi. Bu esa asta-sekinlik bilan psixik bog'lanish yoki moyillini hosil qilib boradi va oxir-oqibat turli xil salbiy oqibatlar, kasalliklarni keltirib chiqaradi.

O'zini o'zi boshqarishning eng oddiy usullarini qo'llash, birinchi navbatda, rag'batlantiruvchi va yo'naltiruvchi boshqaruvni kuchaytiradi. Xodimdagi hissiy-irodaviy barqarorlikka uning kasbiy faoliyatga psixologik jihatdan tayyorligini ko'rsatuvchi alomatlardan biri sifatida qarash mumkin. Bu, o'z navbatida, har bir xodimning kasbiy malaka va ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Hissiy-irodaviy barqarorlik deganda, murakkab vaziyatlarda muvaffaqiyatli ishlash uchun qulay bo'lgan psixik holatni saqlash qobiliyati tushuniladi. Xodimlar o'zini o'zi boshqarishning eng oddiy usullarini egallashlarida barcha xodimlar foydalanish uchun yaraydigan qandaydir universal usulni taklif etib bo'lmasligini hisobga olishlari zarur. O'zini o'zi boshqarishning eng oddiy usullarini xodimning tabiatiga, faoliyatiga xos xususiyatlarni, uning temperamentini va ko'plab boshqa holatlarni hisobga olgan holda maxsus tanlash kerak.

Tegishli mashqlar uchun maxsus usullar tavsiya etiladi:

Mantiq usullaridan foydalanish. Juda ko'p hollarda qaror topgan sharoit xodimdan vaziyatni qizishmasdan tahlil qilishni talab etadi. Bunda u, avvalo, o'zini ayni damdagi ruhiy holati, noadekvat asabiy zo'riqishi oqilona emasligiga, so'ngra esa, boshqacha yo'l tutish maqsadga muvofiqligiga ishontirishi kerak. «Men eng tajribaliman», «Men hamma narsani qila olaman», «Men har qanday jinoyatni ocha olaman» kabi *individual jihatdan muhim bo'lgan o'zini o'zi ishontirish usuli* juda samaralidir. Ushbu o'zini o'zi ishontirish qobiliyatini ulardan kundalik amaliyotda yuzaga keladigan qiyin vaziyatlarni bartaraf etish uchun rag'bat sifatida doimiy foydalanib, albatta mashq qildirish kerak.

O'ziga o'zi buyruq berish usulidan foydalanish. Intizomli xodim «Kerak!», «Bardam bo'l!», «Chida!», «Ishla!» kabi ichki buyruqlar yordamida o'zini yaxshi boshqarishi mumkin. Ana shunday o'ziga o'zi beriladigan qo'shimcha buyruqlar yordamida o'zini majburlash qobiliyatini muntazam ravishda mashq qildirish muhim. Oxir-oqibatda ichki nutq va harakat o'rtasida o'ziga xos chambarchas aloqa o'rnatilishi kerak. O'ziga berilgan buyruq bunda qo'shimcha kuchga ega bo'ladi, o'ziga xos ishga tushiruvchi rag'batga aylanadi.

Obrazlardan foydalanish. Badiiy tafakkurga moyil shaxslarga «kimnidir taqlid qilishga» asoslangan usul yordam beradi. Taqlid qilish uchun obrazni tasavvur qila olish, kerakli rolga kira olish o'z xatti-harakati uslubiga ega bo'lishga va nafaqat o'z holatini boshqarish, balki kerak bo'lganda, jinoyatchiga ruhiy ta'sir ko'rsatishga ham yordam beradi.

Vaziyatlarni maqsadga yo'nalgan tarzda tasavvur qilish. Biron bir ishga kirishishga yoki asabiy zo'riqishni yo'qotishga tasavvur qilishdan foydalanish yordam beradi. Qandaydir kasbiy harakatni bajarishga tayyorgarlik ko'rish chog'ida ichki ishlar organlari xodimiga, masalan, jinoyatni muvaffaqiyatli ochish, jinoyatchini ushlab, qahramonona harakatlar va boshqalar bilan bog'liq vaziyatlarni, his-tuyg'ularga boy sahnalarni eslash tavsiya etiladi.

O'zni chalg'itish usullari. O'zini o'zi boshqarishning faol usullaridan foydalanish qiyin bo'ladigan holatlar bo'lishi mumkin. Ko'pincha bu sezilarli charchash, tushkunlik kayfiyatlari bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Bunday vaziyatlarda ruhiy zo'riqishni turli xil chalg'itish vositalari yordamida yo'q qilish mumkin, bu vositalar vazifasini ko'p marta qiziqib o'qiladigan kitob, musiqa, yoqib qolgan film bajarishi mumkin.

Muskullar tonusini ongli ravishda boshqarish. Muskullar tonusi - hissiy holatning ko'rsatkichlaridan biri. Odatda, noratsional asabiy-ruhiy zo'riqish muskullarning keraksiz zo'riqishi bilan birga kechadi, bu esa, o'z navbatida, asabiy zo'riqishni yanada oshiradi. Bunda muskullar tonusini, masalan, inson yuzidagi muskullar tonusini ixtiyoriy boshqarish mahorati katta ahamiyatga ega bo'ladi. Qovog'ingizni solishingiz, xafa bo'lgandek qiyofaga kirishingiz bilan haqiqatan ham qayg'u bosadi. Va aksincha, jilmayish mo'jiza yaratishga qodir. Og'ir vaziyatda ham jilmaya olish, o'rinsiz tortinchoqlikni tashlash, ruhiy zo'riqishni yo'qotish insonning o'z imkoniyatlarini yaxshiroq ro'yobga chiqarish qobiliyatini oshiradi.

Nafas olishning o'zini o'zi boshqarish vositasi sifatida ahamiyati. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, nafas olish hissiy-irodaviy o'zini o'zi boshqarish tizimida muhim o'rin tutadi. To'g'ri nafas olish bilan o'zini o'zi boshqarish usullarini egallashdagi muvaffaqiyat uchun asos bo'ladi. Xodimlar tezda o'zini qo'lga olish, tinchlanish yoki, aksincha, o'z tonusini ko'tarish zarur bo'lganda eng oddiy nafas olish usullarini muvaffaqiyatli qo'llashlari mumkin.

Xulosa. Bugungi kunda xodimning kasbiy-psixologik tayyorgarligi ichki ishlar organlari faoliyatida muhim rol o'ynaydi. Ichki ishlar idoralari xodimining inson va uning ruhiyatini uzviy ravishda qamrab oladigan kasbiy mahorati nafaqat maxsus yuridik bilimlardan, balki kasbiy-psixologik tayyorgarlikdan ham tashkil topadi. Agar uning bunday tayyorgarligi bo'lmasa, haqiqiy mahorati ham bo'lmaydi. Shu munosabat bilan xodimlarning kasbiy faoliyat samaradorligini ta'minlaydigan zarur, professional jihatdan muhim xislatlarini rivojlantirish, faoliyatining ishonchligini oshiruvchi, odamlar bilan mohirona ishlashga yordam beruvchi usullarni o'zlashtirishlari juda muhim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Haydarov F., Halilova N. Umumiy psixologiya. - T., 2010;
2. Ivanov P.I., Zufarova M. Umumiy psixologiya. - T., 2008.
3. Maxsudova M.A. Muloqot psixologiyasi. T.: Talqin nashriyoti, 2006;
4. Karimova V., Xayitov O, Djalolova S. Boshqaruv psixologiyasi. O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2008. – 208 b.
5. Каримова В.М. Психология. - Т.: Абдулла Қодирий нашриёти, 2002.

O‘SMIRLIK DAVRIDA XAVOTIR NAMOYON BO‘LISHINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

*Kamalova Z.X. – Mirzo Ulug‘bek nomidagi
O‘zbekiston Milliy Universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti
Ijtimoiy psixologiya kafedrasi katta o‘qituvchisi,*

*Abdiravidov S. – Aniq va Ijtimoiy
fanlar unversiteti 1-kurs magistranti*

Anontasiya. O‘quv faoliyatida xavotirlanish, o‘quvchilarning xavotirlanish darajasini o‘rganish va ularni nima sababdan bu xavotirlanish darajasiga tushib qolganligi va ulardagi kuzatiladigan har hil vaziyatlar, har hil holatlarni o‘rganib chiqib mulohaza qilish.

Kalit so‘zlar: Xavotirlanish, qo‘rquv, emotsional, ichki xavotirlanish, ontogenez, adaptiv, turg‘un, dezadaptiv, intellektual, fenomenini, nevroz, korreksiya, psixokorreksion, lokalizatsiyalash, noverbal, tafakkur, modifikasiya.

Xavotirlanish shaxsda Psixik jarayonlarning meyoriy kechishiga kuchli ta’sir ko‘rsatadigan emotsional xolatlardan biridir. Ko‘p xollarda xavotirlanish sababli irodaviy soxa zaiflashib, inson biror qaror qabul qilishga, vaziyatni nazorat qilishga o‘zida kuch topolmay qoladi. Ayniqsa inson ontogenezining murakkab davrlaridan biri bo‘lgan o‘smirlik yosh davrida xavotirlanish shaxs imkoniyatlarini cheklab, insonning shahslararo munosabatlarda o‘z o‘rnini topishiga to‘sqinlik qiladi. Buning oqibatida o‘smirlarda depressiya xolati yuzaga kelishi mumkin. Bazan esa kuchli darajadagi xavotirlanish suidsidal xarakatlarga ham sabab bo‘ladi. Xavotirlanish o‘zining salbiy jixatlariga qaramasdan, insonning ruxiy hayotida turli xil muhim vazifalarni bajaradi: xavf-xatarga javob reaksiyasi sifatida u bilan to‘qnashishdan qochishga imkoniyat yaratadi, ruxiy o‘z-o‘zini boshqarish tizimida ximoyaviy-moslashtiruvchi rolni o‘ynaydi.

Xavotirlanish muammosini turli nazariy konseptual yondashuvlar asosida xorij, rus va o‘zbek psixologlari tomonidan o‘rganilgan. Xorij psixologlaridan Z.Freyd, R.Meyo, X.Maurer, N.Miller, D.Boulbi, K.Izard va boshqalar tomonidan xavotirlanish momosini o‘rganish borasida izlanishlar olib borilgan.

MDX mamlakatlari tadqiqotchi olimlaridan I.Sechenov, I.Pavlov, A.Uxatomiskiy, A.Prijojan, A.Zaxarov va boshqalar xavotirlanish, qo‘rquv xolatining namoyon bo‘lishi, uning kelib chiqish mehanizmlarini o‘rganish borasida tadqiqotlar o‘tkazib, bu ikki emotsional xolatning o‘xshash va farqli tomonlarini asoslab berganlar. O‘zbekistonlik psixologlaridan shahsning xissiy-emotsional soxasini tadqiq etishga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlari M.Rasuleva, G.Xrulnova va boshqalar tomonidan olib borilgan.

Sust darajadagi xavotirlanish reaksiyasi xavf-xatarga nisbatan ehtiyotkorlik sifatida normal va adaptiv xisoblanadi. Ammo xavf-xatarga mavjud bo‘lmagan xolatlardagi kuchli va turg‘un xavotirlanish dezadaptiv xisoblanib, insonning jismoniy, ijtimoiy va intellektual funksiyalari me’yoriy kechishga to‘sqinlik qiladi.

Shu tufayli o'smirlik davrida xavotirlanishni namoyon bo'lishiga momosini har tomonlama tadqiq etish dolzarb masalalardan biri sanaladi. O'smirlar o'quv faoliyatida xavotirlanish namoyon bo'lishining psixologik xususiyatlarini Tadqiq etishda xavotirlanishning aynan o'quv faoliyatidagi muhim psixologik tuzilma sifatida o'quvchilar ijodiy taffakurini va uning mahsullarini taqdim etish jarayonida ta'siri masalasiga etiborni qaratish muammoni chuqurroq anglashga yordam beradi.

O'smir yoshdagi o'g'il-qizlarda xavotirlanish hissining paydo bo'lishiga din omillarining o'rnini ham alohida ahamiyatga kasb etadi. Sababi bizning jamiyatimizda diniy omillar yashash turmush tarzimizga singib ketganki ularning ko'rinishlarini payqash qiyin emas. O'smir birorta faoliyatga kirishar ekan uni egallagan dunyoviy hamda diniy bilimi uni salbiy harakat qilishdan qaytarib turadi, agar uni amalga oshirib qo'ysa uni bu bezotalik hissi tark etmay unga qayta-qayta eslatib turadi. Vaqt o'tgan sari bu hislar darajasi ortib xavotirlik hissini ortib borishiga sabab bo'ladi.

Psixolog F.B.Beryozin xavotirlanish jarayoniga izoh berar ekan, "malum bir ob'ekt bilan aloqaning mavjud emasligi xis qilingan xavf – hatarni oydinlashtirishning iloji yoqligi o'shani imkonsiz qilib qo'yadi va xavotirlanish holatini yuzaga keltiradi".

Bunday vaziyatni psixologik qabul qilmaslik xavotirlikni u yoki bu obyekt bilan bog'laydi. Natijada aniqlanmagan xavf -hatar oydinlashadi va ushbu xolat faqat biror bir vaziyatni sodir bo'lish ehtomoli bilan bog'lanadi. Psixologik tadqiqot ishlarida shuni ko'rishimiz mumkinki, o'smirlar ota- onalari ularni tushunmasliklari, ular bilan hisoblashmasliklari, muammolarga e'tibor bermasliklari haqida kuyunib gapiradilar. Ular bolani qorni to'q bo'lsa yetarli deb o'ylashadi, bola nima haqida o'ylayotgani, qanday qiziqishlari borligi haqida hayollariga ham kelishmaydi. O'smirlik davrida ro'y beradigan holatlarda har xil, lekin mevasi bir xilda-achiq bo'ladi. Ota-onalar bilan ochiqsaiga, chin yurakdan muloqotning yo'qligi Bolani odamovi va og'ir qilib qo'yadi.

Bir nechta psixologik tadqiqotlardan kelib chiqqan holda T.V. Abakumov xavotirlanishni tasniflashda bir necha mezonlarni taklif qilgan.

Xavotirlanish paydo bo'lishida inson ongiga bog'liq bo'lmagan holda mavjud bo'lgan manbalar (biologik, texnogen).

Atrof-muhitdagi haqiqiy holat to'g'risida To'la va aniq tasavvurning yo'qligi (ijtimoiy va bolalarda uchrovchi xavotirlanishlar).

Ontologik (diniy, ekzistensial).

Gnoseologik (ma'lumotlarning ko'pligidan haddan ziyod qo'rqish).

Olimlarning ta'kidlashlaricha "noma'lum" va "yangi" narsa insonlarda, ayniqsa bolalarda xavotirlanish hissini vujudga keltirar ekan.

O'smirlik davri haqida izlanishlardan shunday xulosaga kelishimiz mumkinki bu davrda muloqot jarayonida ham xavotirlanish hissi namoyot bo'ladi va bu ota-ona va tengdoshlari bilan bo'lgan muloqotda yaqqolroq aks etishni ko'ramiz. Maktab o'quvchilarida ham bu kabi hollatlar ko'p kuzatiladi, Masalan, bu holatga tushganda o'quvchilar o'zini yaqqol ochib bera olmaydi, aniq gapira olmaydi, gapiradigan gapi esidan chiqib qoladi va qo'rqish hissi ham paydo bo'la boshlaydi.

Maktab yoshdagi o'smirlarining diniy bilimga egaligi yoki bunday bilimlarning yetishmasligining ahamiyati ham sezilarli darajada ekanligi ko'rishimiz mumkin. Chunki bu jixatlar ularda xavotirlanish fenomenini belgilab berishda yuqori ahamiyat kasb etadi. Ularning diniy bilimga egaligi har qanday jarayonga sabr va aql bilan yondashish kerakligi, qiyin vaziyatlarda o'zining xulq atvorini ijobiy tomonda ko'rsatish kerakligini yahshi anglab borib, xavotirlik tuyg'usi diniy amallarni bajarish bilan susaytirib borish mumkin. Mo'min-musulmon kishi Allohga, Uning farishtalariga, kitoblariga, payg'ambarlariga, qiyomat kuniga, taqdirning yahshi va yomonligi Allohdan ekanligiga iymon keltirgan bo'ladi. Demak, sabr nafsni boshidanoq tiyishdagi qatiyatlikdir, deyish mumkin.

Sharqning qomusiy olimlaridan Abu Rayxon Beruniy insondagi axloqiy sifatlarning tarkib topishida ulardagi xavotirlanish, qo'rquv xolatlarini muhim sanaydi. Uning fikricha, axloqlilik insonning eng asosiy sifati bo'lishi kerak. Bu xislat birdaniga emas, balki kishilarning o'zaro muloqoti, ijtimoiy muhit, jamiyat taraqqiyoti jarayonida tarkib topadi. Mutaffakir yahshi xislatlarga to'g'rilik, odillik, o'zini mazmin tutish, insof, kamtarlik, lutf, sobitqadamlilik, extiyotkorlik, saxiylik, shirinsuxanlik, adolatlilik, tadbirkorlik kabilar kiritadi. Yomon illatlarga esa xasadchilik, baxillik, nosog'lom raqobat, o'z manfaatini ko'zlash, mansabparastlik va xokozolarni kiritadi.

Turli adabiyotlarda o'smirlik davridagi xavotirlanish, qo'rquv, xavsirash, notinchlik, xolatlarini o'rganishga qaratilgan bir qancha metodikalar ko'satib o'tilgan. Jumaladan, CH.D.Spilberger tomonidan ishlab chiqilgan "xavotirlanishni o'rganish testi" bir vaqtning o'zida shaxs va vaziyat bilan bog'liq xavotirlanishni o'rganishga imkon beradi. Ushbu metodikani Yu.L.Xanin tomonidan modifikatsiya qilingan.

A.M.Prixojan ishlab chiqqan xavotirlanishni aniqlash shkalasi O.Kondashning xavotirlanish darajasi va uning xavotirlanish darajasi va uning asosiy manbalarini aniqlab beruvchi <<Ijtimoiy-vaziyatli xavotir shkalasi>>asosiga qurilgan. Malumki, xavotirlanish mustahkamlanib, barqaror emotsional Diskonfortga sabab bo'lishi, salbiy omillar (masalan, asabiy zo'riqish) tasirida esa nevroz va psixosomatik buzilishlarni keltirib chiqarishi mumkin Boshqa metodikalar bilan birga maskur shkalaning qo'llanilishi esa xavotirlanishning chuqur determinantlari va shakllarini aniqlash imkonini beradi. Metodika xavotirlanish turlariga mos keluvchi 3 xil vaziyatni o'z ichiga oladi.

1. Maktab bilan bog'liq xavotirlanish – bolada maktabdagi vaziyatlar, o'qtuvchi bilan muloqot jarayoniga bog'liq xavotir xolati;

2. O'zini o'zi baxolash bilan bog'liq xavotirlanish – bolada o'zi xaqidagi tasavurlarning dolzarblashishdagi xavotirlanish;

3. Shahslararo munosabatlar bilan bog'liq xavotirlanish – muloqotga kirishish vaziyatlar bilan bog'liq xavotirlilik.

4. Xavotirlanish ko'rsatkichlarini ajratish korreksiya nuqtai nazaridan maxsuldor bo'lib, u buzulish zonasini aniq lokalizatsiyalash va Psixokorreksion dasturni maqsadga muvofiq tarzda tuzish imkonini beradi.

Biz tadqiqotimiz maqsadi va mazmunidan kelib chiqib, o'quvchilarda xavotirlanishning o'quv faoliyati samaradorligini belgilovchi muhim psixologik tuzulma sifatida ijodiy tafakkurga tasirini tadqiq qilishni vazifa sifatida belgilab olgan edik. O'quvchilardagi ijodiy tafakkur namoyon bo'lishini o'rganishda bir qancha metodikalardan foydalanish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Alimbaeva Shahlo Tursunovna. O'smirlar o'quv faoliyatida xavotirlanish Namoyon bo'lishining Psixologik xususiyatlari. 2019. - 1260. - B. 5-6.
2. Abdivaliyevna, A. N. (2022). Psychological Characteristics of Children with Attention Deficiency and Hyperactivity and their Readiness for school Training, 4, - P. 295-298.
3. Abu Zakariyo Yahyo ibn Sharaf Navaiy. Riyozus-solihin. – Toshkent: Movarounnahr, 2014. - B.13.
4. Sobirov Yangiboy Elmurot O'g'li. O'smirlarda xavotirlanish hissi namoyon bo'lishining diniy – psixologik omillari, 2022. - B.2.
5. O'zbek pedagogikasi antologiyasi: Ikki jildlik. J.1. / Mualliflar: K.Xoshimov, C.Ochil; Taxrir xayati: M.Xayrullaev va boshqa. - T.: O'qtuvchi, 1995. – 464 b.
6. Kamilova N.G. Muammoli o'smir: Tashxis, Tadqiqot metodlari. – T.: TDPU, 2004. – 67 b.

TIBBIYOT XODIMLARIDA KASBIY SO'NISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Kamalova Zulfiya Xasanboy qizi – Aniq va Ijtimoiy fanlar universiteti Ijtimoiy fanlar kafedrasida dotsenti,

Abduqodirova Dilobarbonu Erkinjon qizi – Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti Psixologiya (faoliyat turlari) yo'nalishi magistranti.

Annotatsiya: Kasbiy charchash tibbiyot xodimlarining muhim muammosi bo'lib, u hissiy charchoq, depersonalizatsiya va shaxsiy muvaffaqiyat hissining pasayishi bilan tavsiflanadi. Ushbu maqola tibbiyot xodimlarining kasbiy tukenmesi bilan bog'liq psixologik xususiyatlarni o'rganadi, charchashga hissa qo'shadigan omillar, uning namoyon bo'lishi va mumkin bo'lgan aralashuvlarni yoritadi. Mavjud adabiyotlarni va empirik tadqiqotlarni ko'rib chiqish orqali maqola ushbu muhim ishchi kuchida charchashning psixologik asoslarini har tomonlama tushunishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: Kasbiy charchash, tibbiyot xodimlari, hissiy charchoq, depersonalizatsiya, shaxsiy yutuqlar, psixologik xususiyatlar, stress, aralashuvlar.

Tibbiyot xodimlarining charchashi butun dunyo bo'ylab tobora ortib borayotgan tashvish tug'dirmoqda, bu sog'liqni saqlash sifati, ishchilar farovonligi va bemorlar sog'ligiga ham ta'sir qiladi. Maslach va Jekson ta'rifiga ko'ra, charchash - bu ishdagi surunkali shaxslararo stresslarga uzoq davom etadigan javob sifatida paydo bo'ladigan psixologik sindrom. Tibbiyot sohasi o'zining yuqori talablari va hissiy bosimi bilan, ayniqsa, charchashga moyil. Ushbu maqola tibbiyot xodimlarida charchashning psixologik xususiyatlarini o'rganadi, uning sabablari, alomatlar va potentsial kamaytirish strategiyalarini o'rganadi.

Tibbiyot xodimlarining charchash sabablari.

Tibbiyot xodimlarida charchash ko'p omilli bo'lib, bir nechta o'zaro bog'liq sabablarga ega:

Yuqori ish talablari va ish yuki.

Tibbiyot xodimlari ko'pincha og'ir ish yuklari, uzoq soatlar va yuqori stressli muhitlarga duch kelishadi, bu esa jismoniy va ruhiy charchoqqa olib keladi. Yetarli dam olish yoki qo'llab-quvvatlamasdan bajarish uchun doimiy bosim hissiy charchoqni keltirib chiqarishi mumkin.

Hissiy zo'riqish.

Tez-tez azob-uqubatlarga duchor bo'lish, o'lim va tanqidiy qarorlar qabul qilish hissiy zo'riqishlarga olib kelishi mumkin. Emotsional vaziyatlarda professional xotirjamlikni saqlash zarurati charchashning rivojlanishiga olib keladi.

Nazorat va qo'llab-quvvatlashning yetishmasligi.

Ish vazifalari ustidan nazoratning etishmasligi va rahbarlar va hamkasblar tomonidan yetarli darajada qo'llab-quvvatlanmaslik nochorlik va stressni kuchaytiradi va charchash xavfini oshiradi.

Shaxsiy omillar.

Perfektsionizm, kuchli burch hissi va yuqori shaxsiy umidlar kabi individual xususiyatlar charchashga moyillikni oshirishi mumkin. Shaxsiy hayotdagi stress omillari va ish va hayot muvozanatining yo'qligi ham hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Charchoqning namoyon bo'lishi.

Charchoq uchta asosiy o'lchov bilan namoyon bo'ladi: hissiy charchoq, depersonalizatsiya va shaxsiy yutuqlarning pasayishi.

Hissiy charchoq.

Hissiy charchoq hissiy jihatdan haddan tashqari ko'tarilish va hissiy resurslarning tugashini anglatadi. Tibbiyot xodimlari bemorlar va hamkasblar bilan o'zaro munosabatda bo'lishdan charchashlari mumkin, bu esa ish samaradorligi va ishdan qoniqishning pasayishiga olib keladi.

Depersonalizatsiya.

Depersonalizatsiya bemorlar va hamkasblarga nisbatan o'ziga xos, qo'pol yoki beadab munosabatni rivojlantirishni o'z ichiga oladi. Bu empatiyaning pasayishiga va bemorni parvarish qilishga mexanik yondashuvga olib kelishi mumkin, bu esa ko'rsatilayotgan yordam sifatiga ta'sir qiladi.

Shaxsiy yutuqlarning pasayishi.

Shaxsiy yutuqlarning pasayishi qobiliyatsizlik hissi va ishda muvaffaqiyatga erisha olmasligini anglatadi. Buni boshdan kechirayotgan tibbiyot xodimlari

o'zlarining kasbiy qobiliyatlariga shubha qilishlari va ish samaradorligining pasayishini his qilishlari mumkin.

Intervensiyalar va ta'sirlarni yumshatish strategiyalari.

Kuchlanishni bartaraf etish ko'p qirrali yondashuvni talab qiladi:

Tashkiliy aralashuvlar. Sog'liqni saqlash muassasalari ish yukini optimallashtirish, xodimlar darajasini oshirish, yetarli resurslar bilan ta'minlash va qo'llab-quvvatlovchi ish muhitini yaratish kabi charchashni kamaytirish uchun tashkiliy o'zgarishlarni amalga oshirishi mumkin.

Professional yordam. Maslahat, tengdoshlarni qo'llab-quvvatlash guruhlari va stressni boshqarish bo'yicha seminarlar orqali professional yordam taklif qilish tibbiyot xodimlariga o'z ishlarining hissiy talablarini yengishga yordam beradi.

Shaxsiy strategiyalar. Tibbiyot xodimlarini aql-idrok, muntazam jismoniy mashqlar va sevimli mashg'ulotlar kabi shaxsiy kurash strategiyalarini ishlab chiqishga undash ularning stressga chidamliligini oshirishi va charchash xavfini kamaytirishi mumkin.

Ta'lim va tarbiya. Vaqtni boshqarish, muloqot qilish ko'nikmalari va o'z-o'zini parvarish qilish amaliyoti bo'yicha treninglar o'tkazish tibbiyot xodimlariga stressni yanada samarali boshqarish va farovonligini saqlab qolish imkonini beradi.

Xulosa, tibbiyot xodimlari o'rtasida charchash jiddiy psixologik oqibatlariga olib keladigan murakkab va keng tarqalgan muammodir. Uning sabablari va namoyon bo'lishini tushunish samarali choralarni ishlab chiqish uchun juda muhimdir. Ham tashkiliy, ham shaxsiy omillarni hisobga olgan holda, charchashni yumshatish va tibbiyot xodimlarining farovonligi va ish faoliyatini yaxshilash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Maslach C., Jekson S. E. (1981). Tajribali charchashni o'lchash. Tashkiliy xatti-harakatlar jurnali, 2(2), 99-113.

2. Shanafelt T.D. va boshqalar. (2015). Umumiy AQSh aholisiga nisbatan amerikalik shifokorlarning ish-hayot muvozanatidan qoniqish va ishdan qoniqish. Ichki kasalliklar arxivi, 172(18), 1377-1385.

3. West C.P., Dyrbye L. N., Shanafelt T.D. (2018). Shifokorning charchashi: hissa qo'shuvchilar, oqibatlari va yechimlari. Jurnal of Internal Medicine, 283(6), 516-529.

4. Bakker A.B., Demerouti E. (2007). Ishga bo'lgan talablar-resurslar modeli: eng zamonaviy. Boshqaruv psixologiyasi jurnali, 22(3), 309-328.

5. Leiter M.P. Maslach C. (2009). Hamshiralik almashinuvi: charchashning vositachilik roli. Hamshiralik ishini boshqarish jurnali, 17(3), 331-339.

6. Qalandarova M.B. "Tibbiyot xodimlarida kasbiy zo'riqish profilaktikasi." psixologiya va pedagogika fanlararasi fanlar sifatida shakllanishi 2.19 (2023): 36-38.

7. Muhammodiyeva Sh.M. "Tibbiyot Xodimlarida Surunkali Charchoq Sindromi." Umumjahon fanlari bo'yicha ta'lim tadqiqotlari 2.17 (2023): 741-743.

OLIV TA'LIM TALABALARINI INTELLEKTUAL RIVOJLANTIRISH OMILLARI

*Korshubayev R.X. – O'zbekiston Finlandiya
pedagogika instituti Psixologiya kafedrasi assistenti*

Annotasiya. Ushbu maqolada oliy ta'lim tizimida talabalarning intellektual qobiliyatini rivojlantirish masalalari yoritib berilgan bo'lib, talabalarda kasbiy salohiyatini oshirishning qisqacha bayoni keltirilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim, yoshlar, innovatsiya, texnologiya, kompetensiya, pedagogik vosita.

Kadrlar tayyorlashning oliy ta'lim bosqichining muhim vazifalaridan biri yangi bilim, ko'nikma va o'quv faoliyati ko'nikmalarini to'plash uchun shart-sharoitlarni yaratish, intellektni rivojlantirishga hissa qo'shish va ularni kelajakdagi kasbiy faoliyatga integratsiya qilish qobiliyatini shakllantirishdir.

Dunyo miqyosida o'quv jarayoni nazariy bilimlar berishdan olingan bilimlarni amaliyotda qo'llash ko'nikmalarini rivojlantirish, axborot texnologiyalari asosida talabalarda mustaqil ta'lim olish malakalarini shakllantirish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ushbu yo'nalishda jumladan, oliy ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalar tatbig'iga asoslangan dars tahlili va uning metodikasini takomillashtirishga qaratilgan tadqiqotlar ustivor hisoblanmoqda. Bu borada o'qituvchi-murabbiy talaba shaxsining ma'naviy-axloqiy dunyosini o'zgartirish, unga pedagogik ta'sir ko'rsatish orqali undagi bor imkoniyat va qobiliyatlarni yuzaga chiqarish, ijtimoiy faol va malakali raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashga alohida e'tibor berilmoqda. Yoshlarni kasbga o'rgatish va uni egallashi jamiyat taraqqiyoti uchun o'z hissasini qo'shib yashashi va shu orqali jamiyatda o'zligini namoyon etishi, ya'ni shaxsning kamol topishi, bu borada talaba shaxsining o'zini-o'zi ma'naviy-kasbiy tarbiyalash texnologiyasi har qachongidan dolzarb hisoblanib, jamiyatimizning ma'naviy yangilanishida, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishda jahon hamjamiyatiga qo'shilishini ta'minlaydigan demokratik huquqiy davlat qurish, kadrlar tayyorlashning milliy masalasi ustivor mezon sifatida muhim ahamiyatga ega. Respublikamizda uzluksiz ta'lim tizimida har tomonlama yetuk va ijodkor shaxsni tarbiyalash masalasi ta'lim-tarbiya jarayonining barcha bosqichlarida pedagogik tizimning tarkibiy qismlari o'zaro aloqadorligi, muvofiqligi hamda istiqbolga yo'naltirilganligini ta'minlash ehtiyojini yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. «2022-2026 yillarda O'zbekiston Respublikasi Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida, jumladan oliy ta'limga jamiyat taraqqiyotini rivojlantirish, modernizatsiyalash bilan bog'liq bo'lgan yangi, yuqori talablarni qo'ymoqda...» [1;2].

«Milliy tafakkur salohiyatiga ega bo'lgan iste'dodli yoshlarni tarbiyalash va ularni qo'llab-quvvatlash masalasiga alohida e'tibor qaratishimiz lozim» kabi muhim vazifalar belgilab berilgan [2;4].

Ushbu vazifalarini amalga oshirishda, jumladan, ta'lim jarayonini individuallashtirish, integratsiyalash va uning samaradorligini ta'minlash orqali shaxsning intellektual salohiyatini oshirish, bilim egallashning mustaqil, faol ijodiy metod va usullarini ta'minlash muammosi intellektual-ijodiy qobiliyatni rivojlantirish bilan chambarchas bog'liq ravishda takomillashtirishni taqozo etmoqda.

Ijod - bu subektning tafakkuri, aqli va idroki nazorat qiluvchi, tartibga soluvchi, yinaltiruvchi, shu bilan birga ijtimoiy amaliyotga muvofiq ravishda muttasil o'zgarib boruvchi obektiv olamning subekt ongidagi faol in'ikosidir. Talabalarda intellektual-ijodiy qobiliyatni rivojlantirishda zamonaviy ta'lim texnologiyalariga bo'lgan ehtiyoj mavjudligi asoslovchi tajriba-sinovda o'z tasdig'ini topdi. Talabalarning intellektual salohiyati ularning ilmiy-tadqiqot faoliyati natijasi bo'lib, ijodiy qobiliyatlarni, ta'lim va kasbiy tayyorgarlikni, yangilik, o'ziga xoslik va o'ziga xoslik bo'lgan intellektual mahsulotlarni yaratish zarurligini o'z ichiga oladi. Ta'lim texnologiyalar bo'yicha ilmiy metodik tavsiyalarni keltirishdan avval uning o'quv jarayonidagi in'ikosiga oid nazariy ma'lumotlarni keltirib o'tish joiz deb bildik. Zamonaviy texnologiyalar nafaqat ta'lim mazmunini rivojlantirish, balki talabalarni intellektual-ijodiy qobiliyatini rivojlantirishda qo'l keladi. So'nggi yillarda oliy ta'lim jarayonida rivojlantiruvchi, muammoli, hamkorlikdagi, dasturli, blokmodulli, shaxsga yo'naltirilgan, o'yinli va axborot texnologiyalar keng qo'llab kelinmoqda.

Har qanday ta'lim texnologiyasi uzluksiz ta'limning qaysi bo'g'inida qo'llanilmasin, uning markazida ta'lim oluvchi shaxsi va uning qiziqishlari, ehtiyojlari ko'zda tutilishi kerak. Shuningdek, intellekt va ijodiy qobiliyatni rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalari tizimlashtirildi. Ushbu texnologiyalarning maqsadi talabalarda kasbiy salohiyat rivojlantirish, kelajak faoliyati haqidagi tasavvurlarni mustahkamlash, o'z-o'zini rivojlantirish hamda shaxsiy sifatlarini tarbiyalashdan iborat [3;4].

Intellektual qobiliyatlar-bu shaxsning ta'sirchanligi, predmetni idrok qilishining kuchliligi va yaxlitligi, u to'g'risida keng ma'lumotlarga ega bo'lishdir. Shuningdek, tafakkur o'zgaruvchanligi va tezkorligi, mantiqiy va savodli mulohaza yuritish, tizimli harakatlar, sintez-tahlil-sintez, ijodiy ifodalay bilish, umumlashtirish va xulosalash, o'z fikriga ega bo'lish bilan namoyon bo'ladi. Talabalarda intellektual-ijodiy qobiliyatni rivojlantirishda ta'limning amaliy va nazariy shakllarini innovatsion didaktik metodlarni qo'llash orqali amalga oshiriladi natijada zamonaviy malakali shaxsni shakllantirishga erishiladi. Shunday qilib, talabalar kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish davlat ahamiyatidagi va ijtimoiy-pedagogik muammo bo'lib hisoblanadi. Talabalarda asosiy kreativ-intellektual-ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish-hozirgi zamon ta'lim tizimida birinchi darajali vazifadir. Yuksak intellektual salohiyatli zamonaviy bo'lajak mutaxassislarini tayyorlash tizimidagi integratsion jarayonlarning tahlili natijasida kompetentlik yondashuvi asosidagi integrativ kurslarni ishlab chiqishning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash, ushbu jarayonning belgilangan natijalarga erishilishini ta'minlaydi. Integratsion jarayonning asosi sifatida kasbiy kompetensiyalar tanlanib, ular bitta yoki bir nechta integrativ kurslar doirasida shakllantirilishi mumkin. Binobarin, yangi avlod

shaxsining kreativ–ijodiy rivojlanishi, unda yuksak idrok qilish faolligi bilan intellektual-ijod singari shunday muhim qobiliyatlarning rivojlanishi – zamon talabi, o‘quv, hayotiy, mehnatga oid va sotsial-ijtimoiy muvaffaqiyatning asosidir.

Yuqori bosqich talabalarining muntazam ravishda doimiy-intellektual ijodiy jihatdan rivojlantirilishi maqsad qilib qo‘yilmog‘i lozim. Talabalarining, ayniqsa, intellektual-ijodiy qobiliyatlar sohasida kreativini shakllantirish va rivojlantirishning uchun ilmiy asoslangan – tizimi, mazmuni, shakllari, texnologiyalari, metodlari, usullari, uslublari va vositalari zarur. Bo‘lajak mutaxassislarning intellektual salohiyatini oshirish, shuningdek, talaba shaxsini yuksaltirish, mantiqiy fikrlashga undovchi jarayonlar va imkoniyatlarni ta‘lim amaliyotida keng qo‘llashda integrativ yondashuvlar asosida ta‘lim-tarbiya jarayonlarini tashkil qilish maqsadga muvofiqdir. Ular talabalarining kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishga nisbatan o‘z-ijodiy yondashuviga ega bo‘lishlari lozim. Ta‘lim jarayonlarida talabalarlarning ijodiy fikrlashi, ijodiy tasavvuri tegishli darajasini rivojlantirishni ta‘minlashga, ijodkorlik metodlarini o‘quv-tarbiyaviy jarayonda qo‘llanilishiga yetarli vaqt ajratilmog‘i kerak [4;8].

Bugungi kunda oliy ta‘lim tizimida ham islohotlar sezilarli sur‘atlarda o‘sib borayotgani, innovatsion texnologiyalaridan foydalanish ta‘lim tizimida o‘z o‘rnini topib bormoqda. Masalan, ko‘pchilik oliy ta‘lim muassasalari ta‘lim berishning kredit-modul tizimiga o‘tdi, o‘qish va o‘qitishning ilg‘or usullari, o‘quv jarayonida foydalaniladigan metodlar, o‘quv jarayonini kreativlik asosida tashkil etish, oliy ta‘limning innovatsion rivojlanishi uchun axborot kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish, ta‘lim platformalaridan foydalanish hamda oliy ta‘lim muassasalarida kasb va ixtisoslik fanlarini o‘qitishga ajratilgan soatlar ko‘paytirilmoqda. Bularning barchasi o‘qituvchi va talabalarining kompyuter savodxonligini oshirishda yuqori natijalarni erishishga yordam beradi. Oliy ta‘lim tizimida talabalar intelektini rivojlantirish har bir talabaning imkoniyatlari va qobiliyatini hisobga olishni o‘z ichiga olgan mustaqil ta‘limni yanada rivojlantirishimiz kerakligini ko‘rsatmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi to‘g‘risida. PF-60-son. 28.01.2022// <https://lex.uz/docs/5841063>.

2. Mirziyoyev SH.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta‘minlash - yurt taraqqiyoti va xalq faravonligining garovi. – Toshkent: «O‘zbekiston», 2017, 48-b.

3. Rahimov B.X. Yoshlarni ilmiy ijodiy faoliyatga yo‘naltirish asoslari. - Toshkent: Fan, 2010. - 128 b.

4. Safarova R. O‘quvchilarning bilim sifatini oshirish // Xalq ta‘limi. 2005. №1. - B.14-19.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ОБУЧЕНИЯ ИНОСТРАННОМУ ЯЗЫКУ ДЕТЕЙ ГОДА НАЧАЛЬНЫЙ ШКОЛЬНЫЙ ВОЗРАСТ

*Кобилова Феруза Толибовна –
Докторант Бухарского института
психологии и иностранных языков*

***Аннотация.** Данная статья обоснована необходимостью изучения психологических особенностей обучения детей раннего возраста английскому языку для достижения наиболее эффективного результата в его дальнейшем изучении. Цель работы – выявить и описать особенности обучения английскому языку детей раннего возраста, выявить методы, позволяющие развивать конструктивное взаимодействие учителя и учащихся, а также разработку планов уроков.*

***Ключевые слова:** развивающий, образовательный, иностранный язык, дети младшего возраста.*

Введение. Современная глобализация проявляется во всех сферах человеческого общества, поэтому знание хотя бы одного иностранного языка жизненно необходимо. Люди общаются друг с другом, передают свои знания, мысли, эмоции, настроение, и все это происходит с помощью слов. Если вы знаете иностранный язык, перед вами открываются новые перспективы в жизни, общении, работе. В наше время английский язык является общепризнанным языком международного общения, лексика которого имеет свою национальную специфику.

Вопрос о том, когда начинать обучение ребенка иностранному языку представляет интерес для многих родителей. Это вполне ожидаемо, ведь знание хотя бы одного иностранного языка в наше время из желания превратилось в необходимость. Ученые-адвокаты раннего развития считают, что именно в первые годы жизни с ребенком необходимо быть строгим и ласковым, а когда он начнет развиваться самостоятельно, нужно постепенно научиться уважать его «Я», его воля. Точнее, влияние родителей на ребенка должно закончиться еще до детского сада. Невмешательство в раннем возрасте, а затем давление на ребенка в более позднем возрасте могут разрушить его талант и вызвать сопротивление[1].

Цель. Вопросы, связанные с обучением детей раннего возраста иностранному языку, актуальны, поскольку возраст с 5-6 лет рассматривается специалистами как наиболее благоприятный период для освоения иностранного языка[2;7]. Обучение детей английскому языку преследует комплексную реализацию практических, образовательных, воспитательных и развивающих целей. Реализация практической цели должна обеспечить достижение трех других: развивающее, учебное и общеобразовательное, и, таким образом, иностранный язык способствует формированию всесторонне

развитого развитая личность, что является основной задачей средней школы на современном этапе формирования нашего общества [3].

Исследовательские задачи. Предметом исследования является использование методических рекомендаций в обучении детей дошкольного возраста.

Теоретическая значимость заключается в том, что данное исследование дает материал для дальнейших теоретических обобщений, способствует разработке таких теоретических пробелов, как взаимодействие языка и мышления, роль языка в экспликации и формировании картины мира.

Практическая значимость заключается в возможности использования работы при дальнейшем изучении данной темы, а также при проведении занятий по методике обучения и воспитания, а также при проведении уроков иностранного языка с детьми раннего возраста.

Актуальность раннего изучения иностранного языка определяется потребностями общества [6;58]. Обучение иностранному языку детей младшего дошкольного возраста создает прекрасные возможности для овладения иностранным языком. детей раннего возраста [7;60].

Целью обучения детей раннего возраста иностранному языку является развитие интереса к обучению, познанию окружающего мира, взаимоотношений и культур на основе владения иностранным языком [8;222].

Раннее изучение иностранного языка предопределяет следующие задачи:

1. Формирование и развитие фонетических навыков иностранного языка (пока голосовой аппарат гибок и механизмы овладения родной речью еще функционируют, эти навыки легко усваиваются, поэтому важно успеть) [9;1618].

2. Развитие навыков аудирования (понимание на слух);

3. Развитие речевых навыков (то есть формирование у ребенка представления об иностранном языке как средство общения);

4. Формирование и пополнение словарного запаса [10;27].

Методология и методы исследования. Методы работы – это выявление и описание особенностей обучения английскому языку детей раннего возраста, определение методов, позволяющих развивать конструктивное взаимодействие учителя и учащихся, а также разработка планов уроков [4;58]. Поставленная цель выявила решение следующих задач:

1. Учитывать особенности обучения детей раннего возраста иностранному языку;

2. Охарактеризовать особенности раннего изучения иностранного языка;

3. Учитывать особенности организации занятий иностранным языком с детьми раннего возраста;

4. Анализировать практические рекомендации по обучению детей раннего возраста иностранному языку;

5. Рассмотреть содержание обучения иностранному языку;

6. Рассматривайте фонетические игры для детей раннего возраста как один из способов изучения иностранного язык;

7. Разработка методических рекомендаций по проведению занятий с детьми дошкольного возраста.

8. Провести эксперимент по внедрению методических рекомендаций в учебную процесс.

Результаты. Важно отметить, что правильная организация обучения иностранному языку играет важную роль. Оптимально организованная деятельность в раннем возрасте (изобразительная, конструктивная, трудовая, игровая, а также связанная с выполнением элементов режима) должна использоваться в формировании навыков иностранного языка у детей. Каждый вид деятельности, в свою очередь, предоставляет большие возможности для овладения определенными группами слов, что в дальнейшем обеспечивает формирование устных и речевых навыков, дает детям возможность общаться на элементарном уровне на изучаемом языке и дает им почувствовать свои собственные успехи [10;94].

Основные факторы, влияющие на развитие личности дошкольника [12].

Основными факторами являются:

1. Наследственность – это передача качеств и способностей родителей детям. Носителем являются гены, обеспечивающие наследственную программу развития человека. Некоторые ученые, в том числе Н.М.Амосов, П.К.Анохин., К.Лоренц, могут наследоваться не только анатомо-физиологические особенности организма, но и интеллектуальные, моральные качества, а также предрасположенность ребенка к агрессивности и жестокость [3].

Дискуссия. Средой можно считать как природные условия, государственный строй, материальные условия жизни, так и непосредственную предметную и человеческую среду ребенка. Также в дошкольной педагогике используется понятие «развивающая среда» - совокупность педагогических, психологических и социокультурных условий построения педагогического процесса [4;94].

Воспитание - эффективность зависит от готовности ребенка к педагогическому воздействию.

До пяти лет ребенок осваивает родной язык. И главное не только в том, что он думает на родном языке, выражает на нем свои мысли, понимает других и учится, а в значении родного языка для развития личности. Ведь за этим стоит бездонная, бессознательная глубина – ребенок впитывает родной язык из уст матери, на нем – первые ей слова, на нем - ему первые слова, на нем - первые эмоции и чувства. И, по словам родной язык - все, все, что впервые в жизни! [15;].

Константин Дмитриевич Ушинский писал по этому поводу: «Осваивая родной язык, ребенок усваивает множество понятий, взглядов на предметы, множество мыслей, чувств, художественных образов, логики и философии языка. [16]. Принимая язык за органическое творение народной мысли и чувства, в котором выражается результат духовной жизни народов, мы, конечно, пойдем, почему в языке каждого народа выражен особый характер... и чем глубже мы будем в нем язык народа, глубже мы вошли в его характер»

[17]. Это значит, что с родным языком ребенок воспринимает особенности национального самосознания, и, формируясь как личность, прочными, хотя и невидимыми нитями, оказывается связанным с возрастом. -старинные народные традиции и культура [18]. Он понимает не только речь во всех ее нюансах, во всем ее значении, он понимает окружающих, саму жизнь через непреходящую ценность общения с народом как носитель языка [19]. Недопустимо ставить под угрозу этот важнейший этап формирования личности преждевременным обучением иностранному языку.

Ушинский также предлагал начинать обучение второму языку с семи-восьми лет [2].

Так что же можно сделать, чтобы ваш ребенок охотно изучал иностранный язык? Молодой у детей есть потребность в игре, поэтому они могут освоить иностранный язык только в игре [2].

Ребенок освоил родной язык в общении с родителями, сверстниками, и он освоит иностранный язык не один на один с преподавателем, а в общение с родственниками и сверстниками.

Отец в разговоре с ним использует иностранный язык, он играет со сверстниками или с группа сверстников, использующих иностранные слова и фразы. Очень хорошо, если сестра или брат изучает иностранный язык. Тогда есть мотив – подражать вышестоящему авторитету.

Тогда возможно и общение на иностранном языке [2]. Очень хорошо, если ребенок смотрит детские иллюстрированные книги на иностранных языках вместе со своим мамой и мамой умеет переводить то, что в них написано, объяснять с помощью развитию самостоятельного мышления, логики, памяти, воображения ребенка, на формирование его эмоций, на развитие его коммуникативных и познавательных способности [8].

Выводы. Техника игры интересна и эффективна. Воспитатель проводит игры во время где дети совершенствуют свои языковые навыки. Преимущество этой техники заключается в возможности адаптировать его для любого возраста (от года), с его помощью можно развивать как оральную речь и знание грамматики, орфографии и так далее. Дети на этом этапе развиваются очень быстро, любознательны, имеют неиссякаемую потребность в новых впечатлениях и знаний, поэтому необходимо использовать психологические характеристики обучения.

С помощью системы игр дети повторяют материал, изучают новое, анализируют. В игре дети очень естественно создают высказывания, психологические способности учитываются дети [9]. Дети любят активную деятельность, песни, отдых на природе. В ходе занятий у детей развиваются личностные качества такие как коммуникабельность, раскованность, умение взаимодействовать с другими людьми. Яркие вещи привлечь детей, поэтому обучение понятно [3]. Весь словарный запас и речевые модели знакомят с помощью игрушек, картинок героев сказок или мультфильмов.

Библиографический список:

1. Mastura, E. (2017). Depiction of the naturalism presented in the call of the wild. Интернаука, (7-3), 9. [https:// www.elibrary.ru / item.asp?id = 29041086](https://www.elibrary.ru/item.asp?id=29041086).
2. Saidova Zulfizar Khudoyberdievna Teaching English through games // Научный журнал. 2017. №3 (16). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/teaching-english-through-games>.
3. Elmanova, M. (2017). Philosophical analysis of rw emerson's" nature" and" self-reliance. Интернаука, 7(11 Часть 3).
4. Сайфуллаева Д.А. Мирджанова Н.Н. Саидова З.Х. “ Развитие профессиональных компетенций и творческих способностей студентов высших учебных заведений”. Вестник науки и образования.19(97). Россия-2020. Стр.54-58. [https:// cyberleninka.ru / article / n / razvitie - professionalnyh kompetentsiy-i-tvorcheskih-sposobnostey-studentov-vysshih-uchebnyh-zavedeniy](https://cyberleninka.ru/article/n/razvitie-professionalnyh-kompetentsiy-i-tvorcheskih-sposobnostey-studentov-vysshih-uchebnyh-zavedeniy).
5. Саидова З.Х. Model training method: Classes in the form of business games, lessons such as lesson-court, lesson action, lessen press-conference., Достижения науки и образования №5(27) Россия -2018.стр.58-59. [https:// cyberleninka.ru / article / n / model – training – method – classes – in – the - form of-buseness-games-lessons-such-as-lesson-court-lesson-auction-lesson-press conference](https://cyberleninka.ru/article/n/model-training-method-classes-in-the-form-of-buseness-games-lessons-such-as-lesson-court-lesson-auction-lesson-press-conference).
6. Z.Kh. Saidova “Impact of the Covid-19 pandemic on education system and the importance of online teaching”, International journal of discourse on innovation, integration and education, Vol.1. №. 5 (2020): December. P.58-60. <https://summusjournals.com/index.php/ijdiie/article/view/359>.
7. Saidova Z.X. Implementation of some techniques in developing reading skills in English classes., Достижения науки и образования №5(27) Россия -2018.стр.59-60. <https://cyberleninka.ru/article/n/implementation-of-some-techniques-in-developing-reading-skills-in-english-classes>.
8. Khudoyberdievna, Saidova Zulfizar. "The study of phraseology and comparative analysis of phraseologisms reflecting the spiritual state of human." International Engineering Journal For Research & Development 6.TITFL (2021): 222-225. <http://iejrd.com/index.php/%20/article/view/1871>.
9. Khudoyberdievna, Saidova Zulfizar. "English phraseology and its integration with terminology." Academicia: an international multidisciplinary research journal 11.2 (2021): 1618- 1622. [https:// www.indianjournals.com / ijor.aspx?target = ijor:aca&volume=11&iss ue=2&article=265](https://www.indianjournals.com/ijor.aspx?target=ijor:aca&volume=11&issue=2&article=265)
10. Расулов, З.И. (2011). Синтаксический эллипсис как проявление экономии языка): автореферат дисс.. кандидата филологических наук/Расулов Зубайдулло Изомович.-Самарканд, 2011.-27 с.

MOTIVATSIYA VA UNING SHAXS FAOLIYATIDA TUTGAN O'RNINI

*Kuchkarova Shahnoza Fahriddinovna –
Norin tumani MMTBga qarashli
9-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi
amaliyotchi psixologi*

***Tayanch tushunchalar:** Shaxs faoliyati. Motiv. Motivatsiya. Inson xulq atvorining ichki barqarorligi. Xulq atvorni psixologik va fiziologik boshqarishning dinamik jarayoni.*

Motivatsiya – odamni faol faoliyatga undovchi sabablar majmui bo`lib, xulq atvorni psixologik va fiziologik boshqarishning dinamik jarayoni hisoblanib unga tashabbus, yo`nalganlik, tashkilotchilik, qo`llab-quvvatlash kiradi. Motirovka deganda inson xulq atvorini tushuntirish bo`lib, unda «Nima uchun?», «Fanday maqsad bilan?», «Fanday ma`noda?» kabi savollarning motivatsiyaga bog`liqligidir. Insonni xatti-harkati va ma`lum ehtiyojlarini qondirish bilan bog`liq faoliyatga undovchi sababga motiv deyiladi. Odamning faoliyat motivlarini o`rganish shaxsning ma`naviy-psixologik mohiyatini tushunishda muhim ahamiyatga ega. Kishilarning xulqatvoriga qarab, uning xatti-harakatlarini tahlil qilib, ularning motivlarini aniqlashga intilish lozim. Shunda xatti-harakatlarni odam uchun tasodifiy yoki qonuniy ekanligini anglash mumkin bo`ladi.

Bunday xatti-harakatlarni yana takrorlanishini oldindan ko`ra olish, shaxsiy holatlarning ayrimlarini yuzaga keltirmaslikning oldini olish, boshqalarning taraqqiy etishini qo`llab-quvvatlash mumkin. Ba`zilar mehnatgao`uz ehtiyojlariga ko`ra sidqidildan munosabatda bo`lsalar, ba`zilar o`z burchlarini anlaganliklaridan, yana ba`zilar o`zlarining qobih niyatlariga erishish uchun vaqtincha sun`iy munosabatda bo`ladilar. Motivatsiya inson xulq atvori, uning bog`lanishi, yo`nalishi va faolligini tushuntirib beruvchi psixologik sabablar majmuini bildiradi.

Psixologiyada motivlashtirish deganda psixologik hodisalarning o`zaro mustaqil bog`langan, lekin bir-biriga to`la mos kelmaydigan nisbatan mustaqil uchta turi tushuniladi:

a) Individning ehtiyojlarini qondirish bilan bog`liq bo`lgan faoliyatga undovchi sabablar sifatidagi motivlashtirishdir. Faollik holatini paydo bo`lishini sub`ektiv ehtiyojlarini izohlab beradi.

b) Motivlashtirish faollik kimga qaratilgani boshqa xulq-atvor emas, balki xuddi shunaqasi tanlaganligini izohlab beradi. Motivlar xulq-atvor yo`nalishini tanlashni belgilaydigan sabablardir. Bular birgalikda kishi shaxsining yo`nalishini tashkil etadi.

v) Kishi axloqi va faoliyatini boshqaradigan vosita hisoblanadi. Bularga emotsiyalar, istaklar, qiziqishlar kiradi.

Ustanovkalar - yo`nalish, yo`naltirish ma`nosini anglatib, kishining tevarak atrofdagi odamlarga yoki ob`ektga nisbatan qanday munosabatda bo`lishlarini, ularni idrok qilinishi, sezish, ularga baho berish va qandaydir harakat qilishga

tayyorgarligini anglatadigan holatdir. Yo`naltirilgan faoliyat sub`ektning ma`lum vaziyatda faol yo`l topib keta oladigan harakatlari majmuidir. Yo`nalish – tug`ilgan yo`l, maqsad sari shaxsning xatti-harakati va faoliyatini aniq sharoitlardan qat`iy nazar ma`lum yo`lga yo`naltiruvchi barqaror motivlar majmuidir. Ular asosiy, etakchi va bosh ehtiyojlar, qiziqishlar, moyillik, e`tiqod, dunyoqarashlar, yuksak g`oyalar bilan xarakterlanadi. Har qanday motivlarning orqasida shaxsning ehtiyojlari yotadi. Inson ehtiyojlari, maqsadi, istagi, qiziqishlari shaxsiy holatlardir. Ehtiyoj - jonli mavjudodning hayot kechirishning konkret shart-sharoitlariga qaramligini ifoda etuvchi va bu shart-sharoitlarga nisbatan uning faolligini vujudga keltiruvchi holatdir.

Amerikalik psixologik A.Maslou «Inson ehtiyojlarini ierarxiya» tizimlarini quyidagicha tavsiya etadi: Motivatsiyaning bir necha psixologik nazariyalari mavjud:

1. Qaror qabul qilish nazariyasida ta`kidlanishicha inson ongi tafakkurga, iroda va xatti harakatni tanlash imkoniyatiga ega. Demak, inson xulqi motivining asosi aql, ong va inson irodasidir.

2. Instinktlar nazariyasida (Z.Freyd, U.Magdugall) – biologizator nuqtai nazari mavjud bo`lib, unga asosan insonga, hayvonlarga xos instinktlar birlashtirilgan. XX asrning 20-yillarida instinktlar nazariyasi o`rniga inson xulq atvorini biologik ehtiyojlar bilan bog`lovchi kontsepsiya yuzaga keladi.

3. Xulq atvor motivatsiyasi nazariyasi va oliy nerv faoliyati nazariyasi. XX asr boshida paydo bo`lib, xulq atvor «Stimul – reaksiya» sxemada ko`rib chiqiladi. I.P.Pavlov va uning izdoshlari N.A.Bernshteyn va P.K.Anoxin xulq atvor dinamikasi funksional sistemasi modelini ishlab chiqqanlar.

4. Motivatsiyaga kognitiv yondoshuv nazariyasi – inson xulq atvorini tushuntirishda uning ongi va bilimi bilan bog`liq fenomenlarga alohida e`tibor beriladi.

5. Faoliyat nazariyasi (A.N.Leont`ev) ga asosan motivlarni yuzaga keltiruvchi kuchlar ehtiyojlardir. Bundan shunday qonuniyat yuzaga keladiki, motivlar rivojlanishi faoliyat kengligining rivojlanishi bilan bog`liq bo`lib, u predmet faoliyatini tashkil etuvchisidir. Insonning emotsional hayoti, uning his-tuyg`ulari, quvonch tashvishi, xunsandchiligi azal-azaldan insonlar e`tiborini o`ziga tortib kelgan.

His-tuyg`u nima? Bu - borliqni o`ziga xos aks etishi bo`lib unda insonning olamga sub`ektiv munosabati aks etadi. His tuyg`u psixik jarayon bo`lib bunda insonni borliqqa o`zining shaxsiy ichki sub`ektiv munosabatini aks etadi. Emotsiyalar - lotincha so`zdan olingan (emovere) to`lqinlashtirish ma`nosiga ega. Ichki yoki tashqi qo`zgatuvchilar ta`siriga sub`ektiv holatda ifodalovchi javob reaksiyasidir. Ya`ni hissiyot – tashqi olamdagi narsa va hodisalarga nisbatan bo`lgan munosabatlarimizning va munosabatlarimizdan hosil bo`ladigan ichki kechinmalarimizning ongimizda aks ettirishdir. Hissiyot o`ziga xos aks ettirish jarayoni bo`lib, bunda narsa va hodisalarning bevosita emas, balki shu narsalarning aks ettirish jarayonidan hosil bo`ladigan ichki kechinmalari va munosabatlari aks ettiriladi. His tuyg`u psixik jarayongina bo`lib qolmay psixik holat hamdir.

Hislar mazmuniga va qo`zgaluvchanliga qarab bo`linadi: kuchi, tezligi barqarorligiga ko`ra quyidagi emotsional holatlar ajratiladi. Kayfiyat, ko`tarinkilik. Kuchli xohish istak, affekt, stress. Hislar mazmuniga ko`ra quyidagi turlarga bo`linadi: axloqiy hislar, intellektual hislar, estetik hislar, proksis hislar. Emotsional holatlarga bog`lik bir necha nazariyalar mavjud. Ulardan biri Djeyms- Lange va ikkinchisi Kennon – Bart nazariyalaridir. Hissiyotlar o`zining yuzaga kelishi nuqtai nazaridan odamning ehtiyojlari, qiziqishlari va intilishlari bilan bog`liq bo`ladi. Hissiyot olamida sodir bo`layotgan narsalardan shaxs sifatidagi odam uchun ahamiyatli bo`lganlari haqida darak beruvchi signallar sistemasi hisoblanadi. Ma`lum qo`zg`alishlar odam uchun xotirjamlik yoki notinchlik haqidagi fikrlarga aylanadi. Ifodalangan xatti-harakat (mimika va pantomimika) signal funksiyasini bajaradi. Ular odamning kechinmalarini boyitadi, yorqinlashtiradi va boshqa odamlarning idrok kelishini engillashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. P.V.Ivanov .“Umumiy psixologiya”, 1972 yil.
2. E.Goziev. Psixologiya. 1994 yil.
3. Psixologiya izohli lug`ati. 1997 yil.

BUGUNNING DOLZAB MASALARIDAN BIRI, ZIYOLIY OFISERLARNI YETISHTIRISH

*Mamatov Toyir –
O`zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari
Kichik mutaxassislarni tayyorlash markazi
Gumanitar va ijtimoiy fanlar sikli katta o`qituvchisi,
zaxiradagi podpolkovnik*

***Annotasiya.** Maqolada bugungi kunda Qurolli Kuchlarga ziyoli ofiserlarni tayyorlash masalasi dorzlabligi yoritilgan.*

***Kalit so`zlar:** inson, sifat, intellektual, saboq, oriyat, nomus, dunyoqarash, tahlil, farosat, ilmiy unvon, xushomad.*

***Аннотация.** В статье ставится вопрос, что на сегодняшний день проблема подготовки интеллигентных офицеров для Вооруженных Сил является актуальной проблемой.*

***Ключевые слова:** человек, качество, интеллектуал, урок, честь, совесть, мировоззрение, анализ, мудрость, ученое звание, лесть, угодничество.*

***Annotation.** The article raises the question that today the problem of training intelligent officers for the Armed Forces is an urgent problem.*

***Key words:** person, quality, intellectual, lesson, honor, conscience, worldview, analysis, wisdom, academic title, flattery, servility.*

Har bir harbiy xizmatchi, inson sifatida, doim va hamma joyda aqlli harakat qila olmaydi. Ammo harbiy xizmatchi qanchalik aqlli bo`lsa, shunchalik odobli va

farosatli bo'ladi. Qanchalik axmoq bo'lsa, shunchalik axmoq va farosatsiz bo'laveradi.

Inson, dunyoga mutlaqo savodsiz bo'lib keladi, ammo hayot davrida bir qator ta'sir qiladigan faktorlar orqali insoniyat tomonidan yaratilgan barcha ilmlarni o'zlashtirishga intiladi. Bunday insonlarda vijdon, oriyat, adolat va boshqa insonga xos axloqiy sifatlar mujassam bo'ladi.

Taraqqiyot qilgan jamiyatda azaldan-azal iymoni but, bilimdon, har tomonloma yetuk, dunyo qarashi keng, vijdonli, kamtarin va adolatli insonlarni hurmat qilishgan va qilishmoqda.

Harbiy xizmatchining dunyoqarashi kengligi, uning axloqiy-ruhiy xislatlari, ilmga intilishi hamda bilimdon odamlar bilan doimo suhbatda bo'lishi, bu ziyoli insonning ajralmas sifatidir.

Barcha davlatlarning taraqqiyoti, ravnaqi, tinchligi, osoyishtaligi va adolatliligi eng avval shu davlatda mavjud bo'lgan o'qimishli, bilimdon va dunyoqarashi keng ziyolilar bilan bog'liq.

Davlatning barcha sohalarida intellektual insonlar ko'pchilikni tashkil etsa, u yerda taraqqiyot va g'alaba bo'ladi.

Harbiy xizmatchi bo'lganimda, insonlar bilan muloqatda bo'layotganimda kursantlarga va ofiserlarga saboq berayotganimda, ularning qanchayam dunyoqarashlari sayozligiga amin bo'lganman va bo'layapman.

Men bilan muloqatta bulgan ofiserlarning ko'pchiligi, oliy ma'lumotga ega bo'lishiga qaramay, oddiy narsalarni bilishmaydi. Dunyoda sodir bo'layotgan hodisalarni bilimlariga asoslanib tahlil qila olishmaydilar.

Dunyoqarashlari sayoz bo'lgani uchun, ular bilan qaysi sohada gapirishni bilmaysan. To'g'ri, ular kimda qanday avtomobil, dang'illama qasr, qanday mansabi borligini hamda qanday qilib noqonuniy yo'l orqali moddiy boylik topishni yaxshi bilishadi.

Dunyoqarashi tor ofiserlar o'zlarining bo'ysunuvchilar bilan gaplashganlarida, so'z boyligi qashshoq bo'lgani uchun, faqat baqirib va shaxsni haqorat qiladigan so'zlar bilan tovush chiqazishadi.

O'zlaridan yuqori turganlar bilan esa, xushomad va laganbardor bo'ladilar. Bilimlari sayoz bo'lganligi uchun o'z fikrlari bo'lmaydi, bo'lsa ham uni boshliqlar oldida himoya qilishga jur'at etishmaydi.

Bilimi tor va dunyoqarashi sayoz bo'lgan amaldorlar gapirish uchun gapiradi. Shuning uchun ular band bo'lmasalar ham, o'zlarini boshliqlar oldida faol ko'rsatishga doyim xarakat qilishadi. Bundaqalar o'z bo'ysunuvchilar oldida o'zlarini bilimdon ko'rsatib ko'p vaysaydilar, ammo bilimdon auditoriya oldida duduqlanib yoki soqov bo'lib qolishadilar.

Ilimi yuqori bo'lgan ofiser o'z fikrlari bilan zerikmaydi. U muhim voqyealar va kashfiyotlar insonning ichida sodir bo'lishi mumkinligini tushunadi.

Ziyoli ofiserlar bu ziyo tarqatadigan insonlar, ular o'zlari bilgan bilimlarini boshqalarga yetkazishadi. Bizning ofiserlarimizning yurish-turishiga qarab, ular bilan muloqatda bo'lib boshqa davlat (millat) ofiserlari (vakillari) milliy armiyamiz (millatimiz) to'g'risida xulosa chikazishadilar.

Ziyoli ofiser (inson) me'morlar bilan binolar orqali, yozuvchilar bilan kitoblar orqali, dizaynerlar bilan interfeyslar orqali, rassomlar bilan rasm orqali, bastakorlar bilan musiqa orqali, farrosh bilan toza hovli orqali muloqot qiladi. U odamlar bilan ular qilayotgan ishlari orqali qanday muloqot qilishni biladi.

Ziyoli ofiser xotirani hozirgi muammolarni hal qilish uchun kerak bo'lmagan faktlar va ma'lumotlar bilan to'ldirmaydi. Shu bilan birga, dunyoni o'rganar ekan, u birinchi navbatda, hodisalar, narsalar o'rtasidagi sabab-oqibat munosabatlarini tushunishga intiladi.

Asl ziyoli ofiser, konteksiz hiech narsani qadrlab bo'lmasligini tushunadi, shuning uchun u barcha holatlar va tafsilotlarning umumiyiligini tahlil qilmaguncha, har qanday narsa, hodisalar haqida xulosa chiqarish va baholashga shoshilmaydi. Kamtarin ziyoli kamdan-kam hollarda tanqid qiladi, qoralaydi va boshqalarni kam sitmaydi.

Farosatsiz, dunyoqarashi tor amaldor, narsalarni, hodisalarni, hodisalar tafsilotlarini va sharoitlarini o'rganmasdan osongina boshliqlarning og'ziga qarab baholaydi. U o'zidan mansabi past bo'lganlarni tanqid qilish va qoralashdan zavqlanadi, shuning uchun o'zini tanqid qilish obyekti bo'lgan narsadan ustunroq his qiladi. Bunaqalar mabodo o'zlariga o'xshaganlar tomonidan qo'llab-quvvatlansa, biror yuqori turgan mansabdorning so'zlarini barcha yig'ilishlarda shior (sitata) qilib ishlatishadi. Ular bunday qilmishlarini doim to'g'ri deb xisoblashadi.

O'zini boshliqlarning ko'zida yuksaltirishga intilayotgan bilimsiz va oriyatsiz ofiser, bo'ysunuvchilarni kamsitadi va shuning uchun o'zini boshqalardan ustun turibman deb o'zini ovutib yuradi. Ular uchun boshqa ko'plab odamlar ma'lum bir shaxsni hokimiyat deb hisoblashlari kifoya.

Harbiy bilim yurtini (oliygohni) korrupsiya orqali bitirgan nodon ofiser, bilimning qadriga yetmaydi, faqat moddiy boylik va xushomad tilini tushunadi.

O'zini dunyoqarashini kengaytirish va ilimi o'sishga ishtiyoqi bor ziyoli ofiser (inson) o'ziga o'zi aytadi: "Bugungi kunda mening bilimlarim yetarli emas, men bundanam ko'proq va chuqurroq bilishim kerak".

Bugun O'zbekistonga barcha sohada dunyoqarashi keng bo'lgan ofiserlar xavoday kerak va ularning sonini ko'paytirish kerak.

Qanchayam ofiserlarimizni dunyoqarashi keng bo'lsa, shuncha mudofaamiz mustaqil bo'ladi.

Bugun yurtimizga ilmiy unvoni bor ammo dunyoqarashi tor bo'lgan ofiser emas balki har tomonlama rivojlangan dunyoqarashi keng bo'lgan, yuqori insoniy sifatlarga ega bo'lgan ofiserlar kerak.

Bunday ofiserlarda yuqori oriyat va nomus degan tushuncha qalbida muxulangan bo'ladi. Bunaqalar barcha narsalarga o'z fikirlariga ega bo'ladilar, ularda yetakchilik sifatlari bo'ladi va hiech qachon bo'ysinuvchilarni kam sitishmaydi.

Adabiyotlar:

1. Mamatov T. Barcha Qurolli Kuchlar shaxsiy tarkibi uchun "Erudit vaksinasi" Ma'naviy-marifiy tayyorgalik bo'yicha o'quv qo'llanma. S., 2023 y.

YOSHLARNI HARBIY-VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDA QONUN VA QONUNOSTI HUIJATLARINING AHAMIYATI

*Mamatov Xayrullo Teshayevich –
IIV Samarqand akademik liseyi “Huquqiy va
gumanitar-ijtimoiy fanlar” kafedrası boshlig‘i,
yuridik fanlar nomzodi, dosent*

Annotatsiya: Ushbu maqolada yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan milliy qonunchiligimizdagi bir qator normalarning mazmun va mohiyati hamda maqsadi ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: harbiy-vatanparvarlik, harbiy burch, harbiy salohiyat, axborot-kommunikasiya texnologiyalari, harbiy-texnika vositalari, fuqarolik tuyg‘usi, zararlı ta’sirlar, zo‘ravonlik va shafqatsizlik, fidoyilik, matonat, ommaviy axborot vositalari, buzg‘unchi g‘oyalar, jangovar ruhi, harbiy kadrlar, harbiy burch, intellektual salohiyat, muqaddas burch.

O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitusiyasining 64-moddasida “O‘zbekiston Respublikasini himoya qilish O‘zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining burchidir. Fuqarolar qonunda belgilangan tartibda harbiy yoki muqobil xizmatni o‘tashga majburdirlar” – deya belgilab qo‘yilgan ekan, avvalambor, O‘zbekiston Respublikasining 2016 yil 14-sentabrdagi “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi qonuni talablaridan kelib chiqib aytadigan bo‘lsak, yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg‘usi, bag‘rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararlı ta’sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo‘lgan qat’iy ishonch va qarashlarga ega qilib tarbiyalash, yoshlarni axloqiy negizlarni buzishga olib keladigan xatti-harakatlardan, terrorism va diniy ekstremizm, separatizm, fundamentalizm, zo‘ravonlik va shafqatsizlik g‘oyalaridan himoya qilish hamda yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyati darajasini yuksaltirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023 yil 29 iyundagi “Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 267-sonli Qaroriga 1-ilovasidagi 2023-2027 yillarda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirish Konsepsiyasiga ko‘ra, yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning maqsadi yoshlarda jamiyatning turli tarmoqlari, ayniqsa, harbiy soha bilan bog‘liq bo‘lgan davlat xizmati turlarida faollik ko‘rsatish, Konstitusiya va harbiy burchga sadoqatli bo‘lish, ularda o‘z yurti va xalqining taqdiri uchun yuksak mas’uliyat hamda javobgarlik kabi muhim xususiyatlarni mustahkamlashdan iborat ekanligi belgilab qo‘yilgan. Shuningdek, yoshlarning harbiy-vatanparvarlik tuyg‘ulari, ma’naviy sifatleri va intellektual salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan tarbiyaning yagona tizimini yaratish, yoshlarni milliy g‘oya va Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning ongu-shuuriga Vatan himoyasi sharaflı va muqaddas burch ekanligini chuqur singdirish,

Vatan ozodligi va mustaqilligi yo'lida jon fido qilgan yurtdoshlarimiz ko'rsatgan vatanparvarlik va qahramonlik, ulardagi sadoqat, fidoyilik, matonat hamda jasorat kabi xislatlarni, shuningdek, yurt, oila, ota-ona va farzandlar himoyasi xalq va ajdodlar xotirasi oldida muqaddas burch ekanini yoshlar ongiga singdirish, yoshlarda yon-atrofimiz va jahonda ro'y berayotgan siyosiy-ijtimoiy jarayonlarga milliy manfaatlarimizdan kelib chiqqan holda yondashish ko'nikmalarini, ommaviy axborot vositalari, shu jumladan, Internet jahon axborot tarmog'i orqali tarqatilayotgan g'arazli axborotlar, odob-axloqni yemiruvchi illatlar, yoshlarni zalolatga boshlovchi buzg'unchi g'oyalarga qarshi sog'lom dunyoqarashni shakllantirish lozim bo'ladi.

Shu bilan bir qatorda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 1-sentyabrdagi "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risidagi PF-158-sonli Farmonining 97-maqсадiga ko'ra, jahonda sodir bo'layotgan murakkab global jarayonlarni inobatga olgan holda Qurolli Kuchlarning qudrati, mamlakatning mudofaa qobiliyati va harbiy salohiyatini yanada oshirish maqsadida, Qurolli Kuchlarning raqamli salohiyatini oshirish va axborot xavfsizligini ta'minlash, harbiy xizmatchilarning zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalaridan foydalanish borasidagi bilim va ko'nikmalarini oshirish, qo'shinlarning jangovar ruhi va salohiyatini yuksaltirish, zamonaviy jang va harbiy mojarolar hamda xorijiy armiyalarning ilg'or tajribasini o'rganish asosida qo'shinlarning jangovar shayligi va mahoratini rivojlantirish, Qurolli Kuchlar kuch tuzilmalari bilan hamkorlikni kuchaytirish, birgalikdagi harakatlarning samaradorligi va muvofiqlashganlik darajasini oshirish hamda yuqori malakali harbiy kadrlarni tayyorlash tizimini muntazam ravishda takomillashtirib borish, o'quv jarayonlariga harbiy tayyorgarlikning zamonaviy usullarini keng joriy etish muhim ahamiyat kasb etishi belgilab qo'yilgan.

Yuqoridagilarga asoslangan holda xulosa o'rnida aytish mumkinki, yoshlarni milliy g'oya va Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning qalbi va ongiga Vatan himoyasi sharaflari va muqaddas burch ekanini chuqur singdirish, yoshlarda milliy armiyamizning qudrati va salohiyatiga bo'lgan ishonchni kuchaytirish barobarida, milliy armiyamizga jismonan baquvvat va ma'nan yetuk yoshlar zarurligini anglatish, yoshlarda yon-atrofimiz va jahonda ro'y berayotgan siyosiy-ijtimoiy jarayonlarga milliy manfaatlarimizdan kelib chiqqan holda yondashish ko'nikmalarini oshirish, yoshlarda turli ichki va tashqi tahdidlarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish, zamonaviy harbiy-texnika vositalaridan samarali foydalanish malakasiga ega yoshlarni tarbiyalash, O'zbekiston manfaatlarini nafaqat harbiy sohada, balki hayotning barcha jabhalarida himoya qilishga tayyor turish, yurt uchun fidoyi bo'lish — bu bugungi kun talabi ekanini hayotiy misollar va ta'sirchan vositalar yordamida yoshlar ongiga singdirib borish orqali, ularni vatanga sodiq hamda vatanparvar etib tarbiyalash mumkin.

SPORTCHINI MUSOBAQAGA PSIXOLOGIK TAYYORLASH

*Masharipov Y. – O‘zbekiston-Finlandiya
pedagogika instituti Psixologiya kafedrasi dotsenti*

Insonni hayotga yoki biror faoliyat sohasiga tayyorlash hayotning o‘zi kabi rang-barang, keng qamrovli, murakkab, ko‘p bosqichli jarayon bo‘lib, turli usullar, vositalar yordamida amalga oshiriladi. Masalan, o‘quvchini o‘qishga va mehnatga tayyorlash; harbiy askarni texnik, taktik va irodaviy tayyorgarlik sifatlarini rivojlantira borib, jismoniy, ruhiy, siyosiy jihatdan og‘ir sharoitlarda jangovar mashqlarga, ona-Vatanni himoya qilishga tayyorlash ko‘p bosqichli, turli xil usullar vositasida amalga oshiriladigan qiyin va qizg‘in ijodiy-tarbiyaviy jarayondir. Shuningdek, o‘quv, tarbiyaviy va amaliy faoliyatda sportchilarni jismoniy mashqlarga hamda sport musobaqalariga ruhan tayyorlash, musobaqada g‘alaba qilishga, yangi rekordlar o‘rnatishga yo‘llash usullari ham rang-barangdir. Sportchi yoki komanda a‘zolarining sport musobaqalarida yuqori natijalarga erishishi, birinchi navbatda, ularning ma‘naviy, mafkuraviy, irodaviy, jismoniy, texnik, taktik tayyorgarligiga bog‘liq. Sport amaliyotida bo‘lajak aniq musobaqalarga psixologik jihatdan alohida tayyorgarlik ko‘rgan sportchilarning ko‘pincha g‘alaba qozonishi ilmiy isbotlangan. Demak, jismoniy tarbiya o‘qituvchilari va murabbiylar sportchilarni musobaqaga psixologik jihatdan tayyorlashga alohida e‘tibor berishlari maqsadga muvofiqdir. Buning uchun ulardan sportchining musobaqaga ruhan tayyorlash bosqichlarini nazariy va amaliy jihatdan puxta bilishlari talab qilinadi. Sport turlarining o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, sportchilarni musobaqaga psixologik tayyorlashni quyidagi bosqichlarga bo‘lish mumkin:

1) sportchilarga raqibi va bo‘lajak musobaqalarning shart-sharoitlari haqida yetarlicha ma‘lumotlar berib borish;

2) sport mashg‘ulotlari va musobaqalar haqida olingan ma‘lumotlarni tekshirib ko‘rish, ishonchlilik darajasini aniqlash, musobaqaning boshlanish vaqti yoki kutilmagan o‘zgarishlarning alohida sportchilar yoki komandaga g‘alaba keltirish imkoniyatlarini o‘rganish;

3) sportchilarga musobaqada qatnashishdan ko‘zlangan maqsad va vazifalarni aniq belgilab olishlari haqida ko‘rsatmalar berish;

4) sportchining musobaqaga ishtirok etish sababi, mohiyati va aniq maqsadini aniqlash, g‘alabaga erishishning ijtimoiy ahamiyatini tushuntirish;

5) sportchining bo‘lajak musobaqa jarayonidagi faoliyatini rejalashtirish, aqliy sifatlarini o‘stirishga e‘tibor berish, musobaqaga taktik va texnik jihatdan ruhiy tayyorgarligini takomillashtirish;

6) sportchini musobaqaga ruhan tayyorlash maqsadida kutilmagan maxsus to‘siqlar vujudga keltirish, ularda bu to‘siqlar va qiyinchiliklarni yenga oladigan malaka va ko‘nikmalar hosil qilish uchun qo‘shimcha mashg‘ulotlar uyushtirish;

7) sportchiga musobaqa jarayonida paydo bo‘ladigan ichki ruhiy holatni boshqarish uslublaridan foydalanishni o‘rgatish;

8) sportchini musobaqa boshlanishida ruhiy ko'tarinkilikka, asab tizimi faoliyatini boshqarishga, ruhan charchamaslikka odatlantirish hamda musobaqa jarayonida yanada faol harakat qilishga erishishga undash.

So'nggi yillarda respublikamiz sportchilari erishayotgan natijalar yuqorilab bormoqda. Shundan ko'rinib turibdiki, inson imkoniyatlari cheksiz. Sportchi faqat ko'zlangan maqsadga erishish uchun o'zining ruhiy, jismoniy imkoniyatlarini safarbar qilish yo'llarini bilishi lozim. Sportchilarda bunday bilim, malaka va ko'nikmalarni shakllantirish, mutaxassislar, o'qituvchilar va murabbiylarning doimo diqqat markazida bo'lishi shart. Ular sportchilarni jismoniy mashq va sport musobaqalariga psixologik tayyorlashning tavsiya etilayotgan quyidagi uslublaridan foydalansa, shogirdlari yanada yuqoriroq natijalarga erishishlari mumkin.

1. Sportchi diqqatini boshqarish. Sportchi kuchli hayajonda bo'lganligi bois, musobaqa jarayonida sodir bo'layotgan ko'pgina voqeya va hodisalarning kelib chiqish sabablarini diqqat bilan aqlan hal qilishda kutilmagan qiyinchiliklarga uchraydi. Masalan, ayrim sportchilar balandlikka sakrashda langarcho'p orqali balandlikka ko'tarilishi natijasida hayajonlanish, bezovtalanish, tashvishlanish holatini oshirib yuboradi. Natijada ularda fikrini bir nuqtada to'plab, uni aniq bir ob'yektga yo'naltirishda ishonchsizlik bilan harakatlanish holati sodir bo'ladi. Shuningdek, bokschi ketma-ket zarbani qo'yib yuborishi sababli, hujumdan ko'ra ko'proq himoyaga o'tadi va unda diqqat bilan turli xil jangovar usullardan yaxshiroq foydalanish holatlari pasayib ketadi, jang olib borishda raqibining zaif himoya usullarini aniqlash harakatlari susayadi; raqib imkoniyatlari, harakatlari to'g'risida vaqtda yetarli ma'lumot ololmaydi; aniq vaziyatni hisobga olib fikran jang rejasini tuzishda, mustaqil bir qarorga kelishda qiynaladi. Shuning uchun sportchilar bilan diqqatni murakkab vaziyatlarda ham aniq zaruriy ob'yektga to'plash va yo'naltirishga yordam beradigan har xil mashqlar o'tkazish orqali ularda o'z diqqatini boshqarish malakalarini rivojlantirish zarur.

2. Hissiy obrazlar vositasida fikrlash. Sportchi bu uslub yordamida bo'lajak musobaqada o'z harakatini xayolan obrazlar vositasida tafakkurida mushohada etib, fikran tasavvur etadi, mashq qiladi. Natijada sportchi xayolan mashq qilgan harakatlarini musobaqa jarayonida (amalda) tez, shiddatli, yuqori darajada aniq bajarish imkoniyatiga ega bo'ladi. O'z harakatlarining boshlanish, o'rta va keyingi qismlari izchilligini saqlagan holda bir necha obrazlarda xayolan takror va takror ishlab chiqadi. Sportchi fikran oddiy hissiy obrazlardan murakkab obrazlarga o'tadi. Bu obrazlar real hayotda, sport amaliyotida (jismoniy mashqlar va musobaqa jarayonida) kuzatilgan, orttirilgan tajribalarga ko'ra mushohadalar natijasida yuzaga keladi. Jumladan, qachondir qozonilgan g'alaba, o'rnatilgan yangi rekord yoki muddatidan oldin o'z raqibi ustidan qozonilgan g'alaba to'g'risidagi turli aniq-tiniq obrazlar yordamida fikran mashq qilish ham sportchining musobaqalarda g'oyat aniqlik bilan harakat qilishini ta'minlaydi.

3. Ta'sirli so'zlar orqali o'zini ishontirish. Sport mashg'uloti va musobaqa jarayonida murabbiy va boshqa kishilarning ta'sirli so'zlari yordamida ham sportchilarda dadil harakatlanish holati vujudga keladi. Sportchi sha'nini ulug'laydigan, olqishlaydigan, faol harakatga undaydigan ta'sirli so'zlar uning ruhini ko'taradi, tetiklashtiradi. Natijada sportchi o'zini bardam tutib, raqibiga bo'sh

kelmay, qat'iy harakat qiladi, g'alaba qilishga intiladi. Chunki ta'sirli so'z inson asab tizimiga ijobiy ta'sir etib, organizmida psixofiziologik o'zgarishlarni vujudga keltiradi. Bu holat miyaning tormozlanish va qo'zg'alish qonuniyatlariga muvofiq miya katta yarim sharlar po'stlog'idagi to'qimalarda bo'ladigan muayyan o'zgarishlar natijasida sodir bo'ladi. Shuningdek, sportchi jismoniy mashg'ulotlar va sport musobaqalari jarayonida faol qo'llaydigan zarur harakatlarni xayolida fikran takrorlaganida ham uning miyasida funksional o'zgarishlar vujudga keladi. Sportchi so'zlar yordamida o'zini-o'zi ishontirish paytida uning organizmida birmuncha o'zgarishlar paydo bo'lgani seziladi: o'zini tetik his qiladi, harakatlarni yengil bajaradi, muskullari bo'shashadi, unda ishchanlik darajasi qaytadan tiklanadi. Akademik I.P.Pavlov ta'limotiga ko'ra, so'z ikkinchi signal tizimidagi eng muhim unsur hisoblanib, insonning yurish-turishi va xulq-atvorining oliy boshqaruvchisi hamdir. Chunki inson o'z faoliyati, muayyan holati yoki xulqini tashkil etishida, qiyin sharoitlarda o'ziga-o'zi buyruq berganida, gapirganida asab tizimida bo'ladigan fiziologik o'zgarishlar pasayishi yoki ko'tarilishi mumkin. Sportchi o'ziga-o'zi fikran gapirganida so'zlar qisqa va oddiy bo'lishi lozim. Masalan, nafas olinayotganda birorta so'z talaffuz qilinsa, nafas chiqarganda boshqa so'z sekin aytiladi. Shu tartibda talaffuz qilinadigan har bir so'z zarurligiga qarab, 2-3 marta yoki undan ko'proq takrorlanishi mumkin.

Sportchi tana-muskul harakati yoki birorta a'zosining jismoniy faollik darajasini oshirishda yoki nafas olishni to'g'ri boshqarishda o'ziga-o'zi gapirish va buyruq berish uslublaridan foydalanishi mumkin.

4. Muskullarning faollik darajasini boshqarish. Sport faoliyati jarayonida sportchining o'z muskullari faolligini boshqarishi hozirgi zamon «autogen» mashg'ulotining asosiy vazifasidir. Tana muskullarining harakatchanligini oshirish sportchidan maxsus malaka va ko'nikmalarni talab etadi. Sportchi barcha mushak, tana muskullarini bo'shashtirishda autotrening uslubidan foydalanadi.

Sportchi muskullarini bo'shashtirganida, taranglikni zaiflashtirganida, organizmida ruhiy va jismoniy ishchanlik holati tiklanadi. Ayrim sportchilar yugurganida yoki jismoniy mashqlar bajarganida muskullarini tarang ushlashga odatlanib qoladi. Agar sportchida bunday holat uzluksiz takrorlanaversa, u hech qachon maromiga yetkazib dam ololmaydi. Hatto, sportchi uxlaganida ham uning muskullari tarang holatda bo'ladi. Bunda sportchilarda asabiy zo'riqish holati tezlashadi, bu holat ular organizmida funksional kasalliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Shuning uchun murabbiylar shogirdlariga yugurganida, jismoniy mashqlar bajarganida, dam olganida, uxlashga yotayotganida, tana muskullarini bo'shashtirish mexanizmlarini o'rgatishlari zarur.

5. Nafas olish ritmi (maromi)ni boshqarish. Sport faoliyatida sportchilarga to'g'ri nafas olish mashqlarini bajarishni o'rgatish yordamida ulardagi ruhiy tayyorgarlik darajasini o'stirishga alohida e'tibor berilishi lozim. Sportchining nafas olish ritmi (maromi)ni quyidagi 3 davrga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiq: 1) nafas olish; 2) nafas chiqarish; 3) to'xtab nafas olish.

Sportchi nafas olganida ruhiy faolligi o'sadi, nafas chiqarganida muskullari bo'shashadi, ya'ni organizmi tinchlanadi. Sport mashg'uloti va musobaqalarda tez-tez nafas olish, nafasni cho'zib chiqarish, nafas olish jarayonida sportchining asab

tizimida va butun organizmida ishchanlik va ruhiy faollik darajasi o'sadi, sportchida ruhan faol harakat qilish imkoniyatlari oshadi.

I.G.Shuls «autogen» mashg'ulotiga 6 ta standart mashqlarni kiritgan edi. Biz bu mashqlarni sport mashg'ulotlari va musobaqalar jarayonida foydalanishga moslashtirdik. Mashqlarni yotgan holda (yelkada yotgan holatda qo'llar tirsakdan bukiladi, oyoqlar bir-biriga tegmasdan ochiq va erkin tinch holatda bo'ladi) yoki qulay vaziyatda o'tirgan holatda ham bajarish mumkin. Mashq qilib yurgan odam tashqi taassurotlarga berilmasdan «autogen» mashqlarini xotirjam holatda bajarishga tez va oson moslashadi. Mashg'ulotning dastlabki boshlang'ich davrida mashqlarni o'rganish tezroq va osonroq bo'ladi. Mashg'ulotlarda sportchi magnitofon tasmasiga ko'chirilgan matnni o'rganish va eshitish orqali, zarur bo'lsa, tana muskullarini taranglashtirmasdan talab qilingan jismoniy harakatlar obrazini fikran tasavvurida bajarishni davom ettiradi. Mashqlarni bosqichma-bosqich bajarishda tashqaridan ikkinchi bir shaxs tomonidan yo'l-yo'riq ko'rsatish yoki o'rgatish taqiqlanadi. Sportchilada obrazli bajariladigan mashqlarning ta'sir etish kuchi har xil bo'ladi.

Birinchi mashq – xayolan miyada obrazlar yordamida quyidagicha bajariladi: o'ng qo'l-chap qo'l, o'ng qo'l va tana muskullaridagi og'irlikni ketma-ket kuchayganligini sezish va his etish lozim. Agar bu mashqlar magnitofon tasmasiga yozilgan bo'lsa, ular ikkiga bo'lib o'rganiladi va bajariladi: 1) dastlab qo'l muskullariga ta'sir etuvchi mashqlar bajarilib, undan keyin mashq bajaruvchi asta-sekin autogen ruhiy holatdan chiqadi; 2) navbatdagi mashq tana va oyoq muskullarini obrazli mashq qildirish bilan yakunlanadi.

Ikkinchi mashq – muskullarni bo'shashtirish, qonni yurishtirish, tomir urishining izchilligini ta'minlash, badanni qizdirish sezgisini hosil qilish mashqi. Agar matn magnitofonga yozilgan bo'lsa, mashq ikki qismga bo'lib bajariladi.

Uchinchi mashq – erkin nafas olish malakalarini boshqarishni takomillashtiruvchi mashq.

To'rtinchi mashq – ichki a'zolar qon tomirlarini kengaytiruvchi mashqlarni erkin bajarishni nazarda tutuvchi mashq.

Beshinchi mashq – qo'yilgan maqsadga erishish uchun yurak urish maromini ixtiyoriy o'zgartirish (tez-tez yoki sekin urish)ga erishish malakasini egallashga imkon beruvchi mashq.

Oltinchi mashq – bosh va tanadagi qon harakatlarini oshirishda sovuq, shamol kabilardan, bosh (miya)ga dam berish uchun his-tuyg'u tasavvuridan foydalanish singari malaka va ko'nikmalarni hosil qiluvchi mashq.

Standart mashqlarni bajarish matnlari quyidagi tartibda tavsiya etiladi. Mashqni bajaruvchi o'ziga – «Men», «Mening», «Menga» tarzida gapirish yordamida ruhiyatini zarur harakatlarga yo'naltiradi. So'zlar 15 daqiqaga mo'ljallab, sekin aytiladi.

Birinchi mashq.

1. Men qulay joylashganman. Mening tanam erkin, bo'shashtirgan holatda. Men o'zimning asabimni, o'zimning tanamni, o'zimning irodaviy faolligimni boshqara olaman. Men o'zimning tana va ruhimni to'la nazorat qilaman.

2. Men hech qayerga shoshilmayman. Men xayolan o'z atrofimni doira shaklida chizib chiqdim. Men shu aylana tashqarisida o'z tashvishlarimni qoldirdim.

Men erkin, mutlaqo yaxshi kayfiyatdaman. Men o'zimning tanamni va ruhimni yengil nazorat qilmoqdaman (Bu vaziyatda sportchi o'zining holatini, o'zining tanasini to'g'ri boshqaradi; kerakli amaliy malaka va ko'nikmalarni oson o'zlashtiradi hamda yanada mustahkamlab boradi). Men barcha tashvishlardan xoliman. Men to'la xotirjamman. Men o'zimning ichki dunyomga to'la ishonaman. Men o'zimning dunyomdaman. Men o'z ongim va tanam bilan birga qo'shilib ketdim. Mening fikrim tanamdagi har bir hujayraga kirib bormoqda. Mening tanamdagi har bir hujayra o'zimning xohlagan ishimni jon deb bajarishga tayyor turibdi.

3. Men hozir butun diqqatimni o'zimning yuzimga to'pladim. Men labim, bo'ynim va yuzimdagi muskullarning bo'shashganini nazorat qilmoqdaman. Mening ko'zim va qovoqlarim yumilgan, fikrim yuzimdagi muskullarimga yo'naltirilgan. Mening tishlarim bir-biriga tegmagan holatda, tilimning uchi yuqori tishim oldida erkin turibdi. Yuzim bo'shashgan va harakatsiz, yuzim niqoblangan, xuddi maska (parda) bordek.

4. Bo'yin muskullarim to'la bo'shashgan, boshni ushlab turishda ishtirok qilmaydi.

5. Mening nafas olishim erkin, nafasni chiqarganda tetiklanaman. Mening nafas olishim sokin, tekis, bir maromda davom etmoqda. Men har bir nafas olganimda boshimda, ko'kragimda va tanamda rohatlanish davom etmoqda. Nafas chiqarishim erkin.

6. Men hozir o'ng qo'limning og'irlashishini juda istar edim. Men o'ng qo'limning og'irlashishini istar edim, o'ng qo'limning og'irlashishini xohlayman, nima bo'lsa-da, o'ng qo'lim og'irlashsin. Mening o'ng qo'lim og'irlashsin, o'ng qo'lim og'irlashsin, qo'lim og'irlashsin. Og'irlashsin, og'irlashsin. Men diqqatimni endi chap qo'limga ko'chiraman. Men chap qo'limni og'irlashishini istar edim (xuddi o'ng qo'l mashqi singari birorta ham so'z tushirib qoldirmay takrorlashni davom ettirish mumkin). Menga juda yoqimli. Men avval o'ng qo'limda, keyin chap qo'limda erkin, beqiyos zalvorli, yoqimli og'irlikni his qilmoqdaman. Men qo'llarimdagi og'irlikni juda yaxshi sezmoqdaman (to'xtam).

7. Men bo'shashgan erkin holatda juda yaxshi dam oldim, asabiy tanglikdan, asab tarangligidan qutuldim. Men juda xotirjamman. Menga xotirjamlik ishonch, kuch va sog'lik berdi. Men juda sog'lomman, vazminman. Har qanday sharoitda quvvatliman. Men a'lo darajada dam oldim. Men mashg'ulotni davom ettirishga tayyorman.

8. Mening nafas olishim hozir chuqur va quvvatli. Menda tana muskullarim harakatidan yoqimli his-tuyg'u paydo bo'lmoqda, tanamdagi og'irliklar yengillashmoqda, boshimda huzurbaxshlik paydo bo'ldi. Men nafas olganimda boshimda, ko'kragimda, tanamda xotirjamlik sezilmoqda. Mening tanamda tetiklik va quvvatlilik ko'paymoqda. Men qo'llarimni musht qilib ko'taraman, ko'zlarimni ochaman. Men siltanib turaman va tetiklik holatiga oson o'taman.

Ikkinchi mashq.

Oldingi mashqning 1 dan 5 gacha bo'lgan bandlaridagi talablar asosida mashqlar takrorlanadi. So'ngra quyidagicha davom ettiriladi:

6. Mening avval o'ng, keyin chap qo'llarim yoqimli og'irlikni qabul qilgan. Men qo'llarimdagi og'irlikni aniq sezayapman. Men hozir diqqatimni o'ng

oyog'imga ko'chiraman. Men o'ng oyog'imning og'irlashishini juda ham istar edim. Men diqqatimni chap oyog'imga ko'chiraman. Men chap oyog'imning og'irlashishini juda ham istar edim (keyin qisqa pauza). Mening o'ng va chap oyoqlarim yoqimli, iliq, huzurbaxsh og'irlikni qabul qilgan. Og'irlik mening butun tanamga tarqalgan. Men juda bo'shashganman (to'xtam). Keyin yana dastlabki mashqdagi 7- va 8- bendlardagi talablar asosida mashqlar takrorlanadi.

Uchinchi mashq.

Mening avval o'ng, keyin chap qo'llarimga yoqimli og'irlik to'la tarqalgan. Men qo'llarimdagi og'irlikni aniq sezayapman. Men fikrimni oyoqlaringa ko'chiraman. Men avvalo o'ng, keyin chap oyoqlarimda yoqimli issiqlikni, og'irlikni to'la his qilyapman. Og'irlik butun tanamga tarqalgan. Men to'la bo'shashganman.

Men o'ng qo'limning issiq bo'lishini juda ham istar edim. Qo'lim issiq bo'ldi, qo'limda huzurbaxsh og'irlikni his qilayapman. Men fikrimni chap qo'limga ko'chiraman. Men chap qo'limning issiq bo'lishini juda ham istar edim. Issiq bo'ldi (so'zlar asta-sekin qisqartirib aytiladi).

Mening o'ng va chap qo'llarimga shifobaxsh yoqimli issiqlik tarqalgan. Mening qo'llarimni, barmoqlarim uchini, yelkamni va yelkamning oldingi qismini issiq nurlar o'rab turibdi. Mening qo'llarim issiqdan nurlangandek (to'xtam).

Keyin yana dastlabki mashqning 7- va 8-bendlardagi takrorlanadi. 8-bandga zarurat bo'lsa, yanada ta'sirli so'zlar orqali o'zgartirish kiritish mumkin. Bu tanadagi ortiqcha issiqlik va og'irlikni yo'qotishda yordam beradi, sportchini hushyor qiladi. Keyingi boshqa barcha mashqlarda shu so'zlarni fikran takrorlash tavsiya etiladi.

To'rtinchi mashq.

Men o'zimning nafas olishimni diqqat bilan eshitaman. Mening diqqatim faqat nafasimda. Mening nafasim bir maromda. Hammasi mening nafasimda. Men juda yaxshi kayfiyatdaman va nafas olishim erkin. Nafas olishim meni ruhlantirmoqda va tetiklik bag'ishlamoqda. Mening nafasim charchashdan va asabiy tanglikdan tiqilgandek. Biroq bu holat vaqtincha. Men asab tarangligini yengayapman. Mana yengdim. Chunki hamma vaqt men o'ylagandek bo'ladi. Men quvnoqman va har qanday muhitda yengil nafas olaman. Men o'zimning behad sog'lomligim va xursandligimdan nafasim tiqilgandek, butun tanamdagi issiqlik ko'krak ostigacha borib yetgandek sezilmoqda. Men shu joydan shifobaxsh issiqlikni fikran tanamdagi barcha a'zolarimga jo'nataman. Hamma vaqt shunday bo'ladi. Hamma joyda shunday bo'ladi (to'xtam). Keyin yana dastlabki 7- va 8-bendlardagi mashqlar takrorlanadi.

Beshinchi mashq.

Bu mashqlar ichki organlarning qon tomirlarini kengaytirish maqsadida erkin bajariladi. Buning uchun to'rtinchi mashqning 6-bandidagi so'zlarni to'la takrorlash tavsiya etiladi.

Men o'ng qo'limni ko'krak ostiga qo'ygan holatda joylashdim. Men o'ng qo'limni ko'krak ostiga qo'ygan holatda joylashdim. Men kaftimda paydo bo'lgan issiqlikning kuchayganini aniq sezib turibman. Men har bir nafas olganimda mo'ljaldan ortiq issiqlik olayotgandekman va bu issiqlikni o'ng qo'lim orqali

ko'krak ostiga o'tkazaman. Haqiqatan ham issiqlik hayratlanarli darajada sezilarli. Men to'plangan bu issiqlikni fikran tanamning har qanday joyiga o'tkaza olaman. Issiqlik menga bo'ysunadi. Mening ko'krak va qornim issiqlikdan rohatlanayapti. Bu shifobaxsh issiqlik mening tanamni qizdirdi. Bu issiqlikdan badanim nurlangandek bo'lmoqda. Men o'zimni ichki ehtiyojimga muvofiq barqaror issiqlik ishlab chiqarish qobiliyatiga egaman.

Oltinchi mashq. Uyquni yaxshilash.

Meni hech narsa xavotirga sololmaydi. Menda o'y-tashvish yo'q, tanam uvushib ketayapti. Tinchlik mudroqqa o'rin bermoqda. Mudrash mayin va juda yoqimli. Huzurbaxsh mudroq butun miyamni o'rab olmoqda va fikrimning o'rnini sokin uyqu bosmoqda. Men uyquga ketayapman. Men yoqimli, huzurbaxsh va shirin uyquga ketdim.

Men uyg'oqlikda o'zimni aniq, ravshan va yorqin tasavvur qilaman. Men juda tetikman, bosiq va vazminman, g'alabaga erishuvchanman. Men hamma vaqt shunday bo'laman. Menda qayg'uga, hasratga, tartibsizlikka, muvaffaqiyatsizlikka moyillik yo'q. Men sog'lom va chidamliman, doimo a'lo kayfiyatda bo'laman.

Men hozir hech narsani sezmayman. Meni hech narsa xavotirga sololmaydi. Men chuqur, chuqur uyquga ketayapman. Men rohatbaxsh uyquga g'arq bo'lib ketayapman. Uxla, uxla, uxla. Men, aksincha, uyg'onmasdan chuqur va chuqur uyquga ketdim. Men magnitofonni o'chirdim, o'chirdim.

Yettinchi mashq.

Mening peshonamga yoqimli salqinlik urilmoqda. Mening yuzimni siypalab, mayin shabada esib turibdi. Salqin quvvat mening miyamga, ko'z va tanamga tetiklik keltirdi. Mening tanamdagi issiqlik asta-sekin pasaymoqda (to'xtam). Mendagi qat'iyat, o'zimga ishonch asablarimni mustahkam qildi. Mendagi ishonch tanamni hayotiy kuch-quvvatga to'ldirdi. Mening o'zimga ishonchim juda yuqori va barqaror. Men juda chidamli va qat'iyatliman. Mening a'zolarim barcha qiyinchiliklarga bardosh beradi, men barcha a'zolarimga ishonaman. Mening o'zimga ishonchim kuchimni to'la tiklashga imkon berdi, jismimda to'plangan ortiqcha kuchlar mendagi faollikni o'stirdi. Men tetik, sog'lom va quvvatliman. Men qisilgan prujinadek kuchliman. Men musobaqada ishtirok etishga tayyorman. Men qo'limni musht qilib ko'zimni ochaman. Men juda tetikman, barcha jismoniy mashqlarni bajarishga kirishaman.

Sportchi mashg'ulotlarda mashqlardan juda charchab chiqqan paytlarda yoki boshqa birorta mashqni sifatli va aniq bajarishda qiynalayotgan vaqtda quyidagi mashqlardan mini-trening sifatida foydalanish tavsiya etiladi: Siz birorta qulay joyda bo'shashgan holatda o'tiring va oldingi mashqlarda aytib o'tganimizdek, 2-3 daqiqa davomida ko'zlaringizni yuming. Siz yaxshi kayfiyatda ekanligingizni tasavvur eting. Masalan, go'yo o'zingizni voleybol o'ynayotgandek yoki birorta faol harakatni tez bajarayotgandek tasavvur qiling va xayolan o'sha holatga kiring, keyin ko'zingizni ochib, zarur bo'lgan mashqni bajarishga kirishing. Shu tariqa asta-sekin o'zingizning hayotingizni sermazmun, jo'shqin bo'lishi va kayfiyatingizni oshirish uchun maxsus reja tuzing va unga amal qilishga o'rganing.

«Autogen» mashg'ulotining yuqorida biz ko'rib chiqqan har bir bosqichi sportchilarni musobaqaga ruhan tayyorlashda muhim ahamiyatga ega. Agar

sportchilar muntazam ravishda «autogen» mashg'uloti bilan shug'ullanib yurishsa, o'yinlarda ularning ruhiy sifatlari asta-sekin kuchaya boradi. Jumladan, sport mashg'ulotlari va sport jarayonida diqqatning taqsimlanishi yaxshilanadi, harakat obrazlarining yorqinligi kuchayadi. Agar sportchi so'z vositasi yordamida o'ziga buyruq berish mexanizmlaridan to'g'ri foydalansa, irodaviy hamda jismoniy sifatlari yanada rivojlanadi.

Sportchilarni musobaqaga ruhiy jihatdan tayyorlashda ularga yaqin kunlarda bo'ladigan musobaqa to'g'risida aniq va xolis ma'lumotlar berib borish ham muhim o'rin tutadi. Chunki sportchining bo'lajak musobaqani o'tkazish joyi, vaqti, muhit, sharoit, ob'yektiv va sub'yektiv munosabatlar, musobaqa qatnashchilarining tarkibi, raqib komandalar tarkibi, asosiy raqiblar, alohida raqib sportchining individual xususiyatlari; jismoniy, ruhiy, taktik, irodaviy tayyorgarligi; alohida raqib yoki raqib komanda a'zolarining qanday imkoniyatlarga ega ekanligi to'g'risida axborotlar olishi musobaqaga ruhiy va jismoniy tayyorgarligini oshirishda, bo'lajak musobaqaning rejasini tuzishda muhim omil hisoblanadi. To'g'ri, bo'lajak musobaqaning hamma jihatlarini mayda-chuydasigacha bilib olish juda qiyin. Shunday bo'lsa-da, sportchi uchun bo'lajak musobaqaning ayrim muhim tomonlari to'g'risidagi ma'lumotlarga ega bo'lish ham muvaffaqiyat keltirishda yordam beradi. Ba'zan sportchi musobaqa haqida aniq ma'lumotlarga ega bo'lmaganligi sababli, unda g'alabaga ishonch o'rnida qo'rqinch, vahima, o'ziga ishonmaslik holati paydo bo'ladi yoki g'alabaga befarq bo'lib qoladi. Musobaqa jarayonida sportchilardagi noxushlik, bezovtalanish, tashvishlanish kabi ruhiy holatlarni yo'qotish yoki pasaytirish uchun yuqorida nomlari ta'kidlangan maxsus psixologik uslublardan foydalanish ularning musobaqalarga psixologik jihatdan tayyorgarlik holatini yanada yaxshilaydi, g'alaba qozonishga bo'lgan ruhiy, jismoniy va taktik imkoniyatlarini oshiradi. Hatto, ayrim murabbiylar shogirdlarini musobaqaga ruhan tayyorlash muammosini to'g'ri hal etish maqsadida, ularning raqiblari haqida ma'lumotlar yig'ib, raqibning suratini mashq qiladigan sport zalining e'lonlar taxtasiga ilib qo'yib, tagiga yoshi, bo'yi, ma'lumoti, jismoniy tayyorgarligi, ruhiy holati, irodaviy sifatlari, texnik va taktik mahorati, yoqtirgan kurash usullari, sportda erishgan ko'rsatkichlarini yozib qo'yadilar. Boshqa ba'zi bir tajribali murabbiylar shogirdlariga teng keladigan raqib obrazini yaratib, sport mashg'uloti jarayonida o'sha raqib sportchiga qarshi har xil texnik va taktik usullar ishlatish, jumladan, raqibdan o'zini himoya qiladigan qarama-qarshi kurash usullaridan foydalanish, uning zaif himoyalangan nuqtalariga zarba berish kabilar yordamida shogirdlarini bo'lajak katta musobaqalarga jismoniy, ruhiy, taktik jihatdan tayyorlab boradilar.

Sportchilarni musobaqaga ruhan tayyorlashda ularning musobaqaga ishtirok etish motivlari, ehtiyojlari va maqsadini aniqlash juda muhim. Chunki motivlar sportchi ruhiyatiga ta'sir qiluvchi asosiy omildir. «Sportchi nima maqsadda musobaqada ishtirok qilmoqchi?», «Nima sababdan bu maqsadni o'z oldiga qo'ydi?», «Sportchi nima uchun bunday harakatlarni bajarishga o'zini majbur etmoqda?» kabi savollar yechimini topa bilishi shart. Chunki sportchining sportga bo'lgan ehtiyojlari uning ruhiy faolligini oshiradi, qiziqishini kuchaytiradi. Aynan shu ehtiyoj sababli sportchi o'z raqibidan ustunlikka erishish uchun bilim, malaka va ko'nikmalarini o'stirib boradi, xulq-atvorini shakllantirishga harakat qiladi.

Aynan shu ehtiyoj sportchidan hayotning barcha yo'nalishlarida mehnat qilishni, jamoada o'z o'rnini topishni o'zining asosiy maqsadi va burchi deb bilishni taqozo qiladi.

Sportchining musobaqada g'alaba qilish maqsadi uning shiddat bilan izchil mashq qilishi, musobaqaga ruhiy tayyorgarlik holatining yuqori darajada bo'lishi kabi omillar ta'sirida amalga oshadi. Murabbiy g'alaba qilish uchun aniq imkoniyatlarni hisobga olish, kuchli raqiblar bilan juda ehtiyot bo'lib bellashish, mehnatsiz maqsadga erishish muhim emasligi kabilar haqida tushuntirish ishlari olib borishi lozim. Shogirdini har qanday sharoitda ham o'zining kuchiga qattiq ishonch hosil qilgan holda musobaqaning oxirgi daqiqalarigacha g'alaba qilish uchun barcha ruhiy va jismoniy imkoniyatlaridan foydalanishga o'zini majbur etishga o'rgatishi kerak. Bu, albatta, sportchini musobaqaga psixologik tayyorlashga ko'p jihatdan bog'liq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Masharipov Y. Umumiy va sport psixologiyasi. Darslik,. Samarqand-2020. 603 b.
2. Mahsaripov Y. Umumiy psixologiya. O'quv qo'llanma. Samarqand-2023. 123 b.
3. Mahsaripov Y. Sport psixologiyasi.O'quv qo'llanma.Toshkent-2010.128 b.

O'QUVCHILARDA LIDERLIK QOBILIYATINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISH USULLARI

*Mavlonova Dilsuz Mustafokulovna –
Samarqand viloyati Ishtixon tumani
68-maktab oliy toifali o'qituvchisi*

Insonni har tomonlama barkamol etib tarbiyalash bashariyatning azaliy orzusi bo'lib, ajdodlarimiz yosh avlodlarga ma'rifat va madaniyatni o'rgatish, ularni komillikka yetaklash yo'llari, qonun-qoidalarini izlaganlar. Aristoteldan keyin, Sharq va G'arbda "Muallimi soniy", ya'ni "Ikkinchi muallim" nomi bilan mashhur bo'lgan Abu Nasr Forobiy "Fozil odamlar shahri", "Yaxshi hulqlar", "Baxt-saodatga erishish haqida" kabi asarlarida sardor, yetakchiga xos xislatlar haqida yozadi. Forobiy bunday fazilatlar deganda, bilimdonlik, donolik, mulohazalilik va vijdonlilik, kamtarlik, jamoa manfaatlarini yuqori qo'yish, haqiqiy ma'naviy komillikka intilish, adolatli bo'lish kabi xislatlarni tushungan.

Masalan, fozillar shahrining (davlat nazarda tutilgan) tarkib topishi va unda qanday axloqiy sifatdagi shaxsning rahbar bo'lishi tasniflari bugungi demokratik jamiyat qurishning bevosita nazariy talablari bilan uyg'un keladi. Abu Nasr Forobiy "Fozil odamlar shahri" asarida yetakchiga xos bo'lgan 12 ta xislat haqida quyidagilarni ta'kidlaydi:

birinchidan, to'rt muchasi sog'lom bo'lib, o'ziga yuklangan vazifalarni bajarishda biror a'zosidagi nuqson halal bermasligi lozim, aksincha, u sog'salomatligi tufayli bu vazifalarni oson bajarishi lozim;

ikkinchidan, tabiatan nozik farosatli bo'lib, suhbatdoshining so'zlarini, fikrlarini tez tushunib, tez ilg'ab olishi, shu sohada umumiy ahvol qandayligini aniq tasavvur qila olishi zarur;

uchinchidan, u anglagan, ko'rgan, eshitgan, idrok etgan narsalarni xotirasida to'la-to'kis saqlab qolishi, barcha tafsilotlarni unutmasligi zarur;

to'rtinchidan, zehni o'tkir, zukko bo'lib, har qanday narsaning bilinarbilinmas alomatlari va u alomatlari nimani anglatishini tez bilib, sezib olishi zarur;

beshinchidan, u fikrini aniq tushuntirish maqsadida, uni chiroyli so'zlar bilan ifodalay olishi zarur;

oltinchidan, u (ustozlardan) ta'lim olishga, bilim, ma'rifatga havasli bo'lishi, o'qish-o'rganish jarayonida sira charchamaydigan, mashaqqatlardan qochmaydigan bo'lishi zarur;

yettinchidan, yeb-ichishda ochofat bo'lmasligi, aksincha, o'zini tiya olishi, (qimor yoki boshqa) o'yinlardan zavq, huzur olishdan uzoq bo'lishi zarur;

sakkizinchidan, u haq va haqiqatni, odil va haqgo'y odamlarni sevadigan, yolg'on va yolg'onchilarni yomon ko'radigan bo'lishi zarur;

to'qqizinchidan, u o'z qadrini biluvchi va nomus-oriyatli odam bo'lishi, pastkashlardan yuqori turuvchi, tug'ma oliyhimmat bo'lishi, ulug', oliy ishlarga intilishi zarur;

o'ninchidan, bu dunyo mollariga, dinor va dirhamlarga qiziqmaydigan (moldunyo ketidan quvmaydigan) bo'lishi zarur;

o'n birinchidan, tabiatan adolatparvar bo'lib, odil odamlarni sevadigan, istibdod va jabr-zulmni, mustabid va zolimlarni yomon ko'ruvchi, o'z odamlariga ham, begonalarga ham haqiqat qiluvchi, barchani adolatga chaqiruvchi, nohaq jabrlanganlarga madad beruvchi, barchaga yaxshilikni va o'zi suygan go'zalliklarni ravo ko'ruvchi bo'lishi zarur. O'zi haq ish oldida o'jarlik qilmay, odil ish tutgani holda har qanday haqsizlik va razolatlarga murosasiz bo'lishi zarur;

o'n ikkinchidan, o'zi zarur deb hisoblagan chora-tadbirlarni amalga oshirishda qat'iyatli, sabotli, jur'atli, jasur bo'lishi, qo'rqqoqlik va hadiksirashlarga yo'l qo'ymasligi zarur.

Yetakchilik va boshqaruv haqida so'z ketganda, buyuk tarixiy shaxs, o'rta asrning yirik davlat arbobi, mohir sarkarda, kuchli va markazlashgan davlat asoschisi, ilm-fan va madaniyat homiysi Sohibqiron Amir Temur xususida alohida to'xtalib o'tish joiz. Tarixdan ma'lumki, Amir Temur 7 yoshga to'lgach, otasi uni o'qishga beradi. U yoshlik chog'laridanoq chavandozlik, ov qilish, kamondan o'q uzish kabi turli mashq va harbiy o'yinlar bilan mashg'ul bo'lishni yoqtirar edi. Shu asnoda Amir Temur tulporlarni saralab ajrata oladigan mohir chavandoz va dovyurak bahodir sifatida voyaga yetadi. Uning atrofida bolalikdagi do'stlari va maktabdoshlari to'planishib, birgalikda mashq qilar, musobaqalarda ishtirok etishar, asta-sekin harbiy guruhga birlashib, shakllana borishadi. Bu guruh orasida Abbas Bahodir, Jahon Shohbek, Kimori Inoq, Sulaymon Shohbek, Sayfuddinbek va boshqalar bo'lgan. Keyinchalik ular Amir Temurning safdoshlariga aylanib, uning qo'shinida lashkarboshilik darajasiga ko'tarilganlar. Amir Temur tabiatan og'ir, bosiq, teran fikrli va idrokli, turli fikrni tezda fahmlab oladigan yetakchilik

qobiliyatiga ega inson bo'lgan. Shu tufayli o'spirinlik chog'laridayoq tengqurlaridan sadoqatli do'stlarni atrofiga jalb qila olgan. U odob-axloq, imon-e'tiqod ta'lim-tarbiya sohasidayuksaklikka erishgan buyuk siymolardan biridir. Jahonga mashhur bo'lgan "Temur tuzuklari"da uning ibratli, hayotiy pand-nasihatlar va purma'no o'gitlarining teranligi, ta'sirchanligi yaqqol namoyon bo'ladi. Bu asarni davlat boshqaruvida, yoshlarda liderlikka xos xislatlarni va boshqaruv mahoratini shakllantirishda beqiyos xazina - qo'llanma, deya olamiz. Sohibqironning davlat boshqaruv tajribasi, yetakchilik haqidagi ilg'or g'oyalari, pand-nasihatlaridan hozirgi kunda ham dasturilamal sifatida foydalanish mumkin.

Shaxsning yetakchilik imkoniyatini rivojlantirishning zamonaviy yondashuvlaridan biri insonda shakllangan qobiliyatga suyanish va qobiliyatni imkoniyatga qarab namoyon etishdir. Bunday yondashuv "vaziyatli yetakchilik" deb ataladi, unda yetakchi deb tan olingan shaxsning umumiy maqsadga erishish yo'lida muammoli vaziyatda o'z qobiliyatini namoyon eta olishi tushuniladi. Bu nazariyaga binoan, guruh bir necha yetakchiga ega bo'lishi mumkin, kezi kelganda, har bir jamoa a'zosi muammoli vaziyatni hal etish borasida o'z qobiliyat va imkoniyatini namoyish eta oladi. Samarali faoliyat olib boruvchi rahbar o'z jamoasida aynan shunday muhitni yaratishi kerakki, har bir xodim zarur vaziyatda o'z imkoniyatini ishga solish orqali muammoli vaziyatni hal etishda faol qatnashishi va boshqaruv jarayonida ishtirok etayotganini anglasin. Buning uchun jamoa har qanday vaziyatni hal etishda mas'uliyatni his qiluvchi va professional xodimlarga ega bo'lishi lozim. Shu bilan birga, guruhda shunday xodimlar ham borki, ular yuzaga kelgan muammoli vaziyatlarni hal eta oluvchi universal qobiliyatga ega. Yoshlar yetakchilariga xos xususiyatlarni quyidagi toifalarga bo'lish mumkin:

- ishonch;
- o'z bilim va tajribasini qo'llash;
- faollik - g'ayrat bilan harakat qila olish;
- tashabbuskorlik;
- faollikning ijodiy namoyon bo'lishi, g'oyalar, takliflarni ilgari surish;
- bilimdonlik;
- ishni chuqur bilish orqali namoyon qilish;
- kirishimlilik;
- o'zgalar bilan muloqotga tez kirishish, samimiy bo'lish, insonlararo muloqotga ehtiyoj;
- zehnlilik;
- voqea-hodisaning mohiyatini tezda anglash, uning sabab va natijasini oldindan;
- ko'ra bilish, eng muhimini aniqlay olish;
- qunt-matonatlilik;
- iroda kuchini namoyon qila olish, qat'iyatlik, ishni yakuniga yetkaza olish;
- dadillik;
- his-tuyg'u va harakatlarini, ayniqsa, qiyin vaziyatlarda nazorat qila olish;
- mehnatkashlik;
- bardoshlilik, murakkab vazifalarni bajara olish qobiliyati;
- kuzatuvchanlik;

ishni ko'ra bilish, yo'l-yo'lakay muhimini ajratish, maydachuyda narsalarni fahmlay olish;

tartiblilik;

o'z xatti-harakatlarini rejalashtira olish, ketma-ketlikni aniqlay olish;

mustaqillik;

mulohaza yuritishda mustaqillik, mas'uliyatni o'z zimmasiga olish.

Yetakchisining o'ziga xos xususiyatlari, ya'ni yetakchilik iste'dodining boshqalardan farqli ko'rsatkichlari qatorida yana quyidagilarni qayd etish mumkin:

tashkilotchilik

ziyrakligi

o'zgalarni tushunish, ularning ichki olamiga kira olish, individual fazilati, kayfiyatini inobatga olgan holda masalaga yondashish;

faol psixologik ta'sir kuchiga egalik;

yuzaga kelgan vaziyatni hisobga olgan holda, ularning xususiyatidan kelib chiqib, insonlarga turli usullar bilan ta'sir o'tkaza olish;

yetakchilik mas'uliyatini o'ziga olish.

Yetakchining asosiy xususiyatlaridan biri – ijtimoiy qatlam orasida “bir qadam oldin”da bo'lish. U yangiliklardan doimo xabardor, boshqalar uchun ochiq bo'lmagan axborotga ega bo'lishi kerak.

Barcha jabhada yoki sohada axborotga egalik qilish boshqalardan ustun bo'lish imkonini beradi. Yetakchi bunday manbani qayerdan, qanday topishni yaxshi biladi. Bunday axborotga ega bo'lmagan rahbarlar uning o'rnini xayol, gumon va shubha bilan to'ldiradi. Ular hayotidagi unutilmas kun yoki umuman bo'lmagan voqealar bilan o'rtoqlashadilar, bunday narsalarni yaxshi qabul qiladilar. Shu tariqa shaxsning yetakchilik xususiyatlari o'z fikrini erkin bildirishida namoyon bo'ladi. Yosh rahbar yoki lider aniq dalil va isbotlar bilan o'z bilimini boyita oladi.

Bunday holatda yetakchiga nisbatan ishonch ortadi. Yosh yetakchining yana bir xususiyati shundaki, u o'ziga xos va takrorlanmas fikrlarni dadil bildira oladi. U fikrlarini qiziqarli tarzda ifodalaydi va boshqalardan ham dadillik kutadi. Bunday xususiyatga ega bo'lgan yetakchiga yoshlar ishonadi va unga ergashadi. Shuning uchun yoshlarga yetakchilik xususiyatlari bilan birga axloqiy qoidalar asosi va ko'nikmalarini singdirish hamda har bir xatti-harakatning natija va oqibatlarini anglashni o'rgatish kerak. Bu, o'z navbatida, barkamol, yetuk insonni shakllantirish imkonini beradi. Yoshlarlar ichida turli ijtimoiy guruhlar, harakatlarga a'zo bo'lish alohida ahamiyat kasb etadi.

Rahbar uchun zarur xususiyatlardan yana biri - shaxsning o'ziga bo'lgan ishonchi. O'ziga ishonchi bo'lmagan rahbar vaziyat o'zgarishi sababli o'z qarorini o'zgartirishi tabiiy. Bunday jamoada xodimlar o'z rahbarini suyanchiq sifatida ko'rmaydilar. Yetakchi ijtimoiy, iqtisodiy va huquqiy holatlarda sherigi yoki hamkorida ishonch uyg'otishi, ishning muvaffaqiyatiga kafolat berishi, mas'uliyatni his etishi zamonaviy rahbar uchun muhim fazilat ekanini anglashi lozim. Bu jarayonda “ishonch” tushunchasi asosiy o'rin egallaydi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, yetakchi shaxs tug'ma qobiliyatining yetarli darajada shakllanganligi bilan karakterlanadi.

Yuqorida aytganimizdek, yetakchining asosiy xususiyatlaridan biri - guruh manfaati haqida g'amxo'rlik. Shuning uchun "yetakchi" ta'rifidagi asosiy ma'no shaxsning vaziyatni muvaffaqiyatli hal eta olish qobiliyati va guruh maqsadi yo'lidagi jonbozligi deb tushunilishi mumkin. Yetakchilikni rivojlantirish aniq maqsadga yo'naltirgan holda tegishli ko'nikmalarni shakllantirish hamda mustahkamlashdir. Yoshlar tashkilotida yetakchilik bilan boshqarish muammosining ushbu jihati yetakchilik qobiliyatini o'rgatish hamda o'zi ham o'rganish, motivlashtirish, treninglar va amaliy tajriba orqali yanada rivojlantirish imkonini hisobga oladi. Yoshlar tashkilotida yoshi, jinsi, millati va mavqei turlicha bo'lgan yetakchi ijodkorlar uchraydi, masalan:

harakatga keltiruvchi tashkilotchilar (rasmiy) yetakchilar;
ruhiy kayfiyatga chorlovchi (da'vatkor) yetakchilar;
tashabbuskor (ijodkor) yetakchilar;
bilimdon (ilmiy salohiyatli) yetakchilar;
mohir, ishbilarmon, ishni hammadan yaxshi (sifatli) bajara oladigan yetakchilar.

Yoshlar huquqiy ong va psixologiyasida ushbu davr yetuklik hamda, qadriyatlarni anglashning shakllanishi, o'zligini anglashi va shaxsning mavqei shakllanishi davri sifatida qaraladi. Yetuklik va navqironlik, shaxsning o'zini anglashi o'ziga xos beriluvchanlik, axborotlarni qayta ishlash va o'zlashtirish qobiliyati bilan harakterlanadi.

Ushbu davr tanqidiy nigohdagi tafakkur, turli jarayonlarni o'z nuqtai nazari bilan baholash, turli dalillar izlash va original fikrlash vaqtidir. Shu bilan birga, ushbu yoshda oldingi avlodga xos bo'lgan hayot tarzi saqlanib qoladi. Yosh yetakchi va Yetuklik davruda faol harakat vaqti ba'zan hayot tajribasi yetishmay qoladi, bu uning ijtimoiy munosabatlar tizimiga to'la kirishmaganligi bilan bog'liq. Demak, zamonaviy yetakchi guruhda yetakchilik qobiliyati, umumiy va o'ziga xos xususiyatlari bilan boshqalardan ajralib turadi.

Bu vaziyatlarda esa albatta hayotiy va amaliy tajribasi yuqori ustozlardan orttiriladigan ilm vatajribalar rahbar yoli liderlarni mukammallikka yetaklaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Азизходжаева Н.Н. Педагогические технологии и педагогическое мастерство. Издательско-полиграфический творческий дом им.Чулпана. Т.; 2005. -200 с.

2. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari / Muslimov N.A., va b.qalar. – Toshkent, 2015. – 120 b.

3. Umumiy pedagogika Darslik 1-qism /O.Musurmanova va boshq. – Toshkent, Yoshlar nashriyot uyi, 2020. -376 b.

4. G'oziyev E. Tafakkur psixologiyasi. - T: O'qituvchi, 1990.

MARKAZIY OSIYO ALLOMALARINING PEDAGOGIK QARASHLARI

*Muratova Shaxnoza Ibatovna –
Qarshi innovatsion ta'lim universiteti o'qituvchisi,*

*Ibodov Farrux Furqat o'g'li –
Qarshi innovatsion ta'lim universiteti talabasi*

Annotatsiya. Maqolada sharqiy uyg'onish davrining buyuk mutafakkirlarini pedagogik g'oyalar va o'qitish haqidagi qarashlar shuningdek, har bir olim, mutafakkirning ta'limning inson rivojlanishidagi o'rni, uning pedagogik fikr rivojiga qo'shgan hissasi haqidagi qarashlari tahlil qilinadi. Arab xalifaligida sodir bo'layotgan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar, yagona musulmon dinining yaratilishi madaniy hayotga ta'sir ko'rsatdi. Bunday ko'tarilish butun Arab xalifaligining birlashishi, yaqin Sharqda, ushbu rivojlanish davrida Sharqning Uyg'onish davri deb ataladi. U XVI asrlarga qadar davom etgan. Uyg'onish davri pedagogik fikrining asoslari, ushbu hodisaning xususiyatlari, asosiy vakillari, pedagogik fikrning rivojlanishiga qo'shgan hissasi muhokama qilinadi.

***Kalit so'zlar:** Sharq uyg'onish davri, madaniy hayot, mutafakkir, fikr, ta'lim, fan, ma'rifat, ma'naviyat, mukammal inson, axloq, xulq-atvor, estetik tarbiya, mehnat ta'limi, ilmiy meros.*

Insoniyat tarixida Sharq uyg'onish davri pedagogik g'oyalar alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki, bu davr pedagogikasida axloqiy fazilatlar va ta'lim-tarbiya masalalariga juda katta e'tibor qaratilgan. Shaxs kamoloti masalasi o'sha davr mutafakkirlarining diqqat markazida bo'lgan. Bu davrda ta'limiy, tarbiyaviy va axloqiy mazmunda yaratilgan Sharqning buyuk mutafakkirlarining pedagogik g'oyalari jahon pedagogikasiga katta hissa qo'shadi biroq, zamonaviy Sharqda o'rta Osiyo respublikalari mustaqillikka erishgunga qadar o'rta asr mutafakkirlarining pedagogik merosi talab qilinmagan edi va faqat so'nggi yillarda pedagogik fikrning ushbu xazinasiga qiziqish jonlandi. Mutafakkirlarning pedagogik qarashlari o'rta asrlarning pedagogik fikridagi demokratik yo'nalishni anglatadi: ular inson haqidagi g'oyalarga, yosh avlodni tarbiyalash va o'qitish nazariyasini shakllantirish va takomillashtirishga katta ta'sir ko'rsatgan va hozir ham mavjud. Ularning pedagogik g'oyalari bugungi kungacha nafaqat inson va uning tarbiyasi, balki insonparvarlik, har tomonlama rivojlangan shaxsni shakllantirish, o'qituvchiga qo'yiladigan talablar to'g'risida g'oyalarni shakllantirish uchun zamin bo'lib kelgan. Bugun yangi O'zbekiston yangi qadamlar tashlamoqda.

Har qanday mamlakat va davlatning rivojlanishining asosiy omili ta'lim va tarbiya hisoblanadi. Ilm – fan, ta'lim, ma'naviyat va ma'rifatga sarmoya kiritish katta kelajakka sarmoya kiritishdir. Biz asrimizning yuqori rivojlangan mamlakatlari tarixi va tajribasidan yaxshi bilamizki, rivojlanmagan davlat hech qachon to'laqonli davlat bo'la olmaydi. Darhaqiqat, bilim va ma'rifat ikki dunyoning baxtidir. Johil odam unga berilgan barakalarning qadr-qimmatini tushunmaydi. Bilim inson uchun

najotdir. "Uyg'onish" so'zi frantsuzcha "qayta tug'ilish" degan ma'noni anglatadi. Aniqrog'i, bu Markaziy Osiyo, Eron, Xitoy (IX – XII – XV asrlar) va G'arbiy Evropada sodir bo'lgan alohida madaniy va intellektual rivojlanish davri. Atama sifatida uning ma'nosi ancha kengroq: madaniyatda, fanda, san'atda, umuman ta'limda, jamiyatda uzoq vaqt turg'unlikdan so'ng, bu tez rivojlanishni, ijtimoiy ong va qadriyatlar tizimining yangi sifat bosqichini anglatadi. Bu atama birinchi marta Evropada o'rta asrlardan keyin "oltin uyg'onish davri" XV-XVI asrlarda rivojlanish davriga ishora qilish uchun ishlatilgan.

Uyg'onish deb nomlangan ushbu ijtimoiy hodisa o'zbek tilida uyg'onish deb talqin etiladi. Axloqiy ishlar insonning ma'naviy-axloqiy shakllanishi va inson qiyofasi muammosini hal qilishda faqat pedagogik ishlar sifatida ahamiyat kasb etdi. Ushbu maqolada insonning ma'naviy rivojlanishida yuqori axloq va fanni o'zlashtirish g'oyasi ilgari surilgan. Sharq uyg'onish davrida pedagogik g'oyalar haqida Sharq mutafakkirlarining qarashlari ham keltirilgan: Abu Nasr Farobiy – o'rta asr sharqining mashhur mutafakkiri, qadimgi yunon falsafasining Sharqdagi eng yirik davomchisi va targ'ibotchisidir. Olim ta'lim faqat so'z va o'rganish bilan, tarbiya esa, amaliy ish, tajriba bilan amalga oshirilishini aytadi va tarbiyani har bir xalq, millatning amaliy malakalaridan iborat bo'lgan ish-harakat, kasb-hunarga o'rganishdan iborat deb hisoblaydi. Demak, Farobiy ta'lim va tarbiya berishni bir-biridan farq qiladi. Tarbiya esa amaliy faoliyatida namoyon bo'ladi, yoshlarga u ma'lum ish-harakat, kasb-hunar, odob orqali singdiriladi.

Ta'lim-tarbiya jarayonida nazariy bilim bilan amaliy harakat- odat, malaka, faoliyat birlashib boradi, yetuklik shu birlashuvning darajasiga qarab yuzaga keladi. Umuman, Farobiy o'z davridagi yoshlarning ta'lim olishlari bilim egallashlari, hunar o'rganishlari, faoliyat ko'rsatishlari, mehnat qilishlari zarurligi xususida fikrlar bildirgan. Bu fikrlar hozirda ham ta'lim-tarbiyaga g'oyat muhimdir. Sharq pedagogikasida Farobiy ta'lim va tarbiyaga birinchi marta ta'rif bergan allomadir: «Ta'lim degan so'z insonga o'qitish, tushuntirish asosida, nazariy bilim berish, tarbiya berish degani esa insoniy fazilatlarni, ma'lum xunarni eki kasbni egallash uchun zarur bo'lgan xulq-atvor-normalarini o'rgatishdir» Maqsadga muvofiq amalga oshirilgan ta'lim-tarbiya insonni ham aqliy, ham axloqiy jihatdan kamolga etkazadi, xususan, inson tabiat va jamiyat qonunqoidalarini to'g'ri anglab oladi, umr kechirish jarayonida to'g'ri yo'l tutadi, boshqalar bilan halol, adolatli munosabatda bo'ladi. Jamiyatda o'rnatilgan oqilona tartib va qoidalarga rioya etadi [1].

Farobiy tomonidan asoslangan pedagogik ta'minot o'zida quyidagi asosiy g'oyalarni ifodalaydi:

ma'naviy tarbiyani tashkil etish va shaxsda aqliy sifatlarni tarbiyalash uning kamolotga erishishini kafolatlaydi;

odob tarbiyalanuvchi qiyofasida namoyon bo'luvchi axloqiy xislatlarning eng asosiysi bo'lib, insonda olijanob sifatlarni tarbiyalashda asos bo'lib xizmat qiladi. Shaxsda odob ko'nikmalarini shakllantirishda ularga inson xulqi va odobini muhim ma'naviy – axloqiy sifatlarni ekanligini hayotiy misollar yordamida yoritib berish muhim ahamiyatga ega;

Tarbiyalanuvchida irodaning hosil bo'lishi atrof-muhit hamda tarbiyaviy faoliyat mazmuniga ko'p jihatdan bog'liq.

Abu Nasr Forobiy ta'lim-tarbiya samaradorligini yuqori baholagan pedagogik, didaktik tamoyillar, ta'lim – tarbiya shakllari va usullari quyidagilar:

ta'limning ilmiyligi va amaliy ahamiyatga eagaligi;

tizimliliigi, mantiqiyliigi va ketma-ketliigi;

hayot bilan bog'liqligi;

tushunarli bo'lishi;

kuzatish va tajribalar;

dialektik, isbotli, tortishuvli, ritorik va she'riy mulohaza yuritish usullari;

induksiya va deduksiya usuli;

mashqlarni bajarish, takrorlash va h.k.

Shunday qilib, Forobiyning ta'lim-tarbiya to'g'risidagi teran fikrlari, ibratli mulohazalari hozirgi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotgan emas.

Sharq uyg'onish davrida fan va ta'lim uch yo'nalishda rivojlandi:

birinchi yo'nalish matematika va tibbiyot al-xorazmiy, matematika va tibbiyot sohasidagi ar-razi, avitsena, jurjani, beruni, ulug'bek astronomiya va tibbiyot sohasida katta ilmiy asarlar yaratdi;

ikkinchi yo'nalish-ijtimoiy-falsafiy, al-farobiy, al-kindī, ibn rusht, avitsenna, zaheriddin Bayxaki, Mahammed Narshaxi va boshqalarning falsafa, texnika, mantiq, psixologiya, notiqlik sohasidagi ijodi. Shuni ta'kidlash kerakki, yuqorida sanab o'tilgan olimlar entsiklopedik olimlar edi. Ular kashfiyot qilgan fan sohalaridan tashqari, boshqa fanlarda ham tadqiqotlar olib borishgan;

uchinchi yo'nalish-ta'lim. Unda entsiklopedik olimlar o'z nuqtai nazarlarini ijtimoiy falsafiy asarlarda ifoda etdilar.

Ushbu davrda ilmiy bilimlarga asoslangan usul shakllandi. Natijada, aqliy tarbiya olimlarning diqqat markaziga aylandi. Xorazmiy, Farobiy, shuningdek, ularning bu boradagi asarlari bilimning asl ma'nosini, ma'nosini, aqliy takomillashtirishni yoritishga yordam berdi. Aniq fanlarni o'qitishning uslubiy vazifalariga e'tibor ortdi. Yuqoridagilardan xulosa qilishimiz mumkinki, Arab xalifaligida fan va ta'limning rivojlanishi, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish uyg'onish davrining boshlanishiga olib keldi — 9-asrning Sharqiy uyg'onish davri Movarounnahr va Xurosonda.

Sharq mutafakkirlarining ma'naviy madaniyat sohasiga qo'shgan ulushlari nihoyatda boy bo'lib, mazmunan qadriyatlarining barcha yo'nalishlarini qamrab olganligi bilan xarakterlanadi. Ular:

aqliy madaniyatni shakllantirish bilan bog'langa qadriyatlar;

ma'naviy-ruhiy qadriyatlar;

ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar;

badiiy-nafis qadriyatlar;

diniy qadriyatlar tarzida o'z ifodasini topgan.

O'rta asr Sharqining buyuk shaxslari asrlar davomida o'zlarining mustahkam pedagogik qo'llanmalarini, pedagogik mulohazalari va tamoyillarini, o'qitish va tarbiyalashning usullari va usullarini, o'qituvchi va ustozga qo'yiladigan talablarni qoldirdilar. Ularning barchasi insonni har tomonlama rivojlangan va bilimli ko'rishni xohlashdi. Ularning dunyoqarashida-ulkan ma'naviy kuch, kontseptsiyalarning hayotiyligi va hayotiyligi, printsiplarning uzluksizligi,

pedagogik fikrlash ko'lami, yuqori gumanizm, vatanparvarlik, rostgo'ylik va tinchlik.

O'qituvchilarni tayyorlash muammosini hal qilish uchun Sharqning buyuk mutafakkirlari tomonidan taqdim etilgan barcha g'oyalari, tamoyillar, usullar va usullar dolzarb deb tan olingan, chunki ular zamonaviy o'quv jarayonida inkor etib bo'lmaydigan pedagogik salohiyat va ta'lim qiymatini anglatadi. Bular, birinchi navbatda, o'rta asr entsiklopedistlarining quyidagi qoidalari: shaxsning, shu jumladan o'qituvchining yaxlit va har tomonlama rivojlanishi, uning yuqori malakasi; fanlarni nazariy va amaliy jihatdan ularning bevosita aloqalarida bo'lish; talabalarining bilim faoliyatini faollashtirish, ularning mantiqiy tafakkurini rivojlantirish; ilmiy o'rganish, vizualizatsiya va ko'rish qobiliyati; bilimlarni chuqur anglash, ularni mustaqil egallash; talabaning o'z-o'zini tarbiyalash va o'z-o'zini tarbiyalashda faol ishtiroki.

Shunday qilib, Sharqning buyuk olimlari va mutafakkirlarining pedagogik merosidan o'qituvchilar malakasini oshirishning zamonaviy amaliyotida ulardan foydalanishning tegishli g'oyalari va printsiplari qabul qilindi, bu kelajakdagi o'qituvchilarning yangi kasbiy va sifat darajasini belgilaydi. Ma'lumki, ta'lim sifatini oshirish uchun qo'llanma bo'lib xizmat qiladigan muhim tamoyillardan biri bu avvalgi avlodlar tarixi, urf-odatlarini, xususan Sharq mutafakkirlarining pedagogik merosiga murojaat qilishdir. Sharqning buyuk mutafakkirlarining pedagogik g'oyalari jahon pedagogikasiga katta hissa qo'shadi biroq, zamonaviy Sharqda o'rta Osiyo respublikalari mustaqillikka erishgunga qadar o'rta asr mutafakkirlarining pedagogik merosi talab qilinmagan edi va faqat so'nggi yillarda pedagogik fikrning ushbu xazinasiga qiziqish jonlandi. Mutafakkirlarning pedagogik qarashlari o'rta asrlarning pedagogik fikridagi demokratik yo'nalishni anglatadi: ular inson haqidagi g'oyalarga, yosh avlodni tarbiyalash va o'qitish nazariyasini shakllantirish va takomillashtirishga katta ta'sir ko'rsatgan va hozir ham mavjud. Ularning pedagogik g'oyalari bugungi kungacha nafaqat inson va uning tarbiyasi, balki insonparvarlik, har tomonlama rivojlangan shaxsni shakllantirish, o'qituvchiga qo'yiladigan talablar to'g'risida g'oyalarni shakllantirish uchun zamin bo'lib kelgan. Sharq mutafakkirlarining pedagogik tamoyillari, ko'rsatmalari, ko'rsatmalari va tavsiyalari, talablari va tavsiyalari hozirgi kunda dolzarb va talabga ega. Shunday qilib, o'rta asr Sharqning buyuk mutafakkirlarining quyidagi pedagogik qarashlari oliy pedagogika maktabi tizimida pedagogik kadrlar tayyorlash uchun asos sifatida qabul qilinadi. Zahiriddin Muhammad Bobur o'zbek adabiyoti, tarixi, geografiyasi, falsafasiga katta hissa qo'shgan mutafakkirdir. U insonparvar shoir bo'lib, inson va uning erkini, baxtini kuyladi, ishq muhabbat, vafodorlik, mehru shafqat haqida so'z yuritadi. Bobur ma'rifatni xalq orasiga yoyishga, ilm va jamiyat ravnaqi yo'lida xizmat qildirishga intildi.

Al-Xorazmiyning insonparvarlik g'oyalari olimlarning vazifasi va burchi, ularning insoniyat oldidagi mas'uliyati haqida aytgan so'zlarida ham namoyon bo'lgan: "O'tmish davrlarda o'tgan xalqlarning olimlari fanning turli tarmoqlari va falsafaning turli bo'limlari sohasida asarlar yozishda tiyilmas edilar. Bu bilan ular o'zlaridan keyin keladiganlarni nazarda tutardilar va bular tomonidan o'zlaricha (sarf qilingan) kuchlariga munosib mukofot bo'lar degan umid tutardilar hamda

shon-sharaf va yod tutish bilan mukofotlanardilar, rostgo'y lablardan maqtovlar aytiladi deb ishonardilar. Chunki ular fanning maxfiy sirlarini ochish uchun o'z bo'yinlariga olgan qiyinchiliklar va mehnatlarini bunga arziyas deb biladilar. Ulardan biri o'zidan avvalgilar qila olmagan ishlarni amalga oshirishda boshqalaridan o'zib ketadi va uni o'zidan keyin keluvchilarga meros qilib qoldiradi. Boshqasi o'zidan avvalgilarning asarlarini sharhlaydi va bu bilan qiyinchiliklarni osonlashtiradi, yopiqni ochadi, yo'lni yoritadi va uni tushunarliroq qiladi.

Sharqning ulkan qomusiy olimi, jahon ilmi va pedagogik fikrlarining eng mashhur namoyondalaridan Abu Ali ibn Sino (980-1037) ta'lim – tarbiya masalariga jiddiy va ijodiy yondoshgan. Olimning bolani tarbiyalash va o'qitish haqidagi pedagogik – psixologik qarashlari o'zining chuqurligi, insonparvarligi va teranligi bilan kishini xayratda qoldiradi. SHuning uchun ibn Sino ta'lim-tarbiyaning maqsadlari, mazmuni, shakllari va metodlariga juda diqqat va e'tibor, mas'uliyat bilan qarash kerakligini ta'kidlaydi. Olimning e'tirof etishicha, ko'rsatmalilik ta'limni aniq, yorqin va qiziqarli qiladi, kuzatuvchanlik va fikrlash, mushohada yuritishni o'stiradi. Uningcha, inson narsa va hodisaning tashqi jihatlarini, ko'rinishlarini o'rganib, uni yanada chuqurroq bilishga intiladi. Narsalarning aslini yoki ularning suratini ko'rish orqali bolalarda ular haqida ma'lum bir tasavvur hosil bo'ladi. Ibn Sino ko'rsatmalilikni ko'rish, eshitish singari sezgi organlari orqali bog'laydi. Olim o'qitishning oddiydan murakkablikka tomon yo'naltirishdan kelib chiqqan holda mashqlar qildirish, o'qitishni esa faqat chuqurlashtirish asosida, ya'ni sinf tarzida o'tkazish zarur, deb hisoblaydi.

Yuqorida ibn Sino muntazamlilik va uzviylik prinsipiga amal qilish zarurligini ta'kidlagi haqida aytilgan edi. O'quvchilar kuzatish va tajribalarini muntazam va uzviy jarayonga aylantirish orqali esa o'quvchilarda mantiqiy mushohada yuritish qobiliyati rivojlanadi. Ibn Sinoning ta'kidlashicha, o'quv va jismoniy mashqlarni bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda suhbatlar, tushuntirishlar bilan birga qo'shib olib borish kerak. Yakka tarzda o'qitgandan ko'ra guruhlarda (sinfda) o'qitish ko'proq samara beradi, chunki guruhlarda o'quvchilar o'rtasida o'z-o'zidan musobaqa paydo bo'ladi, deydi: "Bola-larni guruh qilib o'qitish tashkil qilinsa, juda yaxshi samara beradi. Chunki bu jarayonda ular bir-birlaridan ibrat oladilar. Guruh qilib o'qitish jamiyatga katta foyda keltiradi. Chunki bunda o'quvchilar bir-birlari bilan do'stlashadilar, ular o'rtasida o'zaro hurmat paydo bo'ladi, o'zaro fikrlashib bahslashadilar, huquq va burchlari xususida muhokama yuritadilar, musobaqalashadilar". Ibn Sino ta'lim tarbiya jarayonida o'qituvchining roliga katta e'tibor bilan qaragan, yosh avlodni o'qitadigan tarbiyachi quyidagi talablarga muvofiq faoliyat olib borishi lozimligini o'qtiradi:

o'quvchi-talabalar bilan munosabatni tashkil etishda mo'tadil (o'rtacha) bo'lish;

o'quvchi-talabalarning bilim va mahoratlaridan hayotda foydalana olishlariga etibor berish;

o'quvchi-talabalar bilan ishlashda turli usullarni qo'llay olish; – o'quvchi-talabalarda bilim olishga nisbatan qiziqishni kuchaytirish;

o'qituvchining gaplari va fikri o'quvchi-talabalarga tushu-narli bo'lishi uchun har bir so'zini imo-ishoralar bilan bajarishi (binobarin, bu uslub bolalarda his-

hayajonni uygatadi); tarbiyalanuvchilar ongiga kuyidagi yuksak axloqiy tamoyilni singdirishi «faqat o‘zi uchun emas boshqalar uchun ham yashash kerak».

Alloma asarlarida quyidagi pedagogik va didaktik tamo-yillar, o‘quv-tarbiya shakl va usullari xususida so‘z yuritiladi:

sabablarning o‘zaro bog‘liqligi tamoyili, analiz, sintez, umumlashtirish;

bolani darhol kitob o‘qish bilan bog‘lab qo‘ymaslik;

jamoaga bo‘lib o‘qish; – mashqlar (ularning me‘yorlanganligi, imkoniyat borligi, jamoatchilik, o‘quvchi talabalarning qobiliyati va imkoniyatlarini hisobga olish);

o‘qitishning asta-sekin, ketma-ketligi, osonidan murakkabga o‘tib borishi;

o‘kuvchi-talabalarning individualliklarini hisobga olib, tushunarli bo‘lishi;

nazariya bilan amaliyotning bog‘liqligi, umumiydan xususiyligga o‘tish, tizimlilik va mantiqiylik ifoda etish va mulohazalarining bir tekisligi va ketmaketligi kabi usullar; Ushbu ta'rif bizdan pedagogika vazifalarining hayot vazifalari, keng ijtimoiy va ma'naviy oqimlar bilan keng bog'liqligini anglashimizni talab qiladi.

Ushbu aloqa pedagogika tarixida ayniqsa ajralib turishi kerak; bu bizga ma'lum pedagogik qarashlarning o'zgarishi va ma'lum g'oyalarning o'sishi nafaqat o'zgaruvchan individual ijodiy shaxslarning irodasi bilan amalga oshirilishini, balki bu o'zgarishlarda murakkab ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy sharoitlar katta rol o'ynashini ko'rsatishi kerak. Umuman olganda, tarix ham, xususan, pedagogik g'oyalar tarixi ham o'tmishdan meros bo'lib qolgan narsalarni — tashqi sharoitlar, ob'ektiv omillar va inson irodasi, intilishlari va fikrlarining erkin namoyon bo'lishidan kelib chiqadigan natijalarni sarhisob qilishning bir turi sifatida ko'rib chiqilishi kerak. Shuning uchun pedagogika tarixi iloji boricha, shaxslar tomonidan yaratilgan nazariyalar, ko'rsatmalar va tegishli murakkab ob'ektiv sharoitlar bilan bir qatorda yoritilishi kerak. Faqatgina individual pedagogik oqimlar mualliflarining ijodiy kuchini emas, balki keng ijtimoiy va ijtimoiy sharoitlarni hisobga olgan holda, biz zamonaviy pedagogika qanday paydo bo'lganligini, uning vazifalari qanday va qanday asoslanganligini va qaysi yo'nalishda izlashimiz kerakligini tushunishimiz mumkin.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash kerakki, mamlakatimizda ilm-fan va ma'rifatga alohida e'tibor chuqur ma'noga ega. Ilm-fan va ma'rifat yangi uyg'onish davrining asosidir, uning asosida ushbu mamlakat fuqarolarining milliy tafakkuri, milliy g'oya, kelajakka ishonch, rivojlanish, bu barqarorlikni ta'minlashning asosiy ustuvor yo'nalishlaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining Qonuni Ta'lim to'g'risida. – T., 1997.;
2. O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risidagi Qonun. – T., 2020.
3. Рубинштейн, М. М. История педагогических идей в ее основных чертах / М. М. Рубинштейн. – Иркутск, 1922. – 302 с.
4. Каптерев, П. Ф. М. М. Рубинштейн. История педагогических идей в ее основных чертах / П. Ф. Каптерев. – М., 1916.
5. Xodjayev B.X., Choriyev A., Saliyeva Z.T. Pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi. Darslik. - T.: IQTISODIYOT DUNYOSI, 2018.

6. Ro'ziyeva D.I., Tolipov O'.Q. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. - T.: INNOVATSIYA-ZIYO, 2019.

7. R.A.Mavlonova. N.H.Raxmonqulova. Umumiy pedagogika Fan va texnologiya.2018.

HARBIY SOHA VAKILLARIDA PSIXOLOGIK IMMUNITETNI SHAKLLANTIRISH ZARURATI

*Mustafayeva Muxlisa Shomurodovna – URDU
“Pedagogika va psixologiya” kafedrasi o'qituvchisi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada harbiy soha vakillarida psixologik immunitetni shakllantirish zarurati xususida so'z boradi. Shuningdek, harbiy soha vakillarida ruhiy muvozanat buzilishining salbiy oqibatlari va hissiy farovonlikning ahamiyati ilmiy va nazariy ma'lumotlar asosida yoritib berilgan.

Kalit so'zlar. Psixologik immunitet, iroda kuchi, ruhiy barqarorlik, hissiy farovonlik, apatiya, stressga chidamlilik, affekt, vatanparvarlik, ma'naviy xavfsizlik.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev “Yangi O'zbekiston Taraqqiyot strategiyasi” asarida – “Bugungi kunda bizning harbiylarimiz o'zlarining professional tayyorgarlik darajasi bo'yicha jahondagi yetakchi mamlakatlar armiyalarining harbiy xizmatchilaridan aslo qolishmasligini so'zda emas, amalda isbotlamoqda. Xalqaro harbiy o'quv musobaqalarida, armiyalar o'rtasidagi va sport bellashuvlarida O'zbekiston vakillari o'zlarining mahorati, ruhan baquvvatligi, g'alabaga bo'lgan irodasini namoyon etmoqda, buyuk ajdodlarimizning munosib vorislari ekanliklarini yaqqol ko'rsatmoqda” deya ta'kidlaydilar.[1]

Darhaqiqat, bugun O'zbekiston harbiylari tomonidan erishilgan yutuqlar e'tirof etishga arziydigan natijalar ko'rsatmoqda va tom ma'noda yoshlarimiz ongida, qalbida harbiy sohaga havas, faxr va vatanparvarlik hislarini shakllantirishga, mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Buyuk sohibqiron Amir Temur hazratlari “Temur tuzuklari” asarida “Sipohiylerden kimki astoydil qilich chopsa, oyligini oshirsinlar. Qaysi bir sipohiy urushdan yuz o'girib qochsa, uni iltifotimizdan mahrum etsinlar. Agar majburan chekingan bo'lsa, uzrini qabul qilsinlar. Agar uni vahima bosgan bo'lsa, izza qilsinlar. Qaysi sipohiy, dushman qarshisida qilich chopib, yaralansa, uni taqdirlab, in'om bersinlar. Bordiyu yaralangandan keyin qochgan bo'lsa, unga tahsin o'qib, yaralanganini e'tiborga olsinlar. Chunki u g'animga hujum qilmagan taqdirda ham, yov hamlasi vaqtida jarohatlangandir, yarasi uning ne holga tushganining guvohidir” deydi. [4] Demakki, harbiylar ruhiyati, iroda kuchi uning jangovarlik qobiliyatiga, bir askarning hatti-xarakati butun bir urushning hal qiluvchi nuqtasiga ta'sir qiladi.

G'oyaviy immunitet, mafkuraviy immunitet masalasi hali-hanuz dolzarb bo'lsada, bugun, zamon tezkor axborotlar oqimidan keraklisini ajratish va qayta ishlash, jamiyat taraqqiyotiga mutanosib ravishda rivojlanish uchun mustahkam

psixologik immunitetni talab qilmoqda. Ayniqsa ham jismoniy ha ruhiy barqarorlikni talab qiluvchi harbiy soha bu borada alohida e'tiborni talab qiladi.

Harbiy xizmatchilarning psixologik tayyorgarligi zamonaviy talablarga javob berishi hamda Qurolli Kuchlarning jangovar tayyorgarligi va jangovar samaradorligini oshirishga qaratilgan bo'lishi kerak. Jang harbiy xizmatchining o'z kasbiy salohiyatini tezda ro'yobga chiqarish qobiliyatiga, tezlik bilan hayotiy muhim qarorlar qabul qilishiga juda qattiq talablar qo'yadi. Chunki harbiyning har bir qarori, o'zining, o'rtoqlarining, vatanining hayoti va jangovar topshiriqning natijasida aks etadi.

Harbiylarning jangga psixologik tayyorgarligining asosiy belgilari quyidagilardir: notinchlik yoki chekinishning yo'qligi, ehtiyotkor, aniq yo'naltirilgan xatti-harakatlar; buyruq va ko'rsatmalarni aniq, xatosiz bajarish; normal fiziologik holat (puls tezligi, nafas olish, yuz rangi va boshqalar).

Harbiy psixologik tayyorgarlikning uchta darajasi mavjud: past, o'rta va yuqori.

Yuqori daraja himoya qilish va jang qilish istagi, shubhalarning yo'qligi, o'zini sinab ko'rish, dushman ustidan g'alaba qozonish istagi bilan tavsiflanadi. Jangchi bunday psixologik tayyorgarlik darajasida uzoq vaqt qololmaydi. Inson psixikasi va fiziologiyasining himoya mexanizmlari ishga tushiriladi.

O'rtacha daraja o'ziga va boshqalarga bo'lgan ishonchning kombinatsiyasi bilan qarama-qarshilik va qat'iy harakat qilish istagi bilan tavsiflanadi. Bunday holatda askar buyruqlarni bajarishda kichik xatolarga yo'l qo'yadi, uning fiziologik holati normal holatga yaqin deb tavsiflanadi.

Past daraja harbiyning o'ziga ishonmasligi, qarama-qarshilikka intilmasligi, qat'iyatsizligi, haddan tashqari shovqin solishi yoki chekinishi, oddiy buyruqlarni bajarishda xatolarga yo'l qo'yishida namoyon bo'ladi. Aynan shu kabi ko'rsatmalar kuzatilgan harbiy soha vakillarida vatanparvarlik va jangovarlik qobiliyati deyarli yo'qligida yoki yetarli darajada shakllantirilmaganligidan dalolat beradi.

Ma'lumki, inson psixikasi doimiy bosim ostida uzoq vaqt qola olmaydi va tezda himoya mexanizmlarini ishga tushiradi. Masalan qattiq xafa bo'lganda yig'lash, dard chekish, kuchli stressda shok holati yoki apatik kayfiyat. Affekt holati kuchli stressing agressiv ko'rinishi bo'lib, bunday vaziyatda inson o'ta kuchli energiyani sarflaydi va natijada ko'p hollarda o'zini boshqarolmay qoladi. Yoki himoya mexanizmi sifatida taslim bo'ladi ya'ni vaziyatni yoki holatni qabul qiladi. Aytish mumkinki, bu kabi holatlarning har biri harbiy soha vakillaridan kuchli ruhiy muvozanatni talab qiladi. Kuchli iroda, stressga bardoshlilik tezkor fikr va ruhiy mustahkamlik bir so'z bilan aytganda psixologik immunitet demakdir.

Harbiy taktik fikrlash va intellektual salohiyatni amaliy faoliyatda qo'llash, askarning ruhiy farovonligi va jismoniy salomatligi bilan bog'liqdir.

Ammo, jamiyatda shaxs sifatida ijtimoiy moslashish, shaxslararo va yaqinlari bilan bo'lgan munosabatlarda o'z o'rini topish uchun avvalo har bir inson o'z his-tuyg'ularini ong bilan idrok etishi, tushunishi va eng muhim jihati – ularni ifoda eta bilishi lozim. Aks holda, bu uning psixologik rivojlanishida, ruhiyat dunyosida nuqsonlar borligidan dalolat beradi. Bu esa insonda turli xil psixologik va

nevrologik kasalliklar belgilari va sindromlarini keltirib chiqaradi. Ana shunday psixologik muvozanatning buzilishlaridan biri bu – aleksitimiya holatidir.[3]

Psixologiya dunyosida aleksitimiyaning o'rganish 1970-yillarda J.Nemiah va P.Sifneos tomonidan boshlanganligi aytiladi. Manbalarda keltirilishicha, "aleksitimiya" atamasi birinchi marta 1970-yillarda Garvard professori va psixoanalitik Piter Sifneos tomonidan ishlatilgan. Tuyg'ularni (o'zining va boshqalarning) yetarli darajada idrok eta olmaslik va ifoda eta olmaslik aleksitimiya tushunchasining asosini tashkil etadi. Va shu tariqa P.Sifneos "aleksitimiya" atamasi muallifiga aylanadi. So'zma-so'z tarjima qilinganda "hislar uchun so'zlarsiz" yoki – ba'zi tarjimalarda - "hislar nomi uchun so'zlar yo'q" (yunon tilidan a - yo'qlik, lexis - so'z, thymos - tuyg'u) degan ma'noni anglatadi.[2] O'z navbatida aleksitimiya ham jamiyatda ijtimoiylashuv jarayoniga xususan, harbiy soha vakillarining faoliyati uchun ham xavf omili hisoblanadi. Shu bois harbiy kasbga qiziqish bildirgan har bir insonning ruhiy tayyorgarligi ham yuqori darajada bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Shu o'rinda aytish kerakki, har qanday kasbga yo'naltirish bolalikdan boshlanadi.

2019 yil 28 iyundagi PQ-4375-son «O'smirlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda O'zbekiston respublikasi qurolli kuchlari va davlat xizmati uchun kadrlar zaxirasini tayyorlash tizimini takomillashtirishga oid qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida» qarorga muvofiq psixologik va profilaktik chora tadbirlar majmuasi dasturiy olib borilmoqda. Bu ham o'z navbatida Qurolli kuchlarimizning asosini tashkil qiluvchi harbiylarimizning har tomonlama mustahkam kadr bo'lishlari uchun yaratib berilayotgan shart-sharitlardan biridir. Shuningdek, umumta'lim maktablarida ham maktab psixologlari va Yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorlash fani rahbarlari bilan hamkorlikda turli xil psixologik testlar, so'rovnomalar, metodikalar o'tkazilib kelinayotgani bu boradagi samarali natijalarni kafolatlaydi.

Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev: “Harbiy kadrlarni tayyorlash va ularning malakasini oshirishda qat'iy davom etamiz. Harbiy ilmni rivojlantirish borasida harbiy mojarolar va zamonaviy jang amaliyotlarini hamda milliy harbiy san'at tarixini chuqur o'rganib, qo'shinlarning tayyorgarlik borasidagi usul va uslublarini yanada takomillashtirish vazifalariga ustuvor ahamiyat beramiz ” deya qat'iy pozitsiya bildirishlari, xalqimizning, yoshlarimizning va ayniqsa harbiylarimizning yuragida g'urur va ma'suliyat hissini oshirishga xizmat qiladi. [1] Shu bilan birga aynan harbiy soha rivoji uchun ko'plab o'rganilishi va tadqiq qilinishi kerak bo'lgan mavzular ko'p ekanligidan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev SH. “Yangi O'zbekiston Taraqqiyot strategiyasi”. “O'zbekiston”. Toshkent -2022.
2. Николаева В.В. О психологической природе алекситимии// Телесность человека: междисциплинарные исследования. М., 1993. <http://vprosvet.ru/biblioteka/aleksitimiya/>
3. Узалаева, Ш. А. Алекситимия / Ш. А. Узалаева, А. З. Санова. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2019. — № 26 (264). — С. 283-284. - URL: <https://moluch.ru/archive/264/61283/> (дата обращения: 31.03.2023).

4. <https://temurtuzuklari.uz/oz>.

5. www.lex.uz

ПСИХОЛОГИЯНИНГ ФАН СИФАТИДА ҚИСҚАЧА ТАРИХИ БЎЙИЧА АЙРИМ ФИКР ВА МУЛОҲАЗАЛАР

*Мусулманов Акрам Ибадуллаевич –
ИИВ Самарқанд академик лицейи
Умумтаълим фанлар кафедраси бошлиғи
(ЎР ҚК КМТМ цикл ўқитувчиси – ташқи ўриндош),
резервадаги полковник, доцент*

*Муминов Олимжон Абдурахманович –
ИИВ Самарқанд академик лицейи Ҳуқуқий ва ижтимоий-
гуманитар фанлар кафедраси Тарих фани бош ўқитувчиси*

Аннотация. Мазкур мақолада психологиянинг тарихи, унинг вазифалари, психологиянинг имкониятлари ва бугунги кунда инсоният олдида турган глобал муаммоларни ҳал қилишда психологиянинг алоҳида ўрни ҳамда глобал муаммоларнинг психологик асосларини аниқлаш фан олдида турган асосий вазифа эканлиги тўғрисида тўғрисида фикр ва мулоҳазалар ёритилган.

Калит сўзлар: психология, психика, руҳ, онг, инсон, омил, таълим, тарих, тиббиёт, санъат.

Инсон – кўп асрлар давомида кўплаб олимларнинг тадқиқот объекти бўлиб келган. Инсониятнинг ўз тарихи ва қандай пайдо бўлганлигини, биологик табиатини, тилини ва одатларини билишга бўлган интилиши чегараланмаган. Бу илм йўлида эса руҳият илмининг ўрни алоҳида.

Психология ривожининг асоси бўлган инсон мавжудлигининг табиати, унинг онгли жамият доирасида ривожланиши ва шаклланиши, унинг атрофидаги бошқа одамлар билан муносабатларининг ўзига хос хусусиятларига қизиқиш замон ўтиши билан ривожланиб борди.

Ҳозирги вақтда ишлаб чиқариш, фан, тиббиёт, санъат, таълим, ўйин ва спорт соҳаларида ҳеч қандай фаолиятни психологик қонуниятларни тушунмасдан ва тан олмасдан самарали амалга ошириб бўлмайди. Инсон тараққиёти қонуниятлари ва унинг борлигининг ижодий имкониятлари ҳақидаги билимлар тизими бутун жамият тараққиёти учун жуда зарурдир.

Инсон турли фанлар нуқтаи назаридан ҳар томонлама ўрганилиши мумкин бўлган объект бўлиб, фанларнинг ҳар бири ўзига хос махсус муаммолар билан шуғулланади. Улар орасида ижтимоий фанлар ижтимоий жараёнларни ўрганишда психологик омилларни ҳам четлаб ўта олмайди.

Суверен, мустақил давлат олдида турган турли вазифаларни ҳал этишда психология фани алоҳида аҳамиятга эга. Кейинги ўн йилликларда мамлакатимизда психологик тадқиқотлар соҳаси бирмунча ривожланди, турли асарлар ёзилди, янги илмий йўналишлар пайдо бўла бошлади.

Психология ҳам жуда қадимги, ҳам жуда ёш фан. Минг йиллик тарихига қарамай, унинг келажаги ҳали олдинда. Психология мустақил илмий соҳа сифатида эътироф этилганига юз йилдан ортиқ вақт ўтди ва у шуғулланаётган психологик фикр ва муаммолар тарих қаърида бошланган фалсафа билан уйғунлашиб бормоқда.

XIX-аср XX-асрнинг охири бошида машҳур олим Герман Эббингауз психология ҳақида қисқача ва аниқ шундай деди: “Психология тарихдан олдин қадимий, унинг тарихи эса жуда қисқа. Психологик тадқиқотлар тарихи деганда психология фалсафадан ажралиб, табиий фанлар билан қўшилиб, ўзининг экспериментал тадқиқотларини ташкил қила бошлаган даврни тушунамиз. Бу 19-аср, кейинги чорак бўлса-да, психологиянинг бошланиши кўринмас асрлар қаърида содир бўлган”.

“Психология” иккита юнон сўзларидан – “psyche” – жон, руҳ ва “logos” – таълимот, илм сўзларидан иборат бўлиб, анъанавий маънода инсон руҳий дунёсига алоқадор барча ҳодисалар ва жараёнлар унинг предметини ташкил этади. Бошқача қилиб айтганда, психологиянинг предметини ҳар биримизнинг ташқи оламни ва ўз-ўзимизни билишимизнинг асосида ётган жараёнлар, ҳодисалар, ҳолатлар ва шаклланган хислатлар ташкил этади. Психология бўйича адабиётларда унинг предметини қисқача қилиб, психика, деб таъриф беришади.

Агар кенг тарқалган тушунчаларга мурожаат қиладиган бўлсак, диний тушунчалар билан боғлиқ ҳолда илк психологик ёндашувлар туғилган. Дарҳақиқат, фан тарихи кўрсатганидек, қадимги юнон файласуфларининг илк хулосалари дунё, жумладан, руҳ ҳақидаги диний-мифологик қарашларга қарши курашда янги шаклланган илмий тафаккур йўналишлари асосида таянч билимларни жамлаган.

Психология фанининг асосий вазифаларидан бири - барча психик ҳодисаларни ўрганиш ва тушунтириш, шунинг учун уларнинг пайдо бўлиши, шаклланиши ва ривожланишининг объектив қонуниятларини очиб беришдир. Психология энг қадимий фанлардан бири: у 2500 йилдан кўпроқ вақт олдин қадимги Юнонистонда пайдо бўлган. Қадимги Юнонистоннинг даҳо олими Арасту “Руҳ ҳақида” асарида биринчи марта психик ҳодисаларни тизимли таҳлил қилади.

Аристотелни психология асосчиси дейиш мумкин. Бошқа томондан, психологик ҳодисалар ва унинг қонуниятларини илмий ва экспериментал тарзда ўрганиш ҳақиқатан ҳам 19-асрнинг ўрталарида шакллана бошлади.

Психология психика, онгни объектив воқеликни тасвирлашнинг алоҳида тури сифатида қарайди. Психологиянинг вазифаси инсон ва ҳайвонлар даражасида психикани филогенетик ва онтогенетик ривожланиш нуктаи назаридан ўрганишдан иборатдир.

Психологиянинг асосий тамойилларидан бири детерминизм тамойилидир. Детерминизм тамойили инсоннинг барча ҳаракатлари ва хатти-ҳаракатлари ташқи таъсирнинг сабабий шароитларига боғлиқлигини билдиради. Бу тамойилнинг моҳияти шундан иборатки, энг аввало, барча

психик ҳодисалар, шу жумладан психика ҳам объектив воқеликни акс эттирувчи сабаб-оқибат шароитларига боғлиқдир.

Иккинчидан, бу тамойилнинг моҳияти шундан иборатки, барча психик ҳодисалар мия фаолияти билан боғлиқ ҳолда кўриб чиқилади. Учинчидан, кўриб чиқиладиган тамойил психик ҳодисаларни ўрганишда бу ҳодисаларнинг сабабини аниқлашни талаб қилади.

Замонавий психологияда онг ва ҳаракат биргаликда кўриб чиқилади. Онг ва ҳаракатнинг бирлиги тамойили ҳам фаннинг бирламчи тамойилларидан биридир.

Психология фан сифатида нафақат турли психик ҳодисаларнинг тавсифи, балки уларнинг маъносини, маълум қонуниятларини тўплаш, изоҳлаш ва очиш, шу асосда психик ҳодисаларнинг сабабларини аниқлаш ва келажакда уларнинг пайдо бўлишини башорат қилишдир.

Психологияни фан сифатида таърифлашда психологик билимларнинг айрим хусусиятларини таъкидлаш керак. Аввало, бу ҳодисалар ҳақидаги билим, ҳар бир инсоннинг ҳар биримизга хос бўлган инстинктлари бор, унинг онгида ҳар доим турли хил арвоҳлар сақланади, ҳар бир киши турли хил ҳис-туйғуларни бошдан кечиради ва ҳоказо.

Психология фанида бу ҳодисалар ҳақидаги тўпланган ва мавҳум билимлар ҳар биримизга хос бўлган психик ҳодисалардир. Иккинчидан, у психологик билимларнинг кундалик ва илмий маъносига мос келмаслиги билан тавсифланади. Ҳаётда одамлар психология атама ва тушунчаларидан кенг фойдаланадилар. Бу тушунчаларнинг чегаралари аниқ белгиланмаганлиги сабабли, турли одамлар бир хил атама ва тушунчаларни турли йўллар билан ишлатадилар. Илмий тушунчалар бир хил маъно ва мазмунда қўлланилади.

Психологик таълимнинг учинчи хусусияти – бу шахснинг дунёқараши ва ўзини ўзи билиш ва ўз-ўзини тарбиялашга бўлган муносабатини шакллантириш заруратидир.

Психологиянинг бундай кўплаб соҳаларини қандай таснифлаш мумкин? Таснифлаш имкониятларидан бири юқорида шакллантирилган ҳаракатдаги психик ривожланиш тамойилларида қайд этилган. Шунини ҳисобга олиб, психология соҳалари таснифи муаммонинг психологик томонига асосланади: аниқ ҳаракатлар, ривожланиш, шахснинг жамиятга муносабати.

Агар таснифлашнинг биринчи асосини оладиган бўлсак, у ҳолда биз психологиянинг инсон фаолиятининг муайян турининг психологик муаммоларини ўрганадиган бир нечта тармоқларини номлашимиз мумкин.

Меҳнат психологияси инсон меҳнат фаолиятининг психологик хусусиятларини, меҳнатни илмий ташкил этишнинг психологик асосларини ўрганади.

Педагогик психологиянинг тадқиқот предмети шахсни ўқитиш ва тарбиялашнинг психологик қонуниятларини ўрганади. Педагогик психология бўлимларига қуйидагилар киради:

ўқитиш психологияси;

таълим психологияси;

Ўқитувчи психологияси.

Тиббий психология шифокор меҳнати ва касаллик хулқ-атворининг психологик муаммоларини ўрганади.

Ҳуқуқий психология ҳуқуқий тизимни амалга ошириш билан боғлиқ психологик масалаларни ўрганади. Бу суд психологияси, жиной психология, пенитенциар ёки ахлоқ тузатиш психологияси.

Ҳарбий психология ҳарбий ҳаракатлар шароитида инсон хатти-ҳаракатларини, бошлиқлар ва бўйсунувчилар ўртасидаги муносабатларнинг психологик томонини, психологик тарғибот ва қарши ташвиқот усулларини, ҳарбий техникани бошқаришнинг психологик муаммоларини ўрганади.

Спорт психологияси спортчилар шахси ва фаолиятининг психологик хусусиятларини, психологик тайёргарлик шароитлари ва усулларини, спортчиларни тайёрлаш ва тайёрлашнинг психологик ўлчовларини ўрганади.

Махсус психология бир неча бўлимларга бўлинади: патопсихология, олигофренопсихология, сурдпсихология, тифлопсихология.

Қиёсий психология - ҳайвонлар психикасини ўрганадиган психология бўлими.

Ижтимоий психология турли хил ижтимоий жамоаларнинг психологик хусусиятларини, гуруҳлар ва жамоалардаги одамларнинг ўзаро муносабатларини, улардаги шахсларнинг ҳолатини, уларнинг раҳбарлари ва бўйсунувчилари муаммоларини ўрганади.

Психология фани кўплаб табиий, ижтимоий ва фалсафий фанлар билан боғлиқ. Ижтимоий фанлар ичида у фалсафа, сиёсий иқтисод, тарих, санъатшунослик, педагогика фанлари билан боғлиқ. Бу фанларнинг барчасида инсоннинг онгли фаолияти ўрганилади, шунинг учун психология билан шуғулланадиган муаммолар кўриб чиқилади.

Ҳозирги вақтда олдида турган назарий ва амалий вазифаларнинг кўплиги туфайли психология фанининг жадал ривожланиши кузатилмоқда.

Психологиянинг асосий вазифаси психик фаолият ва унинг ривожланиши қонуниятларини ўрганишдан иборат бўлиб, кейинги ўн йилликда психологик тадқиқотлар қамраб олган масалалар кенгайди, янги илмий йўналишлар ва фанлар пайдо бўлди. Психология фанининг концептуал аппарати ўзгарди, янги фаразлар ва тушунчалар узлуксиз пайдо бўлди, психология янги эмпирик маълумотлар билан бойиди.

Б.Ф.Ломов “Психологиянинг методологик ва назарий муаммолари” асарида ҳозирги замон фанининг ҳолатини тавсифлаб, шундай ёзади: “Ҳозирги вақтда психология фанининг методологик муаммолари ва унинг умумий назариясини келажакда ҳар томонлама ва чуқурроқ таҳлил қилиш зарурати айниқса ортиб бормоқда”

Психология қонунларига кўра, инсон миёсида объектив дунёни қандай акс эттириш, атрофдаги объектив дунёни қандай тан олиш керак? Психологик қонуниятлар психик фаолиятнинг қандай ривожланишини, шахснинг ақлий сифатлари қандай шаклланганлигини очиқ беради.

Хулоса. Юқоридагилардан биламизки, психологиянинг имкониятлари жуда катта. Бугунги кунда инсоният олдида турган глобал муаммоларни ҳал

килишда психология алоҳида ўрин тутди. Бугунги кундаги глобал муаммоларнинг (дунёда тинчлик учун кураш, атроф-муҳитни муҳофаза қилиш, коинотни ўзлаштириш), жумладан, одамларнинг кундалик ҳаётидаги муаммоларнинг (эмоционал қийинчиликларни бартараф этиш, одамлар ўртасидаги низоларни ҳал қилиш ва бошқалар) психологик асосларини аниқлаш фан олдида турган асосий вазифадир.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Воҳидов М., Мактабгача тарбия психологияси, Т., 1970;
2. Давлетшин М., Кобилят ва унинг диагностикаси, Т., 1979;
3. Токарева В., Талаба шахсининг ахлоқий ривожланиш психологияси, Т., 1989;
4. Ғозиев Э., Психология фани XXI асрда, Т., 2002;
5. Ғозиев Э., Психология, Т., 2003;
6. Қодиров Б., Лаёқат психологияси, Т., 1989;
7. Шоумаров Ғ., Оила психологияси, Т., 2000;
8. Каримова В., Ижтимоий психология, Т., 1994.
9. Сейталиев К. “Умумий психология”, Алма-Ата: 2007 й;
10. В.В. Боголовский., А.Г. Ковалев., А.А. Степанова. С.Н. Шабалин томонидан таҳрирланган "Умумий психология" Алма-Ата: 1980 йил.

ОБУЧЕНИЕ ИНОСТРАННОМУ ЯЗЫКУ КУРСАНТОВ ВОЕННОГО ВУЗА КАК ОДИН ИЗ ФАКТОРОВ ФОРМИРОВАНИЯ ГОТОВНОСТИ К ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

*Мухаммадиев Сухроб Бахтиёр угли –
Азиатский технологический университет,
преподаватель английского языка*

***Аннотация.** Обучение иностранному языку является важной частью подготовки курсантов военного вуза, способствующей формированию их профессиональной готовности. В данной статье рассматриваются ключевые аспекты и стратегии преподавания иностранного языка, которые повышают эффективность подготовки военных специалистов. Анализируются особенности учебного процесса, направленного на развитие языковых и профессиональных компетенций курсантов.*

Современные военно-политические реалии требуют от военных специалистов владения иностранными языками для успешного выполнения своих профессиональных обязанностей. Участие в международных операциях, сотрудничество с зарубежными коллегами и анализ иностранной военной литературы — все это требует высокого уровня языковой подготовки. Обучение иностранному языку в военном вузе становится неотъемлемой частью образовательного процесса, направленного на всестороннее развитие курсантов и их готовность к профессиональной деятельности.

Обучение иностранному языку курсантов военного вуза включает не только общие языковые навыки, но и специализированную терминологию, связанную с военной сферой. Это позволяет курсантам эффективно коммуницировать в профессиональном контексте, понимать и использовать специализированные документы, приказы и инструкции на иностранном языке. Коммуникативный подход в обучении иностранному языку предполагает развитие у курсантов навыков общения, необходимых для выполнения профессиональных задач. Ролевые игры, симуляции и сценарии, основанные на реальных военных ситуациях, помогают курсантам применять язык в условиях, приближенных к боевым и служебным реалиям. Эффективное обучение иностранному языку предполагает его интеграцию в обучение профессиональным дисциплинам.

Преподавание специализированных предметов на иностранном языке (Content and Language Integrated Learning, CLIL) способствует одновременному развитию языковых и профессиональных навыков, что повышает общую готовность курсантов к выполнению служебных обязанностей. Современные технологии играют ключевую роль в обучении иностранному языку. Использование мультимедийных ресурсов, виртуальных симуляторов, онлайн-курсов и приложений для изучения языков позволяет курсантам получать доступ к аутентичным материалам и развивать свои навыки в интерактивной форме.

Модульный подход к обучению позволяет структурировать учебный процесс, разбивая его на тематические блоки. Каждый модуль может быть посвящен определенной теме или навыку, что способствует последовательному и углубленному изучению материала. Проектная работа стимулирует курсантов применять свои знания на практике. Выполнение проектов, связанных с анализом военных операций, подготовкой стратегических отчетов и разработкой планов учений, способствует развитию как языковых, так и аналитических навыков. Организация стажировок, учебных поездок и международных обменов позволяет курсантам погрузиться в языковую среду и применять полученные знания в реальных условиях. Это способствует улучшению языковых навыков и пониманию культурных особенностей общения.

Обучение иностранному языку курсантов военного вуза является важным компонентом их профессиональной подготовки. Специализированная языковая подготовка, коммуникативный подход, интеграция языка в профессиональные дисциплины и использование современных технологий позволяют формировать высококвалифицированных специалистов, готовых к выполнению сложных задач в международном контексте. Развитие данных стратегий и методов способствует повышению уровня готовности курсантов к профессиональной деятельности и их успешной интеграции в военные структуры.

Литература:

1. Brown, H. D. (2007). Principles of Language Learning and Teaching. Pearson Education.
2. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2014). Approaches and Methods in Language Teaching. Cambridge University Press.
3. Brinton, D. M., Snow, M. A., & Wesche, M. B. (1989). Content-Based Second Language Instruction. Heinle & Heinle Publishers.
4. Larsen-Freeman, D., & Anderson, M. (2011). Techniques and Principles in Language Teaching. Oxford University Press.
5. Warschauer, M., & Healey, D. (1998). Computers and language learning: An overview. Language Teaching, 31(2), 57-71.

PSIXOLOGIK MA'RIFAT

Navro'zov Laziz Abdirashidovich – O'R QK kichik mutaxassislarni tayyorlash markazi, Aloqa va axborotlashtirish sikli o'qituvchisi, QK xizmatchisi

***Annotatsiya:** Bilamizki, inson psixologiyasini tushunish, uni teran tahlil qilish va rivojlantirishga e'tibor berish, hamisha har bir davlatning ham ijtimoiy ham iqtisodiy hayotida ustuvor vazifa bolib keladi. Shu o'rinda aytib o'tishimiz lozimki, psixologiya fani va uning ilg'or vakillari tomonidan, XXasr boshlarida asoslab berilgan psixologik xizmat ko'rsatish tizimining muqarraligi, butun insoniyat uchun jahonshumul voqea bo'ldi. Shuningdek, ta'limda psixologik xizmatning rivojlanib borishi har bir mamlakatda turli yillarda sodir bo'lgan. Misol tariqasida, AQShda 1800-yillardan, Fransiyada esa undan 1 asr keyin, Chexoslovakiyada 1980-yilda, Estoniyada 1975-yilda, Rossiyada 1982-yilda, O'zbekistonda esa o'tgan asrning 70-80-yiilaridan ta'limda psixologik xizmatning rivojlanishi boshlangan.*

***Kalit so'zlar:** Psixologik ma'rifat va tashviqot, Psixologik-pedagogik tashxis, Psixologik profilaktika, Psixologik korreksiya, Psixologik maslahat, "esipast", "ota-onaning dushmani", "axloqsiz bola", "organic", "psixotiklar", "nasliy buzuqlik".*

***Abstract:** We know that understanding human psychology, paying attention to its deep analysis and development is always a priority task in the social and economic life of every country. At this point, we should mention that the inevitability of the psychological service system, which was founded by the science of psychology and its advanced representatives at the beginning of the 20th century, was a global event for all mankind. Also, the development of psychological services in education took place in different years in each country. For example, the development of psychological services in education began in the 1800s in the USA, in France a century later, in Czechoslovakia in 1980, in Estonia in 1975, in Russia in 1982, and in Uzbekistan in the 70-80s of the last century .*

***Key words:** Psychological enlightenment and propaganda, Psychological-pedagogical diagnosis, Psychological prevention, Psychological correction,*

Psychological counseling, "esipast", "enemy of parents", "immoral child", "organic", "psychotics", and "genetic disorder".

Аннотация: Мы знаем, что понимание психологии человека, обращение внимания на ее глубокий анализ и развитие всегда является приоритетной задачей в социальной и экономической жизни каждой страны. Здесь следует отметить, что неизбежность системы психологической службы, заложенной психологической наукой и ее передовыми представителями в начале XX века, стала глобальным событием для всего человечества. Также развитие психологической службы в образовании происходило в разные годы в каждой стране. Например, развитие психологической службы в образовании началось в 1800-х годах в США, во Франции столетием позже, в Чехословакии в 1980 году, в Эстонии в 1975 году, в России в 1982 году, в Узбекистане в 70-80-х годах прошлого века.

Ключевые слова: Психологическое просвещение и пропаганда, Психолого-педагогическая диагностика, Психологическая профилактика, Психологическая коррекция, Психологическое консультирование, «эсипаст», «враг родителей», «аморальный ребенок», «органик», «психотики», «генетическое заболевание».

Har bir sohaning o'z ustasi bo'lganidek inson qalbining ham mahoratli ustasi bor, shubhasiz, biz ularni psixologlar deymiz! Pedagoglarning yordamchisi, bolalar qalbi va ruhiyatiga yo'l topa oladigan kishilar - psixologlarga bo'lgan ehtiyoj hozirgi kunda ta'lim-tarbiya sohasida ortib bormoqda. Shuning uchun ham, ta'lim tizimida amaliyotchi psixologlarning faoliyat ko'rsatishlari ta'lim mazmuni va uning sifatini oshirishda katta ahamiyat kasb etmoqda.

Ta'lim sohasida psixologik xizmatning asosiy maqsadi-o'quvchi yoshlarning ma'naviy va aqliy rivojlanishi, barkamol shaxs sifatida shakllanishi, ularning har tomonlama mukammal psixologik taraqqiyotini ta'minlovchi oqilona zarur shart-sharoitlarni yaratishdan iboratdir. Ta'lim tizimida psixologik xizmat uchun maktabgacha ta'limdagi bolalar, umumiy o'rta ta'lim o'quvchilari, maxsus o'quv yurti va oliy o'quv maskani talabalari hamda o'qituvchilarni, tadqiqot va ta'sir o'tkazishning obyekti sifatida ko'rishimiz mumkin.

Odatda, har bir maqsadning vazifa va yo'nalishlari bo'ladi. Psixologik xizmat faoliyatining ham bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan 6 muhim vazifa va yo'nalishlari mavjud. Bular:

1. Psixologik ma'rifat va tashviqot yo'nalishi - pedagoglar, ota-onalar hamda, jamiyatning barcha tashkilotlari o'rtasida hamkorlikni yuzaga keltirish;

2. Psixologik-pedagogik tashxis yo'nalishi - iste'dodli o'quvchilarni aniqlash, ularning individual-psixologik xususiyatlarini va qiziqishlarini o'rganish, ularning qobiliyatlarini namoyon qilish va yanada rivojlantirishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratish;

3. Psixologik profilaktika yo'nalishi - o'quvchilarning tengdoshlari va kattalar bilan o'zaro munosabatlarida psixologik shikast yetkazuvchi omillarni bartaraf etishda yordam ko'rsatish hamda, ular o'rtasidagi huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olish bo'yicha profilaktika ishlari olib borish;

4. Psixologik korreksiya yo'nalishi - pedagogik jamoalarda sog'lom psixologik

muhitni yaratish va qo'llab quvvatlash, shaxslararo munosabatlar va ziddiyatlarni korreksiyalash, psixologik madaniyatni yuksaltirish;

5. Psixologik maslahat yo'nalishi - turlicha yoshdagi o'quvchilarning shaxsiy, aqliy va ijtimoiy rivojlanishi I psixologik jihatdan kuzatib borish, ta'lim-tarbiyadagi psixologik nuqsonlarni aniqlash, ularning rivojlanishida sodir bo'lishi ehtimoli bo'lgan har qanday salbiy og'ishlarning oldini olish va ularga maslahatlar berish;

6. Kasb-hunarga yo'naltirish yo'nalishi - ta'lim muassasalarida o'quvchilarning qobiliyati, layoqati, qiziqishlari hamda kasb-hunarga moyilliklari asosida ularning kasb-hunarni to'g'ri tanlashlariga ko'maklashish.

Ta'lim va tarbiya xuddiki, ota-ona kabi bir birlariga chambarchas bog'liq bo'lgan ikkita tushunchadir. Ta'lim insonlarga bilim, ko'nikma bersa, tarbiyaning umumiy vazifasi - yosh avlodda bilim, ko'nikma ahloq normalarini to'g'ri shakllantirishdan iborat. O'quvchilar xulq-atvoridagi salbiy og'ishlar, nuqsonlar borasida turli olimlar turlicha tipologiyalarni yaratishgan. Masalan, V.Klayn bunday holatlarni 6 ta alohida guruhlariga bo'lgan: "esipast", "ota-onaning dushmani", "axloqsiz bola", "organic", "psixotiklar", va "nasliy buzuvchilik". Bundan ko'rinib turibdiki, har bir holatdagi salbiy og'ishga moyillikning sabablari turlicha.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, yurt kelajagi - yoshlar qo'lida, yoshlarning barkamol, teran fikrli, sog'lom aql-idrokli bo'lib ulg'ayishi esa ta'lim sohasidagi psixologik xizmatga bog'liq. Chunonchi, har qanday vaziyatda, o'quvchiga to'g'ri yo'l ko'rsatish, o'zligini anglab yetishishiga ko'maklashish, uning muammolarini teran tushunish va yechim topib berish biz o'ylaganimizdek oson emas, anchagina kuch, matonat, sabr-toqat talab qiladi bu, ayniqsa, uni ta'lim sohasi bilan bog'laganimizda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Z.T.Nishanova, SH.T.Alimbayeva, M.V.Sulaymonov Psixologik xizmat (darslik) Toshkent:.
2. F.A.Akramov, N.X.Lutfullayeva, X.R.Xaydarova «Pedagogik psixologiya» fani (maruzalar matni). - T.: TDIU, 2005 - 152 bet.
3. <https://lex.uz/docs/-4417140>
4. G'. Shoumarov, B.Umarov, F. Akramova Yoshlarda xulq og'ishi va tarbiya buzilishining oldini olish bo'yicha psixologik maslahatlar. - T.: 2015 -11,12 betlar.

БУЮК ИПАК ЙЎЛИ-АЛОҚА ЙЎЛИ

*Наврўзов Лазиз Абдирахимович –
Ўзбекистон Республикаси Қуролли Қучлари
Кичик мутахассислар тайёрлаш маркази
Алоқа ва ахборотлаштириш цикли катта ўқитувчиси*

Аннотация. Ушбу мақолада Буюк ипак йўлининг халқлар ўртасида алоқа воситаси сифатида туганган ўрни хусусида маълумотлар келтирилган.

Ушбу йўлда нафақат товар, балки ахборот ҳам ташилиши тамаддунлар тараққиётига улкан таъсир кўрсатгани айтиб ўтилган.

Калит сўзлар: Буюк ипак йўли, шарқ, алоқа тарихи, Буюк ипак йўлининг тармоқлари, йўлларнинг аҳамияти, транзит, ЮНЕСКО, кўчманчи, ўтроқ.

Аннотация. В данной статье представлена информация о роли Великого шелкового пути как средства сообщения между народами. Говорят, что перевозка не только товаров, но и информации по этой дороге оказала большое влияние на развитие цивилизаций.

Ключевые слова: Великий шелковый путь, восток, история коммуникаций, сети Великого шелкового пути, значение дорог, транзит, ЮНЕСКО, кочевники, расселение.

Annotation. This article provides information about the role of the Great Silk Road as a means of communication between peoples. It is said that the transportation of not only goods, but also information along this road had a great influence on the development of civilizations.

Key words. The Great Silk Road, the east, history of communications, networks of the Great Silk Road, the importance of roads, transit, UNESCO, nomads, settlement.

Қадимги халқларнинг турли томонлама ривожланишида савдо ва транзит йўлларнинг аҳамияти ниҳоятда каттадир. Милоддан аввалги III минг йилликка келиб Ўрта Осиёнинг кўпгина ҳудудлари қадимги аҳоли томонидан ўзлаштириб бўлинган эди. Чўл ва дашт ҳудудлардаги кўчманчи чорвадор аҳоли воҳалардаги ўтроқ аҳоли билан ўзаро алоқаларни бронза даврига келиб янада ривожлантирадилар. Тарихий адабиётлардан маълум бўлишича, Буюк ипак йўли ташкил топмасдан анча илгариёқ Қадимги Шарқ ва Ўрта Осиё ҳудудларида ўзаро алмашинув йўллари мавжуд эди.

Бронза давридаги (милоддан аввалги III—II минг йилликлар) ана шундай йўллардан бири «Ложувард йўли» деб аталиб, унинг бир тармоғи Бадахшон, Бактрия ва Марғиёна ҳудудларини Хоразм, Сўғд, Марказий Қозоғистон ва Ўрал билан боғлаган. Яна бир тармоғи эса, Бактрия ва Марғиёнани Месопотамия билан боғлаган. Бу йўл Помир тоғларидан бошланиб, Эрон, Олд Осиё, Миср орқали ўтган. Бадахшон Ложувардининг Ҳинд водийси, Месопотамия ва Мисрдан топилиши бу қимматбаҳо тошнинг Қадимги Шарқда ниҳоятда қадрланганлигидан далолат беради.

Қадимги йўллардан яна бири, Эрон аҳмонийларининг йўли бўлиб, бу йўлнинг бир тармоғи милоддан аввалги VI—IV асрларда кичик Осиё шаҳарларини ҳамда Ўрта Ер денгизи бўйидаги Эфес, Сарди шаҳарларини Эроннинг марказларидан бири Суза билан боғлаган бўлса, яна бир тармоғи Эрон-Бактрия орқали Сўғдиёна, Тошкент воҳаси ва Қозоғистон ҳудудларидан ўтиб Олтойгача борган. Тарихий адабиётларда бу йўл «шоҳ йўли» деб аталади.

Милоддан аввалги 138 йилда Хитой императори У-Ди Чжан Цянни Ўрта Осиё ерларига жўнатади. Элчи Чжан Цян (милоддан аввалги 138-126 йилларда) Хитойнинг хуннларга қарши кураши учун иттифоқчи излаб келган

эди. Мил. авв. II-I асрларга келиб, Чжан Цян юрган йўлларда Хитойни Ўрта ва Ғарбий Осиё билан боғлайдиган карвон йўли пайдо бўлади. Бу йўл Буюк ипак йўли деб аталиб, умумий узунлиги 12 000 км дан иборат эди. Илк ўрта асрларга келиб, Ипак йўлининг янада ривожланганлигини кузатиш мумкин. Ўз даврида ниҳоятда катта аҳамиятга эга бўлган бу йўлнинг дастлабки тармоғи Хитойдаги Сиань шаҳридан бошланиб, Шарқий Туркистон, Ўрта Осиё, Эрон, Месопотамия орқали Ўрта Ер денгизигача чўзилган.

Хитойнинг Аноси шаҳрига келиб, Ипак йўли бир неча тармоқларга бўлиниб кетган. Хусусан бир тармоқ Аноси-Хами-Қошғар орқали Қўқонга, ундан эса Тошкентга ўтган. Бу ердан Жиззах ва Самарқанд орқали Бухорога келган йўл Урганч орқали Гурьевга, у ердан Оқсарой орқали Қора денгиз бўйларига чиққан. Яна бир тармоқ эса Дунхуан орқали Хўтанга, ундан Лохурга ўтиб кетган.

Ундан ташқари Бухорога келиб, бу тармоқ иккига бўлинган. Жанубий йўналиш Бухоро-Қарши-Термиз орқали Нишопурга ўтган ва Ҳирот орқали Ҳиндистонга ўтиб кетган. Нишопурдаги тармоқлардан бири Техрон-Қазвин-Ҳамадон-Боғдод-Палмира йўналиши бўйлаб Ўрта Ер денгизи бўйидаги Тир шаҳригача чўзилган. Умуман олганда Ипак йўлининг жанубий тармоғи Ўзган орқали Ўшга ўтиб, Кува — Марғилон-Қўқон орқали Хўжанд, Самарқанд, Бухорога ўтган. Шимолий йўналиши эса, Хазар хоқонлиги ва Булғор давлати орқали Киев Руси ва Европа мамлакатларига бориб, бу тармоқ VI асрдан бошлаб ривожлана бошлаган. Ипак йўлининг асосий карвон йўлларидан ташқари ички савдо йўллари ҳам мавжуд эди.

Ўрта Осиё худудларида антик даврдан бошлаб, ривожланиш жараёнлари Буюк ипак йўли билан узвий боғлиқдир. Хусусан, милoddан аввалги II асрдан бошлаб Хитой ва Ўрта Осиё тарихий-маданий вилоятлари билан савдо ва маданий алоқалар ривожланиб борди. Фарғона, Сўғд ва Бактрияга ипакчилик кириб келди. Карвон йўли ривожланиб борган сари савдо-сотик ва маданий алоқалар ривожланиб борди. Кушонлар ва эфталитлар даврига келиб (I-VI асрлар), Ўрта Осиё орқали ўтувчи Ипак йўли тармоқлари назоратини маҳаллий сўғдий аҳоли қўлга оладилар. Қўшни давлатлар ҳам Ипак йўлидан манфаатдор бўлганлиги сабабли илк ўрта асрларда Эрон ва Византия хукмдорлари сўғдийлар билан қонли курашлар олиб бордилар.

Милoddнинг бошларида қадимги дунёнинг илғор маданиятли давлатлари асосан тўрттага: Рим, Парфия, Хитой ва Кушон давлатларига бўлинар эди. Ғарбда Британ оролларида шарқда Тинч океани соҳилларигача чўзилган бу забардаст салтанатлар инсоният тарихида биринчи бўлиб «Буюк ипак йўли» деб номланувчи йўл билан боғландилар. Ипак йўли ривожланиб борган сари подшоларнинг ўзаро элчилар юборишлари, бир-бирларига ҳар хил совғалар инъом этишлари анъанага айланди. Савдо-сотик мисли кўрилмаган даражада ривожланиб борди. Шунингдек, Шарқ билан Ғарб маданиятининг бир-бирига таъсири кучайди. Давлатлар ривожланишидаги кўплаб маданий ўхшашликлар ҳам шу туфайли юзага келди.

Буюк ипак йўли бўйлаб кўплаб карвонсаройлар, шаҳарлар барпо этилди. Бу йўлдан бораётган савдогарлар кўпинча йўлнинг охиригача бормас эдилар.

Ўрта Осиё вилоятлари бу йўлнинг ўртасида жойлашганлиги сабабли савдогарлар Хоразм, Самарқанд, Термиз ва бошқа ҳудудларда ўз молларини сотиб, маҳаллий маҳсулотларни харид қилар эдилар. Ўрта асрлар Ўрта Осиё бозорларида четдан келтирилган кўплаб маҳсулотлар мавжуд эдики, ҳозирги кунда ипак йўли устидаги кўҳна шаҳарлар ва манзилгоҳлардаги археологик казишмалар натижасида топилаётган топилмалар фикримизнинг далилидир. Милоддан аввалги II асрда пайдо бўлиб, милоднинг XVI асрига қадар фаолият кўрсатган Буюк ипак йўли шу давр ичида Шарқ ва Ғарб халқларининг кенг миқёсидаги ўзаро маданий ва иқтисодий алоқалари тарихида катта аҳамиятга эга бўлди. Бу йўл орқали алоқалар қилган қадимги халқларнинг ўзаро ҳамкорлик, алмашинув ва маданиятларининг бойиб бориши, тинчлик ва тараққиёт учун асос бўлиб хизмат қилди. Ўзбекистон ҳудудлари бу йўлнинг чорраҳасида жойлашган бўлиб, бу ерга турли мамлакатлардан савдогарлар, хунармандлар, олимлар ва меъморлар ташриф буюрганлар.

ЮНЕСКО томонидан «Буюк ипак йўли-мулоқот йўли» дастурининг ишлаб чиқилиши Евросиёдаги 30 дан ортиқ етакчи давлатларнинг 2000 йилга қадар илмий-маданий фаолияти учун йўналиш бўлди. Республикамиз ҳудудларида ҳам илмий экспедициялар ташкил этилди. Бунинг натижасида кўпгина тарихий-маданий обидалар ўрганилди, қадимги йўллар ва йўналишлар аниқланди, миллий ва маънавий бойлигимиз ҳамда анъаналаримиз ўрганилди. Жуда кўпчилик тадқиқотчилар иштирок этаётган «Буюк ипак йўли-мулоқот йўли» дастурининг асосий вазифаси Шарқ ва Ғарб халқлари ўртасида иқтисодий ва маданий алоқалар ўрнатган ҳамда ривожлантирган бу йўлни халқларнинг биродарлик, ўзаро ҳамкорлик ва самимий мулоқот йўлига айлантиришдан иборатдир.

AN'ANAVIY TA'LIMDA O'QITISH METODLARI VA AFZALLIKLARI

*Nazarova Nigora Ravshanovna –
Osiyo texnologiyalar universiteti o'qituvchisi*

**Bilim, ma'rifat yaxshi axloq bilan bezanmog'i lozim.
Abu Nasr Farobiy.**

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta'lim jarayonida o'qitish metodlarining o'rni va uning bugungi kundagi ahamiyati qanchalik ekanligi haqida so'z boradi. Shuni aytib o'tish joizki, an'anaviy ta'lim metodlari Sharq mutafakkir olimlarining didaktik qarashlarida hamda pedagogik g'oyalarda mujassam bo'lgan. Sharq mutafakkirlarining ta'lim- tarbiyaga oid qarashlari hali - hanuz o'z o'rnini yo'qotmasdan, ta'lim olish jarayonida keng qo'llanilib kelinmoqda. To'g'ri biz bugun shiddat bilan rivojlanib borayotgan davrning kichik to'lqinimiz va bugungi kunda interfaol , noan'anaviy metodlardan o'rinli foydalanish uchun urinyabmiz.

Ammo aytadilarku:- Moziyga qarab ish ko'rish xayirlidir (Abdulla Avloniy). Bu esa biz takidlab o'tmoqchi bo'lgan ta'limning an'anaviy metodlari hozirgi kunda ham yosh avlodning yetuk shaxs bo'lib rivojlanishida muhim o'rin egallab kelmoqda .

Kalit so'zlar. Didaktika, o'qitish tamoyilari ,metod, og'zaki metodlar, ko'rsatmali metodlar, amaliy metodlar, suhbat metodi.

Bugungi kun rivojlanayotgan XXI asr texnologiyalari va rivojlanishlar davri. Shuning uchun ham ta'limni rivojlantirish hozirgi kunning dolzarb mavzularidan biridir. Ta'lim sifatini yaxshilash maqsadida turli sohalarda, turli amaliy - ilmiy ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan pedagogika fanini ham keng rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Pedagogika fanining vujudga kelishi va uning rivojlanish tarixiga e'tibor qaratsak, bu fanning o'rni nihoyatda beqiyos ekanligini anglash qiyin emas. Ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etish va unda turli xil usullar va metodlardan foydalanish hozirgi zamon talabidir. Ta'lim jarayonining sifati esa ko'p omillarga bog'liq bo'lib, ular orasida o'qitishning metodlari va vositalari hal qiluvchi ahamiyatga ega. Binobarin, ular bilimlarning ongli va chuqur o'zlashtirilishiga o'quvchilarda mustaqil va ijodiy faollikning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Usul va metod tushunchalari uzviy bog'liqdir, chunki ularning har biri metod sifatida ham, usul sifatida ham namoyon bo'la oladi.

Metod - (yunoncha, " metodos" - bilish yoki tadqiqot yo'li, nazariya, ta'limot), voqelikni amaliy va nazariy egallashni, o'zlashtirishni o'rganish, bilish uchun yo'l qidirish, usullar majmuasi, falsafiy bilimlarni yaratish va asoslash usulidir.

Farobiyning "Fan va san'atning afzalligi haqidagi risolasi" da o'quv jarayonini tashkil etishga va o'qitish metodlariga qo'yiladigan talablar haqida so'z keltirar ekan, "Turli ilmlar bir-birini inkor qilmaydi, balki o'zaro bir- biri bilan bog'liq holda rivojlanadi. Ular dunyoni idrok qilishga va insonlarning baxt-saodatga erishishiga qaratilgandir", deya ta'kidlab o'tgan.

Olimlar o'zlarining o'qitish metodlari haqida tushuntirishlarida o'quvchilarga turli bilimlar berish bilan birga mustaqil holda bilim olish yo'llarini ham ko'rsatib, ularni bilimlarni zarurligiga shak-shubhasiz ishonirish kerakligini uqtirganlar. Barcha qomusiy olimlar foydalangan o'qitish metodlarini bir necha guruhlarga ajratish mumkin.

Bular:

1. Og'zaki metodlar (bilimlarni so'z bilan bayon qilish, suhbat, darslik, ma'lumotnoma va ilmiy adabiyotlar).

2. Ko'rsatmali metodlar (rasmlar, namoyishlar, kuzatishlar).

3. Amaliy metodlar (mashqlar, laboratoriyadagi amaliy ishlar).

Burhoniddin Zarnudjiyning fikricha, insonning bilish faoliyati bilmaslikdan bilishga qarab boradi. Metod va usullarni tanlash darsda hal qilinishi mo'ljallangan masalalarga bog'liq. Shunday qilib, o'qitish metodi o'qituvchi va o'quvchilar nazariy hamda amaliy bilish faoliyatining ta'limiy vazifalarini bajarishga qaratilgan yo'ldir.

Unga qo'yiladigan muayyan talablar:

1. O'quv materialini o'rgan ishning tavsiya etilgan yo'li , fikrlashning didaktik -materialistik usuli, mustaqil qarashlar, irodaviy xususiyatlari va xalqning shakllanishiga olib borishi kerak. Ana shu talab nuqtai -nazaridan metod tarbiyaviy tusda bo'lishi lozim.

2. O'qitish metodining ilmiy asosi yaqqol va aniq bo'lishi zarur.

Shundagina o'qituvchi mazkur metod orqali qanday masalalar qo'yilishi va hal qilib bo'lmasligini ko'ra oladi.

3. O'qitishning tizimliliigi uning samaradorligini belgilaydi.

4. O'qitish metodining tushunarliliigi, o'qitishning yo'li, o'quvchi uchun qabul qilinishi va qo'llanilishi, o'quv materialini o'rganishning usuli esa bilimlarni o'zlashtirishning imkoniyatlariga muvofiq bo'lishi lozim.

5. O'qitishning onglilik va faollik zaruriyati nihayotda jiddiy talabdir .

6. Bilimlarning puxtaligi va asosliligi.

7. O'qitish metodikasi nazariy va amaliy asoslari hodisalarning muvofiqligi.

Har qanday metoddan biror maqsadga erishish ko'zda tutiladi va shuning uchun u qandaydir maqsad qo'yishni, unga erishish bo'yicha faoliyat usulini, ana shu faoliyatni amalga oshirishda yordam beradigan vositalarni bilishni taqozo etadi.

Og'zaki bayon qilish metodlaridan muhim o'rin tutadi: hikoya, suhbat, tushuntirish, ma'ruza.

O'g'zaki mashqlardan ta'lim jarayonida keng foydalaniladi. Ular o'quvchilarning umumiy madaniyati, mantiqiy fikrlashi hamda bilish qobiliyatini rivojlantirish bilan bog'liqdir. Shuningdek, og'zaki mashqlarning " suhbat " metodi nutq boyligini oshirishda katta rol o'ynaydi.

Suhbat - savol - javob shaklida diologik ta'lim metodi bo'lib, u fanga qadimdan ma'lum, hatto, undan o'z faoliyatida Suqrot ham mohirona foydalangan. Suhbat ta'lim jarayonida ko'p funksiyalar (aqliy fikrlash, hozirjavoblik, muloqot madaniyati va boshqa sifatlarni shakllantiradi) bajaradi, ammo asosiysi o'quvchida faollikni yuzaga keltiradi. Suhbatda o'quvchi fikricha mos harakat qilish, natijada yangi bilimlarni bosqichma - bosqich egallashga imkon beradi.

Fikrimiz so'ngida shuni aytib o'tish joizki har qanday metod ma'lum maqsad asosida tanlanishi shart. Tanlab olingan metod mavzuni yoritishga va yoki uni mustahkamlash uchun xizmat qilmog'i kerak . Vaholanki bazi mashg'ulotlarda didaktik o'yin metodlari ko'p ko'zga tashlanmoqda. Bu esa ta'lim jaryonida pedagogning nutqini biroz susaytirmoqda va pedagoglar ko'p vaqtlarini ma'lumotlar berishdan ko'ra didaktik o'yinlar uyushtirishni avzal bilmoqdalar. O'qitish metodlari va usullari ta'lim olish jarayonini yaxshilashga va o'quvchi yoshlarning chuqur bilim egallashlariga xizmat qilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik - T.: SANO-STANDART, 2017

2. Ro'ziyeva D.I., Tolipov O'.Q. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. - T.: INNOVATSIYA-ZIYO, 2019.

4. Yo'ldoshev O'.Z. Umumiy pedagogika. Fan va texnologiya.2019

5. Xalikov A.A. Pedagogik mahorat. Darslik. - Toshkent, Iqtisod moliya, 2012

6. Mutalipova M.J., Xodjayev B.X. Qiyosiy pedagogika. Darslik. - T.: TDPU, 2015.

7. Turg'unov S.T., Maqsudova L.A. va boshqalar "Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish, sifat va samaradorligini oshirish texnologiyalari" T. 2014.

XOTIN-QIZLAR HUQUQLARINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK STRATEGIYALARI

*Nomozova Roziya Omonovna – O‘zbekiston-Finlandiya
pedagogika instituti Psixologiya kafedrasida o‘qituvchisi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada respublikamizda xotin-qizlar huquqlari hamda kompetensiyasini shakllantirishning maqsad va vazifalari, psixologik strategiyalari, xotin-qizlar salohiyatidan samarali foydalanishning asosiy tamoyillari, shuningdek, ularning intellektual salohiyatini shakllantirish bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: kompetensiya, mehnat faoliyati, intellektual kompetensiya, korporativ kompetensiyalar, intellektual salohiyat, psixologik strategiya.

Bugungi kunda har bir sohada islohotlar amalga oshirilmoqda. Ijtimoiy ahvoli va turmush sharoiti og‘ir, ishsiz va ijtimoiy faol bo‘lmagan xotin-qizlar bilan “Ayollar daftari”ni yuritish orqali ishlash tizimini yanada takomillashtirish, ularni ijtimoiy — huquqiy, psixologik, tibbiy va moddiy qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni ijrosini ta‘minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

Davlat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida xotin-qizlarning faolligini oshirish, ularning ta‘lim va kasbiy ko‘nikmalar olishi hamda bandligini ta‘minlashga har tomonlama ko‘maklashish, tadbirkorlik tashabbuslarini yanada qo‘llab-quvvatlash, joylarda “Ayollar daftari”ni shakllantirish va unga kiritilgan xotin-qizlar muammolari, ehtiyojlari va qiziqishlarini tizimli o‘rganish, tahlil qilish va hal etish borasidagi ishlarni sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish, mamlakatimizda xotin-qizlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash va yanada rivojlantirish, ularning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, biznes yuritishlari uchun qulay muhit va keng imkoniyatlar hamda kafolatlar berish borasida muayyan ishlar amalga oshirilmoqda.[1]

Darhaqiqat, bilimli, dunyoqarashi keng ayollar doim jamiyat taraqqiyotida muhim o‘rin egallagan. Shu bois mamlakatimizda gender tenglikka erishish borasida qator amaliy ishlar bajarilmoqda. Masalan, 2019-yil 2-sentyabr kuni “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilindi. Bundan tashqari, O‘zbekistonda 2030-yilga qadar gender tenglikka erishish strategiyasi ishlab chiqildi. Ushbu strategiyada barcha uchun teng huquqli va sifatli ta‘limni ta‘minlash, qishloq joylarida qizlarning oliy ma‘lumotga ega bo‘lishi, zo‘ravonlikka yo‘l qo‘ymaslik, odam savdosining oldini olish kabi masalalar qamrab olingan. Umuman olganda so‘nggi yillarda ayollarning ta‘lim olishi uchun keng imkoniyat yaratish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Bunday tarixiy jarayonda yirik

kompaniyalar ham sohaga o'z hissasini qo'shishi, turli ijtimoiy loyihalar orqali xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlashi zarur. Ayollarning mehnat huquqlarini himoya qilish, kafolatlarini kuchaytirish – ushbu yo'nalishda olib borilayotgan ishlarning eng muhim jihatlaridan biri. Xususan, ularning tadbirkorlik tashabbuslarini yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida uzoq muddat bola parvarishida bo'lgan, mushkul iqtisodiy ahvolga tushgan ayollarni mehnat bozorida talab etilayotgan kasblar bo'yicha qayta tayyorlash ishlari olib borish, shuningdek, tadbirkorlik bilan shug'ullanish istagini bildirganlariga ko'maklashilib, biznes g'oyalarini tayyorlashda konsultativ yordam berish bugungi kun talabi bo'lib kelmoqda. Xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash, bilim va kasbiy ko'nikmalar egallab, munosib ish topishlariga ko'maklashish, salomatligini saqlash, uy-joy masalalarini hal etish borasida tizimli ish olib borilmoqda.

Jahonda ayollar mehnatini tashkil etish masalalari innovatsiyalar, raqamli va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, ayniqsa, koronavirus pandemiyasi sharoitida dolzarb muammolardan biriga aylandi. Manbalarda keltirilishicha: "Pandemiya davridagi "buyuk yopilish" to'g'ridan to'g'ri gender tengligiga ta'sir etib, uning natijasida ayollarning ish bilan bandligi 5 foizga, erkaklarniki esa 3,9 foizga kamaygan. Shuningdek, ishsiz qolganlar orasida deyarli har o'n ayoldan to'qqiztasi nofaol bo'lib qolgan. Bu esa erkaklarga nisbatan ko'proq ayollar ish qidirmayotgani, ishga joylashish va daromadga ega bo'lishga tayyor emasligini bildirmoqda. Bunday sharoitda tegishli choralar ko'rilmasa, ayollar uzoq muddatli ishsiz bo'lib qolishi mumkin". Shu jihatdan bugungi kunda jahonda ayollar mehnatini samarali tashkil qilishga dolzarb muammo sifatida qaralmoqda.

Aholining, xususan, xotin-qizlarning intellektual salohiyatini yuksaltirish muhim ijtimoiy masala sifatida ularning mehnat bozoridagi faolligini oshirishga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Ilmiy adabiyotlarda mehnat bozorining mazmun-mohiyati, funksiyalari, uning turlari va shakllari, ishlash mexanizmi, aholi bandligi, xotin-qizlar mehnat bozori, xotin-qizlarning ish bilan bandligi, xotin-qizlarning intellektual salohiyati, xotin-qizlarni ishga joylashtirish masalalarining ayrim jihatlarini ilmiy-nazariy hamda uslubiy jihatdan tadqiq etilgan.

Rossiyalik olim Rudneva L.N. [2] o'z asarida mehnat bozori infratuzilmasining shakllanishi hamda rivojlanishi, uning turlari va shakllari, ishlash mexanizmi, mehnat bozori modellari, ishsizlikni kamaytirish yo'llari hamda ish bilan bandlikni tartibga solish mexanizmlari tadqiq etilgan. Shuningdek, xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash dasturi va xotin-qizlar intellektual salohiyatini baholash ko'rsatkichlari tasnifining ilmiy asoslari ishlab chiqilgan.

Sh.R.Xolmo'minov, N.U.Arabovlar [3] o'z asarlarida xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash, ularning mehnat bozorida kasbiy harakatchanligini oshirish, xotin-qizlarning intellektual salohiyatini baholash, ularning mehnat faolligini oshirish yuzasidan sotsiologik tadqiqotlar o'tkazish, davlat va nodavlat ish bilan bandlik xizmatlari shakllanishi va rivojlanishining asosiy yo'nalishlari aniqlangan. Shuningdek, mehnat bozorini tartibga solishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish va mehnat bozori infratuzilmasini rivojlantirish samaradorligini oshirishning strategik konsepsiyasi ishlab chiqilgan.

Xotin-qizlarning intellektual kompetensiyalari shakllanishiga yondashuv uning modelini ishlab chiqish bosqichlari va tamoyillarini ifodalaydi. Bu texnologik jihatdan to'rtta bosqichga ajratiladi:

- strategik (xotin-qizlarning asosiy kompetensiyalarini aniqlash);
- operatsion (lavozimlar bo'yicha har bir jarayon uchun xulq-atvor indikatorlarini barpo qilish);
- malakaviy (baholash shkalasi bilan muvofiqlikda xulq-atvor indikatorlarini tasniflash va baholash);
- kompetensiyalar modellarini takomillashtirish.

Xotin-qizlarning kompetentligi modelini realizatsiya qilishdan olingan samara quyidagilardan iborat:

bunda aniq axborotlarning mavjudligi shundaki, xotin-qizlar mehnatidan qanchalik darajada samarali foydalanilyapti va ularning resurslari sifati qay darajada;

xotin-qizlarning intellektual salohiyati va mehnat natijalarini baholash mezonlarini aniqlash;

zaruriy ish faoliyati ko'rsatkichlariga erishishda xotin-qizlarga halaqit beradigan muammolar va qiyinchiliklarni aniqlash;

xotin-qizlarni o'qitish, malakasini oshirish va rivojlanishining asosiy yo'nalishlarini loyihalashtirish;

xotin-qizlarning intellektual salohiyati darajasini oshirish orqali mehnat unumdorligi va sifatning oshishi.

Intellektual mehnat ko'p jihatdan ijodkorlik xarakteriga ega. Zamonaviy ishlab chiqarishning barcha sohalarida intellektual mehnat muhim ahamiyat kasb etadi. Intellektual mehnat funksiyalarini bajarish uchun xodimdan qobiliyat, ma'lum bir darajadagi intellekt, yuqori darajadagi kasbiy va umumiy bilimlar talab etiladi.

Xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonlikning oldini olish va ularning buzilgan huquqlarini tiklash hamda hayotga moslashtirish choratadbirlarini amalga oshirishda bu sohada faoliyat olib borayotgan har bir mutaxassisdan kuchli bilim, mahorat, psixologik va individual yondashuv talab qilinadi. Shuni yodda tutish kerakki, qaysi jamiyatda ayol qadrlanar ekan, oilalar farovon, farzandlar tarbiyasi to'la-to'kis bo'ladi. Bu esa kelajakka tomon yorqin yo'ldir.

Zero, davlatimiz rahbari o'zining "Yangi O'zbekiston strategiyasi kitobida ta'kidlaganidek, "Ayol baxtli bo'lsa, jamiyat baxtlidir"[4]. Shunday ekan, bugun yurtimizda har bir yo'nalish bo'yicha islohotlar olib borilayotgan bir paytda xotin-qizlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash ustuvor vazifaga aylanishi kerak.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston respublikasi Prezidentining Farmoni. "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi o'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida". 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son.

2. Руднева Л.Н. Формирование и регулирование инфраструктуры рынка труда. – Екатеринбург, 2006. – 321 с.

3. Xolmo'minov Sh.R., Xomitov K.Z., Arabov N.U., Bobonazarova J.X., Abduraxmanov X.X. Qishloq aholisini ish bilan ta'minlashning nazariy va amaliy asoslari. –Toshkent: "Innovatsion rivojlanish" nashriyot-matbaa uyi, 2018. – 160 b.

4. Mirziyoyev Sh.M. "Yangi O'zbekiston strategiyasi". – Toshkent, 2021.
"O'zbekiston" NMIU. – 249 bet.

SHAXSIY TARKIBNI JANGOVAR TAYYORGARLIK JARAYONIDA PSIXOLOGIK CHINIQTIRISH

*Normatov Sayfiddin Saidmyrotovich –
O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari
Kichik mutaxasislarni tayyorlash markazi
O'quv uslubiy bo'limi uslubiy bo'linmasi boshlig'i,
podpolkovnik*

Ta'lim va tarbiya sharoitlarini jangovar faoliyat sharoitlariga yaqinlashtirish jangchini ruhiy tomondan jangga tayyorlashning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Albatta, haqiqiy jangovar vaziyat faqat jangu jadallar vaqtidagina bo'ladi. O'quv-jangvoar faoliyat jarayonida esa biz jangvoar sharoit modelini yoki uning alohida qismlarini yaratishimiz va shu orqali shaxsiy tarkib yoki bo'linmalarning psixologik tayyorgarligini ta'minlashimiz mumkin.

Psixologik tayyorgarlik jarayonida jangvoar faoliyatni takomillashtirish maqsadida har xil jang, urush vaziyatlari yaratilishi lozim.

Yaratilayotgan sun'iy vaziyatlar o'zining psixologik tarkibiga ko'ra jangovar holatga qanchalik yaqin bo'lsa, o'quv-jangovar faoliyat jangovarlikka shunchalik yaqinlashib boradi. Bu narsa shundan dalolat beradiki, o'quv-jangovar faoliyatni amalga oshirayotgan harbiy xizmatchidagi motiv, maqsad va harakatlar haqiqiy jangovar vaziyatlardagi xuddu shunday psixologik elementlar bilan imkon boricha ko'proq o'xshash bo'lishi lozim. Tabiiyki, o'quv-jangovar faoliyat o'zining emosional tomonlari bilan ham jangovar faoliyatga o'xshash bo'lishi talab etiladi.

Mashqlar paytida jangovar shart-sharoitlarni sun'iy yaratganda jangovar faoliyat modelini hosil qilish psixologik jihatdan muhim omil hisoblanadi. Jangda psixologik omillarni modellashtirish deganda shunday vaziyatni yaratish usulini tushunamizki, uning vositasida harbiy xizmatchilarda haqiqiy jang sharoitida tug'uladigan ruhiy holatlar hosil qilinadi.

Jangovar tayyorgarlik mashg'ulotlari jarayonida jangning psixolk omillarini modellashtirish o'xshashlik tamoili asosida, shuningdek, boshqa usullar vasitasida amalga oshiriladi.

Mashg'ulotlarda jangning psixologik omillarini modellashtirish ikki xil shaklda amalga oshiriladi:

1. Jangning psixologik tashkil qiluvchilarning to'liq modelini yaratish;
2. Jangning psixologik tashkil qiluvchilarning bitta yoki bir nechtasining modelani yaratish.

O'quv mashg'ulotlarini rejalashtirilganda nafaqat uning taktik tomonlarini yoki o'quv savollarini, balki, psixologik rejani ham aniqlashtirib olish kerak.

Psixologik reja quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- mashg'ulot qayerda o'tkaziladi;
- harbiy xizmatchilarda qiyinchiliklarni yengib o'tish uchun kerak bo'ladigan

qat'iylik, jasurlik, tashabbuskorlik kabi sifatlarni hosil qilish yo'llari.

Afsuski, ko'pchilik komandirlar imitasiya vositalari yordamida jangning tashqi shart-sharoitlarini yaratish bilan jangchilarning psixologik tayyorgarligini amalga oshirish mumkin, deb noto'g'ri o'ylashadi.

O'quv-jangovar faoliyatida jangning psixologik omillarini yaratish uchun komandirlar har xil usullardan foydalanishadi. Psixologik tayyorgarlik usuli deganda jang omillarini modellashtirish usullari tushuniladi.

Jangning psixologik omillarini yaratish usullari quyidagilar:

1. So'z-belgi usuli. Bu usul harbiy xizmatchilarga ikkinchi signallar tizimi-so'z orqali ta'sir etib, psixoloik holatlar yaratishdan iborat. Bu oldindagi qiyinchiliklar haqidagi, jarohat olish ehtimolligi hamda har xil tarixiy voqyealar haqida hikoyalar bo'lishi mumkin.

2. Ko'rgazmali usul. Bu usul vositasida harbiy xizmatchilarga har xil predmetlar (masalan: har xil qurollarni), hatti harakatlar (har xil to'siqlarni yengib o'tish, harbiy xizmatchilar ustidan tankni haydab o'tish va hokazo), kinofilmlar, fotodasturlar, chizmalar va hokazolar ko'rsatiladi.

3. Kompyuter vositasida ta'sir etish usuli. Kompyuterlarda jangning psixologik omillari modellashtiriladi va harbiy xizmatchilarga ko'rsatiladi.

4. Trenajer usuli. Jangning psixologik omillari sport snaryadlari, texnik vositalar va inshootlarni qo'llash bilan modellashtirish orqali harbiy xizmatchilar ongiga ta'sir etiladi.

5. Imitasiya usuli. Imitasiya vositalari yordamida jangning psixoloigik omillari modellashtiriladi.

6. Jangovar usul. Jangning psixologik omillari jangvoar texnika va qurollarni qo'llash orqali modellashtiriladi.

Psixologik tayyorgarlki metodi deganda dars va dala o'quv mashg'ulotlari jarayonida psixologik tayyorgarlik usullarining o'quv-jangovar faoliyat bilan o'yg'unlashuvi tushuniladi.

Faoliyat harbiy xizmatchining qo'shilish darajasiga qarab psixologik tayyorgarlki usullari uchta katta guruhga bo'linadi:

1. Ko'rgazmali usullar qurollarning harakatlarini ko'rsatish, jangovar yoki himoya harakatlarini ko'rsatib berish. Ushbu usullarni qo'llash vaqtida harbiy xizmatchi jangovar faoliyatdan boshqa faoliyatlar bilan shug'ullanadi (masalan: kuzatish).

2. shartli vaziyatlar usullari (har xil muammolarni yechish, ish o'yinlari, taktik o'quv mashg'ulotlari, qo'mondonlik-shtab o'quv mashg'ulotlari). Ushbu usullarni qo'llagandagi faoliyat shartli xarakterga ega (o'ziga xos "urush-urush" o'yini). Shartli vaziyatlar usullari jangovar faoliyatning ichki tuzulishini va mantiqini bilib olishga yo'naltirilgan.

3. "Real" vaziyatlar usullari. Ushbu usullar yaratilgan shart-sharoitlarning harbiy xizmatchilar tomonidan real jangovar sharoit sifatida qabul qilinishini hamda ularning haqiqiy jangvoar hatti-harakatlarni amalga oshirilishlarini taqazo qiladi.

Harbiy xizmatchi ruhiyatiga ta'sir etuvchi jang omillari (havf-xatar, favqulotdalik, noaniqlik, yangiligi, harakat me'yorining oshishi, vaqt taqchilligi) ikki guruhga bo'linadi: birlamchi va ikkilamchi omillar.

Birlamchi omil sifatida havf-xatar e'tirof etiladi.

Ikkilamchi omillarga esa favqulotdalik, noaniqlik, yangiligi va hokazolar kiritiladi.

Psixologik tayyorgarlik ma'lum tartibda amalga oshishi uchun jangni psixologik modellashtirish quyidagi komponentlarga ajratiladi: motivasiya komponenti, bilish xarakteridagi komponentlar va motor komponenti.

Bunday ajratish shartli bo'lib, u psixologik modellarni ongli rejalashtirish va tahlil qilish uchun zarur.

Motivasiya komponenti: motivlar insonni faoliyatiga undaydi. O'quv mashg'ulotlarida motivlarni faollashtirish bilan motivasiya komponentini modellashtiramiz. Uch turdagi motivlar mavjud:

1. Keng ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan motivlar – Vatanga muhabbat, burchga, halqqa sadoqat, dushmanlarga nafrat.

2. Jamoatchilik motivlari – jamoatchilik xissi, o'z bo'ligmasi uchun faxrlanish.

3. Shaxsiy motivlar – boshqalarning e'tiboriga tushishga intilish, o'z mavqeyini mustahkamlash yoki o'zgartirish, komandirning maqtovi.

Faoliyat samaradorligiga ko'rsatilgan ta'siriga qarab motivlar bir-biridan farq qiladi. Birinchi guruh motivlar faoliyatini ijobiy ta'sir ko'rsatadi, ikkinchi va uchinchi guruh motivlari esa ham ijobiy, ham salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Bilish xarakteridagi komponent. Harbiy xizmatchilarning vaziyatni to'g'ri baholashlari, ulardagi bilish jarayonlari asosida kechadigan idrokka bog'liq bo'ladi.

Biz ruhiyatimizga ko'rsatilayotgan ta'sirotlarning hammasini ham ongimizda aks ettirmaymiz. Tashqi qo'zg'atuvchining ongimizda aks etish darajasi uning hayot faoliyatimiz uchun qanchalik ahamiyatli ekanligiga bog'liq.

Bilish xarakteridagi komponentlar modelini yaratish orqali harbiy xizmatchilarda haqiqiy jang haqidagi tasavvurlar boyitiladi. Bu esa psixologik tayyorgarlikning muhim muammolaridan biri haq etilganini bildiradi.

Harakat komponenti. Qandaydir bir faoliyatni yoki uning alohida harakatlarini amalga oshirishda askar alohida operatsiyalar majmuasini ijro etadi. Bunday operatsiyalar majmuasi turli harbiy mutaxassisliklar uchun turli xil.

Motor komponentini yaratish real jangovar faoliyat sharoiti zarur bo'ladigan operatsiyalarning hammasini yoki ular ko'pchiligini askar tomonidan bajarilishini taqozo qiladi.

Xulosa qilib aytganda, harbiy xizmatchilarni jangga tayyorgarlik ko'rish va jang olib borish jarayonida ruhiy jihatdan chiniqtirish va harbiy jamoalarda jangovar vafalarni bajarish uchun zarur bo'ladigan psixologik sifatlarni shakllantirishga yo'naltirilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining 2018 yil 9 yanvardagi 458-sonli Qonuni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Mudofaa doktrinasi.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 4 avgustdagi PQ 3898-sonli "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilarining ma'naviy-ma'rifiy saviyasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida" gi Qarori.

3. O'zbekiston Respublikasi Mudofaa Vazirining 300 va 454 - sonli buyruqlari.

4. Ch.R. Nasriddinov. Harbiy psixologiya. O‘quv qo‘llanma. Toshkent – 2004 y.

HARBIY PSIXOLOGIYANING IJTIMOIIY- PSIXOLOGIK MUAMMOLARI

*Norqulov Akbar Farhodovich –
O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari
kichik mutaxassislar tayyorlash markazi
Qurollanish va otish sikli katta o‘qituvchisi, podpolkovnik*

Harbiy psixologiya, harbiy xizmat va harbiy faoliyat jarayonida psixologik muammolarni o‘rganadigan soha bo‘lib, askarlar va jangovar vazifani bajaruvchi xarbiy xizmatchilarga ruhiy sifatlarini oshirishga yordam beradi. Ushbu sohada, harbiy xizmatga kelgan shaxslarning psixologik jipsligini o‘rganish, dushman tomonidan qo‘llaniladigan taktika va strategiyalarini tahlil qilish, harbiy psixologik tayyorgarlikni oshirish va psixologik qo‘llanmalar tuzish, harbiy operasiyalarga qatnashuvchilarni psixologik ravishda ko‘rsatish va psixologik ta‘sirni boshqarish, jangovar vazifani bajaruvchilarning stress, depressiya, psixologik jarohat va boshqa psixologik muammolari bilan kurashishlariga yordam berish kabi vazifalar o‘z ichiga oladi.

Harbiy psixologik muammolar, quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

Qo‘shinlarga moslashuvchanlik: Harbiy faoliyatda ishtirok yetuvchi askarlar qo‘shinlarga moslashishi va jangda jangovar vazifalarni muvaffaqiyatli bajarishlari uchun kerak bo‘lgan qobiliyat va sifatlarga yega bo‘lishlari zarur. Harbiy psixologlar, askarlar va jangovar vazifani bajaruvchilarni jangga tayyorlash, ularni ruhlantirish va qo‘shin ichidagi birlik va hamjihatlik kayfiyatini oshirishda yordam beradi. Qo‘shinlarga moslashuvchanlik harbiy faoliyatda muhim bir xususiyat bo‘lib, quyidagi masalalarni o‘z ichiga oladi:


Psixologik tayyorlik: Qo‘shinlarga moslashuvchanlik, psixologik tayyorlikni ham o‘z ichiga oladi. Bu, harbiy operasiyalarda sabr, motivasiya, ishonch, o‘z-o‘zini boshqarish qobiliyati va stresli sharoitlarda boshqarish qobiliyatini o‘z ichiga oladi. Qo‘shinlarni g‘alabasini va vazifani muvaffaqiyatli bajarishga yo‘naltirishda yordam beruvchi psixologik tayyorgarlikni o‘z ichiga oladi.

Hamjihatlik va jamoaviylik: Qo‘shinlarga moslashuvchanlik, guruh ishlarida hamjihatlik va jamoaviylikni o‘z ichiga oladi. Qo‘shinlar, bir-biriga nisbatan hurmat va muhabbatni oshirish, guruhni birlashtirish va hamkorlik ruhini oshirish, qo‘shinlikning asosiy tamoyillaridir. Bu, turli miqdordardagi guruhlarda vazifani bajaruvchilarda bir-biriga nisbatan javobgarlik va hamkorlikni oshirishga imkon beradi.

Xavfsizlik va xatarlarni boshqarish: Qo‘shinlarga moslashuvchanlik, xavfsizlik va boshqaruvni amalga oshirishda imkon beradi. Qo‘shinlar, xavfsizlik prinsiplarini o‘rganish, o‘zlarini va guruhlarini yo‘qotish va taktikaga qarshi harakatlarni o‘rganish, zararli xavf va xatarlarda to‘xtovsiz harakat qilish, muammo va tushunchalarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri boshqarish qobiliyatini o‘rgatadi.

Intellektual va taktik tayyorlik: Qo‘shinlarga moslashuvchanlik, intellektual va

taktikaviy tayyorlikni o'z ichiga oladi. Qo'shinlar, harbiy taktika va strategiyalarini o'rganish, jangda qarshilik va muammolarni yechishda ishonchli va samarali qarshi harakatlarni o'rgatish, muhim va nostandart qarorlar qabul qilish uchun analitik va tuzilishli fikrlash qobiliyatini rivojlantirishni talab qiladi.



Stress va hayajonni boshqarish: Harbiy faoliyat, kuchli xavf va stress asosida olib boriladi. Harbiy psixologlar, askarlar va jangovar vazifani bajaruvchilarni stressiz muhitda ta'lim berish, stress va hayajonlarni boshqarish usullarini o'rganish, stress asosli holatlarda psixologik yordam ko'rsatish, psixologik jarohlarni davolash va psixologik tashvishlarni kamaytirishda yordam beradi. Stress va traktlar harbiy faoliyatning o'ziga xos jihatlaridir va jangovar vazifani bajaruvchilar uchun ko'p holatlarda sodir bo'lishi mumkin. Harbiy psixologlar va konsultantlar, jangovar vazifani bajaruvchilarni stress va traktlar bilan boshqarishda yordam berish uchun bir nechta usullarni taqdim yetishadi.

Quyidagi usullar stress va traktlar bilan boshqarishga yordam berishda o'rnatilgan:

Psixologik ta'minot va ta'riflash: Jangovar vazifani bajaruvchilarning stress va traktlarni tushunishlari va ular bilan qanday kurashishlari haqida bilim olishi muhimdir. Harbiy psixologlar, stressning asosiy sabablari, harbiy xizmatning normal hayoti va uzoq muddatli operatsiyalarda sodir bo'ladigan stress holatlari haqida ta'riflar berishadi. Bu, jangovar vazifani bajaruvchilarning o'z xolati va hissiyotlari haqida o'zlarini tushunishlariga yordam beradi.

Stresni boshqarish va relaksasiya texnikalari: Jangovar vazifani bajaruvchilarga stresni boshqarish va relaksasiya texnikalari o'rgatiladi. Bu texnikalar orasida tarbiyaviy nafas oluvchi mashqlar, meditasiya, musiqa tinglash, yogalik amallar va

boshqa relaksasiya usullari bo'lishi mumkin. Ular jangovar vazifani bajaruvchilarni yemosional ravishda qattiq vaqtlarda tashvishlarga olib keladigan stress holatlaridan ozod qilishga yordam beradi.

Muloqot va o'zaro ko'rsatish: Jangovar vazifani bajaruvchilarning stress va traktlarni boshqarishida muloqot va o'zaro ko'rsatish muhim ahamiyatga ega. Qo'shinlar, o'z o'zlariga va boshqalarga ishonch, qo'llab-quvvatlash va yordam berish imkonini ta'minlaydigan komanda va guruhlarda ishlovchi bo'lishadi. Muloqot yordamida jangovar vazifani bajaruvchilar o'z o'zlariga, o'zlarini tushunadigan shaxslarga yordam berish, hissiyotlarni bayon qilish va fikrlarni o'zaro almashish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Tugallash modeli va natijaviy o'zgarmaslik: Jangovar vazifani bajaruvchilarga stressni boshqarishda tugallash modeli va natijaviy o'zgarmaslikni o'rgatish muhimdir. Bu, jangovar vazifani bajaruvchilarni stress va traktlarni mukammal tushunish, o'z xolatlarini qayta baholash va o'zlarini takomillashtirish uchun qo'llaniladigan strategiyalarni o'rganish imkonini beradi.

Psixologik ta'sirni boshqarish: Harbiy operatsiyalarda qatnashuvchilar, qo'shinlar, guruhlarda ishlash va o'zaro hamjihatlikni oshirish kerak. Harbiy psixologlar, guruh ishlarini tashkil yetish, Muloqot va hamkorlikni o'rgatish, bir-biriga bo'lgan hurmatni oshirish va kafolatlarni tashkil yetishda yordam beradi.

Jangovar vazifani bajaruvchilarning psixologik yaxlitliklarini o'rganish: Harbiy psixologlar, askarlar va jangovar vazifani bajaruvchilarning psixologik me'yorlarini, ular tug'risidagi ma'lumotlarni va xarakteristikalarini o'rganish, ularning kuchli va ziddiyatli xususiyatlari, kreativlik va intellektual qobiliyatlarini darajasini tahlil qilishda yordam beradi.

Harbiy psixologiya sohasi, askarlik va harbiy faoliyatning alohida bo'limi bo'lib, jangovar vazifani bajaruvchilarning psixologik yaxlitliklarini o'rganish va ularning jangda muvaffaqiyatli ishlashlariga yordam berishda katta ahamiyatga ega.

Jangovar vazifani bajaruvchilarning yaqin do'stlari, oilaviy a'zolar, komandalar va harbiy psixologlar katta taklif yetmoqchi bo'lgan usullardan ba'zilar quyidagilardir:

Maqsadlarni belgilash: Hayotda maqsadlarga ega bo'lish, insonlarga yo'l yo'riq beradi va umuman stressni yengillashga yordam beradi. Maqsadlarni belgilash, jangovar vazifani bajaruvchilarga motivasiya va yo'l yo'riq beradi, ularga yo'qotish vaqtlarida ham o'z maqsadlari bilan bog'liq ishlash imkonini beradi.

Vaqt boshqarish: Yaxshi vaqt boshqarish, jangovar vazifani bajaruvchilarga stressni kamaytirishga va ishlarini tizimli bajarishga yordam beradi. Ular uchun har bir vazifani vaqtni boshqarish, ustozlar va liderlar bilan muloqot qilish, tizimli ish tartibini saqlash muhimdir.

Barqarorlik va sahilik: Jangovar vazifani bajaruvchilar uchun barqarorlik va sahilik hissiyoti muhimdir. Ular uchun o'zlarini isbotlash, qat'iy va ishonchli bo'lish, o'z vazifalarini bajarishda yuqori darajada ishonch va aniqchaslikni saqlash zarur bo'ladi.

Qayta tashkil yetish: Jangovar vazifani bajaruvchilar uchun qayta tashkil yetish, stress va traktlarni boshqarishning asosiy qismlaridan biridir. Ular qayta tashkil yetish yordamida qo'yilgan vazifalardan olingan foydalanishni o'rganish, tizimli ishlarini rejalashtirish, muammolar va tushunchalarni yechishda qayta rejalashtirishni

o'rganishadi.

Qo'shimcha o'zaro qo'yish: Stress va traktlarni boshqarish uchun jangovar vazifani bajaruvchilarga qo'shimcha o'zaro qo'yish muhimdir. Ular o'zlarini yaqin do'stlarga, oilaviy a'zolarga, ustozlarga yoki harbiy psixologlarga murojaat qilishlari va yordam so'ralishlari mumkin. Bu, ularga qo'shimcha o'zaro qo'yish va qo'llab-quvvatlash imkonini beradi.

Stress va traktlarni boshqarish jangovar vazifani bajaruvchilarning qiziqishlarini, talablarni va o'zaro aloqalarni hisobga olgan holda shaxsiy ravishda amalga oshirilishi kerak. Harbiy psixologlar va liderlar, jangovar vazifani bajaruvchilarni stress va traktlarni tushunish, qabul qilish va ularni boshqarishda o'zlariga yordam berish uchun jismoniy va psixologik usullarni taqdim yetishadi.

Stress va traktlarni boshqarishda jismoniy mashqlar juda muhim ahamiyatga yega. Jismoniy faoliyatning ovozini qo'llash, yenergiya darajasini oshirish va tana va ruhni rahatlikka olib kelish jismoniy mashqlar orqali amalga oshirilishi mumkin. Quyida, stress va traktlarni boshqarishda yordam berishi mumkin bo'lgan bir nechta jismoniy mashqlar ko'rsatilgan:

Nafas olish mashqlari: Tarbiyaviy nafas oluvchi mashqlar stress va traktlarni boshqarishda juda samarali bo'lishi bilan bilinadi. Bu mashqlar orqali siz o'zingizni to'g'ri nafas olish va tana yenergiyasini tiklash imkoniyatiga yega bo'lasiz. Misol uchun, o'z qo'llaringizni nafas yo'lida tarbiyalash va har nafas olishda tarkibiy ravishda his qilishga diqqat qaratishingiz kerak.

Yogalik mashqlar: Yoga jismoniy rivojlanishni, tana va ruhni rahatlikka olib kelishni va stresni kamaytirishni o'rgatuvchi samarali bir usuldir. Asanalar va asqotishlarning to'plami orqali yogalik mashqlar stressni pasaytirishda yordam berishi mumkin. Yogalik mashqlar orqali tana va fikrni birlashtirish, istiyiq va qayg'uni pasaytirish, tana yorug'ligini oshirish va umumiy rahatlantirish amalga oshiriladi.

Jamoa sport turlari: Jamoa sport turlari, masalan, futbol, basketbol, voleybol va boshqalar, stressni pasaytirishda ham ahamiyatga yega bo'ladigan o'zaro hamkorlik va jamoaviy faoliyat imkonini beradi. Birgalikda sport o'ynash, guruh bilan ishlash va o'zaro qo'shimcha o'zaro qo'yish yordamida stress va traktlarni pasaytirish va o'z-o'zini qo'llab-quvvatlash imkoniyati oshiriladi.

Ayerobik mashqlar: Ayerobik mashqlar, masalan, shirb-tervish trenirovkalar, yurish, velosiped haydash va boshqalar, o'zining yenergiya darajasini oshirish, yendorfinga olib kelish va stressni pasaytirishda o'z-o'ziga xos ahamiyatga yega. Ayerobik mashqlar o'zingizga mos ravishda qulay bo'lgan birini tanlash va ularni istalgan vaqtda amalga oshirishni hisobga olishingiz mumkin.

Bu mashqlar faqat stress va traktlarni boshqarishda yordam beradi, ammo bu borada ham juda foydali bo'lgan usullardir. Har bir inson o'ziga mos keluvchi mashq stress va traktlarni boshqarishda jismoniy mashqlar juda muhimdir. Bu mashqlarni bir necha tavsiyalarni quyidagicha ifodalanadi:

Kardiovaskulyar mashqlar: Yo'g'och, yurish, velosiped haydash, qo'lda boshqa kardiovaskulyar mashqlar stressni pasaytirishda juda samaralidir. Ushbu mashqlar o'zingizning yenergiya darajangizni oshirishi va yendorfinga olib kelishi mumkin, bu yesa sizning hissiyotingizni yaxshilaydi va stressni pasaytiradi.

Kuchli mashqlar: Kuchli mashqlar, masalan, halqalar, yuk mashqlari va ko'p

yo'lli vazn tashlash mashqlari, sizning yenergiya darajangizni oshirishga yordam beradi va tuzoq yo'li orqali stressni pasaytirish imkonini beradi.

Ashtanga, Vinyasa, yoki Hatha yogasi: Yogalik mashqlar tana va fikrni birgalikda ishlatish orqali stressni pasaytirishda o'z-o'ziga xos ahamiyatga yega bo'ladilar. Ashtanga, Vinyasa, yoki Hatha yogalik usullaridan birini tanlab amalga oshirishingiz mumkin. Bu mashqlar orqali tana va fikrdagi tarovatni oshirish va stressni kamaytirish mumkin.

Tai Chi yoki Qigong: Tai Chi va Qigong mashqlari sharqiy madaniyatlariga asoslangan jismoniy mashqlardir. Ular tana va fikrdagi tarovatni oshirish va tana va ruhni rahatlikka olib kelishda yordam beradi. Bu mashqlar asosan yengillashtirish harakatlardan iborat bo'lib, stressni pasaytirishda o'z-o'ziga xos ahamiyatga yega.

Stretching mashqlari: Uzatish mashqlari tana muskullarini ishtirok yetish, qayg'uni pasaytirish va stressni kamaytirishda yordam beradi. Uzatish mashqlari orqali tana temperaturasi oshiriladi va muskullar qisqaradi. Bu yesa stress va traktarni pasaytirishga yordam beradi.

Massaj: Massaj tana va fikrni rohatlikka olib kelishda juda samarali bo'lgan jismoniy mashqdır. Massaj tana o'zgarmalarini rohatlikka olib kelish va muskullardagi qisqarishni pasaytirishga yordam beradi. Masaj terapevti bilan ishlash yoki o'zingizga o'z massajini amalga oshirish mumkin.

Jismoniy mashqlarni amalga oshirishdan oldin, shifokor yoki sport mutaxassisi bilan mashqni amalga oshirish haqida murojaat qilish darkor. Ular sizga yeng mos mashqlarni va amalga oshirish tartibini belgilashda yordam berishlari mumkin. Buning bilan birga, tezkor yurish, yaxshi yengillik, to'g'ri yuvish va yetarli darajada dam olish ham stressni kamaytirishda muhimdir.

Komunikasiya va o'zaro ko'rsatish, insonlar o'rtasidagi munosabatlarni tuzish va o'z fikrlarini, g'oyalarini, xayollarni va talablarni boshqalarga yetkazishning o'rganilgan usulidir. Bu, yeng muhim o'zgaruvchilardan biri bo'lib, insonlar o'rtasidagi aloqalarni kuchaytirish, tushunishingizni ifodalash va o'z fikringizni boshqalarga yetkazish imkonini beradi.

Komunikasiya va o'zaro ko'rsatish quyidagi asosiy ko'rsatmalarga asoslanadi:

Tinglash: Boshqa shaxslar bilan muloqot qilishda tinglashga ye'tibor berish kerak. Tinglash, qarshidagi insonning gapini tushunishning asosiy qismidir. Uning fikr va ye'tiborini kuchaytirish, uning fikrini qadrlash va uni qo'llab-quvvatlash imkonini yaratishga yordam beradi.

Ijro: Fikrlar va g'oyalarni ijro yetishning muhim qismi ijobiy va samarali Muloqotga asoslanganligidir. Inson o'z fikrlarini to'g'ri va aniq ifoda qilishni va ularga amal qilishni ko'rsatadi. Boshqa insonlarga fikrlaringizni tafsilotlarda yetkazish, savol va takrorlash orqali qo'llab-quvvatlashga imkon beradi.

Ye'tibor bering: Muloqotda ye'tibor berish juda muhimdir. Qarshidagi insonning gapiga ye'tibor berish, uning fikrini va fikrlarini qadrlash, o'z fikringizni kuchaytirish va uning qo'llab-quvvatlash imkonini yaratish uchun yordam beradi. Ye'tibor berishning bir qismi hamrohlik qilish, so'rov berish va fikr bildirish orqali amalga oshiriladi.

IJTIMOY TARMOQLARDA SOXTA YANGILIKLARNI PSIXOLOGIK TA'SIRINI KO'RISH: UCHINCHI SHAXS TA'SIRI GIPOTEZASINI QO'LLASH

*Nurmatov A.N. – Toshkent amaliy fanlar universiteti
“Psixologiya” kafedrasini o'qituvchisi*

Internetda soxta yangiliklarning tarqalishi jamiyatning barcha a'zolari, jumladan hukumat, siyosatchilar, tashkilotlar, korxonalar va fuqarolar uchun katta tashvish uyg'otmoqda. Soxta yangiliklar ishonchsizlik urug'ini ekish va siyosiy, mintaqaviy va diniy oqimlardan noto'g'ri foydalanish orqali mavjud ijtimoiy va madaniy dinamikani kuchaytirish uchun maxsus ishlab chiqilgan (Wardle va Derakhshan, 2017). Soxta yangiliklar odamlarga va jamiyatga salbiy ta'sir ko'rsatadi, chunki u iste'molchilarni aniq kun tartibini ilgari surish uchun baham ko'rilgan yolg'on e'tiqodlarni qabul qilishga ataylab ko'ndiradi.

Soxta yangiliklarning tarqalishi tashkilotlar va brendlar uchun jiddiy muammolarni keltirib chiqaradi. Aslida, mahsulot, brend yoki tashkilot to'g'risida ma'lum nuqtai nazar yoki fikrni targ'ib qiluvchi, bu haqiqat bo'lmasligi mumkin bo'lgan soxta yangiliklar iste'molchilarni chalg'itish uchun ataylab ishlab chiqilishi mumkin (masalan, Potthast va boshq., 2017). Misol uchun, iste'molchilar McDonald'sning burgerlarida maydalangan qurtlarni to'ldiruvchidan foydalanish haqidagi soxta xabar virusga aylanganidan keyin uni boykot qilish bilan tahdid qilishdi (Teylor, 2016). Ba'zi so'nggi tadqiqotlar soxta yangiliklarning brendlar va tashkilotlarga ta'sirini ham qayd etdi (masalan, Cheng va Chen, 2020; Visentin va boshq., 2019).

Bunday noto'g'ri ma'lumotlar iste'molchilarning xarid qilish niyatlariga salbiy ta'sir ko'rsatish orqali chakana sotuvchilar manfaatlariga zarar etkazishi mumkin. Aksincha, iste'molchilar, shuningdek, onlayn soxtalashtirishning bir shakli sifatida tan olingan soxta sharhlar asosida ma'lum mahsulotlarni sotib olishda adashishlari mumkin (Martens va Maalej, 2019). Shunday qilib, anonimlik, foydalanuvchi tomonidan yaratilgan kontent va geografik masofa soxta yangiliklarni almashish xatti-harakatlarini rag'batlantirishi mumkin bo'lgan ijtimoiy tarmoqlar davrida soxta yangiliklar va uning virusli tarqalishi jiddiy tashvishga aylandi.

Ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishning qorong'u jihatlari bo'yicha ilmiy tadqiqotlar, jumladan ma'lumotlarning haddan tashqari yuklanishi, ijtimoiy media charchoqlari, o'tkazib yuborish qo'rquvi va strategiyalarni engish kuchaygan (masalan, Dhir va boshq., 2018a; Luqmon va boshq., 2018; Malik va boshq., 2020), soxta yangiliklarni ulashish asosidagi tushunchalar va xatti-harakatlar aniq emas. Aslida, ijtimoiy media platformalarida (SMP) dezinformatsiyani almashish sabablari haqida juda kam narsa ma'lum (masalan, Jang va Kim, 2018; Talvar va boshq., 2019). Biz odamlarni yolg'onni Internetda baham ko'rishga undaydigan sabablar va ular bilan bog'liq xatti-harakatlarni tushunish o'sib borayotgan tahdidni engish uchun yechim

topishga yordam beradi, deb ta'kidlaymiz. Bundan tashqari, yaxshiroq tushunish sotuvchilar, chakana sotuvchilar, brend menejerlari, siyosatchilar va olimlar uchun ham foydali bo'lishi mumkin. Shunday qilib, soxta yangiliklar almashish xatti-harakatini kuchaytiruvchi omillar bo'yicha tadqiqotlarning etishmasligi adabiyotdagi bo'shliqni ko'rsatadi, uni bartaraf etish kerak.

Assotsiatsiyalar uchinchi shaxs effekti (TPE) yordamida gipoteza qilinadi (Davison, 1983). TPE yaqinda soxta yangiliklarni almashish bo'yicha tadqiqotlarda qo'llanilgan (masalan, Jang va Kim, 2018). Bizning ishlab chiqilgan tadqiqot modelimiz to'rtta mustaqil o'zgaruvchidan iborat:

- (1) soxta yangiliklar bo'yicha faol tuzatish harakati (bundan buyon "AC"),
- (2) soxta yangiliklar bo'yicha passiv tuzatish harakati (bundan keyin "PC"),
- (3) yangiliklarni bir zumda almashish. xabardorlikni yaratish (bundan buyon "INS") va

- (4) onlayn almashishdan oldin yangiliklarni autentifikatsiya qilish (bundan keyin "AN"). Ikki bog'liq o'zgaruvchilar vaqt yo'qligi sababli soxta yangiliklarni ("LT" bundan keyin) va dindorlik ("SR" bundan keyin) tufayli soxta yangiliklarni almashishmoqda. Model yosh va jinsni nazorat qiladi.

Uchinchi shaxs ta'siri (TPE) gipotezasi. Ommaviy axborot vositalarining ko'payishi bizni juda ko'p ommaviy axborot vositalarining bizga va xatti-harakatlarimizga ta'siri haqida o'ylashga olib keldi. Davison (1983) tomonidan taklif qilingan TPE gipotezasi shuni tushuntiradiki, bunday xabarlarni qabul qiluvchilar bu xabarlar o'zlaridan ko'ra boshqalarga ko'proq ta'sir qilishiga ishonishadi. Boshqacha qilib aytganda, TPE odamlarning ommaviy axborot vositalaridagi xabarlarning ta'sirini baholashga harakat qilganda sezadigan o'z-o'zidan boshqa farqiga asoslanadi. Nazariyani uning ikkita xulosasi orqali tushunish mumkin.

Birinchi natija idrok etish komponenti, TPPdan kelib chiqadi, bunda odamlar ijtimoiy jihatdan istalmagan va salbiy media xabarlari o'zlaridan ko'ra boshqalarga ko'proq ta'sir qilishini idrok etadilar. Bu nuqtai nazar, odamlar qimor o'yinlari, pornografiya va alkogol reklamalari kabi ijtimoiy nomaqbul kontentning boshqalarga ta'sirini ortiqcha baholaganliklarini aniqlagan asosiy tadqiqotlar tomonidan qo'llab-quvvatlanadi (masalan, Rojas va boshq., 2012). Xyuston va boshqalar. (2011) fikrli va noxolis sharhlar bilan yangiliklar uchun TPP yuqoriroq ekanligini ta'kidladi. Shunday qilib, oldingi adabiyotlar ommaviy axborot vositalaridagi xabarlarning ijtimoiy maqbulligi TPEDA asosiy e'tibor ekanligini va nomaqbul xabarlar boshqalarga yomon ta'sir qilishini aniq ko'rsatmoqda. TPE ning TPP qismi ham oldingi tadqiqotlarda o'z-o'ziga xizmat qilish yoki o'z-o'zini rivojlantirish tarafdori sifatida tushuntirilgan (Gunther va Mundy, 1993). Ya'ni, odamlar boshqalarga qaraganda salbiy tarkibga kamroq moyil ekanligini ko'rsatib, o'zlarining yuqori qiyofasini loyihalashga moyildirlar. Shu bilan birga, ular ijtimoiy ma'qul bo'lgan ommaviy axborot vositalari xabarlarini ko'proq qabul qilishlarini ko'rsatishga harakat qilishadi.

Ijtimoiy masofa natijasi deb nomlanuvchi TPENing ikkinchi natijasi ijtimoiy

masofa tushunchasi orqali izohlanadi (Cohen va boshq., 1988). Xulosaga ko'ra, odamlar o'zlaridan ijtimoiy masofada bo'lganlar, eng yaqinlariga qaraganda, salbiy ommaviy axborot vositalarining xabarlariga ko'proq ta'sir qilishini his qilishadi. Ushbu ijtimoiy masofa ma'lum jihatlardagi pastlikni, geografik masofani, psixologik atributlarni, maqomdagi farqni yoki boshqa ijtimoiy-demografik farqlarni anglatishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. J.P. Abel, C.L. Buff, S.A. Burr Social media and the fear of missing out: scale development and assessment (2016)
2. Y. Azemi, W. Ozuem, K.E. Howell, G. Lancaster An exploration into the practice of online service failure and recovery strategies in the Balkans J. Bus. Res. (2019),
3. M. Barnidge, H. Rojas Hostile media perceptions, presumed media influence, and political talk: expanding the corrective action hypothesis Int. J. Publ. Opin. Res. (2014),
4. Y. Cheng, Z.F. Chen The influence of presumed fake news influence: examining public support for corporate corrective response, media literacy interventions, and governmental regulation Mass Commun. Soc. (2020), pp. 1-25
5. S. Chung, S. Il Moon Is the third-person effect real? A critical examination of rationales, testing methods, and previous findings of the third-person effect on censorship attitudes Hum. Commun. Res. (2016),
6. M. Chung, G.J. Munno, B. Moritz Triggering participation: exploring the effects of third-person and hostile media perceptions on online participation Comput. Hum. Behav. (2015),
7. J. Cohen, D. Mutz, V. Price, A. Gunther Perceived impact of defamation: an experiment on third-person effects Publ. Opin. Q. (1988),
8. J. Creswell Qualitative, quantitative, and mixed methods approaches Research Design (2013).

ZAMONAVIY JANGLARDA, KICHIK GURUHLARNING KOMANDIRLIK, HARBIY PSIXOLOGIK HAMDA LIDERLIK QOBILYATINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

*Nurmatov Botirjon Xusanovich –
O‘R QK kichik mutaxassislar tayyorlash markazi
Taktika sikli katta o‘qituvchisi, podpolkovnik*

*Nutfiyev Ikrom Izzatullayevich.
O‘R QK kichik mutaxassislar tayyorlash markazi
taktika sikli katta o‘qituvchisi, podpolkovnik*

Annotasiya. Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy qism va bo‘linmalari, harbiy ta‘lim muassasalarida komandirlik, yetakchilik hamda

liderlik qobiliyatini rivojlantirish masalalarining ahamiyati to'g'risida qisqacha ma'lumotlar bayon etilgan.

Kalit so'zlari: lider, rahbar, komandir, harbiy jamoa, guruh, yetakchilik, yo'naltirish, ishontirish.

Liderlik – kuch ishlatishga asoslanmagan hokimiyat hisoblanadi. Liderlar qayerdan vujudga kelishini hyech kim bilmaydi, lekin bo'linmada liderlar yuzaga kelishi bilan ishlar yurishib ketadi.

Liderlik bu alohida shaxs, shu bilan birga guruhga ta'sir ko'rsata olish qobiliyati bo'lib, barchaning harakatlarini shaxsiy tarkibni maqsadlariga erishishga yo'naltiradi. Ingilizcha lider “rahbar”, “qo'mondon”, “yo'l boshchi”, “yetakchi” deb tarjima qilinadi. Ma'lum muammoni yechishda guruh liderni ilgari suradi. Lidersiz hyech bir guruh faoliyat ko'rsata olmaydi. Liderni ma'lum maqsad uchun guruhni birlashtira oladigan shaxs sifatida qarash mumkin. “Lider” tushunchasi “maqsad” tushunchasi bilangina ahamiyat kasb etadi. Lekin bu maqsadga o'zining harakatlari bilangina erishish liderlikka xos emas. Liderlikning tarkibiy qismlaridan biri liderga ergashuvchilarining mavjud bo'lishidir. Liderning asosiy vazifasi harbiy xizmatchilarni o'zining orqasidan ergashtirgan holda yagona maqsad doirasidagi vazifalarni yechish uchun guruh a'zolari o'rtasida samarali munosabatlarni o'rnatishdir. Ya'ni lider insonlardan iborat tizimini tartibga soluvchi element hisoblanadi.

1) Liderlik – qaror qabul qilish bilan bog'liq boshqaruv statusi, ijtimoiy mavqye bo'lib, rahbarlik lavozimidir. Jamiyat a'zolari turli ijtimoiy rollar va statusga shaxslardan iborat bo'ladi. Rahbarning ijtimoiy statusi uning lideri ko'rinishidagi ijtimoiy rolini bajarilishini taqozo etadi.

2) Liderlik – boshqalardan ta'sir etish bo'lib, bu ta'sir quyidagi shartlarga javob berishi kerak: ta'sirning doimiyliigi, ta'sirning haqqoniyligi.

3) Liderlik – guruhdagi tabiiy ijtimoiy-psihologik jarayon bo'lib, shaxsning shaxsiy obro'sining guruh a'zolariga ta'sir etishga asoslangan. Ta'sir g'oyalar, ishontirish, ruhiy ta'sir, shaxsiy namuna, majburlash orqali amalga oshirilishi mumkin.

4) Liderlik norasmiy hodisa bo'lib, guruhning ruhiy psixologik umumiyliyining ramzi hisoblanadi va guruh a'zolarining harakatlari uchun namuna vazifasini o'taydi.

Hal etilayotgan muammoning qo'lashiga qarab liderlikning quyidagi ko'rinishlari mavjud:

1. Kundalik yumushlarga asoslangan lider (oila, maktab, talabalar guruhidagi liderlik).

2. Ijtimoiy lider (ishlab chiqarish, kasaba uyushmalari harakati, ijodiy va sport jamiyatlarida).

3. Siyosiy lider (davlat, jamoat arboblari).

Bu liderlarning o'zaro bog'liqligi mavjud bo'lib, birinchi guruhdagi liderlar boshqa turlarga o'tish imkoniyatiga ega.

Liderlik vazifasi o'zining tarafdorlari qarashlarini kelishilgan harakatlar dasturiga joriy etishga asoslanadi. Lider yangi guruhlarni shakllantiribgina qolmay, mavjud guruhlarning birdamligini ham ta'minlaydi. Lider o'z guruhining xususiyatlarini, maqsadlarini ifodalaydi va aynan shu guruh uchun xos bo'ladi.

O'zingizga ishonang

Bu qadam nima qilayotganingizni aniq bilish bilan bog'liq emas – siz o'zingizga ishonar ekansiz, boshqalar sizga kamroq savol beradi. Shaxsiy tarkib oldindan fikr yuritishga moyil va siz o'zingizni huddi shunday bo'lishi kerakligidek tutsangiz, shaxsiy tarkib ham bu shunday bo'lishi kerak ekan deb o'ylashadi. Shu sababli, siz o'zingizga ishonsangiz, shaxsiy tarkib sizni «o'z ishini biladi» deb o'ylashadi. Shu tariqa siz ishonch, javobgarlik va hurmat topishingiz mumkin.

Qat'iy, lekin mehribon bo'ling

Siz yetakchilik qilayotgan ekansiz, qoidalar va chegaralarni belgilaydigan inson hisoblanasiz. Siz yuzaga kelgan vaziyat uchun ma'lum bir tizim, qofiya va sabab yaratishingiz mumkin. Bu amalga oshirish uchun siz o'zingizning fikringizda qat'iy turishingiz kerak. Biroq diktatorlik inqilobni keltirib chiqarishi mumkinligini unutmang. Qoidalaringizni tasdiqlashda mantiqiy va tushunuvchan bo'ling.

Mutaxassis bo'ling

Lider sifatida «bilmayman» deb aytish normal hisoblanadi. Lekin har bir savol uchun qayta-qayta «bilmayman» deb javob berish yaxshi emas. Biron narsani bilmasangiz, uning javobini izlab toping. O'z sohangiz mutaxassisi bo'ling. Oxir-oqibat, siz barcha javoblarga ega bo'lishingiz kerak.

Ma'lum bir darajadagi bilim o'zingizni ko'proq ishongan va yetakchi his qilishingizga yordam beradi. Agar bunday qila olmasangiz – bu faqatgina vaqt masalasi bo'lib, sizdan bilim va xarizma bo'yicha ustunroq bo'lgan harbiy xizmatchi kelib, qo'llaringiz ostidan liderlikni olib ketadi. Shu sababli, qayerda va kimlar orasida liderlik qilishni xohlashingizdan qat'iy nazar, o'z ustingizda ishlang! Uzoq muddatli perspektivada bu sizga juda qo'l keladi.

Hal qiluvchan bo'ling

Siz kechga nima qilishni o'ylab, do'stlar guruhining o'rtasida turibsiz. Do'stlardan hych biri ma'lum bir kelishuvga kelmayapti, bir-birining taklifidan kamchilik topmoqda, barcha takliflar aralashib ketadi, shunda bir kishi oldinga chiqib: «Do'stlar, biz shu yerga boramiz», deydi. Bu kishi yuqoriga ko'tarilib, vaziyatni yo'naltirish kerakligini ko'rdi va mas'uliyatni o'z zimmasiga oldi.

Lider aytishganidek, o'z joyingizni bilishingiz kerak. O'zingiz qaror qabul qilishingiz kerak bo'lgan vaqtlar bo'ladi, lekin ba'zida jamoa kelishuvga kelishi uchun ularga vaqt berish lozim. O'z izdoshlaringizni hurmat qiling – ularning fikrlarini rad qilsangiz nima bo'lishi mumkin?

O'z izdoshlaringizga g'amxo'rlik qiling

G'amxo'rlik qilish ularning xohish-istaklariga indamay rozi bo'lish degani emas. Siz jamoa uchun qay yo'lni tutish yaxshi ekanini bilganingiz uchun liderlik qilasiz. Agar kimdir sizning fikrlaringiz bilan rozi bo'lmasa, demak ular xohlagan narsalarini jimgina berish kerak emas. Ular siz bilan rozi bo'lmasliklariga imkon bering, ularning fikrlarini tinglang va nima uchun siz boshqacha fikrlayotganingizni tushuntiring. Ular siz g'amxo'rlik qilayotganingizni his qilishlariga yo'l qo'ying, lekin eng yaxshi deb hisoblagan yo'lingizni tuting.

O'zingizni lider sifatida tuting, o'z va'dalaringizda turing

Va'dasini ustidan chiqmaydigan komandirlar hych kimga yoqmaydi. Va'dada turmaslik – ishonchni yo'qotish demakdir. Ko'rinishingiz, xarizma va bilimingiz bilan

lider sifatlariga ega bo'lishingiz mumkin, lekin o'z va'dangizda turmasangiz, qo'l ostingizdagi shaxsiy tarkib uchun dushmanga aylanasiz.

Jamoangizni takomillashtirishga bo'lgan
sadoqatingizni ko'rsating

Harbiy jamoangizning o'sishi uchun har bir harbiy xizmatchi takomillashishi kerak. Bu sizning yaxshi ekanligingiz bilan hech qanday aloqasi yo'q – jamoangizni yaxshi qilishingiz kerak. Ideal holda, kun oxirida, topshiriq bajarilgach, jamoa «Ha, buni uddaladik!» deb hayratlanishi kerak, «Ha, men uddaladim!» deb emas. Bu guruhning bitta a'zosi uchun emas, balki butun guruhga tegishli.

Savol bering

Lider sifatida siz qandaydir ma'noda daxlsiz bo'lasiz. Shaxsiy tarkib sizning oldingizga kelmasliklari mumkin, chunki siz bo'linmadagi "katta "shaxssiz". Shu sababli birinchi bo'lib savol bering.

Barchasini birga yig'ish muammoni aniqlang

O'z qobiliyatlaringizni kashf eting, ularni takomillashtiring va ularning yaxshi maqsadlarda qo'llashga e'tibor qarating. Sizning iste'dodlaringiz qanday muammolarga yechim berishda qo'l keladi?

Ehtiyojlar, yo'nalishlar, ziddiyatlar, to'ldirish kerak bo'lgan bo'shliqlar va samarasizliklarni o'rganing. Yechimlar doim ham ijodiy yoki eng zamonaviy bo'lmasligi mumkin, ba'zida ular oddiy narsalardir.

Tasvirni butun sifatida o'ylab ko'ring

Muammoni hal qilish sizning zimmangizda ekanligi sababli, ularni hal etish davomida ba'zida juda chuqurlashib ketish mumkin. Bunda bir qadam ortga tashlab, muammoning ildizini topish kerak bo'ladi. Jiddiyroq muammo – har doim ham yolg'iz o'zingiz hal qila olishingiz mumkin bo'lgan narsa emas. Sizga guruh yordami kerak bo'lishi mumkin va bu yerda sizning lider rolingiz qo'l keladi.

Faol bo'ling

Agar chuqurroq savollarga oid fikrlaringiz bo'lsa, natijada qanday muammolar yuzaga kelishi mumkinligini oldindan ko'ra olishingiz mumkin. Muammolarni kutish o'rniga, ularni oldini olish uchun choralar ko'ring. Agar ularga to'sqinlik qila olmasangiz, hech bo'lmaganda ularni kutib olishga tayyor bo'lasiz. Bu lider va oddiy rahbar o'rtasidagi asosiy farq. Yaxshi lider komandir ko'p vaziyatlarga yaxshi reaksiya qiladi. Yaxshi lider komandir vaziyatni oldini ola biladi va u yuzaga kelmasidan oldin samarali choralar ko'radi.

Qarorlar qabul qiling va oqibatlar uchun javobgarlikni
o'z zimmangizga oling

Katta muammolarni hal qilish va ta'sir o'tkaza olish uchun sizga qaror qabul qilish vakolatlari kerak bo'ladi va bu qarorlar ushbu vakolatlarni bergan katta komandirga ta'sir qiladi. Bu hurmat kabi mas'uliyatdir. Siz nafaqat o'rinli qarorlarni qabul qilishingiz, balki ular uchun javobgarlikni olishga tayyor bo'lishingiz kerak. Agar biron narsa reja bo'yicha ketmasa, katta komandirlar bu sizning aybingiz (garchi shunday bo'lmasa ham) deb hisoblaydi.

O'zingizni kichik komandir sifatida tasavvur qiling. Shaxsiy tarkibni taqdiri va

barchani to'g'ri yo'nalishda olib ketish sizning qo'llaringizda.

Qaror qabul qilishda donolikka amal qiling: eng yaxshisiga umid qiling, lekin eng yomoniga tayyor turing.

Agar qarorlaringiz uchun javobgarlik olishga tayyor bo'lmasangiz, ikkilansangiz va o'zingizdan shubha qilsangiz, ehtimol o'z o'ringizni tark etishingiz kerak. O'ziga ishonmagan rahbar ko'pincha zolim bo'lib qoladi.

Fikrlaringiz bilan bo'lishing

Rahbar sifatida, bir tomondan siz katta muammolarni ko'rishingiz mumkin, shuningdek, noxush shartlarni bartaraf etsangiz, hammasi qanchalik yaxshi tomonga o'zgarishini ham. Shaxsiy tarkibga o'zgarishlar kiritishingizga yordam berishlari uchun ular bilan ijobiy fikrlaringizni bo'lishing. Ularni rag'batlantiring, ularga yo'l ko'rsating, ularning amallari barchasini bu orzuga qanchalik yaqinashtirishini ko'rsating.

Xulosa. Har doim va'z qilayotganingizni bajaring. Ishonchni yo'qotishning liderning ikkiyuzlamachiligida yaxshiroq usuli yo'q. «Agar sizning harakatlaringiz boshqalarni ko'proq orzu qilishga, ko'proq o'rganishga va o'z ustida ishlashga ilhomlantirsa, u holda siz lidersiz». Jon Kuinsi Adams. Xarizma, albatta, foydalidir, lekin majburiy emas. Insoniyat tarixida unchalik do'stona bo'lmagan ko'pdan-ko'p hurmatga sazovor liderlar bor. Lekin, eng muhimi shaxsiy tarkib ularga ishonishgan. O'z fikringizni aniq ifodalashingiz uchun sizga muloqot qobiliyatlari (nutq, yozish, hatto san'at orqali) kerak bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ivanov I., Zufarova M. "Umumiy psixologiya". O'z.FMJ., 2008.
2. Davleshin M.G., Mavlonov M.M, To'ychiyeva S.M. "Yosh va pedagogik psixologiya" T. TDPU, 2009.
3. Safayev N.S., Mirashirova N.A., Odilova N.G. "Umumiy psixologiya nazariyasi va amaliyoti":– T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2013.
4. Xaydarov F.I., Xalilova N. "Umumiy psixologiya". T.: "Fan va texnologiyalar" markazining bosmaxonasi : 2009.
5. Maxsudova M.A. Muloqot psixologiyasi. T., 2006.

ILK O'SMIRLIK DAVRIDAGI INTELLEKT KO'RSATGICHLARNING O'ZIGA XOSLIGI

*Omonov Sherali Ibroxim o'g'li – FDU
psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
Oxunjonova Farog'at – FDU psixologiya yo'nalishi
4-kurs talabasi.*

Annotatsiya: Maqolada mamlakatdagi o'zgaruvchan ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat sharoitida o'smirlilik yoshidagi o'quvchilarni intellekt ko'rsatkichlarining asosiy jihatlari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: o'smirlilik davri, intellekt, tafakkur, kreativlik.

Mustaqil O'zbekistonning o'ziga xos rivojlanish yo'llaridan biri - iste'dodli o'quvchi yoshlarni voyaga yetkazish, ularga boyitilgan muhitda ta'lim-tarbiya berish va halk xujaligining turli sohalari uchun malakali kadrlar kilib yetishtirishdir. Bu masala o'ta muhim, kechiktirib bo'lmaydigan, ham ma'naviy, ham iktisodiy taraqqiyotning omili ekanligi hozirgi kunda hammaga ayondir. Jaxonda rivojlangan mamlakatlar qatorida bizning Vatanimiz rahbariyati ham, shaxsan Prezidentimiz ham, ijtimoiy taraqqiyotning bu bitmas-tuganmas manbaiga diqqatini qaratishi, davlatimizni barcha yuqori tashkilot mutaxassislarini shubxasiz, ruxlantiradi va katta shijoat bilan ishlashga da'vat etadi.

Insoniyat o'z taraqqiyotining bugungi lahzalariga kelib aniq va ravshan belgilab oldiki, intellekt, zehn yoki ijod mahsuli bo'lgan g'oya ham mulkdir. Intellektual mulk deb ataladigan bu boylik, xoh she'r, xoh formulalarda ifodalangan kimyoviy bir modda va xoh yangi bir xislatga ega bo'lgan mato bo'lsin - bari XXI asrning taraqqiyot omili, ma'naviy yoki moddiy boyligi bo'ladi. Asosiy boylik egasi, ya'ni intellektual mulk sohibi, aql-zakovati cheksiz rivojlanish imkoniyatiga ega bo'lgan inson esa o'z tafakkuri bilan ijod, buyuk ixtirolar qilishga qodir bo'ladi, insoniyat va jamiyat taraqqiyotiga o'zining munosib hissasini qo'sha oladi.

Ilm-fandagi an'analar shundayki, aql va idrok masalasi, odamning intellektiga bog'liq sifatlar juda ko'plab tadqiqotlar ob'ekti bo'lgan. Olimlar qobiliyatlarning rivojlanish mexanizmlari, ularning psixologik tarkibi va tizimini aniqlashga, ishonchli metodikalar yaratib, har bir kishining aqli sifatiga aloqador bo'lgan ko'rsatgichni o'lchashga uringanlar. Ko'pchilik olimlar odam intellektida uning verbal (ya'ni so'zlarda ifodalanadigan), miqdoriy (sonlarda ifodalanadigan), fazoviy ko'rsatgichlarni aniqlab, ularga yana mantiq, xotira va hayol jarayonlari bilan bog'liq jihatlarni ham qo'shganlar.

Kegingi yillarda aqliy taraqqiyot darajalarini aniqlash va diagnostika qilish ilm ahlini juda qiziqtirmoqdaki bu o'z navbatida ko'plab testlar va metodikalar ishlab chiqilishiga sabab bo'lmoqda. Bu muammo bo'yicha ko'plab olimlarlar shu jumladan psixologlar, fiziologlar va boshqa soha vakillarini oldida turgan dolzarb muammolardan biridir.

Biz yuqoridagilardan kelib chiqib tadqiqotimizda asosiy masala qilib olgan muammolardan biri o'smirlik aqliy taraqqiyoti darajasini aniqlash va bu muammodan kelib chiqib tadqiqot farazi itellekt ijtimoiy xarakter bo'lganligi sabab talabalarning aqliy taraqqiyoti ijtimoiy muhit va yosh davrlari psixologik xususiyatlariga bog'liqligi ehtimol deb olingan farazimizni isbotlash uchun o'tkazgan tadqiqotimizdan olingan natijalarni tahlil qilamiz.

Respondentlarni natijalarini chuqurroq o'rganish maqsadida biz o'tkazgan metodikalarimizni natijalarini aloxida-aloxida psixologik taxlil qildik. Ayzenk testida ham mantiqiy, ham proektiv testlar bo'lib, ularni korrelyatsion tahlil qilish uchun Ayzenkni testini mantiqiy savollarini mantiqiy tafakkurni aniqlash metodikasi bilan, proektiv savollarini Ravenni o'sib boruvchi matritsali testi bilan solishtirishga qaror qildik. Biz avvalo Ayzenk metodikasini tahlil qildik. Yuqoridagi jadvallardan ko'rinib turibdi birinchi metodikamiz Ayzenkning mashxur intellekt testi bo'lib, bu test 40 ta topshirikdan iborat bo'lib, 20 ta mantiqiy 20 ta proektiv savolardan tashkil topgan va u intellektual jarayonlarning kechishi tezligini o'lchaydi.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, Farg'ona shahar 1-bolalar maktab-internatidagi o'quvchilarining natijalari 33.44 % ga teng bo'lib, Jinslar bo'yicha farqlarni o'zaro solishtirilsa u quyidagicha ko'rinadi. O'gil bolalarda 1- bolalar maktab - internatidagi o'quvchilarida 19.86 ga teng bo'lib qiz bolalarda o'rtacha qiymat 20.36 % ga teng. Demak natijalardan shu kelib chiqadiki, ularning aqliy mustaqilligining asosiy belgilari muammoni anglash darajasiga, o'z fikrini to'g'ri bayon qila olish, turli mummoli vaziyatlarga farazni ilgari surish va ifodalash ko'nikmasiga egalik, izlash rejasini mustaqil ishlab chiqish, turli tadqiqotlarda bevosita ishtiroki tadqiqot natijalari va o'rganilayotgan xodisalar orasidagi bog'lanishni aniqlash ko'nikmasiga, ularning ishonchligini mustaqil tekshirib ko'rish imkoniyatiga egaliklari bilan ajralib turadilar.

Tafakkurning mustaqilligi aqlning sertashabbusligi, pishiqligi va tanqidiyligida namoyon bo'ladi. Aqlning sertashabbusligi deganda insonning o'z oldiga yangi muammo, aniq maqsad va konkret vazifalar qo'yishini, ana shularning barchasini amalga oshirish, nihoyasiga yetkazishda, yechimini qidirishda usul va vositalarning shaxsan o'zi izlashi, aqliy zo'r berib intilishi, ularga taalluqli qo'shimcha belgi va alomatlarining keltirilishidan iborat bosqichlarning bo'lishini nazarda tutamiz. Aqlning pishiqligi vazifalarni tez yechishda, yechish paytida yangi usul va vositalarni tez izlab topishda, ularni saralashda, ana shu usullar va vositalarni o'z o'rnida aniq qo'llashda trafaretga aylangan usul, eski yo'l va usullardan forig' bo'lishda va boshqa jarayonlarda ifodalanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. G'oziev E.G'. Tafakkur psixologiyasi. T.: O'qituvchi. 1990.
2. Qodirov B.R. Aqliy iste'dod XXI asrning eng qimmatli mulkidir. T.: TDI. 1999.
3. G'oziev. E.G'. Ontogenez psixologiyasi T. "Noshir" 2010.

ICHKI ISHLAR ORGANI XODIMLARIDA IJTIMOIY INTELLEKT PSIXOLOGIK FENOMEN SIFATIDA

*Omonov Azizbek Nosir o'g'li – Samarqand viloyat IIB
katta inspektori, ilmiy izlanuvchi, mayor*

Insonning aqliy taraqqiyotini tadqiq qilish bugungi kundagi fan oldida turgan muhim vazifalardan biri bo'lib qolmasdan, balki bu muammo qadimgi davrlardan beri mutafakkir, ma'rifatparvar olimlarning diqqat markazida bo'lib kelgan. Ayniqsa intellektual salohiyat muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa shaxsning intellekti bilan bir qatorda ijtimoiy intellekti ham ijtimoiylashuv jarayonida, kasbiy yo'nalganligi va motivatsiyasi shakllanishida, o'zga kishilarni tushuna olishi va ular bilan munosabatlarni teng huquqli yo'lga qo'yishida va shaxslararo munosabatlarga kirishish jarayonida kuzatilishi mumkin.

Ichki ishlar tizimida faoliyat olib borayotgan xodimlarning ijtimoiy faolligini oshirish, kasbiy muhim sifatlari va ijtimoiy intellektual qobiliyatlarini ilmiy tekshirishni hisobga olgan holda, ularning kasbiy muvaffaqiyatlarining muhim sharti

hisoblangan, ijtimoiy intellektning shakllanish jihatlarini tadqiq etish shuningdek, ichki ishlar xodimlarining jamoatchilik va fuqarolar bilan hamkorlikda ishlash tajribalarini yanada oshirish, ularning boshqalarga ta'sir eta olish ko'nikmalarini rivojnatirish, ekstremal sharoitlarda va nostandart vaziyatlarda qaror qabul qilish xususiyatlarini shakllantirish hamda ijtimoiy intellektning xizmat faoliyatidagi rolini ilmiy yoritib berish hozirgi psixologik yechimini topish kerak bo'lgan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi

Chunki ijtimoiy intellekt ichki ishlar xodimlariga o'zining shaxsiy va ijtimoiy kamolotiga erishishi, muloqoti, o'zgalarni tushunishi va ular bilan insonparvarlik va o'zaro ko'maklashish munosabatlarini shakllantirishga yordam beradi. Bundan tashqari ichki ishlar xodimlarining ijtimoiylashuvida ijtimoiy intellekt bilan bir qatorda shaxsni o'z-o'zini kamol toptirishda hissiy kechinmalarning ham o'zaro uzviy bog'liqligini ko'rib o'tishimiz ijtimoiy intellektning o'ziga xos xususiyatlarini ochish misolida izohlab o'tish mumkin.

Tadqiqotchi Yu.I.Yemelyanov boshqa tadqiqotchilardan farqli o'laroq, ijtimoiy intellektni insonning ijodiy fikrlash faoliyati yoki barqaror uylash, ijtimoiy faollik kabi qobiliyatlar turi sifatida ta'riflaydi[1,71]. Bunday sifatlar ko'proq, lider shaxslar va boshqaruv qobiliyatiga ega insonlarda ko'proq namoyon bo'lishini ta'kidlab o'tadi.

Tadqiqotchi Ye.Yu.Smolenova esa, intellekt muammosida aqliy qobiliyatlarning genetik negizini e'tiborga olgan holda, uning tarkibida oliy nerv faoliyatining xususiyatlari yashiringan bo'lishini va ular umumiy aqliy qobiliyatlarni tarkib toptirishning muhim ichki sharti ekanligini ta'kidlaydi[2,63]. Demak, umumiy aqliy qobiliyatlarning rivoji shaxsning umumiy intellekt va ijtimoiy intellektning shakllanishida alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bois, tadqiqotchilar ijtimoiy intellekt muammosini o'rganishda integratsion yondoshuv orqali amalga oshirishni ko'proq ma'qul ko'radilar.

Xorij tadqiqotchisi R.Bar-Onning yozishicha, ijtimoiy intellekt – bu nafaqat boshqa insonlarning xatti harakatlarini tushunish balki, o'z xatti - harakatlarini ham tushuna olish, vaziyatga qarab ish tuta bilish qobiliyatidir[3,86]. Muallifning nazarida, ijtimoiy intellekt vaziyatga qarab ish tutish, kutilmagan holatlardan chiqib keta olish kabi sifatlarni mujassam etgan psixologik jarayondir. Shuning uchun, ijtimoiy intellektning yuqori darajasi uchun, sezgi va boshqa shaxsiy sifatlarning roli o'ta muhim hisoblanadi. Umuman olganda, ijtimoiy intellekt tushunchasini ta'rifini aniqlab olishda ko'plab xorij tadqiqotlari mavjud bo'lib, ular asosan, ilk bor amalga oshirilgan eksperimental tadqiqotlar va umumiy intellekt darajasini baholash testlarining yaratilishi kabilar bilan xarakterlanadi.

Tadqiqotchi M.I.Bobneva ham o'z tadqiqotlarida ijtimoiy intellekt muammosiga alohida to'xtalib o'tgan bo'lib, muallifning aytishicha, «ijtimoiy intellekt» – bu ijtimoiy sohalaridagi murakkab munosabatlarni va undagi bog'liqliklarni oldindan ko'ra olish va ma'lumotlarni qo'lga kiritish qobiliyatidir[4,56]. Darhaqiqat, ijtimoiy intellekt – ijtimoiy hodisalar va vaziyatlarga tegishli ma'lumotlarni oldindan anglay olish va natijalarni ko'ra bilish tajribasi sanaladi.

«Ijtimoiy intellekt» masalasini o'rganishga oid, operatsional yondashuvlar orasida, V.A.Shapovalning amalga oshirgan tadqiqotlari alohida ahamiyatga ega sanaladi. U insonning intellektual darajasining integral ko'rsatkichlarini va intellekt

turlarini alohida ajratib o'rgangan shuningdek, umumiy intellektni ijtimoiy intellekt bilan birlashtirishga uringan. Tadqiqotchining xulosalariga ko'ra, intellekt – analitik, ijodiy, amaliy qobiliyatlar majmuidan iborat. Chunki, insonning kundalik vaziyatlarda muammolarni hal qilishi, unga aniq va tezkor yechimlar topishi amaliy komponentga ko'proq bog'liq sanaladi. Uning ta'kidlashicha har bir intellekt turi quyidagi komponent turlaridan tashkil topadi[5,233]:

turli sohalaridagi muammolarni hal qilishga va ilg'or g'oyalarni ishlab chiqishga qaratilgan komponent;

muammolarni hal qilish mexanizmlarini rejalashtirish va ularni baholash bilan bog'liq bo'lgan, ijro etuvchi komponent;

dastlabki ikki komponentdan olingan natijalarni o'z ichiga olgan, bilimlar va ma'lumotlarni egallash komponenti. Mazkur yondashuv ijtimoiy intellektni psixometrik baholashning zaruriyatidan kelib chiqqan, yangi tadqiqotlarning qoidalaridan biridir.

Ichki ishlar xodimlari kasbiy faoliyati uchun muhim sanalgan qobiliyatlar va ularning mazmuni shundan iboratki, kognitiv faollik ichki ishlar xodimlari faoliyati uchun muhim hisoblanib, u siz fuqarolarning tinch totuvligini ta'minlashga yoki sodir etilayotgan jinoyatlarning oldini olishga erishib bo'lmaydi. Faqatgina yuksak bilimlar evaziga, turli jinoyatlar sababini va xavf-xatarlar oqibatini oldindan bilish mumkin. Ichki ishlar xodimi jinoyatchilikka qarshi kurashish muammolarini hal qilish uchun avvalo, vaziyatni hozirgi hamda o'tmish va kelajakdagi voqealar bilan bog'liq faktlar tahlil qila olish, huquqbuzarliklarning sabab-oqibatlarni oldindan baholay olish kabi sifatlarga ega bo'lishi lozim hisoblanadi.

Tadqiqotchi O.A.Ulyaninaning so'zlariga ko'ra, ichki ishlar xodimlari faoliyati uchun shart sanalgan nutqiy ravonlik, aloqa sherigining nutqini tez va aniq idrok eta olish qobiliyati, idrok etilgan ijtimoiy vaziyat va holatlarning eng muhimini ajrata bilish qobiliyati, boshqalarga savol bera olish qobiliyati, qisqa va aniq javob bera olish qobiliyati, noma'lum vaziyatlar aniq bo'lguncha, kutib tura olish tajribasi kabi ijtimoiy-psixologik xususiyatlari mavjud[6,78].

Yuqorida tasnif etilgan, ushbu psixologik sifatlari ijtimoiy intellekti yaxshi shakllangan kishilarda namoyon bo'luvchi o'ziga xosliklar sanalib, ularni tadqiq etish, ijtimoiy intellektning tabiatiga xos yangi bilimlarni yuzaga keltirishi ehtimoldan holi emas.

Ichki ishlar xodimlarida ijtimoiy intellekt shakllanishining amaliy tahlili shundan iboratki, unda ijtimoiy intellekt shakllanishining dastlabki statistik tahlili, ichki ishlar xodimlarida ijtimoiy intellekt shakllanishini belgilovchi asosiy psixologik omillar hamda ijtimoiy intellekt va shaxs emotsional sohasi xususiyatlari o'rtasidagi quyidagi o'zaro bog'liqliklar aniqlandi.

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy intellekt – boshqa intellekt turlariga qarganda, umumiy aqliy daraja yoki bilimlarni, sohaga oid ma'lumotlarni puxta egallash bilan emas, balki, sotsializatsiya jarayonida shakllanuvchi intellekt turidir. Ijtimoiy intellekt – tuzilish tarkibiga va strukturasiga ko'ra, faqat kognitiv sohaning o'ziga xos sifatlari bilan cheklanmasdan, muloqot jarayoniga tegishli bo'lgan fenomen tushunchalar, hodisalar shuningdek, shaxslararo munosabatlar jarayoniga oid ijtimoiy idrok,

empatiya, o‘zaro ta’sirlashuv qobiliyati, muloqot texnikasiga ega bo‘lish, kommunikativ tajriba kabilarni ifodalovchi hodisa ekan. Ichki ishlar xodimlarida ijtimoiy intellekt shakllanishiga bevosita ularning kasbiy qobiliyat darajasi, kasbiy fidoyilik, turli xil vaziyatlarda o‘zini tuta bilish va hamkasblari bilan shaxslararo munosabatlarni ijobiy darajada o‘rnata olishi o‘zining ta’sirini ko‘rsatishi ehtimoldan holi emas.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ульянина О.А. Формирование личностной компетентности курсантов и слушателей образовательных организаций МВД России посредством социально-психологического тренинга: учеб.-метод. пособие. - Волгоград: ВА МВД России, 2016. – С.78.

2. Шаповал В.А. Психологическое здоровье сотрудников органов внутренних дел как предмет исследования ведомственных психологов: новые подходы к оценке и прогнозированию // Вестн. С.-Петерб. ун-та МВД России. 2009. № 3. – С. 232 – 246.

3. Бобнева М.И. Социальные нормы и регуляция поведения. - М., вт. Изд. РАН. – 2011. – С.56.

4. Bar-On R. Emotional intelligence and self-actualization. Emotional intelligence in everyday life: A scientific inquiry / R.Bar-On ; eds. J.Ciarrochi, J.Forgas, J.D.Mayer. — New York : Psychology Press, 2001. – P. 82 – 97.

5. Смоленова Е.Ю. Педагогические условия развития творческого потенциала младших подростков в процессе обучения / Е.Ю.Смоленова. - Дисс.канд.пед.наук. Тула: 2009. – С.63.

6. Емельянов Ю.Н., Кузьмин Е.С. Теоретические и методологические основы социально-психологического тренинга: учеб. пособие. Л.: ЛГУ, вт. Изд. ПРИНТ, 2012. – С.71.

КЕЛАЖАК АВЛОДНИ ВАТАНПАРВАРЛИК РУҲИДА ТАРБИЯЛАШДА ШАРҚОНА ТАЪЛИМНИНГ АҲАМИЯТИ

*Ўразолиев Абдугофур Бахриддинович –
Ўзбекистон Республикаси Куролли Кучлари
кичик мутахассислар тайёрлаш маркази
Гуманитар ва ижтимоий фанлар
цикли бошлиғи, подполковник*

Аннотация. Мазкур мақола ёшлар тарбиясининг муҳим жиҳати- ватанпарварлик руҳида тарбиялаш каби долзарб муаммога бағишланган бўлиб, ушбу мақоладан олий ўқув юрти талабалари, мустақил тадқиқотчилар, ҳамда кенг аудитория фойдаланишлари мумкин.

Таянч сўз ва тушунчалар: Ватанпарварлик, ёшлар, юксак ахлоқ, маънавият ва маърифат, меҳнатга виждонан муносабат, илм, миллий қадриятлар.

Давлатимиз раҳбари Шавкат Мирзиёев 2021 йилнинг 19 январь куни маънавий-маърифий ишлар тизимини тубдан такомиллаштириш, бу борада давлат ва жамоат ташкилотларининг ҳамкорлигини кучайтириш масалаларига бағишлаб ўтказилган йиғилишда, “Агар жамият ҳаётининг танаси иқтисодиёт бўлса, унинг жони ва руҳи маънавиятдир, ... Биз янги Ўзбекистонни барпо этишга қарор қилган эканмиз, иккита мустаҳкам устунга таянамиз. Биринчиси – бозор тамойилларига асосланган кучли иқтисодиёт. Иккинчиси – аждодларимизнинг бой мероси ва миллий кадриятларга асосланган кучли маънавиятидир”, - дея таъкидлади.

Шунинг учун ҳам бугунги Ўзбекистонда кадрлар тайёрлаш тизимининг шаклланиши ва фаолият кўрсатишининг асосий тамойили тарзида «ўқувчи ёшларни Ватанга садоқат, юксак ахлоқ, маънавият ва маърифат, меҳнатга виждонан муносабатда бўлиш руҳида тарбиялаш» алоҳида таъкидланган. Мазкур тамойил асосида миллий таълим тизими ва педагогик-методик соҳаларда жадал ўзгаришлар, шиддатли янгиланишлар юз берди.

Мавжуд дарслик, қўлланма ва дастурлар замон талабларига мослаштирилиб, босқичма-босқич истеъмолга чиқарилмоқда. Замонавий дарс тушунчаси янгитдан сайқалланди. Ўқувчилардан итоаткорлик, ўқитувчининг ҳар бир гапини ёдлаб олиш талаб этилмай қўйилди. Энди ҳар бир мактаб ўқувчиси ўзининг шахсий фикри ва уни ҳимоя қилиш ҳуқуқига эгаллигини, ўқитувчи диктатор эмас, илмга йўл кўрсатувчи йўлловчи (етакловчи) эканини билади. Берилган имтиёз ва ҳуқуқлар суиистеъмол қилинмаслиги учун ўқитувчилар чуқур билим ва лидер-етакчилик хусусиятлари билан қуролланишлари лозим.

Педагогика нуқтаи назаридан қараганда, мавзу юзасидан миллий таълим тизими ва педагогик-методик йўналишлар доирасида кўплаб илмий изланишлар, фундаментал тадқиқотлар амалга оширилган. Айни муаммо фақат Ўзбекистонда эмас балки ўз келажагига бефарқ бўлмаган хориж мамлакатларида ҳам тизимли ўрганилган ва жиддий тадқиқот ишлари дунё юзини кўрган. Республикамизда ва хорижда нашр этилган илмий-педагогик адабиётлар таҳлили таълим жараёнининг долзарб йўналишлари бўйича қатор илмий ишлар олиб борилаётганини кўрсатди. Жумладан, Р.Джураев, Р.Аҳлидинов, Ж.Йўлдошев, Э.Ғозиев, Ш.Қурбонов, Э.Сейтхалилов, М.Мирқосимов, У.Иноятов, О.Мусурмонова, М.Саидов, Л.Перегудов, Ю.Васильев, Т.Давиденко, М.Поташник, В.Симонов, П.Третьяков, В.Арнаутов, В.Монахов, Б.Вульффов, В.Иванов, В.Беспалько, В.Гузеев, С.Исламгулова, М.Мирқосимова, М.Кларин, И.Подласий, Н.Саидахмедов, М.Қурононов, Б.Тўхлиев, Н.Комилов, И.Ҳаққул, Қ.Йўлдошев, Қ.Хусанбоева, Б.Зиёмухамедов, Ў.Ғолипов, М.Усмонбоева, У.Долимов ва шу каби олимлар таълимни бошқариш қонуниятлари, унинг давлат ва шахс эҳтиёжи ҳамда манфаатларини қондиришда тутган ўрни, жамият ривожига боғлиқ талаблари, баркамол шахс тарбиялаш усуллари тадқиқ этилган.

Янги Ўзбекистон равнақи, келажак стратегияси ҳақида фикр юритилар экан, бутун республика таълим тизимида катта ўзгаришлар амалга оширилмоқда.

Педагоглар бу ислохотлар тақдим этган ахборот коммуникатив ва илғор

ўқув технологиялари, модуллаштирилган ҳамда замонавий таълим усуллари ёрдамида ёшларни маънавий-ахлоқий такомиллаштириш, чуқур фуқаролик туйғусини шакллантириш, ёт мафкуравий таъсирлардан ҳимояловчи ғоявий иммунитет ҳосил қилиш ва ўқитиш самарадорлигини таъминлашдан иборат.

Шу боис ёшларни миллий ғоя руҳида тарбиялаш, уларда ватани ва эли билан фахрланиш, ҳимоясига шай туриш туйғусини ривожлантиришда адабий таълимнинг ўрни бекиёс. Мазкур ҳолат ҳамда шиддатли ахборот оқими туфайли ёшларимизда хориж мамлакатлари турмуш тарзига интилиш, тақлид қилиш, миллийликдан узоқлашиш, давлатлараро ядровий эмас, мафкуравий кураш олиб борилаётгани узлуксиз адабий таълим тизимининг асосий субъекти -ўқувчиларда ватанпарварлик туйғусини тарбиялаш йўсинларини илмий педагогик муаммо сифатида тадқиқ этиш долзарб эканлигини белгилайди.

Бу вазифаларни ҳал қилишнинг муҳим шартларидан бири адабий таълимда ёшлар маънавиятини ривожлантириш тажрибаларини синчковлик ва қунт билан ўрганиш, анъанавий таълимнинг бугунги кун учун ўз долзарблигини йўқотган тамойилларидан воз кечиш, замонавий, тажрибада ўзини оқлаган усул ва технологияларга мурожаат қилишдан иборатдир.

Ўзбек миллий таълим тизими ҳам илғор тажрибаларни қабул қилиш билан бирга минг йиллар давомида шаклланган шарқона усуллардан воз ҳам кечмади. Шарқ, хусусан, ўзбек таълим тизимида ёшлар тарбияси, ахлоқи, ватанпарварлиги, меҳнатсеварлиги, инсонпарварлиги каби сифатларга азалдан алоҳида эътибор қаратилган. Бунда «Қобуснома», «Қутадғу билиг», «Ҳибат-ул ҳақойиқ», «Маҳбуб-ул қулуб» каби дурдона асарларга таянилган.

Бизнингча, ҳар қандай таълим ва тарбияни «Тарбия нимадан бошланади?» сўроғи билан бошлаган маъқул. Бунда ўқитувчи шахси, имкониятлари, унинг ўқувчиларга ва ўқувчиларнинг ўқитувчиларга муносабатлари каби жиддий масалаларга жавоб изланади. Масалан, Алишер Навоий туркий тил (ўзбек тили) бойликларини намойиш этиш орқали пайдо қилган бу тилдан ғурурланиш ҳисини ўқувчиларга англантиш, туйдириш лозим. Ўқувчилар эътиборини Алишер Навоий нутқ ва тилни ўша даврдаёқ бир жумла ёрдамида («Тил шунча шарафи билан нутққа хизмат қилади») фарқлаб берганлигига қаратиш керак.

Ибн Сино эса Трубецкойдан 900 йил илгари товушларни унли ва ундошларга ажратгани, коррелятив товушларни белгилаб бергани ҳақида билиш ўқувчида миллий ифтихор ҳисини мустаҳкамлайди. Адабий таълим давлатнинг ички сиёсатига фаол таъсир этадиган ижтимоий ҳодисадир. Мамлакатдаги таълим масканлари муваффақият ва фаровонлик тимсоли бўлиш баробарида келажак ворисларини яхши амаллар сари етаклайди.

Маълумки, таълимнинг индивидуал, рақиблик ҳамда ҳамкорлик каби уч тури мавжуд. Индивидуал таълим ёрдамида педагог тарбияланувчининг қалбига, руҳиятига тўғри таъсир этади. Соғлом рақобат ёрдамида ўқувчининг шахсий ва илмий сифатларини камолга етказиши. Ҳамкорликдаги таълим ўқувчини ўқитиш ёки тарбиялашдан кўра, уни ўқийдиган, тарбияладиган ҳолатга келтиради. Бунда ҳар бир ўқувчи ўз устида тинимсиз ишлай олади, ўзини ўзи таҳлил қилиб, муваффақият ва нуқсонларидан хулоса чиқаради.

Инсоннинг олий кадриятга айлангани таълимни юқоридаги уч тури билан

таъминлади. Юксак қадрият ҳисобланмиш ўқувчи маънавияти ва шахсига қўйиладиган асосий ва биринчи талаб ватанпарварликдир. Бу талабни қондиришнинг энг самарали ва ишончли усули уни адабий таълим орқали рўёбга чиқариш ҳисобланади. Зотан инсонларни яхшиликка чорловчи, ёмонликдан қайтарувчи илмдир. Айнан у гўзал ахлоқни шакллантиради, инсонни маънавий камолотга етказди. “Ахлоқ–бу хулқлар мажмуи. Хулқ эса эзгулик ёхуд разилликнинг муайян бир инсонда намоён бўлиш шакли. Бинобарин, ҳар бир хулқ эзгулик ва олижанобликнинг ёки разиллик ва бадбинликнинг тимсоли. Шу жиҳатдан улар яхши ва ёмонга бўлинадилар. Лекин булар кишида ўз-ўзидан пайдо бўлмайди. Уларнинг шаклланиши учун маълум шароит, тарбия керак. Кишилар туғилишдан ёмон бўлиб туғилмайдилар. Уларни муайян шароит ёмон қилади...

Тарбия туғилган кундан бошланади ва умрнинг охирига қадар давом этади. У икки босқичдан–уй ва мактаб тарбиясидан ташкил топган”. Демакки, ёшларни ватанпарварлик руҳида тарбиялаш дастлаб оила ўчоғида бошланади, сўнг боғча, мактаб каби таълим босқичларида давом эттирилади. Айнан оилада бола ватанпарварликнинг баландпарвоз чақириқ эмаслигини, уни туйиш маълум маънавий тайёргарликдан сўнггина мумкин бўлишини ўрганади.

Акс ҳолда таълимнинг турли босқичларида берилаётган билим ўқувчини нафс гирдобига тушиб қолишдан, маънавий қадриятларни суиистеъмол қилишдан асрай олмайди.

Адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёев. Маънавий-маърифий ишлар тизимини тубдан такомиллаштириш, бу борада давлат ва жамоат ташкилотларининг ҳамкорлигини кучайтириш масалалари. –Тошкент. “Янги Ўзбекистон” 2021 йил 19 январь.

2. Азбаров Ю.Т. Болаларни севиш санъати. Т.: “Ўқитувчи”, 1991.138 б.

3. Азизходжаева Н.Н. Инновационные и образовательные технологии в подготовке педагогических кадров // Халқ таълими.–Тошкент, 2001.С.123-126.

MADANIYATSHUNOSLIK FANINI O‘QITISHDA PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALARNING TUTGAN O‘RNI VA AHAMIYATI

*Pulatov Bunyod Uktamovich –
O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari
kichik mutaxassislar tayyorlash markazi
Gumanitar va ijtimoiy fanlar sikli o‘qituvchisi*

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada harbiy xizmatchilarmiz faoliyatidagi muhim o‘rin egallaydi. Chunki har bir xodimining bevosita fuqarolar bilan muloqot qilishida, moddiy va ma’naviy boyliklarimizni asrab-avaylashida, qolaversa, uning madaniyatli shaxs sifatida kamol topishida madaniyatning o‘rni beqiyosdir.*

***Kalit so‘zlar:** Madaniyatshunoslik, mustaqilligi, umuminsoniy va milliy qadriyatlar, jahon madaniyati, harbiy xizmatchi, insonparvarlik, vatanparvarlik.*

O‘zbekistonning davlat mustaqilligi qo‘lga kiritilgandan keyin respublikamiz oliy o‘quv yurtlar va Qurolli kuchlar tizimidagi bilim yurtlarida hamda alohida fan sifatida Madaniyatshunoslik fani o‘qitila boshlandi.

Madaniyatshunoslik fanini o‘rganish jaryonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida qo‘yiladigan talablar;

- talaba bashariyat tomonidan asrlar davomida yaratgan madaniyat, uning taraqqiyoti qonuniyatlari va tamoyilari haqida, madaniy jarayonlarning takomil bosqichlari va hozirgi holati haqida chuqur bilim va malakaga ega bo‘lishi, bu bilimlar orqali o‘zining madaniy tafakkuri va dunyoqarashini kengaytirish imkoniyatiga ega bo‘lish talab etiladi.

- talaba umuminsoniy va milliy qadriyatlar to‘g‘risida chuqur ilmiynazariy bilim, malaka va ko‘nikmalarni egallashi lozim.

- talabalardan jahon madaniyatining ajralmas qismi bo‘lgan O‘zbekiston xalqining dunyo sivilizasiyasiga qo‘shgan ulkan hissasini bilishi, undan faxrlanish ko‘nikmasi va tuyg‘usini o‘z ongida mujassamlashtirishlari, ajdodlar merosini saqlash, o‘rganish, uning taraqqiyotiga o‘z hissasini qo‘shishlari, eng muhimi bunga munosib voris bo‘lish ruhida bilim, malakalarga ega bo‘lish kerak.

- talaba istiqloq davri madaniy tiklanish va yuksalish jarayoniga oid Prezident Sh.Mirziyoyevning nazariy- metodologik va amaliy g‘oyalarining mazmun-mohiyatini, uning madaniy-falsafiy hamda ilmiy ifodasini chuqur anglab yetishi, xalqimiz tomonidan yaratilgan madaniyat durdonalarini qadrlash, uning o‘ziga xos qadriyatlarini puxta egallash va shu bilim, ko‘nikmalar orqali begona ta’sirlarga murosasiz munosabatda bo‘lishlikni talab etadi.

“Madaniyatshunoslik” fani bo‘yicha tizimli bilimlarga ega bo‘lishi; fan haqida umumiy tushuncha - tasavvur va bilimga ega bo‘lishi, zamonaviy ilmiy asoslarda - ulardan hayotiy va kasbiy faoliyatida foydalana olishi; ma’lumotlarni yig‘ish, saqlash, ishlov berish va foydalanish usullariga ega bo‘lishi; kasbiy faoliyatida mustaqil qaror qabul qilishni bilishi zarur.

Madaniyatshunoslik fani yangicha fikrlashni, insonparvarlik va vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantiruvchi fan sifatida O‘zbekistonning milliy tiklanishida, ta’lim-tarbiya tizimida muhim o‘rin tutadi. Shunday ekan, mamlakatimizda huquqiy demokratik davlat barpo etish jarayonini, uning kelgusidagi taraqqiyotini vatanparvar, imone’tiqodli, mehr-oqibatli, o‘z kasbini sevuvchi, yuksak madaniyat sohibi bo‘lgan kishilarsiz tasavvur etish qiyin. Binobarin, hozirgi kunda buyuk kelajagimizning ana shunday bunyodkorlari va egalarini tarbiyalashdek mas’uliyatli masala alohida ahamiyat kasb etadi.

Biz ajdodlarimizdan o‘tib kelayotgan madaniy-ma’naviy qadriyatlarni o‘z tajribalarimiz bilan to‘ldirib, rivojlantirib boramiz va kelajak avlodlarga meros qilib qoldiramiz. Bu íumumbashariy ahamiyatga molik uzluksiz jarayon. Hozirgi murakkab dunyoda inson, uning hayoti, ezgulik, mehr va muruvvat, adolat, haqiqat, erkinlik, tenglik, tinchlik, do‘stlik, baxt-saodat, vatanparvarlik kabi eng oliy umuminsoniy qadriyatlarni asrab-avaylashimiz zarur.

Madaniyatshunoslik tinglovchilar tafakkurini turli tarixiy davrlar madaniyatlari va ijtimoiy guruhlarning urf-odatlari, turmush tarzi to‘g‘risidagi bilimlar bilan boyitadi. Tarixiy va gumanitar bilimlarni tartibga keltiradi, ijtimoiy hayot voqeliklarini yagona

mazmun asosida anglashga yordam beradi. Ko'plab betakror va mustaqil madaniyatlardan tashkil topgan jahon sivilizatsiyasining birligi va xilma-xilligini ko'rsatadi. Shuningdek, u kishilarning fuqarolik va ma'naviy yetuklikka erishishlarida, fikrlar va qadriyatlar plyuralizmini ko'ra bilish qobiliyatini hosil qilishda juda muhimdir.

Madaniyatshunoslik kursi tarix, falsafa, sotsiologiya, etnografiya, ijtimoiy psixologiya kabi bir qator fanlar zahirida vujudga kelgan yangi ijtimoiy-gumanitar fan hisoblanadi. Uning izlanish obyekti ijtimoiy voqelik hisoblangan madaniyat va inson hayot tarzi hisoblanadi. Unda madaniyatning vujudga kelishi, rivojlanishi, jamiyatda amal qilishi bilan bog'liq masalalar, qadriyatlarning jamiyat hayoti va rivojlanishidagi o'rni, ularning o'zaro aloqalari o'rganiladi.

Shu asnoda «yurtimizda millatlar va dinlararo tinchlik-totuvlikni mustahkamlash, ma'naviy va axloqiy tarbiyani kuchaytirish, tarixiy ildizlarimizga, milliy o'zligimizga qaytish, aholining siyosiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirishga doir aniq maqsadga yo'naltirilgan ishlarimiz muhim ahamiyat kasb etganini ta'kidlashimiz lozim».

Madaniyatshunoslik – madaniyat rivojlanishining eng umumiy qonuniyatlarini o'rganadi. Uning manbai insoniyat yaratgan barcha madaniy qadriyatlardir. Madaniyatshunoslikning asosiy vazifasiga insonning jamiyat hamda kishilarning ma'naviy turmushiga oid barcha jarayonlarni tadqiq qilish kiradi. Madaniyatshunoslik ijtimoiy fan hisoblanib, unga xos bo'lgan xususiyat insonning madaniy hayot hodisasini tizimli tartibga solib yondashishdir. Shuningdek, madaniyat gumanitar bilimlarni o'zida mujassam qilgan holda namoyon bo'lishi bilan birga, bilishning o'ta murakkab obyekti hamdir.

Insoniyat sivilizatsiyasida jamiyat vujudga kela boshlashi bilan ijtimoiy taraqqiyotda katta o'zgarishlar sodir bo'ldi: aqliy mehnat jismoniy mehnatdan ajralib chiqib boshladi. Bu esa, fan va madaniyat rivojida muhim ahamiyat kasb etdi. Faylasuf olimlar, mutafakkir allomalar olam va odam haqida, xudo va koinot haqida, ilm-fan, taraqqiyot va din haqida fikr yuritishdi. Shuningdek, iste'dodli ijodkorlar mehnatkash xalqning orzu-istaklarini, ularning go'zallik va xudbinlik, olijanoblik va insonparvarlik haqidagi tushunchalarini ifoda etuvchi asarlar yaratdilar. Ularda xalqning turmushi, xulq va odatlari, yutuq va mag'lubiyatlari o'z ifodasini topdi. «Xalqning ko'p asrlik an'analari, madaniyati, urf-odatlari va ma'naviy qadriyatlarini mensimaslik elni juda ranjitadi» Madaniyat odamlarda yuksak fazilatlarini kamol toptirdi, ularni tenglik, ozodlik, birodarlik, yorqin kelajakka intilish yo'lidagi kurashga da'vat etdi.

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash kerakki, gumanitar fanlar qatorida madaniyatshunoslik kursining Quroli kuchlar tizimidagi o'quv yurtlarida o'rganilishi hozirgi davr talabiga mos keladi. Jamiyat hayotidagi mavjud muammolarni faqat iqtisodiy, siyosiy tadbirlar va huquq-tartibotni mustahkamlash bilangina to'la hal qilib bo'lmaydi. Buning uchun jamiyatning ma'naviy hayotini ham qayta qurish talab etiladi.

Madaniyatshunoslik fani bevosita Quroli kuchlar tizimidagi xizmat qilayotgan xodimlari faoliyatida muhim o'rin egallaydi. Chunki har bir xodimning bevosita fuqarolar bilan muloqot qilishida, moddiy va ma'naviy boyliklarimizni asrab-avaylashida, qolaversa, uning madaniyatli shaxs sifatida kamol topishida bu fanning

o'zni beqiyosdir.

Madaniyatshunoslik tinglovchilarga jahon madaniyati va uning tarkibiy qismi bo'lgan O'zbekiston madaniyatining rivojlanish tarixi, xususiyatlari, o'zaro aloqadorligi, muammolari va istiqbollari to'g'risida bilim, ko'nikma va malakalarni berishda, ayni paytda, ularni milliy madaniyatga va o'zga millatlar madaniyatlariga, qadriyatlariga hurmat ruhida tarbiyalashda, shuningdek ularning madaniyat yodgorliklariga ijodiy munosabatda bo'lish va ma'naviy jihatdan rivojlanishlarida ko'maklashadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoev Sh.M. Qurolli Kuchlar tashkil etilganligining bilan va Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan bayram tabrigi.
2. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Umumharbiy Nizomlar. -T.: 1996.
3. D. N. Arziqulov. Madaniyatshunoslik asoslari. O'quv qo'llanmasi. – T., 2012.
4. Abdullayev M., Umarov E. Madaniyatshunoslik asoslari. O'quv qo'llanmasi. – T., 2006.

HARBIY XIZMATCHI SHAXSIGA TA'SIR ETUVCHI PSIXOLOGIK OMILLAR

***Qahhorov Akmal Bahodir o'g'li –
Alohida radiatsion kimyoviy biologik
muhofaza vzvodi guruh komandiri, leytenant***

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada Harbiy xizmatchilarni jangavor harakatlarga tayyorlashda 'sioxologik omilning tutgan o'zni va ahamyati ilmiy jihatdan asoslab berilgan.*

***Kalit so'zlar:** Shaxs, harbiy xizmatchi, jangovar xarakter, shaxsiy tarkib, ruhiyat, jangovar sharoit, bo'ysunuvchanlik, itoatkorlik, ishonch, sodiqlik, qo'rqmaslik, botirlik, jasurlik, qat'iyatlik, tirishqoqlik, sabr-toqatlik.*

Shaxs-ijtimoiy va shaxslararo munosabatlarning mahsuli, ongli faoliyatning subhekti bo'lmish individdir. SHaxsning ijtimoiy xulqiga – siyosiy, iqtisodiy, mafkuraviy, mahnaviy, axloqiy kabi turli kuchlar tahsir qiladi. Bu kuchlar mohiyatan aslida jamiyat ahzolari bo'lmish shaxslar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning ayrim alohida yo'nalishlarini belgilab beradi.

Shaxs turli ijtimoiy munosabatlar tahsirida bo'ladi va ko'plab ijtimoiy institutlar (oila, mahalla, o'quv maskanlari, mehnat jamoalari, din, sanhat, madaniyat va boshqalar) bilan bog'liq bo'ladi. Iqtisodiy munosabatlar ham shaxs ongi va uning insoniy xususiyatlarini shakllanishida katta rolg' o'ynaydi. Ijtimoiylashuv jarayonida shaxs yo'nalishi shakllanib boradi. SHaxsni yo'nalganligi quyidagi tarkibiy qismlardan tashkil topadi:

- mashuliyat;
- maqsadlar va ideallar;

- qiziqishlar va dunyoqarashlar.

Shaxs dunyoqarashi va ehtiqidini o'zgartiruvchi omillar quyidagilardan iborat:

-milliy va mahnaviy qadriyatlar;

-mahnaviyat va mahrifat;

-oila;

-mafkura va boshqalar.

Shaxs psixologik nuqtai nazardan quyidagi belgilarga ega:

- u aniq bir inson;

- muayyan jamiyatning ahzosi;

- muayyan jamoaga mansublik;

- muayyan bir faoliyat yoki faoliyatlar turi bilan shug'ullanadi;

- atrof-muhit va voqelikka nisbatan o'zining munosabatiga ega;

- o'ziga xos individual xususiyatlarga ega.

Bundan tashqari shaxs o'ziga xos quyidagi psixologik xususiyatlarga ham ega bo'ladi:

- o'z-o'zini anglash;

- individuallik-o'ziga xoslik;

- o'zini-o'zi boshqara olish layoqati;

- muayyan faoliyat turida namoyon qiladigan faolligi;

- ijtimoiy aloqa tizimiga qo'shilganligi.

Shaxs o'zidagi jamiki individual xususiyatlari bilan birgalikda muayyan bir insonni anglatadi. Individual xususiyatlarga insonni shaxsga aylantiradi. Uning shaxslilik darajasi ushbu individual xususiyatlarning qanchalik rivojlanganligiga bog'liq bo'ladi. Insondagi biologik omillar ham uning shaxsiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Uning biologik omillari quyidagilardan iborat:

-salomatligi;

-jismoniy rivojlanganlik darajasi;

-tana tuzilishi;

-bo'yi;

-og'irligi;

-muskul kuchi;

-o'pkasining hajmi va boshqalar.

Harbiy xizmatchi shaxsiga ta'sir etuvchi psixologik omillarni bilishimiz uchun biz inson psixikasi to'g'risida to'la tushunchaga ega bo'lishimiz kerak bo'ladi. Inson psixikasi quyidagi tarkibiy qismlardan tashkil topgan:

1. Psixologik jarayonlari:

-bilish jarayonlari;

-hissiyot;

-iroda.

2. Psixologik xususiyatlar:

-shaxs yo'nalishi (ehtiyotlari, qiziqishlari va hakoza);

-temperament;

-xarakter;

-qobiliyatlar.

3. Psixologik holatlar:

- ko'tarinki kayfiyat;
- ruhiy tushkunlik;
- qoniqish hissi;
- o'z-o'zidan qoniqmaslik hissi.

4. Psixologik tuzilmalar:

- bilimlar;
- ko'nikmalar;
- malakalar;
- odatlar.

Ushbu sanab o'tilgan komponentlar har bir harbiy xizmatchida har xil rivojlanish yoki shakllanish darajasida bo'ladi. Masalan, birgina psixologik bilish jarayonlarini (sezgilar, idrok, diqqat, xotira, tasavvur, xayol, tafakkur va nutq) olib ko'radigan bo'lsak, ular ham har bir kishida o'ziga xos qiyofaga ega bo'ladi. Inson har xil sezgilarga ega, ammo u har kishida har xil; kimdadir ko'rish sezgisi kuchli rivojlangan, kimdadir zaifroq.

Ofitserning o'z qo'lostidagi harbiy xizmatchilardagi psixologik jarayonlarning xususiyatlarini to'g'ri baholay olish layoqati undagi kasbiy-pedagogik mahoratning muhim belgisi hisoblanadi.

Yo'nalganlik, temperament, xarakter, qobiliyat kabilar insonning psixologik xususiyatlari bo'lib, ularda insonning ichki dunyosi, ijtimoiy mohiyati o'z ifodasini topadi. Ushbu xususiyatlarni o'rganish tarbiyaviy ishlarni va harbiy xizmatni to'g'ri rejalashtirishga yordam beradi.

Mahlum bir faoliyatlar bilan shug'ullanish natijasida insonda bilim, ko'nikma, malaka va odatlar kabi psixologik tuzilmalar shakllanadi. Ular insonning butun hayoti davomida rivojlanib va boyib boradi. Masalan, harbiy xizmatchi xizmat jarayonida o'zidagi siyosiy va harbiy bilimlarni, harbiy texnika va qurollarni ishlata olish bilan bog'liq ko'nikma va malakalarni, harbiy intizomga qathiy bo'ysunish odatlarini o'zlashtiradi hamda rivojlantiradi. Ushbu sanab o'tilgan psixologik tuzilmalarni tashkil qiluvchi elementlarning o'zaro birligi inson shaxsining mohiyatini tashkil etadi.

Ofitser o'z faoliyatini samarali olib borish uchun nafaqat har bir harbiy xizmatchi psixologiyasini balki, harbiy jamoa psixologiyasini ham bilishi maqsadga muvofiq. Jamoa psixologiyasi-bu mahlum bir insonlar guruhi yashaydigan muhit, ularning mahnaviy dunyosi. Harbiy xizmat sharoitida qism, batalg'on, vzvod, guruh, sektsiya, ekipaj kabilar jamoalarga misol bo'la oladi.

Fikr, kayfiyat, o'zaro munosabatlar, anhana, ehtiyoj va talablar jamoa psixologiyasini tashkil etadi. Harbiy jamoalarning rivojlanishiga xos bo'lgan bosqichlardan o'zlarining individual-psixologik xususiyatlaridan kelib chiqib, har bir harbiy xizmatchi turli darajadagi qiyinchiliklar bilan o'tadilar. Buni endigina harbiy xizmatga kelgan yosh askarlar misolida ko'rib chiqamiz. Ulardagi ko'nikish (adaptatsiya) davrini ruhiy va jismoniy jihatdan mehyorida o'tkazish bo'linmadagi harbiy intizomni mustahkamlashga yordam beradi. Moslashish shunday hodisaki, bunda atrof-muhitdagi va faoliyatdagi yangi omillar, sharoitlar tahsirida shaxs ruhiyatida katta o'zgarishlar sodir bo'ladi. Askarning harbiy xizmat sharoitlariga moslashishi jarayoniga harbiy xizmatning hamma tomonlari tahsir etadi.

Ko'nikishning turli shakllari o'rtasida o'zaro yaqin aloqadorlik mavjud.

Masalan, yosh askarning jangovar mahorati egallashi uning bo'linmadagi ijtimoiy muhitiga kirishiga yordam beradi. Bu narsa o'z navbatida ushbu askarning bo'linmadagi obro'yiga hamda jamoaning unga nisbatan bo'lgan munosabatiga tahsir etadi. Va aksincha, askarning ijtimoiy-siyosiy tayyorgarlik mashg'ulotlaridagi faolligi uning harbiy texnikani qanchalik muvaffaqiyatli o'rganishga hamda unda ishlay olishga bog'liq bo'ladi. Ijtimoiy muhit yaxshi bo'lgan inoq jamoalarda harbiy mutaxassislikni egallash jarayonidagi qiyinchiliklar harbiy nizom qoidalari tez-tez buzilib turadigan bo'linmalardagiga qaraganda 3-4 marta kam bo'lar ekan. Yoki, yana bir misol: o'quv bo'linmalari bitiruvchilari o'zlari harbiy xizmat amaliyotini o'tgan qismlardan boshqa qismlarga xizmatga jo'natilganda ularda ko'nikish bilan bog'liq qiyinchiliklar ancha ko'p bo'ladi.

Harbiy xizmat sharoitlariga ko'nikish jarayoni yosh askar va uni o'ragan ijtimoiy muhit o'rtasidagi o'zaro tahsirlashuv ekanligini ehtiborga olsak, uni shaxsiy va tashqi omillarga ajratish mumkin. SHaxsiy omillarga ijtimoiy tajriba, harbiy xizmatga munosabat, umumiy mahlumot darajasi, muayyan mutaxassislikni egallashga bo'lgan qobiliyati, temperamenti va xarakter xislatlari kabilar kiradi. Jangovar navbatchilik, qorovullik xizmati, o'quv-tarbiya jarayoni, ruhiy tayyorgarlik, kichik komandirlarga rahbarlik usullari va jamoadagi o'zaro munosabatlar esa tashqi omillar sirasiga kiradi. Harbiy xizmat sharoitlariga ko'nikish ushbu faoliyatga moyilligi bo'lgan va boshlang'ich harbiy tayyorgarlikdan o'tgan yigitlarda nisbatan tez sodir bo'ladi. Askincha xizmatgacha bo'lgan davri betartib hayot kechirgan yoshlarda bu bosqich qiyinchilik bilan kechadi. Yosh askar inoq jamoaga tushsa-yu, harbiy xizmat uni qoniqtirsagina undagi umumiy mahlumot va texnik qobiliyatlar mutaxassislikni tezroq egallashga hamda ko'nikish jarayonining oson kechishiga yordam beradi. Aksincha, mutaxassislik va xizmat vazifalari unga quvonch baxsh etmasa, ko'nikish jarayoni uzoqqa chuzilishi mumkin.

Fuqarolik hayotidan harbiy xizmat sharoitiga birdaniga o'tkazish har xil ko'ngilsizliklarni keltirib chiqaradi. SHuning uchun bu bosqich komandirlar nazorati ostida amalga oshiriladi. Yosh askardagi harakter, qobiliyat va ko'nikmalar bu davrning qanday o'tishini belgilab beradi. Masalan, biri dilkash, ikkinchisi esa xutbin bo'lgan askarlarni olaylik. Dilkash askar xizmatga xos bo'lgan harbiy nizom talablarini va axloq mehyorlarini tezda o'zlashtirib oladi. Bundaylar jamoa topshiriqlarini ham ishtiyoq bilan bajaradilar va boshqa safdoshlariga bajonidil yordam beradilar. Odatda, ular mustahkam axloqiy-irodaviy xususiyatga ega bo'ladilar. SHu o'rinda hozirgi yosh askarlarning o'ziga xos xususiyatlari haqida to'xtalishga to'g'ri keladi. Ular o'zlaridagi keng dunyoqarash va bilimdonliklari bilan ajralib turadi. Ularda mehnatga munosabat ijobiy bo'lib, Vatanga muhabbat hissi rivojlangan. Yoshlar har sohada mustaqillikka intiladilar, lekin, shuning bilan birgalikda ularga jamoa tahsiriga beriluvchanlik xos. Ulardagi fikr yuritish va faoliyat tarzi tengdoshlariga keng va atrofdagilarga bog'liq bo'lib, boshqalarga o'zini ko'rsatish qo'yish istagi ularda tez-tez paydo bo'lib turadi. Tajribasiz bo'lganliklari uchun ham bu harakatlar qo'pol agressiv usullar bilan amalga oshiriladi. Bu yoshdagi kishilar atrofdagi voqea-hodisalarga baho berishda ko'proq maksimalizm (bir yoqlamalik)ga berilishadi. Bunga sabab ulardagi sabr-toqatning yo'qligi. SHuningdek, ularga yana tug'ilib o'sgan joylariga nisbatan mahnaviy-ruhiy jihatdan bog'lanib qolish

hodisasi ham xos bo'lib, bu narsa xizmat davrida mahlum qiyinchiliklarni tug'diradi.

Yosh askarlarni safga quyishda harbiy qism va bo'linmalardagi harbiy xizmat o'tayotgan askarlar yordamidan foydalanish lozim. Bunday askarlar bo'linmada shakllangan anhanalarning barqaror tashuvchilari hisoblanadilar. Ularning bilim va tajribalaridan ekipajlarni tuzishda hamda yosh askarlarga biriktirib quyish orqali ham foydalanish mumkin.

Harbiy xizmatchi shaxsini shakllantirishda faoliyat asosiy o'rin egallaydi. Harbiy faoliyatni turlari quyidagilardan iborat bo'ladi:

1. O'quv faoliyati.
2. Maishiy faoliyat.
3. Har kungi xizmat faoliyati.
4. Jangovar faoliyat.

Harbiy xizmatchi shaxsini shakllantirish va rivojlantirish yo'llari:

-har bir harbiy xizmatchidagi bilish jarayonlarining rivojlantirish darajasini bilish va ehtiborga olish;

-harbiy xizmatchilarda milliy istiqlol g'oyasini shakllantirish;

-harbiy xizmatchilarda xizmatga nisbatan ijobiy munosabatlarini shakllantirish;

-harbiy va ijtimoiy-siyosiy tayyorgarlik mashg'ulotlarining samaradorligini oshirish;

-harbiy xizmatchilarni ixtirochilik va ratsionalizatorlik faoliyatiga jalb qilish;

-faoliyatni harbiy nizomlar asosida tashkil qilish;

-ularni o'z-o'zini o'qitish va o'z-o'zini tarbiyalash faoliyatiga yo'naltirish;

-harbiy xizmatchilarni jo'shqin faoliyatga tortish (harbiy, ijtimoiy, sport va hakoza);

-harbiy jamoalarning tarbiyadagi rolini oshirish;

-tarbiyaviy ishlarga individual tartibda yondashish;

-o'quv va tarbiyaviy ishlarning sifati va samaradorligini oshirish;

-ijtimoiy omillarni faol tahsirini oshirish;

-harbiy xizmatchidagi individual-psixik xususiyatlarni har tomonlama o'rganib shunga asoslanib ular bilan tarbiyaviy ishlarni tashkil etish;

-har bir xizmatchini o'z qobiliyatlarini to'g'ri baholashga o'rgatish;

-ularni jamoatchilik ishlariga jalb qilish;

-ularni o'z-o'zini tarbiyalashda yordam berish;

-harbiy va texnik bilimlar, ko'nikmalar va malakalarini egallashlariga yordam berish;

-ularda jang olib borish ko'nikmalarini shakllantirish;

-muayyan bir harbiy jamoaga qo'shilishi, komandirlar, boshliqlar va lavozimi tenglar bilan o'zaro munosabatlarni o'rnatish.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, qo'shinlarimizni jangovar va harbiy qudratini yanada kuchaytirish lozim bo'ladigan bugungi kunda armiyamizning asosiy o'zagini tashkil etadigan yosh ofitserlar, serjant va askarlarni Vatanga sodiq haqiqiy vatanparvar qilib tarbiyalash asosiy vazifa hisoblanadi. Ofitser amalga oshiradigan tarbiyaviy ishning obhekti muayyan inson, shaxs hisoblanadi. Demak, harbiy xizmatchilarni Vatanga sodiq, munosib askar qilib tarbiyalash uchun ularni shaxs sifatida o'rganish lozim bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoev SH.M. “Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz”. // T.: ”O‘zbekiston”, 2017, 179-bet.
2. O‘zbekiston Res‘ublikasi ‘rezidentining “O‘zbekiston Res‘ublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilarining ma’naviy-ma’rifiy saviyasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi ‘Q-3898-sonli Qarori // Xalq so‘zi, 2018 yil 6 avgust.
3. Asmolov A.G. ‘sixologiya lichnosti. – M.: MGU, 1990.
4. G‘oziev E.G‘. Umumiy ‘sixologiya.-T.: “Universitet”, 2002.
5. Voennaya ‘sixologiya. Uchebnik. /. A.G. Maklakov. - Sank- ‘eterburg: ‘iter, 2005. - 464 b.
6. Abduraxmanov R.A. Voennaya ‘sixologiya. Moskva, 1996 y.
7. Ravshanov L.U. “Zamonaviy harbiy xizmatchi imijining ‘sixologik jihatlari” disser., T: 2019.

INGLIZ TILINI O‘QITISHNING DIDAKTIK VOSITALAR ASOSIDA METODOLIK IMKONIYATLARI

***Qobulova Saboxat Quvondiq qizi -
IIV Samarqand akademik litseyi
Tillarni o‘rganish kafedrasi o‘qituvchisi***

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada didaktik vositalarni integratsiyalashgan holda ikkinchi tilni o‘rganuvchilar sinfiga ingliz tilini o‘qitishning uslubiy imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi. Maqolada konstruktivizm, ijtimoiy-madaniy nazariyalar va kommunikativ tilni o‘rgatish kabi nazariy asoslarga tayangan holda ko‘rgazmali qurollar, o‘quv o‘yinlari, interaktiv dasturiy ta‘minot va multimedia resurslarining amaliy qo‘llanilishi ko‘rib chiqilgan hamda didaktik vositalarni tanlash va ulardan foydalanishda axloqiy, madaniy va kontekstual ahamiyatga ega bo‘lgan ayrim pedagogik fikrlar ham yoritilgan.*

***Kalit so‘zlar:** chet tili, ta‘lim, ta‘lim jarayoni, didaktik qarashlar, ingliz tili.*

Ichki ishlar vazirligi akademik litseylarida bir emas, balki ikkita xorijiy tillarni o‘qitish belgilangan va o‘quv dasturlariga kiritilgan. Deyarli o‘qishga tanlab olingan o‘quvchilar orasida ikki tilni o‘qigan o‘quvchilar yo‘q desak ham mubolag‘a bo‘lmaydi.

Bugungi kunda xorijiy tillarni o‘zlashtirishning ahamiyati ta‘limda keng e‘tirofga sazovor bo‘lmoqda. Masalan, ingliz tili “global lingua franca” sifatida o‘zini namoyon etishda davom etar ekan, nafaqat ikkinchi tilni endi o‘rganuvchi sinflar uchun, balki barcha tilni bilish toifasidagi o‘quvchilar uchun samarali va qiziqarli o‘qitish metodikalariga talab ortib bormoqda.

Ushbu ehtiyojga javoban o‘qituvchilar va tadqiqotchilar ko‘proq didaktik vositalarni til o‘qitishga kiritishga e‘tibor qaratmoqdalar. Ushbu maqolaning maqsadi didaktik vositalardan foydalangan holda ingliz tilini o‘qitishning uslubiy

imkoniyatlarini o'rganish, nazariy asoslarni, amaliy qo'llanmalarni va pedagogik fikrlarni har tomonlama ko'rib chiqishdan iborat. Dastlabki bosqichda ingliz tilini o'zlashtirish noyob qiyinchiliklar va imkoniyatlar to'plamini taqdim etadi.

O'quvchilar kognitiv va lingvistik rivojlanishning muhim bosqichida, bu nafaqat ularning yoshiga mos keladigan, balki ularning kognitiv imkoniyatlariga ham mos keladigan ta'lim usullarini ishlab chiqishni, shuningdek, ta'lim metodlari va qobiliyatlarining xilma-xilligi, inklyuziv va tabaqalashtirilgan pedagogik asosga urg'u berilib, xorijiy tilni o'qitishga dinamik va ko'p qirrali yondashuvni talab qiladi.

Didaktik vositalar o'rganish tajribasini oshirishga xizmat qiluvchi ko'rgazmali qurollar, multimedia ilovalari, o'quv o'yinlari, interfaol dasturiy ta'minot va boshqa moddiy materiallarni o'z ichiga olgan keng doiradagi resurslarni o'z ichiga oladi. Ushbu vositalarni pedagogik jarayonga integratsiyalashgan holda o'qituvchilar o'quvchilarning turli talab va istaklariga javob beradigan immersiv va interfaol ta'lim muhitini yaratishi mumkin.

Konstruktivistik nuqtai nazardan, didaktik vositalar ta'lim uchun katalizator bo'lib xizmat qiladi, bu esa o'quvchilarga til bilan amaliy mashg'ulotlar orqali bilimlarni shakllantirish imkonini beradi. Ijtimoiy-madaniy kontekstda ushbu vositalar hamkorlik va kommunikativ o'zaro ta'sirlarni osonlashtiradi, tilni o'zlashtirishga asoslangan ijtimoiy va madaniy kontekstlarda til rivojlanishiga yordam beradi. Bundan tashqari, kommunikativ yondashuv didaktik vositalarni haqiqiy til va mazmunli muloqotni qo'llashni rag'batlantirish vositasi sifatida joylashtiradi va shu bilan o'rganish amaliyotini real dunyoda kommunikativ maqsadlarga moslashtiradi.

Ingliz tilini o'qitishda didaktik vositalarni integratsiyalashning amaliy qo'llanilishi ko'p qirrali va keng qamrovlidir. Ko'rgazmali qurollardan foydalanishdan tortib, so'z boyligini o'zlashtirish va o'qishni tushunishni kuchaytirishgacha, til ko'nikmalarini mashq qilish uchun interfaol dasturiy ta'minotni joriy etishgacha, didaktik vositalardan foydalanishning potentsial usullari xilma-xil va kengdir.

Bundan tashqari, ta'lim o'yinlari va multimedia resurslarining integratsiyasi nafaqat o'quv jarayoniga hayajon va faollik elementini qo'shadi, balki tilni kontekstga boy va dinamik tarzda o'rganishni kuchaytiradi. Pedagogik fikrlash ushbu tadqiqotning muhim tarkibiy qismini tashkil qiladi, didaktik vositalarni til o'qitishga integratsiyalashuvning axloqiy, madaniy va kontekstli choralari asoslaydi.

Axloqiy yengillikdan foydalanishda o'qituvchilar didaktik vositalarni tanlash va qo'llashda ularning ta'lim standartlariga javob berishini, inklyuziv ta'limni rag'batlantirishni va axloqiy me'yorlarni qo'llab-quvvatlashini ta'minlash uchun tanqidiy nuqtai nazardan qarashlari kerak. Xuddi shunday, til o'rgatishning madaniy va kontekstli chora-tadbirlari didaktik vositalardan foydalanishga nozik yondashuvni talab qiladi, bunda darsda foydalaniladigan resurslarning madaniy aloqadorligi, til xilma-xilligi va kontekstga mos kelishi hisobga olinadi.

Demak, o'quvchilarga ingliz tilini didaktik vositalar yordamida o'rgatishning uslubiy imkoniyatlari ta'lim innovatsiyasi va pedagogik taraqqiyotning keng ko'rinishi bilan chuqur bog'langanligiga ayon bo'lamiz.

Xulosa qilib aytganda, ushbu maqola didaktik vositalarni integratsiyalashgan holda ikkinchi tilni o'rganuvchi sinflarga ingliz tilini o'qitishning uslubiy imkoniyatlarini har tomonlama o'rganishga qaratilgan. Ma'lumki, nazariy tushunchalar,

amaliy qo'llanmalar va pedagogik fikrlarni uyg'unlashtirib, boshlang'ich nutqni shakllantirishda didaktik vositalardan foydalanishni imkoniyatlarini yoritadi.

Tilni o'zlashtirishning ijtimoiy-madaniy nazariyalari sinfda hamkorlik va kommunikativ o'zaro ta'sirni rivojlantirishda didaktik vositalarning ahamiyatini yana bir bor ta'kidlaydi. Bu vositalar til o'rganish uchun muhit yaratadi va bu yerda o'quvchilar o'z tengdoshlari bilan muloqot qilishlari, xorijiy tildan foydalaniladigan ijtimoiy-madaniy kontekstlarni aks ettiruvchi hamkorlikda o'rganishni boshdan kechirishlari mumkin.

Ushbu ijtimoiy-madaniy yondashuv real dunyo ijtimoiy-madaniy aloqalarini aks ettiruvchi tilga boy muhit yaratish, til rivojlanishini kontekstga asoslangan doirada rivojlantirish muhimligini ta'kidlaydi. Bundan tashqari, til o'rgatishning kommunikativ yondashuvi didaktik vositalarni tildan to'g'ri foydalanish va mazmunli muloqotni rivojlantirishning muhim tarkibiy qismlari sifatida belgilaydi.

Multimedia resurslari, ta'lim o'yinlari va interaktiv dasturiy ta'minotni integratsiyalash orqali o'qituvchilar o'quvchilarga tildan maqsadli foydalanish, hayotdagi kommunikativ kontekstlarga taqlid qilish imkoniyatini berishi mumkin. Bunday yondashuv til o'qitishni kommunikativ maqsadlar bilan uyg'unlashtiradi, tildan foydalanishning amaliy va funktsional jihatlariga urg'u beradi va shu orqali o'quvchilarning tilni bilish va kommunikativ kompetentsiyasini boyitadi.

Ingliz tilini o'qitishda didaktik vositalarni integratsiyalashning amaliy qo'llanilishi ko'p qirrali bo'lib, keng ko'lamli ko'nikma va malakalarini qamrab oladi. Turli o'qitish kartochkalari, tasvirlar va videolavhalar kabi ko'rgazmali qurollar so'z boyligini oshirish va o'qishni tushunish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun kuchli vosita bo'lib xizmat qiladi.

Ko'rgazmali vositalar o'quvchilarga lingvistik tushunchalar va ularning real dunyo o'rtasida aloqa o'rnatishga yordam beradi va shu bilan ularning ingliz tilidagi leksik va kognitiv tushunchalarini boyitadi.

O'quv o'yinlari amaliy qo'llashning yana bir muhim jihati interfaol dasturiy ta'minotni tashkil qiladi va til ko'nikmalarini rivojlantirish uchun dinamik va qiziqarli usullarini taklif qiladi. Tilga asoslangan o'yinlar orqali o'quvchilar til amaliyotida faol ishtirok etib, grammatika, lug'at va talaffuz ko'nikmalarini o'yin tarzida mustahkamlaydi.

Multimedia resurslarining integratsiyasi esa, tilni o'qitishda didaktik vositalarning amaliy qo'llanilishini yanada kengaytiradi. Podkastlar, videolar va raqamli hikoya platformalari kabi audio va video materiallar o'quvchilarga turli xil o'rganish uslublari va afzalliklarini hisobga olgan holda tilni o'rganish uchun multimodel yo'llarni taklif etadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, ingliz tilini didaktik vositalarni integratsiyalashgan holda o'qitishning metodik imkoniyatlari cheksizdir. Ushbu ijodiy yondashuv o'quv sinflarda didaktik vositalardan foydalanishning transformativ salohiyatini oshirishga, innovatsion til o'rganish tajribasi uchun yangi yo'llarni belgilashga xizmat qiladi. Pedagoglar til o'qitishning ko'p qirrali jihatlarini o'rganishda davom etar ekan, didaktik vositalarning integratsiyasi pedagogik jaryonni boyitishi, o'quvchilarning ijtimoiy-madaniy rivojlanishi uchun zarur bo'lgan til ko'nikmalari va kommunikativ kompetentsiyalari bilan qurollantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. 2021 yil 19 maydagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-5117-sonli “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Qarori. <https://lex.uz/docs/-5426736>
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 610-sonli “Ta’lim muassasalarida chet tillar o‘qitishning sifatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi” Qarori. <https://lex.uz/docs/3304915>
3. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23-sentyabrdagi yangi tahrirdagi 637-sonli “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. <https://lex.uz/docs/5013007>
4. PQ-312 sonli “Xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirishni samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida <https://www.lex.uz/docs/5431845>
5. The Common European Framework of Reference for Languages: Learning, teaching, assessment (CEFR) 2020 www.coe.int/lang
6. Xorijiy til va adabiyoti (tillar bo‘yicha) bakalavriyat ta’limi malaka talablari, № 418. 14.08.2021 y.
7. Adabiyotshunoslik (ingliz adabiyoti) magistratura ta’limi malaka talablari, № 418. 14.08.2020 y.
8. Ishmuradovna, X.G. (2022). Boshlang‘ich sinflarda ingliz tili o‘qitish metodikasi. Ijtimoiy fanlarda innovasiya onlayn ilmiy jurnali, 138-140.
9. Adizovna, H.N. (2022, July). Boshlang‘ich sinflarda ingliz tilini o‘qitishda zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalar. In E Conference Zone (pp. 249-252).

ZAMONAVIY QUROLI TO‘QNASHUVLARDA PSIXOLOGIK YO‘QOTISHLAR MUAMMOSIGA ZAMONAVIY QARASH VA ULARNING YECHIMI

*Fayzullayev G‘ayratjon Erkinovich –
O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari
kichik mutaxassislar tayyorlash markazi
Texnik tayyorlash sikl boshlig‘i, podpolkovnik.*

***Annotasiya.** Ushbu maqolamda harbiy psixologiya, muammoli savollar va ularning yechimi bo‘yicha qisqa kerakli bo‘lgan ma’lumotlar keltirilgan. Jangovar tayyorgarlik mashg‘ulotlarni jangovar vaziyatlarga yaqinlashtirilgan sharoitlarda olib borish, bu harbiy xizmatchilarni turli xil sharoitlarga psixologik moslashuvi va ko‘nikmasini oshirishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi.*

***Kalitso‘zlar:** Urushlar va harbiy san‘at, psixogen yo‘qotishlar, harbiy xizmatchilarning jangovar harakatlarga psixologik tayyorgarligi, psixologik stress va stressga qarshi choralar, harbiy xizmatchilarni jangovar harakatlarga psixologik tayyorlash.*

Bugungi kunda mamlakatimiz mudofaa qobiliyatini mustahkamlash, Qurolli Kuchlarni yanada rivojlantirish borasida keng qamrovli ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Shu bois, bugun yurtimizda Qurolli Kuchlar oldiga qo'yilgan asosiy tadbirlardan biri ham axloqi-ro'hiy ta'minotning samaradorligini yanada oshirilishidir.

Mamlakat Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2018 yil 10 yanvar kuni O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganligining 26 yilligi munosabati bilan o'tkazilgan xavfsizlik kengashining yig'ilishida "men harbiy xizmatchilarimizning jismonan va ro'xiy tayyorgarligi bilan bog'liq bir qator muammolarga e'tibor qaratmoqchiman. Nega deganda, harbiy xizmatchilarning ruhiy jihatdan chidamligi bo'lishi haqida gapirganda, keyingi paytda dunyoning turli mintaqalarida sodir bo'layotgan qurolli to'qnashuvlarda ko'zga tashlanayotgan bir holatga e'tiboringizni qaratmoqchiman. Ya'ni, jangovar harakatlar davomida shaxsiy tarkib o'rtasidagi yo'qotishlarning asosiy qismi kuchli ro'hiy ta'sir va zarbalar bilan bog'liq ekani ma'lum bo'lmoqda. Bunday ro'hiy jarohatlarni xatto tinch sharoitda ham davolash juda murakkab masaladir",- deb ta'kidlab o'tgan edilar.

Darhaqiqat, bugungi kunda Qurolli Kuchlarimizda harbiy xizmatchilarni ruhiy jihatdan tayyorlash dolzarb masalalardan biri bo'lib kelmoqda.

Hozirgi vaqtda dunyoning turli davlatlaridagi jangovar harakatlar teatiri shuni ko'rsatmoqdaki, yuqoridagi so'zlar hozirgi kunda o'z isbotini topmoqda desak mubolog'a bo'lmaydi.

O'tmishga nazar soladigan bo'lsak, Vetnam, Afg'oniston, Suriya, Tog'li Qorabog', yoki bo'lmasa hozirgi kungacha davom etib kelayotgan Rossiya - Ukraina voqyealari, harbiy xizmatchilarning aynan ruxan tayyor emasligi oqibatda juda ko'p sonli shaxsiy tarkibning safdan chiqishi yoki yo'qotilishiga olib kelmoqda. Shu boisdan, Aynan psixologik tayyorgarlikning yo'qligi xarbiy xizmatchilarda sarosimaga tushish, o'zini boshqara olmaslik, o'zini yo'qotib qo'yish, qo'pollik, dag'allik, buyruqlarni bajarmaslik, qo'pol xavfsizlik qoidalariga yo'l qo'yish kabi nojo'ya hatti – harakatlarni keltirib chiqarishi mumkin.

Xozirgi vaqtda harbiy psixologlarning tahliliga ko'ra, jangovar vaziyatlarda jismoniy jarohatlanganlardan ko'ra ro'xiy jaroxat olganlar **1:6 - 1:8** % tashkil etayotganligini takidlashmoqda.

Ya'ni jangovar yo'qotish 1 harbiy xizmatchi bo'lsa, ro'hiy yo'qotish 6 yoki 8 ta harbiy xizmatchini tashkil etmoqda.



Jangovar yo'qotsh

1



psixologik yo'qotsh

8

Harbiy xizmatchilarning jangovar harakatlarga psixologik tayyorgarligi – bu Psixologik tayyorgarlik jangovar tayyorgarlik mashg'ulotlarining ajralmas qismi bo'lib, harbiy xizmatchining jangovar vazifalarni muvofiqiyatli bajarish uchun o'ta muhim omil sanaladi.

Ushbu jarayon harbiy xizmatchilarda psixologik barqarorlik, stressga chidamlilik, hamda qiyin va nostandart vaziyatlarda qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantirishga qaratiladi

Psixologik tayyorgarlik turiga ko'ra:

umumiy,
maxsus,
maqsadli.

Vaqtiga ko'ra

maqsadli
bevosita

Harbiy xizmatchilarning psixologik barqarorligining tarkibiy qismlari

Shaxsga yo'naltirilgan;
Shaxsiy tarkib orasida;
Guruxiy;atrof muhit.

Jangovar harakatlarda yo'qotishlarning asosiy omillaridan biri bu harbiy xizmatchilarning **stress** holatiga tushishi va undan chiqib keta olmasligidir.

Ma'lumot sifatida aytib o'tadigan bo'lsak harbiy tatqiqotchilarning tahliliga ko'ra bugungi kundagi ro'y berayotgan zamonaviy jangovar harakatlardagi shaxsiy tarkibning asosiy yo'qotilish sabablaridan biri bu ro'xiy yo'qotish, ya'ni **stresga** tushishlar oqibatlaridir.

Psixologik stress - Bu bosimni keltirib chiqaradigan yoki moslashishni talab qiladigan tashqi omillarga tananing salbiy reaksiyasidir.

Bunday oqibatida harbiy xizmatchida, psixologik reaksiyalar kuchayadi,tushkunlikga tushish, qochish, o'z joniga qasd qilish, qo'rquv, yoki bo'lmasa taslim bo'lish hollariga olib keladi.

Shundan kelib chiqib bugungi kunda harbiy xizmatchilarning Stressga tushishni oldini olishning quyidagi choralari ko'riladi:

Simulyasiya qilishning avtomatlashtirilgan kompleks tizimlari, haqiqat yeffektlarini yaratish (urush sharoitini yaratish) vizual (lazer) va ovoz; simulyatorlar, portlashlar, yaradorlarning qichqiriqlari, otishmalar, dushmanning o'q otish yeffektleri, snaypkrlardan foydalanish, yo'lning holati va sharoitlarining murakkablashishi, to'siqlar paydo bo'lishi va ulardan o'tishlar kabi bir qator mashg'ulotlardan tizimli ravishda o'tkazib turish zarur.

Xulosa o'rnida shuni aytish muhimki, jahonning rivojlangan armiyalari tajribasida psixologik tayyorgarlikga katta ahamiyat berilmoqda. Qurolli Kuchlarimizning jangovar samaradorligini oshirishda jangovar harakatlarga psixologik tayyorgarlik muhim ahamiyat kasb yetadi. Bu harbiy xizmatchilarga stressga tushushni oldini olish va o'zini o'zi boshqarishga, ongli qarorlar qabul qilishga yordam beradi.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida psixologik tayyorgarlikning umumiy, maxsus, va maqsadli turlariga bo'lib, tashkillashtirish shunengdek, harbiy xizmatchilarda psixologik barqarorlikni shakillantirish hamda,

quyidagi motivasion, xissiy-irodali, operativ (tezkorlik) va regulyativ (boshqaruvchanlik) me'zonlari asosida olib borish maqsadga muvofiqdir.

UY ISHCHI XIZMATCHILARNI MINTAQALAR BUYICHA MIGRASIYASI

*Rabiev Bobomurod Bahadirovich –
Andijon davlat universiteti oqituvchisi
“Oila va gender” ilmiy-tadqiqot insituti doktoranti*

Har bir kasbning o'z tarixi bor va shunday kasblar borki ular qadimdan to xozirgi kungacha axamiyatini yo'qotmay shakllanib kelgan bu uy ishchi xizmatchi kasbidir. Xozirga kelib uy ishchi xizmatchi migrantlar soni yildan-yilga ortib bormoqda, ulardan 95 foizini ayollar tashkil qiladi. shuningdek mezoniga ikki turga bo'linadi birinchi o'z vatanida ishlovchi ayol uy ishchilari ular boshqa xududlarda poytaxt, shaxar markazlarida ishlasada asl vatanidan tashkariga chiqmaydi, ikkinchisi esa xorijda mexnat qiluvchi ishchilardir. Va aynan xorijda mexnat qiluvchilar ko'prok tayziqga uchraydilar. Xozirda Dunyo bo'ylab kamida 75,6 mln ayolllar uy ishlari migrasiyasida ishtirok etmoqdalar[1].

2020 yilda dunyo bo'ylab barcha xalqaro mehnat muhojirlari 280 mln migrantlar shundan 48 foizi (134,9 million) ayollar yoki qizlar edi. So'nggi o'n yil ichida ayol muhojirlar soni 26 foizga o'sdi. Aksariyat ayollar ish, oila yoki ta'lim uchun migrasiya qilishadi. Ba'zilar tabiiy ofatlar tufayli o'z mamlakatlarini tark etishadi. Ayollar va qizlar qochqinlarning taxminan yarmini tashkil etadi.[2]

2011 yil Xalqaro mexnat taqsimoti tomonidan uy ish xizmatchilari Konvensiyasi qabul qilindi va uy ishchilari ko'plab mamlakatlarda huquqiy himoyaga ega bo'lishdi. Ammo shunga qaramay, xar o'nta uy ishchilaridan sakkiztasi norasmiy ishchi hisoblanadi, doimiy ish bilan ta'minlanganlik samarali mehnat va ijtimoiy himoya yo'q tirikchilik qilayotgan millionlab uy ishchilarining zaifligi aniq edi. Konvensiya, 2011 yil (189-son) va uning ushbu sohaga bag'ishlangan tavsiyasi (201-son) Ushbu yangi qonunlar uy ishchilarini va uy ishlari migrasiyasini ustivor yo'nalishlarini belgilab berdi va tarixiy imkoniyatni taqdim etdi. Bunday qarorni qabul qilinishi dunyo bo'ylab uy ishi xizmatini kasb singari tan olish va boshqa soxa ishchilari singari munosib mehnat qilish huquqiga ega bo'ldi. Muximi shundaki bunday karorlar mamlakatlarning mehnat va ijtimoiy muxofaza to'g'risidagi qonunlarni qay darajada kengaytirganligini o'lchaydi.

Statistik malumotlarga ko'ra dunyodagi 80 milliondan ortiq 75,6 foiz uy ishchilari norasmiy ishdadir, bu esa boshqa mexnat vakillarining ulushidan ikki baravar ko'pdir. Ammo ularning o'rtacha ish vaqti boshqa ishchilarnikiga qaraganda past xisoblanadi. Shu sababdan xam bu ijtimoy va iqtisodiy to'ziqlarga, ko'p xollarda qonun buzilishi migrant ayol ishchilarni xuquqlari poymol bo'lishga olib kelmoqda. Ayollar uy ishlari migrasiyasi oldida qilinishi kerak bo'lgan ishlar ancha ko'pdir. Shunga qaramay uy ishlari migrasiyasi o'sib kelayotgan tarmoq xisoblanadi. Davlatlarni rivojlanishi, xizmat ko'rsatish soxalarini takomillashuvi va tibbiyotni imkoniyatlariga ko'ra axoli o'rtasida uzoq umr ko'rishi va ularni ortib borishi nuqtai

nazardan xam o'sishi mumkin bo'lgan sektor va doimiy ish kuchiga bo'lgan extiyot sezadi. Shuning uchun ushbu mavjud bo'shliqlarni yopish yanada ustuvor vazifalardan biridir.

Dunyo bo'ylab 15 yoshdan katta 75,6 million uy ishi xizmatchi ayollar bo'lib mavjud bo'lib dunyoda ichki ishchilar yirik ish beruvchilar Osiyo va tinch okean xavzasi mintaqalariga to'g'ri keladi. Bu xududlarda er yuzida barcha uy ishi xizmati migrant ayollarning 50% ga yaqini ishlaydi. Amerika qitasida 23 % eng kam ulushi Markaziy Osiyo xududlarga to'g'ri keladi[3].

Ayollar ishi xizmati muxim soxalardan biri bo'lib dunyo bo'yicha bandlik boshqa soxalar bilan solishtirganda 4.5% tashkil etadi shuningdek uy ishi vazifalari og'irligi ko'ra butun dunyo bo'yicha farq qiladi.

Ayollar uy xizmat migrasiyasi umumiy salmog'i xisoblanganda Arab davlatlaridagi xodimlar soni 14.8%, Lotin Amerikasi va Kariib dengizi xavzasida 8.4%, Afrika xududlarda 7.3%, Osiyo va Tinch okeani 4.6% Markaziy Osiyo 1% tashkil qiladi, barcha migrant ayollarni 76.2% uy xizmat ishlarida band bo'lib, bu barcha soxalarda mexnat qiluvchilarini 8.8% ga tengdir. Arab Amirligi va Kariib dengizi xavzasi xududlarda mexnat qilayotgan migrant ayollarning xar uchtasidan biri ushbu soxaga aloqador. Shu o'rinda taqqoslash uchun uy ishlari migrasiyasida 0.9% ni erkaklar tashkil qiladi. Erkaklar orasida eng katta guruxni Arab davlatlarida 23.2 %, Janubiy Osiyo 21.8%, Sharqiy Osiyo 19.1% Shimoliy Afrika 14.2% ega, yana bir jixati erkaklar uy ishlarida ayollardan ko'ra ko'pchilikni tashkil qiladigan xududlarga, Arab davlatlari 63.3%, Janubiy Osiyo 42.6% [4].

Umuman olganda mintada yollar uy ishlari bilan erkaklar yumushi farq qiladi. Erkaklar ayol ishchilar ustidan boshqaruvchi, quriqchi, taminotchi, yuk tashuvchi, uy xayvonlarga qarovchi va boshqa og'ir ishlarini xam bajarish mumkin.

Statistik malumotlarni taxlil qilsak Arab mintaqalarida uy ishchi xizmatchilarni ko'pligiga sabab:

tarixdan bu mintakada podshoxlik amirlik xukm surgan uy ishlarini cho'ri va qullar bajargan. uyda ishchi ishlatish urfga aylangan.

aholini ko'pligi sabab uy ish xizmati soxalarini shakllanishiga va arzon ishchi kuchining mavjudligi tufayli.

Amerika mintaqasi dunyoda ayollar uy ishi migrasiyasi bo'yicha Osiyo va tinch okeani mintaqasidan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Mintaqada 17,6 mln 15 yoshli va undan katta yoshdagi erkaklar va ayollar uy ishchilari sifatida dunyo bo'ylab xisoblaganda 23 foizni tashkil etadi, shu jumladan Braziliyada 6,4 mln, Meksika 2,4 mln, Amerika Qo'shma Shtatlari 1,9 mln kishidan iborat. Mintaqaviy darajada uy ishlarning ulushni 3,7 foizda bo'lsa umumiy bandlikda ulushi 5,1 % ga teng lekin bu ko'rsatkichlar mamlakatlar bo'yicha farqlarlandi Urugvay 7.9 %, Peru 2,4 % va Qo'shma Shtatlar 1,2 foiz. Mintaqada rivojlangan mamlakat Argentinada uy ishchilari soni 980,027 bandlikning yuqori ko'rsatkichi 8,1 foizga ega.

Uy xizmat ishchilar aksariyati Lotin Amerikasi va Karib dengizi xavzasi odamlar uy ishchilari sifatida ishlaydi, uy ishchilarining 19,6 foizini tashkil etadi. Va dunyoning boshqa joylariga qaraganda, uy ishlari asosan ayollarning kasbi bo'lib qolmoqda. Dunyodagi ayol uy ishchilarining 91,1 foizi bo'lgan xududlar xam aynan shu erda joylashgan. Shuningdek ayollar o'rtasida ish bilan taminlanganlik darajasi esa

ayollarning to'qqizdan biri uy ish xizmati bilan band[5].

Osiyo va tinch okean xavzasi mintaqasi: Xozirda dunyodagi eng yirik ishchi salmog'iga ega bo'lgan xududlardan xisoblanib bu erda 38.3 mln uy ishchilari istiqomat qiladi, butun dunyo bo'ylab aynan uy ish xizmati sektorida faoliyat olib borayotganlarni 50.6% shu erga yig'ilgan.

Dunyodagi eng ko'p axoliga esa bo'lgan birgina Xitoyda 22 mln ayol uy ishchi xizmatchi yashaydi. Xindistonda 4.8 mln, Filippinda 2 mln, Bangladeshda 1.5 va Indoneziyada 1.2 mln. Regionda joylashgan davlatlarda axoli zich ishlab chikarish, sanoat korxonolari talaygina shuningdek uy ishi xizmatchiligi boshqa soxa vakillari bilan solishtirganda ularni salmog'i 4.6 % ni tashkil qiladi. Yana bir jixati davlatlar orasida xam ichki va tashqi migrasiya dasturlari bo'lib bu erda ko'rsatilgan miqdor umumiy xolda olingan bu fuqarolar boshqa qitalarda xam ishlaydilar masalan Filippinlik ayol Amerika Evropa va boshqa joyda ishlaydi umumiy xolda Fillippindagi 2 mln ayol ishchi ro'yxatiga kiradi.

Ko'pgina boshqa mintaqalarda bo'lgani kabi bu erda xam uy ishlari asosan ayollar tomonidan bajariladi 78.4%. Osiyo va tinch okeani mintaqasi 8.3 mln erkak uy ishchilari yoki 22% ni tashkil etib, shuningdek uy ishlarida erkaklar ulushi Janubiy Osiyoda yuqori 46.6 mln kishi regionlar orasidagi farq 9.2 % va yana Janubiy-Sharqiy Osiyoda ayollar ulushi 85.9% ga ega[6].

AQSHda: xozirgi kunda uy ish xizmatchi soxasida ishlaydiganlar migrantlar bilan ko'shib xisoblaganda jami 2.2 mln kishini tashkil etadi va jaxonda uy ishchi migrantlar salmog'i bo'yicha Osiyo mintaqasidan keyin ikkinchi o'rinda turadi.

Quyidagi malumotlar mintaka uchun xarakterga ega:

- Uy ishchilarining aksariyati (91,5%) ayollar va yarmidan ko'pi (52,4%) qora tanli, ispan yoki Osiyo Amerikalik va tinch okeani mintaqasidan kelgan migrat ayollaridir.
- Uy ishchilarining aksariyati (64,9%) Aqsh fuqoroliga ega bo'lsada aslida Aqshdan tashqarida tug'ilgan.
- Aqshda tug'ilib uy ishi xizmatida ishlaydiganlar boshqa ishchilarga qaraganda yoshi kattaroq.
- Aqshda uy ishchisiga soatiga o'rtacha 12,01 dollar to'lanadi, bu boshqa ishchilarga qaraganda ancha kam (soatiga 19,97 dollar to'lanadi).
- Ijtimoiy jihatdan o'xshash ishchilar bilan taqqoslaganda ham, uy ishchilari xar har bir dollardan uchun o'rtacha 74 sent kundalik sarf-xarajat uchun ishlatishadi.
- Uy ishchilari boshqa ishchilarga qaraganda qiyinchilikda yashash ehtimoli uch baravar, yoki qashshoqlik chegarasidan yuqori bo'lish ehtimoli deyarli xam uch baravar ko'p, kun kechirish uchun past daromadsiz.
- uy ishchisidan atiga xar o'ntadan bittasi ish beruvchi tomonidan taqdim etilgan pensiya jamg'armasi bilan qoplanadi, va har beshdan biri tibbiy sug'urta qoplamasini oladi[6].

Yuqoridagi rasmdan ko'rinib turibdiki, Amerika shtatlarida uy ishlarida umumiy xolda 91.5% ayollar bandi bo'lib, kasblar bo'yicha bola qarovchi eng ko'p foizni tashkil etadi yani 97.2%. va yana shuni ko'rish mumkinki ayollar va erkaklar salmog'ida barcha ishchilar xisobida 53.7% erkaklar bo'lib ular yuqorida

aytganimizdek qo‘riqchi, shofyor, bog‘bon, xayvonlarga qarovchi va ayrim kasblar bilan shug‘ulanishadi.

Bizga malumki Aqsh axoli orasida migrantlar salmog‘i bo‘yicha jaxonda birinchi o‘rinda turadi yani 50 mln dan ortiq. Shunga ko‘ra 35% dan ortiq uy ishchilari mexnat muxojirlari xisoblanadi. Mamlakatdagi barcha ish o‘rinlaridagi 17% migrant bo‘lib xar 5 ta fuqorodan bittasi migrant xisoblanadi 20.1 %. Xar ettidan fuqorodan biri boshqa davlatda tug‘ilgan va Aqsh pasporti esa bo‘lgan ishchilardir 14.8 %[7].

Malumotlariga ko‘ra fuqoroligi mavjud bo‘lmagan migrant ayollar orasida uy tozalovchi sifatida ishlaydiganlar salmog‘i eng yuqori reytingda yani 50.8% ega, ikkinchi o‘rinlarda umumiy xolda uy ichilari kiradi 20.3%, uchinchi o‘rinda enagalar 16.9%. Mamlakatda ish topib beruvchi mexnat birjalari xam faoliyat ko‘rsatadi va unga to‘g‘ridan-to‘g‘ri murojaat qilib ish topish mumkin. So‘ngi yillarda uy ishchi xizmatchilarga talab ancha ortgan va bu Covid 19 pandemiya paytida ishchilarga bo‘lgan talab eng yuqori xattoki rekord darajaga chiqqan soxalardan xisoblanadi. Mexnat birjalari orqali uy ishchiga yollanganlar 14.2% tashkil etib bu ishchilar uchun xavfsiz va ijtimoiy sug‘urtalarga ega shuningdek qonun doirasida belgilangan tartibda doimiy ravishda ish faoliyat olib borishini taminlaydi[8].

Hulosa, uy ishchi xizmatchi migrantlar asosan janubiy va janubiy- sharqiy osiyo xududlariga to‘g‘ri keladi va xozirgi kunda ayollar uchun eng maqbul kasb xisoblanib, xorijiy tajribalardan foydalanib O‘zbekstonga tadbiiq etish maqsadga muofiqdir. Xukumatimiz tomonidan ishlab chiqarilagan kambag‘allikni qisqartiri doirasida ayollarni shu uy ish ishchi xizmatchi kasbga yo‘naltirsak tillarni o‘rgatak tez kunlarda o‘z samarasini beradi. Qo‘shni davlatlar Rossiya Turkiya va Isroil da juda ko‘p o‘zbek ayollar xozirda qariyalarni parvarishlash ishlarida ishlaydi. Bu soxani davlat siyosati darajasida takomillashtirib ularga xuquqiy va ijtimoiy yordam berishimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://ourworldindata.org/female-labor-supply>
2. Jeanne Batalova. Top Statistics on Global Migration and Migrants JULY 21, 022, https://www.migrationpolicy.org/sites/default/files/source_images/Global_FRS2022-PRINT_FINAL.pdf.
3. https://www.ilo.org/moscow/news/WCMS_885506/langru/index.htm?shared_from=shr-tls (кўрилган ваKT 25.04.24).
4. <https://ilostat.ilo.org/resources/concepts-and-definitions/description-international-labour-migration-statistics/>.(кўрилган ваKT 25.04.24).
5. UNESCO institute for statistics. n.d. total inbound internationally mobile students, both sexes (number) (2019). accessed july 20, 2022. available online.
6. 2020 d. “Making Decent Work a Reality for Domestic Workers”. DIILM Update No. 2 <https://www.ilo.org/wcmsp5/groups/public/>.
7. Domestic Workers Chartbook Report By Julia Wolfe, Jori Kandra, Lora Engdahl, And Heidi Shierholz / Economic Policy Institute) May 14, 2020.
8. Julia Wolfe, “Domestic Workers Are at Risk During the Coronavirus Crisis,” *Working Economics Blog* (Economic Policy Institute), April 8, 2020.

AXBOROT URUSHINING PSIXOLOGIK ASOSLARI

*Raimov Adilbek Matnazarovich –
O‘R QK KMTM kichik Mutaxassislar tayyorlash markazi
Aloqa va axborotlashtirish sikli o‘qituvchisi, QK xizmatchisi*

Annotasiya. Maqolada axborot urushining psixologik jihatlari muhokama qilinadi. Qurolli Kuchlar potentsial dushmanning axborot ta'siri ob'ektiga aylanishi ko'rsatilgan. Shu munosabat bilan qo'mondonlar, shtablar va ta'lim organlarining qo'shinlarni dushmanning psixologik operatsiyalaridan himoya qilish va uning bo'linmalari, shaxsiy tarkibiga axborot-psixologik ta'sir ko'rsatishni mohirona tashkil etishga tayyorligi. Bo'linmalar tomonidan zamonaviy janglarda ularga yuklangan jangovar vazifalarni muvaffaqiyatli hal qilish.

Kalit so'zlar: Psixologik operatsiya, axborot urushi, axborot vositalari, taktik psixologik operatsiyalar.

So'nggi harbiy voqealarda muvaffaqiyatli axborot va psixologik harakatlarni o'tkazish tajribasi shuni ko'rsatadiki, ular yagona reja asosida, vaziyat ob'ektiv ravishda talab qilinadigan darajada amalga oshiriladigan axborot va psixologik ta'sirning yaxlit tizimiga bog'langandagina ularning samaradorligi yuqori bo'ladi. Shu sababli, ekspertlarning fikriga ko'ra, iqtisodiy va harbiy jihatdan eng rivojlangan davlatlarning armiyalari bir vaqtning o'zida bir nechta yo'nalishlarda urush olib borishga tayyorlanmoqda: elektron urush, faol razvedka, qo'shinlar va qurollarni boshqarish va boshqarish tizimlarini tartibsizlashtirish, psixologik operatsiyalar, maxsus dasturiy ta'minot va texnik vositalar, dushmanning axborot resursiga ta'sir qilish.

Odamlarning fikrlarini, ruhiy holatini va harakatlarini boshqarish san'ati Vaviilon, Misr, Xitoy, Qadimgi Yunoniston va Rim ruhoniylari, davlat arboblari va harbiy boshliqlari tomonidan shakllantirilgan, takomillashtirilgan va yashirin qurol sifatida saqlangan.

Keyinchalik, dushmanning psixologik parchalanishi bo'yicha amaliy tavsiyalar A.V. Suvorov, Napoleon va boshqalar, masalan, Napoleon "to'rtta gazeta yuz minglik armiyadan ko'ra ko'proq yovuzlikka olib kelishi mumkin" deb hisoblagan. Shuning uchun uning qo'shini doimiy ravishda 10 mingtagacha bo'lgan dala bosmaxonasiga ega edi.

Siyosiy va harbiy maqsadlarga erishish uchun axborot-psixologik vositalar orqali amalga oshiriladigan, ziddiyatli tomonlarning turli darajadagi qarshiliklarini aks ettiruvchi "axborot-psixologik qarama-qarshilik" eng keng tushunchadir. Ko'rib chiqilayotgan hodisaning bunday keng talqini bizga quyidagi ma'lumotlar va psixologik harakatlarni qamrab olish imkonini beradi:

- a) turli darajalarda (davlatlararo yoki strategik, operativ va taktik);
- b) tinchlik davrida ham, urush davrida ham;
- v) ham axborot, ham ma'naviy sohada;
- d) o'z qo'shinlari orasida ham, dushman qo'shinlari orasida ham.

Harbiy maqsadlarda olib boriladigan axborot-psixologik urush tizimida "axborot

urushi” va “psixologik urush” deb tasniflangan hodisalarni ajratish mumkin.

Axborot urushi deganda tomonlarning o‘z vaqtida, ishonchliligi, ma'lumotlarni olishning to‘liqligi, uni qayta ishlash va ijrochilarga etkazish tezligi va sifati bo‘yicha dushmandan ustunlikka erishish uchun kurashini tushunish mumkin.

O‘z navbatida, psixologik urush - bu bir davlatning maxsus organlarining siyosiy va harbiy maqsadlariga erishish uchun boshqa davlatning tinch aholisiga va (yoki) harbiy xizmatchilariga psixologik ta'sir ko‘rsatadigan faoliyatining mazmuni.

Hozirgi vaqtda dunyoning ko‘pgina mamlakatlarida harbiy maqsadlarga erishishda psixologik operatsiyalarni o‘tkazishning axborot-psixologik vositalari ustuvor hisoblanadi. Ularni ishlab chiqish va amaliyotda qo‘llash uchun muhim moddiy-texnika resurslari, taniqli olimlar, siyosatchilar, madaniyat va san‘at arboblari, yuqori malakali harbiy mutaxassislar jalb etilgan.

Psixologik operatsiyalar tizimidagi axborot va psixologik ta'sirlarga quyidagilar kiradi:

1. Bosma ommaviy axborot vositalari - varaqalar, plakatlar, gazetalar, axborotnomalar va boshqalar, ularni ishlab chiqarish (matbaa bazasi) va tarqatish vositalari.

2. Psixologik operatsiyalarning muhim vositalari radio va televideniya. Bunga stasionar va mobil (avtomobil, samolyot, kema) radio va televideniya markazlari (ham muntazam, ham dushmandan qo‘lga olingan) tegishli eshittirish dasturlari kiradi. Ushbu vositalarning roli, ayniqsa, radio va televideniya qabulqilgichlari bilan to‘yingan hududlarda, shuningdek, savodsiz aholiga eshittirishda ortib bormoqda. Masalan, "Cho‘l qalqoni" va "Cho‘l bo‘roni" operatsiyalari paytida Iroq armiyasining faqat front zonasida mavjud bo‘lgan shaxsiy tarkibi oltita radioeshittirish stantsiyasidan kechayu kunduz efirga uzatildi. Harbiy xizmatchilar va viloyat aholisi o‘rtasida potentsial auditoriyani ko‘paytirish uchun ko‘chmanchilar va aviatsiya yordamida belgilangan chastotali 50 ming kichik o‘lchamli qabul qiluvchilar tarqatildi. Radio va televideniya eshittirishlari bilan bir vaqtda, psixologik operatsiyalar manfaati uchun, odatda, elektron urush uskunalari dushman televideniyesi va radiostansiyalarini bostirish uchun ishlatiladi. Masalan, Iroq davlat radiostantsiyasi "Bag'dod ovozi" mintaqadagi harbiy qarama-qarshilikning butun davri davomida mohiyatan falaj bo‘lgan.

3. Ham ishontirish, ham taklif qilish uchun mo‘ljallangan filmlar, videolar, audio materiallar va video va audio ma'lumotlarning boshqa vositalari. Misol uchun, Fors ko‘rfazi hududidagi harbiy tadbirlarda Iordaniya, Saudiya Arabistoni va boshqa davlatlar aholisi o‘rtasida Saddam Husaynni Iroq xalqining zolim, arab dunyosi birligini buzuvchi shizmatik sifatida aks ettiruvchi materiallar aks etgan videokasetalar tarqatildi. Shu bilan birga, ular Qo‘shma Shtatlarning kuchi va adolatini targ‘ib qiluvchi hikoyalarni o‘z ichiga olgan.

4. Taktik psixologik operatsiyalar doirasida dushmanga axborot-psixologik ta'sir ko‘rsatishning eng samarali vositalaridan biri ovozli eshittirishdir. U ovozli eshittirish stantsiyalari (SB) va ovozni kuchaytirishning boshqa vositalari, shu jumladan jiplar, yuk mashinalari, tanklar, zirhli transport vositalari, vertolyotlar va samolyotlarga o‘rnatilgan portativ vositalar yordamida amalga oshiriladi.

Ovozli eshittirish vositalaridan foydalanish ko‘lami shundan dalolat beradi. Iroq orollaridan birining 2000 ga yaqin kishilik harbiy garnizoni vertolyot bortida

joylashgan ovozi eshittirish stansiyalari yordamida amerikaliklar tomonidan ishlov berilgandan so'ng jangsiz taslim bo'ldi.

5. Amerika qo'shinlarining Bosniya va Gertsegovinadagi tinchlikparvar operatsiyasini axborot-psixologik qo'llab-quvvatlash natijalari kompyuter vositalari va birinchi navbatda, Internet global kompyuter axborot tarmog'ining odamlarga ta'sir ko'rsatish vositasi sifatidagi o'rni ortib borayotganidan dalolat beradi. Shunday qilib, ushbu hududda saylovlarga tayyorgarlik ko'rish jarayonida AQSh mutaxassislari ushbu tizim kanallari orqali Bosniya muammosini hal qilishda AQSh va NATOning ijobiy imidjini yaratishga qaratilgan ma'lumotlarni taqdim etdilar. Internet orqali varaqalar, plakatlar va hatto Talon gazetasini (Amerika harbiy kontingentining rasmiy organi) yuborish faktlari mavjud.

Axborot va psixologik ta'sirning universal kanali sifatida Internetning roli doimiy ravishda oshib boradi, deb taxmin qilish oqilona ko'rinadi. Buni hisobga olgan holda, AQSh razvedka xizmatlari "har holda" dushman kompyuter tarmoqlarini o'chirish uchun hozirda ma'lum bo'lgan dasturiy vositalarning yagona elektron katalogini tuzishni tashkil qildi. Hozirgi vaqtda 8000 dan ortiq kompyuter viruslari, shu jumladan 3000 ga yaqin xavfli viruslar ma'lum. Har oy ularning soni yuzlab birliklarga ko'payadi. Va bularning barchasi, agar xohlasa, axborot urushi manfaatlarida juda samarali ishlatilishi mumkin.

6. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, eng avvalo jangovar zonadagi aholiga ma'lumot va psixologik ta'sir ko'rsatishning juda samarali vositasi - kundalik buyumlar, oziq-ovqat, o'yinchoqlar, sport anjomlari va boshqalar tegishli axborot yordami bilan. Shunday qilib, 1945 yilda Germaniyaga o't qo'yish haqidagi ko'rsatmalari bo'lgan zajigalkalar tashlandi, Koreyada portlovchi qalam va ruchkalar tarqatildi, Vetnamda bir chastotali tranzistorli radiolar, Gaitida beysbol qalpoqlari, sport formalari, futbol to'plari, futbolkalar tarqatildi. Fors ko'rfazi mintaqasida audio kassetalar va futbol to'plari tarqatildi.

7. Psixologik operatsiyalar amaliyotida keng qo'llanilishi mumkin bo'lgan nisbatan yangi psixologik ta'sir vositalari atmosferadagi golografik va tovush effektlarining sintezatorlari (generatorlari) hisoblanadi. Xorijiy OAV xabarlariga ko'ra, bir qator mamlakatlarda bulutlarga turli tasvirlarni proyeksiya qilish imkoniyatiga ega bo'lgan ishlaydigan sun'iy yo'ldoshlarga lazer nurlari majmualarini o'rnatish bo'yicha loyihalar ishlab chiqilmoqda. Ma'lumki, bulutlar yer yuzasidan 60-80 km balandlikda joylashgan ajoyib tabiiy ekrandır. Ularga proyeksiyalangan tasvir 100-150 km masofada aniq ko'rinadi. Bunday holat 1993 yilda Somalida qayd etilgan.

8. Psixologik operatsiyani amalga oshirish jarayonida ko'pincha yordamchi harakatlar kabi dushmanning ruhiy holatini buzishning kuchli vositasi qo'llaniladi. Bularga quyidagilar kiradi: kuch ko'rsatish; qo'shinlarning tayyorgarligi darajasini oshirish yoki ularni "inqiroz" hududlariga o'tkazish; fuqarolik harakati dasturlari; dushmanning "lagerida" fuqarolar itoatsizligi, mitinglar, namoyishlar boshlanishi; dushman hududida ta'lim, qishloq xo'jaligi, tibbiyot sohasidagi dasturlar; kurashning ba'zi usullari.

Xulosa. Shunday qilib, qo'shinlarni (kuchlarni) dushmanning axborot va psixologik ta'siridan himoya qilish ma'naviy-psixologik yordamning ajralmas qismi sifatida tinchlik davrida ham, urush davrida ham amalga oshiriladi. Qo'shinlarni

(kuchlarni) himoya qilish samaradorligiga dushmanning psixologik operatsiyalari xususiyatlarini, shaxsiy tarkibning haqiqiy ma'naviy-psixologik holatini va mavjud vaziyatni har tomonlama hisobga olish, ma'naviy-ruhiy qo'llab-quvvatlash choralarining uzluksizligi va har tomonlama amalga oshirilishi orqali erishiladi. Shuningdek, harbiy xizmatchilar tomonidan tashqi ma'lumotlarni idrok etishning psixologik qonuniyatlarini hisobga olish, qo'shinlar va harbiy qismlarni ta'limning texnik vositalari bilan jihozlash juda muhimdir.

Asosiy sa'y-harakatlar qo'shinlar (kuchlar) joylashtirilgan hududlarda qulay ma'naviy-ruhiy va axborot holatini yaratishga qaratilishi kerak.

Foydalanilgan manbalar ro'yxati:

1. Rossiya Federatsiyasining 2020 yilgacha milliy xavfsizlik strategiyasi. Rossiya Federatsiyasi Prezidentining 2009 yil 12 maydagi 537-son qarori bilan tasdiqlangan. – Novosibirsk: NVVKU, 2009. – 36 b.
2. Axborot-psixologik va psixotronik urush. Umumiy muharrir A.E. Taras ostida. 2003. – 432 b. – (Amaliy psixologiya kutubxonasi).
3. Belgilangan joy 2007 yil No 10. Maqola muallifi A. Kolesnikov.
4. Psixologik urush uslubi va usullari. A.E. Taras. – M.: AST, Mn.: Hosil, 2006. (Komandos).
5. Ilmiy ishlar to'plami. 17-sonli nashr. NVVKU (VI), Novosibirsk 2008., 388 p.

OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARIGA HARBIY TASAVVURLAR SHAKLLANISHINING PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI

*Rajabov Shavkat Shoimovich –
Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti
1-bosqich magistranti*

Shaxs taraqqiyotida harbiy xizmat haqidagi tasavvurlarning shakllanishi keng qamrovli tushuncha bo'lib, shaxsning dunyoqarashi, ob'ekt haqidagi bilimlar tizimi, harbiylikka nisbatan qiziqishlari, motivatsiyasi, ayrim harbiy xislatlarning shakllanishi, harbiy ideallarning mavjudligi, hayotiy va shaxsiy e'tiqodlar shakllanishi doirasida o'rganilishi harbiy psixologiyani qimmatli ma'lumotlar bilan boyitadi.

Tasavvurlar shakllanganligining yuqori darajasi o'spirinlik yoshidan boshlanib, unda borliq haqidagi bilimlar tizimi shakllanadi, muhim hayotiy ahamiyatga ega bo'lgan hodisa va ob'ektlar haqida aniq tasavvurlar mavjud bo'la boradi. Bu tizimda shaxs uchun o'ta muhim elementlar, ma'naviy mag'izlar bo'lib, shaxsning boshqa tasavvurlari ana shu muhim elementlar atrofida uyg'unlashib boradi. Bu daraja tasavvurlar o'zining ob'ektivligi bilan xarakterlanib, ular shakllanish jihatdan ijtimoiy tabiatga ega bo'ladi.

Shunday qilib, harbiy xizmat to'g'risidagi tasavvurlar shaxsning shunday tasavvurlar tizimiki, ular vositasida shaxs "harbiy xizmat" tushunchasi atrofidagi barcha hodisa va ob'ektlarni tushunadi va unga nisbatan ma'lum munosabat (ustanovka)ni shakllantiradi. Ijtimoiy bo'lgani uchun ham ular harbiy hayotning harbiy

munosabatlar, harbiylarning burch va vazifasi, harbiylarga xos fazilatlar hamda harbiylarning tashqi ko'inishi (imiji) haqidagi tasavvurlarini o'z ichiga oladi. Tasavvurlarning shakllanishi shaxsning yo'nalganligi (motivatsiyasi), qiziqishi, hayotiy qadriyatlari va ustanovkalariga bog'liq bo'lib, tasavvurlar shakllanishiga ta'sir etuvchi muhim psixologik mexanizmlar sifatida muhim ahamiyatga ega.

Ijtimoiylashuvning asosiy mahsuli – bu shaxsning hayotda o'z o'rnini topib, jamiyatga manfaat keltiruvchi faoliyatlarda ishtirok etishidir. Shu nuqtai nazaridan olib qaralganda, shaxsning yo'nalganligi (motivatsiyasi) masalasiga ham fanda katta e'tibor beriladi. Ijtimoiylashuv jarayonida shaxs faoliyatini yo'naltirib turadigan va real vaziyatlarga nisbatan turg'un, barqaror motivlar majmuiga ega bo'lishlik shaxsning yo'nalganligini belgilaydi. Yo'nalganlikning eng muhim tarkibiy qismlarini oldinga qo'yilgan maqsadlar, ideallar, qiziqish, mas'uliyat, e'tiqod, dunyoqarash va ustanovkalar tashkil etadi-ki, bularning barchasi shaxsning tasavvurlarini kengaytirishga, ma'no va mazmun jihatdan boyitishga yordam beradi.

Demak, shaxsning harbiy xizmat to'g'risidagi tasavvurlari – ularning ustuvor ehtiyojlari, harbiy-ijtimoiy qadriyatlari (harbiy xizmatdagi mavjud qonun-qoidalar, tartib-intizom va axloqiy me'yorlarga hurmat) va ustanovkalari (harbiy xizmatga bo'lgan munosabati), harbiy sohaga bo'lgan qiziqishlari (sevgan mashg'uloti va sohasi bilan shug'ullanishi, qiziqishlarining kuchlilik va barqarorlik darajasi) hamda harbiy ideallari (harbiy askar timsoli, g'oyaviy timsol, harbiy xulq-atvor timsoli, yurt qahramoni timsoli va hokazo timsollarga intilishi)ga bevosita bog'liqdir.

Ijtimoiylashuv jarayonida shaxsning tasavvurlarini shakllanishiga ta'sir etuvchi yo'nalishlardan biri maqsad va mas'uliyatdir. Ular shaxs kelajagini bashorat qilish, uzoq va yaqiniga mo'ljallangan rejalarini amalga oshirishga tayyorgarlikni ta'minlaydi. Maqsadlar doimo o'zining anglanganligi va shaxs real imkoniyatlariga bog'liqligi bilan birga shaxsning ob'ektga nisbatan tasavvurlar tizimini ham belgilaydi. Mas'uliyat – shaxsning tasavvuriga asoslanadi hamda uning maqsad va vazifalarini amalga oshirishda psixologik vosita bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, o'spirinlarning vatan oldidagi burch va vazifalarini bajarishga bo'lgan mas'ulligi va ma'naviy yetukligini belgilovchi muhim ko'rsatgichlardan biri sanaladi. Oxirgi yillarda psixologiyada nazorat lokusi nazariyasi keng tarqaldi-ki, unga ko'ra, har bir insonda ikki tipli mas'uliyat kuzatiladi. Birinchi tipli mas'uliyat shundayki, shaxs o'zining hayotida ro'y berayotgan barcha hodisalarning sababchisi, mas'uli sifatida faqat o'zini tan oladi. Masalan, Vatanni turli yot unsurlardan himoya qilish, yurt ravnaqi va jamiyat rivoji uchun qaysi sohada bo'lmasin, o'z hissasini qo'shishga harakat qilish mas'uliyatli insonning ishidir. Ma'lumki, har qanday davrda Vatanni himoya qilish uchun birgalikda qilingan harakat muvaffaqiyatli bo'lgan, aksincha ayrim kishilarning sotqinligi, faqat o'zini o'ylashi, mas'uliyatsizligi tufayli davlat ham, jamiyat ham jabr ko'rgan. Mas'uliyatlilikning ikkinchi turi undan farqli, barcha ro'y bergan va beradigan voqea, xodisalarning sababchisini tashqi omillar, ya'ni boshqalardan qidiradi.

Xorijiy mamlakatlarda o'tkazilgan tadqiqotlarning ko'rsatishicha, ikkinchi turli mas'uliyat ko'proq o'smirlarga xos bo'lib, ularning 84 foizi mas'uliyatni faqat boshqalarga yuklashga moyil ekanlar. Bu ma'lum ma'noda yoshlar o'rtasida mas'uliyatsizlik avj olganidandir. Shuning uchun ham "nazorat lokusi" tushunchasini fanga kiritgan amerikalik olim J. Rotterning fikricha, mas'uliyatni o'z bo'yiga

olishga o'rgatilgan bolalarda xavotirlik, neyrotizm, konformizm holatlari kam uchrarkan. Demak, mas'uliyatli o'spirinlar tayyor, faol va mustaqil fikr yurituvchilar sifatida harbiy ijtimoiy hayotga kiradilar. Ularda o'z-o'zini hurmat qilish hissi yuqori bo'lib, bu faoliyatda ham yaqqol ko'rinadi. Ayniqsa, harbiy faoliyatda mas'uliyat muhim ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Shuning uchun ijtimoiylashuvning muhim bosqichi kechadigan ta'lim muassasalarida yoshlarga ko'proq tashabbus ko'rsatish va mustaqil fikrlashga o'rgatish lozim.

Tasavvurlarning shakllanishi va ongda o'rnashishida ma'lum ma'noda ideallar ham rol o'ynaydi. Ideal – insonning o'zini hamda o'zgalarni qanday ko'rishni istashi to'g'risidagi tasavvurlaridir. Ideal ko'pincha xulq-atvor xususiyatlarining majmui sifatida namoyon bo'ladi. Ideallarning mavjudligi odam xulq-atvorining motivlashuvini aniqlashtiradi. Bundan tashqari ideallar – shaxsning hozirgi real imkoniyatlari chegarasidan tashqaridagi orzu-umidlari, ular ongida bor, lekin har doim ham amalga oshmaydi. Chunki, ularning paydo bo'lishiga sabab bevosita tashqi muhit bo'lib, o'sha ideallar ob'ekti shaxs imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga turtki bo'lishi mumkin. Masalan, bola idrokida shakllangan va idealga aylangan harbiy askar timsoli uni kelajakda ko'p imkoniyatlarga erishishiga, yetuk Vatan himoyachisi va yurtning koriga yaraydigan farzand bo'lishiga sabab bo'ladi. Bu orzuga yaqin kelajakda erishib bo'lmaydi, lekin aynan ana shunday ideallar odamga maqsadlar qo'yib, unga erishish yo'lidagi qiyinchiliklarni yengishga, irodasini safarbar qilishga yordam beradi.

Tasavvurlarni shakllanishiga ta'sir etuvchi psixologik mexanizmlardan yana biri shaxsning ob'ektga nisbatan qiziqishidir. O'spirinlarning askar bo'lish va harbiy sohaga bo'lgan qiziqishlari – faoliyatga nisbatan to'g'ri mo'ljal olishga, harbiy yo'nalishdagi yangi faktlar bilan tanishishga (qiziqish doirasidagi yangiliklar bilan tanishishga) va voqelikni chuqur anglashga yordam beruvchi motiv sifatida namoyon bo'ladi. Qiziqish sub'ektiv tarzda ob'ektni chuqurroq bilib olish istagida namoyon bo'ladi.

Qiziqishlar ham anglangan motivlardan biri bo'lib, ular shaxsni atrofida ro'y berayotgan barcha hodisalar, olamlar, ularning o'zaro munosabatlari, yangiliklar borasida faktlar to'plash, ularni o'rganishga imkon beruvchi omillardir. Qiziqishlar mazmunan keng yoki tor, maqsad jihatidan professional, bevosita yoki bilvosita bo'lishi, vaqt tomonidan barqaror, doimiy yoki vaqtinchalik bo'lishi mumkin. Qiziqishlarning eng muhim tomoni shundaki, shaxs dunyoqarashi, e'tiqodi va tasavvurlarini shakllantirishga asos bo'ladi. Chunki, e'tiqod shaxsning shunday ongli yo'nalishiki, unga qarashlari, prinsiplari va dunyoqarashiga mos tarzda yashash imkonini beradi. Xalq doim e'tiqodli insonni hurmat qiladi. E'tiqodning predmeti turlicha bo'lishi mumkin – vatanga e'tiqod, dinga, fanga, kasbga, axloqiy normalarga, oilaga, go'zallikka va shunga o'xshash.

Harbiylarga va harbiy sohaga bo'lgan e'tiqod va qiziqishlar o'spirinlarda harbiy dunyoqarashni shakllantiradi. Dunyoqarash – tartibga solingan, yaxlit ongli tizimga aylantirilgan bilim, tasavvurlar va g'oyalar majmui bo'lib, shaxsni ma'lum bir qolipda o'z shaxsiy qiyofasiga ega tarzda jamiyatda munosib o'rin egallashga chorlaydi. Mustaqillik davrida shakllanayotgan yangicha dunyoqarash yoshlarda Vatanga sadoqatni, milliy qadriyatlar, an'analarni e'zozlashni va tanlagan yo'lga – kasbi, maslagi va e'tiqodiga sadoqatlilikni nazarda tutadi. Yangicha fikrlash va yangicha

tafakkur aynan mustaqillik mafkurasi ruhida tarbiya topib, sayqal topgan milliy ong, dunyoqarash va e'tiqoddir.

Shaxsning harbiy xizmatdagi xulqi va o'zini qanday tutishi, u yerdagi mavqei sababsiz, o'z-o'zidan ro'y bermaydi, balki biz yuqorida tanishib chiqqan psixologik holatlar ta'sirida yuzaga keladi. Chaqiriluvchilarning harbiy xizmatda ofitserlar va safdoshlari orasidagi xulqi va o'zini tutish sabablarining muhim ahamiyatga ega bo'lgan ikki jihati farqlanadi: a) ichki sabablar, ya'ni xatti-harakat egasining sub'ektiv psixologik xususiyatlari nazarda tutiladi (motivlar, ehtiyojlar, maqsadlar, mo'ljallar, istaklar, qiziqishlar va hokozolar); b) tashqi sabablar – harbiy faoliyatdagi shart-sharoitlar va holatlar. Ya'ni, bular ayni konkret holatlarni kelib chiqishiga sabab bo'ladigan tashqi stimullardir.

Shaxs xulq-atvorini ichkaridan, ichki psixologik sabablar tufayli boshqarish odatda shaxsiy dispozitsiyalar ham deb ataladi. Ular shaxs tomonidan anglanishi yoki anglanmasligi ham mumkin. Ya'ni, ba'zan shunday bo'ladiki, shaxs o'zi amalga oshirgan ishi yoki o'zidagi o'zgarishlarga nisbatan shakllangan munosabatlarning haqiqiy sabablarini o'zi tushunib yetmaydi, Masalan, ba'zi o'spirinlarning armiyaga borishni xohlamagani holda, harbiylik kasbini tanlashga bo'lgan ehtiyoji kuchli. Buning sababini ularning o'zlari ham chuqur ma'noda tushuntirib bera olmaydi. Bu anglanmagan dispozitsiyalar yoki ustanovkalar deb ataladi. Agar shaxs harbiylik kasbiga ongli tarzda qiziqib, uning barcha sir-asrorlarini egallash uchun astoydil harakat qilsa, bunda vaziyat boshqacharoq bo'ladi, ya'ni, dispozitsiya anglangan, ongli hisoblanadi.

Shu nuqtai nazardan motiv – konkretroq tushuncha bo'lib, u shaxsdagi u yoki bu xulq-atvorga nisbatan turgan moyillik, hozirlikni tushuntirib beruvchi sababni nazarda tutadi. Mashhur nemis olimi Kurt Levin motivlar muammosi, ayniqsa, shaxsdagi xulq motivlari borasida keng qamrovli tadqiqotlar olib borib, shu narsani aniqlaganki, har bir odam o'ziga xos tarzda u yoki bu vaziyatni idrok qilish va baholashga moyil bo'ladi. Shunisi ajablanarliki, o'sha konkret vaziyat xususidagi turli shaxslarning baholari ham turlicha bo'ladi. Bundan tashqari, bir shaxsning o'zi ham o'zidagi holat, kayfiyatga bog'liq holda bir xil vaziyatni alohida hollarda turlicha idrok qilishga moyil bo'larkan. Shuning uchun ham odamning ayni paytdagi real harakatlarni o'sha ma'lum sharoitdagi ichki va tashqi stimullarga uning bergan bahosi yoki reaksiyasi sifatida qaramay, balki unda shunga o'xshash holatlarni idrok qilishga ichki bir hozirlik – dispozitsiyaning mavjudligi bilan tushuntirish to'g'riroq bo'ladi. Shu ma'noda shaxs xulqining motivatsiyasi turli sharoitlarda orttirilgan tajribaga tayangan, ongli tahlillar, hattoki, ijtimoiy tajriba me'yorlari ta'sirida shakllanadigan sabablar yaxlitligini o'z ichiga oladi. Masalan, harbiy xizmatga chaqiriluvchilarda harbiy xizmat jarayoni juda qiyin mashqlardan iborat va tartib intizomga qat'iy amal qilish, komandirlarning buyruqlarini so'zsiz bajarish kabi tushunchalar ustuvor bo'lsa, ularda harbiy xizmatga nisbatan xuddi shunday ustanovka shakllanadi. Bu motivatsiya ko'pchilik harbiy xizmatga chaqiriluvchilarda uchraydigan holat. Endi konkret shaxsning harbiy xizmat jarayoniga bo'lgan munosabatida bu faoliyat ham boshqa faoliyatlar qatori tinimsiz izlanishlarni va jiddiy tayyorlanishni talab qilsa, boshqasi uchun (dangasa, jismoniy kuchsiz, o'ziga ishonchi past chaqiriluvchi uchun) bundan qiyin faoliyat yo'q va u harbiy xizmatga bormaslikni yoki xizmatni tezroq tugashini ma'qul ko'radi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2023. –
2. O'zbekiston Respublikasining “Mudofaa to'g'risida”gi Qonuni O'zbekiston Respublikasi Qonunlari. – T.: Adolat, 436-11-son. 2002.
3. O'zbekiston Respublikasining “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida”gi Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Qonunlari. – T.: Adolat, 436-11-son. 2002. – 5 b.
4. O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi. – T.: Adolat, 1998.
6. Baratov Sh. O'quvchi shaxsini o'rganish usullari. – T.: O'qituvchi, 1995. – 52 b.

KASBIY TA'LIMNING INTEGRATIV MAKRO MUHITIDA DUAL TA'LIMDAN FOYDALANISH

*Raximova Malika Avazovna –
IIV Samarqand akademik litseyi Tillarni o'rganish
kafedrasi o'qituvchisi*

***Annotatsiya:** Maqolada integrativ makromuhitda dual ta'limning nazariy jihati asosida uning ahamiyati yoritilgan. Ta'limning integrativ makromuhiti integrativlik, diskretlik, nasl-nasab, yaxlitlik, o'zgaruvchanlik, intensivlik xususiyatlari bilan tavsiflanadi.*

***Kalit so'zlar:** dual ta'lim, kasbiy ta'lim, interaktiv, tarkibiy-funksional, resurs, intensivlik, texnik resurslar, axborot-ta'lim resurslari, ilmiy-uslubiy resurslar.*

Dual ta'lim nima? U standart o'qitish tamoyillaridan qanday farq qiladi? Ushbu ta'lim jarayonining qanday ijobiy tomonlari bor va nega ko'pchilik mamlakatlar uchun bu ta'lim namunali hisoblanadi? Shunday savollar, birinchi navbatda, bugungi kunda mamlakatimizda joriy etilayotgan kasb-hunar ta'limi tizimidagi yangi o'qitish standartlari haqida so'z borganda yuzaga keladi.

Demak, dual ta'lim tizimining asoschisi hisoblanadi. Xozir bu davlat tajribasi nafaqat Yevropa Ittifoqi, balki boshqa davlatlar uchun ham namuna. Germaniya kasb-hunar ta'limi rivojlangan murabbiylik instituti, amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim va kadrlar tayyorlashda biznesning faol ishtiroki bilan tavsiflanadi. Masalan, kasbiy ta'limning dual tizimi sifatida ma'lum bo'lgan Germaniya ko'sh ta'lim tizimi noyob bo'lib, boshqa mamlakatlar ta'lim tizimlaridan ustuvor jihatlari bilan farqlanadi. Mana bir necha asosiy farqlar: dual tizim Germaniya kasb-hunar ta'limining markaziy unsuri bo'lib, «dual» deb nomlanadi, chunki o'qitish ikki joyda – korxonada va kasb-hunar bilim yurtida olib boriladi.

O'qish muddati ikki yildan uch yarim yilgacha. Palatalar tomonidan o'tkaziladigan bitiruv imtihoni ta'limni yakunlaydi va o'quvchilar o'qishni muvaffaqiyatli tamomlaganliklarini tasdiqlovchi sertifikat oladilar. Germaniyada kasb-hunar ta'limining dual tizimi asosini tashkil etuvchi amaliyot va nazariyaning uyg'unligi katta muvaffaqiyat qozongan va xalqaro miqyosda e'tirof etilgan.

Muvaffaqiyatning asosiy omillaridan biri ta'lim muassasalari va korxonalar

o'rtasidagi xamkorlikdir: ikki tomonlama tizimda kasb-xunar maktablari va xususiy kompaniyalar urtasidagi yaqin xam - korlik muxim rol o'ynaydi. Ta'limni dualizatsiyalash jarayonlari axborot va globallashtirish ta'sirida qo'shilish tendentsiyasi bilan ajralib turadigan zamonaviy ta'lim muhitlarida amalga oshiriladi, bu esa "kasbiy ta'limning integrativ makro muhiti" tushunchasini joriy etishni shart qiladi. Bu turli darajadagi tashkiliy va funktsional bog'liqlikka ega bo'lgan ta'lim muhitining o'zgaruvchan kasbiy rivojlanish resurslarining kombinatsiyasi sifatida tashkil etilgan muhitdir.

Ta'lim tizimining integrativ makro muhitining kontseptual modeli integratsiya darajalarini, muhitning tarkibiy qismlari va xususiyatlarini, pedagogning o'z-o'zini rivojlantirishdagi vazifalarini, shuningdek, malaka oshirishning turli resurslarini o'z ichiga oladi. Ko'rib chiqilayotgan kontseptual modelning o'ziga xos xususiyati uning uslubiy, tarkibiy-funktsional va mazmuniy darajadagi integratsiyalashuv g'oyasidir.

Kasbiy ta'limning makro muhiti uslubiy darajasining asosini tizimli, sinergik, ekologik, shaxs-faoliyat, ekologik-psixologik va kompetentsiya yondashuvlarining sintezi tashkil etadi.

Ma'lumki, sintezlash deganda ko'rsatilgan metodologik yondashuvlar tamoyillarini umumlashtirish va ularni birlikka keltirish tushuniladi, ya'ni:

alohida ta'lim tashkilotlari va ularning tarkibiy bo'linmalarining mikromuhiti;
umumiy, kasbiy va qo'shimcha ta'lim muhiti;

ochiq global tizim sifatida makro muhit, uning quyi tizimlari axborot va resurslar almashinuvi orqali bir-biri bilan o'zaro ta'sir qiladi va integratsiya jarayonlari ta'sirida o'zgaradi.

Zamonaviy makro muhit umumiy, kasbiy va qo'shimcha ta'limning ta'lim resurslarini birlashtiradi. Ajratilgan quyi tizimlar o'zlarining funktsional maqsadlari doirasida ishlaydi. Mavjud ichki aloqalar integral ta'lim muhiti tizimlari va resurslarini bir butunga birlashtiradi.

Integratsiyaning mazmuniy darajasi turli xil kasbiy rivojlanish resurslarining kombinatsiyasi sifatida tashkil etilgan bo'lib, ular o'rtasidagi aloqalar va munosabatlar hamkorlik xarakteriga ega. Ushbu manbalar ketma-ket islohotlar yordamida kerakli dual ta'limni olish imkonini beradi.

Kasbiy ta'limning integrativ makro muhitining o'zgaruvchan malaka oshirish resurslari tasnifi dasturiy-texnik, axborot-ta'lim, ijtimoiy-kommunikativ va ilmiy-uslubiy resurslarni o'z ichiga oladi. Quyida taklif etilayotgan tasniflarning asosi funktsional simptom bo'lib, u dual ta'limda resurslarning ahamiyati va o'rnini belgilaydi:

1. Kasbiy ta'limning integrativ makro muhitining dasturiy-texnik resurslari ta'lim jarayonini va uni avtomatlashtirishni, shuningdek, atrof-muhitning axborot-texnika infratuzilmasini uzluksiz rivojlantirishni ta'minlovchi bir-biriga mos keluvchi texnik va dasturiy vositalar majmuasidir.

2. Axborot-ta'lim resurslariga yagona ta'lim muhiti resurslari - qidiruv va ma'lumot tizimlari, ta'lim portallari, elektron kutubxonalar, trenerlar, o'quv dasturlari, multimedia vositalari va boshqa elektron resurslar kiradi.

3. Ijtimoiy - kommunikativ resurslar ta'lim tarmog'ini yaratadi, telekommunikatsiya resurslari va tarmoq jamoalarini birlashtiradi, bu resurslar ta'lim

jarayoni ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro harakatlarga yo'naltiriladi.

4. Ilmiy-uslubiy resurslar ilmiy-amaliy konferentsiyalar, simpoziumlar, seminarlarda qatnashish hamda masofadan turib malaka oshirish imkoniyatini beradi.

Kasbiy ta'limning integral makro muhitida moddiy-texnikaviy, mazmun-metodik va ijtimoiy-kommunikativ komponentlar ajralib turadi.

Moddiy-texnikaviy komponent - bu ob'ektlar va atrof-muhitning moddiy sharoitlari yig'indisidir. Tarkib-uslubiy komponent o'z ichiga ta'limning dualizatsiyasi uchun sharoit yaratadigan texnologik mexanizmlarni o'z ichiga oladi.

Ijtimoiy-kommunikativ komponent o'quv jarayoni sub'ektlarining o'zaro ta'sirini va dual ta'limni tashkil etishning boshqaruv jihatlarini belgilaydi:

1. Integrativlik muhitning eng muhim xususiyati sifatida uning bir-birini to'ldiruvchi ko'p o'lchovlilik va yaxlitligini belgilaydi. Integrativ makro muhitning xususiyatlari uni tashkil etuvchi alohida komponentlarning xususiyatlari bilan belgilanmaydi. Muayyan vaziyatda makro muhit paydo bo'ladigan xususiyat yoki tizim effekti bilan tavsiflanadi, bunda uning alohida elementlariga xos bo'lmagan xususiyatlar tizimda paydo bo'ladi.

2. Diskretlik – makromuhit turli xil ta'lim mikromuhitlari (alohida pedagoglar, sinflar, ta'lim muassasalari va boshqalar) bilan ifodalanadi, shu ma'noda alohida qismlardan tashkil topgan integral makro muhit diskretidir.

3. Genealogiya elementlarning pastdan yuqoriga konstruktsiyasi sifatidagi global vakillikdagi mikromuhit, mezomuhit va makromuhitning subordinatsiyalangan o'zaro ta'siri darajalarida namoyon bo'ladi.

4. Yaxlitlik – integrativ makromuhit uning alohida qismlarining (mikromuhitlarning) oddiy yig'indisi hisoblanmaydi, u yaxlitligi tarkibiy elementlar orasidagi ichki bog'lanishlar bilan belgilanadigan tizim sifatida qaraladi.

5. O'zgaruvchanlik – integrativ makro muhit talabalarga yuqori darajadagi professionallik, o'z-o'zini anglash va jamoatchilik e'tirofiga erishish uchun individual rivojlanish trayektoriyalarini qurish uchun muqobil kasbiy rivojlanish imkoniyatlari majmuasini taqdim etadi.

6. Intensivlik - bu muhitning malaka oshirish resurslari bilan to'yinganligi, kasbiy ta'limning integral makro muhiti sharoitlari, ta'siri va imkoniyatlarining namoyon bo'lishining jamlanishi.

Kasbiy ta'limning integrativ makro muhiti ko'p o'lchovli va tartibga solinadigan kenglik va erkinlikning yangi darajasi sifatida paydo bo'ladi, bu dual ta'lim sifatini sezilarli darajada oshirish imkonini beradi.

Kasbiy ta'limning integrativ makro muhiti sharoitida dual ta'lim uzluksizlik, yaxlitlik, tizimlilik, o'zgaruvchanlik, muhitni resurslar bilan ta'minlash tamoyillarini amalga oshirishga asoslanadi. Bunday holda, tizimni shakllantirish printsiipi - bu insonning butun hayoti davomida rivojlanishini ko'rib chiqishga imkon beradigan uzluksizlik printsiipidir.

Xulosa sifatida shu aytish joizki, kasbiy ta'limning integral makro muhiti ta'limni ikki tomonlamalashtirish jarayoniga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 29 martdagi

“Professional ta'lim tizimida dual ta'limni tashkil etish chora-tadbirlari haqida”gi 163-son Qarori;

2. Рогов Е.И. Настольная книга практического психолога и образование. Учеб. пособие. – М.: Владос, 1995. – 529 с.

3. Рогов Е.И. Настольная книга практического психолога: Учеб. Пособие, В 2кн – М.: Гуманитар. Изд. Центр Владос, 2000. – 486 с.

4. Aleksey Kobilev. Dual ta'limga o'tish masalalari. M.: - 2012.01.04

5. Azizxo'jaeva N.N. O'qituvchi tayyorlashning pedagogik texnologiyasi. –Т.: Nizomiy nomli TDPU, 2000. – 52 b.

6. Turamuratov, U. (2022). O'qituvchi-psixolog faoliyatida zamonaviy texnologiyalar. *Academicia: Xalqaro multidisipliner tadqiqot jurnali*, 12(2), 375-379.

7. Артикова, К. К., & Артикова, М. К. (2023). Касбий компетентликда креатив сифатларни шакллантириш. *Interpretation and researches*, 2(1).

8. Артикова, К. К. (2016). Особенности профессионального самоопределения в классах с профильным обучением. *Вестник современной науки*, (2-2), 67-70.

SHAXSNING NOANIQ VAZIYATLARDA QAROR QABUL QILISHINING IJTIMOYI PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI

*Rizakulova S.I. – O‘zbekiston-Finlandiya
Pedagogik Instituti Psixologiya kafedrasida o‘qituvchisi*

Jahonda bugungi globalashgan notinch va tahlikali murakkab zamonda shaxslararo munosabatlarda, shaxsning noaniq vaziyatlarda qaror qabul qilishning ijtimoiy psixologik mexanizmlarini, psixologik tahdidilarga nisbatan immunitetni shakllantirish, shaxslarni noaniq vaziyatlarda ruhiy va jismoniy rivojlantirish eng ustuvor vazifalaridan bo‘lib qolmoqda.

Shaxsning noaniq vaziyatlarda qaror qabul qilish asosiy jihatlardan biri, vaziyatning noaniqligidir.

Qaror qabul qilish darajalari. Qaror qabul qilishning to‘rtta darajasi farqlanib, ularning har biri doirasida harakat qilish uchun ma‘lum boshqaruv malakalrni talab etiladi.

Odatiy qarorlar ma‘lum reja bo‘yicha amalga oshuvchi kundalik dastur asosida qabul qilinadi.

Paydo bo‘lgan muammo mavjud yechimlar majmuasi bilan qiyoslanadi, ular ichida maquli qabul qilinadi va amalga oshiriladi. Odatiy hollarda “mana bunday vaziyatda, mana bunday qilish kerak” qabulida ish tutiladi. Va aynan shu uslub o‘rta va quyi bo‘g‘in menejerlariga xos asosiy qaror qabul qilish shakliga aylanadi.

Bunday vaziyatdagi qiyinchiliklar menejning malakasizligi, mavjud yo‘riqnomalarni yaxshi bilmaslik, vaziyatni noto‘g‘ri baholash yoki shaxsning jur‘atsizligi asosida kelib chiqishi mumkin. Vaziyatni to‘g‘ri idrok etuvchi va maqul xulosalar chiqaruvchi hamda natijalarni nazorat qila olish qobiliyatiga ega bo‘lgan menejer ushbu vaziyat uchun uzukga ko‘z qo‘ganday bo‘ladi. Qaror qabul qilishning bu darajada ijodiy yondashuvi talab etilmaydi.

Tanlovga asoslangan darajada shaxs mavjud mummo bo'yicha qator imkoniyatlarni taqoslash ko'riladi va ular ichidan aynan shu muammo yechimiga eng mos keluvchi samarali va tejamlisi ustida to'xtaladi.

Moslashuvchan darajadagi qaror qabul qilish bir muncha murakkab bo'lib, bunda shaxs tanish maummoga yangicha yechim toppish talab etiladi. Bunda u mavjud muammoga eskicha yondashishdan voz kechishi va ijodiy qarorga kelishi lozim. Ayni sharoitda shaxs muvaffaqiyati, uning shaxsiy tashabbusi va noma'lumlikga shaxdam qadam qo'ya olishi bilan asoslanadi.

Innovatsion, yani yangiliklarni joriy etish bilan bog'liq qarorlar ancha murakkab hisoblanadi. Noaniq vaziyatda shaxsning yangicha yondashuv uslublaridan, boshqa mutaxassislarning ijodiy g'oyalaridan foydalana olishi talab etiladi.

Shaxsga ayni muammo yechimi nimada ifodalanishini, qay shakilda namoyon bo'lishini qisman bo'lsa ham oldindan tasavur etish imkoniyatini beradi. Bu esa tanlangan yo'l qanchalik to'g'ri yoki noto'g'riligi haqidagi ma'lumot bilan birga, zarur bo'lgan taqdirda harakat uslubini o'zgartirishga asos yaratadi. Harqalay, qarorning o'y'lab qabul qilinganligi uni biron-bir toifaga kiritishdan va natijani qisman bo'lsa ham oldindan tasvvur etgan holda talabdagi namuna bilan taqqoslashdan iboratdir.

Qaror qabul qilish bosqichlari. Umuman olganda, boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayoni aniq bir doira ichida o'tishi qiyin.

Har bir shaxs o'z psixologik xususiyatidan kelib chiqn holda muammo yechimiga turli uslub va moyillikni namoyon etadi. Mana shu omillar mavjud muammo yechimiga o'z ta'sirini o'tkazmay qo'ymaydi.

Qaror yaratilishi davomida shaxs o'z ichki dunyosida sodir bo'layotgan jarayonlarni bilishi, ushbu holatni maqsadga muvofiq ravishda boshqarish imkonini beradi.

Shu bois qaror qabul qilish amallarini bosqichma-bosqich tahlil etish lozim, deb topiladi. Quyida mana shu bosqichlarning asosiy tavsiflari beriladi. Boshqaruv qarorlarini qabul qilish ko'p qirrali va murakkab jarayon bo'lib, unda asosiy beshta bosqichni sharhlab o'tish mumkin:

- 1 – muammoni o'rganish;
- 2 – g'oyalar ishlab chiqish;
- 3 – ma'qul keluvchi g'oyalarni ajratib olish;
- 4 – yangilikni joriy etishni rejalashtirish;
- 5 – qayta aloqa va tahlil.

Endi sanab o'tilgan har bir bosqichni ko'rib chiqsak. Qaror qabul qilishning birinchi «Muammoni o'rganish» bosqichida ham quyidagi ketma-ket vazifalar belgilanadi:

1 – vazifa: «Muammoni qo'yish» deb atalib, unda ushbu masala bo'yicha qanday qiyinchiliklar borligi aniqlanadi va muammoning mazmuni tushuniladi. Agar hal qilinishi lozim bo'lgan muammo noto'g'ri tushunilsa, hamma bo'lajak harakatlar va moliyaviy xarajatlar zoe ketadi, shuning uchun ham muammoni aniq tasavvur etib olish boshlang'ich bosqichning asosiy vazifasidir. Ko'p hollarda masalani noto'g'ri aks ettirishga malakasizlik, kasbiy bilimning kamligi, shuningdek, mazkur toifadagi masalalarni hal eta olishga tayyor emaslik, hamda ba'zi bir muammo va yechimlarning

«yuqoridan tushirilganligi» sabab bo`lishi mumkin. Muammoni qo`yish quyidagi harakatlarni o`z ichiga oladi:

1. Muammo tabiatini, undagi qiyinchilikni anglash.
2. Muammo yechimi orqali qanday maqsadga erishish lozimligini aniqlash.
3. Maqsadga erishilgan taqdirda qanday belgilar, ko`rsatkichlar mavjud bo`lishini aniqlab olish.

Oxirgi natija nimadan iborat bo`lishi kerak, degan savolga javob olinishi lozim.

2 – vazifa: Majburiyatlarni taqsimlash. Shaxs doimo hamma muammolarni o`zi hal eta olmaydi, shuning uchun ham bu bosqichda u ba`zi-bir majburiyatlarni malakali mutaxassis ixtiyoriga topshirgani ma`qul. Mutaxassis, bu bosqichda, mazkur muammo yuzasidan barcha ma`lumotlarni yig`ish va masalani har tomonlama o`rganish bilan shug`ullanadi.

3 – vazifa: ma`lumotlar yig`ish, muammoli vaziyatning informatsion modelini yaratish. Bunda nafaqat «o`zining» ma`lumotlari, balki, muxoliflar, raqobatdosh tomonlarning ham ma`lumotini hisobga olish lozim. Ba`zi bir paytda muxoliflar, ular bergan ma`lumot kamsitiladi, inkor etiladi va unga e`tibor berilmaydi. Bu esa mutlaqo xatodir. Ma`lumot yig`ishda unga mas`ul shaxs, ushbu muammo yuzasidan chuqur bilimga ega ekspertlar fikrini o`rganishi o`ta muhimdir.

4 – vazifa: muammoli vaziyatning konseptual modelini yaratish, mazkur muammoni bir butun, yaxlit tarzda tushunish. Muammo bu tarzda aks ettirilganda, uning avvalgi muammolardan farqi, uning yangi jihatlari va yechimga yangicha yondoshish zarurati anglanadi.

II - bosqich - G`oya yaratish. Masala yechimiga oid g`oyani yaratishning turli usullari bo`lib, ular ichida eng samaralisi «aqliy hujum» uslubidir. Bu uslubning asosiy tamoyillari quyidagilar:

- turli kasbga mansub 5-10 ta mutaxassislardan iborat guruh ishlaydi;
- ushbu guruh a`zolari iloji boricha ruhiy va jismoniy jihatdan o`zlarini erkin sezishlari lozim;
- yechimga oid taklif etilayotgan g`oyalarni tanqid qilish ta`qiqlanadi. Boshqalar berayotgan g`oyani faqatgina rivojlantirish, maqtash mumkin yoki uning o`rniga o`z g`oyasini taklif etish lozim;
- har qaysi g`oya, garchand u g`aroyib va ma`qul kelmasligiga qaramay «aqliy hujum»ning boshlang`ich davrida unga baho berilmaydi va hamma fikrlar yozib boriladi;
- g`oya muallifi ko`rsatilmaydi;
- ish tugagandan so`ng hamma taklif etilgan g`oyalar mantiqiy tarzda tartibga keltiriladi va ekspertlardan iborat guruhda muhokama etiladi.

III – bosqich: Yig`ilgan g`oyalarni baholash, maqbul fikrlarni saralash. Avvaliga har bir g`oyaning ijobiy tomonini baholab chiqish, so`ngra uning samaradorligini, amalga oshirish imkoniyatini, xarajatli tomonlari va boshqa o`lchamlarini aniqlab olish zarur. Shu bilan birga, ushbu g`oyaning tanlanishi oqibatida yuz beradigan xavf baholanar ekan, afsuski ko`pchilik shaxslar uchun ayni mezon yetakchi o`ringa chiqib qoladi. Bunda taklif etilayotgan g`oya chetda qolib, boshqa yo`nalish tanlansa, masala yechimi tamoman boshqa tus oladi va guruh boshi berk ko`chaga kirib qoladi.

IV – bosqich: Yangi qarorni rejalashtirish va amalga oshirishdan iboratdir. Bunda qaysi ish, qanday muddatda va kimning ishtirokida bajarilishi kerak, degan savollarga javob olinadi. Qarorni amalga oshirishga jalb etiluvchi ishchi guruhi, umumiy rejani va unga oid amaliy harakatlarni aniq tasavvur eta olishi lozim.

V – bosqich Quyidagi amaliy tadbirlarni o`z ichiga oladi: 1) qabul qilingan qarorni, reja va harakatni amalga oshirish; 2) amalga oshirilgan harakat va natijalarni yanada yaxshilash maqsadida nazorat etish; 3) zarur bo`lgan taqdirda qarorni takomillashtirish, ya`ni «muammoni o`rganish» bosqichiga yoki g`oya yaratish va boshqa oraliq bosqichga qaytish.

1. O'tkazilgan tadqiqotlar intellektual qarorlar qabul qilishning psixologik kontsepsiyasini qurishni ularning funktsional darajadagi tartibga solinish yo'nalishlarining ko'rsatkichi sifatida ko'rib chiqishga imkon beradi, asosiy jarayonlarning ko'pligi va turli darajalarini va ularning o'zaro bog'liqligini ko'rsatadi, bu jarayonning aktual genezini vositachi qiladi. sub'ektning tanlov harakatlaridagi intellektual va shaxsiy harakatlari.

2. Intellektual qarorlarni psixologik tartibga solish kontsepsiyasi individual qarorlarning tartibga soluvchi profilini belgilaydigan determinantlar ierarxiyasining ochiqligini nazarda tutadi. Mavzu qaror mezonlarini shaxsan o'zi tomonidan belgilab qo'yilgan tanlov doirasining maqbulligi qoidalari nuqtai nazaridan quradi va qarorlarni psixologik tartibga solish ierarxiyasi faqat funktsional deb ta'riflanishi mumkin.

3. Noaniqlik sharoitida tanlovni intellektual va shaxsiy tartibga solishning o'ziga xos xususiyati vaziyat timsolida tasvirlashdir. Noaniqlik shartlarini samarali qaror qabul qilish sifatida sub'ektiv xavf omili bo'linish va shaxsning saylovlar uchun javobgarligi (yopiq vazifalar va intellektual strategiyalarda).

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayeva , Yu. , & Avlayev, O. (2021). Eshitishda muammolari bo`lgan o`quvchilarni konsilium asosida lug`at boyligini oshirish . Academic research in educational sciences, 2(5), 922-932.

2. Avlayev O. U., & Butayeva , U. A. (2021). Talaba psixologik kamolati masalasi. Academic research in educational sciences, 2(5), 4-11.

3. Avlayev O.U., Jurayeva S.N., Mirzayeva S.R. Teaching methods. Tashkent. Navruz. 2017

4. Qurbonova , B.K., Avlayev O. U., & Abdukarimov , Sh. O`. (2021). Tanish jarayonida avtomobillarning ekspluatasion xususiyatini baholash . Academic research in educational sciences, 2(12), 548-555.

5. Avlayev O. U (2021). O`qituvchining boshqaruvchanlik uslublari. Academic research in educational sciences, 2(10), 1239-1246.

HARBIY XIZMATCHILAR UCHUN PSIXOLOGIK XIZMATNI TASHKIL ETISHNING DOLZARBLIGI

*Ro‘ziyeva Hafiza Daniyarovna –
O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti psixologi
(psixologiya kafedrası o‘qituvchisi)*

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida “Vatan muqaddas, uni himoya qilish sharaflı burchdir!” degan konseptual g‘oya asosida ma‘naviy-ma‘rifiy ishlarni tashkil etish, harbiy xizmatchilarning bilimi va ma‘naviy saviyasini oshirish, axloqiy-ruhiy xislatlari va huquqiy bilimlarini mustahkamlash bo‘yicha samarali mexanizmlarni yaratishga qaratilgan O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tizimida ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar samaradorligini oshirish konsepsiyasi Qurolli Kuchlar tizimida izchil amalga oshirilishi belgilab qo‘yilgan. Ushbu qaror asosida harbiy okruglar boshqaruv apparatlarida, brigadalarida va alohida batalonlarida “harbiy psixolog” (ofitser) lavozimi joriy etildi. O‘z o‘rnida ushbu lavozimning joriy etilishidan ko‘zlangan asosiy maqsad vatanimiz sarhadlari daxlsizligini ta‘minlovchi, mard va jasur yigitlarimizni haqiqiy mard o‘glom qilib tarbiyalash jarayoniga psixologik jihatdan yondashishdir. Harbiy xizmatchilar orasida stress, dipressiya, suitsid kabi salbiy holatlarni oldini olish va ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdan iboratdir. Buning uchun esa qurolli kuchlarimiz tarkibidagi harbiy xizmatchilarning bilimi, dunyoqarashi harbiy salohiyati bilan bir qatorda ruhiy, psixologik holatini ham sog‘lomlashtirib borish bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan biridir. Buning uchun esa Qurolli Kuchlar tizimida Psixologik xizmatni samarali tashkil etish talab etiladi.

Kasbiy zo‘riqish va jismoniy stress hislari boshqa kasblarga qaraganda ko‘proq harbiy xizmatchilar faoliyatida uchraydigan salbiy emotsional kechinmalardan biri sanaladi. Bu holat nafaqat ayni xizmat faoliyatidagi harbiylarga balki, harbiy bo‘lishga endigina bel bog‘lagan harbiy xizmatchilar faoliyatiga ham tegishli hisoblanadi. Chunki, ular ko‘pincha o‘ta og‘ir sharoitlarda turli xil vazifalarni bajarishlari kerak. Ushbu holatlarda kasbiy zo‘riqishni keltirib chiqaradigan qator omillar mavjud, ularga noqulay ekologik iqlim, uzoq vaqt yaqinlardan uzilish, muloqotning kamligi, yuqori darajadagi tartib-intizom, ortiqcha jismoniy mashqlar va hokazo kiradi. Bunday ekstremal sharoitda o‘qish va ishlashda insonda odatdagi ishlash va dam olishning biologik tartibi buziladi. Og‘ir ekstremal sharoitda xizmat qilish, mashg‘ulot o‘tash kabilar harbiy xizmatchilarda asabiy charchash, tushkunlik, affektiv reaksiyalar, patologik buzilishlar bilan kechadi. Bu shuni anglatadiki, harbiy xizmatchilarga nafaqat jismoniy xavf, balki xavotir va nevrozlar ham tahdid qiladi. Aynan mana shunday kasbiy zo‘riqish, stress va salbiy emotsional hislarni boshidan o‘tkazayotgan harbiy xizmatchilar uchun Qurolli kuchlar tizimida psixologik xizmatni samarali va tizimli yo‘lga qo‘yish bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Psixologik maslahat shunga ehtiyoji bo‘lganlarga beriladi. Ular psixolog tomonidan mijoz hayotida duch kelgan muammoni dastlab o‘rganib chiqish va shaxsiy suhbat asosida beriladi. Odatda, psixologik maslahat oldindan belgilangan soatda, buning uchun maxsus jihozlangan xonada, begonalar ishtirokisiz otkaziladi. Psixologik

maslahat-amaliy psixologiyaning alohida sohasi bo'lib, harbiy xizmatchilarga shaxsiy, kasbiy va hayotiy muammolarini hal etishida maslahat va tavsiyalar sifatida mutaxassis tomonidan bevosita ko'rsatiladigan yordam bo'lib, u individual, guruhiy tarzda o'tkazilishi mumkin. Maslahat berish psixologik xizmatning asosiy yo'nalishlaridan biridir. Lekin psixologik maslahat o'zi nimaligi haqida yagona tushuncha yo'q. Har bir sohada xizmat olib borayotgan psixolog ishi boshqasi bilan bir-biridan tubdan farq qiladi. Psixolog aniq harbiy jamoadagi shaxsiy tarkib orasidagi munosabatning ijobiy va salbiy tomonlarining, rivojlanadigan ijtimoiy muhitning ichida bo'ladi. U har bir shaxsiy tarkibning o'zinigina emas, shaxslararo munosabatning murakkab tizimini ham ko'radi, boshqa ish turlari bilan birgalikda vaziyatni hal qiladi. To'g'ri tashkil etilgan maslahat tufayli psixolog va ofitser yoki serjant o'z sohasini yaxshi biluvchi mutaxassislar sifatida namoyon bo'ladi. Maslahat quyidagicha amalga oshiriladi.

1. Harbiy xizmatchi muammolari bo'yicha ularning hamkorligi bilimlarining birikuviga imkon beradi va muammolarni hal qilish uchun keng ijodiy imkoniyatlar yaratadi. Maslahat berishning asosiy ahamiyati ana shunda.

2. Psixolog shaxsiy tarkibning psixologik xususiyatlari, ularning qiziqishi, mayli, ilk iqtidori kabilarni o'rganadi, mutaxassis va yetuk shaxs sifatida shakllanishiga yordam ko'rsatadi.

3. Harbiy xizmatchilarda malakalar va ko'nikmalarini egallashda uchraydigan nuqsonlar hulq-atvordagi kamchiliklar, intellektual taraqqiyot va shaxs fazilatlaridagi buzilishlarni diagnostika qiladi.

4. Boshqa sohaning mutaxassislari bilan birgalikda psixik rivojlanishdagi nuqsonlar xilma-xilligini hisobga olgan holda differensial diagnostikani amalga oshiradi. Nuqsonlarning tibbiy, defektologik yoki psixologik tabiatini aniqlaydi. Deviant va destruktiv hulq-atvor sabablarini va shakllarini belgilaydi. Giyohvandlik va taksikomaniya, alkogolizm, o'g'rilikning ijtimoiy-psixologik ildizlarini tekshiradi, omillarini tahlil qiladi.

5. Iqtidorli harbiy xizmatchilar, mutaxassislarni tanlashda ishtirok qilib ilmiy-psixologik tavsiyalar ishlab chiqadi.

6. Harbiy xizmatchilarda uchraydigan psixo-emotsional zo'riqishlar (stress, depressiya, suitsid) ni o'rganadi, tahlil qiladi, profilaktika va korreksion tadbirlarni tashkil etadi.

Harbiy psixolog xizmatchilar orasidagi iqtidorli mutaxassislarni tanlashda ishtirok etib ular uchun ham ilmiy ham psixologik tavsiyalar ishlab chiqadi. Psixologik xizmatning ushbu yo'nalishi psixologdan inson shaxsi va individualligini tarkib toptirish jarayonida faol ishtirok etishni taqazo qiladi. Harbiy sohadagi psixologning vazifasi psixologik xizmatni muayyan mezonlarga asoslanib tashkil qilishdan iborat bo'lib, yosh davr xususiyatlariga binoan psixikaning rivojlanishi, harbiy xizmatchi shaxsining shakllanishi qonuniyatlarini amaliyotga tatbiq etish, ularning qobiliyati, maylini o'sish darajasiga qarab komandirlarga korreksion ishlarni amalga oshirishda ko'rsatmalar berishdan iborat. Psixologik xizmatning ushbu yunalishida alohida ahamiyat kasb etadigan narsa bu-harbiy xizmatchilar kasbiy o'sishida kechikish, hulqdagi buzilishlar, boyruqlarni bajarishdagi sovuqqonlik, mashg'ulotni o'zlashtirishning yomonlashuvi kabilardir. Shuningdek, vazifalariga (mutaxassislikka) yo'naltirish – harbiy xizmatchini layoqati, qiziqishi va qobiliyatlariga

mos faoliyatni ongli tarzda tanlashga tayyorlash ham kiradi. Bu keltirilgan yo'nalishlarning uzviy va uzluksiz bog'liqligi psixologik xizmat mazmunining yaxlitligini ta'minlaydi. Psixologik xizmatga bo'lgan ehtiyoj, eng avvalo, harbiy jamoada ro'y berayotgan, shaxsiy tarkib o'rtasida kechadigan munosabatlardagi ayrim kamchiliklarni to'ldirish bilan bog'liq tarzda vujudga kelgan. Harbiy sohadagi psixologik xizmatning maqsadi – harbiy xizmatchi shaxsining xar tomonlama mukammal psixologik taraqqiyotini ta'minlovchi oqilona, zarur shartsharoitlar, omillar, qulay vaziyat va sog'lom muhit yaratishdan iboratdir. Bugungi kunda Qurolli Kuchlarimizda psixologik xizmatning tarkibiy mazmuni harbiy xizmatchining individual psixologik xususiyatlarini o'rganish bilan birga uning harbiy xizmatchi sifatida har tomonlama kamol topishi, uning ham ma'naviy, ham aqliy rivojlanishi, o'zligini anglashi va qobiliyatlarini namoyon etishi uchun ta'lim-tarbiya hamda ma'naviy-ruhiy sharoitlar yaratilishini nazarda tutadi. Armiyani isloh qilish borasidagi ishlarning yakuniy mezon – amaliy natijasi Qurolli Kuchlarning jangovar qobiliyati va tayyorgarligini real oshirish, ularning yuqori darajadagi uyushqoqligi va hamkorligini ta'minlashdan iboratdir. Harbiy sohadagi psixologik xizmatda tadqiqot va ta'sir ko'rsatish obyekti harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolari, muddatli harbiy xizmatchilar hamda Qurolli Kuchlar ishchi va xizmatchilaridir. Demak, psixologik xizmat o'z mazmun mohiyatiga ko'ra xizmat faoliyatining barcha tizimlari uchun zarur va kerak bo'lgan ijtimoiy-psixologik hodisa ekan, biz uning omillarini bilishimiz lozim bo'ladi.

Psixologik xizmatning harbiy sohadagi o'ziga xos omillari.

Harbiy qism va muassasalarda psixologik xizmatni tashkillashtirishning quyidagi jihatlarini ajratish mumkin:

- Harbiy qism va muassasalarni yuqori saviyali psixolog kadrlar bilan ta'minlash va ular malakasini oshirishni tashkil etish;
- Harbiy qism va muassasalarda psixologik xizmatni nazariy metodologik asoslarini yaratish;
- Harbiy qism va muassasalarda psixologik xizmatni uslubiy ta'minlash.

Sir emaski, hozirda harbiy qism va muassasalarni yuqori malakali psixolog kadrlar bilan ta'minlash oson emas. Psixolog mutaxassislariga ehtiyoj katta ekanligini hisobga olgan holda bunday mutaxassislarni tayyorlashga alohida e'tibor berish zarurati mavjud. Hozirgi kunda faoliyat ko'rsatayotgan mutaxassislarni malaka oshirish kurslarida tahsil olishini ta'minlash ham harbiy psixologlar faoliyati samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Bu kurslarda tashxis, kasbga yo'naltirish nazariyasi va amaliyoti ayniqsa psixodiagnostik metodikalardan foydalanishning axloqiy talablariga rioya qilish, qo'llash ko'nikmalarini shakllantirishga diqqatni qaratish maqsadga muvofiq. Harbiy qism va muassasalarda psixologik xizmatni nazariy metodologik ta'minlash psixologik va pedagogik tashxis nazariyasini yaratish mutaxassislarning pedagogik psixologik tashxisning kasbga yo'llashning ijtimoiy-iqtisodiy ruhiy va huquqiy tomonlarini chuqur bilishi va tushunishini taqozo qiladi. Harbiy psixologlar faoliyatini takomillashtirishning yana bir mas'uliyatli, qiyin, lekin juda muhim tomoni, tashxis amaliyotini uslubiy ta'minlashdir. Fikrimizcha, harbiy qism va muassasalarda ishlayotgan amaliyotchi psixologlar uchun psixodiagnostik metodikalardan foydalanish psixologik tuzatish va rivojlantirish ishlarini tashkil etish

uchun o'tkazilishi lozim bo'lgan seminar treninglarning tashkil etilishi bo'yicha qo'llanmalar tayyorlab seminar treninglar tashkil qilish lozim. Ushbu seminar-treninglarda kerakli adabiyotlar tarqatilsa, harbiy qism va muassasalarda psixologik xizmat samaradorligiga hamda psixologik-pedagogik tashxis sifatiga ijobiy ta'sir qilgan bo'lar edi.

Xulosa. Harbiy qism va muassasalarda psixologik xizmatning joriy etilishining o'ziga xos katta ahamiyati hozirgi kunda shaxsiy tarkibning xizmat olib borishida bir qator psixologik to'siqlarning oldini olishga nisbatan talabning ortib-borayotganligida yaqqol ko'rish mumkin. Harbiy xizmatchilar amaliyotchi psixologlarga asosan o'zlarining shaxs xususiyatlarini, irodaviy sifatlarini, his-tuyg'ularini, o'z-o'zini boshqarish imkoniyatini, intellektual salohiyat darajasini psixodiagnostik uslublar yordamida aniqlash va o'z imkoniyatlarini ruyobga chiqarish, rivojlantirish, kasbga yo'naltirish, shaxslararo munosabatlardagi muammolarni hal etish masalalari bo'yicha murojaat qilishlari mumkin. Komandirlar esa o'z bo'ysinuvchilarida uchraydigan o'qish malakalari, ko'nikmalarini egallashdagi nuqsonlar, xulq-atvoridagi kamchiliklar, intellektual taraqqiyot, shaxs fazilatlaridagi buzilishlar sababini aniqlash, ularning harbiy xizmatga nisbatan motivatsiyasini oshirish, ularga samarali pedagogik-psixologik ta'sir etish yo'llari haqida psixologik maslahatlar olishlari mumkin. Bundan tashqari harbiy xizmatchilar oila a'zolari, farzandlari va ota-onalar bilan o'zaro munosabatlari ularni ko'proq qiziqtiradi. Aynan, ushbu birgina masala, o'z navbatida harbiy qism va muassasalardagi psixologik xizmatni yuqori malakali psixolog mutaxassislar, uslubiy vositalar va ilmiy qo'llanmalar bilan ta'minlashni taqozo etadi. Demak, psixologik xizmatning harbiy sohadagi o'ziga xos omillari sifatida mutaxassislar bilan ishlash, uslubiy ishlanmalarni yaratish, mutaxassislarni zarur bilimlar bilan qurollantirish masalalarini ko'rsatish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilarining ma'naviy-ma'rifiy saviyasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 04.08.2018 y.PQ-3898 qarori.
2. Mudofaa Vazirining "O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi qo'shinlarida psixologik ishlarni tashkil etish Nizomini tasdiqlash to'g'risida" gi 797-sonli bo'yruq, i. 15 avgust 2019-yil. 1-bob Umumiy qoidalar 4 bandi.
3. Z.Nishonova, Sh.Asomuddinova. Psixologik maslahat. O'quv qo'llanma. O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti. Toshkent-2010. 5 bet.
4. Ergashev A.T. Stress va uning ta'siri. Harbiy xizmat faoliyatidagi stresslar kvalifikatsiyasi. Stresni bartaraf etish uslublari. O'quv qo'llanma. Ch.: 2017. – 87 b.
5. Yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiya: Ped. in-t. talabalari uchun o'quv qo'llanma/ M.G.Davletshin umumiy tahriri ostida. – T.: O'qituvchi, 1974. 194 s.

O'SMIRLARNI HISSSIY-IRODAVIY RIVOJLANTIRISHDA PSIXOLOGIK USULLARDAN FOYDALANISHNING SAMARADORLIGI

*Sa'dullayev Aziz Akmal o'g'li – Iqtisodiyot va
pedagogika universiteti NTM o'qituvchisi*

*Turdiqulova Luiza Zayniddinovna – Iqtisodiyot
va pedagogika universiteti NTM o'qituvchisi*

Annotatsiya. Maqolada o'smirlarning hissiy-irodaviy rivojlantirish va psixologik tahlilni empirik o'rganish natijalari taqdim etilgan va tahlil qilingan. O'smirlardagi psixologik holatlarni turlari, darajalari va tarkibiy qismlari o'rganilgan va tavsiflangan O'smirlarda kuzatiladigan psixologik o'zgarishlar, bu o'zgarishlarning hissiy irodaviy holatga ta'siri va psixologik yondashuv orqali ijobiy holatlarni shakllantirish. Profilaktika usullarni tanlash va samarali foydalanish bilan bog'liqlik mavjudligi haqida xulosa chiqarishga imkon beradi.

Kalit so'zlari: o'smir, muvaffaqiyat, intilish, mashg'ulotlar, xavotirlanish, qat'iyatlilik, mas'uliyatlilik, yengib o'tish, ichki nazorat, his-tuyg'u, iroda, motiv, g'alaba, rag'batlantirish, jazo, madad istagi.

O'smir psixologiyasi, o'smir rivojlanishining qiziqarli va murakkab olamidir. Hayotning bu davrida shaxsning faol shakllanishi, hissiy holat va tashqi dunyo bilan munosabatlari sodir bo'ladi. O'smirlik rivojlanishining ba'zi xususiyatlari: Balog'at yoshi: Bu bosqich bola rivojlanishining barcha bosqichlari ichida eng qiyini hisoblanadi. O'smirlar bolalardan kattalarga "o'zgarish" ni boshdan kechirishadi. Ular jismoniy, intellektual va axloqiy o'zgarishlarga duch kelishadi. Ta'lim faoliyati talablarning kuchayishi bilan murakkablashadi, o'smirlar mustaqil fikrlash, tahlil qilish va fikr yurita boshlaydilar. Qo'zg'olon va o'zlikni qidirish: O'smirlar ko'pincha ichki isyonni boshdan kechiradilar va o'zlarini tushunishga intiladilar. Ular isyon va maksimalizm notalarida namoyon bo'lishi mumkin bo'lgan o'zlarining shaxsiyatini qidirmoqdalar. O'smirlar ham balog'at yoshiga duch kelishadi, bu esa bu davrni murakkablashtiradi.

O'smirlik 10-11-14-15 yoshda bo'lib, bu davrda bolalarda yangi xususiyatlar va o'zlarining turli xil psixologiyasi shakllanadi. Siz allaqachon kattalar kabi o'smirlar bilan gaplashib, ularning ongiga murojaat qilishingiz mumkin, lekin ayni paytda siz bolalar bilan muloqot qilishda bo'lgani kabi, bir xil narsani bir necha marta takrorlashingiz kerak. O'smirlik - bu qiyin yosh, bu erda ota-onalar farzandlari bilan aloqani yo'qotishi va samarasiz nizolarga kirishishi oson. Boshqa tomondan, ota-ona talablarining yetishmasligi - kelishuv - kelajakdagi muammolar bilan to'la. O'smirlar bilan suhbatlashish kerak, hatto ularning muloqot uslubi ota-onalar uchun nomaqbul bo'lsa ham. Biz, ota-onalar sifatida qabul qilinishi mumkin bo'lmagan narsalarga "yo'q" deyish uchun kuch va jasoratga ega bo'lishimiz kerak. O'smirlar impulsiv qarorlar qabul qilishga moyil - ota-onalar bunga qat'iy to'siq qo'yishlari kerak, shu bilan birga o'z qarorlarida muvozanat va o'smirlar bilan o'z niyatlarini bema'lol muhokama qilishga tayyorligini ko'rsatishi kerak.

Zamonaviy dunyo - bu yuqori tezliklar dunyosidir. O'smirlar - bu qiyin yosh, ular tashqaridan biror narsaning qo'llanilishiga e'tiroz bildiradilar va o'z erkinligi uchun kurashishga tayyor. O'smirlar kattalardek ko'rishni juda xohlashadi va bolalar kabi muomala qilishdan qattiq norozi bo'lishadi. O'sib borayotgan bola uchun ota-onaning haddan tashqari tashvishi uning mustaqilligining rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. O'zini boshqarishni o'rganishi uchun bolaning o'ziga nazorat funksiyalarini bosqichma-bosqich o'tkazish bilan tizimli nazorat oqilona alternativa bo'lishi kerak. Bugungi kunda ijtimoiy muhit har qachongidan ham beqaror: turli xil ortiqcha yuklar va stresslar, hayotning keskin ritmi allaqachon zamonaviy insonlar uchun odatiy holga aylangan. Bu holat insonning shaxsiy fazilatlariga bir qator yangi talablarni qo'yadi, unumli hayot uchun o'zida mavjud resurslaridan maksimal darajada foydalanishga majbur qiladi. Odamlar hissiy holatdan foydalanish qobiliyatining etishmasligi bilan bog'liq bir qator muammolarga duch keladi. O'smirlik - bu hissiy tajribalarning kuchayishi davri hisoblanadi. O'smirning his-tuyg'ulari turli xil ko'rinishlar bilan tavsiflanadi. O'smirlarning hissiy va irodaviy rivojlanishi ularning voyaga etishining muhim jihatlari hisoblanadi. S.Ya.Samulkinning aytishicha, ixtiyoriy yoki irodaviy harakat oldindan qo'yilgan maqsad asosida bizning xohishimiz bilan bo'lgan faollikdir. Bu harakat bizning o'zimiz bilan bog'liq va u ongli ravishda zo'r berishimiz natijasida sodir bo'ladi. Bunday faollikda inson o'zining irodasini namayon etadi [1]

Insonlar o'z faoliyati natijasi uchun mas'uliyatni tashqi sabablarga yoki o'ziga yuklash moyilligiga qarab farqlanishadi. Bunday sifatlar nazoratni lokallashtirish deyiladi. O'z xatti-harakati uchun mas'uliyatni tashqi sabablariga yuklaganda nazoratning tashqi (eksternal) lokallashtirilishi to'g'risida fikr yuritiladi. Bu toifaga mansub shaxslar o'zining qoniqarsiz xatti-harakatini turli bahonalar bilan izohlaydi. O'z xatti-harakati uchun o'zini mas'ul deb bilsa, unda nazoratning ichki (internal) lokallasuvi ustun deb hisoblash uchun asos bor. Nazoratning ichki lokallashtirilishi xos bo'lgan odamlar maqsadga erishishda ancha ma'suliyatli, izchil o'z-o'zini tahlil qilishga moyil hamda mustaqil bo'lishliklari aniqlangan. [2]

Hayotning ushbu davrida jismoniy, intellektual va hissiy salohiyatning faol rivojlanishi sodir bo'ladi, bu o'smirlarni tashqi ta'sirlar va stressli vaziyatlarga ayniqsa zaif qiladi. Hissiy rivojlanish hissiy barqarorlikni shakllantirish, empatiya qobiliyatini va hissiy intellektni rivojlantirishni o'z ichiga oladi. Bu o'smirlarga o'zini va boshqalarni yaxshiroq tushunishga, his-tuyg'ularini va munosabatlarini samarali boshqarishga yordam beradi. O'smirlar rivojlanishida psixologik usullardan foydalanish samaradorligi ko'p jihatlarni o'z ichiga olgan murakkab masaladir. Psixologik usullar o'smirlarning ijtimoiy va hissiy xususiyatlariga, shuningdek, ularning intellektual rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Misol uchun, tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, video o'yinlar va ijtimoiy media kabi raqamli texnologiyalardan foydalanish o'smirlarga ham ijobiy, ham salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bir tomondan, video o'yinlar vizual xotirani, fazoviy yo'naltirishni va qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Boshqa tomondan, ijtimoiy tarmoqlardan ortiqcha foydalanish tajovuzkor va dushmanona xatti-harakatlarga olib kelishi mumkin. Loyiha faoliyati orqali o'smirlarning ijodiy tafakkurini rivojlantirishga qaratilgan usullar ham mavjud bo'lib, ular intellektual o'sishni rag'batlantirish va o'zini namoyon qilishda samarali bo'lishi mumkin. Shuni ta'kidlash kerakki,

psixologik usullarning samaradorligi ko'plab omillarga, jumladan, o'smirning individual xususiyatlariga, usullarni qo'llash sharoitiga va aralashuvni amalga oshiruvchi mutaxassislarning malakasiga bog'liq. Psixologik tadqiqotlar inson xulq-atvorini tushuntiruvchi va bashorat qiluvchi yangi nazariyalar va usullarni ishlab chiqishga yordam beradi va turli usullarni amaliyotda qanday qo'llash mumkinligini tushunish uchun muhimdir.

Psixoprofilaktika ishlari - o'qituvchilarda, bolalarda, ota-onalarda yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslarda umumiy psixologik madaniyatni, bolalar bilan ishlashda yoki o'z rivojlanishi manfaatlarida psixologik bilimlardan foydalanish istagini shakllantirish; har bir yosh bosqichida bolaning to'liq rivojlanishi uchun sharoit yaratish; shaxsiyat va aql-idrok rivojlanishidagi buzilishlarning o'z vaqtida oldini olish. Psixoprofilaktik ish, keng ma'noda, ruhiy farovonlik va salomatlikni saqlash, mustahkamlash va yaxshilash uchun psixologik xususiyatga ega bo'lgan faoliyatni o'z ichiga oladi; nevrotik kasalliklar, fobiyalar paydo bo'lishining oldini olish; stressli ta'sirlarga qarshi turish, hissiy charchash; inson aqliy tashkilotining turli darajalarida muammolarni hal qilish: xulq-atvor, shaxsiy, ekzistensial holatlardan iboratdir. Profilaktika jarayonlari tashkil etilganda bir necha qo'yiladigan talablarga rivoya qilish zarurdir.

1. Ijtimoiy muhitni tashkil etish. U atrof-muhitning og'ishlarning shakllanishiga hal qiluvchi ta'siri haqidagi g'oyalarga asoslanadi. Ijtimoiy omillarga ta'sir qilish orqali istalmagan individual xatti-harakatlarning oldini olish mumkin. Ta'sir butun jamiyatga, masalan, deviant xatti-harakatlarga nisbatan salbiy jamoatchilik fikrini yaratish orqali yo'naltirilishi mumkin. Mehnat ob'ekti oila, ijtimoiy guruh, maktab, sinf yoki muayyan shaxs bo'lishi mumkin. Ushbu model doirasida o'smirlarda giyohvandlik xulq-atvorining oldini olish, birinchi navbatda, sog'lom turmush tarzi va hushyorlikka munosabatni shakllantirishga qaratilgan ijtimoiy reklamani o'z ichiga oladi. Ommaviy axborot vositalari siyosati alohida ahamiyatga ega.

2. Ishning ikkinchi shakli axborotdir. Bu biz uchun profilaktik ishning eng keng tarqalgan sohasi. Ma'ruzalar, maxsus adabiyotlarni tarqatish, suhbatlar yoki video-televideenie filmlari shaklida. Yondashuvning mohiyati - bu shaxsning konstruktiv qarorlar qabul qilish qobiliyatini oshirish uchun uning kognitiv jarayonlariga ta'sir ko'rsatishga urinish. Shu maqsadda, odatda, statistik ma'lumotlar bilan tasdiqlangan ma'lumotlar, masalan, giyohvand moddalarning salomatlik va shaxsga zararli ta'siri haqida keng qo'llaniladi. Ko'pincha ma'lumotlar qo'rqinchli bo'lib, giyohvand moddalarni iste'mol qilishning salbiy oqibatlarini sanab o'tadi yoki deviantlarning dramatik taqdirini va ularning shaxsiy tanazzulini tasvirlaydi.

3. Psixoprofilaktik ishning uchinchi shakli ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan ko'nikmalarni faol ijtimoiy o'qitishdir. Guruh mashg'ulotlari shaklida amalga oshiriladi.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz zarur o'smirlarni hissiy-irodaviy rivojlantirishda psixologik usullardan foydalanish - bu o'smir salomatligining umumiy psixologik profilaktikasi tendentsiyasi bo'lib, u bir qator tibbiy va ijtimoiy fanlar bilan bog'liq ravishda ish olib boriladi va hamma uchun zarurdir. Ma'lumki, kasallikning oldini olish uni davolashdan ko'ra osonroqdir. Biroq, agar jarayon allaqachon boshlangan bo'lsa, psixoprofilaktika mavjud vaziyatni barqarorlashtirish uchun o'z vaqtida yechim topishi mumkin. Shu bilan birga, rivojlanishda psixologik usullardan

foydalanish oddiy sog'lom odamlar bilan ham, allaqachon ruhiy kasalliklarga chalingan jamiyat a'zolari bilan ishlashga qaratiladi va muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh. Mirziyoyev. Toshkent sh 2020-yil 23-sentabr, O'RQ-637-son
2. Aziz Sa'dullayev. (2024). Aspects of forming voluntary qualities in overcoming anxiety in adolescent wrestlers. News of UzMU Journal, 1(1.4), 176-179. Retrieved from <https://journalsnuu.uz/index.php/1/article/view/2035>
3. Sa'dullayev, A. A. o'g'li.(2023). An effective way to detect computer network anomalies. Educational Research in Universal Sciences, 2(12), 401-404.
4. Смирнов Б.Н. Психологические механизмы эмоционально-волевой саморегуляции в спорте / Б.Н. Смирнов // Теория и практика физической культуры. 1999. - №» 12. - С. 28 – 32.
5. Саъдуллаев, А. А. ў. (2023). Ўсмир спортчиларда иродавий сифатларни шакллантириш аспекти. scholar, 1(8), 112–117. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/openscholar/article/view/2706>
6. Басов М.Я. Воля как предмет функциональной Психологии. Методика психологических наблюдений за детьми. - М., 2008. – С.89.
7. Berdiyeva, S. (2024). Improving the methodology of preparing students for creative activity based on foreign experiences. Talqin va tadqiqotlar, (28)
8. Axmatova, G. (2023). Oilaning etnopsixologik kelib chiqishida gender xususiyatlarning ta'siri. Ilm-Fan Va ta'lim, 1 (13). <https://ilmfanvatalim.uz/index.php/ift/article/view/313> dan olingan.

O'SMIRLARDA KUZATILADIGAN XOTIRA MUAMMOLARI HAMDA UNI RIVOJLANTIRISH CHORALARI

*Sadatova Nodira Musurmonovna –
Qarshi davlat universiteti tadqiqotchisi,*

*Eshnazarova E'zoza, Jonimqulova Lobar –
Osiyo texnologiyalari universiteti talabalari*

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'smirlar ruhiyatidagi psixik o'zgarishlar natijasida yuzaga keladigan xotira buzilishlari, ularning xususiyatlari, unga ta'sir qiladigan omillar, tez-tez uchraydigan kasalliklar, kelib chiqish sabablari va ularning oldini olish haqida ma'lumotlar hamda yechimlar keltirib o'tilgan.

Tayanch iboralar: xotira medikamentoz, Shizofreniya Dissotsiativ, surunkali stress, sindrom, altsgeymer, apraksiya, asab tizimi, chekish, giyohvandlik, jismoniy va aqliy zo'riqish

Xotira - bu aqlning asosiy jihati. Xotira - bu psixologiyadagi turli hodisalar va tajribalarni tuzatuvchi, saqlaydigan va takrorlaydigan, shuningdek, doimiy ravishda ma'lumotlarni to'ldirish va mavjud tajribadan foydalanish imkoniyatini beruvchi

funksiya. Bu bizga o'tmish haqida o'ylash va kelajakni rejalashtirish qobiliyatini beradi. Xotira faoliyatida shaxsning g'oyaviy yo'nalishi katta o'rin egallaydi. Bu yo'nalishda uning hayot sharoiti ta'sirida shakllantiradi. Biz sezgan, idrok qilgan narsalar iz qoldirmasdan yo'qolib ketmaydi balki ma'lum darajada esda saqlanib qoladi va qulay sharoitda yoki kerak bo'lganda esimizga tushadi. Kundalik tajribamiz shuni ko'rsatadiki, esda qolgan narsalarning hammasi ham esimizga tushavermaydi ularning bir qismi unutiladi. Unutish ham xotiraga oid hodisadir. Esda qolgan narsa xotira materialini, esda saqlanib turadigan va esga tushiriladigan narsa esa xotiraning mazmunini tashkil qiladi. Ongimiz aks etirgan narsalarni mustahkamlash saqlab qolish va keyinchalik tiklashdan iborat aqliy faoliyat xotira deyiladi.

Psixolog olim E.G'.G'oziyev tomonidan xotira tushunchasiga quyidagicha ta'rif beriladi. "Xotira atrof-muhitdagi voqelik narsani bevosita va bilvosita, ixtiyoriy va ixtiyorsiz ravishda, passiv va faol holda, reproduktiv va produktiv tarzda, verbal va noverbal shaklda, mantiqiy va mexanik yo'l bilan aks ettiruvchi esda olib qolish, esda saqlash, qayta esga tushirish, unutish hamda tanish hissidan iborat psixik jarayon. Alohida va umumiylik namayon qiluvchi ijtimoiy hodisa barcha tassurotlarni ijobiy qayta ishlashga yo'naltirilgan mnemik faoliyatdir". Shuni ta'kidlash joizki, keltirilgan mazkur ta'rif xotiraning murakkab qamrovli jihatlarini to'la ta'kidlash imkoniyatiga ega.

O'smirlardagi xotira buzilishlariga turli sabablar yoki faktorlar ta'sir qiladi. Davomli stress holatlari, kasallikka chalinganlik, boshdan kechirilayotgan muammolar va salbiy holatlar kabi situatsiyalar sabab bo'lishi mumkin.

O'smirlardagi xotira buzilishlarini oldini olish uchun quyidagi chora-tadbirlar bo'yicha ishlar olib borish lozim.

O'smirlarning xotirasidagi sustlashishi, yashash tarzidagi o'zgarishlar, o'smirni biror mashg'ulot bilan mashg'ul qilish, sport va jismoniy tarbiyani kunlik odatga aylantirish, musiqa va san'at sohalariga yoki bo'lmasa kitob o'qish kabi odatlarni shakllantirish samarali natijalarni beradi. Bundan tashqari ruhiy xotirjamlikni saqlashga yo'naltirilgan meditatif sharoitlar yaratish va ular ustida alohida tizimli ishlar olib borish bilan ham xotirani sustlashib borishini oldini olish mumkin.

Yuqori darajadagi stress va trevoga, ayniqsa uzoq muddatli bo'lganda, xotira bilan bog'liq muammolarga olib kelishi mumkin. Stress ostida miyaning xotira bilan bog'liq qismlari, masalan, gippokamp va prefrontal korteks, normal ishlashdan cheklanadi.

Depressiya ham xotira bilan bog'liq muammolarga sabab bo'lishi mumkin. Depressiyada odamlar diqqatni jamlash va yangi ma'lumotlarni yodlashda qiyinchiliklarga uchrashi mumkin.

Posttravmatik stress buzilishi (PTSD) inson o'tmishdagi travmatik voqealarni battar eslab, hozirgi voqealarni eslashda qiyinchilik chekishi mumkin.

Shizofreniya kabi psixotik buzilishlar xotira va boshqa kognitiv funksiyalarga ta'sir qilishi mumkin. Bu holatlarda xotira buzilishi vaqti-vaqti bilan yuz beradi.

Emotsional bloklanishlar: Ba'zi hollarda, kuchli emotsional reaksiyalar yoki bloklanishlar xotiraning buzilishiga olib kelishi mumkin. Masalan, ayrim insonlar kuchli uyat yoki qo'rquv hissi tufayli ba'zi voqealarni umuman eslashni istamasliklari mumkin.

Dissotsiativ buzilishlar: Dissotsiativ identifikatsiya buzilishi (avvalgi nomi bilan multipl shaxsiyat buzilishi) kabi holatlarda, xotira juda noaniq bo‘lib, inson o‘zining o‘tmish tajribalarini to‘liq yoki qisman eslashda qiyinchilik chekishi mumkin.

Xotira buzilishlarini davolash uchun psixoterapiya, dori-darmonlar va boshqa davolash usullari qo‘llanilishi mumkin, bu esa psixik holatni yaxshilashtirish va xotira funksiyalarini qayta tiklashga yordam beradi.

Quyida xotira buzilishlarini davolashda qo‘llaniladigan ayrim usullar keltirilgan:
Psixoterapiya.

1. Kognitiv-xulqiy terapiya (KXT): Bu terapiya usuli stress, trevoga va depressiya kabi holatlarni boshqarishga yordam beradi, bu orqali xotira buzilishlarini kamaytirish mumkin.

2. Travma-fokusli terapiya: PTSD va boshqa travmatik tajribalardan keyingi xotira buzilishlarini davolashda samarali bo‘lishi mumkin.

3. Dissotsiativ buzilishlar uchun maxsus terapiyalar: Masalan, EMDR (Eye Movement Desensitization and Reprocessing) terapiyasi, bu terapiya traumatik xotiralarni qayta ishlashga yordam beradi.

Dori-darmonlar.

1. Antidepressantlar: Serotoninni qayta olishni ingibitorlari (SSRIs) depressiyani davolashda va u bilan bog‘liq xotira muammolarini yengillashtirishda qo‘llaniladi.

2. Anksiolitiklar: Bu dorilar trevoga holatlarini boshqarishda va shu tariqa xotira funksiyalarini yaxshilashda ishlatiladi.

3. Antipsixotiklar: Shizofreniya va boshqa psixotik buzilishlarni davolashda ishlatiladi, bu orqali xotira buzilishlari ham kamayishi mumkin.

Hayot tarzi o‘zgarishlari va qo‘shimcha strategiyalar.

1. Regulyar jismoniy mashqlar: Jismoniy faoliyat miyaning xotira bilan bog‘liq qismlarida yangi neyron aloqalarini rivojlantirishga yordam beradi.

2. To‘g‘ri ovqatlanish: Omega-3 yog‘ kislotalari boy oziq-ovqatlar va antioksidantlarga boy diyetada miya salomatligini qo‘llab-quvvatlashi mumkin.

3. Yetarlicha uyqu: Yaxshi uyqu xotira mustahkamlanishi va yangi ma‘lumotlarni o‘zlashtirish jarayonida muhim rol o‘ynaydi.

4. Meditatsiya va relaksatsiya usullari: Bu texnikalar stress va trevoga kamaytirishga yordam beradi, bu orqali umumiy ruhiy holatni yaxshilash va xotira funksiyalarini optimallashtirish mumkin.

Kognitiv treninglar va o‘yinlar.

1. Miyani trening qilish dasturlari: Bu kabi dasturlar kognitiv faoliyatni qo‘llab-quvvatlash va xotira ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

2. Xotira o‘yinlari: Masalan, krossvordlar, pazllar va boshqa kognitiv o‘yinlar kognitiv faollikni oshirish va xotira qobiliyatini mustahkamlashga yordam beradi.

3. Til o‘rganish: Yangi til o‘rganish miyaning turli qismlarini faollashtiradi va kognitiv zaxiralarni kengaytiradi.

Sotsial faollik va muomala.

-Ijtimoiy aloqalarni rivojlantirish: Ijtimoiy faollik psixologik salomatlik uchun muhim bo‘lib, stressni kamaytiradi va umumiy ruhiy holatni yaxshilaydi.

-Guruhli mashg‘ulotlar: Guruhli sport yoki san‘at mashg‘ulotlari kabi faoliyatlar ham ijtimoiy bog‘lanishlarni mustahkamlaydi va miya faoliyatini yaxshilaydi.

Muhitni moslashtirish.

-Xavfsiz va qulay muhit yaratish: Xotira buzilishlari bo'lgan insonlar uchun tushunish oson bo'lgan va navigatsiya qilish oson bo'lgan muhit muhim ahamiyatga ega.

-Shovqin va chalg'ituvchilarni minimallashtirish: Tinch va xotirjam muhit xotira va diqqatni yaxshilashga yordam beradi.

Bu kabi chora-tadbirlar bilan birgalikda, muntazam tibbiy tekshiruvlar va mutaxassislar bilan maslahatlashish ham muhimdir. Shifokor yoki psixolog bilan muntazam muloqot xotira buzilishlarini aniqlash va samarali davolash strategiyalarini ishlab chiqishga yordam beradi.

Kognitiv treninglar va o'yinlar

1. Miyani trening qilish dasturlari: Bu kabi dasturlar kognitiv faoliyatni qo'llab-quvvatlash va xotira ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

2. Xotira o'yinlari: Masalan, krossvordlar, pazllar va boshqa kognitiv o'yinlar kognitiv faollikni oshirish va xotira qobiliyatini mustahkamlashga yordam beradi.

3. Til o'rganish: Yangi til o'rganish miyaning turli qismlarini faollashtiradi va kognitiv zaxiralarni kengaytiradi.

Sotsial faollik va muomala.

1. Ijtimoiy aloqalarni rivojlantirish: Ijtimoiy faollik psixologik salomatlik uchun muhim bo'lib, stressni kamaytiradi va umumiy ruhiy holatni yaxshilaydi.

2. Guruhli mashg'ulotlar: Guruhli sport yoki san'at mashg'ulotlari kabi faoliyatlar ham ijtimoiy bog'lanishlarni mustahkamlaydi va miya faoliyatini yaxshilaydi.

Muhitni moslashtirish.

1. Xavfsiz va qulay muhit yaratish: Xotira buzilishlari bo'lgan insonlar uchun tushunish oson bo'lgan va navigatsiya qilish oson bo'lgan muhit muhim ahamiyatga ega.

2. Shovqin va chalg'ituvchilarni minimallashtirish: Tinch va xotirjam muhit xotira va diqqatni yaxshilashga yordam beradi.

Bu kabi chora-tadbirlar bilan birgalikda, muntazam tibbiy tekshiruvlar va mutaxassislar bilan maslahatlashish ham muhimdir. Shifokor yoki psixolog bilan muntazam muloqot xotira buzilishlarini aniqlash va samarali davolash strategiyalarini ishlab chiqishga yordam beradi.

Professional maslahat va diagnostika.

1. Neyropsixologik testlar: Xotira buzilishlarining aniq sabablarini va darajasini aniqlash uchun neyropsixologik testlardan foydalanilishi mumkin. Bu testlar miyaning turli funksiyalarini baholaydi va muammolarni aniqlashda yordam beradi.

2. Miya vizualizatsiyasi: MRT (magnit-rezonans tomografiya) va ST (kompyuter tomografiya) kabi miya vizualizatsiya usullari miyaning strukturasi va funksiyasini tekshirishda qo'llaniladi. Bu usullar miyada o'zgarishlar yoki shikastlanishlar bor-yo'qligini aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

3. Dori-darmonlarni qayta ko'rib chiqish: Ba'zi hollarda, mavjud dori-darmonlar xotira buzilishlariga sabab bo'lishi mumkin. Shuning uchun, dorilarni qayta ko'rib chiqish va zaruratga ko'ra almashtirish muhimdir.

Har bir insonning holati individual bo'lgani uchun, davolash rejasi shaxsning

aniq ehtiyojlari, tibbiy tarixi va joriy holatiga mos kelishi kerak. Bu jarayonda quyidagilarni hisobga olish muhim:

Holatning jiddiyligi: Xotira buzilishlarining jiddiyligi davolash strategiyasini belgilashda muhim rol o'ynaydi.

Shaxsiy ma'lumotlar: Yosh, jins, ijtimoiy va madaniy omillar shaxsga moslashtirilgan davolash rejasini ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega.

Faoliyat va mashg'ulotlar: O'smirning kundalik faoliyatlari va qiziqishlari davolash jarayonida muhimdir, chunki bu ularning motivatsiyasini oshirish va davomiyligini ta'minlashga yordam beradi.

Xotira buzilishlarini davolashda muvaffaqiyatga erishish uchun o'smirning oilasi va yaqinlari bilan hamkorlikda ishlash, shuningdek, muntazam ravishda monitoring va baholash jarayonlari muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda quyidagi qadamlar diqqat markazida bo'lishi kerak:

Oila va yaqinlarning jalb qilinishi.

Oila a'zolari va yaqin do'stlarning jalb qilinishi bemorning davolanish jarayonida muhim rol o'ynaydi. Ular bemorga quyidagi tarzda yordam berishlari mumkin:

- Qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish: Motivatsiya va ijobiy munosabat bemorning davolanishga bo'lgan ishtiyoqini oshiradi.

- Davolash rejasini amalga oshirishda yordam berish: Dorilarni vaqtida qabul qilish, doktorga muntazam tashriflar va boshqa tavsiyalarni bajarishda yordam berish.

- Xavfsiz muhitni ta'minlash: Bemorning xavfsizligi va farovonligi uchun zarur bo'lgan muhitni yaratish.

- Tibbiy tekshiruvlar: Davolashning samaradorligini aniqlash va kerak bo'lganda davolash rejasini moslashtirish uchun muntazam tibbiy tekshiruvlar zarur.

- Psixologik baholashlar: Xotira, diqqat va boshqa kognitiv funksiyalarni muntazam ravishda baholab borish.

- Shaxsiy va ijtimoiy faoliyatning kuzatilishi: Bemorning kundalik faoliyati va ijtimoiy munosabatlarini kuzatish, ularning sifatini yaxshilash choralarini ko'rish.

Xotira buzilishlari bilan kurashishda davolash rejasini o'smirning o'zgaruvchan holatiga moslashtirib borish muhimdir. Bu quyidagilarni o'z ichiga olishi mumkin:

- Davolash usullarini qayta ko'rib chiqish: o'smirning reaksiyasiga qarab, davolash usullarini qayta ko'rib chiqish va zarur bo'lganda yangilarini qo'llash.

- Yangi strategiyalarni sinab ko'rish: Vaqt o'tishi bilan o'smirning ehtiyojlari o'zgarishi mumkin, shuning uchun yangi davolash usullari, terapiyalar yoki rehabilitatsiya dasturlarini sinab ko'rish foydali bo'lishi mumkin.

Xotira buzilishlari bo'lgan individlarning umumiy salomatligini yaxshilash uchun ham jismoniy, ham ruhiy sog'liqqa e'tibor qaratish zarur:

- Jismoniy faollik: Muntazam jismoniy mashqlar miya faoliyatini yaxshilaydi va umumiy salomatlikni oshiradi.

- Ruhiiy tinchlik: Meditatsiya, yog'a va boshqa relaksatsiya usullari stressni kamaytirish va ruhiy tinchlikni ta'minlashda yordam beradi.

- To'g'ri ovqatlanish: Sog'lom ovqatlanish miya salomatligi va umumiy farovonlik uchun muhimdir.

- Davolash rejasini bemorning madaniy ehtiyojlari va qadriyatlariga

moslashtirish.

- Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimlari: Ijtimoiy tarmoqlar va jamoa resurslaridan foydalanish, shuningdek, o‘smirni ijtimoiy faoliyatlarga jalb qilish.

- O‘z-o‘zini kuzatish: O‘zining xulq-atvori va salomatligi o‘zgarishlarini kuzatib borish.

- Vaqtni boshqarish: Kundalik vazifalarni rejalashtirish va vaqtni samarali boshqarish.

- Qaror qabul qilish: Salomatlikka oid muhim qarorlarni mustaqil ravishda qabul qilishda yordam berish.

Zamonaviy texnologiyalar xotira buzilishlari bilan kurashda muhim qo‘llab-quvvatlovchi vosita bo‘lishi mumkin. Bularga quyidagilar kiradi:

- Mobil ilovalar: Xotira o‘yinlari, dori-darmonlarni eslatib turuvchi ilovalar va kundalik vazifalarni rejalashtiruvchi ilovalar.

- Elektron kundaliklar: Kundalik voqealarni yozib borish va muhim sanalarni qayd qilish uchun foydalaniladi.

- Virtual reallik va augmented reallik: Bu texnologiyalar, ayniqsa rehabilitatsiyada va kognitiv funksiyalarni rivojlantirishda foydali bo‘lishi mumkin.

Xotira buzilishlarini davolash va boshqarishda ko‘rilgan chora-tadbirlar kompleksi bemorning umumiy holatini yaxshilashga qaratilgan bo‘lishi kerak. Shunday qilib, bu jarayonda integrativ yondashuv muhimdir, ya‘ni turli sohalardagi mutaxassislar bilan hamkorlikda ishlash, shaxsga moslashtirilgan davolash rejalarini ishlab chiqish va bemorning umumiy farovonligini oshirishga qaratilgan strategiyalarni amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xotira buzilishlari bilan kurashda ko‘ngilli guruhlar va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlik qilish, bemorlar va ularning oilalariga ko‘proq ma‘naviy va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash taklif etish mumkin. Bu tashkilotlar quyidagi xizmatlarni taqdim etishi mumkin:

Xotira hali to‘liq tushunilmagan ko‘plab hodisalardan biri hisoblanadi. Har birimiz uy kalitlarini unutib qo‘yadigan vaziyatlarni yaxshi bilamiz, rejalashtirilgan uchrashuv sizning boshingizdan uchib ketadi va hokazo. Har bir insonning xotirasi kichik bo‘ladi, lekin ular tez-tez sodir bo‘lsa, o‘ylash uchun asos bor. Bu jiddiy kasallikning alomati bo‘lishi mumkin. Xotirani yo‘qotish yoshlarda ham, keksalarda ham kuzatiladi. Ikkinchi variant keng tarqalgan va mashhur. Afsuski, keksa odamlarning yaqin qarindoshlari va do‘stlari xotira buzilishiga ko‘pincha ahamiyat bermaydilar.

Xotirani yo‘qotish: u nima deb ataladi va nima?

Xotirani to‘rtta jarayonga bo‘lish mumkin: yodlash, saqlash, ko‘paytirish va unutish. Ushbu maqolada biz ularning oxirgisi haqida gapiramiz. Tibbiyotda xotira yo‘qolishi amneziya deb ataladi. Ikkita asosiy tur mavjud: qisman va to‘liq. Birinchi variant - bu mutlaqo normal holat, chunki har bir inson ahamiyatsiz narsani unutishga moyil. Ikkinchi turga kelsak, u butunlay xotiralarni yo‘qotishni anglatadi. Ammo shuni ta‘kidlash kerakki, bu shakldagi amneziya davolash mumkin.

Parhezshunoslar xotira sifati bevosita odamning ratsioniga bog‘liq ekanini ta‘kidlaydi. Xususan, V vitamini yetishmasligi, spirtli ichimliklarni ko‘p iste‘mol qilish va chekish xotiraning yomonlashuviga olib keladi. Shuningdek, oziq-ovqat tarkibida

uglevod va hayvon yog‘ining ko‘pligi ham zarardan holi emas. Jumladan, agar inson betartib ovqatlansa, yog‘li ovqatlarni ko‘p iste‘mol qilsa, neyronlarning hujayrali membranasi qattiqlashadi. Bu esa miyaning axborotni qayta ishlash qobiliyatini pasaytiradi. O‘z navbatida omega-3 yog‘ kislotasiga boy bo‘lgan baliqlarni muntazam iste‘mol qilib borish miya faoliyatini yaxshilaydi. Shuningdek, qahva, choy va kakao ham miya uchun foydali.

Xotirani yaxshilash uchun neyrobika ham yaxshi samara beradi. Neyrobika - aql uchun gimnastikadir. Buning uchun:

Odatiy harakatlarni chap qo‘lda bajarishga harakat qiling (chapaqaylar o‘ng qo‘lda). Bu miya yarimsharlari orasidagi aloqani kuchaytiradi.

Kundalik yumushlarni yopiq ko‘z bilan amalga oshirib ko‘ring (ovqatlanish, dush qabul qilish). Miya sezgi a‘zolaridan olingan ma‘lumotlarni chuqurroq tahlil qilishga to‘g‘ri keladi.

Bir xilda bajaradigan ishlaringizga yangilik kiriting (masalan har kuni qiladigan ish tartibini o‘zgartiring).

«Aql ozuqasi»ga bee‘tibor bo‘lmang. Ratsionga mevalar, choy va ko‘katlarda ko‘p bo‘lgan antioksidantlarni kiriting.

Stol o‘yinlari o‘ynang. Turli yo‘llarni tanlash va qadamlarni oldindan hisoblab chiqish miyaga «zanglab» qolmaslikka yordam beradi.

Neyrobiolog mutaxassislar xotirani yaxshilash uchun yangi til o‘rganishni tavsiya qiladilar.

Xotira pasaymasligi uchun bir qator tavsiyalarga amal qilish mumkin. Ular asab tizimini sog‘lom holatda saqlashga va xotirani kuchaytirishga yordam beradi. Profilaktik chora-tadbirlarga quyidagilar kiradi:

Kuniga kamida 2 litr suv ichish (suyuq taomlardan tashqari);

Taomnomaga e‘tibor qaratish;

Har kuni xotirani mustahkamlash uchun mashqlarni bajarish;

Har kuni toza havoda sayr qilish;

Zararli odatlarni (ichish, chekish) bartaraf etish;

Sutkasiga kamida 8 soat uxlash;

Dam olish tartibiga rioya qilish;

Stressli vaziyatlarga tushib qolishdan qochish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Достижения и перспективы в области охраны здоровья детей в Республике Узбекистан/ “Болалар учун ижтимоий ҳамкорлик: миллий ва халқаро илғор тажрибалар” мавзусидаги халқаро форум материаллари. – Т.: 2014.

2. Akramova F.A. Oilada sog‘lom psixologik muhitni tarkib toptirishning ijtimoiy-psixologik asoslari. o‘quv-uslubiy qo‘llanma.T., 2014. 185 bet

3. Амбрумова А.Г., Жезлова Л.Й. О некоторых формах девиатсии поведения у под ростков. // «Актуальные проблемы психоневрологии детского возраста», М., 1973. -С. 26-31.

4. Umarov B.M. Bolalar va o‘smirlarda xulq og‘ishi kelib chiqishining ijtimoiy psixologik sabablari. // «Psixologiya» jurnali, 2011. 4-son. –30-34-b.

5. Л.В.Зубова, Е.В.Назаренко Психология развития и возрастная психология Оренбург 2012.

6. Z.T.Nishanova, N.G.Kamilova, D.U.Abdullayeva, M.X.Xolnazarova. Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya darslik. “o‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti. Toshkent -2018.

ҲАРБИЙ ТАЪЛИМДА ЗАМОНАВИЙ ПЕДАГОГИКА ВА ПСИХОЛОГИЯНИНГ ДОЛЗАРЪ ЁНДАШУВНИНГ АҲАМИЯТИ ВА ЎҚИТИШ ИНОВАЦИОН ЕЧИМЛАРИ

*Сафаров Шухрат Зафарович –
Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучлари
кичик мутахассистлар тайёрлаш маркази
Тактика цикли катта ўқувчиси, подполковник*

Аннотация. Ушбу мақолада Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучлари ҳарбий таълим муассасаларида ўқитиш жараёнида таълимда технологик ёндашувнинг аҳамияти тўғрисида қисқача маълумотлар баён этилган.

Калит сўзлар: Таълим, технология, рақобатбардош, маҳсулотдор, продуктив, эпизодларга, оптимал, дидактик, рационал, конструктив.

**“Бизнинг энг катта камчилигимиз
таслим бўлишдир. Муваффақиятга
эришишнинг энг аниқ усули-ҳар доим яна
бир бор уриниб кўриш”.**

Томас Эдисон.

Янги Ўзбекистонимизда ислохатлар тобора кенг қулоқ ёймоқда. Ҳаётимизнинг барча жабҳаларида, жумладан, ёш авлод таълим-тарбиясида ҳам кескин ўзгаришлар содир бўлмоқда. Тарихимизни маънавиятимизни чуқур ўрганиш, қайта тиклаш, янада бойитиш борасида ҳаракатлар, таълим- тарбия, кадрлар тайёрлаш йўлидаги туб ўзгаришлар шулар жумласидандир.

Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучлари ҳарбий таълим муассасалари олдида Қуролли Кучлар учун юқори касбий маълумотларга эга бўлган малакали мутахассисларни, юқори малакали илмий ва педогогик кадрларни тайёрлаш ва қайта тайёрлаш вазифалари қўйилган.

Шундан келиб чиққан ҳолда, Қуролли Кучларимиз ҳарбий таълим муассасаларида курсантларни тайёрлаш мақсадлари, мазмуни, технологияси ва тамойилларини такомиллаштириш билан боғлиқ бўлган ўқув жараёнини ислох қилиш вазифалари турибди.

Таълим жараёнида курсантлар (тингловчилар) нинг мустақил ўқиш, билим орттириш бўйича фаоллигини таъминлашга қаратилган қатор таълим усуллари ишлаб чиқилган. Улар жумласига муаммоли таълим, амалий ўйинлар, роли ўйинлар ва бошқаларини мисол қилиб кўрсатиш мумкин. Бизнинг фикримизча, бунинг асосий сабаби шундаки, бундай машғулотнинг ҳар бирига тайёрланишнинг ўзи бутун бир педагогик таъқиқот бўлиб, у юксак

профессионализмизни, ижодий ёндашувни ва анча вақт сарфлашни тақозо этади. Ҳар бир машғулотнинг сценарийси, одатда, ўзига хос бўлиб уни кўпайтириш мумкин эмас.

Таълимга тушинтириш-кўрсатмали ёндашув усули таълим тизимида катта ўрин тутади. У такомиллаштиришни давом эттираяпти, бироқ мазкур такомиллаштиришнинг имкониятлари бу ёндашувни ўзига қўйилган тамойиллар билан чегаралангандир. Тез ривожланиб боровчи фан ва техниканинг талаблари таълим тизимидаги ислоҳотлар, таълим методлари билан жамиятнинг рақобатбардош кадрлар тайёрлашга бўлган талаби, шахсни ривожлантириш ва уни билимга бўлган эҳтиёжларини қондириш ўртасида зиддиятга олиб келди. Бугунги кунда барча таълим муассасаларида, жумладан олий ҳарбий таълимда ҳам технологик ёндошувга талаб тобора ортиб бормоқда.

Педагогикада технологик ёндошув ҳам қидирув-тадқиқий ёндашув ҳам зарур. Ҳар бир ёндашувнинг ўзини тадбиқ этиш соҳаси мавжуд. Шу боис таълим-тарбия жараёнини ташкил этишда уларни оптимал равишда бирга қўшиб олиб бориш мақсадга мувофиқдир. Юқорида таъкидланганидек, ҳозирги вақтда ривожланган мамлакатларда таълимнинг турли даражалари учун педагогик технологиялар моделлари, шу жумладан продуктив (маҳсулдор) ва қидирув-ижодий моделлари ишлаб чиқилган.

Мамлакатимиз педагоглари педагогик технологияларни ишлаб чиқиш, илғор ўқитувчилар томонидан қўлланилаётган таълим технологияларини намоён қилиш ҳамда уларни амалиётга жорий этиш бўйича кейинги вақтларда кенг қамровли ишларни бошлаб юбордилар. Ушбу соҳадаги ишларни жадаллаштириш учун унга эътиборни янада кучайтириш зарур. Чунки янги таълим стандартлари ва дастурлари доирасида кўп даражали таълим тизимида ўқув жараёнини эскирган методика асосида ташкил этишга асло йўл қўйиб бўлмайди.

Таълим тизимидаги кенг масшабли таркибий ислоҳотларни республикамиз педагоглари томонидан янги педагогик технологияларни ўзлаштириш ва ўқув жараёнига, айниқса олий ҳарбий таълим тизимида кенг жорий этиш билан мустаҳкамлаш орқали рўёбга чиқариш керак. Бунинг учун юқорида таъкидланганидек, Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучлари олий ҳарбий ўқув юртлари, Кичик мутахассисларни тайёрлаш марказида фаолият юритаётган педагоглари ўқув жараёнини технологик ёндашув орқали ташкил этиш, бошқариш ва баҳолашга ўрнатиш керак. Бу эса педагогик технологияни олий ҳарбий ўқув юртлари, Кичик мутахассисларни тайёрлаш марказида олиб борилаётган таълим тизимида нафақат жорий этишга, балки Ўзбекистон тажрибаси, анъаналари, маданиятини ҳисобга олган ҳолда уни янада ривожлантиришга имкон яратиш беради.

Технологик ёндашув доирасида яратилган дидактик лойиҳалаш усулларида фойдаланишга ўқув жараёнини рационал, шу вақтнинг ўзида ижодий режаллаштиришга ёрдам беради. Янги фикрларни рўёбга чиқаришга, уларни яқуний натижаларини баҳолашга имкон яратади. Ўқув дарсликларини яратувчи муаллифлар ҳам педагогик технология асосида таълимни ташкил этишнинг ўзига хос хусусиятларини ҳисобга олишлари жуда муҳимдир.

Анъанавий ўқув жараёнига технологик ёндашув фақатгина комплекс тарзда

жорий этилмасдан, балки педагогик технологияларнинг айрим элементлари бўйича (уларни эгаллаб ва методик таъминотини тегишли даражада тайёрлаб борган сари) ҳам жорий этилади. Бу биринчи галда хусусий ўқув мақсадларини конкретлаштириш усулларига таалукли бўлиб, улурни педагогик технологиянинг марказий томони, ядроси деб айтиш мумкин.

Шуни алоҳида таъкидлаш лозимки, педагогик технологияни пайдо бўлиш давригача таълим тизими ўқув жараёнини лойиҳалашни аниқ ва етарли даражада самарали қоида-қонунларини ишлаб чиқа олмаган. Педагогик технология, педагогга ўқув жараёнини лойиҳалашни амалга ошириш учун кенг фаолият майдонини қолдирган ҳолда, мазкур камчиликка барҳам берди.

Педагогик технологияни вужудга келгунига қадар таълим тизими (унинг доирасида бошқа предметлар қаторида мураккаб қурилма ва жараёнларни лойиҳалаш масалаларини ўрганилишига қарамасдан) ўқиш-ўқитиш жараёнининг ўзини лойиҳалаш бўйича аниқ ва етарли даражада самарали қоидаларни ишлаб чиқмоқда. Педагогик технология лойиҳалаштирилган ўқув жараёнини амалга ошириш учун педагогикага ижодий ёндашиш учун кенг имконият яратган ҳолда мазкур камчиликни тўлдирди.

Ҳарбий таълим муассасаларида тарбиявий ишлар услублари курсантлар (тингловчилар) жамоаси фаолиятини ташкил қилишдаги жараёнида уларнинг онгига, ҳиссиётларига ва ҳулқларига таъсир қилиш усуллари дидир. Бундай таъсир қилишда жамоавий ижодий ишлар муҳим аҳамият касб этади.

Шахс ўз фаолияти асосида шаклланади ва ривожланади. Жамиятда яшаш, бошқа кишилар билан ҳамкорлик қилиш, ўзаро фаолият юритиш кишининг фақат жамоа ишларидаги иштироки, жамоавий ижодий фаолияти орқали шаклланади.

Жамоавий ижодий фаолиятнинг асосини жамоавий ижодий ишлар ташкил этади. Жамоавий ижодий ишлар курсант (тингловчилар)ни иш фаолиятида иштирок этишларига ва ташаббускорлик кўрсатишларига ёрдам беради.

Жамоавий ижодий фаолият (ЖИФ) гуруҳда курсантлар (тингловчилар) томонидан танланган аниқ бир ишни ташкил қилиш қуйидаги олти босқични амалга оширишни кўзда тутаяди: ижодий иш мақсадини аниқлаш, гуруҳни ижодий гуруҳларга ажратиш; бўлажак ижодий ишни тайёрлаш лойиҳасига киритилган ҳар бир ижодий гуруҳнинг таклифларини муҳокама қилиш; ижодий ишни ташкил қилишда таклифларни тўплаш, умумлаштириш; уни ўтказиш; Нима амалга ошди, нима ошмади, нега? Ўтказилган иш янада яхши бўлиши учун нима қилиш керак? Ижодий ишдан қандай тажриба олинади? Бундан кейинги ишларни ташкил қилишда яна нималарга эътибор бериш керак? каби саволлар билан ўтказилган ЖИФ натижаларини таҳлил қилиш; ишнинг натижасини аниқлаган ҳолда унга яқун ясаш.

ЖИФ технологияси курсант ва (тингловчилар)ни ижодга йўналтиради, ҳаракат қилишнинг зарур шакллари ва услубиётларини топиш вазифаларини белгилайди, мақсадни аниқлашга ўргатади, ишни ташкил этишга ёрдам беради, жамоа ва алоҳида курсантларнинг ташаббусини қўллаб-қувватлайди ва кучайтиради, курсант ва (тингловчилар)га ўз қобилиятларидан янада яхшироқ

фойдаланиш имкониятлари ҳақида маслаҳат беради, курсант ва (тингловчилар) жамоанинг ахлоқий жиҳатдан ривожланишини кузатиш ва ишларни тартибга солиш имкониятини беради.

Педагогик технологиянинг ўзига хос хусусияти шундан иборатки, бунда режалаштирилган ўқув мақсадларга эришиш учун кафолатланган ўқув жараёни лойиҳаланади ва амалга оширилади. Технологик ёндашув энг аввало шунда намоён бўладики, бунда у педагог қўлига баён қилувчи, таърифловчи схемани эмас, балки лойиҳалаштирилган натижаларга эришишга ёрдам берадиган конструктив схемани беради.

Мақсадга йўналтирилган, жорий натижаларни диагностик текшириш, таълимни алоҳида-алоҳида ўргатувчи эпизодларга бўлиб чиқиш каби таълим жараёнини тузишнинг барча хусусиятларини қайта тикладиган таълим цикли ғоясига мужассамлаштириш мувофиқ бўлади.

У қуйидагиларни (бу ерда улар тезис тарзида, санаб ўтилади) ўз ичига олади:

-таълим мақсадининг умумий тарзда қўйилиши;

-таълим мақсадларини умумий тарзда қўйилишидан уларни аниқлаштиришга ўтиш;

-курсант ва тингловчиларнинг билим даражасини дастлабки (диагностик) баҳолаш;

-ўқув соҳаси бўйича бажариладиган ишлар мажмуи (мазкур босқичда тезкор тесқари алоқа асосида таълим жараёнига тузатиш (коррекция) киритилади);

-натижани баҳолаш;

Ана шундай қайта тикладиган тузилма туфайли ўқув жараёни модул характерига эга бўлади, алоҳида-алоҳида блоклар, бирликлардан ташкил топади, улар умумий тузилмага эга бўлган ҳолда турли мазмун билан тўлдирилади. Ҳарбий таълим соҳасида эркинликки ижодий фаолиятни эркин танлаш ва бунинг учун имконият яратиш орқали эришилади. Бундай шароитда мустақил равишда билим олиш педагогикасини ишлаб чиқиш, хусусан таълим жараёнида курсант ва тингловчилар фаолиятининг турли хилида ўз иқтидорларини намоён қилишга ёрдам берувчи педагогик технологияларни жорий этиш энг муҳим педагогик муаммо ва амалий вазифага айланади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Таълим ва тарбияда инновацион педагогик технологиялар. Равшан Ишмухамедов, Мақсуджон Юлдашев. Тошкент-2013 йил.
2. Ҳарбий педогогика Сотиб-Олдиев А., Каримжонов А. “Шарқ”, 2005йил.
3. Ҳарбий психология Ч.Р. Насриддинов “Фан” нашрети 2004 йил.
4. Психологик операциялар Р.И. Абдуллаев Тошкент 2004 йил.

HOZIRGI ZAMON HARBIY PSIXOLOGIYA FANINING HARBIY XIZMATCHILARNI AHLOQIY – RUHIY TAYYORLASHDA TUTGAN O’RNI

*Sharapov Sh.A. – O‘zbekiston Respublikasi
Qurolli Kuchlari kichik mutaxassislar tayyorlash markazi
Gumanitar va ijtimoiy fanlar sikli o‘qituvchisi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada Harbiy xizmatchilarni jangavor harakatlarga tayyorlashda harbiy psixologiya fanining tutgan o‘rni va ahamiyati ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: Harbiy xizmatchi, jangovar xarakter, shaxsiy tarkib, ruhiyat, jangovar sharoit, bo‘ysunuvchanlik, itoatkorlik, ishonch, sodiqlik, qo‘rqmaslik, botirlik, jasurlik, qat‘iyatlik, tirishqoqlik, sabr-toqatlik.

**“Harbiy xizmatchini psixologik tayyorlash harbiy mutaxassis
tayyorlashning negizidir”**

Mirziyoyev Sh.M.

Psixologik ishlar - komandir, shtablar, tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar organlari, psixologlar va tibbiy xizmati ofitserlari tomonidan tashkil etib o‘tkaziladigan harbiy xizmatchilarning o‘zini tutishida (harakatlarida) o‘zgarishlarni aniqlash, shaxsiy tarkibning kundalik-jangovar vazifalarni bajarishda mustaxkam iroda va xissiyotlik va psixologik boshqaruvchan xususiyatlarni shakllantirish, o‘z vaqtida psixogen jaroxat olgan harbiy xizmatchilarni safga qaytarishga qaratilgan maqsadli va kelishilgan kompleks tadbirlarining o‘tkazilishiga aytiladi.

Psixologik ishlarning asosiy maqsadi – harbiy xizmatchilarning ruxiy holati va xususiyatlarini, ijtimoiy psixologik shartlar va harbiy jamoalardagi holatlarni, harbiy xizmatchilarning o‘zaro munosabatlarini ilmiy psixologik nazariyasiga va shaxsning individual psixologik tadqiqodlarga asoslanib ruxiy holatini boshqarish.

Psixologik ishlarning vazifalari:

kundalik-jangovar faoliyatni psixologik mazmunini prognoz qilish, harbiy xizmatchining psixofiziologik xususiyatlariga va harbiy jamoalarning ijtimoiy psixologik ko‘rsatgichlariga quyilgan talablarini aniqlash;

harbiy xizmatchilarning individual-psixologik xususiyatlarini o‘rganish va baxolash, harbiy jamoalarning ijtimoiy psixologik protseslarini tarqqiy etishini prognoz qilish;

harbiy xizmatchilarni harbiy-kaspiy tayyorgarligi va psixologik jihatdan bir-biriga mosligi bo‘yicha bo‘linmalarga tarqatish;

shaxsiy tarkib bilan psixologik, psixogigiena va psixoprofilaktikadan targ‘ibotni tashkil etish va o‘tkazish;

harbiy xizmatchi va harbiy jamoalarni konkret axloqiy-ruxiy va vaziyatning turli sharoitlarida faoliyat yuritish bo‘yicha psixologik tayyorgarlikni va tavsiyanomalarni tayyorlash;

jangovar tayyorgarlik, jangovar va qorovul xizmatini psixologik ta'minoti;
harbiy xizmatchilarning harbiy xizmat shartlari va psixotravma ko'rsatgichlarini yengib o'tishiga psixologik yordam ko'rsatish;

psixologik izdan chiqqan va psixologik travma olgan harbiy xizmatchilarni psixologik rehabilitatsiya qilish;

Psixologik ishlarning asosiy turlari psixologik tayyorgarlik, psixologik quvvatlash, psixologik yordam, psixologik rehabilitatsiya, ijtimoiy-psixologik readaptatsiya.

Psixologik tayyorgarlik – harbiy xizmatchilarning ekstrimal vaziyatlarda yuqori ruxiy zo'riqishni va psixologik boshqaruvchanligini hamda mustaxkam iroda va xissiyotlikni shakllantirish maqsadida o'tkaziladigan jangovar va jismoniy tayyorgarlik elementlari.

Psixologik tayyorgarlik umumiy, maxsus va maqsadli psixologik tayyorgarliklarga bo'linadi.

Umumiy psixologik tayyorgarlik – harbiy xizmatchilarda xizmat faoliyati davomida kerak bo'lgan ijtimoiy-ruxiy va jismoniy xususiyatlarni, barcha shaxsiy tarkib uchun umumiy talablar va ko'rsatmalarga mos keladigan hamda ruxiy darajasini mustaxkamlash orqali kundalik jangovar faoliyatda ruxiy zo'riqishlarga bardosh bera oladigan, shu bilan birga mardlik, jasurlik, shijoatlik va irodani shakllantirishga qaratilgan kompleks tadbirlardir.

Maxsus psixologik tayyorgarlik – harbiy xizmatchilarning xizmat majburiyatlarini bajarish mobaynida vaqtning kamligi, nostandart va xavfli sharoitlarda ruxiy treninglar o'tkazish, ya'ni kundalik-jangovar faoliyatning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish, mutaxassisligi bo'yicha to'satdan va xavfli trenajlar, autotrening va boshqalar.

Maqsadli psixologik tayyorgarlik - komandir, shtablar, tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar organlari, psixologlarning tayyorlov davrida tabiiy-klimatik va axloqiy -ruxiy sharoitlarda axloqiy faollikni ko'tarish va harbiy xizmatchilarning ruxiyatini kundalik-jangovar vazifalarni bajarishga safarbar qilish maqsadida o'tkaziladigan faoliyatlari hisoblanadi.

Psixologik quvvatlash (podderjka) – kundalik-jangovar vazifalarni bevosita va ekstrimal vaziyatlarda bajarishda o'zarohamjixatlikni tashil etish, harbiy xizmatchilarning quyilgan vazifalarni bajarishni davom ettirish uchun psixotravma olish faktorlarini pasaytirish, salbiy psixologik holatini yechish, ruxiy zo'riqishlarda irodaviy xissiyotni ta'minlash va psixologik qobiliyatini tiklash.

Psixologik quvvatlashning asosiy vazifasi – harbiy xizmatchilarning o'z harakatlarini va sodir bo'lgan holatni nazorat qilishga yordam berish, kundalik-jangovar vazifalarni bajarishda va tezkor vaziyatdan kelib chiqib, kuchli asabiy-ruxiy zo'riqishni yechish, shu bilan birga mustaxkam irodaviy hissiyotni va psixologik boshqaruvchanlikni saqlash.

Psixologik yordam – harbiy xizmatchilarning harakatlarini va psixologik holatni psixokorreksiya qilish usul va uslublarini, psixologik protsedurlar tizimini amaliy qo'llash orqali kundalik-jangovar vaziyatda, ularning psixotravma faktorlarini yengishi va psixologik qobiliyatlarini tiklash.

Psixologik yordam asosiy vazifalari:

sezilarsiz ruxiy o'zgarishi bor harbiy xizmatchilarga mediko-psixologik ta'sir ko'rsatish, kuzatish va ro'yxatga olish;

harbiy xizmatchilarni ruxiy holatini korrektsiya qilish, psixotravma olish sabablarini bartaraf qilish, birlamchi psixologik yordam berish;

harbiy xizmatchilarga malakali psixologik yordam berish, jangovar qobiliyatini tiklash uchun qo'shimcha qiziqtiruvchi omillarni yaratish;

og'ir psixotravma olgan harbiy xizmatchilarga mutaxassis-psixiatr tomonidan maxsus psixatrik yordam berish uchun harbiy davolash muassasalariga evakuatsiya qilish.

Psixologik ishlarning samaradorligi oshadi:

shaxsiy tarkibni axloqiy -ruxiy holatini doimiy o'rganish va baxolash, yakka va jamoaviy kayfiyatni axloqiy -ruxiy ta'minotni rejalashtirish va tashkil etishda inobatga olish;

harbiy xizmatchilarning ruxiy ta'sir ko'rsatish va harbiy jamoalardagi ijtimoiy-ruxiy protsesslarni boshqarish;

kundalik-jangovar vazifalarni unumli bajarishlari uchun harbiy xizmatchi va bo'linmalarda maqsadli ruxiy tayyorgarlik va psixotreninglar o'tkazish;

kundalik-jangovar vazifalarni bajarishda va undan keyingi psixogen yo'qotishlar darajasini kamaytirish maqsadida harbiy xizmatchilarni o'z vaqtida va ta'sirchan ruxiy quvvatlash va yordam berish;

yuqari malakali mutaxassislarni tayyorlashda maxsus psixotashxis va sotsiometrik priyomlardan, psixologik ishlarni qo'llashda ilmiy usul va shakllardan foydalanish;

komandirlar, tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar bo'yicha o'rinbosarlar, psixologlar va boshqa tibbiy xizmat xodimlari tomonidan birgalikdagi va kelishilgan tadbirlarning o'tkazilishi.

Psixologik ishlar - bo'linmalar shaxsiy tarkibini axloqiy-ruhiy tayyorlash harbiy xizmat jarayonining boshqa tarkibiy qismlari bilan bir qatorda, zamonaviy jang talablariga javob beradigan harbiy jamoa psixologiyasini shakllantirish, xususan, jamoa fikri, kayfiyati, odatlari, o'zaro munosabat va emotsional ta'sirlanishini o'z ichiga oladi.

Ijobiy jihatdan yo'naltirilgan harbiy jamoa psixologiyasi harbiy xizmatchi xulq-atvoriga faol ta'sir ko'rsatadi. Natijada harbiy xizmatchining vaziyatdagi hodisa va sharoitlarni qabul qilish xarakteri uni intizomli bo'lishga chorlaydi. Ushbu holat harbiy jamoa a'zolari harakatlaridagi faollik va samaradorlikni o'sishiga, umumiy psixologik ko'tarinkilik va shaxsiy tarkib g'ayratini hosil qilishga xizmat qiladi.

Harbiy jamoa psixologiyasining salbiy tus olishi soxta jamoatchilik va qalbaki o'rtoqlik ko'rinishida namoyon bo'lishi, jamoa a'zolari tomonidan mavjud salbiy holatlarning sir tutilishi, buning natijasida harbiy intizom buzilishi va boshqa ko'ngilsiz holatlar yuzaga kelishiga sharoit yaratishi mumkin.

Harbiy xizmatchilarning individual-psixologik xususiyatlarini hisobga olish, ularni jipslashtirish, jamoada sog'lom fikrni hosil qilish, jamoatchilikni rivojlantirishda bo'linma faollariga tayanish, xizmat faoliyati davomida komandirlarning shaxsiy namunasi va obro'si, o'zaro nizomga oid munosabatlarni ta'minlash – mustahkam

harbiy jamoani shakllantirishning eng muhim yo'nalishi bo'lishi kerak.

Psixologik ishlarni tashkillashtirish davomida quyidagi vazifalar bajarilishi zarur:

harbiy xizmat sharoitini psixologik jihatdan o'rganish, uni tahlil va prognoz qilish, harbiy xizmatchilarning psixofiziologik sifatlari hamda harbiy jamoaning ijtimoiy-psixologik ko'rsatkichlarini inobatga olgan holda talablarni belgilash;

harbiy xizmatchilarning individual-psixologik xususiyatlari, harbiy jamoalardagi ijtimoiy-psixologik sharoitning rivojlanish jarayoni va unda yuz berayotgan hodisalarni o'rganish va baholash (psixodiagnostika qilish) hamda uning kelgusidagi taraqqiyotini prognoz qilish;

mustahkam harbiy intizom, uyushqoqlik va jipslikni ta'minlash, harbiy xizmatchilarning xulq-atvoridagi og'ishlar (deviant xulq-atvor)ni ogohlantirish maqsadida, shaxsiy tarkib psixoprofilaktikasi (psixologik bilim berish, psixogigienaga oid tadbirlar o'tkazish)ni tashkil qilish va o'tkazish;

harbiy xizmatchilar va jamoalarni muayyan jangovar, axborot-psixologik va boshqa ekstremal sharoitlarda harakat qilishga qaratilgan psixologik tayyorgarligini tashkil etish yuzasidan tavsiyanoma (taklif)lar ishlab chiqish;

xizmat va jangovar topshiriqlar bajarish jarayonida psixologik jihatdan ta'sir etuvchi omillarni engib o'tishda, xulq-atvorda kuzatiladigan og'ishlarning klinik shakllarini bartaraf etishda harbiy xizmatchilarga psixologik yordam ko'rsatish.

Psixologik ishlarning diqqat markazida quyidagilar bo'lishi shart:

qorovullik (jangovar navbatchi bo'linma) va ichki xizmatni ta'minlaydigan psixologik ishlarning samarali tizimini yaratish va qo'llash;

harbiy xizmatchilar va jamoalarning individual-psixologik xususiyatlarini o'rganish, asabiylashadigan va psixologik beqarorlikka moyil shaxslarni aniqlash, huquqbuzarliklar va o'z joniga qasd qilish holatlarni profilaktika qilish bo'yicha psixologlarning ish shakli, usuli hamda faoliyatini takomillashtirish;

psixologik ishlarni tashkil qilish tajribasini o'rganish va targ'ibot qilish;

harbiy xizmatchilarning psixologik salomatligini saqlash va qo'llab turishga oid psixologik ishlarni o'tkazish, stress holatlariga uchragan shaxslarning holatini tiklash;

ofitserlarning psixologik va pedagogik tayyorgarligini takomillashtirish, harbiy xizmatchilar, ularning oila a'zolari hamda fuqaro xodimlarni psixologik masalalardagi bilimini oshirish hamda harbiy qism va muassasalarni o'quv-metodik materiallar bilan ta'minlash;

harbiy psixologlar faoliyatini moddiy-texnik ta'minlash ishlarini takomillashtirish.

Psixologik ishlarni tashkil etishda quyidagilarga ahamiyat beriladi:

qo'shinlarda bajarilayotgan topshiriq va vazifalarning o'ziga xosligi, harbiy qism va muassasalar joylashgan hududlardagi ijtimoiy-iqtisodiy va psixologik vaziyatning harbiy xizmatchilar va jamoalarga nisbatan ta'siri;

harbiy qism va muassasalarning shaxsiy tarkib bilan butlanganligining sifati va soni, harbiy xizmatchilar, ularning oila a'zolari hamda fuqaro xodimlarning kayfiyati va holati, ularning psixologik holatiga ta'sir etuvchi tashqi axborot-psixologik omillar.

Psixologik ishlarga oid tadbirlar tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar rejasida axloqiy-ruhiy tayyorgarlik tadbirlari doirasida rejalashtiriladi.

Psixologik ishlarning ustuvor vazifalaridan kelib chiqqan holda guruh, vzvod komandirlari, vzvod komandirining tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar bo'yicha o'rinbosarlariga quyidagilarni o'rgatish tashkil etiladi:

- o'z joniga qasd qilish xavfi yuqori bo'lgan harbiy xizmatchilarni aniqlash, ushbu toifa harbiy xizmatchilarga nisbatan ko'riladigan chora-tadbirlar shakl va usullari;

- sezilarli darajadagi jismoniy va psixologik yuklamalar hosil bo'lganda mustaqil va o'zaro psixologik yordam ko'rsatish usullari.

Harbiy xizmatchilarni psixologik holatini o'rganish va mustahkamlash maqsadida quyidagi ishlarni o'tkazish tavsiya etiladi:

jangovar harakatlargacha ya'ni tinchlik davrida tarbiyaviy ishlarni to'liq va samarali olib borish;

tarbiyaning shakl va uslublaridan keng qamrovli va o'rinli foydalanish;

yakka tartibdagi tarbiyaviy ishlarni olib borish va unda harbiy xizmatchilarni individual sifatlarini o'rganishga alohida e'tibor qaratish;

jangovar guruhlarni tuzishda, harbiy xizmatchilarni lavozimlarga tayinlashda individual sifatlarini hisobga olish;

jangovar tayyorgarlik mashg'ulotlarini samarali tashkillashtirish va ularni jangovar vaziyatga yaqinlashtirilgan holatda olib borish;

oldindagi jangovar harakatlar to'g'risida shaxsiy tarkibga to'liq axborot berish;

barcha ta'minot turlarini yo'lga qo'yish, shaxsiy tarkibni ijtimoiy muhofazasini ta'minlash;

bo'linmada jangovar harakatlarning ilg'or tajribalarini targ'ibot qilish, ularni qaytarish, tajriba almashish va qahramonlik va jasorat namunalarini rag'batlantirish, davlat mukofotlariga taqdim etish;

jangda halok bo'lgan va yaradorlarga hurmat bajo keltirish, ularni oila a'zolarini moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab quvvatlash;

psixologik zo'riqishlardan xalos bo'lish maqsadida madaniy-ma'rifiy ishlarni tashkillashtirish va hakoza.

Katta ahamiyatga ega bo'lgan ishlardan biri bu harbiy xizmatchilarni olib borilayotgan jangovar operatsiyalarga bo'lgan munosabatini hisobga olish va ayniqsa jangovar harakatlar olib borilayotgan hududdan kelib chiqqan va chaqirilgan, o'sha yerda yashovchi aholi o'rtasida qarindoshlik munosabati mavjud yoki diniy qarashlari to'g'ri keladigan harbiy xizmatchilarga alohida e'tibor qaratish lozim.

Zarurat tug'ilganda yuqori turuvchi qo'mondonlar orqali shunday harbiy xizmatchilarni boshqa qismlarga jo'natish yoki jangovar harakatlarni olib borishdan chetlatish (almashtirish) choralari ko'rish lozim. Jangovar harakatlarni kechish jarayoni uzoqqa cho'ziladigan hollarda harbiy xizmatchilarda ruhiy va jismoniy zo'riqish va charchoqlar rivojlanadi. Bu hollarda jangchilar o'zini asrashga, hayotini saqlashga kam e'tibor qaratib, o'zini boshqarish qiyinlashadi. Bunday vaziyatlarda komandirlar jangchilarga yakka tartibdagi va jamoaviy tarzda ta'sir ko'rsatish orqali ularda oddiy o'zini o'zi asrash, himoyalash kabi hislatlarni singdirish, noqonuniy jangari to'dalarining soni, qurollanishi, taktikasi va boshqa ma'lumotlari haqida aniq ma'lumotlarni bermoq lozim.

Jangovar harakatlar kechayotgan davrda komandirning tarbiyaviy va

mafkuraviy ishlar bo'yicha o'rinbosari e'tiborni ruhiy tushkunlikka, o'z kuchiga ishonchsizlikka, qo'rquv va sarosimaga tushgan jangchilarni aniqlash, ularga tiklanishga yordam berish, ruhiy tiklanishni tashkillashtirish lozim. Ushbu holatlarni oldini olish maqsadida psixologlarni ishini yo'lga qo'yish, mahalliy hokimiyat bilan kelishilgan holda shaxsiy tarkib bilan madaniy-ma'rifiy tadbirlarini tashkillashtirish yaxshi samara beradi.

Harbiy jamoada ushbu davrda shaxsiy tarkib tomonidan spirtli ichimliklarni iste'mol qilish holatlari katta salbiy ta'sir ko'rsatib yomon oqibatlarga olib kelishi mumkin. Bunday holatlar zudlik bilan aniqlanib keskinlik bilan oldini olish va jazo qo'llash ishlari amalga oshirilishi lozim. SHu kabi barcha holatlarni shaxsiy tarkibga vaqtida va to'g'ri yetkazish turli xil mish-mishlarni oldini oladi va bo'linmada sog'lom muhit hukum surishni ta'minlaydi.

Xulosa. Qanday tadbir bo'lishidan qat'i-nazar uni o'tkazishga tayyorgarlik ishlari amalga oshiriladi. Oldindagi qo'yilgan vazifani sifatli bajarish uchun ish reja aosida olib borilishi lozim. Jangovar harakatlarni turidan kelib chiqqan holda uni axloqiy-ruhiy jihatdan ta'minlash ishlarini o'tkazish bir qator rasmiy hujjatlar orqali amalga oshiriladi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, yuksak ahloqiy-ruhiy sifatlarni shakllantirishda tarbiyaviy ishlar tizimi va jangovar ruxdagi tarbiya har jihatdan ustunlik qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoev SH.M. "Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz". // T.: "O'zbekiston", 2017, 179-bet.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilarining ma'naviy-ma'rifiy saviyasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-3898-sonli Qarori // Xalq so'zi, 2018 yil 6 avgust.
3. Asmolov A.G. Psixologiya lichnosti. – M.: MGU, 1990.
4. G'oziev E.G'. Umumiy psixologiya.-T.: "Universitet", 2002.
5. Voennaya psixologiya. Uchebnik. /. A.G. Maklakov. - Sank- Peterburg: Piter, 2005. - 464 b.
6. Abduraxmanov R.A. Voennaya psixologiya. Moskva, 1996 y.
7. Ravshanov L.U. "Zamonaviy harbiy xizmatchi imijining psixologik jihatlari" disser., T: 2019.

MOTIV TUSHUNCHASI, UNING SPORT FAOLIYATIDAGI ROLI VA SPORCHILARNING O'ZARO RAQIBLARIGA BO'LGAN MUNOSABAT MOTIVLARI

*Sharipov Farxodjon Xakimovich –
O'R QK KMTM jismoniy tayyorgarlik va sport
sikli o'qituvchisi*

Bugungi kunda sog'lom turmush tarzi va jismoniy madaniyatni rivojlantirish dolzarb masalaga aylangan. Ayniqsa sportchilar ichida ham bu faoliyat turini mavqeyini saqlash halq orasida to'g'ri fikr shakllantirish talabi qo'yilgan. Psixologiya

fanida o'rganilgan muammolardan biri bu motiv va motivatsiya bo'lib, bu bo'yicha turi nazariyalar qarashlar mavjud. Bulardan xususan mahalliy psixolog olimlar E.G'.G'oziev, G'.B.Shoumarov, V.Karimova, B.R.Qodirov, I.M.Mamatovlar rus psixolog olimlaridan K.D.Ushinskiy, I.M.Sechenov, I.P.Pavlov, V.M.Bexterev, A.F.Lazurskiy, V.N.Myasishev, A.A.Uxtomskiy, D.N.Uznadze, S.L.Rubinshteyn, A.N.Leontev, P.M.Yakobson, V.S.Merlin, L.I.Bojovich, V.I.Selivanov, V.G.Aseev va boshqalar mazkur muammo yuzasidan tadqiqot ishlari olib borishgan va o'z nazariyalarini qoldirishgan.

Bugungi kunda xorij psixologiya namoyondalari motivni tashqi qo'zg'atuvchi va organizmning ichki energiyasini faollashtiruvchi deb hisoblaydilar. Aynan bu tushunchani o'zi esa inson xulq-atvori, uning bog'lanishi, yo'nalishi va faolligini tushuntirib beruvchi psixologik sabablar majmuini bildiradi. Bu tushuncha u yoki bu shaxs xulqini, ya'ni «nega?», «nima uchun?», «nima maqsadda?», «qanday manfaat yo'lida?» degan savollarga javob qidirish bizni motiv tomon olib boradi.

Tadqiqot maqsadi: Sportchilarda maqsadga erishish mativlari va o'zaro munosabat mativlarini to'g'ri shakllantirish. Ushbu maqola orqali sportchining o'zaro kommunikativ munosabatlarga to'g'ri kirishish mativini hosil qilishdan iborat sanaladi. Shu sababli shaxsning jamiyatda odamlar orasida xulqi va o'zini tutish sabablarini o'rganish tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lib, masalani yoritishning ikki jihati farqlanadi.

1. Ichki sabablar, ya'ni xatti - harakat egasining sub'ektiv psixologik xususiyatlari nazarda tutiladi (motivlar, ehtiyojlar, maqsadlar, mo'ljallar, istaklar, qiziqishlar va boshqalar).

2. Tashqi sabablar - faoliyatning tashqi shart - sharoitlari va holatlar. Ya'ni, bular aniq holatlarning kelib chiqishiga sabab bo'ladigan tashqi stimullardir.

Tadqiqotni tashkil qilish uslublari: Shaxs xulq – atvorini ichki psixologik sabablar tufayli boshqarish odatda shaxsiy dispozitsiya deb ham ataladi. Ular shaxs tomonidan anglanilishi yoki anglanmasligi mumkin. Ba'zan shunday bo'ladiki, shaxs o'zi amalga oshirgan ishi yoki o'zidagi o'zgarishlarga nisbatan shakllangan munosabatning haqiqiy sababini o'zi tushunib yetmaydi. «Nega?» degan savolga «o'zim ham bilmayman», deb javob beradi. Bu anglangan dispozitsiyalar yoki ustanovkalar deb ataladi.

Shu nuqtai nazardan motiv kengroq tushuncha bo'lib, u shaxsdagi u yoki bu faollik usuliga nisbatan turgan moyillik, hozirlikni tushuntirib beruvchi sababni nazarda tutadi. Mashhur nemis olimi Kurt Levin motivlar muammosi ayniqsa, shaxsdagi ijtimoiy xulq motivlari borasida katta, keng qamrovli tadqiqotlar olib borib, shuni aniqladiki, har bir odam o'ziga xos tarzda u yoki bu vaziyatni idrok qilish va baholashga moyil bo'ladi. Bu baholar turlicha xarakterga ega.

Agar shaxs biror sohaga, kasbga qiziqib, ongli tarzda, uning barcha sir-asrorlarini egallash uchun astoydil harakat qilsagina unda sohaga oid bo'lgan turli motivatsion savollar paydo bo'ladi. Shunday sohalardan biri bu sport faoliyatidir. Bunda asosan shaxsda ikki asosiy motivni vujudga keltirishi mumkin.

1. Sog'lom bo'lish.

2. Mashxurlikka erishish.

Lekin bu har ikkala motiv ham ijtimoiy jarayonlar o'zgarishi yoki sportchi turmush tarzini ma'lum darajada o'zgarishi bilan o'z qiyofasini o'zgartirishi mumkin.

Bundan tashqari turli psixologik maktablar misolida olib qaraladigan bo'lsa bulardan noobixevioristik nazariyalar yangi qo'zg'atuvchilar, insonning organik ehtiyojlarini qoniqtirish bilan stimulyat natijasining uyg'unlashuvi tariqasida tahlil etiladi. Ularning ta'kidlashiga ko'ra, ikkilamchi qo'zg'atuvchilar organik qo'zg'atuvchilarning go'yoki qobig'iga o'xshaydi, xolos. Vilyam Makdugall (1871 - 1938) talqini bo'yicha motivatsiyaning irsiy (tabiatdan beriladigan) xususiyatga ega degan holatni asoslash uchun tug'ma instinktlar masalalari bilan mazkur voqelikni bog'lab tushuntirishga harakat qilgan. Uning fikricha, tug'ma instinktlar ham insonlarga, ham hayvonlarga bir tekis taalluqli bo'lib, ular odamlarning motivida oldin 14 ta, keyinchalik esa 18 tagacha «asosiy instinktlar» sifatida xukm surishi mumkin. Umuman olib qaraganda, bixevioristlar uchun bir qator holatlar uziga xoslikka ega:

1. Bixeviorizm motivatsiya modelini topish bilan shug'ullanib va xulq prinsiplarini vujudga keltira borib, hayvon xulqi hamda ularda kashf etilgan xulq motivatsiyasi qonuniyatlariga asoslanib insonning xulq motivatsiyasi yuzasidan xulosa chiqarishga harakat qiladi.

2. Bixeviorizm insonni biologik mavjudod sifatida qarab, unga biologik jabhada yondashadi, oqibat natijasida uning ijtimoiy mohiyati tadqiqot predmetidan chetda qolib ketadi.

3. Bixeviorizm ham insonga, ham hayvonlarga xos bo'lgan xulqning umumiy prinsiplarini topishga intiladi.

4. Bixevioristlar insonni shaxs sifatida taraqqiy etish jarayonini ifodalovchi o'ziga xosligini yo chetlab o'tadilar yoki o'ta sodda tarzda izohlashga haraka qiladilar.

5. Inson motivatsiyasini o'rganishda foydalanilayotgan bixeviorizmning tushunchalari, chunonchi, birlamchi mayllar, organizmni qitqlovchi tug'ma ehtiyojlar kabilar odamning motivatsiya doirasi tuzilishi mohiyatini juda yuzaki ocha oladi, xolos.

Psixoanalitik konsepsiyalar negizida motivatsiya ortganlik ravishida inson mayllariga xosdir, degan g'oya yotadi. Ularning manbai maylni aks ettiruvchi qaysidir organdagi yoki uning qismidagi somatik jarayon tushuntiriladi. Z.Freydning konsepsiyasida mayllar va instinktlar tushunchalari o'rtasida hech qanday tafovut yo'qdir. Ongsizlik ta'limotining asoschisi Z.Freyd xulq motivalari va ehtiyojlari muammosini ishlab chiqib, motivatsiyaning manbai istinkt, individning saqlanish shartidir deb taqdirlaydi. Mazkur holatni muallif individning energetik potentsiya sifatida talqin etadi. Eng asosiy masala shuki, Z.Freyd motivatsiya regulyatori va motivatsiya energiyasining irsiy manbayi sifatida «u» tushunchasiga qanday ma'no yuklamoqchi. Uningcha, «u» tushunchasining mazmuni tug'ma va o'zgarmasdir. Xuddi shu bois mantiq qonunlari va aql darajalari, ko'rsatkichlari unga hech qanday ahamiyat kasb etmaydi Z.Freyd affektiv, impulsiv shakldagi mutlaqlashgan qo'zg'atuvchilarni nazarida tutgan bo'lsa ajab emas. Ushbu qo'zg'atuvchilar (turtkilar) ning impulsivlik, taxminiylikning affektiv mohiyati, notanqiydiylik, ongli va irodaviy nazoratga itoat etishda qiyinlik kabilarning dinamik xususiyatlarini mutlaqlashtirish bo'lib, ularning asosida quyi genetik va strukturaviy darajadagi qo'zg'atuvchilar yotadi. Z.Freyd takidlab o'tgan dinamik xususiyatlar va xossalari mohiyatida motivatsiyaning chuqur asosiy manbasini ko'radi.

Tadqiqot natijalari va muhokamasi: Mavzu yuzasidan tadqiqotni amalga oshirish

obekti sifatida KMTM bir guruh sportchi kursantlari tanlab olindi. Ularda “Sportchining irodaviy hususiyatlari va muloqotmandlik motivini aniqlash” metodikasidan foydalanildi. Natijalar tahlili shuni ko‘rsatdi 50 nafar sportchidan qo‘yidagi ko‘rsatgich aniqlandi: guruhning 65 % qismi muloqot mativi shakllangan, ammo raqibga bo‘lgan munosabat mativi 30 % ko‘rsatkichda ekanligi aniqlandi.

Aynan bu muammo sportchilarda kuzatilsa E.P.Ilin nazariyasi bo‘yicha sportchini harakatga undovchi asosiy kuch uning faoliyati maqsadini aniqlovchi, unga erishish yo‘llari ko‘rsatuvchi vosita deb yuritilgan. Bundan ko‘rinib turibdiki sportchida dastlab natijaga erishish motivi shakllanadi, keyinchalik esa o‘zaro kommunikativ munosabatdagi raqiblarga bo‘lgan munosabat motivlarini keltirish mumkin. Chunki sportchining dastlab natijaga erishish yo‘lida to‘g‘ridan to‘g‘ri raqib bilan munosabatlar ham tarkib topdi. Aynan mana shu g‘alaba yoki mag‘lubiyat ham raqibga bo‘lgan munosabat yoki raqibning aks munosabatiga bog‘liq hisoblanadi. Misol tariqasida qo‘l jangi sporti bilan shug‘ullanuvchi sportchilar misolida oladigan bo‘lsak bunda musobaqa oldi tayorgarligi unda sportchining o‘zaro musobaqadan oldingi raqibiga bo‘lgan munosabatini dastlabki qadam deyishimiz mumkun.

Xulosa. Bugungi kunda sport guruhlari ko‘plab mamlakatlar hayotida katta o‘rin egallaydi. Ularga ko‘plab turli yoshdagi sport bilan shug‘ullanuvchi odamlar jalb etilgan. Sport guruhlari boshqa guruhlar kabi shaxs-jamiyat tizimida oraliq bir qismni tashkil etadi. Ularning dinamikasi qonuniyatlari jamiyatning sinfli tuzilishi va undagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar bilan belgilanadi.

Adabiyotlar:

1. G‘oziev E.G‘. “Pedagogik psixologiya”//Noshir nashriyoti//Toshkent 2014 y.
2. Ivanov P.I., Zufarova M.E. Umumiy psixologiya. Toshkent-2018 y.
3. E.P.Ilin Psixologiya sporta \\\ Moskva Sankt-peterburg\\ 2009 y.
4. www.natlib.uz
5. www.ziyo.net

PSIXOLOGIK YORDAM KO‘RSATISH VA UNING TA‘LIM MUASSASALARI QO‘LLANILISHINING AYRIM ILMIY-AMALIY JIHALARI

*Sharopova Dilafro‘z Ilxomovna –
O‘R IIV Samarqand akademik litseyi psixologi,*

*Ibragimov Sodiq Bahromovich – Samarqand shahar
22-son umumiy o‘rta ta‘lim maktabining yoshlarni vatanparvarlik
ruhida tarbiyalash va harbiy chaqiriqqacha tayyorlash
bo‘yicha direktor o‘rinbosari*

Annotatsiya. Psixologik yordam ko‘rsatish amaliyoti o‘z metodologiyasiga ega bo‘lib, bunda psixologik xizmat ko‘rsatishning maqsadini belgilab olish muhim hisoblanadi. Maqolada ta‘lim muhitida psixologik yordam ko‘rsatish masalasiga doir fikr-mulohazalar yuritilgan.

***Kalit soʻzlar:** ta'lim muhiti, psixologik faoliyat, pedagogik muhit, psixologik korreksiya, psixologik yordam, psixologik holat, psixologik bilim, rivojlanish psixologiyasi, ijtimoiy mavqe.*

Hozirgi kunda oʻquvchi shaxsi kamol topishini ta'minlash ta'limiy materiallarni faol tarzda oʻzlashtirish masalasiga urgʻu berish lozimligini taqozo etmoqda. Bu oʻz navbatida ta'lim jarayonini ta'minlashga koʻmaklovchi mutaxassislarining funktsional rolga talab oshib borilayotganligini koʻrsatmoqda.

Ta'lim jarayonini ta'minlashga koʻmaklovchi mutaxassislar deganda, pedagog, oʻquvchilar va ularning ota-onalarining kasbiy-pedagogik, individual-shaxsiy mazmunlarga ega boʻlgan muammolarini ilmiy metodikalar yordamida oʻrganib, mutaxassis sifatida taklif va tavsiyalarni beribgina qolmasdan, aniqlangan nuqsonning psixologik korreksiya amalga oshirish uchun faoliyat yurituvchi psixolog, defektolog va logopedlarni tushunish lozim. Garchi ular faoliyatining maqsadi va shakli bir-biridan farqlansada, ammo faoliyat ob'ekti oʻquvchi shaxsi hisoblanadi. Ular faoliyati davomida oʻquvchi shaxsini oʻrganib, maktab ta'limining amaliyotiga psixologik bilimlarni kiritib, pedagog tomonidan oʻquvchi shaxsining ichki dunyosini chuqur bilish uchun amaliy yordam koʻrsatadilar.

Psixologik yordam olish, birinchidan, ota-onalar umumiy madaniyatining tarkibiy qismi hisoblanmish psixologik madaniyatga, ikkinchidan, pedagogning (sinf rahbarining) oʻquvchi shaxsiga boʻlgan munosabatiga, uchinchidan, maktab sharoitida psixologik yordam koʻrsatishning talab darajasida yoʻlga qoʻyilganligiga bogʻliqdir.

Psixologik yordam koʻrsatish amaliyotida qoʻllaniladigan uslublar sifatida psixologik trening (nazariy jihatdan psixologik treninglar shakllantiruvchi, rivojlantiruvchi, oʻrgatuvchi kabi turlarga ajratiladi), erkin assotsiatsiyalar, yoʻnaltiruvchi intervyu, videoyozuvlar tahlili, audio muloqot, dildan suhbat, yaxshi koʻrgan jonzot, chalkashlashtirish, relaksatsiya, hissiy kechinmalarni jonlashtirish, ijtimoiy rolni mustahkamlash, tasavvur etish, psixodrama, psixologik modellashtirish, jismoniy faollik, arterapiya, uchlik samarasi kabilarni koʻrsatib oʻtish mumkin.

Bular qatorida psixologik trening T.V.Zaytsevaning ta'kidlashicha, «madaniy qurol» sifatida oʻquvchining rivojlanishini ta'minlash uchun funktsional ahamiyat kasb etadi. Ammo psixologik yordam olishga barcha ham tayyor emasligini, gohida psixologning faoliyatini tibbiyot xodimining faoliyatidan ajrata olmayotganlikda ham kuzatish mumkin. Mutaxassislar buni shaxsiy madaniyat tizimida psixologik madaniyatni yetarlicha shakllanmaganligi deb baholashadi.

Mazkur masala maktab psixologining faoliyati misolida oʻrganish maqsadida bir necha olim va tadqiqotchilar tomonidan amaliy tadqiqotlar oʻtkazilgan.

Soʻrovnoma va ijtimoiy-psixologik tahlillar natijasi shuni koʻrsatdiki, jamiyatda psixologik yordam koʻrsatish shakli instituttsionallashtirib bormoqda. Bu oʻz navbatida maktab psixologining faoliyatiga ham ta'sir koʻrsatmoqdaki, uning instituttsionallashtiruvining quyidagi sabablari mavjud:

psixologik bilimlar rivojlanib, maktab psixologi oʻquvchi shaxsiga taalluqli boʻlgan har bir psixologik elementni oʻz funktsiyasi boʻyicha amal qilishini, dinamik jihatdan oʻquvchining xulqida ifodalanishini psixologik uslublar vositasida belgilab berish imkoniyatiga ega ekanligi;

ota-onalar o'z farzandlarining taqdiri uchun qayg'urib, ularning shaxsiy qadriyatlarini to'g'ri shakllantirish ularning vazifasi ekanligini anglaganligi sababli psixologik bilimga, jumladan psixologik yordam olishga ehtiyoj oshib, maktab psixologi bilan hamkorlikda ishlashga kirishayotganliklari shular jumlasidandir.

Ta'kidlanishicha, tarbiyaviy faoliyatning maqsadi, o'quvchi (farzand) shaxsining rivojlanishini ta'minlab, tarbiyaviy jarayon ishtirokchisi sifatida unga aniq bir mashg'ulot (vazifa, faoliyat turi) bilan shug'ullanishni, atrofdagilar va o'ziga nisbatan maqbul munosabatda bo'lish tarzini shakllantirishdan iborat. Bu o'z navbatida tarbiyaviy faoliyatda ma'lum bir ijtimoiy-psixologik munosabatlar majmuasining amal qilishini taqozo etadi. Maktab psixologining faoliyati funksiyalarini inobatga olgan holda uni quyidagi ijtimoiy aloqadorlik tarzida ko'rsatib o'tish mumkinki, natija bevosita ibratli o'quvchi shaxsini tarbiyalashga yo'naltirilgandir:

Tarbiyaviy faoliyatning natijasi ko'rinishida o'quvchi shaxsida shakllangan yangi shaxsiy sifatlar ifodalanishi mumkinki, ularning muhimlari sifatida quyidagilarni ko'rsatib o'tish mumkin:

axloqiy me'yorlar, maishiy va ijtimoiy hayot tarzida amal qiluvchi qoidalarni o'rganganligi;

dunyoqarashning shakllanishi, anglangan hayotiy qadriyatlarni egallashga urinishlarning amalga oshirilishi;

faollik ko'rsatib, atrof-muhit va o'ziga nisbatan e'tiborli bo'lishining ifodalanganligi;

mehr ko'rsatish, hissiyotlarni namoyon etish tarzini egallash va ularni namoyon etaolish;

bilim olish uchun mustaqil tarzda axborot texnologiyalaridan foydalana bilish;

muloqotga kirishish va boshqalar bilan hamkorlikda faoliyat yurita olish;

funksional savodli bo'lib, maqsadga erishishni tashkil eta olish;

kasb tanlashga tayyor turib, kasbiy muhit sharoitiga moslasha olish va boshqalar.

Maktab psixologi faoliyati davomida o'quvchilar hamda ularning ota-onalariga individual va guruh tarzida amaliy psixologik yordam ko'rsatishi lozim bo'lganligi sababli, ularga maktab sharoitida tezkor va faol psixokorreksiya kabi psixologik yordam ko'rsatish turlaridan foydalanish tavsiya etiladi. Bunda psixokorreksiya uslublari va qo'llaniladigan vositalari bir-biridan farqlanadi. Psixokorreksiyaning maqsadini inobatga olib, uni uch guruhga ajratish mumkin. Bular o'z navbatida maktab sharoitida amaliy psixologik yordam ko'rsatish turini belgilash jarayoni samaradorligini ta'minlash uchun xizmat qiladi:

maktab o'quvchisini psixik rivojlanishini ta'minlovchi psixokorreksiya;

maktab o'quvchisining o'yin, o'quv va mehnat faoliyatida kuzatiladigan nuqsonlarini tuzatishga qaratilgan psixokorreksiya;

oilaviy munosabatlarda kuzatilgan muammolarni tuzatishga (muloqot formasi, o'zaro munosabatlar xarakteri va shunga o'xshash) qaratilgan psixokorreksiya.

Maktab sharoitida amaliy psixologik yordam ko'rsatish amaliyotida axborot omilining o'rni va uni yetkazadigan kanallarning o'z funksiyasini to'g'ri bajarishi inobatga olinishi lozim. Ya'ni, psixologga maktab o'quvchisiga doir bo'lgan axborotlarning ota-onalar, sinf rahbari yoki fan o'qituvchisi tomonidan yetkazilishi kabi omillar psixologik yordam ko'rsatishning maqsadini belgilab olish uchun muhim

hisoblanadi. Bu o'z navbatida psixologik yordam ko'rsatish samaradorligini ta'minlab, maktab psixologining kasbiy faoliyati yo'nalishlarini belgilab olish uchun ta'sir ko'rsatadi. Natijada:

yaxshi xulq namunasini psixologik yordam oluvchining nigohi bilan belgilab, uni o'zlashtirishni maqsad qilib olishga undash;

ijtimoiy ma'qullangan va ma'qullanmagan hayot tarzi mohiyatini tushuntirib, psixologik korrektsiyaning maqsadidan kelib chiqqan holda yo'l ko'rsatish;

yon atrofdagilar bilan hamkorlik qilish maqsadida muloqotga kirishning maqbul yo'llari mavjudligini ko'rsatish;

maktab o'quvchilarini mustaqil hayotga tayyorlash uchun hayot tarzi va mazmuniga oid axborot jamlash hamda namunaviy hayotiy tajriba kerakligini uqtirish;

hayot tarzini mazmunan boyitish maqsadida turli xulq namunalari mavjudligini ko'rsatib, ularning maqbuli bu ijtimoiy ma'qullanganligini ko'rsatish uchun xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Зайцева Т.В. Теория психологического тренинга (Психологический тренинг как инструментальное действие). - СПб.: «Речь», М.: «Смысл», 2002. –С. 80.

2. Родионов В.А., Ступницкая М.А. Взаимодействие педагога и психолога в учебном процессе. - Ярославль, 2001. –С. 45.

3. Хребина С.В. Организационная психология образования: феноменология и концепция развития. // Автореф... диссертации д-ра психологических наук. – Сочи: Научно-образовательный центр РАО, 2007. –С. 45.

4. Kessel M., Kratzer J., Schultz C. Psychological safety, knowledge sharing, and creative performance in healthcare teams // Creativity and innovation management. 2012. Vol. 21,N 2. - P. 147-157.

5. Madjitova N.H. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida psixologik yordam ko'rsatishning ilmiy-amaliy jihatlari//Jurnal "sovremennoye obrazovaniye", 2017, № 2.

HARBIY XIZMATCHILARNI XALQQA XIZMAT QILISH RUHIDA TARBIYALASHDA OFITSER-O'QITUVCHILAR KOMPETENSIYASINING AYRIM JIHLARI

*Soriyev Xolmurod Yaxshimurodovich –
O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari
kichik mutaxassislar tayyorlash markazi katta o'qituvchisi*

Annotatsiya. Maqolada harbiy ta'lim muassasalari tinglovchi va kursantlarini hamda muddatli harbiy xizmatchilarni xalqqa xizmat qilish ruhida tarbiyalashda ofitser-o'qituvchilar kompetensiyasining ayrim jihatlari, bu jarayonda ma'naviy – axloqiy masalalarga e'tibor qaratish, ofitser–o'qituvchi shaxsiy xislatlarida yuksak axloqiy sifatlar bo'lishligi lozimligi, harbiy xizmatchilarni xalqqa xizmat qilish ruhida tarbiyalash uchun ofitser-o'qituvchilar tomonidan ularda qaysi kategoriyalarni shakllantirish maqsadga muvofiqligi haqida so'z boradi.

Kalit soʻzlar: *Kompetentsiya, kursant, muddatli harbiy xizmatchi, ofitser-oʻqituvchi, axloq, maʼnaviyat, tarbiya, axloqiy fazilatlar, axloqiy qarash, axloqiy tarbiya, axloqiy madaniyat.*

Maʼlumki, “Kompetentlik” (ingl. “competence” – “qobiliyat”) – faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish degan maʼnoni beradi. Ofitser-oʻqituvchi kompetensiyasi nimalardan iborat? 1. Dars berish mahorati. 2. Tarbiyalash mahorati. 3. Oʻquv-tarbiya jarayonida gumanitar omilni taʼminlaydigan shaxsiy sifatlari. 4. Taʼlim oluvchilarning bilimlarini xolisona nazorat qilish va baholash mahorati. Shu nuqtai nazardan qaraganda harbiy taʼlim muassasalari tinglovchi va kursantlari, muddatli harbiy xizmatchilarni xalqqa xizmat qilish ruhida tarbiyalash uchun avvalo, taʼlim-tarbiya beruvchi subʼektlar– ofitser-oʻqituvchilar faol maʼnaviyat targʻibotchisi, shu bilan bir qatorda yuqorida qayd etilgan pedagogik mahoratlarga ega boʻlishi lozim. Yaʼni harbiy taʼlim muassasalari tinglovchi va kursantlari taʼlim olayotgan harbiy bilim yurtlarida, oʻquv kurslarida, muddatli harbiy xizmat xizmatchilar oʻz xizmatini oʻtayotgan harbiy qismlarda maʼnaviy-maʼrifiy ishlar, oʻquvlar ofitser – oʻqituvchilar tomonidan yuksak darajada tashkil etilgan boʻlishi zarur. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev taʼkidlab oʻtganidek, “Yoshlar armiyada nafaqat harbiy tayyorgarlikdan oʻtadi, balki jismoniy va harbiy jihatdan chiniqadi. Ular oʻzlarining fuqarolik maʼsuliyatini, Vatan himoyachisi sifatidagi muqaddas yigitlik burchi chuqur anglab, oʻz yurtiga fidoyi inson boʻlib yetishadi”.

Harbiy taʼlim muassasalari tinglovchi va kursantlarini hamda muddatli harbiy xizmatchilarni xalqqa xizmat qilish ruhida tarbiyalash ishida ofitser-oʻqituvchilarning roli katta. Ofitser-oʻqituvchilar – avvalo, maʼnaviyat sohasidagi yangiliklar va axborotlarni tarqatuvchi, kishilarni ezgulikka daʼvat etuvchi, maʼnaviy hayotning barcha sohalaridagi ilgʻor jarayon va voqealarni muntazam ravishda tahlil etib, bu boradagi dolzarb muammolar echimini topish boʻyicha xabar, maʼlumot, takliflarni ommaga tarqatuvchi shaxslar boʻlishlari zarurdir. Shu bilan birga, harbiy-pedagogik jarayonning oʻziga xos xususiyatlaridan biri oʻquv guruhida taʼlim olayotgan, boʻlinmada xizmat qilayotgan harbiy xizmatchilarning turli bilim va umumtaʼlim tayyorgarlik darajasiga ega ekanligiga eʼtiborni qaratish zarur boʻladi. Chunki bir boʻlinmada oliy, oʻrta maxsus, oʻrta va hatto tugallanmagan oʻrta maʼlumotli askarlar xizmat qilishi va bilim olishi mumkin. Harbiy xizmatchilarning umumtaʼlim darajasidagi bunday tafovut taʼlim jarayonini tashkil etishda koʻproq yakka tartibda yondashishni, alohida taʼlim dasturlarini ishlab chiqishni taqozo etadi.

Ofitser-oʻqituvchilar tomonidan beriladigan bilimlar – ilmiylik, konkretlik, obʼektivlik, ijtimoiy hayot bilan chambarchas bogʻliqlik tamoyillariga asoslanishi lozim, buning uchun bu kasb egalari ilmiy, nazariy, amaliy-tashkiliy jihatdan yetuk inson boʻlishi lozim. U shaxs, jamiyat va davlat ehtiyojlaridan kelib chiqib, ular manfaatini ifoda etib, adolatli jamiyat qurish haqidagi gʻoyalarni harbiylar orasida yoyish, ularlarga maʼnaviy, gʻoyaviy-siyosiy taʼsir koʻrsatish subʼektidir. Bu haqda ulugʻ mutaffakkir Abdulla Avloniy bobomiz shunday deb yozadi: “Tarbiya qiluvchi muallimlarning oʻzlari ilmlariga omil boʻlib, shogirdlariga ham bergan darslarini amal ila choqushirib oʻrgatmaklari lozimdir. Bu ravish taʼlim ila berilgan dars va maʼlumot

shogirdlarning diliga tez ta'sir qilib, mulloyi boamal bo'lurlar".

Harbiy ta'lim muassasalari tinglovchi va kursantlarini hamda muddatli harbiy xizmatchilarni xalqqa xizmat qilish ruhida tarbiyalash uchun ofitser-o'qituvchilar tomonidan ularda quyidagi kategoriyalarni shakllantirish maqsadga muvofiq bo'ladi: - axloqiy fazilatlar; axloqiy qarash; axloqiy tarbiya; axloqiy madaniyat.

Axloqiy fazilatlar–insonni yaxshilikka chorlaydigan, yomonlikdan qaytaradigan axloqiy qarashlarning doimiy odati, amaliy faoliyatiga aylanganini bildiradigan tushunchadir. U insonni axloq namunalari o'zida mujassam etadi va ma'naviyatning o'zagini tashkil etadi.

Ma'lumki, Sharq xalqlarining madaniyati, falsafasi, dunyoqarashida insondagi axloqiy fazilatlar qadimdan ulug'lanib kelingan. Shu ma'noda, Sharq ijtimoiy fikri va adabiyotini axloqiy fazilatlar qomusi deyishimiz mumkin. Sharq mutafakkirlari – Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Muhammad Muso Xorazmiy, Rudakiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Hofiz Sheroziy, Fuzuliy, Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy kabi mutafakkirlar axloqiy fazilatlarini o'z ilmiy va ijodiy faoliyatlarining yetakchi mavzusi deb bilganlar. Masalan, Abu Nasr Forobiy "Adolatli bo'lsin, ammo qaysar bo'lmasin, adolat oldida qaysarlik qilib, o'zbilarmonlikka berilmasin...", deb yozadi.

Axloqiy fazilatli kishilar xalqimizning eng ardoqli fazilatlarini– iymon va insof, mehr-oqibat, shafqat va rahmdillik, uyat va andisha, or-nomus, o'zaro hurmat, yuksak vatanparvarlik, eliga va xalqiga sadoqat kabi qadriyatlarini va g'oyalarni mujassamlashtirgan bo'lishlari lozim. "Qurolli Kuchlarda ma'naviy axloqiy yo'nalishda: vatanparvarlik, insonparvarlik, millatparvarlik, do'stlik, jonkuyarlik, fidokorlik, halollik, mehnatsevarlik, epchilik, tejamkorlik, zehnilik, sezgirlik, savodxonlik, faollik, qat'iyatlik, dovyuraklik, intizomlilik, jiddiylik, ezgulik va boshqa fazilatlarini tarbiyalash zarur"-deyiladi "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining umumharbiy nizomlari"da.

Axloqiy qarash- ijtimoiy voqea, hodisalar, o'zgalar va o'zining xatti-harakatlari, ijtimoiy hamda tabiiy borliqqa bo'lgan munosabatlar mohiyatini axloqiy jihatdan tushunish; axloqiy nuqtai nazar. Axloqiy me'yorlar tasnifi, ma'naviy-axloqiy yondashuv va shu asosda shakllangan tafakkur kategoriyasi. Tor ma'noda, falsafa, sotsiologiya va madaniyatshunoslik fanlari sohasida umuminsoniy axloqiy tamoyillarni ifoda etadigan tushuncha. Keng ma'noda, insoniyatga oid barcha ma'naviy hodisalarga axloqiy yondashuvni aks ettiradi. Axloqiy qarashlarda umuminsoniy qadriyatlar, qadrlash mezonlari, ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan ma'naviy qarashlar, ruhiy hodisalar aks etadi. Oila, qo'ni-qo'shnichilik odobi, korxon va jamoa etikasi, fuqarolik burch-vazifalari hamda ularni o'rgatuvchi mavzu hamda masalalar axloqiy qarashga kiradi.

Xalqimiz qadimdan yuksak axloqiy qarashlarga ega xalqdir. Masalan, "Avesto" da yuksak axloqiy me'yorlar, ma'naviy qadriyatlarini ifodalashda ezgulik va yovuzlik kuchlari o'rtasida doimiy qarama-qarshi kurash mavjudligi va baribir ezgulik yovuzlik ustidan g'alaba qiladi degan g'oya bosh mavzu hisoblanadi. Ezgulik ma'budasi Ahura Mazda, yovuzlik ibtidosi va yaratuvchisi Ahriman o'rtasidagi kurash natijasi insonning ongli ravishda ezgulik tarafida turmog'iga bog'liq. Ahura Mazda bunyodkor ishlarni qiladi, odamlarga ezgulik va yaxshilik ulashadi. Ahriman esa buzadi, yakson etadi,

kishilar orasida g'araz va adovatni avj oldiradi. Ikki kuch hech qachon bir-biri bilan chiqisha olmaydi. "Avesto"dagi ko'plab hikoyat, rivoyatlar va mifologik obrazlar asosan ana shu kuch o'rtasidagi qarashni tasvirlaydi. "Rostlik va haqqo'ylik tangri odatidir", Rost amaldan o'zga hech narsa bilan shug'ullanma", "Hammaga yaxshilik istaydigan odamlarga yaxshilik yetsin", "Do'stlik rishtasini poklik bilan mahkam bog'lang", "Keksalar gapiga quloq soling va andisha bilan mulohaza yuritib, yaxshi va yomonni o'zingiz ajratib oling", deyiladi Zardusht pandlarida.

Axloqiy qarash – oila, jamoa va jamiyatdagi intizomning muhim omilidir, uning vositasida intizom tuyg'usi shakllangan kishi o'z xalqi va Vataniga sadoqat bilan xizmat qiladi, har bir ishni o'z vaqtida sidqidildan bajaradi.

Axloqiy tarbiya – jamiyat ma'naviy hayotidagi muhim ijtimoiy hodisa bo'lib, odob-axloq tizimini, axloqiy fazilatlarni zamon talablari asosida har qaysi avlodga singdirish shaklidir. "Axloq tarbiyasi: insonlarga eng muhim, ziyoda sharaf, baland daraja berguvchi axloq tarbiyasidir" deb yozadi Abdulla Avloniy.

Axoqiy madaniyat – jamiyatdagi axloqning yuksak darajasini, fuqarolarning axloqiy saviyasini aks ettiruvchi tushunchadir. U shaxsning jamiyatdagi asosiy axloqiy me'yorlarni egallashi va o'zgalar bilan shu asosda munosabatda bo'lishi, o'zini axloqiy tomondan muntazam takomillashtrib borishi singari jihatlarni o'z ichiga oladi.

Axloqiy madaniyatning eng muhim omillaridan biri – muomala odobi. Insonlar bir-biri bilan hamkorlik qilmasdan, o'zaro tajriba almashmasdan, o'zaro ta'sir qilmasdan yashashi mumkin emas. Binobarin, muloqot, muomala inson uchun asosiy ehtiyoj, zaruriyat. Muomala odobi o'zgalar qadr-qimmatini, hurmatini joyiga qo'yishni, an'anaviy axloqiy-me'yoriy talablarni bajarishni taqoza etadi. Ma'noli va ravon so'zlash, suhbatdoshini tinglay bilish, nutq madaniyati muomalaning muhim jihatlarni tashkil etadi. Muomala odobida muloqotning asosiy vositasi bo'lmish til katta ahamiyatga ega. Xalqimizda "siz" ham, "sen" ham bir nafasdan chiqadi degan dono naql bor. Sharqning buyuk mutafakkiri Kaykovus o'zining "Qobusnoma" asarida "Suxandonlik ila baland martaba bo'lmoq" zikrida shunday deydi: "Sovuq so'zlik bo'lmag'il. Sovuq so'z bir tuxumdur, undan dushmanlik hosil bo'lur". Shu bois, ofitser-o'qituvchilar tomonidan muloqot paytida hurmat ifodasi sifatida har bir so'zni suhbatdoshining ko'ngiliga, qiziqish va kayfiyatiga qarab, yoshini, kasbu-kori, ijtimoiy hamda oilaviy ahvolini e'tiborga olib, hurmatini joyiga qo'yib gapirish, muloqot jarayonida o'rinsiz harakatlarga yo'l qo'ymaslik lozim. Muomala odobida ofitser-o'qituvchi ko'z qarashi, nigohi, so'zsiz (noverbal) harakatlari ham mug'im rol o'ynaydi.

Axoqiy madaniyat muayyan holat uchun bir xildagi qoidalashtirilgan xatti-harakatlar taqoza etadi. Axloqiy madaniyatning qamrovi shu qadar kengki, u oddiy insoniy munosabatlardan xalqaro miqyosida qabul qilingan muomala qonun-qoidalarigacha o'z ichiga oladi. Masalan, ofitser-o'qituvchilar kasbiy odob-axloqi madaniyatning yuksak shakllaridan biri bo'lib, uning jamiyat hayotidagi o'rni beqiyosdir. Muallimlik odobi, san'atkor odobi, jurnalist odobi, rahbar odobi singari kasbiy odob turlari bunga misol bo'la oladi. Kasbiy odob amaliy tarzida namoyon bo'ladigan ma'naviy hodisadir.

Harbiy ta'lim muassasalari tinglovchi va kursantlari, muddatli harbiy xizmatchilarda ofitser-o'qituvchilar tomonidan yuqoridagi kategoriyalarning

shakllantirilishi, o'z navbatida, harbiy xizmatchilarda, kursantlarda vatanparvarlik, xalqparvarlik, xalqchilik va xalqqa xizmat qilish tuyg'ularini kamol topishiga olib keladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, harbiy ta'lim muassasalari tinglovchi va kursantlari, muddatli harbiy xizmatchilarni xalqqa xizmat qilish ruhida tarbiyalash borasidagi ta'lim-tarbiya jarayonini ofitser-o'qituvchilar tomonidan mantiqiylik, uzviylik va izchillikka rioya etgan holda tashkil etish hamda amalga oshirish harbiy xizmatchilarni, kursantlarni el-yurtga, vatanga sadoqatli, imon-e'tiqodli, mard, jasur, xalqparvar va xalqchil, ma'naviyati yuksak, yuqori malakali mutaxassis, mard va jasoratli Vatan himoyachisi qilib tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. "Milliy armiyamiz - tinch, osuda va farovon hayotimizning mustahkam kafolati". O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 25 yilligi munosabati bilan Vatan himoyachilariga yo'llagan bayram tabrigidan.<https://de-de.Fasebook.com>.

2. Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. 2-jild. Turkiy guliston yoxud axloq. Toshkent, "Ma'naviyat" 1998.

3. <http://hozir.org/b-abdullayeva-m-usmonbayeva-o-asqarova-f-ehsonova-s-hakimov>.

4. <https://fayllar.org/avestoda-qanday-axloqiy-qadriyatlar-uluglangan-qadimgi-hindist.html>

5. Hamidjon Homidiy. Avestodan Shohnomaga. T., "Sharq" 2007.

6. Kaykovus. "Qobusnoma". Toshkent, "Istiqol", 1994.

HARBIY RAHBARDA KASB MOTIVLARI NAMOYON BO'LISHI PSIXOLOGIK FENOMEN SIFATIDA

*Sultonov Ulug'bek Baxtiyorovich –
O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar Akademiyasi bo'lim boshlig'i,
psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), podpolkovnik*

ANNOTATSIYA

Mazkur maqola harbiy rahbarda kasb motivlari namoyon bo'lishi psixologik fenomeni mavzusiga bag'ishlangan. Shuningdek, maqola matnida motivatsiya tushunchasining mohiyati, kasbiy motivlarning psixologik tabiati, kasbiy motivlarni tashkil etuvchi psixologik tarkiblar, kasbiy kompetentlik, harbiy –kasbiy faoliyat, harbiy faoliyat va shaxs kabi masalalar ham keng yoritilgan.

Калит сўзлар: *Ҳарбий раҳбар, касб, ҳарбий хизматчи, мотив, мотивация, касбий мотив, касбий билимдонлик, касбий маҳорат, алтруизм, ижтимоий ривожланиш, экстремал вазият, касбий рағбатлантириш, муваффақият, ютуқ, камчиликлар.*

Harbiy rahbarda kasb motivlarining barqarorligi muhim ahamiyat kasb etib, uni rivojlantirish faoliyat turi bilan bog'liq ko'plab muvaffaqiyatlarni ta'minlaydi. Harbiy

rahbar faoliyatida motivlar rolini oshirish ma'lum bir qonuniyatga bo'y sunadi. Motivatsiya – bu shaxsda muayyan motivlarni uyg'otish orqali uni muayyan harakatlarga undashga ta'sir qilish jarayonidir. Motivatsiya har qanday faoliyatda shaxsni boshqarishning yadrosidir.

A.F.Lemeshonokga ko'ra, harbiy xizmatning samaradorligi ko'p jihatdan muvaffaqiyatli amalga oshirilgan vazifalar bilan belgilanadi. Bunda holatda kasbiy motivlarni shakllantirish qator psixologik tushunchalar ya'ni rag'batlantirish, qo'llab – quvvatlash, e'tibor qilish kabilar bilan amalga oshiriladi. Muallifning xulosalariga ko'ra, insonning kaysi maqsadlarni ko'zlaganiga, qanday vazifalarni hal qilishiga karab, undagi motivatsiya turlarini aniqlash mumkin. Shunday qilib, insonga tashqi ta'sirlar orqali ma'lum bir harakatlarni amalga oshirishga undovchi kuch, ma'lum natijalarga olib keladigan harakatlarni keltirib chiqaradi[1,14].

Bundan tashqari, motivatsiyaning yana bir turi insonning o'ziga xos motivatsion tuzilishini shakllantirishga qaratilgan. Bu yerda asosiy e'tibor insonning harakatlari uchun zarur bo'lgan motivlarni ishlab chiqish va kuchaytirishga yoki insonni samarali boshqarishga xalaqit beradigan motivlar xatti-harakatlarini cheklashga nazarda tutiladi. Ushbu turdagi motivatsiya tarbiyaviy xususiyatga ega bo'lib, u ba'zan faoliyat natijasida olinishi kutilayotgan aniq harakatlar bilan bog'liq bo'lmasligi mumkin. Chunki, motiv ko'p harakatlar bilan bog'liq, uni amalga oshirish uchun ko'plab bilim va ko'nikmalar talab etiladi. Uning natijalari, birinchi turdagi motivatsiya natijalaridan ancha yuqori bulishi mumkin.

T.O.Solomanidinaning ta'kidicha, kasbiy faoliyatda motivlari kuchini oshirish psixologik shart-sharoitlari nafaqat o'quv jarayoni bilan balki, shaxsni ijtimoiy. siyosiy, huquqiy, g'oyaviy, milliy ruhda tarbiyalash orqali ham amalga oshiriladi[2,58]. Bu oliy harbiy o'quv yurtida tashkillashtirilgan samarali ta'limni nazarda tutadi.

Bizningcha, jangovar faoliyat – qurolli kurash maqsadlari yo'lida harbiy xizmatchi faolligini ifodalab, o'ziga xos maqsad va vazifalari, shart-sharoitlari, mazmuni, qonuniyatlari, ichki tuzilmasi, motivlariga ta'sir o'tkazuvchi harbiy-texnik, g'oyaviy va boshqaruv, jang davomida tarbiyaviy ishlar, shaxsiy tarkibning jangovar va psixologik tayyorgarligi kabi omillarga ega. Jangovar faoliyatning ijtimoiy, psixologik tuzilishi va mazmuniga jangovar harakatlar jarayonida inson hayotiga solinadigan xavf, qadriyatlarining o'zgarishi, inson resurslari va texnikadagi turli yo'qotishlar va noqulayliklar bilan bog'liq bo'lgan murakkabliklar ta'sir ko'rsatadi. Aynan ana shu jarayonda jangovar faoliyat motivi muhim ahamiyat kasb etib, bunda davlat miqyosida bu mamlakatning hududiy yaxlitligi va xavfsizligiga real xavf tug'ilishining oldini olish bo'lsa, harbiy xizmatchilarning ijtimoiy motivi sifatida o'z Vatani, oilasi va yaqinlarini himoya qilish birlamchi ahamiyatga ega bo'ladi. Ushbu motiv o'z xarakteriga ko'ra ijtimoiydir. U inson tug'ilganidan mavjud bo'lmasdan, uning tarbiyasi va ijtimoiy rivojlanishi jarayonida ijtimoiy me'yorlar ta'sirida shakllanib, turli hatti-harakatlarda namoyon bo'lgan holda insonning dunyoqarashi va e'tiqodini aks ettiradi.

O.Ye.Orlovaning aytishicha, ekstremal sharoitlarda turli xil motivlarni bir-biriga qarama-qarshi qo'yish mumkin emas, chunki amalda ular bir – birlari bilan uyg'unlashtiradilar. Kasbiy faoliyatda motivlarni kuchaytirishning bir necha usullari

mavjud[3, 94].

1. Rag'batlantirish - bu muayyan sabablarni qo'zg'atadigan holatlar. Bu obyektlar, boshqa odamlarning xatti-harakatlari, majburiyatlari va imkoniyatlarini tashuvchisidir, odamga uning harakatlari uchun kompensatsiya kerak, ya'ni moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash. Ko'pchilik xizmat imtiyozlariga e'tiborsiz munosabatda bo'ladilar. Ba'zi hollarda, uning reaksiyasi ongli ravishda nazorat qilishni talab etmasligi mumkin.

2. Turli xil qo'zg'atuvchilarga javob turli odamlar uchun har xildir. Agar faoliyatda shaxs unga javob bera olmasa, rag'batlantirishlar mutlaq ahamiyatga ega bo'lmaydi. Shunday qilib, kuchli inqiroz sharoitida ish haqi, pul ko'p jihatdan rag'batlantirish rolini yo'qotadi.

Kasbiy faoliyatda xodimlarni rag'batlantirish uchun, turli xil usullardan foydalaniladi. Eng keng tarqalganlaridan biri bu moddiy rag'batlantirishdir. Moddiy rag'batlantirishni amalga oshirishda vaziyatni to'g'ri baholash juda muhimdir, agar inson o'z ehtiyojlari, qiziqishlari, maqsadlari juda murakkab bilan ajralib tursa, uning imkoniyatlarini vaqtida baholash zarur.

Psixologik qoidagi ko'ra, rag'batlantirish motivatsiyadan farq qiladi. Farq shundaki, rag'batlantirish - bu motivatsiyani amalga oshirish vositasidir. Tashkilotda insoniy munosabatlarning rivojlanish darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, odamlarni boshqarish shuncha oson bo'ladi. Bu holat harbiy rahbar va xodimlar o'rtasidagi munosabatlar tizimidagi barqarorlik bilan o'lchanadi.

Ye.M.Listikka ko'ra, motivatsiyaning insonning kasbiy faoliyatiga ta'siri[4,145]:

- Harakatlar;
- Rejalar;
- Qat'iyatlilik;
- Vijdonlilik;
- Diqqatlilik sifatleri orqali keng ta'sir etadi.

R.S.Nemovga ko'ra, insonda motivatsion sohasining rivojlanishi quyidagi omillar bilan amalga oshadi: "motivlarning rang - barangligi, moslashuvchanlik va iyerarxizatsiya"[5,98]. Demak, shaxsda motivatsion sohaning xilma-xilligi biror bir faoliyatga yo'nalganlikning o'sishi bilan xarakterlanadi.

Yuqori harbiy kasbiy motivatsiyaga ega bo'lgan ofitserlar, turli sharoitlarda o'zining funksional vazifalarini barqaror va samarali bajarishi uchun quyidagi boshqaruv sifatleri ajratiladi:

jangovar hamjihatlik – harbiy xizmat vazifalarini hal qilishda harbiy jamoani yaxlit tarkibga aylantiradigan shaxsiy harakatlar va tartiblilik;

bo'linmani samarali boshqarish va uni faoliyatini to'g'ri tashkil etishdagi barqarorlik;

mahorat – jamoaning barcha imkoniyatlardan foydalanish qobiliyati yoki har qanday vaziyatda harbiy xizmat vazifalarini muvaffaqiyatli hal etishni ta'minlaydigan samarali yechimlar, vositalar va usullarni qo'llay olish;

ishonch – jamoaning noqulay sharoitlardagi harakatlari sifatini pasaytirmaslik qobiliyati.

Motivatsiya insonning o'z ishini bajarishiga, ishlab chiqarish majburiyatlariga katta ta'sir ko'rsatadi. Motivatsiya va mehnatning yakuniy natijasi o'rtasida to'g'ridan

to'g'ri bog'liqlik mavjud emas, chunki xodimning malakasi va qobiliyati, vazifalarni to'g'ri tushunishi, ish jarayoniga atrof-muhitning ta'siri kabilar ham hisobga olinadi.

Xulosa qilib aytganda, harbiy xizmatchilardagi kasbiy motivlarining o'ziga xosliklari tahlili, ularning kasbiy faoliyati bilan bog'liq ko'plab imkoniyatlari, kasbga bo'lgan munosabatlari, kasbiy yutuqlari va kamchiliklari, kasbga xos shaxslilik sifatleri kabilarning mazmunini tahlil qilish ham sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Лемешонок А.Ф. Профессиональный психологический отбор офицеров для обучения в военных академиях Министерства Обороны Российской Федерации: Автореф. дис. . канд. мед. наук., 2000. – 36 с.

2. Соломанидина Т.О. Мотивация и стимулирование трудовой деятельности: учебник и практикум для академического бакалавриата. – М.: Издательство Юрайт, 2018. – 240 с.

3. Орлова О.Е. Соотношение личностных черт и мотивации достижения у студентов. – М.: МНУ, 2005.- 166 с.

4. Листик Е.М. Мотивация и стимулирование трудовой деятельности: учебник и практикум для академического бакалавриата / Е.М. Листик. – 2-е изд., испр. И доп. – М.: Издательство Юрайт, 2018. – 290 с.

5. Немов Р.С. Психология: учеб. для студ. высш. пед. учеб. заведений: в 3 кн. / Р. С. Немов. – М.: ВЛАДОС, 2003. – Кн. 1. – С.98.

HARBIY XIZMATCHILARNI JANGOVAR HARAKATLARGA TAYYORLASHDA HARBIY PSIXOLOGIYA FANINING TUTGAN O'RNI

*Sultanov E.M. – O'zbekiston Respublikasi
Qurolli Kuchlari Kichik Mutaxassislar Tayyorlash Markazi
Gumanitar va ijtimoiy fanlar sikli katta o'qituvchisi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada Harbiy xizmatchilarni jangavor harakatlarga tayyorlashda harbiy psixologiya fanining tutgan o'rni va ahamyati ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: Harbiy xizmatchi, jangovar xarakter, shaxsiy tarkib, ruhiyat, jangovar sharoit, bo'ysunuvchanlik, itoatkorlik, ishonch, sodiqlik, qo'rqmaslik, botirlik, jasurlik, qat'iyatlik, tirishqoqlik, sabr-toqatlik.

***“Harbiy xizmatchini psixologik tayyorlash - g'alabaning asosiy omilidir”
(Sh.M. Mirziyoyev)***

Psixologik tayyorgarlikning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:
harbiy xizmatchilarda jangovar xarakter va kelajak urush to'g'risidagi bilimlarini shakllantirish;

dushman ustidan g'alaba qozonish maqsadida qat'iy ishonch, jasoratga tayyorlik, fidokorona harakat qilish sifatleri shakllantirish;

harbiy xizmatchilarda ruhiy barqarorlik va chidamlilik darajasini oshirish;
xohish va ihtiyojlarda kamsuqumlik (sipoh), qanoatlik mo'ta'dillikni ishlab chiqish;

komandir va boshliqlarga ishonchni, so'zsiz bo'ysunuvchanlik va itoatkorlikni hamda davlat siyosatiga ishonch va sodiqlikni singdirish;

ruhiy (psixologik) jarohatlanishni kamaytirish;

harbiy xizmatchilarning kasbiy va jangovar malaka va maxorat, jismoniy va ruhiy chidamlilik va bardoshlilik darajasini oshirish.

Psixologik tayyorgarlikga quyidagilar kiradi:

harbiy xizmatchilarni jangovar vaziyatning (sharoitning) ular ruhiyatiga va xulqiga ta'sir etishi to'g'risidagi bilimlar bilan qurollantirish;

komandirlar va boshliqlar tomonidan qo'yilgan o'quv va jangovar vazifalarni bajarish uchun harbiy xizmatchilarning ruhiyatini umumiy, maxsus va maqsadli tayyorlash;

shaxsiy tarkib ruhiyatini real jangovar sharoitda harakatlanishga tayyorlash bo'yicha amaliy mashg'ulotlar va mashq qilishlar;

harbiy xizmatchilarda emotsional (jushqin)-irodaviy chidamlilikni va jangda ruhiy boshqaruvchanlikni shakllantirish;

harbiy xizmatchilarning jangovar texnika va qurol-aslaxalardan foydalanish jarayonida ularni boshqarish va qo'llash bo'yicha ruhiy ko'nikmalarni shakllantirish.

Ruhiy (psixologik) tayyorgarlikni tashkillashtirishga quyidagi asosiy talablar kiradi:

axloqiy-ruhiy ta'sir etish jarayonining uzluksizligi va doimiyliigi, qo'shinlar faoliyatining barcha sohalarini, shuningdek, ularning turmush-tarzi va madaniy xordiqni qamrab olgan holda;

aniqlik va maqsadlilik;

har-xil toifadagi harbiy xizmatchilarga differentsiyali (darajalangan, tabaqalashtirilgan) yondashuv;

barcha shaxsiy tarkibni, shu jumladan ofitserlar va serjantlarni qamrab olish;

qo'shinlar turlari va maxsus qo'shinlar shaxsiy tarkibida ular faoliyatining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ruhiy (psixologik) sifatlarni shakllantirish.

Ruhiy (psixologik) tayyorgarlik quyidagilarga bo'linadi: umumiy, maxsus va maqsadli tayyorgarliklarga. Ushbu ruhiy tayyorgarlik turlarining ajratilishiga asos bu uning maqsadga qaratilishi va shaxsiy tarkibni qamrab olish darajasi.

Umumiy ruhiy (psixologik) tayyorgarlik – oldindan o'tkaziladi va harbiy xizmatchilarning zamonaviy jang sharoitida hamda ehtimoliy dushmanga qarshi harakat qilishga ruhiy tayyorligi, shuningdek, ruhiy jarohatlanish omillari ta'siriga ruhiy bardoshlilik (chidamlilik) shakllantirilishini ta'minlaydi.

Umumiy ruhiy tayyorgarlik, harbiy xizmatchilarda harbiy faoliyatdagi vazifalarni samarali bajarishiga kerak bo'lgan yuksak vatanparvarlikni, o'z kuchiga va dushman ustidan g'alabaga ishonchni, jangovar faollikni, o'z jonini fido qilishga tayyorlikni, ma'lum sabablarni, maqsadga intiluvchanlikni, shuningdek, intellektual (aqliy, ma'naviy), his-tuyg'uga oid, irodaviy va boshqa sifatlarni (fazilatlarini) shakllantirish orqali erishiladi.

Umumiy ruhiy tayyorgarlik harbiy xizmatchilarda jangga bardosh beruvchi

ruhiyatni ishlab chiqishni ko'zda tutadi. Uning muhim vazifasi harbiy bo'linmalarning inoqligi, jipsligi, birdamligi, uyg'unligi, ijtimoiy-ruhiy mosligini ta'minlash, ularni yakka faoliyatning va harbiy xizmatchilarning ro'hiy jarohatlanishlarini oldini olish bo'yicha qo'shimcha sabablar omiliga aylantirish.

Umumiy ruhiy tayyorgarlik harbiy xizmatchilarda mustahkam ruhiyatni, avvalom bor qo'rqmaslik, botirlik, jasurlik, qat'iyatlik, tirishqoqlik, sabr-toqatlik kabi irodaviy sifatlarni hosil qilishga qaratilgan. Harbiy xizmatchilar shoshilinch jo'shqin (his-tuyg'uga oid)-irodaviy safarbar qilish usullariga, salbiy ruhiy holatni yechishga, notibbiy og'riqsizlantirish usullariga, o'z-o'ziga va xizmatdoshiga birinchi ruhiy (psixologik) yordam ko'rsatilishi, ekstremal (tang, og'ir) sharoitda omon (tirik) qolish usullariga (masalan tog'da, chulda) va h.k. o'rgatiladi.

Harbiy xizmatchilarning qiyinchiliklarga va biror mahrumliklarga, intizom talablariga so'zsiz amal qilish, komandirlarga va boshliqlarga so'zsiz bo'ysunish ko'nikmalarini hosil qilish muhim ahamiyatga ega.

Otish tayyorgarligi, taktika, texnik va boshqa turdagi jangovar tayyorgarlik mashg'ulotlari jarayonida va har-xil sharoitda harbiy xizmatchilar ruhiyatiga ta'sir etuvchi ruhiy (psixologik) omillarning mazmuniga moslashtirgan holda qiyinlashtirilgan sharoitlar modellashtirilishi lozim.

Maxsus ruhiy (psixologik) tayyorgarlik harbiy qism va bo'linmalarning jangovar qobiliyati darajasini nisbatan ko'proq belgilaydigan harbiy xizmatchilar va harbiy mutaxassislarining jangovar faoliyati samaradorligini ta'minlaydigan, ekstremal (tang) holatlarda zaruriy bo'lgan yaroqlilik (layoqatlilik) maxsus bilimlar, axloq odat, qobiliyat, malaka tizimlariga erishish maqsadida amalga oshiriladi.

Maxsus ruhiy tayyorgarlik harbiy xizmatchilarni aniq harakatlar turlariga moslagan holda, aniq mutaxassisliklarning jangovar faoliyatini hamda o'ziga xos tabiiy-iqlim sharoitlarini hisobga olgan holda ularning ruhiy chidamliligini va tayyorligini ta'minlaydi.

Jangovar tayyorgarlik mashg'ulotlari, shuningdek, maxsus psixologik (ruhiy) treninglar, psixotexnik mashqlar, psixogimnastika davomida harbiy xizmatchilarda quyidagi muhim sifatlarning (fazilatlar)ning maqsadli rivojlanishiga erishiladi: kasbiy idrok va diqqat, kasbiy xotira, kasbiy fikrlash (tafakkur) va h.k., xamda o'ziga xos aniq ruhiy zarba beruvchi omillarga qarshi turish qobiliyati.

Harbiy xizmatchilar shoshilinch jo'shqin (his-tuyg'uga oid)-irodaviy safarbar qilish usullariga, salbiy ruhiy holatni yechishga, notibbiy og'riqsizlantirish usullariga, o'z-o'ziga va xizmatdoshiga birinchi ruhiy (psixologik) yordam ko'rsatilishi, ekstremal (tang, og'ir) sharoitda omon (tirik) qolish usullariga o'rgatiladi.

Maqsadli ruhiy (psixologik) tayyorgarlik asosan o'quv-jangovar va jangovar harakatlar boshlanishidan oldin o'tkaziladi va harbiy xizmatchilarda aniq vazifalarni xal etishga ruhiy tayyorlikni shakllantiradi.

Maqsadli ruhiy tayyorgarlik harbiy xizmatchilarda aniq vazifalarni bajarishga yo'naltirish; faoliyatni kuchaytirishga, ruhiy kayfiyatni yo'naltirish, sifatli amalga oshirish bo'yicha ruhiy tayyorlikni ishlab chiqish.

Maqsadli tayyorgarlikning natijasida odamning ruhiy va psixofiziologik imkoniyatlarining maksimal safarbar etilishi va jangovar faoliyat maqsadlariga erishishga qaratilishi, odam ruhiyatining ong osti qatlamidagi (ongida) xulqini (fe'l-

atvorini) tartibga keltirilishi qo'shiladi.

Harbiy xizmatchilarni jangovar xarakatlarga axloqiy ruhiy tayyorlash, degani: oldindan, jangovar vazifani bajarishdan oldin ularning belgilangan vazifalarni muvaffaqiyatli bajarish va qiyinchiliklarni yengib utish imkoniyatini belgilab beruvchi ruhiy (psixologik) sifatlar (*bilimlar, malaka, yo'nalishlar, mahorati, ishonchi, maqsadi, shaxsiy sifatlar*) tizimini shakllantirish;

bevosita aniq vazifa bajarilishidan oldin harbiy xizmatchilarda ruhiy tayyorlik holatini shakllantirish, ya'ni, faollikni, maqsadlilikni, ruhiyatni bo'ladigan jangovar faoliyat qiyinchiliklarini yengib utishga safarbar etishni.

Jangovar vaziyatda harbiy xizmatchi bir o'zi harakat qilmaydi, balki bo'linma bilan birgalikda harakatlanadi. SHuning uchun ham asosiy e'tibor jamoaning ruhiy tayyorgarligiga qaratiladi.

Yakka tartibdagi va jamoaviy ruhiy tayyorlik o'zaro bog'liqdir. Harbiy jamoa ruhiy tayyorgarligining asosini harbiy xizmatchilarda o'z harakatlari uchun safdoshlari oldidagi mas'uliyat xissini tarbiyalash, nafaqat har bir kishining faoliyati sifatiga bog'liq, balki boshqa jamoa azolarining xavfsizligi va xayoti hamligini chuqur anglab yetishi lozim. Har bir harbiy xizmatchi harbiy jamoa faoliyati tizimidagi o'zining joyini va rolini (ahamiyatini) aniq bilishi lozim.

Yuqori darajali yuqumlilik kabi ruhiy holatlarning o'ziga xosliklarini tushuntirib o'tish lozim, ayniqsa ekstremal (tang) vaziyatlarda. Masalan, yakka vahima (sarosima) tezda jamoaviy vahimaga aylanishi mumkin, o'z harakatlarida ishonch va barqarorlikni namoyon etish esa, o'zini hamda qolgan barcha harbiy xizmatchilar o'zlarini qo'lga olishga (eplashga) yordam beradi.

Sifatli ruhiy tayyorgarlik harbiy xizmatchilarning jangovar faoliyati samaradorligining muhim sharti, hamda jangovar harakatlarni olib borish davrida va uning yakunida ruhiy sog'lomlik saqlanishining kafolati hisoblanadi.

Ruhiy tayyorgarlik jarayonida harbiy xizmatchilar tabiiy-geografik (tog'lar, chul va h.k.), ob-havo-iqlim (havoning yuqori va past haroratida va h.k.), texniko-texnologik, tartibli (rejimli) va boshqa sharoitlarga ko'nikmalari bo'lishi lozim.

Qo'shinlarning ruhiy tayyorgarligi vazifalarini hal qiluvchi rol (ahamiyat) komandirlar, shtablar va shaxsiy tarkib bilan ishlash bo'yicha organlarga tegishli. Ular shaxsiy tarkibni axloqiy-ruhiy chiniqtirish bo'yicha asoslangan va tekshirilgan amaliy tavsiyalarni xayotga faol joriy qilishlari hamda ijodiy va ilmiy yondashgan holda uni amalga oshirishning yangi usullarini tadqiq qilishlari, axloqiy-ruhiy tayyorgarlik talablarini hisobga olgan holda moddiy-texnik bazani takomillashtirish bo'yicha doimiy tashvishda bo'lishlari lozim.

Ruhiy tayyorgarlik vazifalarini muvaffaqiyatli hal etishda qo'mondonlik tarkibidan harbiy pedagogika va psixologiya asoslarini yaxshi bilishlari, maqsadga intiluvchanlik va ijodkorlikni namoyon etish, harbiy qism va bo'linmalarning dala sharoiti amaliyotiga (mashqlariga) e'tibor qaratish, dala o'quv mashqlarida xaqiqiy jangovar holatga yaqinlashtirilgan vaziyatni yaratish, ushbu borada har xil turdagi osonlashtirish (engillashtirish) va qisqartirish (soddalashtirish) holatlariga qat'iy yo'l qo'ymaslik, qo'shinlarni o'rgatish amaliyotiga qizg'inlik (tanglik), xavf-xatarlik, tahluka, kutilmaganlik (qo'qqislik) elementlarni kiritish talab etiladi.

Har bir qo'shin turlarida ruhiy tayyorgarlini tashkil etish va o'tkazishda o'ziga

xos xususiyatlari mavjud. Har bir alohida holatga buyruq, farmoyish, qo'rsatma berish juda qiyin va xaqiqatan imkoni yo'q.

Faqat tashabbuskorlik, ijodkorlik, chuqur bilimga egalik va shaxsiy tarkib tomonidan hal qilinadigan vazifalarni bilish shaxsiy tarkib ruhiy tayyorgarligi ishlarini muvaffaqiyatli tashkil etishga va o'tkazishga imokniyat va yordam beradi.

Xulosa. Qanday tadbir bo'lishidan qat'oi-nazar uni o'tkazishga tayyorgarlik ishlari amalga oshiriladi. Oldindagi ishlangan vazifani sifatli bajarish uchun ish reja asosida olib borilishi lozim.

Jangovar 'arakatlarni turidan kelib chiqqan 'olda uni axloqiy-ru'iy ji'atdan taominlash ishlarini o'tkazish bir qator rasmiy hujjatlar orqali amalga oshiriladi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, yuksak axloqiy-ru'iy sifatlarni shakllantirishda tarbiyaviy ishlar tizimi va jangovar ruxdagi tarbiya 'ar ji'atdan ustunlik qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoev SH.M. "Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz". // T.: "O'zbekiston", 2017, 179-bet.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilarining ma'naviy-ma'rifiy saviyasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-3898-sonli Qarori // Xalq so'zi, 2018 yil 6 avgust.
3. Asmolov A.G. Psixologiya lichnosti. – M.: MGU, 1990.
4. G'oziev E.G'. Umumiy psixologiya.-T.: "Universitet", 2002.
5. Voennaya psixologiya. Uchebnik. / A.G. Maklakov. - Sank- Peterburg: Piter, 2005. - 464 b.
6. Abduraxmanov R.A. Voennaya psixologiya. Moskva, 1996 y.
7. Ravshanov L.U. "Zamonaviy harbiy xizmatchi imijining psixologik jihatlari" disser., T: 2019.

ADABIYOT FANINI O'QITISHNING USLUBIYATI BO'YICHA MULOHAZALAR

*Sultanova Iroda Eshberdiyevna –
Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
54-umum ta'lim maktabi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi*

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada adabiyot fanini o'qitishning uslubiyati hamda pedagogik texnologiyalardan foydalanish yo'llari, usullari haqida pedagogik mulohazalar ilmiy tarzda asoslab berilgan.*

***Kalit so'zlar:** Adabiyot, ideologiya, madaniy hayot, nazariy ma'lumot, adabiy asar, Adab, me'yorlar, adib, shoir, ijodkor, adabiyot darsi, Badiiy ijro.*

Buyuk o'tmishga ega xalqimiz tarixiy taraqqiyot davomida o'zbeklargagina xos bo'lgan go'zal axloqni ham shakllantirgan bo'lib, asrlar davomida uni ko'z qorachig'iday asrab kelmoqda. Adab va uning me'yorlarini avloddan avlodga

yetkazishda nafaqat oila balki, ta'lim muassasalarning ham o'rni beqiyosdir. Ayniqsa, bu borada adabiyot o'qituvchilariga katta mas'uliyat yuklangan. Adabiyot o'qituvchisi adiblarimiz va shoirlarimiz tarjimai holi bilan o'quvchini tanishtirishi emas, unda milliy axloqimiz va uning hayotimizda tutgan o'rni xususida ham tasavvur uyg'otishi kerak. Adabiyot o'qituvchisi o'quvchilardagi mustaqillikni, ijodkorlikni tarbiyalashda alohida ro'lni o'ynaydi. Bu undan har bir o'quvchidagi alohida xususiyatlarni juda mukammal darajada sezishni, uning adabiyotga bo'lgan havasini oshirishda foydalanishini taqazo etadi. Zero, o'quvchilarning o'z o'qituvchilarini tinglashlari uchun, o'qituvchining o'zi o'quvchilarini, olamning ko'povozlilikini tinglay olishi shart.

Adabiyot o'qituvchisi o'zini o'quvchilarga baxshida etishi, o'zi bajarayotgan ishning xalq ma'naviy hayotiidagi ahamiyatini, har bir inson badiiy adabiyotsiz kamolotga erisha olmasligini o'z o'quvchilari onggiga, qalbiga singdirishi lozim. O'qituvchilik kasbi har bir adabiyot o'quvchisidan o'zini doimiy suratda kamol toptirib, o'zida badiiylikka moyillikni va ijodkorlikni o'stirib borishni talab etadi. U egallagan kasb jamiyatdagi ijtimoiy tuzum, ideologiya va madaniy hayotga boqliq holda yangi ma'noga ega bo'lib boradi.

Adabiyot o'qituvchisi nazariy ma'lumot bilan bir qatorda adabiyotni teran his qilishi, tom ma'noda aytganda "u bilan birga yashashi kerak". Bu bilan uning ishi bitmaydi. Endi bilimlarni o'quvchiga yetkazish muammosi, tanlanishi kerak bo'lgan usul va vositalar masalasi maydonga chiqadi. Bu esa o'qituvchidan badiiy ijrochilikni talab qiladi. Badiiy ijrochilik o'quvchiga hayot lavhalarida, adabiy asarning sirli manzaralarida go'zallikni ko'rsatishdan iborat. Bu borada har bir dars qayta takrorlanmaydigan o'ziga xos ijodiy jarayon bo'lib, o'qituvchi uning muallifi, ijrochisi, rejissyori sifatida o'z mahoratini namoyon etadi. Bu esa o'quvchilarning estetik zavqini oshiradi, ularning tafakkurini, his-tuyg'ularini rivojlantiridai, ma'naviyatini shakllantiradi.

Adabiyot o'qitishning o'zak nuqtasini adabiyot darslari tashkil etadi. Ayni mana shu jarayonda o'qituvchi va o'quvchi muloqotlarining oliy nuqtasi ko'zga tashlanadi, Ayni shu yerda ulardagi xilma-xil nuqtai nazarlarining o'zaro ro'para kelishi sodir bo'ladi. Adabiyot darslarini tasnif qilishda bir qator qarashlar mavjud. Ulardan eng keng tarqalganlari sifatida an'anaviy va noan'anaviy adabiyot darslarini ajratib ko'rsatish mumkin.

Shunday ekan, adabiyot darsining mazmuni qanday bo'lishi kerak, u qanday tipologik xususiyatlarga ega, adabiyot darsining samaradorligi nimalarga bog'liq, bunda o'qituvchining o'rni va mavqei qanday belgilanadi, o'quvchining adabiy jihatdan rivoji uchun qanday yo'l-yo'riqlar tutiladi, adabiyot darslarining tashkiliy jihatlarida qanday o'ziga xosliklar bor? kabi bir qator savollar paydo bo'ladi. Garchi adabiyot o'qitish metodikasiga oid ko'plab tadqiqotlarda bu savollarga xilma-xil javoblar berilgan bo'lsada, amaliyotchi o'qituvchilar ularga berilgan yaxlit holdagi aniq javob va ko'rsatmalarga muhtoj bo'lib turibdi. Adabiyotga oid darslarning shakllari ko'p. Eng ko'p tarqalgan turlar sifatida ma'ruza, suhbat, seminar, konferentsiya, bahsmunozara, musobaqa va boshqa darslarni ko'rsatish mumkin.

Adabiyot darslarining nazariy jihatlarini haqida bir qancha asarlar mavjud. Ularda adabiyot darslarini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari, ularga qo'yiladigan

zamonaviy talablar, adabiyot darslarida o'quvchilar faoliyatini yo'lga quyish va uni faollashtirish, zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanish, dars samaradorligini oshirish, adabiyot darslarining ma'rifiy, tarbiyaviy, estetik jihatlari, badiiy asarni tahlil qilishda adabiyot darslarining o'rnini va ahamiyati, bunda o'quvchilarning mustaqil, ijodiy ishlarni tashkil etishning yo'l va usullari haqida batafsil ma'lumotlar berilgan.

Mazkur tadqiqotlar nazariy jihatdangina emas, amaliy jihatdan ham o'qituvchilarimiz uchun dasturul amal bo'la oladi. Adabiyot darslarida o'quvchilar bilan ishlashning turli shakllaridan foydalanish imkonlari mavjud. Xususan, guruh bilan va har bir o'quvchi bilan alohida ishlashning qo'shib olib borilishi yaxshi samaralar beradi. Adabiyot darslarida o'qituvchi shaxsining mavqei alohida o'rin tutadi. Aynan mana shu shaxs darsning maqsad va vazifalarini, adabiy materialni tanlashni, qaysi mavzularni o'tishda qanday metod va shakllardan foydalanishni belgilaydi, dars jarayonining tashkil etilishini boshqarib boradi.

Adabiyot darslarining tarkibiy qismlari va bu qismlarning o'zaro munosabatalari alohida e'tiborga molik. An'anaviy darslarda odatda dastlab uy vazifasi yoppasiga so'rab chiqiladi, keyin yangi mavzu o'tiladi, u mustahkamlanadi, o'quvchilarga uy vazifasi topshiriladi. Bu jarayonlarni tashkil etish va amalga oshirishda yetakchi shaxs sifatida o'qituvchi maydonga chiqadi. Uzoq yillar davomida hukmronlik qilib kelgan mazkur shakl bugungi kunda zamonaviy talablarga javob bermay qoldi. Shuning uchun ham uning o'rniga yangicha shakl va usullar kirib kelyapti, ta'lim jarayonida yangicha pedagogik texnologiyalar davri boshlandi deb ayta olamiz. Endilikda ilg'or adabiyot o'qituvchilari darsni uy vazifasini so'rashdan emas, to'g'ridan – to'g'ri uy vazifasini berishdan, yangi mavzuni bayon etishdan, o'quvchilarga mustaqil vazifalar topshirishdan boshlayotganlari odatdagi holga aylanib bormoqda. Bu jarayonlarda, ayniqsa, o'quvchi shaxsining faollashuviga imkon beradigan usul va shakllarga ustivorlik berilayotganligi ochiq seziladi.

Darsda o'quvchilarning oldin olgan bilimlari faollashtiriladi, ularda yangi tushunchalar, ko'nikma va malakalar shakllantiriladi. Adabiyot darslari ham odatda, yangi bilimlarni berish, mavjud bilim va malakalarni mustahkamlash, o'tilganlarni takrorlash, o'quvchilar egallagan bilim, ko'nikma va malakalarni nazorat qilish kabi turlarga bo'linadi. Alohida adiblar, adabiy asarlar, ular yashagan yoki yaratilgan tarixiy davrlar bilan bog'liq holda esa kirish mashg'ulotlari, o'qish, badiiy asarni tahlil qilish yakunlovchi mashg'ulotlar tashkil etilishi mumkin. Bevosita materialning mazmuni va maqsadidan kelib chiqqan holda badiiy asarning o'zini o'rganish, adabiy-nazariy tushunchalarni o'rganish, o'quvchilar nutqini o'stirish kabi darslar ajratiladi.

Badiiy asarni idrok etish, uning matni ustida ishlash, asar ustidagi umumlashtiruvchi ishlarni tashkil etish bilan bog'liq bo'ladigan darslar ham mavjud. Adabiyot darslarida o'quvchilar olgan bilimlarini, egallagan ko'nikma va malakalarini nazorat qilish ham muhim amaliy ahamiyatga ega. Keyingi paytlarda bu sohada ayniqsa, test savollariga javob olish yo'li bilan o'quvchilar bilimini baholash keng yoyildi. Ayrim tarixiy sanalarni bilishda, yozuvchining hayotiga, adabiy asarning yaratilishiga bog'liq fakt va hodisalarni o'rganish bilan aloqador holda bu usuldan foydalanish yaxshi samaralar beradi. Ammo o'quvchining adabiy asarni idrok etish darajasini, uning adabiy qobiliyat va iste'dodini to'la bilish va baholash uchun faqat

test sinovlarining o'zi kamlik qiladi. U og'zaki suhbat, o'quvchilarning yozma nutq malakalarini kuzatish bilan qo'shib olib borilsagina baholash to'laqonli, mukammal va benuqson bo'ladi.

Adabiyot darslarining samarasi haqida gapirganda, birinchi navbatda, uning o'quvchi shaxsining kamol topishidagi foydaliligi nazarda tutiladi. Bunda, tabiiyki, uning fikrlash qobiliyatiga ijobiy ta'sir o'tkazish imkoniyati asosiy o'rin tutadi. Adabiyot darslari shunday tashkil etilishi kerakki, o'quvchilar butun dars davomida o'quv faoliyatining ichida bo'lsin, biror daqiqa bo'lsin ijodiy ishlash va mustaqil fikrlash imkoniyatidan tashqarida qolmasin.

Xulosa qilib aytganda, O'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatishning ham nazariy, ham amaliy ahamiyati mavjud. Mustaqil fikrlash ko'nikmasiga ega bo'lgan o'quvchining bilimi keng va chuqur, pishiq va barqaror bo'ladi. Bunday o'quvchilar bilimlarini turli sharoitlarda amaliyotga qo'llay oladigan bo'lishadi.

Adabiyotlar:

1. Husanboeva Q.P., Niyozmetova R Adabiyot o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. Toshkent -2020yil.
2. Mirzaeva Z., Jalilov K. Adabiyot o'qitish metodikasi Toshkent-2020 yil.
3. To'xliiev V. Adabiyot o'qitish metodikasi Toshkent-2011-yil.
4. Zunnunov A va boshqalar. Adabiyot o'qitish metodikasi. Toshkent-1992 yil.

SHAXS SHAKLLANISHIDA PSIXOLOGIK SALOMATLIK MEZONLARINING IFODALANISHI

*Zaripov O. – O'zbekiston-Finlandiya pedagogika
instituti Psixologiya kafedrasida katta o'qituvchisi,
psixologiya fanlari bo'yicha falsafa dokroti (PhD)*

Shaxsdagi ruhiy nosog'lomlik doimiy ravishda o'z ta'sirini o'tkazadi. Psixologik salomatlik shaxs kamolotida asosiy o'rinlarni egallaydi. Psixogigiena – shaxsning psixik salomatligini saqlash va mustahkamlashga yo'naltirilgan tadbirlarni ishlab chiquvchi va amalga oshiruvchi gigiena sohasi hisoblanadi. Jaxon psixologiyasida juda ko'p mualliflar psixogigienaga ta'rif berishganda uni faqatgina gigiena sohasi deb emas, balki psixiatriya sohasi ekanligini e'tirof etishadi. Ko'plab mualliflar psixogigienaning asosiy vazifalari ruhiy kasalliklarning vujudga kelish va rivojlanishining oldini olish deb qarab, psixogigienani dastlab psixoprofilaktikaga yaqinlashtiradilar. Jaxon sog'liqni saqlash tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, inson salomatligi 19 foiz tashqi muhitga, 20 foiz genetik omillarga, 9 foiz sog'liqni saqlashni tashkil etish va 52 foiz turmush tarziga bog'liq.

Olimlar N.D.Lakosin va G.K.Ushakov psixogigienani tibbiyot fanlarini alohida mustaqil bo'limi sifatida ajratadi. V.P.Petlenko va boshqa bir guruh olimlar psixogigiena faqatgina psixiatriya bilan bog'liq bo'lib qolmasdan balki tibbiyot psixologiyasi, tibbiyot sotsiologiyasi, valeologiya fanlari bilan bog'liq ekanligini ta'kidlaydilar.

Shaxsning ruhiy salomatligi bugungi kunda jaxon mamlakatlari orasida asosiy

muammolardan hisoblanadi. Insonning aniq va xolisona fikrlashi uchun jamiyat o'ziga xos bo'lgan talablarni qondirishi zarur. Jamiyat a'zosi bo'lgan shaxs mutlaqo yetarlicha darajada iqtisodiy va ijtimoiy ta'minlangan bo'lishi mumkin, ammo turli hayotiy vaziyatlarda xafa bo'ladi, depressiyaga tushadi, tushkunlikka tushadi, bezovta bo'ladi, noqulay his-tuyg'ularni o'z boshidan kechiradi, shuning bilan birgalikda aksincha, quvnoq kayfiyat, ajoyib ruhiyat, aqlan qobiliyatli bo'lish shaxsning jamiyat a'zolari bilan munosabatlarida yaqqol namoyon bo'ladi. Shunday qilib, shaxsning ruhiy salomatligi nafaqat ruhiy, shaxsiy salomatlik, vaziyatni to'g'ri aniq baholash, harakat qilish, o'zini va boshqalarni munosabatlarda to'g'ri qabul qilish, yaxshi ruhda bo'lish, hayot muammolarini hal qilishda pozitiv fikrlay olish individual xususiyatlari hisoblanadi.

Jaxonda psixologiya sohasida olib borilgan tadqiqotlarda shaxslarning psixologik salomatligi ijtimoiy munosabatlar ya'ni shaxslararo munosabatlar bilan chambarchas bo'liq. Olim I.I. Brexman shaxs salomatligini saqlash kasalliklarning yo'qligi emas, balki insonning jismoniy, ijtimoiy va psixologik uyg'unligi, boshqa odamlar tabiat va o'zi bilan do'stona munosabatlar ekanligini alohida ta'kidlab: "inson salomatligi bu sezgi, og'zaki va tarkibiy ma'lumotlarning uch manbaini miqdoriy va sifat ko'rsatkichlarining keskin o'zgarishi sharoitida yoshga mos keladigan barqarorlikni saqlash qobiliyatidir"-deya e'tirof etadi.

Shaxs salomatligini muvozanat holati sifatida tushunish, shaxsning moslashish qobiliyati (sog'liq potentsiali) va doimiy o'zgaruvchan turli hayotiy sharoitlar o'rtasidagi muvozanatni akademik V.P. Petlenko (1997) o'z takliflari orqali asoslaydi. Olima I.I. Dubrovinaning "ruhiy salomatlik" va "ruhiy sog'lomlik" hodisalari o'rtasidagi munosabatni izohlaydi, ruhiy salomatlik darajalarini hisobga olsak, an'anaviy yondoshuv – biologiya va tibbiyot sohalaridan tashqariga chiqmaydi, shuningdek, shaxsning moslashuvini o'rganishda psixologik yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. So'nggi yillarda ijtimoiy guruhlardagi shaxslarning o'zaro munosabatlarini o'rganuvchi tadqiqotchi psixologlar hamda tibbiyot xodimlari o'rtasidagi o'zaro samarali faoliyat olib borilmoqda.

Tibbiyot psixologiyasining alohida tarmog'i "Salomatlik psixologiyasi" da, shaxsning turli hayotiy sharoitlarda ruhiy holatlarga duch kelganda, yolg'iz va serxavotir odamlarning ruhiy holatlari, kutishlari munosabatlari o'rganilmoqda. Kuzatishlar davomida o'zida depressiya – tanglik holatini boshidan kechirayotgan shaxsning aynan o'zi haqidagi fikrlari negativ bo'larkan. O'z faoliyatlarida normal kundalik funksiyalarni bajarayotgan odamlarga qaraganda, bu turdagi shaxslar o'zlarini yomon baholashib, bo'lib o'tgan vaziyat va voqeya va vaziyatlardan faqat yomonlarini eslab, kelajakka ishonchsizlik bilan qarashadi. Bunday toifadagi shaxslarning fikrlash darajalari odatda depressiv tafakkur deb ataladi.

Jamiyat a'zolari orasida shunga o'xshash holat va vaziyatlar yolg'izlik holatlarini boshidan kechirayotgan shaxslar hamda turli hayotiy vaziyatlar oqibatida stress holatiga tushib qolganlarda ham kuzatiladi. Bunday vaziyatda psixologlarga bunday xarakter xususiyatli shaxslarni ijtimoiy muhitga aralashishlariga yordam berish, munosabatlar tizimini o'zgartirish va o'zig'abo'lgan ishonchlarini oshirishlari uchun psixologik treninglardan foydalanish yuqori samara beradi.

Shaxs salomatligi haqida soʻz borar ekan, eng avvalo inson tanasi va vujudining betob boʻlmagan paytdagi holati hamda xastaliklar roʻy berganda kuzatiladigan ayrim ogʻriqlar, dard bilan bogʻliq tarzda tasavvur qilishga oʻrganib qolganmiz, lekin tana va vujud, aql hamda idrok bevosita odamni, unga bogʻliq boʻlgani uchun ham inson ruhiyati qonuniyatlari va sirlarini oʻrganuvchi fan boʻlmish psixologiyaning unga aloqasi bor. Shaxs salomatligi borasidagi Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev “Hayot haqiqati shuni koʻrsatadiki, faqatgina sogʻlom xalq, barkamol millat buyuk ishlarga qodir boʻladi. El-yurtimiz azaldan shifokorlarni, inson salomatligini asrashdek ezgu va savobli ishga, butun borligʻini bagʻishlagan fidoyi zotlar, deb biladi va qadrlaydi”.

Psixologiya fanida salomatlik psixologiyasi boʻlimi mavjudki, u salomatlikka eng avvalo, inson ongi va tafakkurining inʼikosi sifatida qaraydi. Demak, har birimiz uchun suv va havodek zarur boʻlgan salomatlik nafaqat tibbiyot fanining, balki psixologiyaning ham izlanish predmetini tashkil etadi. Psixologik sogʻlom shaxs feʼl-atvori, xulqi va turli psixologik holatlari nuqtai nazaridan oʻrganganda asosan nimalarga eʼtiborni qaratish zarur? Har birimiz uchun sirday tuyulgan ruhiyatimizning oʻzimizni sogʻ-salamat, beshikast va tetik his qilishimizga aloqador qanday jihatlari bor? Uni boshqarish orqali oʻz boyligimiz-salomatligimizni saqlash borasida qoʻlimizda qanday imkoniyatlar mavjud? Salomatlik psixologiyasi har birimizga oʻz ruhiy holatimizni boshqarish, ongu-shuurimizda roʻy berayotgan oʻzgarishlarni vaqtida ilgʻash orqali uni moʻtadil tutish, oʻzgaruvchan shart-sharoitlarga moslashish yoʻllarini, bu boradagi profilaktika hamda gigiyenani birdek boshqara olishimiz zarur.

Shaxs salomatligiga aloqador jamiki tabiat, jamiyat, ruhiyatimiz oʻzgarishlarga holis yondashishning bir usulidir. Shuni alohida taʼkidlash joizki, XXI asrga kelib salomatlik psixologiyasi shaxs salomatligini barqarorligini taʼminlashda ijtimoiy psixologik omillarga, shaxsning oʻziga, uni oʻrab turgan oʻziga oʻxshash insonlar, ular oʻrtasidagi oʻzaro muloqotga koʻproq eʼtiborni qaratish zarur vazifalardan ekanligini bilib turibmiz. Masalan ijtimoiy psixologik omillardan biri boʻlmish oila undagi muhit, oilani tashkil etuvchilarning oʻzaro muomalalari va shunga aloqador koʻnikmalari katta rol oʻynaganligi sababli, bu omilning taʼsirini biror on ham esdan chiqarmaslik zarur vazifalardan hisoblanadi. Demak, salomatlikning ijtimoiy-psixologik mezonlari deganimizda avvalo boshqalarga, atrofdagi yaqinlarimiz, biz uchun ahamiyatli boʻlgan insonlar, yor-doʻstlarimizga munosabatlarimiz, hamkasblarimiz, mehnat va oʻqish faoliyatidagi hamkorlarimizning bizga, bizning salomatligimizga koʻrsatishi mumkin boʻlgan ijobiy hamda salbiy taʼsirlarini unutmashimiz zarur hisoblanadi. Salomatlikning ruhiy-psixologik omillari haqida gap ketganda, eng avvalo uning inson shaxsi xususiyatlari nazarda tutiladi.

Shu oʻrinda qoʻlga kiritilajak har qanday yutuq yoki muammolarning yechimi eng avvalo, “sogʻlom shaxs” oʻzi kim degan savolga javob topishga imkon beradi. Taniqli rus psixiatri S.S.Korsakov yozganidek, sogʻlom shaxsga aloqador barcha xossa va xususiyatlar qanchalik bir-biri bilan oʻzaro mutanosib, bir-biriga bogʻliq, muvozanatli va tashqi muhitdan unga tahdid soluvchi omillariga nisbatan chidamli boʻlsa, u shunchalik baquvvat va salomat boʻladi. Shaxsning psixologik xususiyatlari

uni o`rab turgan ijtimoiy muhit munosabatlariga bog`liq hisoblanadi. Shaxsning salomatligiga ta`sir etuvchi ijtimoiy omillarga eng avvalo oilani kiritish mumkin, oiladagi sog`lom psixologik muhit, oila a`zolarining bir birlarini tushunishlari, har bir ishda bir-birlarini qo`llab-quvvatlashlari, ota-ona-farzandlar munosabatlaridagi iliqlik, samimiyat, bundan tashqari, do`stlar va yaqin qarindoshlar bilan o`rnatilgan muomala maromlari, ishda, dam olish paytida bo`ladigan muloqotlar, odamning u yoki bu ijtimoiy tashkilotlar – partiya, diniy tashkilot, uyushmalarga aloqadorligi kabilar nazarda tutiladi.

Shuni aytish lozimki, ijtimoiy omillarning ayrimlari shaxs salomatligiga ijobiy ta`sir ko`rsatsa, boshqalari – aksincha, salbiy ta`sir ko`rsatishi mumkin. Ijtimoiy va psixologik nuqtai nazardan o`zlarini sog` va salomat his etgan odamlargina jamiyatning faol a`zolari bo`lib, ularning kundalik ishlari, yumushlarni bajarishlari samarali bo`ladi. Shu bois ham tarbiyadagi nuqsonlar va noma`qul ijtimoiy muhit ta`sirlari odamning jamiyatda noto`g`ri xulq andozalarini namoyon etishiga sabab bo`lishi, hattoki, jinoiy harakatlar, noto`g`ri, noo`rin, bema`ni ishlarni amalga oshirishiga olib kelishi mumkin. Biror kimsaning odamlarga, mehnatga yoki jamoaga munosabati buzilsa, uning shaxs sifatida ham tobora noto`g`ri va noo`rin harakatlarini odamlar seza boshlaydilar, “g`alati bo`lib qolibdimi?”, “yurish-turishi bejomi?” kabi savollar paydo bo`ladi. Shaxsning ijtimoiy salomatligi undagi quyidagi tavsiflar orqali tushuntiriladi: ijtimoiy borliqdagi voqyea-hodisalarni to`g`ri, xolis idrok etish; tashqi muhit hodisotlariga nisbatan qiziqishning mavjudligi, tabiiy atrof-muhit hamda odamlar muhitiga tez moslashish-kirishimlilik, ijtimoiy foydali ishlarga ixlosmandlik, iste`mol madaniyati, altruizm, empatiya, o`zgalar oldida mas`uliyatni his etish kabilardir.

Demak, bunday inson befarq, loqayd emas, unga yana dangasalik, xudbinlik, johillik, jangarilik kabi salbiy sifatlar xos emas, u o`zini o`rab turgan jamiyatning ta`sirlariga o`z munosabatini bildira oladi. Inson salomatligini ta`minlovchi, jamiyat ta`siriga bog`liq psixologik omillarning mazmun-mohiyatini ruhiy nosog`lomlikning nimalarda namoyon bo`lishini ham tavsiflash orqali tushunish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://www.gazeta.uz>.
2. <https://president.uz>.

JIZZAX VILOYATIDA IQTISODIY VA IJTIMOIIY O`ZGARISHLAR: MUAMMO VA YECHIMLAR

*Zarpullayev Shahzod Zokir o`g`li –
Aniq va Ijtimoiy fanlar universiteti magistranti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada mustaqillikning dastlabki yillarida Jizzax viloyatida olib borilgan iqtisodiy va ijtimoiy o`zgarishlar, yangi iqtisodiy munosabatlarga o`tish tamoyillari asosida g`oyat mas`uliyatli va murakkab vazifa – iqtisodiy islohotlar strategiyasining ishlab chiqilishi, viloyatning agrar sohadagi olib borgan bir qator o`zgarishlari va hozirgi holati haqida dolzarb masalalar atroflicha yoritilgan.

***Kalit so'zlar:** bozor iqtisodiyoti, ijtimoiy, qishloq xo'jaligi sohasi, mustaqillik yillarida o'zgarishlarning o'rni va ahamiyati, ishlab chiqarish, ta'lim sifatining rivoji, bozor infratuzilmasi.*

Butun dunyodagi rivojlangan davlatlar iqtisodining asosini bozor iqtisodiyoti tashkil etadi. Bozor iqtisodiyoti tovar-pul munosabatlariga asoslangan va ularga xos iqtisodiy qonunlar asosida ishlaydigan iqtisoddir. Bozor iqtisodiyoti qadim zamonlardan boshlab ming yillar davomida shakllanib, takomillashib kelmoqda. Iqtisodiy taraqqiyotda bozor munosabatlari ikki xil shaklda namoyon bo'ldi. Birinchisi, tartibsiz, stixiyali faoliyat yurituvchi bozor iqtisodiyoti. Bunda ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar tarqoq, o'zibo'larchilik asosida, maqsadi va harakati oldindan kelishilmagan holda faoliyat yuritadilar. Ikkinchisi, davlat, iqtisodiy qonunlar va iqtisodiy vositalar bilan tartibga solinadigan, boshqariladigan bozor iqtisodiyoti hisoblanadi.

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlar milliy davlatchilik va suverenitetni mustahkamlash, xavfsizlik va huquq-tartibotni, davlatimiz chegaralari daxlsizligini, jamiyatda qonun ustuvorligini, inson huquq va erkinliklarini, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik muhitini ta'minlash uchun muhim asos bo'lib kelmoqda. Xususan, tarix fani va unga oid bilimlar ham jamiyat manfaatlariga, insonlarning ma'naviy dunyosiga ijobiy ta'sir qilishi, kishilarda tarixiy xotira, ajdodlar merosidan faxrlanish tuyg'usini uyg'ota olishi lozim. Bu borada o'z fikrlarini bayon qilgan Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2018-yil 28-dekabrda Oliy Majlisga qilgan Murojaatnomada, oldimizga qo'ygan ulkan vazifalarni amalga oshirishda biz uchun kuch-qudrat manbai bo'ladigan milliy g'oyani rivojlantirishimiz zarur. Vatanimizning qadimiy va boy tarixini o'rganish, bu borada ilmiy-tadqiqot ishlarini kuchaytirish, gumanitar soha olimlari faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlashimiz lozim. O'tmishga berilgan baho albatta xolisona, eng muhimi, turli mafkuraviy qarashlardan xoli bo'lishi zarur, - degan edi. Shundan kelib chiqib aytadigan bo'lsak, Oliy o'quv yurtlarida O'zbekistonning eng yangi tarixini chuqur o'rganish yosh mutaxassis kadrlarning bugungi davr siyosatini, jahon hamjamiyatidagi o'rnini, ayniqsa o'zining ham shu ijtimoiy-siyosiy jarayon ishtirokchisi ekanligini to'g'ri va aniq anglashi jamiyat taraqqiyotida muhim ahamiyat ega.

Yangi iqtisodiy munosabatlarga o'tish tamoyillari asosida g'oyat mas'uliyatli va murakkab vazifa – iqtisodiy islohotlar strategiyasi ishlab chiqildi. Iqtisodiy strategiyaning boshlang'ich nuqtasi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarning pirovard maqsadini belgilab olishdan iboratdir. Bu vazifa markazlashtirilgan, ma'muriy buyruqbozlikka asoslangan iqtisodiyotdan bozor munosabatlariga, bir sifat holatidan ikkinchi sifat holatiga o'tishdan iboratdir.

Bozor islohotlarini amalga oshirish dasturiga ko'ra ustuvor vazifalar bosqichma-bosqich hal qilinadi. Birinchi bosqichda totalitar tuzumdan hozirgi zamon bozor munosabatlariga o'tish davridagi bir-biriga bog'liq ikki vazifani bir vaqtda hal qilishga to'g'ri keldi: ma'muriy buyruqbozlik tizimining og'ir oqibatlarini tugatib, iqtisodni rivojlantirish va bozor munosabatlarning negizini shakllantirishdan iborat.

Mustaqillik yillarida Jizzax viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy hayoti,

o`zgarishlar, islohotlar, tarixiy-madaniy meros obektlari va ularning o`rganilishi, ta`lim, ilm-fan sohasidagi o`zgarishlar, ijtimoiy hayotda bo`lgan o`zgarishlar, umuman O`zbekistonning bir qismi sifatida ilmiy tadqiqotlar va risolalarda oz aksini topdi.

Jizzax viloyati respublika ishlab chiqarishda va madaniy taraqqiyotida salmoqli o`rin tutadi. Xususan, paxta, g`alla, sabzavot, meva, chorva mahsulotlari yetishtiriladi. Bog`dorchilikni rivojlantirishga e`tibor berilmoqda. Qurilish materiallari, xalq iste`mol mollari ishlab chiqaradigan korxonalar salmog`i oshdi. Viloyatda tadbirkorlikni rivojlantirish maqsadida 2,5 mlrd. so`mdan ziyod kredit mablag`lari ajratildi. Faoliyat ko`rsatayotgan 9400 ga yaqin xo`jalik subyektlarining qariyb 8300 tasi nodavlat xo`jaliklaridir.

Hozirgi Jizzax viloyati qadimdan Buyuk ipak yo`lida joylashganligi bu xududda savdo madaniyatining tez rivojlanishiga ta`sir etdi. Ilk o`rta asrlarda jahon bozorida Jizzaxda jun va teridan tayyorlangan mahsulotlarga talab katta bo`lgan. 8-9-asrlarda kulollik, zargarlik, aravasoqlik kabi mahallalarining mavjudligi milliy hunarmandchilikning o`sha davrlarda rivojlanganligidan darak beradi.

Viloyatdagi ishlab chiqarish sanoat tarmoqlarini hududiy jihatdan Jizzax, G`allaorol, Dashtobod, Do`stlik shaharlaridagi sanoat tarmoqlariga ajratish mumkin. Bular foydali qazilmalarni qazib chiqarish, paxtachilik va irrigatsiya bilan bog`liq bo`lgan tarmoqlar, paxtani qayta ishlash, elektrotexnika sanoati, qurilish materiallari ishlab chiqarish, kimyo, yengil sanoat (ip yigiruv, paypoq to`qish, ustki trikotaj fabrikalari), oziq-ovqat sanoatidir. Viloyatda qurilish materiallari, oziq-ovqat mahsulotlari, xalq iste`moli mollari ishlab chiqaruvchi korxonalarining salmog`i sezilarli. Shulardan Dashtobod qurilish materiallari, Zomin oniks, Baxmal marmar, g`isht zavodlari, Dashtobod, Do`stlik un kombinatlari, Jizzax mebel fabrikasi ishlab turibdi. Jizzax viloyatida konchilik tarmog`i ham rivojlangan. Marjon buloq oltin koni, Qo`ytoshdagi ohak, vollastonit, volfram, Ko`tarmada ohak, Uchquloqda qo`rg`oshin konlari faoliyat ko`rsatmoqda. 1991—2001-yillar davomida Jizzax viloyatida jahon andozasi darajasidagi mahsulotlar ishlab chiqaruvchi zamonaviy qo`shma korxonalar tashkil qilindi. Viloyatda qo`shma, kichik va xususiy korxonalar mavjud. Qo`shma korxonalarda ishlab chiqarilayotgan sanoat mahsulotining salmog`i tobora ortib bormoqda. „Jibri“ (O`zbekiston — Buyuk Britaniya) qo`shma korxonasi-yiliga 50 ming t chigitni qayta ishlab o`simlik yog`i ishlab chiqaradi, „Kumush tola“ (O`zbekiston—Tojikiston) qo`shma korxonasi-yiliga 80 t dan ziyod ipak tolasini tayyorlaydi, „Paxta interneyshnl“ (O`zbekiston—Suriya) qo`shma korxonasi-yiliga 10 ming t lintdan sellyuloza ishlab chiqarish quvvatiga ega, „Baxmalsharob“ (O`zbekiston—Polsha) qo`shma korxonasida mineral suvi qadoqlanadi. Shuningdek, paxta tolasidan eshilgan ip tayyorlovchi „Irtartekstil“ (O`zbekiston—Pokiston), yog`moy va sovun ishlab chiqaruvchi „Madina“ (O`zbekiston—Xitoy), „Jizzax—Telekom“ (O`zbekiston —Indoneziya), Qo`ytosh shaharchasida „Vollastonit“ ishlab chiqarish sexi (O`zbekiston—Rossiya), sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi „Vostok LTD“, „Belogorsk“ qo`shma korxonalarining hissasi sezilarlidir. Yiliga 1 mln dona akkumulyator tayyorlovchi „O`zeksayd“ qo`shma korxonasi faoliyat ko`rsatadi (2002). „Zilolateks“ aksiyadorlik jamiyatida 250 t nitron matosi ishlab chiqarish quvvati ishga tushirildi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoev Sh. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi. - Toshkent: O'zbekiston nashriyoti, 2019. 28-bet.
2. Nosirov O`. Istiqlohim - istiqbolim. Toshkent. 2007.
3. Jizzax viloyatining statistik axborotnomasi. Jizzax, 2012.
4. Shadieva G.M [va boshq.]. Mintaqaviy iqtisodiyot. Darslik / Samarqand. FAN.
5. BULOG'I» nashriyoti, 2023.
6. www.ziyonet.uz
7. www.edu.uz

XOTIRA XUSUSIYATLARI VA XOTIRA HAQIDAGI QARASHLAR

*Temirova Maryam –
O'zMU talabasi*

Xotira nerv sistemasi xususiyatlaridan biri bo'lib idrok etilgan obyektlarni esda saqlash, esda qoldirish, unutish zarur bo'lganda tiklashdan iborat bilish jarayoni hisoblanadi. Xotira odamning o'tmish tajribasini uzluksiz ravishda kengaytirib borishga va amalda foydalanishga yordam beradi. Xotira faoliyati esda olib qolishdan boshlanadi. Biz doim narsa va hodisalarni birinchi navbatda idrok qilamiz va buning oqibatida narsa va hodisalarini esda olib qolamiz.

Esda olib qolishning ikki turi mavjud: assotsiativ va mantiqan esda qoldirish. Bir paytda idrok qilingan bir va undan ko'p turdagi narsa hodisalarning obrazlari o'rtasidagi bog'lanishlar (assotsatsiya) deyiladi. Masalan, biror ashulani eshitib turganimizda ashula aytayotgan odamning yuzini ham bog'lanishlar orqali esga tushiramiz. Assotsatsiyaning yondoshlik assotsatsiyasidan tashqari o'xshashlik, qarama-qarshi turlari ham mavjud. Mantiqan ya'ni ma'nosiga tushunib esda olib qolish jarayonining asosida fikrlash jarayonlari turadi. Mantiqiy xotirada fikrlash jarayonida paydo bo'lgan fikrlarni eslaymiz, takrorlaymiz. Mantiqiy xotira ikki ko'rinishda namoyon bo'ladi: birinchisi olingan ma'lumotni faqat ma'nosi esda qoladi va takrorlanadi aniq iboralarning aniq saqlanishi talab qilinmaydi. Ikkinchi holatda esa faqat ma'nosi emas balki fikrning so'zma-so'z og'zaki ifodasi ifodalanadi. Ushbu mexanizmlar haqidagi fiziologik nazariyalar I.P.Pavlovning oliy nerv faoliyati to'g'risidagi qonuniyatlarining tavsifi bilan bog'liq.

Xotira bir necha turlarga bo'linadi shuningdek xotiraning barcha turlari bir-biri bilan uzviy bog'liq. Uzoq yillik izlanishlar natijasida xotiraning qisqa va uzoq turlari farqlanadi. Ilmiy adabiyotlarda qisqa muddatli xotira "bir lahzalik", "dastlabki" "asosiy (faol)" xotira deb ataladi. Qisqa muddatli xotira haqida turli davr olimlari turlicha yondashgan ba'zi olimlar qisqa muddatli xotirada ma'lumot saqlanishini bir necha daqiqadan bir necha soatgacha davom etadi deyishsa ba'zilar bir necha daqiqadan bir necha o'n kungacha davom etadi deb ta'kidlaydi. Uzoq muddatli xotirada axborotlar juda uzoq vaqt hattoki umr bo'yi saqlanib turadi. Qisqa muddatli xotira ustida ishlanishi jarayonida uzoq muddatli xotiraga aylanadi. Ushbu xotira turida izlar uzoq

muddat saqlanishi natijasida keyinchalik kelajakdagi faoliyatda qo'llash qo'l keladi. O'z navbatida ushbu psixik jarayonning ham ichki turlari mavjud: avtobiografik, epizodik, assotsiativ, biologik, reproduktiv v.h. Sensor xotira esa ma'lumotlar taassurotlarini eslab qolishga yordam beradi uning turlari mavjud: exoik xotira, taktik xotira.

Xotiraning namoyon bo'lish shakliga ko'ra turlari ham mavjud: emotsional, harakat, obrazli, mantiqiy kabilar. Kishi o'z faoliyati va hayoti davomida turli xil emotsiyalarga duch keladi ana shu paytda emotsional xotira turi katta ahamiyatga ega hisoblanadi. Xotiramizda saqlab qolgan hissiyotlar va harakatga undovchi yoki o'tmishda salbiy kechinmalarga ega bo'lgan harakatlardan saqlab qoluvchi signal tarzida namoyon bo'ladi. Operativ xotira tushunchasi inson tomonidan bevosita amalga oshirilayotgan harakatlar, operatsiyalar uchun xizmat qiluvchi mnemik jarayonlarni bildiradi. Ixtiyorsiz xotiraning xayotimizda naqadar katta o'rin egallaganligini har kim ham o'z turmush tajribasidan biladi. Ixtiyorsiz xotira asosida maxsus mnemik maqsadlarsiz va zo'r berishsiz o'z xayotiy ahamiyati hamda hajmi jihatidan tajribalarimizning ko'pchilik qismi tarkib topadi. Biroq inson faoliyatida ko'pincha inson xotirasining boshqarish zarurati tug'ilib qoladi. Mana shunday sharoitlarda kerakli narsalarni ixtiyoriy ravishda o'rganib olish yoki eslash imkoniyatini beradigan ixtiyoriy xotira katta rol o'ynaydi.

S.Musamedovning "Fenomenal xotira" kitobida yozilishicha, takrorlash-xotiraning onasi. Statistik ma'lumotlarga qaraganda, inson miyasi kun davomida milliardlab ma'lumotni qabul qilar ekan. Ularning faqat ma'lum qismi xotirada saqlanib qoladi. Ayniqsa siz ko'rib, eshitib hamda yozib olgan ma'lumotlar keyinchalik eslashingizda qo'l keladi.[1]

Sechenovning fikricha, xotirasiz odam "abadiy yangi tug'ilgan chaqaloq holatida bo'ladi. Tokio universiteti professori Yasuji Miyashita boshchiligida yapon tadqiqotchilari guruhi butun xotira mexanizmi miyaning kulrang moddasining temporal bo'laklarida to'planganini isbotladi. Xotira psixologiyaning eng rivojlangan sohalaridan biri hisoblanadi chunki aynan ushbu jarayonda ma'lumotlar saqlanib keying faoliyatga tadbiq etiladi. [3]

Professor E.G'.G'oziyev tomonidan xotiraga quyidagicha ta'rif beriladi: "Xotira atrof muhitdagi voqelik (narsani) bevosita va bilvosita, ixtiyoriy va ixtiyorsiz ravishda, passiv va faol holatda, reproduktiv va produktiv tarzda, verbal va noverbal shaklda, mantiqiy va mexanik yo'l bilan aks ettiruvchi esda olib qolish, esda saqlash, qayta esga tushirish, unutish va tanish hissidan iborat psixik jarayon. Alphonse va umumiylik namoyon qiluvchi ijtimoiy hodisa barcha taassurotlarni ijobiy qayta ishlashga yo'naltirilgan mnemik faoliyatdir". Shuni ta'kidlash joizki, xotira murakkab, keng qamrovli jihatlari bilan ajralib turadi.

Aristotelning xotira haqidagi ta'limotida materializmning katta ahamiyati mavjud. Aristotel materializmga yaqinlashib, «sezgi hosil qiladigan narsa tashqarida», deya ta'riflaydi. Uning tasvirlar "tasvirga o'xshash", "rasmga o'xshash" degan fikri shundan kelib chiqadi. Ushbu materialistik qoidalar zamonaviy tilda aytganda, miyada qoladigan izlarning turlicha hosil bo'lishi xotira deb yuritiladi. Shunday qilib xotirani o'rganish antik davrdan boshlanganini ko'rish mumkin. Turli davrlarda tadqiqotchilar xotirani o'z izlanishlariga tayanib tasvirlagan. [2]

V.A.Krutetskiyning ta'kidlashicha bolalar odatda mexanik yo'l bilan yodlaydi ya'ni bolalar odatda darsliklarni tushunmaydi yoki istashmaydi. Mexanik yodlash esa ma'lumotni ma'nosini tushunmasdan, mohiyatini anglamasdan yod olish turi hisoblanadi. Aynan shuni hisobga olgan holda rus pedagogi K.D.Ushinskiy quyidagi g'oyani ilgari suradi "Bola xotirasida ma'lumotlarni mustahkam yod olinishini xohlovchi pedagog, bolaning sezgi organlarini mumkin qadar iloji boricha qatnashtirishi lozim". Chunki sezgi organlari esda tutib qolishda katta ahamiyat kasb etadi. [4]

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. S.Musamedov <<Fenomenal xotira>>
2. E.G'oziyev <<Umumiy psixologiya>>
3. Yu.A.Xristoforovich Obshaya psixologiya
4. Z.Nishanova D.Abdullayeva Rivojlanish psixologiyasi.

YOSHLARNING VATANPARVARLIK TARBIYASIDA INNOVATSION TALABLAR

*To'ychiyev Suxrob Umarali o'g'li –
O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi
Jizzax Mintaqaviy o'quv markazi
"Huquqiy fanlar" sikli katta o'qituvchisi, kapitan*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada yoshlarda vatanparvarlik tarbiyasi va uni amalga oshirishda zamonaviy yondashuvlar borasida fikr yuritilgan. Yoshlarni globallashtirish davrida vatanparvarlik tarbiyasida milliy meros, ajdodlar tajribasi, adabiy asarlarning tutgan o'rnini tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *Innovatsiya, tarbiya omillari, harbiy xizmatchi, ma'naviy axloqiy, vatanparvarlik, ta'lim-tarbiya, milliy meros.*

Bugungi kunda jamiyatimizning barcha jabhalarida innovatsion yangilanish ketmoqda. Innovatsiyalar har bir sohada muhim ahamiyatga ega, u bir tizimda shakllangan, foydali, yangicha yondashuvlar jarayoni hisoblanadi. Ular ma'lum jamiyat a'zolarining tashabbuslari va yo'nalishdagi yangicha, foydali o'zgarishli fikrlar asosida tug'ilib, soha saviyasini, imkoniyatlarini, foydaliligini oshirishga xizmat qiladi. Pedagogik sohada ham ta'lim va tarbiya saviyasini oshirish va rivojlantirish uchun innovatsion yondashuv ijobiy imkon beradi. Bugun ta'limning barcha sohalari kabi harbiy ta'lim-tarbiyada ham innovatsion yondashuv talab etilmoqda. Chunki necha yillar davomida shakllangan va qisman yangilangan bu tizim sohaning zamonaviy talablarini qoniqtirmayapti. Ta'lim jarayonida hamon ustivorlik qilayotgan an'anaviy yondashuv, tarbiyadagi biryoqlamalik sohada kata yutuqlarni qo'lga kiritishga xalaqit qilmoqda.

Harbiy xizmatchi hamda xodimlar, ayniqsa, bo'lajak ofitserlarni ma'nan, ruhan kuchli qilib tarbiyalash, ularni tinchlik va jamoat tartibini ta'minlash talablariga javob bera oladigan, nostandart vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qila oladigan qilib tayyorlash,

chidamliligi va vatanparvarligini kuchaytirish zamonaviy harbiy pedagogik tarbiyaning muhim vazifalaridan hisoblanadi. Bu maqsadga erishish uchun eng zamonaviy pedagogik, axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan, jumladan, yetakchi jamoat tashkilotlari, olimlar, mutaxassislar, yoshlar ittifoqi, madaniyat va san'at namoyandalarining kuch va imkoniyatlaridan keng foydalanish lozim.

Milliy gvardiya ta'lim muassasalarining kursant va tinglovchilarini ma'naviy-axloqiy jihatdan yetuk, intellektual salohiyatli va jismonan baquvvat vatanparvar qilib tarbiyalashda eng avvalo ularda o'z tarixini mukammal o'rganish, Vatan himoyachisi ekanligidan g'urur tuyg'usini uyg'otish, jangovar qobiliyati va tafakkurini yuksaltirishga erishish lozim.

Shu maqsadda Respublikamiz Prezidentining 2018-yil 4-avgustda "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilarining ma'naviy-ma'rifiy saviyasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi maxsus qarori imzolandi. Bu qarorda asosan tizimda ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini yanada takomillashtirish, ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar bilan uyg'unlashgan zamonaviy ta'lim-tarbiyani innovatsion usullarini joriy etish va eng muhimi har qanday ta'sirlarga chidamli, burchiga sadoqatli, yuqori professional harbiy xizmatchi va xodimlarni, barkamol kadrlarni tarbiyalash maqsad qilib qo'yilgan. Ushbu qarorga ilova tarzida tizimda ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish konsepsiyasi ishlab chiqildi. Konsepsiyada "Vatan – muqaddas, uni himoya qilish sharaflı burchdir!" degan tayanch konseptual g'oya asosida barcha ma'naviy-ma'rifiy ishlar tashkillashtirilishi nazarda tutilgan. Konsepsiyada harbiy xizmatchi hamda xodimlarning, xususan, kursantlar va tinglovchilarning ma'naviy saviyasi va aqliy salohiyatini yuksaltirish va boy madaniy merosimiz, qadriyatlarimiz va an'analarimiz singdirilgan dunyoqarashni shakllantirishga yo'naltirilgan yagona tizimni yaratish asosiy vazifalardan bo'lib, bu ta'lim-tarbiya jarayonini yanada takomillashtirishni talab etadi. O'z milliy qadriyatlarini e'zozlamaslik, tarixini mukammal bilmaslik shaxsda menlik qadr-qimmatini susaytiradi. Bugun butun dunyoda kechayotgan globallashuv jarayoni yoshlarimiz tafakkuri, ong-shuurida o'zgarishlar qilib, ommaviy madaniyat yoppasiga o'z ta'sirini ko'rsatib ulgurdi. Internet tarmoqlarining salbiy ta'siri yoshlar psixikasiga o'z bosimini o'tkazdi. Milliy o'zlikni anglash anchagina susaydi. Buning natijasi o'laroq, yoshlar dunyoqarashi qashshoqlashdi. Ma'lumotlar rang barang, ko'p. Ammo saviyasi pasaydi. Bu esa ularda beqarorlik, yuzaki fikrlash, fidoiylık, g'urur, sha'n tushunchalarini pasayishi kabi muammolarni keltirib chiqardi. Harbiy xizmatchi va xodimlarning yelkasiga Vatan himoyasi, xalq qalqoni kabi mas'uliyatni olgan, qo'lida quroli bor shaxs. U qanchalar jismonan baquvvat bo'lmasin, ma'nau, ruhan kuchli bo'lmasa, dunyoqarashida vatanparvarlik ustivor bo'lmasa, nostandart holatlar uchun tayyor hisoblanmaydi, demakki bugungi beqaror dunyo siyosati, zamonaviy urushlar talabiga javob bermaydi. Shuning uchun harbiy ta'limda ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitishni takomillashtirish, rejadan tashqari ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni ko'paytirish va albatta ularning ta'sirini kuchaytirishga e'tibor qaratilishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi tizimida xizmat qilayotgan harbiy xizmatchi va xodimlarning o'z kasbi va vazifasi bilan faxrlanishi va ularda mamlakatimiz himoyasini mas'uliyat bilan amalga oshirish tuyg'ularini tarbiyalash kerak. Mamlakatimizda kechayotgan o'zgarishlar, islohotlar va yon-atrofimizda bo'layotgan

siyosiy, ijtimoiy o'zgarishlarni ongli ravishda tahlil qilib, munosabat bildira olish, eng e'tiborlisi, tafakkuri ila o'zini va jarayonlarni tahlil qilish va faoliyat yuritish, o'z fikriga ega bo'lish va uni ilgari sura bilish qobiliyatlari rivojlantirilishi talab etilmoqda.

Jangovar va safarbarlik tayyorgarligini, har qaysi harbiy xizmatchi va xodim ongida uning o'z fikri, atrofida kechayotgan voqealarga daxldorlik tuyg'usini mustahkamlash, yuksak axloqiy va ma'naviy fazilatlarni, faol hayotiy pozitsiyaga egalik va vatanparvarlik hissini tarbiyalash, "O'zbekiston xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi!" degan e'tiqodga ega bo'lishlari uchun milliy ilmiy merosimiz, tarbiyaviy an'analarimiz, jahonga mashhur xalq qahramonlarimiz tarixini o'rganib, ulardek mard, jasur bo'lishga intilish sifatlarini rivojlantirish lozimdir. "O'zini Vatan farzandi deb hisoblovchi odam butun tanu joni bilan unga xizmat qilishi kerak" [1]. Demakki yoshlarimizga aynan "Vatan farzandi" g'oyasini singdirishimiz lozim.

Bugun yoshlarimizni harbiy vatanparvarlik tarbiyasiga yangicha yondashish lozim. Harbiy xizmatchi va xodimlar uchun adabiyot emas, jangni o'rganish zarur, degan qarashlarni o'zgartirish kerak. Negaki urushlar qiyofasi o'zgarmoqda. Zamonaviy urushlarning har qanday turi bevosita shaxsning ma'naviyati, dunyoqarashi va ruhiyati bilan bog'liq. Harbiy xizmatchi va xodimlarning ruhiy jihatdan chidamli bo'lishi qanchalar ahamiyatli ekanligi haqida mamlakatimiz Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Shavkat Mirziyoev Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan tartibdagi majlisida alohida urg'u berib: "...shaxsiy tarkib ma'naviy jihatdan zaif bo'lsa, ya'ni askar va ofitserlarimizda jangovar ruh, Vatanga mehr va sadoqat, uning taqdiri uchun mas'uliyat bo'lmasa yoki ularning o'rtasida beparvolik hukm sursa, bunday holat nihoyatda noxush oqibatlariga olib kelishi mumkin" [2] deya e'tibor qaratdilar. Darhaqiqat, jismonan qanchalar kuchli bo'lmasin, qo'lida eng yaxshi qurol bo'lmasin, ruhan va ma'nau qurollanmagan askar jangda nafaqat ish bermaydi, hatto zarar keltiradi. Demak ma'naviyatni boyitish eng asosiy ishimiz hisoblanadi. Ma'naviyatni ozuqasi bu birinchi o'rinda badiiy adabiyot va diniy bilim hisoblanadi. Badiiy adabiyot: asotiru ertaklardan boshlab romanlargacha insonni to'g'ri yashashga, insoniy fazilatlarni rivojlantirishga, vatanparvarlik, mardlik tuyg'ularini mukammallashuviga bebaho ta'sir kuchiga ega. Bu kuch hech qachon susaymaydi. Shuning uchun yoshlarda kitobga mehr va ishonchni berish zarur. Adabiyot milliy armiyamiz saflarida xizmat qilayotgan barcha harbiy xizmatchi va xodimlarni ruhlantiruvchi, milliy g'ururni yuksaltiruvchi, shuning barobarida, vatanparvar sodiq himoyachini tarbiyalovchi kuchga ega. Bu kuchdan esa o'z o'rnida foydalanish har zamonda har sohada o'z natijasini bergan.

E'tiqod insonni og'ishiga, chalg'ishiga devor bo'lish kuchiga ega. Shaxsda e'tiqod bo'lmas ekan, bu shaxs eng xavfli qurol bo'lishi mumkin. E'tiqodsiz odamda muqaddas narsani o'zi bo'lmaydi. E'tiqodni esa diniy bilimlarsiz shakllantirib bo'lmaydi. Din to'g'ri yashash, rahmdillik, ezgulik, bag'rikenglik, halimlik sifatlarini, o'z qarashlariga yengilmas e'tiqod kuchini beradi.

Xullas, Vatan taqdiri eng avvalo Vatan himoyachisining e'tiqodi, ma'naviy-ruhiy va jismoniy tarbiyasiga bog'liq. Milliy davlatchilik an'analarimizni asrab-avaylash, mamlakatimiz sarhadlari, yaxlitligi hamda xavfsizligini ta'minlash, yoshlarimizda yot g'oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish, ularni

erkin fuqarolik jamiyati barpo etish yo'lida birlashtirish, Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi yo'lida sadoqat bilan xizmat qilish sharaflı burch ekanligini singdirish oliy maqsadimiz bo'lishi lozim.

Adabiyotlar:

1. Tohir Malik, Tanlangan asarlar: To'qqizinchi jild. - T.: Sharq, 2010. - 650 b.
2. Shavkat Mirziyoyev, Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan tartibdagi majlisidagi nutq. Vatanparvar, 13 yanvar 2018 yil.

O'SMIRLARDA XULQIY OG'ISHLARNING KELIB CHIQISHIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

*Turdiqulova Luiza Zayniddinovna –
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti o'qituvchisi*

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada shaxsning ogishgan xulqi va uning shakllanishi haqida nazariy ma'lumot hamda tahlillar bayon qilingan. Shuning bilan birga, maqolada o'smirlik davrida deviant xulq-atvorning shakllanishi va unga ta'sir etuvchi omillarning o'ziga xos jihatlari va ularning nazariy-ilmiy qarashlar yoritilini berilgan.*

***Kalit so'z:** xulqiy og'ish, deviant, determinatsiya, genetika, agressivlik, jizzakilik, tajovuzkorlik, va boshqalar.*

Inson xulq-atvori, psixologik xususiyatlari bilan bog'liq masala insoniyatni qadim zamonlardan buyon qiziqtirib kelgan. Bu sohada izlanish olib borgan ko'plab olimlar insonning tug'ilganidan boshlab, shakllanishi bilan bog'liq barcha xodisalarni o'rganishni tadqiq qilish orqali, uning o'ta murakkab jihatlari kashf etgan. Haqiqatdan ham, inson xulq-atvorining jamiyatda belgilangan hayotiy normal mezonlardan og'ishi, buzilishi bilan bog'liq muammoni psixologiya fani o'rganadi. Shaxs shakllanishining har bir yosh bosqichi xususiyatlar, qiyinchiliklar va ustuvorliklar bilan tavsiflanadi. O'smirlik ham bundan mustasno emas. Bu yosh shaxsning rivojlanishidagi eng qiyin davrlardan biridir. O'smirlarni tarbiyalashning o'ziga xos jihatlari shundan iboratki, faol mustaqillikka intiluvchi, tengdoshlarining obro'-e'tiborini ota-onasidan yuqori ko'radigan yoshlar o'zlari bilgan barcha qoidalarga isyon ko'tara boshlaydilar.

• Xo'sh nega aynan o'smirlik davrida xulqiy og'ishlar yuz beradi?

• Nega aynan mana shu yosh davrda deviant xulq-atvor shakllari paydo bo'ladi?

Ushbu savollarga javob topish uchun avvalo o'smirlik davrining xususiyatlarini bilish muhimdir. E'tibor bering, o'tish davrining murakkabligi fiziologik sabablarga bog'liq. Bu davrda balog'atga etishish va ikkilamchi jinsiy xususiyatlarning shakllanishi sodir bo'ladi. Har bir bola har xil, shuning uchun balog'at yoshi turli vaqtlarda sodir bo'ladi. Qoida tariqasida, qizlarda u erta (11-12 yoshda), o'g'il bolalarda biroz kechroq (12-13 yoshda) boshlanadi. Hayz ko'rish qizlarda paydo bo'ladi, o'g'il bolalar eyakulyatsiyaga duch kelishadi. Mushak va suyak massasining intensiv o'sishi

boshlanadi, ichki organlarning rivojlanishi biroz orqada qoladi. Bu notekis rivojlanish qon aylanishining buzilishiga olib keladi, shuning uchun bolalar zaif, bosh aylanishi va sovuq ekstremitalarni his qilishlari mumkin. Tananing barcha bu yangi ko'rinishlari sababsiz asabiylashish, kayfiyat o'zgarishi, o'jarlikni keltirib chiqaradi. Kattalar bu davrda bolalarga e'tiborli bo'lishlari, o'smirlarni tarbiyalash usullarini to'g'ri tanlash va ulardan foydalanishlari kerak. Bolani qanday bo'lsa, shunday qadrlash va sevish onalar va dadalarning asosiy vazifasidir.

Ma'lumki, kishining deviant axloqini jamiyatda qabul qilingan me'yorlarga zidligi va ruxiy jarayonlarining muvozanatsizligi, moslashuvchan emasligi ko'rinishida yoki uning shaxsiy axloqi ustidan axloqiy va estetik nazoratdan bo'yin tovlash ko'rinishidagi o'zini faollashtirish jarayonining buzilishida namoyon bo'luvchi aloxida qilmishlar yoki qilmishlar tizimi sifatida belgilash mumkin. Og'uvchi xulq (deviant, lot. *deviatio* - og'ish) deb, kishining qilmishlari, faoliyati turi odatiy, umum e'tirof etilgan me'yorlardan farq qiladigan yoki u o'zi a'zosi bo'lgan jamiyat tomonidan qabul kilingan me'yorlarga mos kelmay, barqaror ravishda ularning ijtimoiy me'yorlaridan og'ishida namoyon bo'ladigan axloqqa aytiladi. O'smirdagi deviant axloqning muomala belgilari (DSM - IY bo'yicha)

- xis- xayajonli portlashlar;
- kattalar bilan janjallar;
- kattalarning qoidalari yoki iltimoslarini mensimaslik yoki bajarishni rad etish;
- boshqa odamlarni jo'rttaga bezor qilish;
- o'z xatolarida boshqa birovlarini ayblash;
- jizzakilikning eng keskin darajasi;
- badjaxllik, darg'azablik, kasoskorlik, kek saqlash.

Deviant xulq-atvorning vujudga kelishi haqida ikki xil qarash mavjud bo'lib, birinchisi tabiiy-biologik, ikkinchisi ijtimoiy reduksion fikrlardir.

Tabiiy-biologik qarashlarga ko'ra, deviant xulq-atvorning kelib chiqishida biologik omillarning roli alohida o'rin tutadi. Genetik tuzilishning o'ziga xosligi, bihimik boshqarishning buzilishi, asab tizimi mexanizmlari ish faoliyatining buzilishi va boshqalar shunday omillardandir. Ijtimoiy-reduksion nazariyalar har qanday ichki, shu jumladan, psixologik (shaxs dispozitsiyalari) rolini inkor etgan holda og'ishgan xulq-atvorni ijtimoiy-iqtisodiy holatlar bilan tushuntirishga harakat qiladi. Deviant xulq-atvorning shakllanishiga ham tashqi (jumladan, ijtimoiy-iqtisodiy), ham ichki (psixologik) omillar ta'sir ko'rsatadi. Birinchi omillarga ishsizlik, hayot tarzining pastligi, jamiyatda u yoki bu qatlamning yashash darajasi va boshqalar kiradi. O'smirlarda Destruktiv xulqning paydo bo'lishi ya'ni xulqiy og'ish psixologik xususiyatlar bilan bog'liq. Bu davrda bolalar qaysar bo'ladi. Aksariyat o'smirlar hayotda mustaqil bo'lib, o'z o'rnini topishga harakat qilishadi. O'zlarini katta insonlardek his qilishadi. Ular romantik bo'lib, tortinish nimaligini bilmaydilar va yolg'izlikni yoqtiradilar. Jinsiy yetilish hammadada har xilda kechadi. Ba'zi o'smirlarda bu davrni juda og'ir kechib, juda ta'sirchan bo'lib qoladi. Ba'zida xulqning buzilishida oilaning ham ta'siri bo'ladi. O'smir psixologiyasi haqida yetarlicha ma'lumotga ega emaslik, oilada tarbiyaning noto'g'ri usullaridan foydalanish bola va ota-ona o'rtasida konfliktli holatlarni yuzaga keltiradi va natijada munosabatlarga shikast yetadi. Endi o'smir o'gil qizlar e'tiborni ko'chadan qidira boshlaydi, yoki o'smirlar bilan yetarli

darajada muloqat qilmasligi ham shu holatlarga olib keladi. Kattalarga nisbatan ishonchsizlik, tushunmovchilik, berahimlikni ko'ramiz. Har galgidek bola yoki o'smir yolg'iz. Bu yolg'izlik tartibbuzarlikga, shavqatsizlikga, qo'pollikka olib keladi. Bunday holatlarda kattalar bilan munosabati yomon bo'lganligini ko'rsatadi. Mamlakatimiz psixolog olimlari tomonidan tarbiyaning buzilishi hamda xulqning og'ishiga ta'sir etuvchi omillar sifatida quyidagilar keltirilgan. Tarbiya buzilishi va xulq og'ishining kelib chiqishiga ta'sir etuvchi omillar. Ijtimoiy omillar: erkinlik hamda ijtimoiy tartib qoidalardan qochish; qulay sharoit qidirish, hissiy xotirjamlik; o'z(men)iga past nazar bilan qarash, boshqalarga tobelik; moddiy kam ta'minlanganlikni his qilish, ota-ona xulq-atvoridan uyalish; Oilaviy omillar: ota-ona, o'qituvchi, kattalar va bolalar o'rtasida muloqotdagi muammolar; bolalar ga kattalar tomonidan diqqate'tiborning yetishmasligi; otaonalar bilan farzandlar o'rtasidagi o'zaro tushunishning yo'ligi va ikki tomonlama intilishning yetishmasligi; otaonalarning o'gil va qiz bolalarga nisbatan qo'pol muomalada bo'lishlari; Shaxsiy omillar: tengdoshlar, o'rtoqlar, sinfdoshlari, o'z-o'zini tushunmaslik va o'ziga salbiy munosabat; hayotiy yo'nalishlardagi orzu va havaslar; ichki ruhiy yolgizlik, o'zgalarning tushunmasigi; baxtsizlikdan qiynalish, shaxsiy qiyinchiliklar; shaxsiy muvaffaqiyatsizlik, muammolardan havotirga tushish, irodasizlik; Fiziologik omillar: agressivlik, jahldorlik, asabiylashish va ruhiy zo'riqish; bolaning ko'p kasal bo'lishi; qo'zgal uvchanlikning kuchayishi; o'zini-o'zi boshqara olmaslik; o'zlashtirishda aqlan qolib ketish; o'quvchining aqlan zaiflashishi; psixofiziologik va jinsiy tomondan bir xilda rivojlanmaganlik; tugma xususiyatlar; tugma nuqsonlar; O'quvchilardagi psixologik xususiyatlar, rivojlanishida o'ziga xos tomonlar, ular o'rtasida salbiy odatlarni oldini olish va boshqa masalalar doirasida umumta'lim maqtablari amaliyotchi psixologlari tomonidan qator tadbirlar, ya'ni psixotrening va psixokorreksion ishlar olib boriladi. Maktablarda bolalarga nisbatan ba'zan "tarbiyasi qiyin bola" jumlasini ishlatiladi. Asosan tarbiyasi qiyin bolalar deganda ko'p holatlarda

Yoshlarda xulq og'ishi va tarbiya buzilishining oldini olish bo'yicha psixologik maslahatlar voyaga yetmaganlar bilan ishlash nazoratchilari ro'yhatida hisobga olingan, giyohvandlik va spirtli ichimlik ichishga, bezorilik va o'g'rilikka moyil o'quvchilar nazarda tutiladi. Kuzatishlardan ma'lum bo'lishicha, tarbiyasi qiyin bolalar tarbiya jarayonida pedagogik ta'sirlarga qarshilik ko'rsatadi, ularning xulqida o'zini biz xohlagandek tutmaslik holatlari kuzatiladi. Pedagog va psixologlar tomonidan eng avvalo xulqida og'ish kuzatilayotgan bolalarning oilaviy ahvoli o'rganiladi, mahalla va oila bilan ya'ni bolaning ota-onasi yoki unga mas'ul shaxs bilan uzviy aloqa o'rnatishi, o'quvchining darslarda ishtirokini va darsdan tashqaridagi faoliyatini nazorat qilish, darslarni tahlil qilishi, ular bilan turli suhbatlar o'tkazish orqali tarbiyasi og'ir bolalar bilan ishlash va muammoni hal qilish yo'llarini izlash mumkin. Bundan tashqari bolaning sog'ligini ham nazorat qilish, maktab shifokori bilan hamkorlikda bolaning tibbiy varaqasini ham tekshirish lozim. Agarda bola sog'lom bo'lsa, u holda psixolog u bilan suhbatlashib, xulqiy og'ish sababini aniqlashi va uni bartaraf etish bo'yicha o'z maslahatlarini berish lozimdir. Ushbu yoshdagi bolalar har doimgidan ham ko'proq e'tibor talab bo'lib qolishadi. Oilada yoki maktabda manashu e'tiborning yetishmasligi ularning xulqiy og'ishlarga sabab bo'lishi mumkin.

Adabiyotlar ro`yxati:

1. G.Shoumarov, B.Umarov, F.Akromova. Yoshlarda xulq ogishi va tarbiya buzilishining oldini olish bo'yicha psixologik maslahatlar. Uslubiy qo'llanma. T- 2015
2. N.G`.Komilova. Xulqi og'ishgan bolalar psixologiyasi. O`quv qo'llanma. T.-2007.
3. O.Qodirova. B.Parmonov Xulqi og'ishgan bolalar psixologiyasi O'quvslubiy majmua Andijon-2019.
4. G'oziyev E. G. «Tarbiyasi «Kiyin» o'smirlar psixologiyasi». Lektorga yordam. Toshkent-1984.
5. Q.Raximova, A.Abdullaeva Tarbiyasi qiyin o'smirlar psixologiyasi FarDU: 2006 y.
6. Read more at: <https://minikar.ru/uz/zdorove/vospitanie-podrostkov/>.

MIGRATSION JARAYONLARDA HUQUQSHUNOS VA SIYOSATSHUNOSLAR NAZARIYASI

*Turg'unboyeva Dilshoda Azamjon qizi –
Andijon davlat universiteti Geografiya
(o'rganish obyekti bo'yicha) mutaxassisligi magistranti
dilshodaturgunboyeva0109@gmail.com
+998905716949*

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada sohada yetakchi bo'lib kelgan bir qancha olimlarning gipotezalari va kriteriyalari keltirilgan migratsiyani o'rganish borasidagi nazariyalarini bir qancha olimlar bogliqlik xolda bir qancha ma'lumotlar qoldirdilar huquqshunos, sotsiolog siyosatshunoslarning migratsiya borasidagi nazariyalari yoritilgan.*

***Kalit so'zlar:** migratsiya, migrant, demograf, inson, Aholi migratsiyasi, ichki migratsiya, tashqi migratsiya, mayatniksimon migratsiya, xalqaro migratsiyasi.*

Iqtisodchilarning fikri yana bir bor antropologlar va tarixchilarning pozitsiyalari bilan to'qnash keladi, ular ijtimoiy va madaniy kontekstdan ajralgan holda ko'rib chiqilgan iqtisodiy omillarning o'zi aholi harakatini to'liq bashorat qilish va tegishli prognozlar yaratishga imkon bermaydi. Bundan tashqari, antropologlar va tarixchilar ijobiy va salbiy omillar yoki natijalarni baholash bo'yicha savollar berishni juda istamaydilar, agar dushman bo'lmasalar ham. Antropologlar, ayniqsa, umuminsoniy ratsionallik tamoyiliga qarshi chiqishadi. Ammo siyosatchilar ko'pincha iqtisodchilarni (va iqtisodiy demograflarni) soliqlar, inson kapitali xarajatlari va immigratsiyaning afzalliklarini aniq baholash shartlarida aniqlash uchun jalb qiladilar. Binobarin, bu yondashuv immigratsiya siyosati haqidagi kengroq munozaralarni hisobga olmaganda, iqtisodchilar (Borias, Xuber va Espenshad, Rotman va Espenshad) o'rtasida kechayotgan nazariy munozaralarning ko'p qismini shakllantiradi. Amerika Qo'shma Shtatlarida taxminan 10-15 yil ishlagandan so'ng, immigrantlar o'rtacha daromaddan taxminan 17% pastroq daromad bilan ish boshlashgan. Boshqa iqtisodchilar, xususan, Jorj Borxas, Chiswickning xulosalari bilan bahslashdi, lekin Chiswick, o'z navbatida,

Borjasning xulosalariga qarshi chiqdi [1; 256] va boshqa tadqiqotchilardan yordam oldi.

Jamiyatdagi va vaqti-vaqti bilan siyosiy maydonda prognoz qilinayotgan munozaralarga javoban, iqtisodchilar va demograflar immigrantlarning ta'lim, ijtimoiy ta'minot va ijtimoiy sug'urta xarajatlarini ham o'rganishmoqda (Passel, Simon).[2; 56] Chiswick immigratsiya qonuni va tartibga solish tanlash omillarini (uni "normativ taxminlar" deb ataydi) shakllantirish usulini maqtaydi. Viza berish yoki bermaslik to'g'risida qaror qabul qilishda asosiy mezon sifatida potentsial immigrantning malakasiga e'tibor qaratadigan mamlakat immigratsiya siyosatini oilani birlashtirish yoki immigrantlarga qochqin maqomini berish tamoyiliga asoslagan mamlakatdan farqli rivojlanish modeliga amal qiladi. Migratsiya tadqiqotiga kech qolgan siyosatshunoslar va huquqshunoslar o'z sa'y-harakatlarini shu masalalarga qaratdilar.

Xollifild o'z maqolasida ta'kidlaganidek,[3; 98] immigratsiyani o'rganishga murojaat qilgan siyosatshunoslar birinchi navbatda uchta mavzuga e'tibor qaratadilar. Ulardan birinchisi, milliy davlatning migratsiya oqimlarini boshqarish va o'z chegaralarini nazorat qilishdagi roli. Ikkinchisi, migratsiyaning suverenitet va fuqarolik institutlariga ta'siri va migratsiya, bir tomondan, tashqi va milliy xavfsizlik siyosati o'rtasidagi munosabatlar. Uchinchi mavzu - inkorporatsiya muammosi. Siyosatshunoslik sotsiolog va iqtisodchi olimlarning ijtimoiy va iqtisodiy inkorporatsiyaga oid ishlariga e'tibor beradi va bu tadqiqotlarni siyosiy inkorporatsiyani, aniqrog'i, fuqarolik va huquqlarni qabul qilish masalalarini o'rganish bilan to'ldiradi. Bu masala huquqshunoslar tomonidan ham yaxshi o'rganilgan (Shukning ushbu to'plamda chop etilgan maqolasiga qarang) Ammo shuni ta'kidlash kerakki, Diner[4; 64] Seillerning "Law Harsh as Tigers" ("Yo'lbarslar kabi qonun") maxsus tarixiy monografiyasini ko'rib chiqadi. [5; 158] Ushbu kitob 19-asr oxirida Qo'shma Shtatlarga ko'chib kelgan xitoyliklar misolida shunga o'xshash savollarni o'rganadi. Seiller bu "vaqtinchalik muhojirlar" kamsituvchi qonunlarga qarshi chiqish orqali o'z huquqlaridan qanday foydalanganliklarini ko'rsatadi.

Sotsiologlar singari, siyosatshunoslar birinchi navbatda mezbon jamiyatning muammolari bilan shug'ullanishadi, ammo immigratsiya siyosatiga (kirishni tartibga soluvchi qoidalar) emas, balki emigratsiya siyosatiga (ketishni tartibga soluvchi qoidalar) e'tibor qaratadigan juda kam tadqiqotchilarni topish mumkin. Ushbu tadqiqotchilar o'xshash nazorat muammolarini o'rganishadi, lekin rivojlanish muammolariga ko'proq e'tibor berishadi (Lids; Russell; Weiner). [6; 97] Ular jo'natuvchi yoki qabul qiluvchi jamiyatlarni o'rganishadimi, siyosatshunoslar nazariy kelishmovchiliklarga duch kelishadi. Ba'zi siyosatshunoslar, albatta, migratsiyani o'rganishda ko'proq qiziqishga yo'naltirilgan, mikroiqtisodiy yondashuvga moyil, ya'ni. Ratsional tanlash nazariyasiga (Friman, Kessler) , boshqalari esa rivojlangan sanoat demokratiyalarida immigratsiyaning kuchayishi uchun institutsional, madaniy va kontseptual tushuntirishlarni ma'qullaydilar (Hollifild; Zolberg).[7; 40]

Migratsiya muammolariga bag'ishlangan yuridik adabiyotlarda tasvirlangan ikkala an'anani ham uchratish mumkin. Ulardan birining tarafdorlari (Chang)[8; 98] migratsiyani tushunish uchun yanada oqilona, mikroiqtisodiy yondashuvdan foydalanadilar. Yana bir an'ana (Shokning maqolasi bilan ifodalangan, shuningdek, Legomskiyga qarang) natijalarni tushuntiruvchi asosiy o'zgaruvchilar sifatida

institutlar, jarayonlar va huquqlarga e'tibor beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Espenshade. 1992. "AQShga immigratsiyaning moliyaviy ta'siri", Aholi indeksi 58: 381-415.
2. Borjas, Jorj J. 1985. "Assimilyatsiya, kohort sifati va muhojirlarning daromadlaridagi o'zgarishlar", Journal of Labor Economics 3: 463–89.
3. Chiswick, Barry. 1986. "Yangi immigratsiya eskisidan kam malakalimi?" Mehnat iqtisodiyoti jurnali 4: 168-92.
4. Duleep, Harriet O. va Mark C. Regets. 1997a. "Mos CPS fayllari yordamida immigrantlarning ish haqi o'sishini o'lchash", Demografiya 34: 239–49.
5. Hollifield Jeyms F. Xalqaro migratsiya siyosati. Qanday qilib "Davlatni o'zimizga qaytarishimiz mumkin" 137-186-betlar. In: Migratsiya nazariyasi: fanlar bo'yicha suhbat / tahrir. Karolin tomonidan B. Brettell va Jeyms F. Hollifield., (2000), Nyu-York, Routledge
6. Shuck Peter H. Qonun va migratsiyani o'rganish . 187-205-betlar. In: Migratsiya nazariyasi: fanlar bo'yicha suhbat / tahrir. Karolin B. Brettell va Jeyms F. Hollifield, (2000), Nyu-York,
7. Salyer, Lyusi. 1995. Yo'lbarlar kabi qattiq qonun: Xitoy muhojirlari va zamonaviy immigratsiya qonunining shakllanishi. Chapel Hill: Shimoliy Karolina universiteti matbuoti.

ПСИХОЛОГИЯДА ИЖТИМОЙ ТАЪСИР МАСАЛАСИ, МУОМАЛА ТЕХНИКАСИ ВА СТРАТЕГИЯСИ

*Туробова Махбуба Алишеровна –
Иқтисодиёт ва педагогика университети ўқитувчиси*

Инсоний муносабатлар шундай ўзаро таъсир жараёнларики, унда шахсларо муносабатлар шаклланади ва намоён бўлади. Бундай жараён дастлаб одамлар ўртасида рўй берадиган фикрлар, ҳис-кечинмалар, ташвишу - қувончлар алмашинувини назарда тутди. Одамлар мулоқотда бўлишгани сари, улар ўртасидаги муносабатлар тажрибаси ортган сари улар ўртасида умумийлик, ўхшашлик ва уйғунлик каби сифатлар пайдо бўладикки, улар бир - бирларини бир қарашда тушунадиган ёки «яримта жумладан» ҳам фикр аён бўладиган бўлиб қолади, айрим холларда эса ана шундай мулоқотнинг тифизлиги тескари реакцияларни - бир-биридан чарчаш, гапирадиган гапнинг қолмаслиги каби вазиятни келтириб чиқаради. Масалан, оила муҳити ва ундаги муносабатлар ана шундай тифиз муносабатларга киради. Фақат бундай тифизлик оиланинг барча аъзолари ўртасида эмас, унинг айрим аъзолари ўртасида бўлиши мумкин (она - бола, қайнона - келин ва х-зо).

Ўзаро муносабатларга киришаётган томонлар муносабатдан кўзлайдиган асосий мақсадлари - ўзаро тил топишиш, бир-бирини тушунишдир. Бу жараённинг мураккаблиги, керак бўлса, «жозибаси», бетакрорлиги шундаки, ўзаро бир хил тил топишиш ёки томонларнинг айнан бир хил ўйлашлари ва

гапиришлари мумкин эмас. Агар ана шундай вазиятни тасаввур қиладиган бўлсак, бундай мулоқот энг самарасиз, энг бетаъсир бўлган бўлар эди. Масалан, тасаввур қилинг, узоқ вақт кўришмай қолган дўстингизни кўриб қолдингиз. Сиз ундан хол-аҳвол сўрадингиз, лекин у ташаббусни сизга бериб, нимаики деманг, сизни маъқуллаб, гапингизни қайтариб турибди. Бундай мулоқот жуда бемаза бўлган ва сиз иккинчи марта ўша одам билан иложи борича расман салом - аликни бажо келтириб ўтиб кетаверган бўлардингиз. Яъни, мулоқот фаолияти шундай шарт-шароитки, унда ҳар бир шахснинг индивидуаллиги, бетакрорлиги, билимлар ва тасаввурларнинг хилма-хиллиги намоён бўлади ва шуниси билан у инсониятни асрлар давомида ўзига жалб этади.

Одамлар бир - бирлари билан муомалага киришар экан, уларнинг асосий кўзлаган мақсадларидан бири - ўзаро бир-бирларига таъсир кўрсатиш, яъни фикр-ғояларига кўндириш, ҳаракатга чорлаш, установакаларни ўзгартириш ва яхши таассурот қолдиришдир. Психологик таъсир - бу турли воситалар ёрдамида инсонларнинг фикрлари, ҳиссиётлари ва ҳатти-ҳаракатларига таъсир кўрсата олишдир.

Ижтимоий психологияда психологик таъсирнинг асосан уч воситаси фарқланади.

1. Вербал таъсир - бу сўз ва нутқимиз орқали кўрсатадиган таъсиримиздир. Бундаги асосий воситалар сўзлардир. Маълумки, нутқ - бу сўзлашув, ўзаро муомала жараёни бўлиб, унинг воситаси - сўзлар ҳисобланади. Монологик нутқда ҳам, диалогик нутқда ҳам одам ўзидаги барча сўзлар заҳирасидан фойдаланиб, энг таъсирчан сўзларни топиб, шеригига таъсир кўрсатишни хоҳлайди.

2. Паралингвистик таъсир - бу нутқнинг атрофидаги нутқни безовчи, уни кучайтирувчи ёки сусайтирувчи омиллар. Бунга нутқнинг баланд ёки паст товушда ифодаланаётганлиги, артикуляция, товушлар, тўхташлар, дудукланиш, йўтал, тил билан амалга ошириладиган ҳаракатлар, нидолар киради. Шунга қараб, масалан, дўстимиз бизга бирор нарсани ваъда бераётган бўлса, биз унинг қай даражада самимийлигини билиб оламиз. Куйиб - пишиб, очик юз ва дадил овоз билан «Албатта бажараман!», деса ишонамиз, албатта.

3. Новербал таъсирнинг маъноси «нутқсиз» дир. Бунга суҳбатдошларнинг фазода бир-бирларига нисбатан тутган ўринлари, ҳолатлари (яқин, узоқ, интим), қилиқлари, мимика, пантомимика, қарашлар, бир-бирини бевосита ҳис қилишлар, ташқи қиёфа, ундан чиқаётган турли сигналлар (шовқин, хидлар) киради. Уларнинг барчаси мулоқот жараёнини янада кучайтириб, суҳбатдошларнинг бир-бирларини яхшироқ билиб олишларига ёрдам беради. Масалан, агар учрашувнинг дастлабки дақиқаларида ўртоғингиз сизга қарамай, атрофга аланглаб, «Кўрганимдан бирам хурсандман», деса, ишонасизми?

Мулоқот жараёнидаги характерли нарса шундаки, суҳбатдошлар бир - бирларига таъсир кўрсатмоқчи бўлишганда, даставвал нима дейиш, қандай сўзлар воситасида таъсир этишни ўйлар экан. Аслида эса, ўша сўзлар ва улар атрофидаги ҳаракатлар муҳим рол ўйнарган. Масалан, машҳур америкалик олим Меграбян формуласига кўра, биринчи марта кўришиб турган суҳбатдошлардаги таассуротларнинг ижобий бўлишига гапирган гаплари 7%, паралингвистик

омиллар 38%, ва новербал ҳаракатлар 58% гача таъсир қиларкан. Кейинчалик бу муносабат ўзгариши мумкин албатта, лекин ҳалқ ичида юрган бир мақол тўғри: «Уст-бошга қараб кутиб олишади, ақлга қараб кузатишади».

Мулоқотнинг қандай кечиши ва кимнинг кўпроқ таъсирга эга бўлиши шерикларнинг ролларига ҳам боғлиқ. Таъсирнинг ташаббускори - бу шундай шерикки, унда атайлаб таъсир кўрсатиш мақсади бўлади ва у бу мақсадни амалга ошириш учун барча юқорида таъкидланган воситалардан фойдалади. Агар бошлиқ иши тушиб, бирор ходимни хонасига таклиф этса, у ўрнидан туриб кутиб олади, илтифот кўрсатади, хол-аҳволни ҳам қуюқроқ сўрайди ва сўнгра гапнинг асосий қисмига ўтади.

Таъсирнинг адресати - таъсир йўналтирилган шахс. Лекин ташаббускорнинг суҳбатга тайёргарлиги яхши бўлмаса, ёки адресат тажрибалирок шерик бўлса, у ташаббусни ўз қўлига олиши ва таъсир кучини қайта эгасига қайтариши мумкин бўлади.

Охирги йилларда «профессионализм» тушунчаси тез-тез ишлатиладиган бўлиб қолди. Чунки жамиятда туб ислоҳотларни амалга ошириш, меҳнат унумдорлигини «инсон омили» ни такомиллаштириш ҳисобига ошириш давр талаби бўлиб қолди. Айниқса, одамларни бошқариш соҳасидаги профессионализмга катта эътибор қаратилмоқда. Жуда кўпчилик мутахассислар барча бажарадиган функциялари орасида одамлар билан тил топишиш, уларга таъсир кўрсатиш, улар фаолиятини тўғри ташкил қилиш ва бошқариш энг мураккабларидан эканлигини эътироф этмоқдалар. Одамлар билан нормал муносабатларни ўрната олмаслик, айниқса, бизнес соҳасида амалий шерикларнинг ҳолатлари, кутишларини аниқлай олмаслик, ўз нуқтаи назарига ўзгаларни профессионал тарзда кўндира олмаслик, «бирров» ни, унинг ички кечинмалари ва ўзига бўлган муносабатини аниқ тасаввур қила олмаслик амалий психологияда коммуникатив уқувсизлик, ёки дисконмуникация ҳолатини келтириб чиқаради. Бунда одамлар оддий тил билан айтганда, бир - бирларини тушунолмай қоладилар, шунинг оқибатида пишиб турган лойиҳа ёки яхши режа амалга ошмаслиги, бир неча ойларга чўзилиб кетиши мумкин.

Шунинг учун ҳам ҳозирги замон ижтимоий психологиясининг тадбиқий йўналишида, бошқарув психологиясида катта ёшли одамларни коммуникатив билимдонликка ўргатиш, уларда зарур коммуникатив малакаларни ҳосил қилишга катта аҳамият берилмоқда. Ҳар бир корхона, хусусий фирма ёки давлат муассасасини бошқарувчи менежер, раҳбар тайёрлаш муаммоси ана шу раҳбарларни, бошқарувчиларни психологик жиҳатдан одамлар билан ишлашга ўргатиш муаммосини четлаб ўтолмайди. Умуман, ҳозирги даврда ҳар қандай мутахассис - врач, муҳандис, ўқитувчи, иқтисодчи, агроном, қурувчи, журналист, маданиятшунос ёки бошқалар ҳам коммуникатив малакаларга эга бўлмагунча, бозор муносабатлари шароитида тезда жамоага киришиб, кўпчилик билан тил топишиб, ўз профессионал маҳоратини кўрсата олмайди. Ҳар бир зиёли инсон бошқалар билан ҳамкорлик қилиш маҳорати ва санъатига эга бўлиши керак.

Бу вазифа одамларни муомала ва мулоқот этикасига ўргатишни ҳар қачонгидан ҳам долзарб қилиб қўймоқда. Тўғри, мулоқотга киришиш -

ижтимоийлашув жараёнида барча сифатлардан олдинроқ шаклланадиган қобилиятлардан, у табиий ва ҳаётий нарса. Бола тили жуда яхши чиқиб улгурмай, атрофидагилар билан актив мулоқотга кириша бошлайди. Лекин масаланинг парадоксал томони ҳам шундаки, йиллар ўтган сари онгли, ақлли одам ҳар бир гапини уйлаб гапирадиган, ҳар бир қадамини уйлаб босадиган бўлиб қолади, бу унинг жамиятдаги мавқесини белгиловчи воситадир. Бу мулоқотга киришишга руҳан тайёрланишнинг аҳамиятини ҳам одам англашини тақозо этади. Шундай қилиб, ана шу энг табиий ва бир қарашда оддий инсон фаолияти шу қадар мураккаб ва серқирраки, унинг механизмларини ўрганиш, гуруҳларда тўғри муносабатларни ташкил этиш ва одамларни самарали мулоқотга ўргатиш муаммоси бугунги ижтимоий психологиянинг муҳим масалаларидандир.

Маълумки, гаплашаётган одамлар бири гапиради, иккинчиси тинглайди, эшитади. Мулоқотнинг самарадорлиги ана шу икки қирранинг қанчалик ўзаро мослиги, бир-бирини тўлдиришига боғлиқ экан. Нотўғри тасаввурлардан бири шуки, одамни муомала ёки мулоқотга ўргатганда, уни фақат гапиришга, мантиқан асосланган сўзлардан фойдаланиб, таъсирчан гапиришга ўргатишади. Унинг иккинчи томони - тинглаш қобилиятига деярли эътибор берилмайди. Машхур америкалик нотик, психолог Дейл Карнеги «Яхши суҳбатдош - яхши гапиришни биладиган эмас, балки яхши тинглашни биладиган суҳбатдошдир» деганда айнан шу қобилиятларнинг инсонларда ривожланган бўлишини назарда тутган эди.

Мутахассисларнинг аниқлашларича, ишлаётган одамлар вақтининг 45%и тинглаш жараёнига кетар экан, одамлар билан доимий мулоқотда бўладиганлар 35 - 40 % ойлик маошларини одамларни «тинглаганлари» учун оларканлар. Бундан шундай хулоса келиб чиқадики, коммуникациянинг энг қийин соҳаларидан ҳисобланган тинглаш қобилияти одамга кўпроқ фойда келтираркан.

Шунинг учун бўлса керак, немис файласуфи А. Шопенгауэр «Одамларни ўзингиз тўғрингизда яхши фикрга эга бўлишларини хоҳласангиз, уларни тингланг» деб ёзган экан. Дарҳақиқат, агар сиз куюниб гапирсангизу, суҳбатдошингиз сизни тингламаса, бошқа нарса билан овора бўлаверса, ундан ранжийсиз, нафақат ранжийсиз, балки у билан алоқани ҳам узасиз. Ўқитувчи гапираётган пайтда уни тингламаслик одобсизликнинг энг кенг тарқалган кўриниши деб баҳоланишини биласизми?

Нима учун биз кўпинча яхши гапирувчи, сўзловчи бўла оламиз-у, яхши тингловчи бўла олмаймиз? Психологларнинг фикрича, асосий ҳалақит берувчи нарса - бу бизнинг ўз фикр-ўйларимиз ва хоҳишларимиз оғушида бўлиб қолишимиздир. Шунинг учун ҳам баъзан расман шеригимизни тинглаётгандай бўламиз, лекин аслида ҳаёлимиз бошқа ерда бўлади. Тинглашнинг ҳам худди гапиришга ўхшаш техникаси, усуллари мавжуд. Уларнинг тури ҳам кўп, лекин асосан биз кундалик ҳаётда унинг икки усулини қўллаймиз: сўзма - сўз қайтариш ва бошқача талқин этиш. Биринчиси, суҳбатдош сўзларининг бир қисмини ёки яхлитича қайтариш орқали, шерикни қўллаб-қувватлашни билдиради. Иккинчи усул эса - шеригимиз сўзларини тинглаб, ундаги асосий ғояни мухтасар, ўзимизнинг талқинимизда ифода этиш. Иккала усул ҳам шерик учун муҳим, чунки у сизнинг тинглаётганингизни, ҳаттоки, ундаги ғояларга қарши

эмаслигингизни билдиради. Бундай ташқари, биз яхши тинглаётган бўлиб, «Йўғ-э?», «Нахотки?», «Қара-я?», «Яша!» лукмалари билан ҳам суҳбатдошимизни гапиришга, янаям ўз фикрларини ойдинлаштиришга чақириб турамиз.

Демак, аслида биздаги гапирётган шахс етакчи, у суҳбатнинг мутлоқ хоқими, деган тасаввур унчалик тўғри эмас. Яхши тинглашда ҳам шундай куч борки, у суҳбатдошни Сизга жуда яқинлаштиради, ишончни туғдиради. Чунки мулоқот жараёнидаги энг қимматли нарса - бу ахборотнинг ўзи. Тинглаётган одам маънили, яхши диалогдан фақат яхши, фойдали маълумот олади. Гапирган эса аксинча, ўзидаги борини бериб, гапирмайдиган суҳбатдошдан «тескари алоқани» олиб улгурмай, ҳеч нарсасиз қолиши ҳам мумкин. Шунинг учун мулоқотга ўргатишнинг муҳим йўналишларидан бири - одамларни фаол тинглашга, бунда барча паралингвистик ва новербал омиллардан ўринли фойдаланишга ўргатишдир.

Профессинал тинглаш техникасига қуйидагилар киради:

□ актив ҳолат. Бу - агар кресло ёки диван каби мебель бўлса, унга бемалол ястаниб ёки ётиб олмаслик, суҳбатдошнинг юзидан ташқари жойларига қарамаслик, мимика, бош чайқаш каби ҳаракатлар билан унинг ҳар бир сўзига қизиқаётганлигингизни билдиришни назарда тутати;

□ суҳбатдошга самимий қизиқиш билдириш. Бу нафақат суҳбатдошни ўзига жалб қилиб, балки кейин навбат келганда ўзининг ҳар бир сўзига уни ҳам кўндиришнинг самарали йўлидир.

□ ўйчан жимлик. Бу суҳбатдош гапирётган пайтда юзда масъулият билан тинглаётгандай тасаввур қолдириш орқали ўзингизнинг суҳбатдан манфаатдорлигингизни билдириш йўли.

Агар биз суҳбатдошимизни яхши, диққат билан тингласак, бу билан биз унда ўз-ўзига ҳурматни ҳам тарбиялаймиз. Демак, тинглаш жараёни кўпчилик тасаввур қилгани каби унчалик пассив жараён эмас экан. Унинг мулоқотнинг самарали бўлишидаги аҳамияти ниҳоятда катта. Чунки тинглаш қобилияти гапирувчини илҳомлантиради, уни руҳлантиради, янги фикрлар, ғояларнинг шаклланишига шароит яратади. Шунинг учун маърузачи профессорнинг ҳар бир чиқиши ва маърузаси агар талабалар томонидан диққат билан тингланса, бу педагогик мулоқотдан иккала томон ҳам тенг ютади.

Агар мулоқот жараёнида иштирок этувчи икки жараён - гапириш ва тинглашнинг фаол ўзаро таъсир учун тенг аҳамиятини назарда тутсак, бу жараён катнашчиларининг психологик саводхонлиги ва мулоқот техникасини эгаллашининг аҳамиятини англаш қийин бўлмайди. Шунинг учун ҳам ижтимоий психологияда одамларни самарали мулоқотга атайлаб ўргатишга жуда катта эътибор берилади. Бу борадаги фаннинг ўз услуби бўлиб, унинг номи ижтимоий психологик тренинг (ИПТ) деб аталади. ИПТ - мулоқот жараёнига одамларни психологик жиҳатдан ҳозирлаш, уларда зарур коммуникатив малакаларни маҳсус дастурлар доирасида қисқа фурсатда шакллантиришдир. Энг муҳими ИПТ мобайнида одамларнинг мулоқот борасидаги билимдонлиги ортади.

Амалий мулоқот тренинги - ИПТнинг бир кўриниши бўлиб, у ёки бу профессионал фаолиятни амалга ошириш жараёнида зарур бўладиган коммуникатив малака, кўникма ва билимларни ҳосил қилишга қаратилган

тадбирдир. Гуруҳ ва жамоаларда мулоқот тренинги воситасида музокаралар олиб бориш, иш юзасидан ҳамкорлик қилиш йўл-йўриқларини биргаликда топиш, катта аудитория олдида сўзлашга ўргатиш, мажлислар ўтказиш, жанжалли, низоли ҳолатларда ўзини тўғри тутиш малакалари ҳосил қилинади. Бундаги асосий нарса - тренинг катнашчилари онгига бировларни тушуниш, ўзини ўзга ўрнига қўя олиш, бошқалар манфаатлари билан ўзиникини уйғунлаштира олиш ғоясини сингдиришдир. Тренинглار мобайнида гуруҳий мунозаралар, ролли ўйинларнинг энг оптимал вариантлари синаб, машқ қилинади.

Адабиётлар рўйхати:

1. Ғозиев Э.Г. Муомала психологияси. Т-2001.
2. Каримова В.М. Ижтимоий психология асослари. Т.: 1994.
3. Каримова В.М. Ижтимоий психология ва ижтимоий амалиёт. Т.: 1999.
4. Дружинина В. “Психология “. Учебник. “Питер”, 2003.
5. www.psy.piter.com.

OLIY HARBIY TA'LIM MUASSASALARI KURSANTLARINI TASHKILY VA SAFARBARLIK FAOLIYATIGA TAYYORLASHING PEDOGOGIK SHART-SHAROITLARI

*Lotipov Lochinbek Abdulxamidovich –
O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Bosh shtabi
Tashkiliy-safarbarlik bosh boshqarmasi
boshqarma boshlig'i, polkovnik*

Oliy harbiy ta'lim muassasalarida tashkiliy va safarbarlik bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash yaxshi tuzilgan pedagogik bazani talab qiladi. Ushbu asos bo'lajak ofitserlarni samarali tayyorlashni ta'minlash uchun ham akademik, ham professional ehtiyojlarni qondirishi kerak. Kasbiy yo'naltirilgan usullar va didaktik texnologiyalarning integratsiyasi bo'lajak ofitserlarda boshqaruv madaniyatini rivojlantirishni rag'batlantirish uchun muhim ahamiyatga ega. Bunga bo'linmalarni boshqarish, o'qitish va bo'ysunuvchi xodimlarni o'qitish bo'yicha kasbiy bilim va ko'nikmalarni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlaydigan o'quv muhitini yaratish kiradi.

Harbiy mutaxassislarni samarali tayyorlash murakkab ijtimoiy-psixologik jarayonni o'z ichiga oladi, bu shaxsni tinch va urush davridagi vazifalarga tayyorlashga qaratilgan. Zamonaviy axborot texnologiyalari va interfaol ta'lim shakllaridan foydalanish bu jarayonni kuchaytiradi, mashg'ulotlarni yanada dinamik va qiziqarli qiladi. Laboratoriya-pedagogik seminarlar orqali kursantlar o'rtasida o'z-o'zini tarbiyalashni rag'batlantirish ularning metodik tayyorgarligini va bilimlarni mustaqil ravishda egallash va yangilash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi.

Harbiy tinglovchilar uchun individuallashtirilgan ta'lim yo'nalishlarini amalga oshirish ularning kasbiy moslashuvini boshqarishga yordam beradi va ularning ta'lim tajribasi ularning o'ziga xos ehtiyojlari va martaba maqsadlariga moslashtirilishini

ta'minlaydi. Harbiy o'quvchilarda ma'naviy-ruhiy fazilatlarni shakllantirish ularning samarali xizmat qilishida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bu tarixiy harbiy tajribaga tayangan holda kuchli motivatsion asos yaratish va fanlararo aloqalarni ta'minlashni o'z ichiga oladi. Harbiy ta'limga tizimli yondashuv ta'lim usullarini doimiy ravishda yangilash va harbiy mutaxassislarning yuqori darajadagi tayyorgarligini ta'minlash orqali tayyorgarlik sifatini saqlashga yordam beradi.

Oliy harbiy ta'lim muassasalarida tashkiliy va safarbarlik bo'yicha mutaxassislarni samarali tayyorlash uchun didaktik, o'quv va amaliy yondashuvlar uyg'unligini taqozo etadi. Ushbu yondashuvlar kasbiy bilim, o'z-o'zini tarbiyalash, axloqiy va psixologik barqarorlikni va ta'lim sifatini tizimli ta'minlashni rivojlantirishi kerak. Oliy harbiy ta'lim muassasalarida tashkiliy va safarbarlik bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash harbiy xizmatning o'ziga xos ehtiyojlari va talablariga moslashtirilgan kompleks pedagogik yondashuvni talab qiladi.

Samarali ta'lim uchun zarur bo'lgan bir necha asosiy pedagogik shartlar quyidagilardan iborat: Ixtisoslashtirilgan o'quv rejasi: tashkiliy va safarbarlik strategiyalari bilan bog'liq nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar va real stsenariylarni o'z ichiga olgan maxsus o'quv dasturini ishlab chiqish juda muhimdir. Ushbu o'quv dasturi logistika, resurslarni boshqarish, etakchilik, aloqa va inqirozga qarshi choralar kabi sohalarni qamrab olishi kerak. Amaliy mashqlar: Amaliy mashg'ulotlar, simulyatsiyalar va dala mashg'ulotlarini o'z ichiga olish amaliy o'rganish uchun juda muhimdir. Bu mashqlar turli safarbarlik stsenariylarini taqlid qilishi, tinglovchilarga nazariy bilimlarni amaliy vaziyatlarda qo'llash, tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirish imkonini berishi kerak. Mutaxassis fakulteti: Harbiy tashkilot va safarbarlik bo'yicha tajribaga ega bo'lgan professor-o'qituvchilarni ishga olish juda muhimdir. Ushbu o'qituvchilar harbiy harakatlarda amaliy tajribaga ega bo'lishi va tinglovchilarga qimmatli tushuncha va yo'l-yo'riq bera olishi kerak. Texnologik integratsiya: Simulyatsiya dasturlari, virtual haqiqat va ilg'or o'quv vositalari kabi texnologiyalardan foydalanish o'quv tajribasini oshirishi va tinglovchilarga real o'quv muhitini taqdim etishi mumkin. Texnologiyani o'quv dasturiga integratsiyalash tinglovchilarga xavfsiz va nazorat ostidagi sharoitda ko'nikmalarni qo'llash imkonini beradi. Fanlararo yondashuv: Harbiy fan, menejment, psixologiya va sotsiologiya kabi turli sohalardagi tushunchalarni integratsiyalash orqali fanlararo yondashuvni qabul qilish tinglovchilarga tashkiliy dinamika va safarbarlik strategiyalari haqida har tomonlama tushuncha berishi mumkin. Fanlararo yondashuv mutaxassislarni tashkiliy rejalashtirish va safarbarlik operatsiyalari bo'yicha tayyorlash uchun kuchli strategiyadir. Harbiy fanlar, logistika, menejment, psixologiya va kommunikatsiyalar kabi turli sohalardagi tushunchalarni birlashtirgan holda, ushbu o'quv dasturlari bunday operatsiyalardagi murakkab dinamikani har tomonlama tushunishni taklif qilishi mumkin.

Harbiy fan strategiya, taktika va operatsion rejalashtirish haqida asosiy bilimlarni beradi, logistika ekspertizasi esa resurslarni samarali boshqarish va ta'minot zanjiri operatsiyalarini ta'minlaydi. Boshqaruv tamoyillari samarali etakchilik va qarorlar qabul qilishga yordam beradi, psixologiya tushunchalari esa tashkilot ichidagi inson xatti-harakati va motivatsiyasini tushunishni kuchaytiradi. Bundan tashqari, muloqot qobiliyatlari ma'lumotni aniq etkazish va jamoa a'zolari o'rtasida harakatlarni

muvoqilashtirish uchun zarurdir. Ushbu turli istiqbollarni o'zida mujassam etgan holda, o'quv dasturlari tashkiliy rejalashtirish va safarbarlik operatsiyalari bilan bog'liq qiyinchiliklarni aql va epcillik bilan hal qilish uchun jihozlangan har tomonlama rivojlangan mutaxassislarni tayyorlashi mumkin. Ushbu fanlararo yondashuv dinamik va yuqori xavf muhitida yanada samarali va samarali natijalarga olib kelishi mumkin bo'lgan yaxlit tushunchani rivojlantiradi. O'quv dasturiga amaliy tadqiqotlar va tadqiqot loyihalarini kiritish tinglovchilarga real dunyodagi mobilizatsiya muammolarini tahlil qilish, tahliliy ko'nikmalarni rivojlantirish va innovatsion echimlarni o'rganishga yordam beradi. Tinglovchilarni tadqiqot o'tkazishga va tanqidiy tahlil qilishga undash intellektual qiziqish va akademik qat'iylikni rivojlantiradi. Tashkiliy va safarbarlik bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash uchun yetakchilikni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish zarur. Tinglovchilarga rolli o'yin mashqlari, jamoaviy loyihalar va murabbiylik dasturlari orqali etakchilik ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlarini taqdim etish safarbarlik harakatlari davomida etakchilik qila oladigan samarali harbiy rahbarlarni tarbiyalashi mumkin.

Harbiy xizmatchilarga tashkiliy va safarbarlik faoliyati bilan bog'liq axloqiy mulohazalar va ma'naviy javobgarliklarni o'rgatish ularning kelajakdagi rollarida halollik va professionallikning eng yuqori standartlariga rioya qilishlarini ta'minlaydi. Tashkiliy va safarbarlik bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash o'quv dasturiga harbiy etika va qadriyatlarni kiritish harbiy xizmatchilarda halollik, professionallik va axloqiy xulq-atvor madaniyatini tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega. O'quv dasturlari or-nomus, burch va inson huquqlarini hurmat qilish kabi qadriyatlar muhimligini ta'kidlab, ularning ishtirokchilarida mustahkam axloqiy asosni shakllantirishi mumkin. Harbiy etika bo'yicha ta'lim bir qancha maqsadlarga xizmat qiladi. Birinchidan, bu shaxslarga harbiy tashkilotdagi rollari va mas'uliyatlariga xos bo'lgan axloqiy fikrlarni tushunishga yordam beradi. Bunga missiya maqsadlarini axloqiy majburiyatlar bilan muvozanatlash, murakkab vaziyatlarda halollik bilan harakat qilish va hatto qiyin vaziyatlarda ham axloqiy me'yorlarga rioya qilish kabi dilemmalar bilan kurashish kiradi. Bundan tashqari, axloqiy tarbiya boshqalarga, shu jumladan xizmatdoshlar, fuqarolar va dushmanlarga nisbatan mas'uliyat hissini tarbiyalaydi. U hamdardlik, hamdardlik hamda kelib chiqishi yoki mansubligidan qat'i nazar, barcha shaxslarning qadr-qimmatini va huquqlarini hurmat qilish majburiyatini yuklaydi. Axloqiy ta'limni o'quv dasturiga kiritgan holda, tashkiliy va safarbarlik bo'yicha mutaxassislarni nafaqat o'z vazifalarini samarali bajarishga, balki axloqiy ong va mas'uliyat hissi bilan ham tayyorlanishadi. Bu, pirovardida, harbiy tashkilotning umumiy professionalligi va ishonchliligiga hissa qo'shadi va uning harakatlari adolat, halollik va inson qadr-qimmatini hurmat qilish tamoyillariga mos kelishini ta'minlaydi. Moslashuvchanlikni ta'kidlaydigan o'quv dasturlari mutaxassislarni safarbarlik operatsiyalari qiyinchiliklariga tayyorlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Dinamik va oldindan aytib bo'lmaydigan muhitda vaziyatlarni tezda baholash, tanqidiy fikrlash va rejalarni moslashtirish qobiliyati missiya muvaffaqiyati uchun juda muhimdir.

Moslashuvchanlikni singdirish orqali o'quv dasturlari mutaxassislarga noaniqlik sharoitida chaqqon bo'lish imkoniyatini beradi. Ular logistika cheklovlari, operatsion talablar yoki atrof-muhit omillari bo'ladimi, kutilmagan o'zgarishlarni oldindan bilish va ularga javob berishni o'rganadilar. Bu joylashtirish strategiyalarini o'zgartirish,

resurslarni qayta taqsimlash yoki to'siqlarni engib o'tish uchun echimlarni ishlab chiqishni o'z ichiga olishi mumkin. Bundan tashqari, moslashuvchanlikni rivojlantirish mutaxassislariga muammolarga ijodkorlik va chidamlilik bilan yondashish imkonini beradi. Ular an'anaviy usullar etarli bo'lmaganda innovatsiyalarni qabul qilishni va muqobil yondashuvlarni o'rganishni o'rganadilar. Ushbu fikrlash tajriba va muvaffaqiyatsizlikdan o'rganishni rag'batlantiradi, natijada yanada samarali va samarali natijalarga olib keladi. Bundan tashqari, moslashuvchanlikni birinchi o'ringa qo'yadigan o'quv dasturlari ko'pincha dinamik vaziyatlarni boshqarishda amaliy tajribani ta'minlash uchun simulyatsiya mashqlari va real stsenariylarni o'z ichiga oladi. Ushbu simulyatsiyalar orqali mutaxassislar bosim ostida qaror qabul qilishni mashq qilishlari, muammolarni hal qilish qobiliyatlarini yaxshilashlari va o'zgaruvchan sharoitlarga moslashish qobiliyatiga ishonchni rivojlantirishlari mumkin.

Xulosa qilib aytganda, bo'lajak harbiy kadrlarda moslashuvchanlik va moslashuvchanlikni singdirish orqali o'quv dasturlari mutaxassislarni safarbarlik operatsiyalariga xos bo'lgan murakkab va oldindan aytib bo'lmaydigan muhitda muvaffaqiyatga erishish uchun yaxshi jihozlanganligini ta'minlaydi. Ushbu moslashuvchan fikrlash nafaqat missiya muvaffaqiyatini oshiradi, balki harbiy tashkilotlarda faoliyat olib borayotgan harbiy xizmatchilarda chidamlilik va innovatsiyalarni rivojlantiradi.

Фойдаланган адабиётлар

1. Soliev, M.A. Jangovar va safarbarlik shayligi o'quv fanidan QShF ofitserlari uchun darslik/ M.A. Soliev, I.I. Abubakirov. – T.: O'R QKA QKFBB kafedrası, 2018.- 92 b.

2. Najimov, M.M. Ikkinchi jahon urushi yillarida harbiy san'atni rivojlanishi/ M.M. Najimov. –T.:O'R QKA HX kafedrası, 2020.- 28, 36 b.

3. Горкин А.П. “Военный энциклопедический словарь” I, II том. - М.: «Рипол классик», 2011. -848 с, -816 с.

4.Юлдашев Д.Р. Жанговар ва сафарбарлик шайлик. Дарслик.Тошкент:,2022 АКТва АХИ.

ТУРКИЙ ДАВЛАТ БОШҚАРУВИ АСОСЛАРИ

*Улугов Жасур Насирдинович –
Ўзбекистон Республикаси Куролли Кучлари
кичик мутахассислар тайёрлаш маркази
Гуманитар ва ижтимоий фанлар цикли
катта ўқитувчиси*

***Аннотация.** Ушбу мақолада Турк ҳоқонлиги давлат бошқарув тизими ва унинг миллий давлатчилигимиздаги ўрни, бошқарув тизимини ташкил қилиши ва унинг аҳамияти хусусидаги илмий маълумотлар келтирилган.*

***Калит сўзлар:** Турк ҳоқонлиги, Фарбий Турк ҳоқонлиги, давлат бошқаруви, тизим, ҳоқон, ябгу, кўчманчилар, деҳқон, конфедерация, сулола, иттифоқ.*

VI асрнинг иккинчи ярмидан бошлаб Жанубий Сибир ва Шимолий Монголия яъни, Олтой худудларида туркий қабилалар иттифоқи шакллана бошлайди. Халқларимиз давлатчилиги тарихида муҳим аҳамиятга эга бўлган Турк ҳоконлиги хусусида талайгина манбалар бизнинг кунларимизгача сақланиб қолган бўлса-да, уларнинг айримлари бир-бирини инкор этади. Ушбу манбалар VI асрнинг охирларида яшаган византиялик тарихчилар Менандр Протектор, Феофан Византийский, суриялик тарихчи Ионна Эфессийларнинг тарихий асарлари, эпиграфик ёдгорликлар – Урхўн Енисей, руний ёзувлари, Хитойнинг "Тан хонадони тарихи" қабилардир. Ундан ташқари ўрта асрлар муаллифлари ат-Табарий, Деноварий, Беруний, Наршахийлар асарларида ҳам Турк ҳоконлиги тўғрисида маълумотлар учрайди.

Тарихий манбалар маълумотларига кўра, Турк ҳоконлигининг пайдо бўлиши 551-552 йилларга тўғри келади. 551 йилда Бумин Турк элининг ҳокони сифатида оқ кигизга ўтказилиб кўтарилади. Аммо, 552 йилда Бумин тўсатдан вафот этиб унинг ўрнига укаси Истами тахтга ўтиради. Истами ҳокон Ўрта Осиё, Волга ва Шимолий Кавказ ерлари учун кураш олиб борган бўлса, унинг ўғиллари Муған ҳокон ва Таспар ҳоконлар Марказий Осиё ва Жанубий Сибирда ўз ҳукмронликларини ўрнатадилар.

Турк ҳоконлари ўртасидаги ўзаро курашлар 20 йилдан зиёдрок давом этиб 603 йилда давлатнинг 2 та: Ғарбий ва Шарқий қисмларига бўлиниб кетиши билан яқунланди. Шарқий Турк ҳоконлиги Муғулистон худудларини, Ғарбий Турк ҳоконлиги эса Еттисув, Чу водийси, Волга, Кубаннинг қуйи қисми, Иртиш, Ишим дарёси бўйидаги ерлар, Ўрта Осиё ва Шарқий Туркистоннинг бир қисмини ўз ичига олган.

Ҳоконлар Шегуй ва Тўн ябғу даврларида Ғарбий Турк ҳоконлиги вақтинчалик ривожланиш жараёнларини бошдан кечирди. Бу даврда ҳоконликнинг худудлари кенгайди, давлат бойида ва ҳарбий қабилла зодагонларининг мавқеи кучайиб улар ҳоконлар ҳокимиятидаги ҳарбий муваффақиятларни таъминлаб турдилар. Шагуй Ғарбий ҳоконликнинг шарқий чегараларини Олтой қилиб белгилади ва ўз ҳокимиятини Тарим ҳавзаси ва шарқий Помир олдиғача чўзишга муваффақ бўлди. Тўн ябғу (Тўн Баҳодир) ҳоконликнинг ғарбий худудларида фаол сиёсат олиб бориб ҳоконликнинг кишки қароргоҳини Чу дарёси воҳасидаги йирик савдо хунарамандчилик маркази бўлган Суёбга (ҳозирга Тўқмоқ яқинидаги Оқбешим кўҳна шаҳри), ёзги қароргоҳини эса Исфижоб яқинидаги Мингбулоққа, ҳозирги Туркистон шаҳри яқинида) кўчиради. Тўн ябғунинг янги юришлари туфайли ҳоконлик чегараси Амударёнинг юқори оқимларидан Ҳиндикушгача чўзилади.

Турк ҳоконлигида давлатнинг олий ҳукмдори "ҳокон" унвонига эга бўлган. Хитой манбалари маълумотларига кўра, туркийлар хонни тахтга ўтқозишда махсус маросим ўтқозишган. Яъни, амалдорлар бўлажак хонни кигизга ўтқазиб, қуёш юриши буйлаб 9 маротаба айлантирганлар, иштирокчилар эса уни қутлаб ва улуғлаб турганлар. Сўнгра хонни отга ўтқазиб, бўйнига ипак мато боғлаганлар ва ундан "Сиз неча йил хон бўлмоқчисиз?" деб сўраганлар. У неча йил хон бўлишини айтган ва шу муддат тугагач тахтдан кетган. Қадимги туркий афсоналарда берилишича, туркларнинг тасаввурига кўра, давлатчиликнинг

маркази, давлатни ўз кўлида бирлаштирувчи шахс ҳоқон ҳисобланган. Бошқарувда ҳоқонларнинг ҳукмрон сулоласи асосий бўлиб у учта куч - осмон (тангри), ер-сувнинг куч ва иродаси ҳамда турк халқининг яратувчанлик фаолияти туфайли юзага келтирилади.

Ҳоқондан кейинги шахс, биринчи амалдор “Ябғу” (Баҳодир) бўлиб, у бош саркарда ҳисобланган. Аммо, ябғу тахтга меросхўрлик қила олмас эди. Турк ҳоқонлиги тахтига ворислик тартиби турк давлатчилиги тузилиши учун хос бўлган улусларга бўлиниш тизими асосланиб белгиланар эди. Ушбу тизимга кўра тахт аксарият ҳолларда отадан ўғилга эмас, акадан укага, амакидан жиянга мерос қолар эди. Тахт меросхўри тегин (шаҳзода) деб юритилган. Шаҳзодалар то тахтга ўтиргунларига қадар ўзларига берилган улусларни бошқариб турганлар. Ўрта Осиёдаги маҳаллий ҳокимларнинг фаолиятини назорат қилувчи амалдор, ҳоқоннинг назоратчиси - "тудун" деб аталган. Турк ҳоқонлиги конфедератив давлат бўлган. Туркийлар ўз юрти ва давлатини "эл" деб аташган. Биринчи турк ҳоқони Буминхон элхон унвонига эга бўлганлиги бежиз эмас. Давлатчилик маркази ёки давлатни ўзида мужассам этувчи шахс Ҳоқон, ҳоқонларнинг ҳукмрон сулоласи Ҳоқоннинг ўнг томонида ўтирувчи амалдорлар ва ходимлар Ҳоқонга иттифоқдош бўлган қабила ва халқлар Қариндошлар Олий мансабдорлар ехе (ябғу) ше (шод) деле (тегин) тутунфа (тудун) маҳаллий ҳукмдорлар ихшид, худот, ихрид, афшин, будун, маликшоҳ, оқсоқоллар ва ҳарбийлар йиғини қабила уруғ бошлиқлари, беклар, ноиблар турган.

Ҳоқонлик таркибидаги кўплаб қабила ва элатларни бирлаштириш ва бошқариб туриш, улардан маълум миқдордаги солиқлар ва ўлпонларни ўз вақтида йиғиб олиш мақсадида ҳоқонликда махсус маъмурий ва ҳарбий-сиёсий бошқарув тизими жорий этилган эди. Давлатни бошқаришда олий ҳукмдорга унинг якин қариндошлари, аввало, ҳукмрон сулола аъзолари ҳамда улар томонидан барпо этилган бошқарув тизими ёрдам берар эди. Манбаларнинг маълумот беришича, у тўртга бўлинган. Яъни, қариндошлар, ҳоқонга иттифоқдош бўлган қабила ва халқлар; ҳоқоннинг ўнг томонида ўтирувчи амалдорлар ва маъмурий ходимлар; ҳоқоннинг чап томонида ўтирувчи амалдорлар ва ходимлардан иборат бўлган. Ҳоқоннинг қариндошлари - ўғиллари, амакиси, жиянлари ва ака-укаларига "тегин" унвони берилган. Хитой манбаларида маълумот берилишича, ҳоқонликда бешта олий мансаб - еху (ябғу), ше (шод), деле (тегин), силифа (элтабар) ва тутунфа (тудун) қабила мавжуд бўлиб, уларнинг барчаси мерос қилиб қолдирилган.

Турк ҳоқонлиги давлатининг асосини ер билан бирга халқ ташкил этар эди. Ўз даврида Ўрта Осиёда давлатчиликнинг мустақил ва анъанавий шаклларини ривожлантирган туркийлар давлати мавжуд жамиятнинг муайян ижтимоий тузилмаларига ва қадимги туркларнинг давлат томонидан ташкил этилган ҳамда назорат қилинадиган хўжалик фаолиятига таянар эди. Тарихий адабиётларда берилишича, бу фаолиятнинг асосини кўчманчи чорвачилик ташкил этган. Чорвадор туркларда уруғ-қабилачилик анъаналари ниҳоятда кучли бўлиб, қабила ва уруғ жамоаларининг асоси катта оилалардан иборат бўлган. Кўчманчи

чорвадорлар халқ оммасини турклар "будун" ёки "қора будун" деб аташган. Ҳоконликда кенг миқёсда деҳқончилик ҳам қилинар эди. Хитой манбалари, "гарчи турклар доимий яшаш жойларига эга бўлмаса ҳам, лекин уларнинг ҳар бирининг ажратиб берилган ери бор"лиги ҳақида маълумот беради. Айнан мана шундай "ажратиб берилган ер"ларда деҳқонлар мавжуд сув манбалари ҳамда лалмикор ерлар имкониятдан фойдаланиб асосан донли экинлар етиштирганлар. Мевали дарахтлардан боғ-роғлар етиштиришга алоҳида аҳамият берганлар. Манба тили билан айтганда, "(мевали) дарахтлар савлат тўкиб турган". Турклардаги қабила ва уруғ жамоаларининг катта оилаларида уй қўллари ҳам мавжуд бўлар эди. Қўлларнинг кўпайиши билан синфий муносабатлар таркиб топа бошлаган. Лекин қулчилик ижтимоий ҳаётга кенг кириб келмаган. Шу боис бўлса керакки, манбалар ҳоконликда қўллар меҳнатидан кенг фойдаланиш ҳақида амалда ҳеч қандай маълумот бермайди. Айрим тадқиқотчиларнинг фикрича, кўпроқ аёллар меҳнатидан фойдаланилган ва қўллар асосан уй ишлари билан шуғулланишган. Кўпинча жамоада аёллар қул қилиб олиб кетилар эди. Лекин, қул аёллардан ҳам оғир ишларда фойдаланилмай, балки уй-рўзгор ишларида ишлатилинар эди. Қул эркакми, аёлми барибир қочиб кетаверган. Қочган қул таъқиб қилинмаган ва унинг учун ҳеч ким товон тўламаган. Турк ҳоконлигининг марказий бошқарув тизими асосан йирик сиёсий давлат тадбирлари (давлат осойишталигини сақлаш, давлат сарҳадларини кенгайтириш, солиқ тизими, ички ва ташқи савдо, дипломатик муносабатлар ва бош.) билан машғул бўлиб ўзлари забт этган ҳудудлардаги бошқарув тизимига маълум даражада эркинлик берилган. Шунинг учун ҳам Фарғона, Суғд, Шош, Тохаристон, Хоразм ва бошқа мулклардаги бошқарув тартиби асосан маҳаллий сулолалар қўлида бўлган. Мисол учун, Суғд ва Фарғонада олий ҳукмдор - "ихшид" Тохаристонда - "маликшоҳ", Хоразмда - "хоразмшоҳ", Кешда - "ихрид", Бухорода - "худот", Уструшонада - "афшин", Чоч ва Илокда - "будун" деб аталган. Турк ҳоконлиги даврида Суғд ҳудудларига ҳозирги Панжикентдан Карманагача бўлган ерлар кирган. Бухоро эса, VII асрдан бошлаб мустақил мулклар иттифоқидан иборат бўлган. Суғднинг маҳаллий ҳокимлари айрим вақтларда Чоч ва Хоразмнинг мустақил ҳукмдорлари бирлашар эдилар. Бундай йирик сиёсий бирлашмалар маълум муддатларда йирик шаҳарларда ўз қурултойларини ўтказиб турганлар. Фарғона Суғд сиёсий иттифоқига кирмаган бўлиб, у алоҳида мустақил давлат эди. Уни афшин бошқарган бўлиб, Фарғоналиклар Тяншан халқлари билан ўзаро алоқада бўлганлар. Хоразм бошқа мулкларга нисбатан анча мустақил эди. Мамлакатни Африғийлар сулоласига мансуб подшолар бошқариб турган. Таъкидлаш лозимки, Турк ҳоконлиги маълум даражада тўлиқ ишлаб чиқилган жинойий қонунчиликка эга бўлган. Содир этилган жиноят учун жазонинг асосий турлари - қатл этиш одам аъзоларини кесиб ташлаш, зарарни тўлаш, мол-мулк тарзида товон тўлашдан иборат эди. Мисол учун, манбаларнинг маълумот беришича, ўлим жазоси давлатга қарши жиноятлар учун (исён кўтариш, сотқинлик) ҳамда ноҳақ ёки қасддан одам ўлдирганлик учун берилган. Ўғирлик қилган ёки бўзқўлик қилган шахснинг қўли ёки оёғи кесилган. Шахсга қарши қаратилган бошқа жиноятлар етказилган зарарни ўн баробар қилиб тўлаш, жароҳат етказгани ёхуд майиб

қилгани учун мол-мулк тарзида товон тўлаш, қизи, хотинини қулликка бериш, суягини синдирганлик учун эса от бериш йўли билан жазоланарди.

Хуллас, Ўрта Осиёнинг Турк ҳоқонлиги таркибида бўлиши ўша давр давлатчилиқ тарихи, ижтимоий-иқтисодий ва маданий ҳаёт учун муҳим аҳамиятга эга бўлди. Аввало, Турк ҳоқонлиги жуда катта ҳудудлардаги туркий қабилаларнинг бирлашуви ва жипслашувига кенг имкониятлар яратиб, Ўрта Осиёдаги айрим туркий халқлар шаклланишига асос солди. Яна бир аҳамиятли томони шундаки, аввал Турк ҳоқонлиги, кейин эса Ғарбий турк ҳоқонлигининг қудратли ва кўчманчиларга хос шиддатли ҳарбий ташкилоти, Суғдийларнинг бевосита аралашуви туфайли олиб борган дипломатик сиёсати Хитой, Византия ва Эроннинг Ўрта Осиё илк ўрта асрлар даври халқлари ва элатларига нисбатан олиб бораётган тажовўзкорлик сиёсати йўлига мустаҳкам тўсиқ қўйди. Бепоён дашт ва чўл ҳудудларида, серҳосил ва серсув воҳаларда ташкил топган улкан давлат бирлашмалари каттагина ҳудудлардаги шаҳарлар, ҳунармандчилик, маданият, савдо-сотик ва ўзаро алоқаларнинг ривожланиши учун кенг имкониятлар очиб берди. Масаланинг яна бир энг муҳим томони шундаки, Турк ҳоқонлиги мавжудлиги давр – кўчманчилар маданияти инсоният цивилизациясининг ўз йўналиши ва жиҳатларига эга бўлган ўзига хос ва бетакрор тармоғи бўлиб, ўтроқ аҳоли маданияти билан аралашиб, уйғунлашган маданият пайдо бўлиши даври бўлди.

BOSHLANG‘ICH SINFI O‘QUVCHILARINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

*Umirzaqova Lobar Shodmonovna –
Samarqand viloyati Qo‘shrabot tumani
Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limiga qarashli
10-maktabning boshlang‘ich sinfi o‘qituvchisi*

***Annotatsiya:** Boshlang‘ich maktab yoshida idrok yetarlicha farqlanmagan. Shu sababli, bola ba’zan imlo bilan o‘xshash harflar va raqamlarni aralastirib yuboradi (masalan, 9 va 6). Garchi u ob’ektlar va chizmalarni maqsadli o‘rganishi mumkin bo‘lsa-da, ular maktabgacha yoshdagi kabi eng ajoyib, "sezgir" xususiyatlarga ega - asosan rangi, shakli va hajmi. Talaba ob’ektlarning sifatini yanada aniqroq tahlil qilishi uchun o‘qituvchi unga dars beradigan maxsus ishlarni bajarishi kerak kuzatuv. Agar maktabgacha yoshdagi bolalar idrokni tahlil qilish bilan ajralib turadigan bo‘lsa, unda boshlang‘ich maktab yoshining oxiriga kelib, tegishli tayyorgarlik ko‘riladi sintezlash idrok.*

***Kalit so‘zlar:** boshlang‘ich ta’lim, sport, jismoniy tarbiya, jismoniy rivojlanish, jismoniy sifatlar, xotira, idrok, diqqat, shaxsiy rivojlanish, istisno sindromi, shaxsiy men.*

Bugungi kunning yoshlari bilimli va aqlli bo‘lishi bilan birgalikda vatanparvar bo‘lishlari hozirgi kunning asosiy talablaridan biridi. Shunday ekan biz o‘qituvchilar oldidagi asosiy vazifalarimiz kelajak avlodga ta’lim va tarbiyani berishda sustkashlikka

yo'l qo'ymasdan o'z kasbimizga sadoqat bilan yondashishimiz kerak.

Barchamizga ma'lumki pedagogik fanlar tizimida "umumta'lim pedagogikasi" mavjud bo'lib, bu tizim ham uch yo'nalishda ko'rinadi, yani "boshlang'ich ta'lim, tayanch ta'lim" va "to'liq umumtalim".

Men boshlang'ich ta'lim yo'nalishida faoliyat yutishim jarayonida o'quvchilarimni kuzatishim va ular bilan ishlashimda bolalar psixologiyasida bir qator to'siqlarga duch keldim va bu to'siqlarni engib o'ishda bolalar psixologiyasiga murojaat qildim.

Olib borgan ishlarim natijalarida quyidagi fikrlarga keldim.

Xotira ikki yo'nalishda rivojlanadi –bular o'zboshimchalik va mazmunli. Bolalar o'zlarining qiziqishini uyg'otadigan, yorqin ko'rgazmali qurollar yoki tasviriy xotiralar va boshqalar bilan bog'liq bo'lgan qiziqish uyg'otadigan o'quv materiallarini bemalol yodlashadi. Ammo, maktabgacha yoshdagi bolalardan farqli o'laroq, ular o'zlariga qiziq bo'lmagan materiallarni maqsadli ravishda, o'zboshimchalik bilan yodlab olishlari mumkin. Har yili ko'proq va ko'proq treninglar asosida xotira o'zboshimchalik bilan qurilmoqda.

Yosh maktab o'quvchilari, maktabgacha yoshdagi bolalar singari, yaxshi mexanik xotiraga ega. Yaxshilash semantika bu yoshdagi xotira uchun juda keng mnemonik texnikani o'zlashtirishga imkon beradi, ya'ni eslashning oqilona usullari. Bola o'quv materialini tushunsa, bir vaqtning o'zida eslash qobiliyatiga ega.

Diqqat. Ushbu aqliy funktsiyaning yetarli shakllanishsiz, o'quv jarayoni mumkin emas. Darsda o'qituvchi o'quvchilarning e'tiborini o'quv materialiga jalb qiladi, uni uzoq vaqt ushlab turadi, bir ish turidan ikkinchisiga o'tadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan taqqoslaganda, yosh o'quvchilar ko'proq e'tibor berishadi. Ular allaqachon diqqatsiz harakatlarga e'tibor qaratishlari mumkin, ammo ular baribir ustunlik qilishadi majburiy emas. Diqqat ularning diqqat-e'tiborlari kichik hajmlari, past darajadagi barqarorligi bilan ajralib turadi - ular bir narsaga 10-20 daqiqa davomida e'tibor qaratishlari mumkin. Diqqatni taqsimlash va uni bitta o'quv topshirig'idan boshqasiga o'tkazish juda qiyin. Ta'lim faoliyatida bolaning ixtiyoriy e'tibori rivojlanadi.

Shaxsiy rivojlanish. Yosh talaba ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan o'quv faoliyatiga kiritiladi, uning natijalari yaqin kattalar tomonidan yuqori yoki past baholanadi. Uning shaxsiyatining rivojlanishi to'g'ridan-to'g'ri maktabning ishlashiga bog'liq bo'lib, bu davrda bolani yaxshi yoki yomon o'quvchi sifatida baholaydi.

O'quvchining o'ziga bo'lgan hurmatini shakllantirish nafaqat uning ishlashi va o'qituvchining sinf bilan aloqasi xususiyatlariga bog'liq. Oilaviy tarbiya uslubi, oilaviy qadriyatlar katta ahamiyatga ega.

Maktab va oila o'z-o'zini anglash rivojlanishining tashqi omillari. Uning shakllanishi ham bolaning nazariy reflektiv fikrlashining rivojlanishiga bog'liq. Boshlang'ich maktab yoshida fikrlar paydo bo'ladi va shu bilan yutuqlar va shaxsiy fazilatlarining o'ziga bo'lgan ishonchini shakllantirish uchun yangi imkoniyatlar paydo bo'ladi. O'z-o'zini hurmat qilish odatda yanada adekvat va farqlanadi, o'zi to'g'risida hukmlar yanada asoslangan. Shu bilan birga, bu erda sezilarli individual farqlar kuzatilmoqda. Shuni ta'kidlash kerakki, haddan tashqari va o'zini past baholagan bolalarda uning darajasini o'zgartirish juda qiyin.

Xulosa. Bugungi kunda boshlang'ich maktab o'quvchilari orasida "istisno sindromi" tobora rivojlanmoqda. Bola bu sinfda u o'qituvchilarning kayfiyatiga yoki tengdoshlarining do'stligiga erisha olmaydi, degan fikrlarni boshlaganida shakllanadi. Buning sababi nimada? Bu fikr maktabdagi mumkin bo'lmagan muvaffaqiyatsizlik (savolga noto'g'ri javob berilgan) yoki sinfdoshlar tomonidan masxara qilish natijasidir. O'zingizning "Men" ni bostirish jarayoni boshlanadi va bu o'z navbatida keyingi muvaffaqiyatsizliklar zanjirini yaratadi. Bola maktabga tayyormi? U uydan umuman farq qiladigan muhitga qo'shila oladimi?

Ota-onalar o'rniga o'qituvchilar paydo bo'ladi, ular endi o'z talabasining injiqliklariga dosh berolmaydilar, bundan tashqari, unga yuklangan vazifalarning bajarilishini talab qiladilar; - hovli yoki bolalar bog'chasidagi do'stlari oldiga umuman notanish bolalar, ular bilan har kuni shug'ullanish va muloqot qilish kerak; - o'yinchoqlar kitoblar va daftarlarga, bo'sh vaqt esa - uy vazifalariga almashtiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yusupova Zulfizar Sharipovna, Shukurov Rahim Salimovich, Akramova Gulxayo Sharipovna (scopus) The features of the psychological preparation process of turon figrtersto competitions // International Journal of psychosocial, vol 24, ISSUE 06, 2020 ISSN:1475-7192

2. Юсупова З.Ш. АCADEMY научно-методический журнал Принципы и методы организации физкультурно-спортивных мероприятий в образовательных учреждениях. ISSN 2412-8236 ГОСТ 7.56-2002.

3. Юсупова З.Ш. Ученый XXI века международный научный журнал Требования к выполнению упражнений на уроках физкультуры. УДК 37. ISSN 2410-3586

4. Yusupova Zulfizar Rakhimova Laylo Methods for determining the degree of physical fitness USA International Conference SCIENTIFIC RESEARCHES FOR DEVELOPMENT FUTURE March 28, 2020, New York

5. Abdullayev Sh.Dj. Yusupova Z.Sh. Бухоро Давлат Университети Илмий ахбороти THEORETICAL ANALYSIS OF THE PROCESS OF RECOVERY OF THE ABILITY OF INDIVIDUAL WRESTLERS TO WORK IN THE POST-COMPETITION STAGE 2020/6(82).

ВОПРОСЫ РАЗВИТИЯ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ

*Умрзоқова Сурайё Худойбердиевна –
Университет экономика и педагогика НОУ,
Карши, Узбекистан*

Аннотация. В данной статье важное значение в воспитании интеллектуального молодого поколения имеют готовность педагога к профессиональной деятельности, его личностная и профессиональная зрелость, личностные качества, интеллектуальные возможности, социальный интеллект и его зависимость от социальных и психологических факторов.

***Ключевые слова:** Высшее учебное заведение, студент, интеллект, метод, профессиональная деятельность, творчество, деятельность преподавателя, инновационные технологии, педагогические способности, креативность.*

Введение: Вклад педагогов-тренеров в воспитании молодого поколения, являющегося обладателем самостоятельности, образованным, грамотным, духовно совершенным и физически здоровым. Глубокие знания и образцовое воспитание, даваемые ими, служат фундаментом для мальчиков и девочек, стоящих на пороге великой жизни, стать патриотами и настоящими людьми в жизни, стать людьми, самоотверженно и честно служащими нашей стране и народу. Абдулла Авлони, известный педагог своего времени, писал, что «счастье каждого народа, мир и счастье государств зависит от хорошего воспитания молодежи». Любое образовательное учреждение работает на основе интенсивной работы по воспитанию детей зрелыми и всесторонне развитыми личностями. Таким образом, молодое поколение в дошкольных образовательных учреждениях, школах, колледжах, лицеях и высших учебных заведениях вырастет обладателями глубоких знаний. Высшее образование особенно важно. Потому что отсюда студент становится зрелым человеком и высокообразованным человеком. Здесь мы делаем упор на высшее образование. Высшее образование – это место подготовки высококвалифицированных специалистов в различных высших учебных заведениях. Высшее образование осуществляется высшими учебными заведениями путем предоставления научно-теоретических знаний и формирования конкретных навыков лицам, желающим стать высококвалифицированными специалистами в различных областях народного хозяйства, науки и культуры и выполнившим соответствующие требования.

В процессе получения высшего образования студенту дается высшее образование. Понятие «высшее образование» означает совокупность знаний и умений на уровне, позволяющем самостоятельно решать теоретические и практические задачи, стоящие перед специалистом конкретной специальности. Недавно наш Президент подписал два исторических решения в сфере высшего образования. Решения «О мерах по обеспечению финансовой независимости государственных высших учебных заведений» и «Дополнительные меры по обеспечению академической и организационно-управленческой независимости государственных высших учебных заведений» имеют важное значение для поднятия работы в этой сфере на новый уровень. Оба решения были большой новостью для системы высшего образования. Цель состоит в том, чтобы предоставить обществу идеального человека во всех аспектах.

Обсуждение и результаты. Развитие интеллекта школьника требует кропотливой работы педагогов и психологов. Сегодня реформы в системе высшего образования развиваются значительными темпами, а использование инновационных технологий находит свое место в системе образования. Например, большинство вузов перешли на кредитно-модульную систему обучения, передовые методы обучения и преподавания, методы, используемые в образовательном процессе, более творческую организацию учебного процесса,

высшее для инновационного развития образования, использование информационных и коммуникационных технологий, использования образовательных платформ, а также часов, отводимых на преподавание профессий и специальностей в высших учебных заведениях, увеличивается. Все это помогает достичь высоких результатов в повышении компьютерной грамотности преподавателей и учащихся. По мере того, как время улучшается, расширяются и масштабы человеческого мышления. Также в Узбекистане действуют зарубежные и частные университеты, обеспечивающие обучение по современным учебным программам. Качество их образования достаточное.

Новые возможности открываются в сфере образования. Достаточно, если молодые люди будут разумно использовать такие возможности. Будущее нашей страны, несомненно, зависит от развития образованных, духовно зрелых людей сегодняшнего поколения. В постановлении Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года «О Стратегии развития нового Узбекистана» № рассматривая процесс взаимного согласования интересов личности и общества как важной ценности, составлен план работы реализуется вопрос реформирования системы образования, доведения подготовки научных кадров до уровня современных требований как приоритетного направления. В действительности, общество, которое воспитывает более духовно зрелых, духовно чистых и физически здоровых людей и доводит их до взрослой жизни, неизбежно достигнет стабильности и совершенства.

Согласно решению об утверждении концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года, устанавливающей приоритеты системного реформирования высшего образования Республики Узбекистан, обладающего современными знаниями и высокими морально-этическими качествами, поднять процесс подготовки самостоятельно мыслящих высококвалифицированных кадров на новый качественный уровень, модернизировать высшее образование, поднять содержание высшего образования на новый качественный уровень в целях развития социальной сферы и отраслей экономики на основе передовых образовательных технологиях. Сегодня в обществе существует потребность сохранить и даже восстановить положение и значение книги как духовно-нравственной пищи, главного источника развития культуры и языка, интеллектуального наследия, передаваемого из поколения в поколение. Прежде всего, издание художественной, учебной, научно-популярной, просветительской литературы, направленной на повышение интеллектуального потенциала молодежи, обеспечение ею учебных заведений, сортировку и перевод произведений отечественных и мировых литераторов на основе хорошо разработанной литературы. должна быть организована продуманная система. Кроме того, необходимо стимулировать интерес молодого поколения к книгам. Каждое государство, каждая нация сильна своим интеллектуальным потенциалом и высокой духовностью. Университетская жизнь, практические педагогические процессы очень сложны. Студенты-педагоги имеют глубокие знания по этой области знаний и добиваются высоких результатов. Это связано с действиями учителей. Учитель – профессия непростая, наоборот, очень ответственная и

трудная профессия. Потому что вся судьба общества в руках учителя. Обладатели этой профессии трудятся день и ночь. В высшем учебном заведении студенты изучают у преподавателей следующие методики:

-Педагогические навыки

- умение свободно выражать свое мнение
- повышение интереса учащихся
- умение правильно организовать урок
- обучение анализировать, сравнивать и т.д.

Процесс педагогического образования основан на современных информационных технологиях и широком внедрении коммуникативных технологий в формировании интеллектуальных способностей учащихся:

- создание дистанционных курсов и электронной литературы;
- объединение программистов, соответствующих специалистов;
- разделение задач между педагогами;
- обучение студентов профессиональным знаниям в зависимости от их таланта;

- помогает получить глубокие знания посредством моделирования изучаемых событий.

В ходе своей работы преподаватели делятся своими знаниями и умениями со студентами. Они используют разные методы и методы для донесения знаний до учащихся. Но их совершенно не волнует, чем это обернется.

В нашем народе есть пословица: «Учитель такой же великий, как твой отец». Это слово имеет глубокий смысл и содержание. Учителя не плохие. Без сомнения, мы всегда кланяемся им. Все они гордятся тем, что их ученики превзошли их. Сегодня от учителей требуется более творческий подход к учебному процессу. Потому что для студента больше внимания привлекает новизна, новый подход. Даже тогда этот процесс пробуждает идею создания чего-либо. Творчество человеку:

- стремление к творчеству,
- творческий подход к жизни
- Всегда критически оценивайте себя
- внимательность
- анализ
- креативность
- помогает формировать такие качества.

Поэтому было бы целесообразно, если бы преподаватели вуза организовывали учебный процесс творчески, с целью повышения интеллектуального потенциала студентов.

Литературы:

1. З.Т.Нишонова, Н.Г.Камилова, Д.У.Абдуллаева, М.Холназаров «Психология развития, педагогическая психология» Ташкент 2017г.

2. Азизходжаева Н.Н. «Педагогическая технология и педагогическое мастерство», Ташкент: «Низомий ТДПУ» - 2006г.

3. Толипова Ю., Нумонова Н. Современные педагогические технологии в образовательном процессе. /Журнал «Народное образование», 2002, №3. 20-24 с.
4. Нодира Эгамбердиева. Социальная педагогика. Ташкент., 2016. 88-97.
5. А.И.Авазбойе, Я.У. Исмадияров «Профессиональная педагогика». Издательство «Наука и технологии», 2014 г., 284 стр.
6. Гейдарова О.Г. Роль новых педагогических технологий в деятельности педагога.
7. Полат Е.С. Новые педагогические и информационные технологии в системе образования. М. - Академия 2001 г.
8. Мкртыпян Т.М. Проблемы и перспективы развитие образования. М.- 2015.
9. Surayyo Umrzoqova Xudoyberdievna. (2023). Issues of Development of Intellectual Competence of Students. Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching, 24, 20–22.

BO‘LAJAK HARBIY PSIXOLOGLARNING IJTIMOYIY INTELLEKTINI TADQIQ QILISH MASALALARI

*Valiyeva Munajatxon Sodiqovna –
O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari
Akademiyasi mustaqil izlanuvchisi*

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada ijtimoiy intellekt komponentlari, ijtimoiy intellektning inson hayotidagi o‘rni hamda ijtimoiy intellektni rivojlanish darajasini tadqiq qilish masalalarining nazariy tahlili yoritilgan.*

***Kalit so‘zlar:** ijtimoiy intellekt, qobiliyat, aql, komponent, muvaffaqiyat.*

KIRISH. Boshqa odamlarning xulq-atvorini tushunish qobiliyati, ijtimoiy idrok va o‘zini boshqa odamlar nazarida bilish ijtimoiy intellekt tushunchasi bilan izohlanadi. Ijtimoiy intellektning asosiy tarkibiy qismlari amaliy muammolarni hal qilish qobiliyati, og‘zaki qobiliyat va bu qobiliyatlarni amalda qo‘llay olish mahoratidir.

Psixologiyada intellekt - aql tushunchasi tegishli vazifalarni yengish, ijtimoiy-madaniy hayotga samarali qo‘shilish va muvaffaqiyatli moslashish qobiliyati. Inson intellekti tarkibida fikrlash, xotira va muammoli vaziyatlarda o‘zini oqilona tutish qobiliyati yetakchi komponentlar hisoblanadi.

Ijtimoiy intellektni o‘rganish tarixida uning tadqiqot mazmunini ochib beruvchi ikki bosqich mavjud. Birinchi bosqich (1920 -1949) - nazariy o‘rganish bosqichi: ijtimoiy intellektning mohiyati haqida umumiy tushuncha mavjud emas, umumiy intellektidan mustaqillik aniqlanmagan. Ikkinchi bosqich (1949 - hozirgi kungacha) - eksperimental va nazariy tadqiqotlar bosqichi ijtimoiy intellektni bevosita o‘rganadigan birinchi testni ishlab chiqish bilan bog‘liq. Ushbu bosqichda ko‘pchilik olimlar ijtimoiy intellektni umumiy aqldan mustaqil qobiliyat sifatida tan oladilar.

Birinchi bosqichning boshlanishi 1920 yilda E.Torndayk tomonidan psixologiyaga “ijtimoiy intellekt” tushunchasining kiritilishi bilan bog‘liq. Bu kontseptsiya bilan olim shaxslararo munosabatlardagi bashoratni belgilab, uni insoniy munosabatlarda oqilona harakat qilish qobiliyatiga tenglashtirgan.[1] E.Torndaykning fikricha, ijtimoiy intellekt odamlarni tushunish va ular bilan muloqot qilish qobiliyatidir. Uning tushunchasiga ko‘ra, ijtimoiy intellekt umumiy intellektning bir turi bo‘lib, u bilan boshqa aql turlari o‘rtasidagi munosabat hali aniqlanmagan. Ijtimoiy intellektning asosiy vazifalari odamlarning xatti-harakatlarini bashorat qilish va ular bilan muvaffaqiyatli muloqot qilishdir.

Birinchi bosqichda ijtimoiy intellekt muammosi G.Ayzenk tadqiqotlarida o‘z aksini topgan [2]. Ijtimoiy intellekt - bu shaxsning ijtimoiy-madaniy sharoitlar ta’siri jarayonida shakllangan aql-zakovatidir. G.Ayzenk kontseptsiyasining bir xususiyatini qayd etish kerak: ijtimoiy intellekt biologik va psixometrik razvedkadan ancha kengroqdir. G.Ayzenkning fikricha, ijtimoiy intellekt aqlning bir turi bo‘lib, uning shakllanishiga ijtimoiy muhit sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. G.Ayzenk kontseptsiyasi ijtimoiy intellekt umumiy intellektga unchalik bog‘liq emas degan xulosaga kelishga imkon beradi (chunki irsiy omil atigi 30% ahamiyatga ega). Bundan tashqari, ijtimoiy intellekt tashqi sotsial-madaniy sharoitlar ta’sirida umumiy intellektning rivojlanishi natijasidir (G.Ayzenk nuqtai nazaridan ijtimoiy muhit omillari 70% ahamiyatga ega). Shunday qilib, birinchi bosqichda ijtimoiy intellekt haqida aniq tushuncha mavjud emas, umumiy va ijtimoiy intellekt o‘rtasidagi munosabatlar aniqlanmagan va natijada ijtimoiy intellektning yagona tarkibiy modeli mavjud emas.

Ikkinchi bosqich 1949 yilda, Jorj Vashington ijtimoiy intellekt darajasini aniqlash uchun testni ishlab chiqqanida boshlanadi - bu insonning ijtimoiy intellektini o‘lchashning birinchi vositalaridan biri. Uning texnikasi ismlar va yuzlar uchun xotirani baholaydigan, inson xatti-harakatlarini aniqlaydigan, ijtimoiy vaziyatlarda tanqidiy qarorlarni baholaydigan va odamlarning ruhiy holatini aniqlaydigan bir nechta subtekstlardan iborat.

1967 yilda J. Gilford va M.Sullivan ijtimoiy intellektni o‘rganish uchun test ishlab chiqdilar. Ular buni umumiy intellekt omiliga bog‘liq bo‘lmagan va birinchi navbatda, xatti-harakatlar haqidagi bilimlar bilan bog‘liq bo‘lgan intellektual qobiliyatlar tizimi sifatida ko‘rib chiqdilar. Ijtimoiy intellektni o‘lchash imkoniyati J.Gilfordning shaxsning aqliy qobiliyatlarining nisbatan barqaror tuzilishi tushuniladi; tegishli vazifalarni yengish, ijtimoiy-madaniy hayotga samarali qo‘shilish va muvaffaqiyatli moslashish qobiliyati tuzilishining umumiy modelidan kelib chiqqan. Uning kontseptsiyasiga ko‘ra, ijtimoiy intellekt - bu muloqot va ijtimoiy moslashuv muvaffaqiyatini belgilovchi shaxsning ajralmas, intellektual qobiliyatidir.[5]

Ijtimoiy intellekt ijtimoiy obyektlarni aks ettirish bilan bog‘liq kognitiv jarayonlarni birlashtiradi va tartibga soladi. Uni shakllantiruvchi jarayonlarga ijtimoiy sezgirlik, ijtimoiy idrok, ijtimoiy xotira va ijtimoiy tafakkur kiradi.

Ushakovning so‘zlariga ko‘ra, ijtimoiy intellektni aniqlash, tushuntirish va diagnostika qilish bo‘yicha barcha xilma-xil yondashuvlarni uchta variantga qisqartirish mumkin:

1. Ijtimoiy intellekt qolganlardan farq qiladigan maxsus qobiliyatdir.
2. Ijtimoiy intellekt - ijtimoiy kompetensiya, hayot davomida egallangan bilim,

ko'nikma va malakalar tizimi.

3. Ijtimoiy intellekt - bu ijtimoiy o'zaro ta'sirning muvaffaqiyatini belgilaydigan shaxsiy xususiyatdir. Hozirgi vaqtda "ijtimoiy intellekt" tushunchasi va uni tashxislash muammosi tadqiqotchilar va amaliyotchilarning e'tiborini tortmoqda. Kasbiy faoliyatdagi muvaffaqiyat ijtimoiy intellekt bilan bog'liq (birinchi navbatda, odamlar bilan o'zaro munosabatlar kichik ahamiyatga ega bo'lmagan faoliyatda ijtimoiy intellekt ijodkorlikning tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi (g'oyani ilgari surish qobiliyati sifatida).

D.V.Ushakov ijtimoiy intellektning bir qator xarakterli strukturaviy xususiyatlarini belgilaydi:

uzluksiz xarakter;

og'zaki bo'lmagan tasvirlashdan foydalanish;

og'zaki nutqda ijtimoiy baholashning aniqligini yo'qotish;

yashirin ta'lim jarayonida shakllantirish;

"ichki tajriba"dan foydalanish.

"Ijtimoiy intellekt - bu ijtimoiy ko'nikmalar va malakalarning tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan, ammo ularni tugatmaydigan ijtimoiy hodisalarni tushunish qobiliyatidir". Ya'ni, bu insonning jamiyatda muvaffaqiyatli ishlashiga va muayyan faoliyatdagi samaradorligiga yordam beradigan qobiliyatlardan faqat bittasidir. Strukturaviy-dinamik nazariya doirasida ijtimoiy intellekt boshqa intellekt turlari kabi bir xil "shakllanish salohiyatidan" foydalanadi. Aynan shu taxmin D.V. Ushakov empirik tadqiqotlar doirasida tekshirilishi mumkin bo'lgan gipotezalarni ilgari surdi: agar shakllanish potentsiali bir xil bo'lsa, u holda ijtimoiy intellekt va aqlning boshqa turlari o'rtasidagi bog'liqlik mavjud bo'lishi mumkin yoki bo'lmasligi mumkin. [3]

Ijtimoiy intellektni tahlil qilish kontekstida xorijiy ijtimoiy fanlarda ishlab chiqilgan atribut nazariyalari muhim o'rin egallaydi.

Shuni ta'kidlash mumkinki, bu jarayon ijtimoiy moslashishni, ijtimoiylashuv jarayonida moslashishni ta'minlaydi, chunki u o'z xatti-harakatlari va boshqalarning xatti-harakatlari oqibatlarini oldindan ko'rishga imkon beradi va ijtimoiy intellektning rivojlanish darajasining ko'rsatkichidir. Ijtimoiy rolni qabul qilish nazariyasini ishlab chiqqan R.Selmanning ijtimoiy bilish modeli katta qiziqish uyg'otadi. Ijtimoiy rolni qabul qilish orqali u o'ziga ham, boshqa odamlarga ham subyekt sifatida munosabatda bo'lish, boshqalarning harakatlariga o'zinikidek munosabatda bo'lish va o'z xatti-harakatlarini nuqtai nazardan ko'rib chiqish qobiliyatini rivojlantirishni tushundi. Muallif ijtimoiy intellekt rivojlanishining beshta asosiy bosqichini belgilab bergan. Ijtimoiy intellekt, uning tushunchasiga ko'ra, insonni ijtimoiy voqelikka yo'naltirishni ta'minlaydigan psixikaning "quroli"dir.[4]

Bir qancha ilmiy tadqiqotlarni o'rganish natijasida, ijtimoiy intellektning inson hayoti va kasbiy muvaffaqiyatga erishishidagi ahamiyati muhim degan qarorga keldik.

Bo'lajak harbiy psixologning kasbiy faoliyatini ta'minlash muammosini ushbu faoliyatning muvaffaqiyatiga ta'sir qiluvchi psixologik omillarni tahlil qilmasdan hal qilish juda qiyin. Bugungi kunda yurtimizda harbiy psixologiyada harbiy psixologning kasbiy faoliyatida muvaffaqiyat omillari o'rganilmagan. Ushbu muammo bo'yicha ilmiy asoslangan ma'lumotlarning yetishmasligi bo'lajak harbiy psixologlarning professional muvaffaqiyatini aniqlash va qo'llab-quvvatlash uchun tegishli chora-

tadbirlarni ishlab chiqishni qiyinlashtiradi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, harbiylik kasbi eng sharafligi, shu bilan birga stressga ko'p duch keladigan kasblardan biridir. Stressli vaziyatlarda hamkasblariga psixologik konsultatsiya, psixologik tashxis, psixologik maslahat, psixologik korreksiya o'tkazishi lozim bo'lgan harbiy psixologlar o'z faoliyatini qoniqarli amalga oshira olishi barobarida, o'zining psixologik salomatligini asray olishi uchun ham, bo'lajak harbiy psixologning ijtimoiy intellektining rivojlanish darajasi yuqori bo'lishi lozim. Demak, bo'lajak milliy harbiy psixologning ijtimoiy intellektining rivojlanish darajasini aniqlash, zarurat bo'lganda ularning ijtimoiy intellektini rivojlantirish uchun zaruriy choralarni ko'rish bugungi kun olimlarining dolzarb vazifalaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Стенберг Р.Дж., Б.Форсайт Дж., Хедланд Дж., и др. Практический интеллект. / - СПб.: Питер, 2002. - с.7980.
2. Матвеева Л.Г. Анализ понятия «Социальный интеллект» Вестник ЮУрГУ, № 33, 2008 УДК 159.9.016.2 ББК Ю937+Ю95.
3. Андреева, Г. М. Психология социального познания / Г. М. Андреева. - М.: Аспект Пресс, 1997.-239 с.
4. Райс Ф., Психология подросткового и юношеского возраста / Ф. Райс. СПб.Питер, 2000.-616 с.
5. Gilford J.P. The nature of human intelligence. -N.Y., 1967. P.341.
6. Кудинова Б., Вотчин И.С. Раздел психологические исследования УДК 159.95 + 159.923И. социальный интеллект как предмет исследования.
7. Мачнев В.Я., Чердымова Е.И., Социальный и моциональный интеллект Монография. Самара Издательство Самарского университета 2022 УДК 316.47 ББК 67.4 М-376
8. Gilford J.P. The nature of human intelligence. -N.Y., 1967. P.341.
9. Valiyeva M.S. The Problem of Social Intelligence Research American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education Volume 01, Issue 10, 2023 ISSN (E): 2993-2769.

ҲАРБИЙ ПСИХОЛОГИЯНИНГ ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ

*Хаитов Бахтиёр Омонович –
ЎР ҚҚ КМТМ Радиацион, кимёвий ва биологик
муҳофаза цикли бошлиғи, подполковник*

*Одилов Нодир Музаффарович –
ЎР ҚҚ КМТМ Радиацион, кимёвий ва биологик
муҳофаза цикли катта ўқитувчиси*

Аннотация. Мазкур мақолада ҳарбий психологиянинг тарихий шаклланиши ҳамда замонавий фан тармоғи сифатида ривожланиши босқичлари, унинг вазифалари ва тузилиши, шунингдек ҳарбий таълим муассасаларида психологик фанларни жорий этишининг муаммо ва истиқболлари

ёритилган. Илмий истеъмолга киритилмаган бир қанча психологик манбалар асосида ҳарбий психологиянинг мустақил фан сифатидаги асосий йўналишлари ва истиқболдаги муаммолари таҳлил қилинди

Калит сўзлар: *Ҳарбий жамоа, психология, ахлоқий-психологик тайёргарлик, инсон психикасини кучайтириш, илмий психологик билимлар, ҳарбий психология, ҳарбий хизматчи шахси психологияси, армияда гуруҳ ва шахслараро муносабатлар психологияси, тинчлик пайтида ҳарбий фаолият психологияси, ҳарбий интизом психологияси, жанг ва уруш психологияси.*

Уруш ва тинчлик каби инсоният олдида турган глобал муаммони ҳал этиш зарур бўлиб турган бугунги таҳликали замонда Ватанимизнинг тинчлиги, осойишталигини таъминлаш Ўзбекистон Республикаси Мудофаа вазирлиги ҳарбий қисм ва бўлинмалари шахсий таркибининг, қолаверса ҳар бир фуқаронинг муқаддас бурчидир. Мудофаа ва хавфсизлик соҳасида амалга оширилаётган ишлар Ватан ҳимояси, юрт тинчлиги ҳамда давлатимиз истиқболи учун жонкуяр, фидокор, ватанпарвар, виждонли ҳамда ўз хизмат бурчини сидқидилдан бажарадиган хизматчиларни етиштириш вазифасини кўймоқда. Бу каби мақсадларни самарали амалга оширишда инсоннинг ички дунёси, унинг руҳиятини ҳар томонлама ўрганувчи психология фанининг аҳамияти бениҳоя каттадир. Таъкидлаш жоизки, бугунги кунда ижтимоий ҳаётнинг барча соҳаларида психологиянинг аҳамияти тобора ортиб бормоқда. Ҳарбий таълим соҳаси ҳам бундан мустасно эмас.

Психологик билимлар билан қуролланиш ҳарбий хизматчилар ҳаётида муҳим аҳамият касб этади. Барчага маълумки, инсон зоти бутун ҳаёти давомида асосан муайян муаммоларни ечиш билан овора бўлади. Эҳтиёж бор жойда ўз-ўзидан турли-туман муаммолар келиб чиқади. Каттаю-кичик турли муаммолар инсонни бутун умри давомида таъқиб этади. Оддий қилиб айтганда, ҳаёт бу – муаммоларни ечиб бориш жараёнидир. Тан олиш керакки, муаммоларнинг катта бир қисми инсонларни бир-бирларини тушунмасликлари оқибатида вужудга келади. Ота ўғлини, командир қўл остидаги аскарни, раҳбар ходимни ёки аксинча, ўғил отани, аскар командирни, ходим эса раҳбарни тушунмаса ўзаро хусумат, хафагарчилик, кек, ҳаттоки ўз жонига қасд қилиш кабилар билан бирга иш самарадорлигини пасайиб кетиши каби муаммолар вужудга келади. Ҳарбий соҳа ходимлари бир-бирларини яхши тушунишлари учун руҳиятнинг таркибий қисмларини билишлари керак бўлади. Яъни ҳарбий жамоада ёки бошқа бир гуруҳда инсонлар бир-бирларини ижобий тушунишлари учун улар ҳаётий ҳамда илмий психологик билимлар билан маълум маънода қуролланишлари лозим. Шундагина пайдо бўлиши мумкин бўлган муаммоларни миқдорини камайтириш имкони туғилади.

Психологик билимлар билан қуролланишнинг яна бир аҳамиятли томони шундаки, ҳарбий соҳа ходими ўз ишининг сифати ва самарадорлигини ошириши учун ўзининг имкониятларини билиш билан бирга ўзгаларнинг имкониятлари ҳамда хатти-ҳаракатларини башорат қила рали шакллари ва методларини татбиқ этиш, илғор педагогик технологиялардан фойдаланиш, самарали методик ҳамда моддий-техник базаси зарур. олиш қобилиятига эга бўлиши лозим. Бундай

мақсадлар эса психологик билимларни талаб этади. Барчага маълумки, агар инсон яшаб турган ҳаётдан нимани хоҳлаётганлигини аниқ билмаса муайян муаммоларга дуч келади. Инсон ўзининг руҳий имкониятларини тўғри баҳолай олган тақдирдагина ҳаётда муваффақиятга эришиши мумкин. Ўзининг психологик имкониятларига тўғри баҳо бера олмайдиган ҳамда ўзини етарли даражада тушунмайдиган инсон ҳаётда кетма-кет хатоларга йўл қўяди. Баркамоллик томон интилаётган инсон психологик жиҳатдан доимо ўзининг имкониятлари, ютуқлари ва камчиликларини билиб юриши керак бўлади.

Аниқроқ қилиб айтганда, инсон ўзини шахс сифатида тавсифлай олиш қобилиятига эга бўлган пайтдан бошлаб унда камолот сари қадам ташлаш имконияти пайдо бўлади. Юқоридаги мақсад ва вазифаларни амалга ошириш учун психологияни билимлар тизими сифатида ўзлаштириш катта назарий ва амалий ёрдам бўлиши шубҳасиздир. Психологиянинг энг аҳамиятли томони шундаки, психологик билимларни тизимли равишда ўзлаштирган инсон ўз ўзини англай бошлайди, ютуқ ва камчиликларини таҳлил қилади ҳамда зарурий ҳолларда уларга муайян ўзгартиришлар киритади. Психологик билимларни ўзлаштириш командирларга қўл остидаги ҳарбий хизматчининг ички дунёсида нималар кечаётганлигини яхшироқ тушуниш, “кўнглига қўл солиш” ҳамда унинг психик ривожланишида кўриниб турган камчиликларни тузатиш учун ниҳоятда зарурдир. Шунингдек, психологик билимларни тизимли равишда ўзлаштириш самарали муомала ва мулоқот ўрнатиш йўлида инсонларнинг кайфияти, феъл-атвори, руҳий имкониятлари, диди, қизиқишлари, ютуқ ва камчиликлари билан ҳисоблашишда кўмакчи вазифасини ўташи мумкин.

Психологияни ўрганиш ҳарбий хизматчига ақлий салоҳиятни ўстириш, хотирани кучайтириш, диққат кучини ошириш, ижодкорлик қобилиятларини ривожлантириш ҳамда янги билим ва кўникмаларни тез ва осон ўзлаштириш имконини беради. Муайян психологик билимларга эга бўлган инсон ўз фикрмулоҳазаларини бошқаларга қараганда нутқда тўғри ифодалай олади ҳамда ўзгаларнинг нутқини тўғри тушуна олади; ўзининг ақл-идроқини, психик жараёнларини пухта билиб олади ҳамда уларга эътиборини қаратади; ақлий фаолиятни ҳамда психик жараёнларни кучайтирувчи йўللарни билиб олади ва ўз руҳиятини тизимли равишда тарбиялаб, тоблаб, шакллантириб боради.

Бизга маълумки, ҳар бир инсон ўзи яшаб турган олам ва ҳаёт ҳақида муайян бир билимларга эгадир. Инсонлар умри давомида тўплаган билимларига кўра “ақлли”, “ақлсиз”, “билимли”, “билимсиз” “қобилиятли” ёки “қобилиятсиз” каби турли сифат ва даражаларга бўлинадилар. Ҳарбий хизматчи ўз касбининг ҳақиқий эгаси бўлиши учун ўзини қуршаб турган атроф-муҳит ҳақида билим ва тасаввурга эга бўлиши шартдир. Олам ва одам, табиат ва жамият ҳамда фазо ҳақидаги билимлар инсон психикасининг муҳим шакли бўлган билиш жараёнлари ёрдамида тўпланади ва ривожланади.

Ҳарбий хизматчилар самарали фаолият олиб боришлари учун уларнинг психикаси, биринчи ўринда психологик билиш жараёнлари ҳар томонлама кучли бўлиши керак. Психикаси мустаҳкам ва

мусаффо бўлган одам ҳар қандай қийин, экстремал ҳолатлардан осонликча, безарар чиқиб кета олади. Психикаси кучли бўлган ҳарбий хизматчи ҳарбий

ҳаракатлар давомида ўзини дадил тутади, Ватанни ишончли ҳимоя қила олади. Шунинг учун ҳам, шахсий таркибнинг ахлоқий-психологик тайёргарлигида “инсон психикасини кучайтириш” муҳим аҳамиятга эга бўлган тадбирлар сирасига киради.

Шахсий таркибни илмий психологик билимлар билан қуроллантириш АҚШ, Буюк Британия, Россия, Франция, Исроил ва бошқа жаҳоннинг кўплаб ривожланган ва ривожланаётган давлатларда йўлга қўйилган. Бунда ҳарбий психология фанининг аҳамияти каттадир.

XIX аср охири ва XX аср бошларида Россияда ҳарбий психология билан самарали шуғулланган тадқиқотчилардан бири Г.Е.Шумков ўша даврларда аскарларнинг тарбияси ҳамда жанговар ҳолатларга тайёргарлиги илмий психологик билимларга асосланган қатъий тизим асосида ўтказилиши шарт деб ҳисоблаган [4]. Ҳарбий психология – ҳарбий хизматчи ва ҳарбий жамоаларнинг ички дунёси ҳамда аскарнинг психик ривожланиш қонуниятларини ўрганадиган психологиянинг алоҳида тармоғи.

Ҳарбий психология фани қуйидаги 5 йўналиш бўйича ўрган илади:

1. Ҳарбий хизматчи шахси психологияси;
2. Армияда гуруҳ ва шахслараро муносабатлар психологияси;
3. Тинчлик пайтида ҳарбий фаолият психологияси;
4. Ҳарбий интизом психологияси;
5. Жанг ва уруш психологияси.

Ҳарбий хизматчи шахси психологияси. Мазкур йўналиш ҳарбий хизматчининг психикаси ва ҳуқ-атворини ҳарбий иш самарадорлигини ошириш ҳамда салбий ҳолатларни олдини олиш мақсадида ўрганиш учун мўлжалланган. Аскарни руҳий-маънавий жиҳатдан бақувват, билимли ҳамда соҳасининг профессионали қилиб тарбиялаш мақсадида командирлар уларнинг психик дунёсини ўрганиб олишлари керак бўлади. Бундай даражага ҳарбий хизматчининг ўзи ҳам ўз-ўзини кузатиш, ўрганиш ва мустақил тарбия натижасида эришиши мумкин.

Армияда гуруҳ ва шахслараро муносабатлар психологияси. Ҳарбий жамоа орасида жанговар ўртоқлик ҳамда елкадошликни шакллантириш, жамоада рўй бериши мумкин бўлган зиддиятларни бартараф қилиш, жамоани психологик жиҳатдан тўғри шакллантириш кабилар мазкур йўналишнинг бош мақсадидир.

Тинчлик пайтида ҳарбий фаолият психологияси. Маълумки, тинчлик пайтида шахсий таркиб асосан ўқув, маиший ҳамда ҳар кунги хизмат фаолияти билан шуғулланадилар. Жанговар, жисмоний, саф, маънавий-маърифий ҳамда мутахассислик бўйича билим, кўникма ва малакаларни ошириш ҳарбий хизматчиларнинг тинчлик пайтида бажариши лозим бўлган асосий вазифасидир. Таълим мобайнида юзага келиши мумкин бўлган психологик муаммоларни бртараф этиш, шунингдек таълим сифати ва самарадорлигини оширишнинг психологик қонуниятларини ишлаб чиқиш ушбу йўналишнинг тадқиқот доирасига киради.

Ҳарбий интизом психологияси. Ҳарбий интизомни психологик жиҳатдан таҳлил қилиш, интизомни мустаҳкамлаш мақсадида психологик усулларни ишлаб чиқиш кабилар ҳарбий интизом психологиясида кўриб чиқилади. Жанг ва

уруш психологияси. Аскарда реал ҳарбий ҳаракатлар жараёнида кечадиган руҳий ҳодисаларни ўрганиш, ҳарбий хизматчиларга руҳий барқарорликни сақлай олишнинг психологик усуллари ўргатиш, жанг шароитларида бошқарувнинг психологик асосларини ишлаб чиқиш кабилар жанг ва уруш психологиясининг вазифасидир. Ҳарбий психологиянинг тадқиқот доираси ҳарбий-профессионал фаолиятнинг турли шароитларида ҳарбий хизматчи психикасининг намоён бўлиши хусусиятлари ҳамда ҳарбий жамоаларга хос психологик жараёнлар, ҳолатлар ва хусусиятларни ташкил этади [3].

Ҳарбий психология психологиянинг алоҳида тармоғи сифатида XX аср бошларида шаклланди. Шунинг алоҳида таъкидлаб ўтиш керакки, давлатчилик пайдо бўлиб ҳар бир мамлакат ўз армиясига эга бўлганидан кейин давлат ва армия бошлиқлари ўз армиясини ҳар томонлама ривожлантириш масаласига жиддий эътибор қаратганлар. Табиийки, ўтмишдаги Куролли Кучлар билан замонавий армия ўртасида каттагина фарқ бор. Ўз аскарларини жанг майдонига олиб чиққан саркардалар жанг олдида аскарларини руҳлантириш мақсадида турли усуллардан фойдаланганлар. Масалан, бош саркарданинг жанг олдида сўзлаган нутқининг таъсирчанлик даражаси бутун жанг давомида аскарларнинг жанговар руҳини кўтаринкилик ҳолатида бўлишини таъминлаб берган. Искандар Зулқарнайн, Цезарь, Аттила, Чингизхон, Жалолоддин Мангуберди, Соҳибқирон Амир Темур, А.В.Суворов, Наполеон Бонапарт ва бошқа номи улуғ саркардалар ўз аскарларини руҳлантириш масаласига катта эътибор қаратганлар. Улар кўп ҳолларда аскарларнинг кайфияти ҳамда эҳтиёжлари билан ҳисоблашганлар. Буюк қомусий олим Арастунинг буюк шогирди, машҳур лашкарбоши Искандар Зулқарнайн ҳар доим жангларга таъсир этадиган ижтимоий-психологик омилларни ҳисобга олган. У биринчилардан бўлиб жанг давомида чекинишга тушган кўшиннинг бир қисми кўшиннинг бошқа қисмини ҳам ваҳимага солиб кўйишини, яъни жангдаги ваҳима тарқалиш хусусиятига эга эканлигини тушуниб етган ва бунга қарши чора қўллашга ҳаракат қилган. Искандар Зулқарнайн саркарданинг ўз аскарларига психологик таъсир ўткази олиш орқали обрў орттириши нақадар муҳим эканлигини ҳам тушунган. Масалан, кўшин сувсизликдан азоб чекаётган бир пайтда ҳукмдорга кўзада қимматли сувни таклиф қилишганида, у аскарлар олдида сувни тўкиб ташлаган ва шу тариқа оддий жангчилар билан елкадош эканлигини намоён қилган. Соҳибқирон Амир Темур ҳам шахсий таркиб орасидан мард, тадбиркор, ақлли аскарларни доимо танлаб олиб уларга ҳар томонлама ёрдам кўрсатган ва ўстирган. Кейинчалик ижтимоий-иқтисодий ҳаётнинг ривожланиши ҳамда янги ерларнинг очилиши дунёни бўлиб олиш, мустамлакаларни кўпайтиришга бўлган интилишларга асос бўлиб хизмат қилди.

Биринчи жаҳон урушининг (1914-1918) сабаби ҳам айнан дунёни жуғрофий жиҳатдан бўлиб олиш мақсадида бошланди. XX аср бошларида армияда шахсий таркибда аскарларни танлаб олиш, ўқитиш ва тақсимлаш мақсадида оммавий тадқиқотлар ўтказилган. 2-жаҳон уруши (1939-1945)дан кейин, АҚШда ҳарбий психология бўйича олиб борилаётган тадқиқотлар кучайиб кетди. Бундай тадқиқотлар фақатгина ҳарбий муассасаларни ўзидагина эмас, балки турли психология институтлари билан шартнома асосида ҳам

ўтказилар эди.

Бугунги кунда АҚШда 100га яқин илмийтадқиқот марказлари ҳарбий-сиёсий ва психологик тадқиқотлар билан шуғулланмоқда. АҚШ Куролли Кучларида минглаб дипломли психолог мутахассислари фаолият олиб боради, ҳар йили юзлаб янги мутахассислар хизматга олинади. Инсон омили АҚШда олиб борилаётган ҳарбийпсихологик тадқиқотларда энг устувор йўналишлардан бири ҳисобланади. Мазкур йўналиш рамкасида ҳарбий жамоаларда лидерлик муаммоси фаол равишда тадқиқ этилмоқда (Стогдилл, Холландер, Басс, Хэврон, Мак-Грат, Фидлер, Гуцкоу ва бошқалар) [2].

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Насриддинов Ч.Р. Ҳарбий психология. Т.: “Фан”, 2004.
2. Под редакцией Р.А.Абдурахманова. Военная психология. Методология, теория, практика. Москва, военный университет, 1996.
3. Под редакцией А.Г.Маклакова. Военная психология: учебник для вузов. Санкт-Петербург, 2005.
4. Шумков Г.Е. Психика бойцов во время сражений. - СПб., 1905.- С.13.
5. Щербатых Ю.В. Общая психология. СПб.: Питер, 2008ю
6. Majidov, J. (2020). Профессионал футбол жамоаларида “тренер–спортчи” тизимидаги муносабатларнинг ўзига хос хусусиятлари. Архив Научных Публикаций JSPI.
7. Majidov, J., & Majidova, G. (2020). Shaxs ijtimoiy taraqqiyotida oila muhitining o'rni. Архив Научных Публикаций JSPI.

ICHKI ISHLAR XODIMLARIDA KASBIY SARALASH MUAMMOSINING IJTIMOY-PSIXOLOGIK ASOSLARI

*Xo'janov Zavqiddin Murodinovich –
Qashqadaryo viloyati IIB boshlig'ining o'rinbosari,
ilmiy izlanuvchi, podpolkovnik*

Yangi O'zbekistonda ichki ishlar sohasida sohasida qator tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Ichki ishlar vazirligi strategik yo'nalishlarini belgilab olishda ichki ishlar organlari xizmatini yuksak ma'naviyatli kadrlar bilan ta'minlanishiga alohida urg'u berildi. Ichki ishlar organlari xodimi kasbiy faoliyatining murakkab xarakteri uning siyosiy salohiyati, ichki ishlar qonunchiligini chuqur bilishi, davlat ichki sarhadida ichki ishlar organlariga doir tadbirlarni amalga oshirish ko'nikmasi va malakasiga egaligi, ichki ishlar qoidalarini buzuvchi shaxslar xatti-harakatlarini oldindan sezishga qodirligi, kasbiy mas'uliyati bilan izohlanadi. Shu jihatdan “Ichki ishlar organlari tizimiga nomzodlarni kasbiy saralashning ijtimoiy-psixologik omillari”ni amaliy o'rganish muhim o'rin egallaydi.

Tadqiqotni amalga oshirishda quyidagi vazifalarni belgilab olish o'rinli hisoblanadi:

kasbiy saralash muammosining ijtimoiy-psixologik tabiati va mazmun-mohiyati hamda kasbiy saralash borasida zamonaviy psixologik qarashlar tahlilini aniqlashtirish;

bo'lajak ichki ishlar xodimlarida kasbiy saralash orqali ularda namoyon bo'luvchi ijtimoiy-psixologik sifatlarni asoslash;

ichki ishlar organlari tizimiga nomzodlarni kasbiy saralashda irodaviy sifatlarning o'ziga xosligini tahlil qilish;

bo'lg'usi ichki ishlar xodimlarini kasbiy saralashda yetakchi ijtimoiy-psixologik xususiyatlarning ahamiyatini aniqlash, umumiy xulosa hamda taklif-tavsiyalar ishlab chiqish.

Kasbiy saralashning natijasi eng munosib xodimni tanlash bo'lishi kerak (ya'ni, eng yaxshi emas, balki ushbu faoliyat uchun eng professional darajada mos). "Kasbiy tanlov" va "psixologik tanlov" tushunchalari ko'pincha aniqlanadi, chunki. ikkinchisining mohiyati qobiliyatlarni tashxislash va bashorat qilishdir. Psixologik kasbiy tanlovning asosiy bosqichlari:

zarur dastlabki diagnostika ma'lumotlarini olish va birlamchi qayta ishlash;

kasbiy faoliyatning ushbu turi uchun qobiliyat prognozlarini shakllantirish va subyektning kutilayotgan yaroqlilik darajasini baholash;

tanlangan shaxslarning kasbiy faoliyatining haqiqiy samaradorligi to'g'risidagi ma'lumotlarga asoslangan prognozlarni tekshirish.

Psixologik kasbiy saralash tizimi maxsus diagnostika usullari, texnik vositalar va standartlashtirilgan protseduralar majmuasini o'z ichiga oladi. Shuningdek, olingan diagnostika ma'lumotlarini umumlashtirish, talqin qilish va faoliyat muvaffaqiyatini prognozlash usullari qo'llaniladi. Psixologik kasbiy saralashning amaliy maqsadga muvofiqligini belgilovchi shart uning ijtimoiy-iqtisodiy asoslanishi, oqilona va tasdiqlangan tanlov tizimi va tajribali diagnostikaning mavjudligi isbotidir[1,270].

Bo'lajak ichki ishlar xodimlarini kasbiy saralashni psixologik tekshirishga qaratilgan ko'plab metodikalar ishlab chiqilgan bo'lib, ular harbiy xizmatchi shaxsining turli qirralarini ochib berishga, ilmiy xulosalar olishga xizmat qiladi. Jumladan, L.A.Vereshchagina tomonidan ishlab chiqilgan harbiy-kasbiy motivatsiya darajasini aniqlash metodikasida bo'lajak harbiy xizmatchilarning kasbiy saralash jarayonida kasbga bo'lgan motivatsiyasini o'rganishga imkon beradi, bu esa o'quv, harbiy-kasbiy faoliyatning muvaffaqiyatiga katta ta'sir ko'rsatadi. Bo'lajak nomzodlarni hozirgi o'quv faoliyati samaradorligi, shuningdek, kelajakda ularning harbiy kasbiy salohiyatini ro'yobga chiqarish harbiy kasbiy motivlarning jiddiyligiga bog'liq. Ushbu metodikaning maqsadi harbiy kasbiy faoliyat motivlarini o'rganishdir. Muallif motivlarning to'rtta asosiy guruhini ajratib ko'rsatadi[2,11]:

faoliyat motivlari;

mehnatning ijtimoiy ahamiyatini belgilovchi motivlari;

ishda o'zini-o'zi tasdiqlash motivlari;

harbiy-kasbiy mahorat motivlari .

Mazkur soha shakllanishining yangi sifat bosqichi 1960-1970 yillarda sodir bo'ldi. Bunda odamlarning kasbiy faoliyati umumiy emas, balki maxsus jihatlari o'rganishga o'tildi. V.A.Bodrov kasbga yaroqlilik vazifalarini "odam-kasb" tizimi kontekstida hal qilishni taklif qiladi, ya'ni odamni kasb bilan bir qatorda, uning qo'shimchasi sifatida emas, balki uning ajralmas bo'lagi sifatida ko'rib chiqishni taklif qiladi[3,42].

Kasbiy saralash – bu individual shaxsiy fazilatlariga ko'ra ma'lum bir

mutaxassislik bo'yicha o'qitish va keyingi kasbiy faoliyat uchun eng mos bo'lgan insonlarni aniqlashga imkon beradigan tadbirlar tizimidir[4,32].

Kasbiy saralashda kasbiy yaroqlilik bir nechta mezonlarga ko'ra baholanishi mumkin:

tibbiy ko'rsatkichlar bo'yicha (asab tizimining holati, eshitish, ko'rish, yurak-qon tomir va nafas olish tizimlari va boshqalar);

ta'lim malakasi bo'yicha tanlash bilimlari ushbu kasbiy vazifalarni muvaffaqiyatli o'zlashtirish yoki bajarishni ta'minlaydigan shaxslarni aniqlashga qaratilgan;

psixologik tanlov o'z qobiliyatlari va individual psixofiziologik imkoniyatlari nuqtayi nazaridan faoliyatning o'ziga xos xususiyatlariga qo'yiladigan talablarga javob beradigan shaxslarni aniqlash uchun mo'ljallangan[5,351].

Kasbiy saralash – bu maxsus tashkil etilgan tadqiqot jarayoni bo'lib, uning maqsadi ilmiy asoslangan usullardan foydalangan holda abituriyentlarning murakkab, mas'uliyatli kasblarga o'qishga yoki egallashga tibbiy, psixologik va ijtimoiy-psixologik muvofiqligini shakllantirish darajasi va imkoniyatlarini aniqlash va aniqlashdan iborat. tegishli bo'sh ish o'rinlari va shunga asoslanib, kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan yuqori darajadagi (baho) va ularning rivojlanishi uchun qulay istiqbolga ega bo'lgan va shuning uchun u yoki bu mehnat turiga nisbatan potensial foydaliroq ishchilar sifatida ko'rib chiqilishi mumkin bo'lganlarga imtiyozlar berish[6,39].

Umuman olganda, kasbiy psixologik saralash – bu ko'rib chiqilayotgan talabgorlarning kasbiy muhim ijtimoiy-psixologik, psixologik va psixofiziologik fazilatlarini kasbiy lavozim talablariga javob berishini ta'minlashga asoslangan saralash bilan bog'liq chora-tadbirlar majmuidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Березин Ф.Б. Психическая и психологическая адаптация человека. Монография. Д.: Наука, 1988, с. 270.

2. Петрова М.Ю. Социально-психологические особенности развития военно-профессиональной направленности курсантов // ВА Ракетных войск стратегического назначения им. Петра Великого. - 2007. – С. 11.

3. Бодров В.А. Психология профессиональной пригодности. М.: Пер С, 2001, с.42.

4. Вахов В.П. Уточнение понятий психической адаптации и дезадаптации в условиях активной психопрофилактики // Российский психиатрический журн., 1997, № 1, с. 32-35.

5. Бодров В.А. Психология профессиональной пригодности. – М.: ПЕР СЭ, 2001. – с. 351.

6. Войтко В.И. Научно-техническая революция и проблема социализации личности в социалистическом обществе. // Актуальные проблемы социализации личности в условиях научно-технического прогресса. Киев, 1975, с. 39.

ОСНОВНЫЕ ФАКТОРЫ, ОБЕСПЕЧИВАЮЩИЕ РАЗВИТИЕ ПОТЕНЦИАЛА МОЛОДЕЖИ

*Худайбердиева Х.К. – Научный сотрудник
Каршинского государственного университета*

Аннотация. В данной статье изложены гипотезы, теории и пути осуществления благоприятной социальной среды для развития природных сил, умственных способностей и способностей как таковых.

Ключевые слова: фактор, способности, мозг, особенность, талант, гипотеза нервная система.

Abstract. This article outlines hypotheses, theories and ways to implement favorable social environment for the development of natural capacity, mental abilities and skills.

Key words: factor, abilities, brain, peculiarity, talent, hypothesis, nervous system.

Как правило, способности не даны человеку врожденно готовыми от природы, как и все индивидуально-психологические характеристики человека, а формируются в течение жизни и в процессе деятельности. Научная психология отвергает теорию врожденности способностей и наносит жестокий удар представлениям о том, что способности человека predetermined неизвестными природными факторами.

Следует отметить, что отрицание врожденности способностей не является абсолютным. Но не признавать, что способности являются врожденными, - это не то же самое, что отрицать врожденность дифференциальных особенностей, связанных со структурой мозга. А способности играют важную роль в деятельности как естественная основа способностей. Под способностями понимаются морфологические и функциональные особенности строения мозга, органов чувств и движений, которые проявляются как исходное естественное условие развития способностей. Предложению врожденной способности соответствует тонкое обоняние, следовательно, особо высокая чувствительность когнитивных анализаторов. Если человек обладает определенными природными способностями, то развить применимые к нему способности относительно легко. Профессиональные способности людей являются продуктом развития их способностей. В связи с тем, что способности - многогранное психическое явление, в зависимости от характера требований деятельности на основе одних и тех же способностей развиваются разные способности.

О дефектах способностей имеется больше научной информации, чем о структуре и продуктивности способностей. В настоящее время можно задуматься о большей или меньшей продуктивности гипотезы о сущности исходных природных условий развития способностей. Согласно учению Ф.И.Галла, все способности, интеллектуальные и эмоциональные качества человека имеют свои фиксированные центры в полушариях головного мозга. По его мнению, кости

череп должны точно вписываться в углубления головного мозга. Галл составил специальную «френологическую» [с греческого — «учение о разуме»] карту мозга, на которой череп был разделен на 27 частей. Кажется, что каждое произведение обладает определенным психическим качеством. Также в современной психологии становится ясно, что гипотеза о том, что способности зависят от веса мозга, ошибочна. Предположение о том, что личность определяется количеством складок мозга, не подтвердилось.

Наиболее продуктивная гипотеза, появившаяся во второй половине XX в., — связь способностей с микроструктурой мозга и органов чувств. Предполагается, что исследование клеток головного мозга может выявить различия в морфологических и функциональных свойствах нервных клеток одаренного человека. Близка к реальности и гипотеза о связи способностей с некоторыми дифференциальными особенностями нервных процессов и видов высшей нервной деятельности.

Русский психолог Б. М. Теплов и его ученики попытались определить, появляются ли какие-то качественные особенности в структуре личности вследствие влияния особенностей типов высшей нервной деятельности. В частности, специфические ощущения нервной системы могут выступать мишенью определенной способности.

Выделенные особенности относятся к качествам и признакам общего типа высшей нервной деятельности. Но более высокую степень вероятности имеют гипотезы, связывающие естественные основы способностей с так называемыми парциальными [специфическими] свойствами нервной системы.

Естественное состояние способностей, то, что способность входит в состав свойств строения и функций нервной системы. Это явление, как и все морфологические и физиологические качества, доказывает справедливость гипотезы подчинения общим генетическим законам. Идея Ф. Гальтона [Англия] о законах наследственности не может раскрыть описание естественных обусловленных свойств, способностей, так как в ней много мест, нуждающихся в доказательствах.

Поэтому природу способности уместно искать не в биологической наследственности, а в передаче среды обитания из поколения в поколение. Если признать, что развитие человека регулируется социально-историческими законами, то не может быть и речи о том, что развитие способностей подчиняется законам биологической наследственности.

Исходя из изложенных соображений, способности и таланты зависят от определенной природной основы, но являются не только даром природы, но и бесценным [ценным] продуктом исторического развития человечества. По этой же причине проявление способностей напрямую зависит от очевидных способов приобретения индивидами социально обусловленных знаний и умений в процессе удовлетворения своих социальных потребностей. Поэтому важно подчеркнуть, что развитие навыков зависит от системы непрерывного образования.

Устойчивые, особые профессиональные интересы служат важным фактором и инструментом развития личных способностей. Особые интересы —

это личностное качество, внутренняя мотивация, движущая сила, состоящая из стремления к содержанию той или иной области [сети] человеческой деятельности. Такие особые интересы приводят к склонности заниматься различными видами деятельности, например, профессиональной подготовкой. Интерес к знаниям [внутреннее стремление к овладению основами науки] требует практического освоения способов деятельности и переноса в новые ситуации и условия, побуждает и помогает обеспечить в человеке самоконтроль.

Развитие способностей неразрывно связано с формированием личности, а развитие человека требует сочетания обоих факторов. Формирование талантливых школьников и студентов осуществляется на основе социальной среды, социальных институтов, основ духовности и самовыражения, самопознания, саморазвития, служит обычным социально-психологическим законом.

Русский психолог А.Г.Ковалев в своих исследованиях смог изучить природу способности и способы ее диагностики. По определению автора, под способностью следует понимать не отдельную характеристику, а совокупность или синтез характеристик, способных удовлетворить требования человеческой деятельности и обеспечить высокую результативность в этой деятельности. Он утверждает, что в структуре способности необходимо различать опорные и ведущие характеристики и, наконец, отдельные фоновые или вспомогательные характеристики. Для всех способностей основной, базовой характеристикой является способность наблюдать и видеть. Его ведущая черта – творческое воображение. К числу вспомогательных характеристик А. Г. Ковалев относит память [обладает специфической привычкой в соответствии с требованиями деятельности], эмоциональность, т. е. восприимчивость к чувствам [эта характеристика повышает активность человека].

Автор отмечает, что научная абстракция позволяет выделить два уровня способностей: уровень репродуктивной рефлексии. Человек, находящийся на первом уровне развития своих способностей, очень умело усваивает знания, усваивает деятельность и реализует ее на собственном примере. Человек на втором уровне сможет создать что-то новое. В науке психологии, когда речь идет о способностях, подчеркивают, что существуют три конкретных понятия. Согласно работе А.Г.Ковалева, один из них является биологически детерминированным, т. е. биологически связанным свойством человека, и объясняется тем, что реализация и развитие способностей зависит от генетического фонда. В 19 веке Ф. Гальтон, в XX веке Котс пришел к выводу, что талант передается по наследству, что только представители привилегированных классов обладают богатым генетическим наследием.

Представители второй концепции говорят, что способности полностью определяются социальными условиями жизни и воспитания. Например, Гельвеций в свое время говорил, что гения можно создать с помощью образования. Американский ученый У.Эшби говорит, что способности человека формируются стихийно и сознательно в процессе образования в течение его жизни, в результате чего создаются соответствующие предварительные планы и программы решения проблем. Физиологи отмечают, что при наличии

индивидуальных особенностей строения мозга такая ситуация не может отразиться на функциях мозга.

А.Г.Ковалев утверждает, что сторонники третьей концепции способностей находятся в более правильной позиции. Последняя теория утверждает, что должна существовать благоприятная социальная среда для развития природных сил, умственных способностей и способностей как таковых. Авторы отмечают, что психические цели следует понимать скорее психологически и физиологически, чем анатомически и физиологически. Интеллект проявляется в предпочтениях, любопытстве [общие способности], склонности и стремлении к определенной деятельности (специальные способности) или во всем. По мнению А.Г.Ковалева об Эдисоне [«если только 1% составляет генетическая основа, 99% должны быть потом и трудом»], все великие люди обладают большим трудолюбием, даже если нервная система от природы слаба. достижения обусловлены упорным трудом.

Способности проявляются только в деятельности, и то только в деятельности, которую невозможно осуществить без этих способностей. Способности не проявляются в самих знаниях, навыках и умениях, а проявляются в динамике их приобретения, то есть, иными словами, в том, насколько быстро, глубоко, легко и прочно происходит процесс приобретения важных для этой деятельности знаний и умений. осуществляется в разных равных условиях.

Список использованной литературы:

1. Голубева Э.А. Способности и индивидуальность. Москва, «Прометей», 1994.
2. Лейтес Н.С. Способности и одаренность в детские годы. М.: 1984.
3. Мерлин В.С. Структура личности. Характер, способности, самосознание. Пермь, 1990
4. Крутецкий В.Л. Психология математических способностей. М.: 1968.

ICHKI ISHLAR TIZIMI ORGANI RAHBARLARIDA SHAXSLARARO MUNOSABATLAR SHAKLLANISHI PSIXOLOGIK FENOMEN SIFATIDA

*Yakubov Sanjar Umarovich –
Samarqand viloyati IIB, Jismoniy va jangovar
tayyorgarlik bo‘lim boshlig‘i, psixologiya fanlari bo‘yicha
falsafa doktori (PhD), podpolkovnik*

Shaxslararo munosabatlar o‘ziga xos ijtimoiy hodisa sanalib, unda insonlar o‘tasidagi o‘zaro munosabatlar majmui mujassamdir. Qolaversa, shaxslararo munosabatlar tizimi butun insoniyat uchun hayot kechirishining zarur shartlaridan biri hisoblanadi. Ya’ni shaxslararo munosabatlarsiz hech bir inson, biror bir psixologik funksiyalarni yoki kognitiv amallarni bajara olishi mumkin emas. Tom ma’noda aytganda, shaxslararo munosabatlar - o‘zaro ta’sirlashuv usullari, hamkorlik

munosabatlari, do'stlik rishtalari, bir-birlarini o'zaro idrok etish tajribasi shuningdek, affektiv, vizual va lingvistik aloqa qilish usullari kabilarni xarakterlovchi tushunchadir. Garchi, ayrim psixologik lug'atlarda "munosabat" tushunchasi shaxslararo munosabatlar fenomeniga yaqin ishlatilsada biroq, birgina ushbu so'zning mazmuni, shaxslararo munosabatlar fenomenini yoritish uchun yetarli emas. Chunki, shaxslararo munosabatlar tizimi o'z mazmunida, insonlarga xos hissiy-irodaviy kechinmalar, shaxslarning jamiyat normalariga bo'lgan munosabatlari, o'zaro bilim alamashish ko'nikmalari hamda muloqot qilish kompetensiyalari kabilarni ham qamrab oladi.

Ichki ishlar tizimidagi rahbarlarning boshqaruv sohasidagi bilimlari, ko'nikmalari, fuqarolar bilan muloqot qilish uslubi, guruhsharoitda samarali ishlay olish qobiliyatlari, boshqalar bilan bo'ladigan empatik hamda antipatik munosabatlari, vaziyatlarda munosabat o'rnatish olish malakalari, o'zaro hamkorlik, do'stlik, fidoiylik, guruhsharoit jipslilik, muloqotmandlik, boshqalarni tinglay olish kabi qobiliyatlarning ijtimoiy-psixologik jihatlari, yaqin munosabatlar uchun shart sanalgan ijtimoiy-psixologik xususiyatlar, kirishimlilik, zamonaviy uchastka noziri va uning imiji, hamsuhbatdosh bo'la olish, ichki ishlar xodimi shaxsiga qo'yiladigan ijtimoiy-psixologik talablar, bir-birini to'g'ri idrok etish kabilarni "Munosabat", "Shaxslararo munosabatlar" tushunchalarida o'z aksini topgan.

Tadqiqotchi V.N.Kunitsinaning xulosalariga ko'ra, muloqot birgalikdagi faoliyatda odamlar o'rtasidagi munosabatlarning zaruriy shakli hisoblanadi. Muloqot jarayonida bir kishining ichki dunyosi boshqa insonga o'tadi yoki uning ma'naviy dunyosi boyitiladi[1, 94]. Demak, muloqot kishilar o'rtasida ma'naviy jihatdan, ehtiyojlar almashish vositasi ham hisobalanadi.

Ta'kidlash joizki, shaxslararo munosabatlar jarayonida idrok etish ham muhim ahamiyat kasb etib, fanda ushbu masalaga oid izlanishlar olib borgan L.Yu.Buxlinaning ta'rificha, shaxslararo munosabatlar – bu hissiy qabul qilish yoki hissiy idrok etish orqali namoyon bo'ladigan kishilarning birgalikdagi harakatlari mahsulidir[2, 161]. Ushbu mulohazalarga muvofiq, shaxslar o'rtasidagi munosabatlarni ijobiy, salbiy, befarq, qarama-qarshi, beqaror, o'zgaruvchan deb ajratish mumkin. Demak, har bir jamoada ma'naviy va psixologik iqlim bo'lishi kerak, u jamoada normal ishlashni ta'minlovchi asosiy omillardan biridir.

Tadqiqotchi T.V.Bendasning yozishicha, shaxslararo munosabatlarda etnik munosabatlar ham farqlanib, u etnik me'yorlarga munosabat, etnik xulq-tvoriga munosabat, diniy e'tiqodga munosabat, urf-odatlar va marosimlarga bo'lgan oqilona munosabatlarda o'z aksini topadi[3, 53]. Shu bois, mazkur omillar orqali millatlar o'rtasida tinchlik va totuvlik o'z aksini topadi.

Ta'kidlash joizki, psixologik tadqiqotlar tizimida shaxslararo munosabatlar muammosini temperament tiplari bilan bog'liq holda tushuntirish holati ham mavjud bo'lib, unda asab tizimi xususiyatlarining muloqot jarayoniga aloqadorlik jihatlari yoritiladi. Tadqiqotchi Ye.P.Ilinning aytishicha, insondagi temperament turlari va uning xususiyatlari shaxslararo munosabatlar jarayoniga katta ta'sir etadi. Misol uchun, xolerik va sangviniklar boshqalar bilan osongina aloqa o'rnatish oladilar biroq, flegmatik va melankolik odamlar qiyinchiliklarga duch kelishadilar[4, 99]. Chunki, ular ikki toifadagi kishilar ya'ni ekstrovertlar va introvert shaxslar sanaladi.

O'tkazilgan nazariy va metodologik tahlillarda shaxslararo munosabatlar

fenomenini sohalararo tadqiq etish, bir muncha murakkab ilmiy ish sanalib, uni ilmiy jihatdan dalillash har bir tadqiqotchidan o‘ziga xos kasbiy bilim va tajribalarni talab etadi. Qolaversa, shaxslararo munosabatlar jarayoni verbal hamda noverbal ta’sir etish xususiyatlari bilan ham alohida ahamiyat kasb etdi[5].

Umumiy xulosa qilib aytganda, ichki ishlar xodimlarida shaxslararo munosabatlar shakllanishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlariga shaxsning o‘z-o‘zini baholashi, xarakter aksentuatsiyasi, shaxs xususiyatlari va shaxslararo munosabatlar kabi psixologik omillar ta’sir qilib, ichki ishlar xodimlarida shaxslararo munosabatlar shakllanishida asosiy indikatorlar sifatida xizmat qilar ekan. Shu tariqa ichki ishlar xodimlarida shaxslararo munosabatlarning yuqori darajada shakllanishi atrofdegilar bilan munosabatlarni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Куницына В.Н., Казаринова, Н.В., Погольша В.М., Межличностное общение. Учебник для вузов Текст. / В.Н.Куницына, Н.В.Казаринова, В.М.Погольша. СПб.: Питер, 2001. – С 94.

2. Бухлина Л.Ю., Связь социальной позиции личности в группах членства с социометрическим статусом // Известия Пензенского государственного педагогического университета им. В.Г.Белинского. - 2012. – № 28. – С 161.

3. Бендас Т.В., Психология лидерства: тендерный и этнический аспекты: Автореф. дис, д-ра психол. наук. СПб, 2002. – С 53.

4. Ильин Е.П., Дифференциальная психофизиология мужчины и женщины. - СПб.: Питер, 2002. – С 99.

5. Yakubov S.U. Ichki ishlar xodimlarida shaxslararo munosabatlar shakllanishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. diss... T. O‘zMU – 2023.

“HARBIY TA’LIM” TUSHUNCHASI VA UNING TA’LIM TIZIMIDAGI O‘RNI

*Yaqubov G‘ulomjon Salohiddinovich –
O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti o‘qituvchisi*

Bugungi kunda, yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tizimidagi ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qabul qilingan konstepstiyalarni amalga oshirish doirasida har tomonlama rivojlangan, bilimdon, xalqiga, shuningdek, Vatanga xizmat qilish ishiga sodiq yoshlarni tarbiyalash bo‘yicha keng miqyosli ishlar amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston sharoitida zamonaviy harbiy ta’lim strategiyasining zamonaviy tizimlar asosida o‘zgargarishi sababli yangi o‘quv-jangovar vazifalar inobatga olinib, harbiy qismlar hamda harbiy o‘quv muassasalari shtat tuzilishini takomillashtirish bo‘yicha muayyan ishlar amalga oshirildi. Shaxsiy tarkibni o‘qitish-tarbiyalash, milliy ofister kadrlar tayyorlash tizimi vujudga keltirildi. O‘zbekiston Respublikasi hududida faoliyat yuritayotgan oliy harbiy bilim yurtlarida yuqori malakali yosh ofister kadrlarni tayyorlash yo‘lga qo‘yildi.

O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan harbiy tahlim tizimining muhim jihatlaridan biri ta’limning turli yo’nalishlarda olib borilayotganligi bilan xarakterlanadi. Yaqin-yaqingacha harbiy ta’lis sohasining harbiy tibbiy yo’nalishida olib borilgan ta’lim sohasi faqatgina Toshkent tibbiyot akademiyasi huzuridagi Harbiy-tibbiyot fakulteti bazasida shakllantirilgan holda olib borilar edi. Asosiy vazifasi harbiy tibbiy ta’lim yo’nalishida intellektual salohiyatga ega, ona yurtiga sadoqatli, qo’shinlarni tibbiy ta’minlashni samarali tashkil etishga qodir bo’lgan, tibbiy xizmatning yuqori malakali ofisterlarini, rezerv va zaxiradagi ofisterlar tarkibini tayyorlash, Qurolli Kuchlar tibbiy xodimlarining harbiy va kasbiy tayyorgarligi darajasini muntazam oshirish hamda ularni qayta tayyorlash, harbiy tibbiyot sohasida ilmiy-tadqiqotlar olib borish bo’lgan Harbiy-tibbiyot fakulteti ma’lum bir davr oraligida mazkur yo’nalishida samarali yutuqlarga erisha oldi.

Bugungi harbiy ta’lim harbiy xizmatchilar va harbiy jamoalarni tayyorlash, harbiy qismlar va bo’linmalarning jangovar tayyorgarligini oshirishda ofisterlarning, komandir va tarbiyachilarning harbiy-pedagogik bilimlari darajasiga alohida e’tibor talab etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi tasarrufidagi harbiy ta’lim muassasalari, muassasalarga rahbarlik qiladigan hamda ma’muriy boshqaruvni amalga oshiradigan, mudofaa va harbiy ta’lim sohasida davlat siyosati olib borilishini ta’minlaydigan ijro hokimiyati davlat organi hisoblanadi. Mudofaa Qo’shinlarni zamonaviy qurol-aslaha, harbiy texnika va moddiytexnik vositalar bilan ta’minlash, xalqaro harbiy hamkorlikni rivojlantirish, chaqiruv, jumladan, Qurolli Kuchlar uchun zaxiraga kadrlar tayyorlash masalalari ham Mudofaa vazirligiga yuklatildi. Pirovardida ushbu sohada qabul qilingan qarorlar oshkoraligi asosida Qurolli Kuchlarni rivojlantirish bo’yicha ustuvor yo’nalishlar belgilandi.

Ayni davrda harbiy kadrlar tayyorlash masalasiga alohida e’tibor qaratildi. Qurolli Kuchlar islohotining galdagi bosqichida harbiy ta’limning yangi tartibi joriy etildi, bu jamiyatimizda bevosita harbiy xizmat nufuzining, harbiy xizmatchilar obro’ - e’tiborining oshishiga ijobiy ta’sir o’tkazdi, bu esa o’z navbatida, aholida mudofaa tafakkurining rivojlanishiga asos bo’lib xizmat qilmoqda. O‘zbekiston Respublikasida harbiy ta’lim yo’lga qo’yilishining zarurati va ta’lim jarayonlarining tashkil etilishi nafaqat ta’limiy balki, harbiy mazmun zaruratidan kelib chiqqan holda amalga oshirib kelinadi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining “Mudofaa to’g’risida”gi qonunining 5-moddasida keltirilgan mudofaani tashkil etishning asosiy mazmun-mohiyatidan o’rin olgan bandlar jumladan, mudofaaning ilmiy, ilmiy-texnik, ma’rifiy bazasini takomillashtirish zarurligi keltirib o’tilgan.

O‘zbekistonda harbiy ta’limning shakllanishi 1918-yil 4-may kuni RSFSR Sovet xalq komissarlarining avtonom respublikasiga “Turkiston harbiy okrugi nomining ta’sis etilishi to’g’risida” dekreti bilan boshlandi. O’sha kezlarda Turkistondagi siyosiy va harbiy vaziyat favqulodda murakkab bo’lganligi bois, yosh Turkiston Sovet Respublikasiga bir vaqtning o’zida ham tashqi va ham ichki dushmanlar bilan shiddatli qurolli kurash olib borishga to’g’ri keldi. Qo’shinlarni tashkil etilishida ko’plab jiddiy muammolar mavjud bo’lganligi uchun ular barcha turdagi ta’minotda etishmovchiliklarga duch kelishgan. 1919-yil Turkiston harbiy instruktorlar maktabi deb o’zgartirilgan. 1922-yildan Turkiston komandirlar tarkibini tayyorlaydigan

birlashgan maktab, 1943-yildan Toshkent piyoda askarlar bilim yurti nomi bilan yuritilgan. 1958-yildan Umumqo‘shin komandirlari oliy bilim yurti nomi bilan atalgan.

Islohotlar davrida oliy harbiy ta‘lim muassasalari – Qurolli Kuchlar akademiyasi, oliy harbiy bilim yurtlari, Toshkent tibbiyot akademiyasi qoshidagi harbiy tibbiy fakultet, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti xuzuridagi maxsus fakultetlari kompleks rekonstruksiya maxsus ishlab chiqilgan loyihalar asosida amalga oshirilib, bugungi kun ularning yangi qiyofasi yaratildi. Ushbu ta‘lim muassasalari zamonaviy o‘quv jihozlari, texnikalar, kompyuter-trenajerlar va simulyatsiya vositalari bilan ta‘minlandi. Eng yuksak talablarga javob beradigan o‘quv-moddiy baza va oliy harbiy ta‘lim standartlarini shakllantirish, ta‘lim jarayonini jahon andozalariga moslashtirish ishlari amalga oshirildi. Oliy harbiy ta‘lim sohasidagi dasturlar doirasida amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari va erishilgan bir qator ijobiy o‘zgarishlarga qaramasdan, ta‘lim sifat samaradorligi rivojlanishi dinamikasini yanada jadallashtirish, bunda yaratilgan shart-sharoitlar va imkoniyatlardan samarali foydalanish bugungi kunda eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston sharoitida harbiy ta‘limni modernizatsiya qilish va uni zamonaviy dunyo harbiy ta‘limi standartlari asosida olib borish bir qator tamoyil va yondashuvlarni o‘z ichiga oladi. Birinchidan, besh yil davomida asosiy oliy, maxsus harbiy kasb-hunar ta‘limi va to‘liq harbiy ma‘lumotga ega bo‘lish;

Harbiy ta‘lim tahsil oluvchi ofisterni taktik boshqaruvda haqiqiy mavqeni egallashga yordam beradi, kasbiy bilimlarni o‘rganish uchun asos yaratadi va harbiy xizmatda ijtimoiy xavfsizlikni ta‘minlash uchun xizmat qiladi;

Keyingi yondashuv zobitlarni oliy harbiy, tezkor-taktik yoki tezkor-strategik tayyorgarlik kabi rejalashtirilgan dastur bo‘yicha qo‘shimcha kasbiy ta‘lim tizimiga tayyorlashdan iborat. Majburiy yondashuv - bu yiliga bir marta davriy ravishda amalga oshiriladigan harbiy kurslarda malaka oshirish yoki kasbiy qayta tayyorlash va yangi harbiy lavozimni majburiy tayinlash. Ushbu yondashuv harbiy xizmatchilarni xizmatda davom ettirish va tayyorlash uchun harbiy ta‘lim tizimini ishlab chiqadi. Bu har qanday harbiy mutaxassislik bo‘yicha muvaffaqiyatli kasbiy faoliyat va martaba ko‘tarilishi uchun belgilangan majburiy shartlaridan hisoblanadi.

Zamonaviy harbiy ta‘lim tizimi yondashuvlari doimiy ravishda harbiy ta‘lim tizimini isloh qilish zarurati yuzaga keltiradi. O‘zbekiston sharoitida ham harbiy ta‘limni isloh qilish bosqichi hali yukunlanmagan ta‘limiy jarayon bo‘lib, harbiy ta‘limni isloh qilish bilan bog‘liq ko‘plab uslubiy, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va tashkiliy masalalarga doir chora-tadbirlarni amalga oshirishni talab etadi. Ko‘rinadiki, zamonaviy sharoitda harbiy ta‘lim tizimining rivojlanish tendensiyalarini puxta tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Ta‘lim jarayonlarini o‘rganish uzoq vaqt davomida pedagogika fanining tadqiqot ob‘ekti bo‘lib kelgan. Ta‘limning o‘zgarishi va uni murakkab tarkibiy tuzilishga ega bo‘lgan tizimga aylantirishi, jamiyatning barcha jabhalarida ularning sezilarli o‘zgarishi sharoitida harbiy ta‘limning roli ortib borishi ta‘lim falsafasini rivojlantirish ehtiyojlarini belgilab beradi.

Hozir kunda Mudofaa vazirligi tasarrufida Qurolli Kuchlar akademiyasi, Chirchiq oliy tank qo‘mondonlik-muhandislik bilim yurti, O‘zbekiston Respublikasi oliy harbiy aviatsiya bilim yurti, Mudofaa vazirligi Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy instituti, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy tibbiyot

akademiyasi kabi oliy harbiy ta'lim muassasalari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Kichik mutaxassislarni tayyorlash markazi, Mudofaa vazirligi "Temurbeklar maktabi" harbiy-akademik listeyi harbiy ta'lim muassasalari mavjud. Ularda mustahkam dunyoqarashga, bilim va tajribaga, yuksak kasbiy malaka va ma'naviy-axloqiy fazilatlarga, mantiqiy fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan harbiy mutaxassislar tayyorlanadi

Shuning bilan birga Mudofaa vazirligi tasarrufida 4 ta, Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining Harbiy tayyorgarlik o'quv markazi, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Harbiy ta'lim fakulteti, Buxoro davlat universiteti Harbiy ta'lim fakulteti, Farg'ona davlat universiteti Harbiy ta'lim fakulteti kabi harbiy tayyorgarlik o'quv bo'linmalari mavjud. Ular O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari ehtiyojlari uchun safarbarlik rezervlarini shakllantirish va ulardan foydalanish jarayonini optimallashtirish, shuningdek, rezerv va zaxira ofisterlarini tegishli harbiy-hisob ixtisosliklari bo'yicha sifatli tayyorlash uchun mo'ljallangan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Holiqova D. Harbiy pedogogika va psixologiya asoslari. Qo'llanma, 2019.
2. Aliev B.A., Meliqulov A.N. Milliy armiya - vatanparvarlikning yuksak namunasi // Iqtisodiyot va innovastion texnologiyalar ilmiy elektron jurnali. № 1, yanvar-fevral, 2015 yil. – V. 3. Yana qarang: O'zbekiston Respublikasining Mudofaa to'g'risidagi qonuni yangi tahriri", "Xalq so'zi" gazetasining 2001 yil 11 may soni.
3. Tovbaev M., Saburov F. Oliy harbiy ta'lim tizimida ta'lim va tarbiya ishlari samaradorligini oshirishning asosiy jihatlari // Globallashuv sharoitida vatanparvarlik tarbiyasining ma'naviy ma'rifiy texnologiyalari. Respublika ilmiy-amaliy konferenstiya materiallari// O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari akademiyasi. – Toshkent, 2019. – B. 275.
4. Ergashev F. O'zbekiston harbiy ta'lim tizimiga bir nazar // [uz.uz/uz/posts/zbekiston-arbiy-talim-tizimiga-bir-nazar-04-10-2019](https://uz.uz/posts/zbekiston-arbiy-talim-tizimiga-bir-nazar-04-10-2019).
5. Norqulov A.F. Harbiy pedagogikaning maqsadi va vazifalari // Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali. UIF-2023: 8.2 | 2181-3035 | № 18. 92-99.
6. <https://www.milliygvardiya.uz/uz/menu/dlja-postupajuschih-v-shkoly-temurbeka>.

YOSHLARDA IJTIMOIIY QADRIYATLARNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHARTLARI

*Saidova Dilobar Ikrambayevna –
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarni
qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti,
"Pedagogika va psixologiya" kafedrasi mudiri,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*

Annotatsiya. Ushbu maqolada mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarida ijtimoiy xulq-atvorni rivojlantirishning ijtimoiy zaruratiga oid ilmiy nazariy ma'lumotlar hamda tadqiqod jarayonida olingan natijalar tahlili keltirilgan.

***Kalit so'zlar.** Mehribonlik uylari, shaxs, o'smir, etim bolalar, tarbiyachi rivojlantirish, ijtimoiylashuv, etuklik, xulq-atvor.*

Bugungi kunda dunyo bo'yicha globallashuv sharoitlari barcha yoshlarga salbiy ta'sini o'tkazmoqda. Bunlay jarayon tarbiya e'tiborni yanada oshirishni talab qiladi. "Bola huquqlari to'g'risida"gi Konvensiyada barcha davlatlar vaqtinchalik yoki doimiy ravishda o'z oilasida yashashdan mahrum bo'lgan bolalarga g'amxo'rlik ko'rsatish alohida belgilab berilgan. AQSH, Fransiya, Angliya, Rossiya kabi rivojlangan davlatlarda yetim va ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarni jamiyatga muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvini ta'minlash, hayotga, insonlarga va o'z-o'ziga aksiologik munosabatni qaror toptirish texnologiyalarini takomillashtirish yetim bolalarni alohida muassasalarda emas, oilalarda tarbiyalash, ijtimoiy muhofaza etishga katta e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarni klasterli yondashuv asosida ijtimoiy hayotga tayyorlashning ijtimoiy-pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. [1]

Tarbiyalanuvchilarini ijtimoiylashtirishning sosiologik, pedagogik-psixologik jihatlari hamda milliy-axloqiy tarbiyalash, milliy qadriyatlarning mazmun-mohiyati M.Bekmurodov, D.Isayeva, M.Qahhorova, A.Mudrik, G'.Shoumarov, N.Egamberdiyeva, M.Quronov, E.G'oziyev, Sh.Mardonov, D.Ro'ziyeva, O.Musurmonova B.Xodjaye, Sh.Sharipov, Sh.Shodmonova, Ya.Chicherina va boshqalar tomonidan tadqiq etilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) mamlakatlari olimlaridan I.Dubrovina, V.Kondrashin, I.Korobeynikov, V.Muxina, A.Ruzskaya, V.Chumakov, I.Shevchenko, T.Shulga kabilar tomonidan bolalar uylari tarbiyalanuvchilarining psixik rivojlanishi, yetimlik muammolari, psixologik yordam ko'rsatish, mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarining kattalar va tengdoshlari bilan muloqoti, ularning ijtimoiy moslashuvi masalalari o'rganilgan. [4].

Dunyoning ko'plab davlatlarida amalga oshirilgan tadqiqotlar (A.Gezell, Y.Langmeyer, Z.Mateychek A.Prioxjani, N.Tolstyx, Z.Freyd va boshqalar) bolaning oila muhitidan tashqaridai rivojlanishi odatdagi holatdan farq qilib, unda maxsus xarakter xususiyatlari, xulq-atvor ko'rinishlari, shaxslilik sifatleri shakllanadi. Shuningdek, tadqiqot va kuzatishlar asosida Mehribonlik uylarida tarbiyalanayotgan bolalarda nafaqat shaxsiy yuksalishdan ortda qolish yoki rivojlanmaslik, balki mazkur muassasalardagi turmush tarziga moslashishga xos qat'iy boshqa mexanizmlarning jadal shakllanishi aniqlandi. [3].

Ma'lumki, ijtimoiylashuv shaxsning jamiyatdagi qadriyatlarni qabul qilishi va zaruriy darajada ijtimoiy, fuqaroviy va shaxsiy etuklikka erishishi asosida jamiyatga kirib borishidir. Shaxsning ijtimoiylashuvi esa, inson o'zini jamiyatda shaxs sifatida anglab borishi jarayonidir. Bu tarbiya, ta'lim, o'z-o'zini tarbiyalash jarayonida yuzaga kelib, inson qachonki, o'z maqsadlarini mustaqil aniqlay olsa va ularga erishish yo'llarini belgilay olganida, o'z qadr-qimmatini anglab etganida, jamiyatdagi o'z o'rniga ishonch hosil qilgan taqdirda amalga oshadi. Boshqacha aytganda, shaxsning ijtimoiylashuvi – ta'lim-tarbiya ta'sirida inson psixologik funksiyalarining takomillashuvi, ijtimoiy-axloqiy qadriyatlar, xulq-atvor me'yor va qoidalarining o'zlashtirilishi, dunyoqarashining boyish jarayoni va natijasi hisoblanadi.

Aksiologik yondashuv nuqtai nazaridan shaxsda ijtimoiy tajribani shakllantirish ikkita o'zaro aloqador yo'nalishda amalga oshadi. Birinchidan, inson hayotining mazmuni, shaxslararo munosabatda ma'naviy-axloqiy me'yor va qoidalar sifatida individda qadriyatga yo'naltiril-ganlikni shakllantirish, ikkinchi tomondan shaxsiy nuqtai nazardan yuqori mavqega ega o'z-o'zini boshqarishda aks etuvchi o'zaro birgalikdagi faoliyat jarayonidagi xatti-harakatlar, ijtimoiy va hayotiy ahamiyat kasb etuvchi xulq-atvor me'yorlarini o'zlashtirish bilan bog'liqlikni o'zida aks ettiradi.

Tadqiqot natijalari tarbiyalanuvchilarda ijtimoiy tajribani o'zlashtirish quyidagi bosqichlarda amalga oshirilishi lozimligini ko'rsatdi: ijtimoiy moslashuv: ijtimoiy vaziyatlarda o'zining rolini aniqlay olish, vaziyatga moslashuvchanlik va safarbarlik; loyihaviy: ijtimoiy faoliyat jarayonida o'z-o'zini anglash, individual xulq-atvor strategiyalarini tanlay olish; interiorizatsiya: ijtimoiy faoliyatning asosiy me'yorlarini qabul qilish va faoliyatda namoyon etish. [2].

Pedagogikada qadriyatlarni ko'proq tarbiyalanuvchi shaxsini shakllantirishdagi imkoniyatini hisobga olgan holda, ma'naviy, milliy, siyosiy, huquqiy, oilaviy, mehnat, turmush, diniy, umumadaniy, umuminsoniy va badiiy-estetik shakllariga alohida e'tibor qaratiladi.

Ma'naviy qadriyatlar shaxsni axloqiy shakllantirishning asosiy omili bo'lib, ular ilmiy-texnikaviy va intellektual, maorif, ta'lim-tarbiya, tibbiy xizmat, milliy meros, turli shakllarda namoyon bo'ladigan madaniyat durdonalari, til, adabiyot, san'at, xalq hunarmandchiligi mahsulotlari, noyob tarixiy va madaniy arxitektura va hokazolar hisoblanadi.

Milliy qadriyatlar – millat shaxsining tili, tarixi, urf-odatlarida namoyon bo'ladi. Milliy qadriyatlar – millatga mansub bo'lgan umumjahon taraqqiyoti qonuniyatlaridan biri hisoblanadi. Milliy qadriyatlar – o'z millatidan, o'z yurtidan faxrlanish, o'zbek davlati fuqarosi ekanligidan g'ururlanish kabilardir.

Siyosiy qadriyatlar demokratiya yoki siyosiy jarayongina bo'libgina qolmay, shu bilan birga xalqning turmush tarzi va uning bugungi ruhiyati, an'analari, madaniyati, psixologiyasining xususiyatlarini ifoda etadi.

Pedagogikada qadriyatlarni ko'proq tarbiyalanuvchi shaxsini shakllantirishdagi imkoniyatini hisobga olgan holda, ma'naviy, milliy, siyosiy, huquqiy, oilaviy, mehnat, turmush, diniy, umumadaniy, umuminsoniy va badiiy-estetik shakllariga alohida e'tibor qaratiladi.

Ma'naviy qadriyatlar shaxsni axloqiy shakllantirishning asosiy omili bo'lib, ular ilmiy-texnikaviy va intellektual, maorif, ta'lim-tarbiya, tibbiy xizmat, milliy meros, turli shakllarda namoyon bo'ladigan madaniyat durdonalari, til, adabiyot, san'at, xalq hunarmandchiligi mahsulotlari, noyob tarixiy va madaniy arxitektura va hokazolar hisoblanadi.

Milliy qadriyatlar – millat shaxsining tili, tarixi, urf-odatlarida namoyon bo'ladi. Milliy qadriyatlar – millatga mansub bo'lgan umumjahon taraqqiyoti qonuniyatlaridan biri hisoblanadi. Milliy qadriyatlar – o'z millatidan, o'z yurtidan faxrlanish, o'zbek davlati fuqarosi ekanligidan g'ururlanish kabilardir.

Siyosiy qadriyatlar demokratiya yoki siyosiy jarayongina bo'libgina qolmay, shu bilan birga xalqning turmush tarzi va uning bugungi ruhiyati, an'analari, madaniyati, psixologiyasining xususiyatlarini ifoda etadi. Shaxsda salbiy xulq-atvorning namoyon

bo'lishini o'rganish asosida L.I.Bojovich va A.M.Prixojanlar Davlat qaramog'idan ketgandan so'ng ko'pchilik vaziyatlarda tarbiyalanuv-chilarda ijobiy holat kuzatilmagan, shu jumladan hayotiy faoliyat uchun zarur qadriyatlar tizimi ham shakllanmagan. Shuningdek, yetim bolalarning alohida psixologik sifati tarzida ularning rivojlanishida deviant xulq-atvor ko'rinishlarining namoyon bo'lishi xosligi ta'kidlab o'tilgan. Albatta bunday o'ziga xosliklarning rivojlanishi nizoli vaziyatlarni destruktiv yo'l bilan hal etilganligi, shaxslararo munosabatlarni o'rnatishdagi qiyinchiliklar, shaxsiy xavotirning yuqori ekanligi, o'z-o'zini baholashning nodekvatligi, o'z-o'zini boshqarish va o'z-o'zini nazorat qilish darajasining pastligi, motivasion tajovuzkor-likning yuqori darajada ekanligi bilan bog'liqdir. [2].

“Men va olam” munosabati tizimi tarbiyalanuvchilarda jamoaviy majburiyatlarni bajarishga tayyorlikni shakllantirish, ularni muvaf-faqiyatli ijtimoiylashtirishga imkon beradi. Mazkur yo'nalishdagi ijtimoiy-pedagogik faoliyat jarayonida turli vaziyatlardagi xulq-atvor qoidalari bilan tanishish, ijtimoiy-huquqiy va iqtisodiy masalalarga yo'nalganlik ko'nikmasini o'zlashtirish, o'z huquqlarini himoya qilish, hayotiy rejalarini tuzish va amalga oshirish malakalari tarkib topadi.

Xulosa. Tarbiyalanuvchilarda qadriyatlar tizimini shakllantirishda tizimli, aksiologik, madaniy-insonparvarlik, muhitli, shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlar asos sifatida olindi. Ijtimoiy-pedagogik faoliyat jarayonida muhitli va shaxsga yo'naltirilgan yondashuv hamda bolalarning kundalik faoliyatida yuzaga keladigan qiyinchiliklarni yengib o'tishga doir tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishga yo'naltirilgan pedagogik ta'sir ko'rsatishning samaradorligi tamoyili tadqiqot doirasida muhim ahamiyat kasb etdi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Занина Л.В., Меньшикова Н.П. Основы педагогического мастерства. – Ростов-на-Дону: Феникс, 2003. – Б.43.
2. Мудрик А.В. Основы социальной педагогики. – М.: АСАДЕМА, 2006. – 205 с.
3. Божович Л.И. Личность и ее формирование в детском возрасте. – СПб.: Питер, 2008. – 400 с.
4. Прихожан А.М. Психология сиротства. – СПб.: Изд-во «Питер», 2007. – 416 с.

ШАХС ИЖТИМОЙЛАШУВИДА САНОГЕН ТАФАККУР РИВОЖЛАНИШНИНГ АҲАМИЯТИ

*Абдурахмонова Зухра –
ТАФУ Психология кафедраси доценти,
психология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)*

Аннотация. Ушбу мақолада тафаккур ва саноген тафаккурнинг аҳамияти, шахснинг сифатида тараққий этишида соғлом фикрлашнинг ижтимоий психологик хусусиятларининг олимлар томонидан берилган илмий қараишлари келтирилган.

Калит сўзлар: Шахс, фикр, тафаккур, саноген тафаккур, мотив, фаолият, хулқ-атвор, фаоллик, комиллик, билим, кўникма.

Ҳамма замонда шахс дунёқарашини ўстириш, онг даражасини ривожлантириш долзарб масала сифатида баҳоланган. Бугунги кунда бу вазифа янада чуқурроқ тадқиқ этилишига ижтимоий жамиятнинг ҳам сиёсий, ҳам маънавий эҳтиёжи ошмоқда. Ҳар қандай жамиятнинг ижтимоий–иқтисодий тараққиётини инсон тафаккури, онг даражаси ва ақлий салоҳияти, маънавияти ҳамда маданияти белгилаб беради. Инсондаги ушбу ҳислатлар бевосита таълим даргоҳларида шаклланади ва ривожланади. Шу боис ҳам ёш авлодга таълим – тарбия бериш, уларнинг интеллектуал билимларини, тафаккурини ривожлантириш ва уларни қўллаб қувватлаш долзарб ижтимоий эҳтиёжлардан саналади.

Ёш авлоднинг мамлакатимиз барқарорлигига, унинг ижтимоий, маънавий юксалишига салбий таъсир кўрсатаётган экстремистик ва террористик оқимлар, патоген ғоялар таъсирига тушиб қолмаслиги учун муайян ижтимоий-психологик асосни яратиш, такомиллаштириш ҳозирги кунда психология фани олдида турган муҳим вазифалардандир. Мазкур масала, ёшларнинг саноген тафаккури генезиси, моҳияти ва мазмунига мавжуд илмий назарияларга суянган ҳолда таъриф бериш, таснифлаш, таҳсил олувчиларнинг соғлом тафаккурини ривожлантиришга бағишланган ижтимоий-психологик, педагогик технологияларни такомиллаштириш муаммоси алоҳида тадқиқот объекти сифатида ўрганилмаган. Ҳозирги вақтда патоген ғоялар ва дестабиллаштирувчи гуруҳларнинг пайдо бўлиш сабаблари, фаолият доираси кенгайишининг олдини олиш мақсадида ёшларнинг саноген тафаккурини ўстириш муҳим назарий ва амалий аҳамият касб этиб, бу соҳада ижтимоий-психологик тадқиқотларни олиб бориш долзарб вазифа бўлиб ҳисобланади.

Спинозанинг фикрича, инсон руҳиятининг моҳияти билиш фаолияти ҳамда ғоя ва тушунчалар мавжудлиги билан белгиланади: “... ғоя инсон руҳияти асосини ташкил этади”. У ғояларнинг уч турини ажратади:

1) Фикр ёки тасаввур – аниқ нарсалар ҳақида ҳиссиётларга таянган ҳолда маълумотга эга бўлиш. Бу ғоялар ноадекват, ноаниқ ва нотўғри, улар асл ғоялар эмас. Сабаби, улар субъектив ва нарса – ҳодисаларга ички кечинмалар асосида ёндашилади.

2) Ақл ва онг – мантикий фикрлар ва хулосалаш орқали олинган билимлар. Булар умумий тушунчалар (аввало, математик), адекват, аниқ ва равшан ғоялар. Бу босқичда инсон руҳияти нарса – ҳодисаларнинг ички ўхшашлик ва фарқларини англайди.

3) Интуитив билиш – нарсаларнинг асл моҳиятини англаш. Бу ғоялар онгда рефлексиф тарзда очилади. интеллектуал интуиция ёрдамида ишга тушади.

И.П.Павлов (1849-1936) рус академиги таъбири билан айтганда - фикрлаш туфайли инсон «борлиқнинг ҳокимига» айланган бўлса, хайвонлар абадий «табиат қули» бўлиб қолавердилар. Шунинг учун тафаккур воқеликни бавосита, сўз ёрдами билан умумлашган тарзда акс эттириш жараёни ҳисобланади. Атроф-муҳитдаги ҳодисанинг ташқи ифодаси сезги, идрок, тасаввур процессларида ёрқин, образли тарзда, турли аломатлари, фазовий жойлашиши ва ҳаракатида акс этади. Тафаккурда эса инсон уларнинг мураккаб боғланишларини англаб этади

[7;8-б.]. Демак, тафаккур – инсон психик фаолиятининг юксак формаси бўлиб, инсон тажрибасида, сезги, идрок ва тасаввур асосида вужудга келган ва таракқий қилиб боради.

Ж.Пиаженинг қарашларига кўра, шахснинг ривожланиш даврларидан 3-давр яъни расман операция даври(11-15 ёшни) айнан ўсмир ёшли ўқувчининг комилликка, мустақилликка, кенг тафаккур юритишга ўтиш босқичидир. Комилликни шакллантиришда аввало, саноген тафаккурни ривожлантириш масаласи қўйилади. Комиллик- ўқувчини ўз саломатлигини асраш ва ўз фаолиятини жамият равнақи, эзгулик сари йўналтириш, шунингдек замонавий ҳаётда мавжуд бўлган турли тиббий, экологик, ижтимоий, иқтисодий таҳдидлардан ўзини муҳофаза қилиш билими ва малакалари мажмуасидан иборатдир[8;30-б.].

Инглиз олими А.Адлернинг (1870-1937) фикрича, инсон ҳаётининг асосий қонуни сифатида шахснинг устунлик ва афзалликка интилишини кўрсатиш мумкин. Бу интилишнинг конструктив йўналишда қўлланиши фаолиятни умумжамоа манфаатидан келиб чиқиб, амалга оширишга хизмат қиладиган шахслар фаолиятида намоён бўлади[1;23-б.].

Рус психолог олими П.Я.Гальпериннинг (1902-1988) фикрига кўра, тафаккур бу ориентирлаш - тадқиқот фаолияти, ориентировка жараёни, яъни ориентировка — бу жараён, ориентировка — фаолиятидир. Олим психология фани интеллектуал масалаларни ечишда субъектнинг тафаккурга ориентировка қилиш жараёнини ўрганишдан иборат деб тушунтиради [4;145-б.].

Немис психиатри К.Леонгарднинг (1903-1988) шахс типологиясига кўра саноген тафаккури ривожланмаган инсонлар - ўзини-ўзи бошқара олмаслик, тафаккур қилмаслик хоҳиш ва интилишлари юзасидан назоратнинг сустлиги, физиологик майлларнинг устуворлиги бу типдаги шахсларда уйғунлашиб кетиши ҳақида фикр юритади. Уларга инстинктивлик, импульсивлик, кўполлик, миждовлик, бадқовоқлик, беадаблик, орсизлик, кўпол муносабатларга мойиллик хосдир. Бундай кишилар турли низо ва мунозараларни келтириб чиқариб, уларнинг фаол иштирокчиси бўлишади. Сержахл, серзарда, жиззаки бўлиб тез-тез иш жойларини ўзгартириб туришади, жамоадагилар билан чиқиша олишмайди”-деб уларга таъриф беради[6;54-б.].

А.В.Петровскийнинг қарашларидан маълумки, шахснинг таракқий этиши, соғлом бўлиши, саноген тафаккурининг ривожланишида интериндивид (фаолиятда шахсларнинг субъектив муносабатлари) шахслараро муносабатларнинг таъсири муҳим аҳамиятга эга бўлиб, унда метаиндивид яъни (атрофдаги кишиларнинг “ҳиссаси”) ижтимоий муҳит катта таъсир кўрсатади [8;13-14-б.].

Ю.М.Антонян (1933) тадқиқотларида инсондаги патоген ғоялар муайян воқеа-ҳодиса, нарса-буюмлар ёки ижтимоий тузилмаларга йўналтирилиши, субъектнинг фрустрацияси оқибатида алкоголизм, гиёҳвандлик ёки суицид каби вайронкор ҳаракатлар қилишга ундашани кўрсатиб беради[1]. Бинобарин, шахс ўз саломатлигини (жисмоний, рухий, маънавий) сақлаши, соғлом турмуш тарзини қўллаб-қувватлаши зарурлиги шубҳасиз. Бунда саноген тафаккурни ривожлантириш учун ўсмир ёшидаги ўқувчиларда учраши мумкин бўлган патоген

тафаккур хусусиятларини ривожланишини олдини олиш лозим.

Тафаккурнинг аҳамияти тўғрисида Ўзбекистонда психология фанининг илк асосчиларидан бўлган устозимиз М.Давлетшин қуйидаги фикрни билдиради: “...Одам кўзининг алоҳида суратда тузилганлиги одамнинг олами билиш имконияти учун мутлақ чегара эмас. Бизнинг кўзимизга бошқа сезгиларгина кўшилиб қолмай, балки шу билан бирга, тафаккуримизнинг фаолияти ҳам кўшилади”[5;43-б.].

Профессор Э.Ғозиев юқорида номлари келтирилган психолог олимлар томонидан тафаккурга берилган таърифларга таянган ҳолда яхлит таърифни келтириб, қуйидагича изоҳ берган: “Тафаккур-атроф-муҳитдаги воқеликни нутқ ёрдами билан бевосита, умумлашган ҳолда акс эттирувчи психик жараён, ижтимоий сабабий боғланишларни англашга, янгилик очишга ва прогноз қилишга йўналтирилган ақлий фаолиятдир[13;15-б.]” Олим ўз фикрларини давом эттириб: “Тафаккур — инсон ақлий фаолиятининг, ақл-заковатининг, онгли хатти-ҳаракатининг юксак шакли ҳисобланади. Тафаккур теварак-атрофни, ижтимоий муҳитни ҳамда воқеликни билиш қуроли, шунингдек инсоннинг кенг кўламдаги фаолиятини оқилона амалга оширишнинг асосий шарти саналади. Тафаккур жараёнида инсонда фикр, мулоҳаза, ғоя, фараз кабилар вужудга келади ва улар онгда тушунчалар, ҳукмлар, хулосалар шаклида ифодаланади” – деб изоҳлаган.

Э.Ғозиевнинг фикрига кўра: - “Тафаккурнинг мазмундорлиги кўп жиҳатдан эмоционал кечинмаларга ҳайратда қолиш, таажжубланиш, янгиликни ҳис қилиш кабиларга боғлиқ. Мазкур ҳисларнинг пайдо бўлиши тафаккурнинг кўтаринки руҳда кечишини таъминлайди, кишига завқ-шавқ, мароқ бағишлайди. Мулоҳазалар, фикрлар, тушунчалар, ҳукм ва хулоса чиқаришларнинг чинлиги (ёлғонлиги), тўғрилиги (нотўғрилиги), адекватлиги (ноадекватлиги) инсонда ишонч ва шубҳаланиш ҳисларининг мавжудлиги билан белгиланади. Кишилар учун қувончли, ёқимли, мароқли кайфият ва кечинмалар фикр юритиш жараёнларини тезлаштиради, фикрлаш суръатини кучайтиради. Аксинча, нохуш кечинмалар, хафахонлик, кўрқинч, зўр беришлик (стресс) сингари эмоционал ҳолатлар мулоҳаза юритишни сусайтириши, унинг маҳсулдорлигини камайтириши мумкин. Эмоционал ҳолатлар фикрнинг йўналишига бевосита ижобий ва салбий таъсирини ўтказиб туради”[13].

Шахснинг ички ва ташқи тана аъзолари фавқулоддаги ҳодисалар ва вазиятларга мослашган эмас (стихия, ҳалокат, тасодиф, стресс, аффект, хавф-хатар-риск). Агар шахсда саноген тафаккур ривожланмас экан, унда турли вазиятлардан кўрқинч билан боғлиқ ҳис-туйғуларни олдиндан сезиш, пайқаш, курашиш, енгил каби шахсий имкониятлар мавжуд бўлмайди. Шунинг учун ҳаётга энди қадам кўяётган ўсмир ёшдаги ўқувчиларда саноген тафаккурни ривожлантириш ҳар қачонгиданда долзарб аҳамият касб этади. Мактаб амалиётчи психологлари, ўқитувчилар, ота-оналар ва кенг жамоатчилик бу масалага илмий-психологик нуқтаи назардан ёндашишлари шарт.

Соғлом тафаккурда намоён бўладиган тафаккурнинг тезлиги хусусан фавқулодда вазиятларда керак бўлади, бирор қарорни жуда қисқа муддат ичида қабул қилиш талаб қилинади. Фикрнинг тезлиги мактабда ўқувчиларга кўпроқ

зарур бўлади. Масалан, айрим ўқувчиларни доскага чиқариб янги масалани ечиш сўралганда, ҳаяжонланиб, бутун синф олдида ўзларини йўқотиб қўядилар. Бу салбий эмоциялар гўё уларнинг тафаккурини тормозлаб қўяди. Фикр жуда секин ва тез-тез муваффақиятсиз ишлай бошлайди. Айрим ўқувчиларнинг ана шу индивидуал хусусиятларини, уларнинг ақлий қобилиятларини тўғри баҳолаш билан махсус ҳисобга олиш зарурдир.

Хулоса ўрнида таъкидлаш мумкингики, саноген тафаккур самараси - у илм, вазият ва амаллардан иборат. Лекин фикрнинг хос самараси илм бўлиб, ундан бошқа нарса эмас. Агар қалбда илм ҳосил бўлса, қалб ҳолати ўзгаради. Қалб ҳолати ўзгарса, аъзолар фаолияти ҳам ўзгаради. Саноген тафаккур барча яхшиликлар учун асос ва калитдир. Инсоният хавфсизлиги, давлатларнинг миллий манфаатлари, келгуси авлодларнинг барқарор келажагини таъминлаш йўлидаги жиддий хатарга айланганлиги ҳам, жамият келажаги бўлган ўсмир ёшидаги ўқувчиларнинг саноген тафаккурини ривожлантиришнинг ижтимоий-психологик хусусиятларини тадқиқ қилиш ижтимоий талаб ҳисобланади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Адлер А. Практика и теория индивидуальной психологии. СПб., 2003.-Б-23.
2. Выготский Л.С. Психология развития человека. – М.: Изд-во Смысл; Изд-во Эксмо, 2005. –С.665.
3. Гальперин П.Я., психологии творческого мышления// Вопросы психологии. Г.1982 – № 5
4. Давлетшин М.Г., Абдурахмонов Ф.Р. “Қадимги Шарқ мамлакатларида психологик фикр тараққиёти”. – Т.: 1995. –Б.26.
5. Леонгард К. Акцентуированные личности (сборник). Киев. 1981.-Б.23.
6. Петровский В.А. Психология неадаптивной активности. – М.: Российский открытый университет, 1992. – С.222.
7. Ғозиев Э.Ғ.“Тафаккур психологияси”Т.:“Ўқитувчи»нашриёти, 1990.-Б.15.

ИКРАМЛИКҚА ТӘРБИЯЛАЎ ЖОЛЛАРИ

*Исмаилова Гулсара Жалгасбаевна –
Нөкис қаласы И.Юсупов атындағы
дөретиўшилиқ мектеби психологи,*

*Жалалова Халима Алимжановна –
Нөкис қаласы И.Юсупов атындағы
дөретиўшилиқ мектеби тәрбияшысы*

Аннотация. Бул мақала тийкарында сабақтан тысқары ўақытларда оқыўшыларды әдеп-икрамлылыққа тәрбиялаў мәселелери кеңнен ашып бериледи.

Таяныш сөзлер. Аўыз еки дөретпе, халық, ертеқ, қарақалпақ, тәрбия, сабақтан тысқары жумыслар, метод ҳәм педагогика.

Қарақалпақ халқының аңыз еки дәретпелерінде халқымыздың тарийхы, оның турмысы, жақсылық хәм жаманлық ҳаққындағы ой-пикири, көз-қарасы, өмирлик тәжирийбеси сәўлеленген.

Қарақалпақ аңыз еки дәретпесиниң кең тарқалған түрлеринен бири бул ертеклер. Ертеклер белгили бир дәўирдиң дәретпеси ғана болып қалмастан, ал әсирлер даўамында халықтың тарыйхын, арзыў-әрманын, турмысын, әдеп-икрамлылық түсинигин, әўлатдан-әўлатқа жеткизип, халық пенен бирге жасап киятырған халық дәретпеси болып есапланады.

Ертеклерди хәр бир инсан, хәр бир дәўир адамы сүйсинип тынлайды. Өзиниң еситкенлерин гейде өзгертип, толықтырып, жаңа түрге ендирип, жаңа мазмунлар пайда етип, басқа адамларға жеткизип отырады. Ертеклердиң адамларға бундай күшли тәсир жасаўының, олардың умытылмай тыңлаўшының ядында узақ ўақыт сақланып қалыўының тийкары неде? Оның себеби ертеклердиң тыңлаўшылардың дыққатын өзине тарта алатуғындай мазмунының қызықлы, жоқары поэтикалық мазмунда қурылыўын-да, олардың турмыслық хәм тәрбиялық әҳмийетке ийе болыўында болып есапланады. Онда халық ойының, пикириниң улыўмаластырылған түрде берилиўинде. Сонлықтан да ертеклер бир нешше мыңлаған жыллар бойы умытылмас-әўлатқа өтип жасап келмекте.

Халық аўзында айтылып жүрген хәр бир ертекте халықтың күн көриси, үрип-әдети, әдеп-икрамлылығы, ой-пикири, арзыў-әрманлары, тәбиятқа, жәмийетлик турмысқа қатнасы сөз етиледи.

Оларда ҳақыйқатлыққа туўры келмейтуғын, тәбияттан тыс күшлер жин, пери, дәў, жер асты патшалығынан барыў, гилемди минип ушыў, өлгенди тирилетуғын суў хәм т.б ушырасқан менен де ертеклерде халықтың белгили бир ҳәдийселер ҳаққында қыялый түсиниги берилген.

Ертеклер, әсиресе, балаларға күшли тәсир жасайды, балалар өзлери жақсы көрген, өзлерине унаған ертеклерден күшли тәсирленип, оны узақ ўақыт умытпайды, айтып жүреди. Себеби, олардан бала жақсылық пенен жаманлықтын, әдеп-икрамлылық пенен әдепсизликтин гүресин, ҳадалықтың, әдилликтин әдепсизликти жеңиўин, өтириктен шынлықтың үстем болыўын, жаманлықтын ашкараланыўын, ҳадалықтың адамды өз әрманына жеткизетуғынын көреди.

Ертеклер қыялый, әрманлар тийкарында пайда болған. Халық аспан сырын ашып, космос кеңлигин ийелеў мақсетинде гилем-самолётты ойлап шығарды.

Гөзленген жерине тез барып жетиў қыялына байланыслы желаяқты пайда етти. Адам аўрыўын жеңилетиў әрманы тийкарында өлгенди тирилтетуғын жанлы суў хәм кәраматлы алманы дәретти. Булардың бәриниң тийкары дәретиўшилиқ мийнет екенлигин көрсетеди.

Қарақалпақ халық ертеклериниң жәмийетлик-сиясый хәм тәрбиялық әҳмийети жүдә уллы. Ертеклер өзиниң терең мазмунлығы менен, әдебий өткирлиги менен адам сезимине күшли тәсир етеди. Себеби, онда халық даналығы хәм оның көп әсирлик ертеклерин оқыўшылардың әдеп-икрамлылық түсинигин раўажландырыў, айналадағы кубылыс, ўақыялар ҳаққында өзлик ой-пикирин айтыўға үйретиў ушын пайдаланыў күтә үлкен нәтийже береді. Анығында бизиң жәмийетимиздиң саналы, жедел ағзасын қәлиплестириў

ўазыйпасын эмелге асырыўда ертеклердин тәрбиялық роли күтә уллы.

Өйткени, қарақалпақ халық ертеклери оқыўшыларды мийнет сүйиўшиликке, дослыққа, адамгершиликке үйретеди, үлкенлерге хұрмет, кишкенелерге меҳрибан болыўға тәрбийалайды, өзинде ўатан сүйиўшиликти, батырлықты, мәртликти туўры сөликти, яғный балаларға ең жоқарғы әдеп-икрамлылық сыпатларын қәлиплестириўге жәрдем береди.

Қарақалпақ халық ертеклеринде жасларды тәрбиялаўда оқыўдың әҳмийети айрықша сөз етиледи. Оларға оқыўдың аўыр қол мийнетин жеңиллетип, адам өмирин гөззалландыратуғынлығын, гөзлеген мақсетке жетиў имканын пайда етилетуғынлығын, ақыл-ойын өсирип, парасатлы, әдеп-икрамлы инсан болып қәлиплестириў тийкарын раўажландыратуғынлығын көрсетиледи.

Мысалы: «Ақыллы қыз» ертегиниң мазмунында оқыўдың әҳмийетлигин баянлаў тийкар болады. Ағайинли жигит жас ўактынан баслап өнер ийелеў ушын умытылады. Ата-анасы оларды оқыўға береди. Олар өз билимин көтериў ушын басқа қалаларға оқыўға кетеди. Оқыў олардың ақыл-ойын толықтырады, парасатлылыққа үйретеди. Хәр түрли китапларды оқыў арқалы олар адамлар арасындағы қарым-қатнастың адамларда қандай сезим кубылысларын, - хәрекетди пайда ететуғынлығын үйренеди хәм бул жағыдай олары дамгершилик сыпатларын раўажндырыўға умтылдыды.

Олар хәр бир ис хәрекетти терең ойлана отырып эмелге асырыў жолларын үйренеди. Ертеқ мазмуны оқыўшыларға оқыўдың, өнер үйрениўдиң әҳ-мийнетин ашады. Оқыўшылар өнер үйрениў жолындағы қыйыншылықты көреди.

Өнерди үйрениў аңсат кешпейтуғынын, тек шыдамлы, ҳармай-талмай, аўырманлыққа көнип, изленип төзимлилик пенен хәрекет еткен адам ғана өнерди мүнәсип ийелей алатуғынлығын, өнердиң турмыс ушын жүдә зәрүр екенлигин түсинип жетеди.

Әдебиятлар:

1. Ә.Тажимуратов Қарақалпақ халқ педагогикасы. Нөкис, Билим, 1996 ж.
2. Сапарбаев Т- НМПИ доценти.

HARBIY PSIXOLOGIYANING ILMIIY ASOSLARI

*Yusupboyev Tolibjon Zafarjon o'g'li –
Qoraqalpog'iston Respublikasi To'rtko'l tumani
68-maktabining CHQBT fani o'qituvchisi*

***Annotatsiya:** Harbiy xizmatchilarni xizmat faoliyatiga tayyorlashda harbiy psixologiyaning o'rni hamda psixologiya fanining zamonaviy metodlari va bu sohada hal qilinishi lozim bo'lgan dolzarb masalalar xususida fikr almashish va takliflar ishlab chiqish.*

***Kalit so'zlar:** Harbiy, psixologiya, Zamonaviy, yondashuvlar, Stressga, emlash, Yetakchilikni, rivojlantirish, Psixologik baholash, Ruhiy, stigmasi, Jangovar, stress.*

Kirish. Harbiy psixologiya harbiy xizmatchilarning samaradorligi va farovonligiga ta'sir qiluvchi psixologik omillarni tushunish va optimallashtirishga qaratilgan psixologik fan va harbiy operatsiyalar chorrahasida joylashgan. Ushbu maqolada biz harbiy psixologiyaning mohiyatini, harbiy kadrlar tayyorlashda zamonaviy psixologiya fanining integratsiyasini va ushbu sohada e'tibor va yechimni talab qiladigan dolzarb masalalarni o'rganamiz

Asosiy qism: Harbiy psixologiya harbiy xizmatchilarni xizmat faoliyati davomida tushunish va qo'llab-quvvatlashga qaratilgan ko'p qirrali yondashuvni o'z ichiga oladi. U harbiy hayotning turli jabhalarida, jumladan, ishga olish, tanlash, o'qitish, yetakchilikni rivojlantirish, jangovar harakatlar va joylashtirishdan keyingi sozlash kabi psixologik tamoyillarni qo'llashni o'z ichiga oladi. Asosan, harbiy psixologiya harbiy xizmatchilarning o'z rollarida duch keladigan noyob muammolarni hal qilishda ish faoliyatini, chidamliligini va umumiy farovonligini oshirishga intiladi. Zamonaviy psixologiya fanining integratsiyasi. Psixologiya fanidagi yutuqlar harbiy xizmatchilarni xizmat faoliyatiga tayyorlashning innovatsion usullarini ishlab chiqishga sezilarli hissa qo'shdi. Zamonaviy psixologiya fani ko'plab bilim va texnikalarni taklif etadi, ulardan ta'limni optimallashtirish, qarorlar qabul qilishni yaxshilash, stressni yumshatish va harbiy xizmatchilarning psixologik chidamliligini oshirish uchun foydalanish mumkin. Integratsiyaning asosiy yo'nalishlariga quyidagilar kiradi. Diqqat, xotira, qaror qabul qilish va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantiradigan o'quv dasturlarini ishlab chiqishda kognitiv psixologiya tamoyillaridan foydalanish va shu bilan murakkab va yuqori stressli muhitda ishlashni yaxshilash. arbiy harakatlarga xos bo'lgan stress omillarini, shu jumladan jangovar ta'sir qilish va joylashtirish bilan bog'liq qiyinchiliklarni samarali boshqarish va moslashishga yordam beradigan chidamlilikni oshirish choralarini ishlab chiqish uchun stress va kurashish nazariyalaridan foydalanish.

Harbiy rahbarlar o'rtasida samarali etakchilik ko'nikmalarini rivojlantirish uchun tashkiliy psixologiya tamoyillarini qo'llash, jumladan, muloqot, jamoa tuzish, nizolarni hal qilish va missiya muvaffaqiyati va bo'linmalarning birlashishi uchun muhim bo'lgan qarorlar qabul qilish qobiliyatlari. Harbiy xizmatchilarning ishga qabul qilish, tanlash va butun faoliyati davomida psixologik xususiyatlarini, qobiliyatlarini va zaifliklarini baholash uchun dalillarga asoslangan baholash vositalari va usullarini qo'llash, ongli qarorlar qabul qilish va maqsadli aralashuvlarni amalga oshirish. Harbiy psixologiyaning dolzarb muammolari. Muhim yutuqlarga qaramay, harbiy psixologiya sohasida e'tibor va hal qilishni talab qiladigan bir qator muammolar saqlanib qolmoqda Ruhiy salomatlik bilan bog'liq stigma harbiy xizmatchilarning yordam so'rash xulq-atvori uchun muhim to'siq bo'lib qolmoqda, bu yordamdan foydalanishga to'sqinlik qiladi va davolanmagan ruhiy kasalliklar, giyohvand moddalarni suiiste'mol qilish va o'z joniga qasd qilish kabi salbiy oqibatlariga olib keladi.

Harbiy xizmatchilar orasida jangovar stress va travmadan keyingi stress buzilishining (TSSB) tarqalishi harbiy xizmatning psixologik ta'sirini yumshatish uchun profilaktika, erta aralashuv va dalillarga asoslangan davolash usullarini yaxshilash zarurligini ta'kidlaydi. Harbiy hayotdan fuqarolik hayotiga o'tish bilan bog'liq muammolar, shu jumladan ishsizlik, uysizlik va sog'liqni saqlash va qo'llab-quvvatlash xizmatlaridan foydalanishdagi qiyinchiliklar faxriylar uchun keng qamrovli

o'tish davrida yordam dasturlari muhimligini ta'kidlaydi. Harbiy harakatlar va psixologik amaliyotning kesishmasidan kelib chiqadigan axloqiy dilemmalar, masalan, so'roqlar, psixologik urushlar va janglarda psixologik taktikalarni qo'llash, doimiy muloqot, tadqiqotlar va psixologik maslahatlarning mas'uliyatli va axloqiy qo'llanilishini ta'minlash uchun axloqiy ko'rsatmalarni talab qiladi. harbiy kontekstdagi tamoyillar. Mavjud muammolarni hal qilish bo'yicha takliflar Harbiy psixologiya oldida turgan dolzarb muammolarni hal qilish uchun quyidagi takliflar taklif etiladi:

1. Stigmaga qarshi kurash: ruhiy salomatlik bilan bog'liq stigmani kamaytirish, psixologik farovonlik madaniyatini oshirish va harbiy xizmatchilar o'rtasida yordam so'rash xatti-harakatlarini targ'ib qilish uchun ta'lim va xabardorlik kampaniyalarini amalga oshirish.

2. Ruhiy salomatlik xizmatlarini yaxshilash: dalillarga asoslangan ruhiy salomatlik xizmatlaridan foydalanish imkoniyatini oshirish, jumladan maslahat, terapiya va tengdoshlarni qo'llab-quvvatlash dasturlari va ruhiy salomatlik skriningi va baholashni harbiy xizmatda muntazam sog'liqni saqlash amaliyotiga integratsiya qilish.

3. O'tish davriga ko'maklashishni yaxshilash: Faxriylarning o'ziga xos ehtiyojlarini qondirish uchun o'tish davrida yordam dasturlarini kengaytirish va takomillashtirish, jumladan, bandlik, uy-joy bilan ta'minlash, tibbiy yordam va ijtimoiy integratsiya xizmatlari.

4. Axloqiy me'yorlar va treninglar: harbiy psixologlar va psixologik operatsiyalar, so'roq va boshqa nozik kontekstlarda ishtirok etadigan xodimlar uchun axloqiy me'yorlar va o'quv dasturlarini ishlab chiqish va tarqatish, axloqiy tamoyillar va kasbiy standartlarga rioya qilishni ta'minlash.

Xulosa. Harbiy psixologiya harbiy xizmatchilarning ish faoliyatini, farovonligini va tayyorgarligini optimallashtirishda muhim rol o'ynaydi. Zamonaviy psixologik ilm-fanni harbiy tayyorgarlik harakatlariga integratsiyalash va maqsadli aralashuvlar va tashabbuslar orqali dolzarb muammolarni hal qilish orqali biz harbiy xizmatchilarning harbiy martaba davomida va undan keyingi davrda psixologik salomatligi va chidamliligini yaxshiroq qo'llab-quvvatlashimiz mumkin.

Foydalingan adabiyotlar ro'yxati:

1. Adler, A.B., Bliese, P.D. va Kastro, C.A. (Edler). (2016). Harbiy hayot: Tinchlik va jangda xizmat qilish psixologiyasi (4-nashr). Santa Barbara, Kaliforniya: Prager.

2. Kennedi, C.H. va Zillmer, E.A. (Edler). (2006). Harbiy psixologiya: klinik va operatsion ilovalar. Nyu-York, Nyu-York: Guilford Press.

3. Britt, T.V., Adler, A.B. va Kastro, C.A. (Edler). (2016). Harbiy hayot: Tinchlik va jangda xizmat qilish psixologiyasi (3-nashr). Santa Barbara, Kaliforniya: Prager.

4. Figli, C.R. va Nash, W.P. (Edlar). (2007). Jangovar stress jarohati: nazariya, tadqiqot va boshqaruv. Nyu-York, Nyu-York: Routledge.

5. Mobbs, M.C. va Bonanno, G.A. (Edlar). (2016). TSSBdan tashqari: travmanin militarizatsiyasi. Nyu-York, Nyu-York: Routledge.

OILADA YOSHLAR TARBIYASIDA ODOB-AHLOQ MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH

*Yusupov Quwanish Dawletbaevich –
Qoraqalpog‘iston Respublikasi pedagoglarni
yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazining
katta o‘qituvchisi*

Jamiyat negizi–oila yoshlar ma’naviyatini tarbiyalashda asosiy tayanchdir. “Milliy tarbiyamizga xos bo‘lgan ilk tushunchalar, avvalo oila muhitida singadi. Har bir oilaning mustahkamligi, oila a’zolarining tinch va farovon hayot kechirishi, o‘zaro hurmat va izzatda yashashi bu yoshlarni kelgusi oilaviy hayotga tayyorlashda muhim omildir. Shuning uchun ham oilada ijtimoiy tarbiyaning o‘rni har qachongidan ham muhim bo‘lib bormoqda.

Bugungi kunda mamlakatimizda oila masalasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgani bejiz emas, albatta. Zero, yurt taraqqiyotining tamal toshi jamiyatimizning asosiy bo‘g‘ini bo‘lmish oilada qo‘yiladi. Oila shunday muqaddas makonki, unda hayotning davomiyligini ta’minlovchi shaxs shakllanadi, etnik madaniyat, urf-odatlarimiz, axloqiy va ma’naviy qadriyatlarimiz saqlanadi, rivojlantiriladi, jamiyat taraqqiyotini belgilovchi iqtisodiy va madaniy hayot poydevori mustahkamlanadi. Oilaning asosiy ijtimoiy, ma’naviy, axloqiy va psixologik vazifalarini qisqacha tahlil qilib ko‘radigan bo‘lsak, bolada shakllanadigan barcha hissiy, ruhiy tuyg‘ular: mehribonlik, oqibatlilik, o‘ziga va atrof-muhitga nisbatan mas’uliyatlilik kurtaklari oilada namoyon bo‘ladi. Oila o‘z vazifasini lozim darajada amalga oshirishi uchun uni tegishlicha, ma’rifiy-metodik qurollantirish, ijtimoiy-ma’naviy tadbirlarni o‘tkazish yo‘li bilan unga yordam berib borish zarur.[1]

Har bir xalq va milliy an’analar tarkibida yoshlarni oilaviy turmushga tayyorlash masalalariga alohida e’tibor qaratiladi. Ammo zamonaviy jamiyatlardagi keskin o‘shish sur’atlari, turli ijtimoiy, iqtisodiy, ma’naviy-mafkuraviy inqirozlarning avj olishi, inson zimmasiga yuklatilayotgan rangbarang ijtimoiy vazifalarning ortib borayotganligi oilada juda katta faollik taqozo etadi hamda zamonaviy jamiyatlarda oilaning ijtimoiy va inson shaxsidagi ahloq-odob tushunchalarini shakllantirish vazifalari o‘rni ortib bormoqda.

Oila milliy qadriyatlar maskani hisoblanadi. Yoshlarni oilaga tayyorlash jarayoni har bir millatning madaniy va ma’naviy-ruhiy qadriyatlaridan hisoblanib, xususan yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash insoniyat tarixida xalq ma’naviy takomilining eng ulug‘ va oliy yo‘nalishlaridan biri bo‘lib kelgan. Oilaviy madaniyat, oilaviy hayotga ongli kirib borish, oilaviy vazifalarni bajarishga tayyorgarlik, hayotda oila o‘rnini yuksak qadrlash, oilaga ma’suliyat bilan qarash, xalq ma’naviy merosidagi oila qadriyatlarini o‘z zamoni talablari bilan uyg‘unlashtirib rivojlantirish har vaqt inson hayotiy mezoni va jamiyat oldida turgan dolzarb vazifalardan biri sifatida tan olingan.[2]

Oila jamiyatdagi har bir insonning ijtimoiy hulq-atvoriga, adob-ahloqiy qarashlariga va madaniyatiga asosiy poydevor qo‘yadi. Yoshlarning axloqli-odobli, rostgo‘y, mehnatsevar, halol va samimiy bo‘lib voyaga yetishlarida oila muxiti zamin

tayyorlaydi. «Rostgo'ylik kishi o'z xatti-harakatida sodir bo'lgan ishlarni ko'rgan, bilgan va eshitganlarini boshqalarga gapirib berganda, yolg'on aralashtirmay, aynan o'zini so'zlab berish odatidir. Rostgo'y kishi yolg'on gapni gapirishni o'zi uchun uyat deb biladi» Oila tarbiyasi bolaning kelajakda kim bo'lib yetishishida muhim o'rin tutadi. Demak, bola oilada jamiyatning, millatning qiyofasini ko'radi, bo'lajak fuqaroning tabiati, dunyoqarashi va milliy axloqiy qiyofasi oilada shakllanadi, hamda shu asosda kamol topib boradi. Bola uchun oiladagi sog'lom ijtimoiy-ruhiy muhit umuminsoniy va milliy axloqiy qadriyatlar manbaidir. Oiladagi axloqiy madaniyat har bir oila a'zosining ma'naviy qiyofasi orqali bir-birini tushunishga bo'lgan intilishi orqali shakllanadi. Oiladagi axloqiy madaniyat uning shonu sharafi, g'ururi, burch va vazifalarini ko'rsatib beruvchi mezondir. Oilada pokiza nasl-nasab tuyg'usi va u bilan faxrlanish – pirovard oqibatida vatanparvarlik, xalqparvarlik iftixorini yuzaga keltiradi. Oilada o'zaro xurmat qat'iy intizom asosida barcha a'zolarning o'z burch va vazifalarini ado etishlari, bir-birlariga nisbatan ezgulik va mehr-oqibat ko'rsatishlari muhim mezonlardan biri hisoblanadi. [3]

Shuningdek oila axloqiy madaniyati jamiyat a'zolarining axloqiy jihatdan barkamol rivojlanishiga asos bo'lishi bilan birga, ularning jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy hayotining turli sohalarida faol ishtirokini ta'minlaydi. Bizning fikrimizcha, axloqiy madaniyatning: shaxsiy axloqiy madaniyat; milliy axloqiy madaniyat; mintaqaviy axloqiy madaniyat; umuminsoniy axloqiy madaniyat; diniy axloqiy madaniyat; turli tabaqalar axloqiy madaniyati; oila axloqiy madaniyati; ayollar axloqiy madaniyati; erkaklar axloqiy madaniyati; insonning yoshiga munosib axloqiy madaniyat; kasb-hunarga munosib axloqiy madaniyat kabi turlari mavjud. Uning maqsadi bolalarda eng oliy axloqiy sifatlar, ota-ona hamda oilaning boshqa a'zolari, shuningdek, atrofdagilarga nisbatan adolat, mehr-muhabbat, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, vijdon, or-nomus, g'urur, burch, insonparvarlik, mehnatsevarlik, saxovat, to'g'riso'zlik, kamtarlik, muruvvat, intizomni ijtimoiy anglash va hokazolarni shakllantirishdan iboratdir. Bunda shaxsning axloqiy fazilatlarini muhim o'rinni egallaydi. [3]

Umuman olganda yoshlarda ahloqiy madaniyat tushunchasining asosiy poydevorini oiladagi o'zaro muomala madaniyat, halollik, to'g'ri so'zli bo'lib, katta yoshdagi keksalarimizni hurmat-izzat qilib e'zozlashimiz, yosh avlodga namuna ko'rsatish bilan amalga oshirishimiz mumkin.

Adabiyotlar ruyxati:

1. B.Umarov «Oilaviy tarbiya saboqlari» ilmiy-uslubiy qo'llanma. Toshkent – 2019.
2. M.M. Maxmudova «Oila tarbiyasi asoslari» Samarqand –2021
3. Najmidinova Karimaxon Usmonovna Oila tarbiyasida milliy va umuminsoniy ahloqiy madaniyatning o'ri Toshkent-2016.

MUNDARIJA

1. Kirish	3
2. Muxamedova D.G., Harbiy xizmatda psixologiyaning o‘rni va dolzarbligi.....	4
3. Saidov A.A., Harbiy xizmatda boshqaruvning psixologik jarayonlari.....	7
4. Арзикулов Д.Н., Ички ишлар тизимида замонавий мутахассисларни тайёрлашда психологик билимларнинг ўрни ва аҳамияти.....	10
5. Абдурахимова Д.А., Бўлажак офицерларни касбий фаолиятга тайёрлашда креатив тафаккурнинг психологик жиҳатлари.....	14
6. Djabbarov A.A., Harbiy rahbarlarda liderlik sifatleri shakllanishi psixologik fenomen sifatida.....	20
7. Butayeva U.A., Harbiy xizmatchilarni tayyorlashda psixologiyaning o‘rni va zamonaviy talqin.....	22
8. O‘sarov O.A., Prokuratura tizimi xodimlarida kasbiy refleksiya ijtimoiy-psixologik fenomen sifatida.....	25
9. Ravshanov L.U., Harbiy xizmatchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash psixologik fenomen sifatida.....	28
10. Салахутдинова М.И., Умаралиева Х.Ф., Анализ конфликтных ситуаций в отношениях между подростками.....	31
11. Abdanov N.N., Ekstremal xulq-atvorlarning sotsial-psixologik omillari.....	34
12. Abdullayev A.N., Oliy harbiy ta’lim muassasalari tinglovchilarining shaxslilik sifatlarini tadqiq qilishning psixologik va ilmiy metodologik asoslari.....	45
13. Abdumannotova N.A., Talaba-yoshlarni qobiliyatini rivojlantirishda ta’lim jarayonining psixologik ahamiyati.....	50
14. Abdusayitov B.K., Oliy ta’lim tizimida boshqaruvning psixologik ahamiyati.....	51
15. Adilov O.A., Ta’lim jarayonida o‘qituvchilarning psixologik-pedagogik kompetentsiyasi.....	55
16. Achilov A.A., Rasulov B.N., Kursantlarda antifrustrasion ko‘nikmalarni rivojlantirishning pedagogik va psixologik mexanizmlari.....	58
17. Ahmedova D.M., Harbiy xizmatchilarda kasbiy stressni keltirib chiqaruvchi psixologik omillar.....	62
18. Allamov M.X., Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik fanining bugungi kundagi dolzarbligi.....	64
19. Aminova G.N., Maktabgacha ta’lim tarbiyachisi pedagogik faoliyatiga kreativ yondashuvni shakllantirish.....	68
20. Anorboyev F.R., Harbiy xizmatchi va xodimlarni internet tarmog‘idan foydalanish madaniyatini shakllantirish.....	70
21. Avlaqulov B.R., Avlaqulov A.I., Ijtimoiy tarmoq, yot g‘oyalar va global axborot xurujlarining yoshlarimiz ma’naviy ongiga ta’siri.....	73
22. Avlaqulov B.R., Qo‘chqarov J.O‘., Boshqaruv psixologiyasida liderlik masalasining zamonaviy muammolari.....	76
23. Avlaqulov B.R., Psixologiyada suhbat metodi.....	79
24. Axmedov B.Sh., Zamonaviy jang va uning harbiy xizmatchilar psixologiyasiga ta’siri.....	88
25. Axmedov Sh.A., Amaliyotchi psixolog faoliyatining asosiy ko‘rinishlari va unga qo‘yilgan talablar.....	92
26. Axmedov Sh.A., Muloqotda tilning ahamiyati va psixolingvistikka.....	96
27. Axrorova M.A., Yetuk mutaxassis kadrlarni tayyorlashda o‘qituvchi mas’uliyati.....	100

28. Babakulova M.N., Muvaffaqiyatga erishishda vaqtni boshqarishning psixologik jihatlarini.....	103
29. Баратова Д.О., Уралова М., Педагогларнинг тарбияланувчилар билан муомаласи.....	106
30. Beysebeyeva F.B., Harbiy psixologiya: zamonaviy yondashuvlar, muammolar va takliflar.....	111
31. Bo‘riyeva E.Sh., Maktabgacha ta’lim tashkiloti va ota-onalar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar shakllari.....	114
32. Бўтаев У.А., Фрустрацион ҳолатларни ўлчашда психодиагностик текширув имкониятлари	118
33. Bozorov A.A., Shaxsiy tarkibning axloqiy-ruhiy tayyorgarligini tashkillashtirishda mansabdor shaxslarning majburiyatlari.....	121
34. Bozorova D.S., Ruziyeva M.Z., Inson hayotidada idrok jarayonini o‘rganish.....	125
35. Bozorova D.S., Bakirov A.A, Bemor psixologiyasi kelib chiqishi, va unga ilk qarashlar.....	127
36. Bozorova D.S., Axmatov A.R., Bilish jarayonlarning buzilishi va psixologik qarashlar.....	130
37. Bozorova D.S., Ozodov S.O., Maktabda psixologik xizmatida duch kelinadigan muammolar.....	132
38. Bulanova N.D., Psixologiyada stress muammosi.....	134
39. Dedaquziyeva B.M., Shaxs mustaqilligining shakllanishi.....	136
40. Djalolov S.R., Djalolov M.M., Oliy harbiy ta’lim tizimida harbiy psixologiya fanini o‘qitishning dolzarbligi.....	139
41. Ergashev Ya.M., O‘zbekistonda mustaqillik yillarida ta’lim tizimidagi islohotlar.....	145
42. Eshmonov O.B., O‘smir sportchilarning stress holatidan chiqishida koping-strategiyaning ahamiyati.....	148
43. G‘ayriyeva Z.R., Oilada psixologik tarbiyaning muhimligi va psixologik muhitni tashkil etish.....	152
44. Faybulloeva D.M., Ўсмирлик даврида ўз-ўзига бўлган ишонччи шаклланишига ота-она муносабатларини таъсири.....	156
45. Goyibnazarova S.Sh., Oila munosabatlarida gender rollarining o‘rni.....	158
46. Halimov B.X., Bo‘lajak harbiy xizmatchilarda tibbiyot ko‘rigi tadbirlarini rejalashtirishning o‘ziga xosligi.....	162
47. Hojiyev O.I., O‘zbekiston harbiylarini vatanparvarlik tuyg‘usini oshirish va ularni vatanga sodiq farzandlar qilib tarbiyalash.....	164
48. Ҳожиёв О.И., Халқаро харбий вазият ва бизнинг харбий таълимимиз.....	168
49. Ibragimov Q.S., Yangi o‘zbekiston mudofaasini ta’minlashda milliy va jangovar ruhning o‘rni.....	173
50. Ikramova M.A., Pedagogik mahoratni egallash vositalari.....	175
51. Ixomova M.I., Kichik maktab yoshidagi bolalarda qo‘rquvlar va ularning paydo bo‘lishi.....	177
52. Inoqov B.R., Tezkor-qidiruv xodimlarida muvaffaqiyatga erishish motivlari psixologik fenomen sifatida.....	179
53. Исмаилова Н., Ёшларда китобхонлик маданиятини шакллантиришда ахборот-коммуникация технологияларидан фойдаланишнинг ўзига хос хусусиятлари.....	182
54. Ismoilova Z.T., O‘smirlik yoshidagi o‘g‘il va qizlarning o‘ziga xos psixologik xususiyatlari o‘smirlik davri haqida tushuncha.....	185

55. Jamolov A.A., Harbiy ta'lim muassalarida zamonaviy ta'lim tizimini takomillashtirish uning muammolari va istiqboli.....	188
56. Jo'rayev S.M., Ichki ishlar organlari xodimlarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda psixologik bilimlarning tutgan o'rni va ahamiyati.....	192
57. Kamalova Z.X., Abdiravidov S., O'smirlik davrida xavotir namoyon bo'lishining psixologik xususiyatlari.....	195
58. Kamalova Z.X., Abduqodirova D.E., Tibbiyot xodimlarida kasbiy so'nishning psixologik xususiyatlari.....	198
59. Korshubayev R.X., Oliy ta'lim talabalarini intellektual rivojlantirish omillari.....	201
60. Кобилова Ф.Т., Психологические особенности обучения иностранному языку детей года начальный школьный возраст.....	204
61. Kuchkarova Sh.F., Motivatsiya va uning shaxs faoliyatida tutgan o'rni.....	209
62. Mamatov T., Bugunning dolzab masalaridan biri, ziyoliy ofiserlarni yetishtirish..	211
63. Mamatov X.T., Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda qonun va qonunosti hujjatlarining ahamiyati.....	214
64. Masharipov Y., Sportchini musobaqaga psixologik tayyorlash.....	216
65. Mavlonova D.M., O'quvchilarda liderlik qobiliyatini shakllantirish va rivojlantirish usullari.....	224
66. Muratova Sh.I., Ibodov F.F., Markaziy osiyo allomalarining pedagogik qarashlari.....	229
67. Mustafayeva M.Sh., Harbiy soha vakillarida psixologik immunitetni shakllantirish zarurati.....	235
68. Мусулманов А.И., Муминов О.А., Психологиянинг фан сифатида қисқача тарихи бўйича айрим фикр ва мулоҳазалар.....	238
69. Мухаммадиев С.Б., Обучение иностранному языку курсантов военного вуза как один из факторов формирования готовности к профессиональной деятельности.....	242
70. Navro'zov L.A., Psixologik ma'rifat.....	244
71. Наврўзов Л.А., Буюк ипак йўли-алоқа йўли.....	246
72. Nazarova N.R., An'anaviy ta'limda o'qitish metodlari va afzalliklari.....	249
73. Nomozova R.O., Xotin-qizlar huquqlarini shakllantirishning psixologik strategiyalari.....	252
74. Normatov S.S., Shaxsiy tarkibni jangovar tayyorgarlik jarayonida psixologik chiniqtirish.....	255
75. Norqulov A.F., Harbiy psixologiyaning ijtimoiy-psixologik muammolari.....	258
76. Nurmatov A.N., Ijtimoiy tarmoqlarda soxta yangiliklarni psixologik ta'sirini ko'rish: uchinchi shaxs ta'siri gipotezasini qo'llash.....	263
77. Nurmatov B.X., Nutfiyev I.I., Zamonaviy janglarda, kichik guruhlarning komandirlik, harbiy psixologik hamda liderlik qobiliyatini rivojlantirish istiqbollari..	265
78. Omonov Sh.I., Ilk o'smirlik davridagi intellekt ko'rsatgichlarning o'ziga xosligi..	269
79. Omonov A.N., Ichki ishlar organi xodimlarida ijtimoiy intellekt psixologik fenomen sifatida.....	271
80. Ўразолиев А.Б., Келажак авлодни ватанпарварлик руҳида тарбиялашда шарқона таълимнинг аҳамияти.....	274
81. Pulatov B.U., Madaniyatshunoslik fanini o'qitishda pedagogik texnologiyalarning tutgan o'rni va ahamiyati.....	277
82. Qahhorov A.B., Harbiy xizmatchi shaxsiga ta'sir etuvchi psixologik omillar.....	280

83. Qobulova S.Q., Ingliz tilini o‘qitishning didaktik vositalar asosida metodolik imkoniyatlari.....	285
84. Fayzullayev G‘.E., Zamonaviy qurolli to‘qnashuvlarda psixologik yo‘qotishlar muammosiga zamonaviy qarash va ularning yechimi.....	288
85. Rabiev B.B., Uy ishchi xizmatchilarni mintaqalar buyicha migrasiyasi.....	291
86. Raimov A.M., Axborot urushining psixologik asoslari.....	295
87. Rajabov Sh.Sh., Oliy ta‘lim muassasalari talabalariga harbiy tasavvurlar shakllanishining psixologik mexanizmlari.....	298
88. Raximova M.A., Kasbiy ta‘limning integrativ makro muhitida dual ta‘limdan foydalanish.....	302
89. Rizakulova S.I., Shaxsning noaniq vaziyatlarda qaror qabul qilishining ijtimoiy psixologik mexanizmlari.....	305
90. Ro‘ziyeva H.D., Harbiy xizmatchilar uchun psixologik xizmatni tashkil etishning dolzarbligi.....	309
91. Sa‘dullayev A.A., Turdiqulova L.Z., O‘smirlarni hissiy-irodaviy rivojlantirishda psixologik usullardan foydalanishning samaradorligi.....	313
92. Sadatova N., Eshnazarova E., Jonimqulova L., O‘smirlarda kuzatiladigan xotira muammolari hamda uni rivojlantirish choralari.....	316
93. Сафаров Ш.З., Ҳарбий таълимда замонавий педагогика ва психологиянинг долзарб ёндашувнинг аҳамияти ва ўқитиш инновацион ечимлари.....	323
94. Sharapov Sh.A., Hozirgi zamon harbiy psixologiya fanining harbiy xizmatchilarni ahloqiy-ruhiy tayyorlashda tutgan o‘rni.....	327
95. Sharipov F.X., Motiv tushunchasi, uning sport faoliyatidagi roli va sporchilarning o‘zaro raqiblariga bo‘lgan munosabat motivlari.....	332
96. Sharopova D.I., Ibragimov S.B., Psixologik yordam ko‘rsatish va uning ta‘lim muassasalari qo‘llanilishining ayrim ilmiy-amaliy jihatlari.....	335
97. Soriyev X.Ya., Harbiy xizmatchilarni xalqqa xizmat qilish ruhida tarbiyalashda ofitser-o‘qituvchilar kompetentsiyasining ayrim jihatlari.....	338
98. Sultonov U.B., Harbiy rahbarda kasb motivlari namoyon bo‘lishi psixologik fenomen sifatida.....	342
99. Sultanov E.M., Harbiy xizmatchilarni jangovar harakatlarga tayyorlashda harbiy psixologiya fanining tutgan o‘rni.....	345
100. Sultanova I.E., Adabiyot fanini o‘qitishning uslubiyati bo‘yicha mulohazalar....	349
101. Zariyov O., Shaxs shakllanishida psixologik salomatlik mezonlarining ifodalanishi.....	352
102. Zarpullayev Sh.Z., Jizzax viloyatida iqtisodiy va ijtimoiy o‘zgarishlar: muammo va yechimlar.....	355
103. Temirova M., Xotira xususiyatlari va xotira haqidagi qarashlar.....	358
104. To‘ychiyev S.U., Yoshlarning vatanparvarlik tarbiyasida innovatsion talablar...	360
105. Turdiqulova L.Z., O‘smirlarda xulqiy og‘ishlarning kelib chiqishiga ta‘sir etuvchi omillar.....	363
106. Turg‘unboyeva D.A., Migratsion jarayonlarda huquqshunos va siyosatshunoslar nazariyasi.....	366
107. Туробова М.А., Психологияда ижтимоий таъсир масаласи, муомала техникаси ва стратегияси.....	368
108. Lotipov L.A., Oliy harbiy ta‘lim muassasalari kursantlarini tashkiliy va safarbarlik faoliyatiga tayyorlashing pedogogik shart-sharoitlari.....	373
109. Улуғов Ж.Н., Туркий давлат бошқаруви асослари.....	376

110. Umirzaqova L.Sh., Boshlang'ich sinf o'quvchilarining psixologik xususiyatlari.	380
111. Умрзоқова С.Х., Вопросы развития интеллектуальной компетентности студентов.....	382
112. Valiyeva M.S., Bo'lajak harbiy psixologlarning ijtimoiy intellektini tadqiq qilish masalalari.....	386
113. Хаитов Б.О., Одилов Н.М., Ҳарбий психологиянинг илмий-назарий асослари.....	389
114. Хо'janov Z.M., Ichki ishlar xodimlarida kasbiy saralash muammosining ijtimoiy-psixologik asoslari.....	394
115. Худайбердиева Х.К., Основные факторы, обеспечивающие развитие потенциала молодежи.....	397
116. Yakubov S.U., Ichki ishlar tizimi organi rahbarlarida shaxslararo munosabatlar shakllanishi psixologik fenomen sifatida.....	400
117. Yaqubov G'.S., "Harbiy ta'lim" tushunchasi va uning ta'lim tizimidagi o'rni....	402
118. Saidova D.I., Yoshlarda ijtimoiy qadriyatlarni rivojlantirishning pedagogik shartlari.....	405
119. Абдурахмонова З., Шахс ижтимоийлашувида саноген тафаккур ривожланишининг ахамияти.....	408
120. Исмаилова Г.Ж., Жалалова Х.А., Икрамлылыкқа тәрбиялаў жоллары.....	412
121. Yusupboev T.Z., Harbiy psixologiyaning ilmiy asoslari.....	414
121. Yusupov Q.D., Oilada yoshlar tarbiyasida odob-ahloq madaniyatini shakllantirish.....	417

HARBIY PSIXOLOGIYA: ZAMONAVIY YONDASHUVLAR, MUAMMOLAR VA TAKLIFLAR

*Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasining
ilmiy maqolalar to'plami*



Mas'ul muharrir:	mayor	Nabiyev S.A.
Nashr uchun mas'ullar:	QK xizmatchisi	Axmedov B.Sh.
	QK xizmatchisi	Pulatov B.U.
Компьютерда териш:	mayor	Rasulov B.N.

**140116. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari
kichik mutaxassislar tayyorlash markazi,
Samarqand shahri, Spitamenshoh ko'chasi, 56-uy.**

Bosishga ruxsat etildi 03.06. 2024 yil. Bichimi 60x84 1/16.
Times garniturası.
Ofset bosma usulida chop etildi.
Adadi: 30 nusxa.